



UDK: 152.26:796.83(045)

**Beknurjon ABDIHOLOQOV,**  
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi  
E-mail: beknurnasaf94@gmail.com

*Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor B.Jurayev taqrizi asosida*

### FUTBOLCHILARNI PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI MUAMMOSI NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Maqolada futbolchilarni psixologik tayyorgarligi muammosi nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Shuningdek sportchilarni musobaqaga psixologik tayyorlash jarayonida umumiy va maxsus psixologik tayyorgarligi hamda psixologik tayyorlash tizimida irodaviy sifatlarni rivojlantirish muammosi o'rganish lozimligi keltirilgan. Emotsional barqarorlik maxsus psixologik tayyorlash jarayoni asosi sifatida o'ziga xos afzalliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Maxsus psixologik tayyorgarlik, nazariy metodologiya, psixologik tahlil, irodaviy sifatlari, emotsional barqarorlik, qo'llab-quvvatlash dasturlari.

### ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ИГРОКОВ

Аннотация

В статье проанализированы теоретико-методические основы проблемы психологической подготовки игроков. Следует также изучить проблему общей и специальной психологической подготовки спортсменов в процессе психологической подготовки к соревнованиям и развития волевых качеств в системе психологической подготовки. Эмоциональная устойчивость как основа процесса специальной психологической подготовки представлена информация о ее конкретных преимуществах.

**Ключевые слова:** Специальная психологическая подготовка, теоретическая методика, психологический анализ, волевые качества, эмоциональная устойчивость, программы поддержки.

### THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE PROBLEM OF PSYCHOLOGICAL TRAINING OF PLAYERS

Annotation

The article analyzes the theoretical and methodological foundations of the problem of psychological training of players. Also, in the process of psychological training of athletes to the competition, it is necessary to study the problem of developing volitional qualities in the system of psychological training of general and special psychological training. Emotional stability as the basis of a special psychological training process, information is presented about its specific advantages.

**Key words:** Special psychological training, theoretical methodology, psychological analysis, volitional qualities, emotional stability, support programs.

**Kirish.** Jahonda futbol sport turi bo'yicha raqobatning kuchayib borayotganligi, shuningdek, musobaqada yuqori natijaga erishish uchun kuchli jismoniy va psixologik tayyorgarlikning zarur ekanligi, sportchilarni mashg'ulotlar jarayonida musobaqaga maxsus psixologik tayyorgarligini ta'minlash hamda psixodiagnostik usullarini qo'llashni talab etadi. Futbolchilarni maxsus psixologik tayyorlash jarayoni sportchi shaxsining motivatsion va emotsional-irodaviy sohasi bilan bog'liq bo'lib, ushbu jihatlarni tadqiq etish hamda rivojlantirish musobaqada natijaga erishishning asosi hisoblanadi. Futbol sport turlari orasida eng yuqori o'rinlarda turishi, hissiyotlarga boy o'yin va natijalari bilan millionlab ishqibozlarga ega ekanligi jahon sport xabarlarida bir necha bor keltirgan bo'lib, bu futbolchilarni musobaqaga maxsus tayyorlash zarur ekanligini ko'rsatadi[1].

Respublikamizda futbol musobaqalariga bo'lgan qiziqishning keskin oshib borayotganligi, futbolchilardan doimo g'alabaga intilish va erishishni talab qilmoqda. G'alabaga erishish esa sportchilarning maxsus psixologik tayyorgarligi bilan uzviy bog'liq ekanligi o'z isbotini topib bormoqda. Maxsus psixologik tayyorgarlik jarayoni sportchilarni musobqadan oldin emotsional so'nish holatining oldini olish, qiyin vaziyatlarda irodasini namoyon etish hamda g'alabaga erishish masalasida muhim ahamiyatga ega ekanligi namoyon bo'lmoqda. Shu sababli futbolchilarning maxsus

psixologik tayyorgarligini o'rganish uchun psixodiagnostik usullarini qo'llashni va takomillashtirish zarur ekanligi kuzatilmoqda[2].

Psixologik tayyorgarlikning umumiy maqsadi sportchining sportda yuqori darajadagi yutuqlarga erishishi uchun zarur bo'lgan psixik sifatlarni rivojlantirish, unda psixik barqarorlik va mas'uliyatli musobaqalarda ishtirok etishga tayyorlik holatini qaror toptirishdan iboratdir. Biroq sportchini psixologik tayyorlashning maqsadli yo'nalishi faqatgina shundan iborat emas. Uning oldiga jahon sport rekordlarini o'rnatish uchun shart- sharoitlar yaratish, sport iste'dodlarini yetishtirish yo'llarini izlash va shu kabi yana bir qator maqsadlar ham qo'yilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Z.G.Gapparovning aytishicha, sportchini umumiy psixologik tayyorlash va sportchini muayyan musobaqaga psixologik tayyorlash kabi turlari farqlanadi[3].Psixologik tayyorgarlikning har ikkala bo'limi ham o'ziga xos vazifalarga ega, biroq ularning hal etilishi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Umumiy psixologik tayyorgarlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1.Sportchi shaxsining ijobiy xususiyatlarini shakllantirish va o'stirish;

2.Sporchining bilishga oid psixik jarayonlarini yuqori darajada rivojlantirish.

3. Sportga oid his-tuyg'ularni kengaytirish va chuqurlashtirish ularni boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish;

4. Sportchining irodasini mustahkamlash, uni irodaviy zo'riqishini safarbar etishga o'rgatish;

5. Barcha psixik funksiyalarni ongli ravishda boshqarish usullari bilan qurollantirish;

6. O'z harakatlari va faoliyati, shuningdek organizmning funksiyalarini ongli ravishda boshqarish darajasini oshirish;

7. Sportchilar jamoasida ijobiy "psixologik iqlim"ni yaratish.

Sportdagi psixologik tayyorgarlikning yuqorida tilga olingan vazifalari sportchilarni tayyorlashdagi bu murakkab jarayonlarga xos imkoniyatlarning barchasini qamrab olmaydi, balki umumiy psixologik tayyorgarlikning asosiy tendensiyasini ifodalaydi.

A. Rodionov [4] psixologik tayyorgarlikni uch turini ajratadi:

1. Umumiy psixologik tayyorgarlik;
2. Musobaqaga maxsus psixologik tayyorgarlik;
3. Ma'lum musobaqa jarayonida salbiy ta'sirlardan psixologik himoyalash.

Umumiy psixologik tayyorgarlik umumiy ko'rinishda sportchining yuklamalarga psixik moslashuvini optimallashtirishni namoyon etadi.

Umumiy psixologik tayyorgarlik ikki usul bilan amalga oshiriladi:

ekstremal sharoitdagi faoliyatga shaxs psixik tayyorligini ta'minlovchi universal usullarni sportchiga o'rgatish: Samarali faoliyatni ta'minlovchi faollik darajasi, o'z emotsional holatini boshqarish usullari, diqqat konsentratsiyasi va taqsimlanishini ta'minlovchi maksimal irodaviy va jismoniy zo'r berishni mobilizatsiyalash usullari

So'z-obraz meodellari vositasida jangovor musobaqa sharoitini modellashtirish usullarini o'rgatish.

Maxsus psixologik tayyorgarlik sportchini samarali musobaqa faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirishga yo'nalgan. Bunda quyidagi vazifalarni yechishga qaratiladi:

sportchi uchun muhim bo'lgan sotsial qadriyatlarga yo'nalganlik;

sportchida psixik "ichki tayanch"ni shakllantirish; psixik baryerlarni, ayniqsa ma'lum raqib bilan kurashda paydo bo'luvchi, yengish;

oldindagi jang sharoitini psixologik modellashtirish;

bevosita jangdan oldin hirakatning psixologik programmasini yaratish.

Sportchilarni psixologik tayyorgarlik vositalari mavjud bo'lib unga psixologik mashqlar, psixologik ta'sir o'tkazish, o'z-o'zini anglash, o'z-uzini tarbiyalash va o'z-o'zini takomillashtirish kiradi.

V.N. Shlyapnikovaning ta'kidicha, irodali sifatlar muammosini o'rganish keng qamrovli tadqiqot sanalib, u umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi va boshqa sohalararo ma'lumotlar sintezini talab qiladi [5]. Demak, irodaviy sifatlarini tadqiq etish bir yoqlama yondashuvni emas, balki psixologiyaning sohalararo ma'lumotlar integratsiyasiga tayanishi lozim. Chunki irodaviy sifatlar faqat ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakatlar bilan xarakterlanib qolmasdan, u hissiy o'z-o'zini boshqarish va nazorat qila olish ko'nikmalari bilan uzviy bog'liq sanaladi.

S.K. Bagadirova boshqalardan farqli o'laroq, sportchilarning qaysi sport turi bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, sportchi - sportchilar o'rtasida ixtiyoriy faoliyat uslubini o'rgangan. Muallif irodaning asosiy vazifalariga mos keladigan, irodaviy faoliyatning har xil uslublarini aniqlagan [6]:

- rag'batlantirish;
- tartibga solish;
- cheklash.

Ushbu tasnifga muvofiq, ixtiyoriy faoliyat uslublari asab tizimining xususiyatlari va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi munosabatlarga vositachilik qilib, sport faoliyati sharoitlariga eng oson moslashishga yordam beradi.

Ma'lumki, sportning hozirgi rivojlanish bosqichida dunyoning turli mamlakatlarida futbol o'yini yoshlar orasida tobora ommalashib bormoqda. Bizningcha, har qanday sport o'smir sportchilar shaxsidan o'ziga xos jismoniy va psixologik tayyorgarlikni talab etishi tabiiydir. Futbol o'yini hozirgi kunda o'smirlar orasida keng tarqalgan sport o'yinlaridan biri bo'lib, u yosh sportchilardan o'ziga xos jismoniy faollik, jamoaviylik, kuchlilik, taktik moslashuvchanlik, o'z harakatlarini tez muvofiqlashtira olish, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik, ritmik hamda hissiy-irodaviy barqarorlikni talab etuvchi jamoaviy sport turidir. Shu bois, yosh sportchilarning taktik, psixologik va funksional tayyorgarlik holatiga kengroq e'tibor qaratiladi. YE.N. Gogunovning so'zlariga ko'ra, irodaviy sifatlar - sportda inson harakatlarini psixofizik tartibga solishning mexanizmi sanalib, u murakkab vaziyatlarni yengish jarayonida namoyon bo'luvchi shaxs xususiyatlaridan biridir [7]. Sportda irodaviy sifatlarining namoyon bo'lishi nafaqat muvaffaqiyatga intilish, muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik, balki insonda shakllangan axloqiy munosabatlarning shakllanganligi bilan ham tushuntiriladi. Hozirgi kunda, o'smir sportchilarni irodaviy jihatdan tayyorlash ishlari dolzarb ahamiyat kasb etib qolmasdan, uni yanada rivojlantirish talab etilmoqda.

O'smir sportchilar faoliyati uchun zarur bo'lgan, irodaviy sifatlar majmui sifatida o'zini o'zi nazorat qilish, o'z his-tuyg'ulari va harakatlarini boshqara olish qobiliyati, qat'iylilik, jasoratlilik, tashabbuskorlik va mustaqillik, maqsadga yo'nalganlik, stressga bardoshlilik, o'z o'stida ishlash qobiliyati, chidamlilik kabilarni misol qilish mumkin. O'smir sportchilarda muvaffaqiyatni ta'minlovchi irodaviy sifatlar sport mashg'ulotlarida murakkab mashqlarni bajarish orqali shakllantiriladi. Ammo o'smirlar yoshida sabr-toqat, maqsadga muvofiqlik, qat'iylilik, emotsional barqarorlik kabi sifatlarini shakllantirish biroz mushkul ishdur. Buning uchun, maxsus psixologik o'yinlar, sport o'yinlari, darsdan tashqari mashg'ulotlar, pedagogik vositalar kabilardan keng miqyosda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Psixologik tayyorgarlik sportchi uchun o'ta muhim bo'lgan psixik sifatlar va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishning tabiiy jarayonlarini tezlashtirishga ko'maklashadi. Psixologik tayyorgarlikning usul va vositalarini qo'llash sportchida mustaqil ravishda o'z irodasini tarbiyalash, faol ravishda takomillashib borish tuyg'ularini shakllantirib, uni musobaqalashuv faoliyatining ekstremal sharoitlarida o'z psixik holatini ongli ravishda boshqarishga o'rgatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги 03.11.2020 йилдаги ПҚ-4877-сон Қарори. <https://lex.uz/>
2. <https://bleacherreport.com/articles/1473059-20-reasons-why-world-football-is-the-best-sport-in-the-world>
3. Гаппаров З.Г. "Спорт психологияси" Т.2011. 24 бет

- 
4. Родионов А.В. Психология физического воспитания и спорта – М., 2004
  5. Шляпников В.Н. Исследования волевой регуляции в современной зарубежной психологии // Вопросы психологии 2009. – № 2. С. 135 – 144
  6. Багадирва С. К. Материалы к курсу «Спортивная психология»: учебное пособие / С. К. Багадирова. - Майкоп: Изд-во «Магарин О. Г.», 2014. – 243 с.
  7. Ассаджиоли Р. Психосинтез. теория и практика. От душевного кризиса к высшему «я». – М., 1994. –314 с.



*Sirojiddin ABDUVOITOV,*  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil izlanuvchisi*  
*E-mail: sirojiddinabduvoitov@gmail.com*

*O'zbekiston XIA Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti dekani, PhD H. Sadibaqosev taqrizi asosida*

## TURKIYA TASHQI SIYOSATI SHAKLLANISHINING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Аннотация

XXI asr boshlarida Erdog'an boshchiligidagi "Adolat va taraqqiyot partiyasi"ning hukumat tepasiga kelishi tufayli Turkiya davlatining madaniy, tarixiy va geografik xususiyatlarini, shuningdek, zamonaviy geosiyosiy voqelikni hisobga olgan holda mamlakat tashqi siyosati ham sezilarli darajada isloh qilindi. "Adolat va taraqqiyot partiyasi" hukmronligi davrida Turkiyaning tashqi siyosatida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Turkiya XX asrning ikkinchi yarmiga qaraganda milliy manfaatlariga ko'proq e'tibor bera boshladi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasi jarayonida Turkiya Respublikasining tashqi siyosati ham ichki, ham tashqi omillar ta'sirida shakllanib, aniq belgilangan ko'p vektorli xususiyatga ega bo'lib bormoqda. Ushbu maqolada zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Turkiya tashqi siyosatining yo'nalishlari ilmiy tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** Turkiya, xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, ichki siyosat, dunyo tartiboti, neousmonizm, mafkura, doktrina, Usmonlilar, Markaziy Osiyo.

## СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ

Аннотация

В начале XXI века, в связи с приходом к власти «Партии справедливости и развития» во главе с Эрдоганом, внешняя политика страны была существенно реформирована с учетом культурно-исторических и географических особенностей турецкого государства, а также современной геополитической реальности. За время правления «Партии справедливости и развития» во внешней политике Турции произошли серьезные изменения. Турция стала уделять больше внимания национальным интересам, чем во второй половине XX века. В ходе трансформации современных международных отношений внешняя политика Турецкой Республики формируется под влиянием как внутренних, так и внешних факторов и приобретает четко выраженную многовекторность. В данной статье были научно проанализированы направления внешней политики Турции в системе современных международных отношений.

**Ключевые слова:** Турция, международные отношения, внешняя политика, внутренняя политика, мировой порядок, неосманнизм, идеология, доктрина, османы, Центральная Азия.

## MODERN DIRECTIONS OF FORMATION OF TURKEY'S FOREIGN POLICY

Annotation

At the beginning of the 21st century, due to the coming to power of the "Justice and Development Party" led by Erdogan, the country's foreign policy was significantly reformed, taking into account the cultural, historical and geographical features of the Turkish state, as well as the modern geopolitical reality. During the rule of the "Justice and Development Party", significant changes took place in Turkey's foreign policy. Turkey began to pay more attention to national interests than in the second half of the 20th century. In the course of the transformation of modern international relations, the foreign policy of the Republic of Turkey is formed under the influence of both internal and external factors, and is becoming a clearly defined multi-vector feature. In this article, the directions of Turkey's foreign policy in the system of modern international relations were scientifically analyzed.

**Key words:** Türkiye, international relations, foreign policy, domestic policy, world order, neo-Ottomanism, ideology, doctrine, Ottomans, Central Asia.

**Kirish.** Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda xalqaro miqyosda murakkab vaziyat hukm surmoqda va dunyo prognoz qilish qiyin bo'lgan va hatto oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlarni keltirib chiqaradigan fundamental transformatsiyalarni boshidan kechirmoqda. Bundan tashqari, jahon sahnasida o'zaro ishonch va bir-birini tushunish inqirozi keskin sezilmoqda. Global va mintaqaviy xavfsizlikka qarshi tahdidlar tobora kuchaymoqda va yangi xavf-xatarlar vujudga kelmoqda. Shu munosabat bilan zamonaviy xalqaro munosabatlarda sodir bo'layotgan transformatsiya jarayonlarini ilmiy tahlil qilish har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega.

Turkiyada "Adolat va Taraqqiyot partiyasi" hokimiyatga kelganidan keyin Anqaraning tashqi siyosatida sezilarli darajada o'zgarishlar yuz berdi. Mazkur partiyaning hokimiyat tepasiga kelishi, mamlakat tashqi siyosatining

ustuvor yo'nalishlarini o'zgartirib yubordi va davlatning milliy manfaatlarini yanada aniq belgiladi. Turkiya "Adolat va taraqqiyot" partiyasi hukmronligi davrida qo'shni mintaqalar bilan, jumladan, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan "yumshoq kuch" siyosati orqali o'zaro hamkorlik qilib, faol mintaqaviy tashqi siyosat olib bormoqda.

Albatta, Anqara tashqi siyosatida ma'lum darajada diversifikatsiya kuzatildi, bu esa Amerikaning mintaqadagi kichik hamkori pozitsiyasidan uzoqlashishini bildirmoqda va sharqiy davlatlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlashga harakat qilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Maqolada Turkiya va Rossiyaning nufuzli tadqiqot markazlari, universitetlari, yetakchi olimlarning tadqiqotlari xususan, Aydin M., Ersanli B., Irkin A., Moskalenko O. Landau J., Nye J., Avatkov V. A., Vasiliyev A. D., Drujilovskiy S. B.,

Xutorskaya V. V., Martinov V. L., Sazonova I. Ye. va boshqa xorijlik olimlarning ilmiy ishlari kitob, maqola va tezislari tahlil qilingan va o'rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasida Turkiya Respublikasi tashqi siyosatini o'rganishning nazariy va metodologik asosini zamonaviy siyosatshunoslik metodlari, xususan, nazariy, empirik va amaliy metodlar tashkil etadi. Muallif, umumiy ilmiy metodlarga – tahlil va sintez, deduksiya va induksiya amal qilgan. Bundan tashqari, nazariy metodlar orasida tizimli, institutsional va qiyosiy tahlil kabi metodlar ham ustuvor ahamiyatga ega. Mazkur maqolada tizimli tahlil metodi – zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining transformatsiyasida Turkiya tashqi siyosatini o'rganishda yordam beradi.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasida Turkiya jahon hamjamiyati oldida o'zining faol tashqi siyosatini yuritmoqda. Albatta, har bir davlatda bo'lgani kabi, Turkiyada ham tashqi siyosat davlatning milliy manfaatlaridan kelib chiqib yuritiladi. Tashqi siyosatning asosini esa mafkura va g'oyalarga tashkil qiladi. Turkiya Respublikasining zamonaviy tashqi siyosatida belgilangan maqsadlarga erishishning eng samarali, tasdiqlangan va tan olingan mexanizmi XX-asr oxiridan beri qo'llanilayotgan “yumshoq kuch” atamasidir. Shubhasiz, XXI-asrda aynan “yumshoq kuch” siyosatidan foydalanish nafaqat mamlakat farovonligini, balki uning xavfsizligini, iqtisodiy manfaatlarini, tashqi siyosiy imijini, shuningdek, xalqaro nufuzini oshirishni ham ta'minlamoqda.

Demak, jahonning siyosiy manzarasi so'nggi paytlarda o'ziga xos tarzda transformatsiya bo'lmoqda, zamonaviy xalqaro munosabatlarda mamlakatlar o'z milliy manfaatlarini ilgari surish maqsadida “qattiq kuch” (hard power)ga qaraganda “yumshoq kuch” (soft power) nazariyasidan foydalanishga harakat qilishmoqda. Hozirda jahon siyosatining ilmiy doira vakillarida “soft power” ya'ni “yumshoq kuch” [5] katta qiziqish uyg'otmoqda.

“Yumshoq kuch” ya'ni, “Soft power” atamasining kelib chiqishi, tarixda qadimgi Xitoylik Lao-szi yozma manbasida, o'rta asrlarda Antonio Gramshi asarida ilk bor uchraydi. Zamonaviy davrda esa bu atamani muomalaga Jozef Nay kiritgan bo'lib, u o'zining birqancha ilmiy tadqiqot ishlarida “yumshoq kuch”ning nazariy jihatlarini tushuntirib berishga harakat qilgan. J.Nay o'z kitobida “soft power”ga quyidagicha ta'rif bergan: “yumshoq kuch o'zi nima? “yumshoq kuch” – bu majburlash vositalaridan foydalanilmasdan, aksincha, ittifoqchi va hamkorlarni ixtiyoriy ravishda o'ziga jalb etish orqali, ko'zlangan natijalarga erishishdir. Ko'zlangan natijaga esa avvalo, ma'naviy va moddiy madaniyatni rivojlantirish, tashqi va ichki siyosat samaradorligini oshirish orqali erishish mumkin [3].

Bizga ma'lumki, “qattiq kuch” (hard power) bosim va zo'ravonlik asosida siyosat o'rnatishga harakat qiladi (harbiy kuch yoki iqtisodiy resurslar yordamida). Bundan farqli ravishda, soft power ning samarali ta'rafi esa ommaviy axborot vositalari orqali turli ma'lumotlarni tarqatish orqali shakllantiriladi. Demak, “qattiq kuch” hard power ham, “yumshoq kuch” soft power ham ma'lum ma'noda umumiy strategiyaga ega, biroq, ushbu strategiyani amalga oshirish taktikalari ularning har biri uchun o'ziga xos xususiyatga ega.

Turkiya “yumshoq kuch”ining faol qo'llanilishi Ahmet Dovuto'g'luning tashqi ishlar vaziri etib tayinlangandan so'ng aniq maqsadga ega bo'ldi, desak xato qilmaymiz. Albatta, aynan Dovuto'g'lu sobiq Usmoniylar imperiyasi hududlariga kiritilgan Yaqin Sharq, Kavkaz, Bolqon, Shimoliy Afrika, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar bilan va qardosh Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan nafaqat siyosiy-iqtisodiy, balki madaniy-gumanitar sohalarida ham

keng hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy Turkiya uchun muhim ekanini ta'kidlagan. Binobarin, uning mazkur qarashlari va siyosati keyinchalik, Turkiya tashqi siyosati konsepsiyasida ham o'z ifodasini topgan.

Turkiya Respublikasi paydo bo'lganidan buyon, Turkiya tashqi siyosatining asosini Mustafo Kamol Otaturk tomonidan 1923-1938 yillarda shakllantirilgan tashqi siyosat doktrinasini tashkil qiladi. Yillar davomida Turkiya o'zining xalqaro maydondagi faoliyatida Otaturk tomonidan belgilab berilgan tashqi siyosatdan keng foydalandi.

Keyinchalik, Turkiya tashqi siyosatida bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, hukumat tepasiga Adolat va taraqqiyot partiyasi kelganidan so'ng, mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo'nalishi respublikagacha bo'lgan davridagi g'oyalarga asoslandi. Natijada, usmonizm, panturkizm va panislomizm kabi g'oyalarning yangicha ko'rinishlari paydo bo'ldi. Ammo, Turkiya tashqi siyosati bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan ko'plab mutaxassislarning fikricha, Turkiya tashqi siyosatining yo'nalishi Respublika paydo bo'lganidan buyon, bir necha marotaba transformatsiya bo'lgan bo'lsada, lekin tub o'zgarishlar sodir bo'lmaganini ta'kidlashmoqda [9].

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining transformatsiyaga uchrashi va dunyodagi asosiy davlatlar rolining o'zgarishi, ko'pgina mamlakatlarning ichki va tashqi siyosat yo'nalishini qaytadan ko'rib chiqishini taqazo etmoqda. Turkiyada ham tashqi siyosat strategiyasi to'xtab qolmadi, balki doimiy rivojlanib bordi va ko'rib turganimizdek, bugungi kunda Turkiya Respublikasi Yaqin Sharq mintaqasida asosiy kuch markazlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ana shunday g'oyalardan yana biri Turkiyaning sobiq tashqi ishlar vaziri va bosh vaziri bo'lgan Ahmet Dovuto'g'li tomonidan taklif qilingan “Qo'shnilar bilan nol muammo” doktrinasini keltirishimiz mumkin. Doktrina 2008-yilda qabul qilingan va uzoq vaqtdan beri Turkiyaning tashqi siyosiy faoliyatida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan [2]. Ushbu doktrina avvalo tinchlik va adolat tamoyiliga asoslangan bo'lib, turk idealizmining butun mohiyatini o'zida aks ettirar edi. Asosiy g'oya esa tinchlikparvar tashqi siyosat olib borish edi va mazkur ta'limot Otaturkning “Yurtda tinchlik, dunyoda tinchlik” degan asosiy shioriga to'g'ri keldi. Doktrinaga binoan, Turkiya Yaqin Sharq davlatlari bilan o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalar o'rnatishga e'tibor qaratdi. O'sha paytdayoq, Turkiya Respublikasi Yaqin Sharqda barqarorlikni ta'minlash uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorligini e'lon qilgan edi. Ammo, Turkiyaning bu kabi bayonotlari mintaqada ham, mintaqaviy makondan tashqarida ham yetakchilik maqomini olish istagi borligi bilan izohlandi. Ahmet Dovuto'g'li “Qo'shnilar bilan nol muammo” konsepsiyasi ishlab chiqilishidan oldin nashr etilgan “Strategik chuqurlik” asarida davlatni to'rt turga ajratdi va kamolizm siyosati Turkiyaning xalqaro maydondagi faol pozitsiyasiga ta'sir ko'rsatdi deb hisobladi. Uning fikricha, ushbu siyosat mamlakatni jahon hamjamiyati oldida “kichik davlat” maqomiga yetaklayotganini bildirar edi va bu esa o'z navbatida Turkiyadek ulkan salohiyatga ega Respublika kelajagiga zid edi [8]. Bunday bayonotlardan so'ng, Turkiya tashqi siyosatda qaysi yo'nalishda harakat qilishini taxmin qilish qiyin emas edi. “Qo'shnilar bilan nol muammo” doktrinasining rasmiy qabul qilinishi bu taxminlarni tasdiqladi va mamlakat tashqi siyosatida transformatsiya jarayonlarining mantiqiy davomi bo'ldi.

Hozirgi vaqtda Turkiyaning tashqi siyosat yo'nalishi ushbu konsepsiyadan ancha uzoqlashdi. Buning tasdig'i sifatida, davlat rahbariyati tomonidan Iroq va Suriyada amalga oshirilayotgan harakatlarni misol qilsak bo'ladi. Aftidan, Anqara yangi konsepsiyalar ishlab chiqarish uchun katta resurs sarflash o'rniga, yillar davomida shakllanib kelgan

qoidalarni tashqi siyosat faoliyatining asosi sifatida qabul qilishni ma'qul ko'rmoqda [7].

Umuman olganda, Turkiya Respublikasining zamonaviy tashqi siyosat yo'nalishi, birinchi navbatda, bipolyar tizimdan ko'p qutbli dunyo tizimiga o'tish bilan bog'liq bo'lgan global geosiyosiy o'zgarishlar ta'sirida shakllandi, ammo, ayni paytda o'zining sivilizatsiyaviy o'ziga xosligini saqlab qoldi.

Mamlakat tashqi siyosat yo'nalishini yangi bosqichga olib chiqadigan, aholining turli qatlamlarini o'zida birlashtira oladigan, turk xalqini yana bir bor buyuk, hamjihat va yengilmas bir millat sifatida xalqaro maydonda namoyon qila oladigan kuchli shaxsga muhtoj edi. Ana shunday paytda, hokimiyat tepasiga Rejep Tayyip Erdog'andek kuchli siyosatchi keladi. U Adolat va Taraqqiyot partiyasi (ATP)ning yetakchisi bo'lib, mamlakatda yuqorida ta'kidlangan xususiyatlarga javob beradigan tizim yaratadi. Bundan tashqari, ATP turli turk jamiyatlarini qamrab oladigan va barcha sohalarni jipslashtira oladigan mamlakat taraqqiyoti uchun aniq va samarali dasturlar ishlab chiqdi. Qolaversa, R.T.Erdog'an mamlakatda yangi g'arb taraqqiyot modelini ishlab chiqdi hamda islomiy qadriyatlarni tiklashga muvaffaq bo'ldi, bu esa o'z navbatida mamlakatdagi saylovchilarning keng doirasi tomonidan qo'llab-quvvatlandi [6]. Erdog'an Turkiya bosh vaziri bo'lgan davrda mamlakat taraqqiyoti uchun bir nechta maqsad va vazifalarni o'z ichiga olgan "Tasavvur – 2023" nomli yangi yo'l xaritasini ishlab chiqdi. Ushbu dasturda, Turkiyaning o'ziga xos salohiyatidan kelib chiqib, dunyodagi o'z o'rnini va rolini qayta ko'rib chiqishga qaratilgan yangi tashqi siyosat ishlab chiqish kerakligi qayd etilgan. Bundan tashqari, Turkiya tashqi siyosat bo'yicha yangi maqsadlar belgilagan edi. Ushbu maqsad va vazifalar 2023-yilgacha bajarilishi kerak edi. Turkiyaning sobiq bosh vaziri Ahmet Dovuto'g'li tomonidan shakllantirilgan Turkiya tashqi siyosatining maqsadlari va qarashlari quyidagilar edi:

Turkiya Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib, 2023-yilgacha Yevropa Ittifoqining nufuzli a'zo davlatiga aylanish;

Turkiya xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik shaklida mintaqaviy integratsiyani davom ettirish;

Mintaqaviy mojarolarni hal qilishda muhim rol o'ynash;

Turkiya xalqaro miqyosda faol ishtirok etish;

Turkiya xalqaro maydonda hal qiluvchi rol o'ynashi va Turkiya jahondagi eng yirik iqtisodiyotga ega davlatlar o'ntaligiga kirishi kerak. Bunga erishish uchun Turkiya har tomonlama va har sohada olg'a siljishi, global barqarorlik bilan bog'liq har bir masalaga qiziqish bildirishi va munosib hissa qo'shishi kerak [4].

Bizning fikrimizcha, Turkiya tashqi siyosat bo'yicha belgilangan maqsadlarni qaysidir ma'noda amalga oshirayotganini ko'rmoqdamiz. Xususan, 2022-yilning 24-fevralida Rossianing Ukraina hududiga kirishi mavjud dunyo tartibotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. "Maxsus harbiy operatsiya", "natsizmga qarshi kurash" kabi shiorlar vaqt o'tib keng mojaroga aylanib ketdi. 2023-yil 31-martda BMT Inson

huquqlari Kengashining 52-sessiyasi doirasida Ukraina bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda Rossianing Ukrainaga bosqini oqibatida 8400 tinch aholi qurbon bo'lganini ma'lum qildi [1]. Ushbu urush natijasida jahonda oziq-ovqat, energiya, o'g'it va boshqa zarur tovarlar narxining keskin oshishiga sabab bo'ldi, bu esa barcha hududlarda keskinlik va tengsizlikning kuchayishiga olib keldi. Shunday vaziyatda, Turkiya ikki davlat o'rtasidagi ixtiloflarni tinch yo'l bilan hal qilish uchun o'z sa'yi-harakatlarni boshladi. Bundan tashqari, Turkiya tashabbusi bilan Ukraina g'allasini eksport qilish bo'yicha kelishuvlar 2022-yil 22-iyulda Istanbul shahrida tomonlarning e'tirozlari bo'lmasa, avtomatik ravishda uzaytirish imkoniyati bilan 120 kun muddatga tuzildi. Hujjatlar BMT va Turkiya tomonidan Rossiya va Ukraina bilan alohida imzolandi. Binobarin, BMT Bosh huquq himoyachisi Qora dengiz don tashabbusining muhimligini qayd etdi. Turkiyaning ushbu sa'yi-harakatlari dunyoda global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga, birinchi navbatda, eng muhtoj davlatlarga yordam berishga imkon berdi.

**Xulosa va takliflar.** Hozirgi vaqtda Turkiya Respublikasi o'zining neousmonizm va neopanturkizm mafkuralariga sodiq qolmoqda. Shu maqsadda, Turkiya Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya Federatsiyasining turkiyzabon mintaqalari bilan keng qamrovli strategik hamkorlikni rivojlantirmoqda. Ammo, ushbu munosabatlar ko'plab yirik davlatlar manfaatiga to'g'ri kelmayotgani Turkiya va turkiy xalqlar o'rtasidagi munosabatlarga ma'lum bir ma'noda to'siq bo'lmoqda. Masalan, Rossiyada, Rossiya imperiyasi davridan beri "panturkizm g'oyasi mamlakat uchun xavf tug'diradi va millatchilikni rivojlantiradi", degan qarash mavjud va hozirgacha ushbu xulosaga sodiq qolishmoqda.

Darhaqiqat, Turkiya tashqi siyosatida turkiy xalqlarni birlashtirish g'oyasi ham yo'q emas. Xususan, bunday g'oya iqtisodiy, gumanitar, "yumshoq kuch" siyosati orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, davlatlararo muloqotlar, tashriflar, siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarning rivojlanishi, Turk madaniy markazlar, ta'lim dasturlar, o'quv markazlarning paydo bo'lishi va Turkiy davlatlar tashkilotining paydo bo'lishi va rivojlanishi fikrimiz dalilidir.

Bundan tashqari, Turkiya hozirgi paytda yuqorida qayd etilgan mafkuralarga tayanib, Yaqin Sharq mintaqasi va Afrika qit'asi mamlakatlariga ham o'z ta'sir doirasini kengaytirmoqda. Bu Turkiya tashqi siyosatidagi "yevrosiyolik" tushunchasi bo'lib, Markaziy Osiyo, Kavkaz davlatlari va xalqlari bilan, shuningdek, Rossiya va Xitoy bilan ham faol siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Xullas, bizning fikrimizcha, Turkiya tashqi siyosatini mafkuraviy va qadriyat sohalari bo'yicha ham global tendensiyalar bilan bog'liq holda, ham Turkiyadagi siyosiy rejimning o'zgarishi bilan bog'liq holda o'rganish metodologik jihatdan to'g'ri deb hisoblaymiz. Shunga ko'ra, xalqaro munosabatlarning zamonaviy transformatsion tizimida Turkiya Respublikasining tashqi siyosiy yo'nalishini o'rganishning asosiy metodologik jihatlari shakllandi.

#### ADABIYOTLAR

1. BMT Ukrainadagi urushda qancha tinch aholi halok bo'lganini ma'lum qildi. <https://www.qalampir.uz/uz/news/bmt-ukrainadagi-urushda-k-ancha-tinch-a-%D2%B3oli-%D2%B3alok-bulganini-ma-lum-k-ildi-80079>
2. Irkhin A., Moskalenko O. Russia's Foreign Policy in the Great Mediterranean: Prospects and Constraints // *Geopolitics Quarterly*. 2020. Vol. 15. № 4. P. 116.
3. Nye J. *Soft Power. The Means to Success in World Politics*. - New York: Public Affairs, 2004. – P.192.
4. Turkey's Strategic Vision 2023 Project [Электронный ресурс] // AK Parti. URL: <https://www.ak-parti.org.tr/parti/2023-siyasi-vizyon/>
5. Yumshoq kuch (ingliz tilida "Soft power" odatda "yumshoq kuch" deb tarjima qilinadi, mazkur atama muallifi Jozef Nay hisoblanadi. Olim tomonidan ilk marta "yumshoq hokimiyat" (мягкая сила) degan qarashni ilgari suradi) <https://books.google.com/books?id=wuQAAAAAAAJ>

6. Мартынов В. Л., Сазонова И. Е. Турция между Западом и Востоком [Электронный ресурс] // Василий Львович Мартынов. URL: [http://lwowich.ucoz.ru/statja\\_pro\\_turcija.pdf](http://lwowich.ucoz.ru/statja_pro_turcija.pdf)
7. Михеева Н.М. Внешнеполитическая идеология Турции: текущие тенденции и перспективы развития // Турция: новые реалии во внутренней политике и участие в региональных геополитических процессах. Под. ред. В.А. Аваткова, С.Б. Дружиловского, А.В. Федорченко. М.: МГИМО-Университет, 2014. С. 99.
8. Ноль проблем с соседями. Как Турция превратилась из «совести Ближнего Востока» в страну-отшельницу [Электронный ресурс] // Международный дискуссионный клуб «Валдай». Режим доступа: <http://ru.valdaiclub.com/a/highlights/nol-problem-s-sosedyami-turtsiya/>
9. Шлыков П. Политика и экономика «турецкого потока»: интересы расчёты Анкары // Европейская безопасность: события, оценки, прогнозы. 2015. № 37. С. 2–5.



*Nargiza ABDULLAYEVA,*  
*Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*  
*E-mail: abdullayevanargiza8007gmail.com*

*Qo'qon DPI katta o'qituvchisi, PhD A. Kamolov taqrizi asosida*

## MATEMATIKANI O'QITISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Annotsatsiya

Mazkur maqolada matematika ta'limi jarayonida boshlang'ich sinif o'quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishning ta'lim amaliyotidagi holatini o'rganish, xususan, matematika darsliklari mazmunida qo'llanilgan savollar tizimini tahlil qilish, tadqiqot mavzusiga oid muammo va ziddiyatlarni aniqlash maqsad qilib olindi.

**Kalit so'zlar:** Metodika, kreativlik, malaka, an'anaviy, ko'nikma, tafakkur, kompetensiya, kreativ faoliyat, subyektiv.

## CONTENT OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN THE TEACHING OF MATHEMATICS

Annotation

This article aims to study the state of the development of creative activity in primary school students in educational practice in the process of mathematics education, in particular, to analyze the system of questions applied in the content of Mathematics textbooks, to identify problems and contradictions related to the topic of research.

**Key words:** Methodology, creativity, competence, traditional, skills, thinking, competence, creative activity, subjective.

## СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ

Аннотация

В данной статье поставлена цель изучить состояние в образовательной практике развития творческой деятельности у учащихся начальных классов в процессе математического образования, в частности, проанализировать систему вопросов, используемых в содержании учебников по математике, выявить проблемы и противоречия, связанные с предметом исследования.

**Ключевые слова:** Методология, креативность, компетентность, традиционный, навыки, мышление, компетентность, творческая деятельность, субъективный.

**Kirish.** Jahon mamlakatlaridagi ilg'or ta'lim tizimlarining tahlillari shuni ko'rsatadiki, uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uni tashkil etish shart-sharoitlari va metodlarini zamonaviy talablar asosida transformatsiya qilish, XXI asr ko'nikmalaridan biri sifatida e'tirof etiladigan kreativ fikrlash – yangi yondashuvlarni qo'llash, innovatsion yechimlarni izlab topish, yangiliklarga bo'lgan qiziqishlarni o'quvchilarda shakllantirish yanada dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim tizimida boshlang'ich ta'limga, jumladan boshlang'ich matematika ta'limiga, uning shaxs rivojlanishidagi ahamiyatiga alohida etibor qaralib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 17-maydagi PQ-4708-son qarori bilan ta'lim turlari o'rtasida matematika o'qitish sohasida yaxlit tizimni shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, fan bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirish hamda matematika o'qitish sifatini oshirish ustivor vazifalar sifatida belgilandi. Biroq, boshlang'ich ta'lim matematika kursining shaxs tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati va o'rnini inobatga olib, o'quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur zaruratga asosan, boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni muammolarga nisbatan yangi yechimlar va yondashuvlarga undovchi kreativ faoliyatini rivojlantirish metod, shakl va

vositalarini takomillashtirish tadqiqot muammosi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining turli jihatlarini mahalliy olimlardan M.Ahmedov, P.Ibragimov, N.Abdurahmonova, M.E.Jumayev, M.Ahmedov, N.U.Bikboyeva, E.Ya.Yangiboyeva, E.E.Jumayev, Z.G.Tadjiyeva, M.J.Saidova, F.M.Kasimovlar tomonidan o'rganilgan [7]. Shuningdek, umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning kreativ fikrlashlarini, kompetensiyalarini, qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik, metodik jihatlarini T.T.Kazieva, Sh.X.Pozilova, M.A.Tilakova, R.Yu.Musinova, G.N.Ibragimova, A.O.Kurmanalieva, A.R.Aripdjanova, D.D.Murodovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq qilingan [2].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida o'quv faoliyati doirasida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish S. S. Bakulevskaya, I. F. Borodina, V. V. Lixoletov, M. S. Ryabova, T. A. Sidorchuk, G.V.Terekova, N.V.Tolpekina, L. A. Ustinova-Baranova, K.Ya. Xabibullin; maktab o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish O.V.Ibankov, L.P.Matveyev, A.D.Novikova, N.Yu.Melnikova, N.N.Melenteva, J.A.Kolisnichenko, L.P.Matveev, G.N.Germanov, M.Sholixlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Maktab o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish, ularni kreativ faoliyatga tayyorlash va ijodkor shaxsni tarbiyalash zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir. "Kreativ faoliyat" tushunchasi, uning mazmun-



mohiyati, mazkur faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish masalalari falsafa, pedagogika, psixologiya kabi fanlarning o'rganish ob'ektlaridan biri bo'lgan. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi va zehn o'tkirligini belgilab beradi[7].

P.Torrens fikricha "kreativlik" quyidagilarni o'zida aks ettiradigan murakkab tushuncha hisoblanadi:

muammoga yechim yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;  
farazni tekshirish va o'zgartirish;

muammoni aniqlash asosida qaror natijalarini shakllantirish;

muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro muvofiqligi.

Insondagi mavjud har-xil sifatlar singari kreativlik ham muayyan bosqichlar asosida izchil shakllantirilib va rivojlantirilib boriladi. Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, ammo, bu holat bolalarning kelajakda kreativ yutuqlarga erishishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu kreativ malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishlari lozim degan ehtimolni ifodalaydi[5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tafakkurini o'quv savollari orqali rivojlantirish uchun, bizning nuqtai nazarimizdan, nafaqat o'quv matnlarini saviyali tushunishni ta'minlaydigan shartlarni va kontseptualni boyitish orqali bu darajalarning o'sishini hisobga olish kerak, o'quvchilarning aks ettiruvchi va hissiy-baholash tajribasi, balki ularning yosh xususiyatlari, chunki bu ularning o'quv faoliyatini rag'batlantirishga imkon beradi va natijada kreativ faollikning o'sishiga hissa qo'shadi.

Kichik maktab yoshi (7-11 yosh) davrining yoshga bog'liq xususiyatlarini tahlil qilish bu davrni kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun qulay ekanligini aniqlashga imkon beradi (L.S.Vygotskiy, J. Piaget, L.M.Fridman va boshqalar). Mazkur yosh davri muqobil gipotezalarini shakllantirish va saralash, o'z aqliy faoliyatini tahlil mavzusiga aylantirish, muammolarni topish va qo'yish qobiliyatining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. O'quvchi nafaqat ma'lumotni o'rganishga, balki intellektual tashabbus ko'rsatishga va yangi g'oyalar yaratishga qiziqadi. Mazkur yosh davrining markaziy psixologik jarayoni - bu o'z-o'zini anglash va "men" ning barqaror qiyofasini shakllantirish, shu sababli o'z-o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ladi, tashqi baholashdan o'zini o'zi qadrlashga yo'naltirish, o'z-o'zini hurmat qilish qobiliyatining oshishi, o'z-o'zini hurmat qilishning adekvatligi, o'zini namoyon qilish istagi, o'z shaxsiyligini ifodalash istagi va o'z-o'zini hurmat qilish zarurati aniq namoyon bo'ladi[3].

Mazkur yosh davridagi bolalarning yetakchi faoliyati – tengdoshlari bilan muloqot qilish, odamlar bilan munosabatlar va xatti-harakatlarning yangi normalarini o'zlashtirish; o'z-o'zini hurmat qilish, nazariy fikrlash va o'z-

o'zini tahlil qilish, mavhum tushunchalar bilan ishlash qobiliyatini shakllantirish. Bu yoshda aks ettirishning rivojlanishi nafaqat shaxsiyatdagi ichki o'zgarishlar bilan cheklanib qolmaydi, shu sababli boshqa odamlarni chuqurroq tushunish va o'z taqdirini o'zi belgilash mumkin bo'ladi. Subyektiv nuqtai nazardan, bu o'zgarishlar jamiyat a'zosi sifatida o'zini anglash bilan bog'liq bo'lib, u yangi ijtimoiy ahamiyatga ega pozitsiyada konkretlashtiriladi. Shuning uchun boshlang'ich 3-4 sinf o'quvchilariga "Sizning fikringiz qanday?", "Nima deb o'ylaysiz?", "Siz nimani taklif qilgan bo'ladingiz?" kabi savollarni berish muhim ahamiyatga ega.

**Tahlil va natijalar.** O'qitish mazmuni, vositalari, shakllari va usullarining uzluksizligiga qo'yiladigan talablarni, o'quv faoliyatini shakllantirish va bolaning psixik funksiyalarini rivojlantirish qonuniyatlarini hisobga olgan holda, biz 3-4-sinf matematika bo'yicha ayrim darsliklarning matnlarini tahlil qildik. Matnlarning savol xususiyatlarini tahlil qilish uchun "Raqamlarning bo'linuvchanligi" mavzusi tanlandi.

Savollar tarkibida quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi:

1. Fikrlash jarayonini boshqaradigan savollar, ba'zi manbalarda ular "asosiy savollar" deb ataladi. Bloom taksonomiyasiga muvofiq bu savollar kreativ darajadagi savollar bo'lib, chunki ularga javob berish ma'lumotni yangi shakllarga o'tkazishni va faktlar, g'oyalar va prognozlar o'rtasida ma'lum munosabatlarni o'rnatishni talab qiladi.

2. Subyektiv va shaxsiy tajribani aktuallashtiradigan savollar. Zamonaviy ta'lim sifati uchun o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurati muhim xususiyatdir. Subyektiv-shaxsiy tajribaga qaratilgan javoblar o'quvchining olingan ma'lumotlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarini, so'ngra mulohazalar va fikrlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

3. Grafikadan foydalangan holda savollar (vizual va shartli grafik vositalar: jadvallar, diagrammalar, chizmalar, grafiklar, diagrammalar). Og'zaki ma'lumotni to'ldiribgina qolmay, balki ma'lumot tashuvchisi vazifasini bajaradigan vizualizatsiyaning turli shakllari o'quvchilarning aqliy faolligi darajasini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, grafik savollar yordamida siz o'quvchilarni kerakli umumlashmalarga olib borishingiz mumkin.

Bularning barchasi grafik savollar o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish vazifasini bajarishini aytishga imkon beradi.

4. Murojaat uchun savollar. Ushbu savollar guruhiga javoblar qoidalar, usullar, tamoyillar va nazariyalarni qo'llashni o'z ichiga oladi.

Savollar	Avtomatik. N.B. Istomina	Avtomatik. L.N.Shevrin, A.G.Geynidr.	Avtomatik. N.Ya.Vilenkin V.I.Joxovidr	Avtomatik. S.M.Nikolsky	Avtomatik. E.G.Gelfmani va boshqalar. .
"Raqamlarning bo'linuvchanligi" mavzusidagi savollarning umumiy soni	17	85	41	33	120
Qo'llashga qaratilgan savollar (jami %)	35%	50%	56%	49%	51%
Subyektiv-shaxsiy tajribaga qaratilgan savollar (jami %)	13%	12%	10%	6%	13%

Matematika darsliklarini savol xususiyatlarini bo'yicha tahlil qilish

Darsliklar matnida berilgan savollar umumiy sonining 40% ni asosiy, sub'ektiv va shaxsiy tajribaga qaratilgan

savollar atigi 7% ni, fikrlashga qaratilgan savollar - 15% ni, grafiklar yordamida savollar -10% tashkil qiladi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, amaldagi matematika darsliklari mazmunida kreativ fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida o'quv savollarining imkoniyatlaridan foydalanilmaydi.

Savol berish qobiliyati o'qituvchining eng muhim kasbiy sifati bo'lib, aks holda, dars savollar orqali bolalardan to'g'ri va aniq javoblarni olish vositasiga aylanadi.

So'rov natijalariga ko'ra quyidagi savollar guruhlarini aniqlandi:

1. O'quvchilarda qiziqish uyg'otish va ularning e'tiborini jalb qilishga oid savollar.

2. O'quvchilarning bilim darajasini baholashga yordam beruvchi savollar.

3. Muhokama mavzusiga oid savollar.

4. O'quvchilarning diqqatini boshqarish yoki o'zgartirishga oid savollar.

Ta'kidlash zarurki, o'tkazilgan so'rovnoma o'qituvchilar "taxmin qiling", "agar ...bo'lsa nima bo'lar edi", "har doim bo'lgan mi ...", "agar bo'lmasa ..." mazmunidagi savollarni tanlamaganlar.

Tajriba-sinov jarayonida "O'qituvchilar savol berishni bilishlari nega juda muhim?" degan savolga respondentlarning

25 foizi o'quvchilarga yangi matematik tushunchalar, teoremlar va boshqalarni mustaqil ravishda ochishga yordam beradigan savollar berish qobiliyatiga ega emasligini ta'kidladilar. Buni o'quvchilar tafakkurini rag'batlantiradigan savollar ba'zan o'qituvchilar tomonidan, lekin tizimsiz o'qitilishi bilan izohlash mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Amaliyot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy matematikani o'qitishda o'quvchilar nazariy bilimlar to'plamini yaxshi o'zlashtirishlari mumkin, ammo bu bilimlardan muayyan hayotiy muammolarni yoki muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun foydalanishni talab qiladigan faoliyatda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Savollar yordamida o'qitishga taklif etilayotgan yondashuv o'quvchining alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini emas, balki ularni kompleks tarzda o'zlashtirishini nazarda tutadi.

4-sinf matematika darsliklari matnlarini tahlil qilish, shuningdek, o'qituvchilarning o'quv savollaridan foydalanish bo'yicha amaliyoti o'quv savollarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanishning ob'ektiv ilmiy va uslubiy shartlari, shuningdek ulardan foydalanish usullari mavjudligini ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida). Ped. fan. dok ... diss. avtoref. – T., 2006. – 49 b.;
2. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2011. – 354 b
3. Tojiev M., Barakayev M., Xurramov A. Matematika o'qitish metodikasi // O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2018. – 324 b
4. Rokhataliyeva, A. N. (2022). Teaching of mathematics on the basis of advanced international experiences. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(7), 50-55.
5. Rokhataliyeva, A. N., & Kadiralievich, A. A. (2022). Didactic foundations of improving the creative activity of future mathematics teachers by means of information and communication technologies. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 3(7), 1-5.
6. Абдуллаева, Н. Р. Математикани ўқитишда ўқувчиларни креатив фаолиятини ривожлантиришнинг дидактик тамойиллари. "JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH" VOLUME 1, ISSUE 6, 119.
7. Ernazarova G. O., Yakubova M. Y. Oblaqulov Sh. D. "Kreativ pedagogika asoslari". O'quv qo'llanma. Toshkent-2022. 162b,-8b



UDK 372.8

Surayyo **ABDULLAYEVA**,  
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi  
E-mail: phdsurayyo@gmail.com

PhD, dotsent M.Boltayeva taqrizi asosida.

### AN EXPERIMENTAL ANALYSIS OF THE FORMATION OF HEALTHY RELIGIOUS FAITH IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation

This article examines the priority importance of forming a healthy religious belief in elementary school students and the statistical analysis of the results of the experiment focused on this topic. In this, the main attention was paid to the students' mathematical and statistical analysis of the competences formed in the students, using the methods based on the religious approach formed on the basis of the original Islamic spiritual and cultural roots.

**Key words:** Spiritual purification, healthy faith, experience-testing, criteria, efficiency.

### ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВЫХ РЕЛИГИОЗНЫХ УБЕЖДЕНИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается приоритетное значение формирования здоровой религиозной веры у учащихся начальных классов и статистический анализ результатов эксперимента, посвященного данной теме. При этом основное внимание уделяется математическому и статистическому анализу сформированных у студентов компетенций с использованием методов, основанных на религиозном подходе, сформированном на основе исконных исламских духовных и культурных корней.

**Ключевые слова:** Духовное очищение, здоровая вера, эксперимент, критерии, эффективность.

### BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA SOG'LOM DINIY E'TIQODNI SHAKLLANTIRISHNING TAJRIBA-SINOV TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom diniy e'tiqodni shakllantirishning ustuvor ahamiyati va mazkur mavzuga yo'naltirilgan tajriba-sinov natijalarining statistik tahlili ko'rib chiqildi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarda asl islomiy ma'naviy-madaniy ildizlar negizida shakllantirilgan e'tiqodiy yondoshuv asosidagi metodlar yordamida o'qitish va o'quvchilardagi shakllangan kompetensiyalar studentning matematik-statistik tahliliga qaratildi.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviy poklanish, sog'lom e'tiqod, tajriba-sinov, mezonlar, samaradorlik.

Biz tadqiqotimizning oldigi paragrafida tajriba-sinov ishlari respublikamizning 3ta hududida tashkil etilganligini ta'kidlab o'tgan edik. Tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlangan umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari nazorat va tajriba guruhlariga ajratilib, nazorat guruhida amaldagi metodika, tajriba guruhlarida esa biz yuqorida taklif etgan metodika asosida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishlarida 107 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari, 1226 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari respondentlar sifatida ishtirokka jalb etildilar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tajriba boshi va yakunidagi hamda o'quvchilarning tajriba va nazorat guruhlaridagi umumiy natijalarni quyidagi jadvallarda aks ettiramiz:

1-jadval

O'qituvchilarning o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni faollashtiruvchi vaziyatlarda qo'llaniladigan metodlarni bilish samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari

Guruhlar	O'qituvchilar soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba yakunida	107	49	45	13
Tajriba boshida	107	27	43	37

2-jadval

O'quvchilarning amaliy ko'nikmalarni faollashtirish vaziyatlarining samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari

Guruhlar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	598	276	266	56
Nazorat guruhi	628	193	232	203

Tajriba boshida o'qituvchilarning o'quvchilarda sog'lom diniy e'tiqodni shakllantirishda qo'llaniladigan metodlarini bilish darajasini aniqlashdagi o'qituvchilar sonini mos ravishda  $X_{ni}$  lar va shu kabi tajriba boshidagisini esa  $Y_{nj}$  lar orqali hamda o'quvchilarning sog'lom diniy e'tiqodning shakllanganlik darajasini tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va o'quvchilar sonini mos ravishda  $X_{ni}$  lar va shu kabi nazorat guruhidagisini esa  $Y_{mj}$  lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 3 ball bilan, o'rta ko'rsatkichni esa 2 ball bilan va quyi ko'rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz.

O'qituvchilarda:

Tajriba yakunidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 49; & 45; & 13; \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^3 n_i = 107$$

Tajriba boshidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_i & 3; & 2; & 1; \\ m_j & 27; & 43; & 37; \end{cases} \quad m = \sum_{j=1}^3 m_j = 107$$

O'quvchilarda:


Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 276; & 266; & 56; \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^3 n_i = 598$$


Nazorat guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_i & 3; & 2; & 1; \\ m_j & 193; & 232; & 203; \end{cases} \quad m = \sum_{j=1}^3 m_j = 628$$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko'rinishni oladi:



1- rasm. O'qituvchilarda.



2-rasm. O'quvchilarda

Statistik tahlil o'tkazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan  $n_i$  va  $m_j$  takroriylik (chastota)larni mos statistik ehtimollik formulalari

$$P_i = \frac{n_i}{n} \quad \text{va} \quad q_j = \frac{m_j}{m}$$

asosida hisoblaymiz.

O'qituvchilarda:

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 0,46; & 0,42; & 0,12; \end{cases} \quad \sum_{i=1}^3 P_i = 1$$

$$\begin{cases} Y_j & 3; & 2; & 1; & \sum_{j=1}^3 q_j = 1 \\ m_j & 0,25; & 0,4; & 0,35; & \end{cases}$$

O'quvchilarda:

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; & \sum_{i=1}^3 P_i = 1 \\ n_i & 0,46; & 0,45; & 0,09; & \end{cases}$$

$$\begin{cases} Y_j & 3; & 2; & 1; & \sum_{j=1}^3 q_j = 1 \\ m_j & 0,31; & 0,37; & 0,32; & \end{cases}$$

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

O'qituvchilarda:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^{n=3} P_i X_i = 0,46 \cdot 3 + 0,42 \cdot 2 + 0,12 \cdot 1 = 1,38 + 0,84 + 0,12 = 2,34$$

$$\text{Foizda } \bar{X} \% = \frac{2,34}{3} \cdot 100\% = 78\%$$

$$\bar{Y} = \sum_{j=1}^{m=3} q_j Y_j = 0,25 \cdot 3 + 0,4 \cdot 2 + 0,35 \cdot 1 = 0,75 + 0,8 + 0,35 = 1,9$$

$$\text{Foizda } \bar{Y} \% = \frac{1,90}{3} \cdot 100\% = 63,3\%$$

O'quvchilarda:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^{n=3} P_i X_i = 0,46 \cdot 3 + 0,45 \cdot 2 + 0,09 \cdot 1 = 1,38 + 0,90 + 0,09 = 2,37$$

$$\text{Foizda } \bar{X} \% = \frac{2,37}{3} \cdot 100\% = 79\%$$

$$\bar{Y} = \sum_{j=1}^{m=3} q_j Y_j = 0,31 \cdot 3 + 0,37 \cdot 2 + 0,32 \cdot 1 = 0,93 + 0,74 + 0,32 = 1,99$$

$$\text{Foizda } \bar{Y} \% = \frac{1,99}{3} \cdot 100\% = 66,3\%$$

Demak, o'qituvchilarda tajriba yakunidagi va boshidagi o'rtacha o'zlashtirish  $(78 - 63,3)\% = 14,7\%$  ga yuqori ekan hamda tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarda  $(79 - 66,3)\% = 12,7\%$  ga yuqori ekan. Bu esa o'z navbatida  $\frac{81\%}{63,7\%} = 1,27$  barobar ortiqiligini Bu esa o'z navbatida  $\frac{81\%}{65,7\%} = 1,23$  barobar ortiqiligini anglatadi.

O'zlashtirishni aniqlash jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarni aniqlash maqsadida dastlab o'rtacha kvadratik va standart xatoliklarni aniqlaymiz.

O'rtacha kvadratik xatoliklar:

O'qituvchilarda:

$$S_x^2 = \sum_{i=1}^{n=3} P_i X_i^2 - (\bar{X})^2 = 0,46 \cdot 3^2 + 0,42 \cdot 2^2 + 0,12 \cdot 1^2 - 2,34^2 = 0,46 \cdot 9 + 0,42 \cdot 4 + 0,12 \cdot 1 - 5,4756 = 4,14 + 1,68 + 0,12 - 5,4756 = 5,94 - 5,4756 = 0,4644$$

$$S_y^2 = \sum_{j=1}^{m=3} q_j Y_j^2 - (\bar{Y})^2 = 0,25 \cdot 3^2 + 0,4 \cdot 2^2 + 0,35 \cdot 1^2 - 1,9^2 = 0,25 \cdot 9 + 0,4 \cdot 4 + 0,35 \cdot 1 - 3,61 = 2,25 + 1,6 + 0,35 - 3,61 = 4,2 - 3,61 = 0,59$$

O'quvchilarda:

$$S_x^2 = \sum_{i=1}^{n=3} P_i X_i^2 - (\bar{X})^2 = 0,46 \cdot 3^2 + 0,45 \cdot 2^2 + 0,09 \cdot 1^2 - 2,37^2 = 0,46 \cdot 9 + 0,45 \cdot 4 + 0,09 \cdot 1 - 5,6169 =$$

$$= 4,14 + 1,8 + 0,09 - 5,6169 = 6,03 - 5,6169 = 0,4131$$

$$S_y^2 = \sum_{j=1}^{m=3} q_j Y_j^2 - (\bar{Y})^2 = 0,31 \cdot 3^2 + 0,37 \cdot 2^2 + 0,32 \cdot 1^2 - 1,99^2 = 0,31 \cdot 9 + 0,37 \cdot 4 + 0,32 \cdot 1 - 3,9601 =$$

$$= 2,79 + 1,48 + 0,32 - 3,9601 = 4,59 - 3,9601 = 0,6299$$

Standart xatoliklar esa o'qituvchilarda:

$$S_x = \sqrt{0,4644} = 0,68. \quad S_y = \sqrt{0,59} = 0,77.$$

Bundan, tajribadan yakunidagi standart xatoligi tajriba boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan kichik bo'ldi, ya'ni  $0,68 < 0,77$ . Buni yanada aniqroq ko'rsatish maqsadida har ikki statistik tanlanma bo'yicha o'rta qiymat aniqliklarini biz variatsiya koeffitsientlari orqali, ya'ni  $C_x$  va  $C_u$  formula orqali hisoblaymiz:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{n \cdot x}} \cdot 100\% = \frac{0,68 \cdot 100\%}{\sqrt{107 \cdot 2,34}} = \frac{68\%}{10,34 \cdot 2,34} = \frac{68\%}{24,2} = 2,81\% \approx 3\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{n \cdot y}} \cdot 100\% = \frac{0,77 \cdot 100\%}{\sqrt{107 \cdot 1,9}} = \frac{77\%}{10,34 \cdot 1,9} = \frac{77\%}{19,65} = 3,92\% \approx 4\%$$

Demak, tajriba yakunidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqligi tajriba boshidagidan bir foizga farq qilgan. Standart xatoliklar o'quvchilarda:

$$S_x = \sqrt{0,4131} = 0,64. \quad S_y = \sqrt{0,6299} = 0,79.$$

Bundan, tajriba guruhidagi standart xatolik nazorat guruhidagi ko'rsatkichlarga nisbatan kichik bo'ldi, ya'ni  $0,64 < 0,79$ . Buni yanada aniqroq ko'rsatish maqsadida har ikki statistik tanlanma bo'yicha o'rta qiymat aniqliklarini biz variatsiya koeffitsientlari orqali, ya'ni  $C_x$  va  $C_u$  formula orqali hisoblaymiz:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{n \cdot x}} \cdot 100\% = \frac{0,64 \cdot 100\%}{\sqrt{598 \cdot 2,37}} = \frac{64\%}{24,5 \cdot 2,37} = \frac{64\%}{58,07} = 1,10\% \approx 1\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{n \cdot y}} \cdot 100\% = \frac{0,79 \cdot 100\%}{\sqrt{628 \cdot 1,99}} = \frac{79\%}{25,06 \cdot 1,99} = \frac{79\%}{49,87} = 1,58\% \approx 2\%$$

Demak, tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqligi nazorat guruhidan kichik ekan.

Endi ikkita bosh to'planning noma'lum o'rta qiymatlariga o'xshashligini hisobga olib Studentning tanlanmali mezonini asosida nolinchii gipotezani tekshiramiz:

$$H_0 : \mu = \mu_y$$

Shunga asosan quyidagi hisoblanishni bajaramiz:

O'qituvchilarda:

$$T_{x,y} = \frac{\bar{x} - \bar{y}}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} = \frac{2,34 - 1,9}{\sqrt{\frac{0,4644}{107} + \frac{0,59}{107}}} = \frac{0,44}{\sqrt{0,0043 + 0,0055}} = \frac{0,44}{\sqrt{0,0098}} = \frac{0,44}{0,099} = 4,44$$

O'quvchilarda:

$$T_{x,y} = \frac{\bar{x} - \bar{y}}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} = \frac{2,37 - 1,99}{\sqrt{\frac{0,4131}{598} + \frac{0,6299}{628}}} = \frac{0,38}{\sqrt{0,00069 + 0,001}} = \frac{0,38}{\sqrt{0,00169}} = \frac{0,38}{0,041} = 9,27$$

Student mezonini asosida erkinlik darajasini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

O'qituvchilarda:

$$k = \frac{\left(\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}\right)^2}{\frac{\left(\frac{S_x^2}{n}\right)^2}{n-1} + \frac{\left(\frac{S_y^2}{m}\right)^2}{m-1}} = \frac{\left(\frac{0,4644}{107} + \frac{0,59}{107}\right)^2}{\frac{\left(\frac{0,4644}{107}\right)^2}{106} + \frac{\left(\frac{0,59}{107}\right)^2}{106}} = \frac{(0,0043+0,0055)^2}{\frac{(0,0043)^2}{106} + \frac{(0,0055)^2}{106}} =$$

$$= \frac{(0,0098)^2}{\frac{0,000018}{106} + \frac{0,00003}{106}} = \frac{0,000096}{0,00000017+0,00000029} = \frac{0,000096}{0,00000046} = 208,8$$

O'quvchilarda:

$$k = \frac{\left(\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}\right)^2}{\frac{\left(\frac{S_x^2}{n}\right)^2}{n-1} + \frac{\left(\frac{S_y^2}{m}\right)^2}{m-1}} = \frac{\left(\frac{0,4131}{598} + \frac{0,6299}{628}\right)^2}{\frac{\left(\frac{0,4131}{598}\right)^2}{597} + \frac{\left(\frac{0,6299}{628}\right)^2}{627}} = \frac{(0,00069+0,001)^2}{\frac{(0,00069)^2}{597} + \frac{(0,001)^2}{627}} =$$

$$= \frac{(0,00182)^2}{\frac{0,00000048}{597} + \frac{0,000001}{627}} = \frac{0,0000033}{0,0000000079+0,000000016} = \frac{0,0000033}{0,0000000238} = 1386,6$$

ushbu ehtimollik uchun statistik aloomatning qiymatdorlik darajasini  $\alpha=0,05$  deb olsak, u holda  $r=1-\alpha=0,95$  ga hamda erkinlik darajasi o'qituvchilarda:  $k=208,8$  ga o'quvchilarda:  $k=1386,6$  ga teng. Student funksiyasi taqsimot jadvalidan ikki tomonlama mezonning kritik nuqtasi:

o'qituvchilarda:

$$t_{\frac{1-(1-p)}{2}}(k) = t_{\frac{1-(1-0,95)}{2}}(208,8) = t_{0,975}(208,8) = 1,96$$

Bundan ko'rinib turibdiki, statistikaning tanlanma qiymati kritik nuqtadan katta ekan. Bundan Studentning tanlanma mezoni:

$$T_{x,y} = 4,44 > 1,96 \text{ ga teng.}$$

O'quvchilarda:

$$t_{\frac{1-(1-p)}{2}}(k) = t_{\frac{1-(1-0,95)}{2}}(1386,6) = t_{0,975}(1386,6) = 1,96$$

Bundan ko'rinib turibdiki, statistikaning tanlanma qiymati kritik nuqtadan katta ekan. Bundan Studentning tanlanma mezoni:

$$T_{x,y} = 9,27 > 1,96 \text{ ga teng.}$$

O'qituvchilarda tajriba yakuni uchun:

$$2,34 - 0,13 \leq a_x \leq 2,34 + 0,13 \quad 2,21 \leq a_x \leq 2,47$$

Tajriba boshi uchun ishonchli interval:

$$\bar{Y} - \Delta_y \leq a_y \leq \bar{Y} + \Delta_y$$

$$1,9 - 0,15 \leq a_y \leq 1,9 + 0,15 \quad 1,75 \leq a_y \leq 2,05$$

O'quvchilarda tajriba guruhi uchun:

$$\bar{X} - \Delta_x \leq a_x \leq \bar{X} + \Delta_x$$


$$2,37 - 0,05 \leq a_x \leq 2,37 + 0,05 \quad 2,32 \leq a_x \leq 2,42$$

Nazorat guruhi uchun ishonchli interval:


$$\bar{Y} - \Delta_y \leq a_y \leq \bar{Y} + \Delta_y$$

$$1,99 - 0,06 \leq a_y \leq 1,99 + 0,06 \quad 1,93 \leq a_y \leq 2,05$$

Buni geometrik tasvirlasak o'qituvchilarda:



O'quvchilarda:



Bundan  $\alpha=0,05$  qiymatdorlik darajasi bilan aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tajriba yakunidagi o'rtacha baho tajriba boshidagi o'rtacha bahodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. O'quvchilarda ham xuddi shunday tajriba guruhidagi o'rtacha

baho nazorat guruhidagi o'rtacha bahodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. Demak, matematik-statistik tahlilga asosan, yaxshi natijaga erishilgani ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatgichlarini hisoblaymiz. O'qituvchilarda:

Bizga ma'lum  $\bar{X}=2,34$ ;  $\bar{Y}=1,9$ ;  $\Delta_x=0,13$ ;  $\Delta_y=0,15$ ; ga teng.

Bundan sifat ko'rsatgichlari:

$$K_{yc\delta} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,34 - 0,13}{1,9 + 0,15} = \frac{2,21}{2,05} = 1,08 > 1;$$

$$K_{\delta\delta\delta} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,34 - 0,13) - (1,9 - 0,15) = 2,21 - 1,75 = 0,46 > 0;$$

O'quvchilarda:

Bizga ma'lum  $\bar{X}=2,37$ ;  $\bar{Y}=1,99$ ;  $\Delta_x=0,05$ ;  $\Delta_y=0,06$ ; ga teng.

Bundan sifat ko'rsatgichlari:

$$K_{yc\delta} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,37 - 0,05}{1,99 + 0,06} = \frac{2,32}{2,05} = 1,13 > 1;$$

$$K_{\delta\delta\delta} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,37 - 0,05) - (1,99 - 0,06) = 2,32 - 1,93 = 0,39 > 0;$$

**Xulosa.** Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezonini noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi va hamda tajriba yakunidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi va tajriba boshidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan. Demak, o'qituvchilarining o'quvchilarda sog'lom diniy

e'tiqodni shakllantirishda qo'llaniladigan metodlarni bilishi hamda o'quvchilarning sog'lom diniy e'tiqodning shakllanganlik samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi.

#### ADABIYOTLAR

1. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar, -Toshkent: "Movoraunnahr", 2016. -536 b.
2. Hamidulloh Beruniy "Ahli sunna olimlari" 03.06.2016. // <https://ahlisunna.uz>.
3. Imom Ismoil al-Buxoriy "Al Jome as-sahih". 1-jild, - Toshkent: "Qomuslar bosh tahririyati", 1991. - B.7.
4. Mahkamov U. O'qituvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. - Toshkent: "Fan", 1995. - 199 b.
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Bid'at haqida. -Islom.uz: <https://www.youtube.com>. Apr 22,2020.
6. Quronov M. Milliy tarbiya va yoshlar - Toshkent: "Kamalak", 2016. - 112 b.
7. Safarova R.G, Djuraev R.X. O'quvchi-yoshlarni "omnaviy madaniyat" hurujlaridan himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari. - Toshkent: "Tafakkur qanoti"
8. Sarton G. Introduction to the History of Science (3 Vols. in 5), Krieger Pub Co. - USA, 1975. 4236 p.
9. Sharipov S. Diniy eksteremistik va destruktiv g'oyalarga qarshi kurash hamda bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish omillari. - O'zbekiston respublikasi din ishlari bo'yicha qo'mita: <https://religions.uz/>
10. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. - Toshkent: "Sharq", 2000. - 237 b.
11. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi. O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi. - Toshkent: "Ijod press", 2020. - 349 b.





**Rohila AVEZOVA,**  
*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi*  
*E-mail: r.avezova@kiut.uz*

*DSc, dotsent S.Siddiqov taqrizi asosida*

### CRITERIA FOR IMPROVING MANAGEMENT COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

Annotation

In the process of developing an innovative educational environment, it is becoming important to clarify the criteria for improving the management competence of future primary school teachers and apply it in practice. The article presents an analysis of the criteria for improving management competence and their classifications.

**Key words:** Future elementary school teacher, management process, criteria, valuable, cognitive, functional-activity, pedagogical knowledge, skills, innovative approaches, resource management, emotional intelligence.

### КРИТЕРИИ ПОВЫШЕНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В процессе развития инновационной образовательной среды становится важным уточнение критериев, повышающих управленческую компетентность будущих учителей начальных классов, и применение ее на практике. В статье представлен анализ критериев совершенствования управленческой компетентности и их классификаций.

**Ключевые слова:** Будущий учитель начальных классов, процесс управления, критерии, ценностные, познавательные, функционально-деятельностные, педагогические знания, умения, инновационные подходы, управление ресурсами, эмоциональный интеллект.

### BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MEZONLARI

Annotatsiya

Innovatsion ta‘lim muhitini rivojlantirish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshqaruv kompetentligini takomillashtiruvchi mezonlarni aniqlashtirib va uni amaliyotda qo‘llash muhim bo‘lmoqda. Maqolada boshqaruv kompetentligi takomillashtirish mezonlari va ularning tasniflarining tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, boshqaruv jarayoni, mezonlar, qadriyatli, kognitiv, funktsional-faollik, pedagogik bilim, ko‘nikmalar, innovatsion yondashuvlar, resurslarni boshqarish, emotsional intellect.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasida har bir rahbarning ma‘naviyati -madaniyatini shakllantirishning asoslari maqsadli ravishda tashkil qilinmoqda. Bu jihatdan olib borilayotgan ishlar nazariy -amaliy asosga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Har bir rahbar jamoani boshqarishi, kelajakka yo‘naltirishi, ya‘ni yetakchilik xususiyati bilan o‘zgalardan ajralib turishi bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. U faoliyat yuritayotgan jamoasida va jamiyatda barchaning ko‘z o‘ngida ya‘ni na‘munada bo‘ladi, qo‘li ostidagilarning faoliyati va turmush tarzi bilan bog‘liq muammolariga befarq bo‘lmaydi. Shunday ekan, uning zimmasida o‘zgalarga nisbatan ko‘proq mas‘uliyat va burch yotadi. Rahbarlikning eng buyuk mezonini bu adolatdir. Bu so‘zning zamirida butun xalq taqdiri, jamiyat istiqboli, mamlakatimiz kelajagi mujassam bo‘lgan. Buni chuqurroq anglashimiz darkor. Adolat hamma narsadan ustun bo‘lishi muhimdir.

Zamonaviy yondashuv asosidagi kompetentsiyaviy ta‘limni tashkil etish jarayoni bilan an‘anaviy o‘qitish jarayonini taqqoslab, kompetentsiyaviy ta‘limni joriy etish orqali samarali natijalarga erishish zarurdir.

Talabalarda boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning zarurati va ahamiyati, shuningdek, ushbu kompetentlikni rivojlantirish uchun asosiy mezonlar ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Har bir mezon o‘qituvchining pedagogik faoliyatini yanada samarali va innovatsion usulda tashkil etishga yordam beradi. Boshqaruv kompetentligini oshirishning asosiy mezonlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

pedagogik bilim va ko‘nikmalar, o‘quvchilarni boshqarish, sinfdan tashqaridagi faoliyatlar, pedagogik tahlil va refleksiya, resurslarni boshqarish, innovatsion yondashuvlar, qadriyatli, kognitiv, funktsional-faollik hamda emotsional intellekt. Ushbu mezonlar o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatini ta‘minlash, sinfdagi muhitni yaxshilash va ta‘lim sifatini oshirish uchun zarurdir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O‘rta Osiyoning buyuk donishmandlaridan Abu Rayhon Beruniy ham boshqaruv va boshqaruvchi shaxsi xususida o‘zining bir qator fikr-mulohazalarini bayon etganlar. U har bir kishiga baho berish uchun, uning qilgan ishini kuzatish mumkinligini ta‘kidlaydi: “Har bir odamning bahosi o‘z ishini ajoyib bajarishidir”[1].

Beruniy bobomiz o‘zlarining “Hindiston” asarida ushbu g‘oyani ilgari suradilar: “Tabiatan boshqarishga moyil bo‘lgan hokim o‘z fikri va qarashlarida qat‘iy bo‘lishi, o‘z ishlarini amalga oshirishda donishmandlar tomonidan bildirilgan ilg‘or mulohazalarga bo‘ysunishi lozim. Odil hokimning asosiy vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik va adolat o‘rnatishdan iboratdir. Hokimning muhim vazifalaridan yana biri fan taraqqiyotiga, olimlarga g‘amxo‘rlik qilishdir”[1].

Quyidagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari rahbar sifatida o‘z fikri va qarashlarida qat‘iy bo‘lishi, o‘z ishlarini amalga oshirishda o‘quvchilari, jamoatchilik tomonidan bildirilgan

ilg'or mulohazalarni eshitib, uni qo'llab-quvvatlashi, tabaqalashga ya'ni boy, kambag'al yoki bilimli, bilimsiz, kuchlilar, kuchsizlar ajratmaslik ular orasida tenglik va adolat o'rnatishi muhimdir.

Yana bir bobokalonim Alisher Navoiyning "Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami" degan satrlarida qanchalik chuqur hayotiy hikmat, falsafa bor[2]. Ya'ni, bu dunyoda har bir insonlarning dardu tashvishlarini, o'ylarini o'ylab yashashi – odamiylikning eng oliy mezonidir, xalqning g'amidan, tashvishidan uzoq bo'lgan insonni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi, deb ta'kidlamogdalar ulug' bobomiz.

Professor E.G'.G'oziev emotsiya-odatda tashqi alomatlarini yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni, ichki kechinmalarni ifodalashidan iborat psixik jarayonni yuzaga kelishining aniq shaklidir, deb ta'riflanadi[4].

James March kognitiv boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonlaridagi komplekslikni o'rganadi. U "Organizational Decision Making" asarida, tashkilotlarning qaror qabul qilish jarayonida kognitiv strukturalar va organizatsion xotiraga qanday ta'sir qilishi mumkinligini o'rganadi. March boshqaruvchilar qanday qilib o'zlarining tajribalaridan va xotiralaridan foydalangan holda qaror qabul qilishlarini va bu jarayonda qanday kognitiv qismlar faoliyat yuritishini ko'rsatadi[5].

**Muhokama natija.** Maqsadlidir. Mustaqillik sharoitida yangi zamonaviy boshqaruv kadrlarini tayyorlash ishi ob'ektiv holatni hisobga olgan holda ilmiy yondoshuvni talab qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshqaruv kompetentligini takomillashtirish uchun bir nechta mezonlar mavjud. Bu mezonlar o'qituvchining samarali va innovatsion boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Boshqaruvchilik kompetentligining samaradorligini oshirish uchun quyidagi mezonlarni shakllantirish maqsadlidir.

Pedagogik bilim va ko'nikmalar -o'qituvchi o'z sohasi bo'yicha ta'lim standartlari, o'quv rejalarni, baholash tizimini, darsliklar va o'quv dasturlarini mukammal bilishi muhim. Turli pedagogik strategiyalarni qo'llay olish, innovatsion metodlar va texnologiyalardan foydalanish.

O'quvchilarni boshqarish - o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularni motivatsiya qilish usullarini bilish. Sinfidagi tartib-intizomni saqlash va nazorat qilish qobiliyati.

Sinfidan tashqaridagi faoliyatlar -ota-onalar bilan samarali aloqa o'rnatish va ularni ta'lim jarayoniga jalb qilish. Jamoa bilan hamkorlik, tajriba almashish va jamoaviy ish. Jamoadada ishlash ko'nikmalarini tarbiyalash –jamoadada rahbarining guruhni birgalikda ishlashga o'rgatishi orqali o'z qiziqishi, ko'nikmasi va muvaffaqiyatini namoyish eta olish kompetensiyasi[3]. Pedagogik tahlil va refleksiya - dars jarayonini tahlil qilish va uni yaxshilash uchun taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish. O'z pedagogik faoliyatini baholash va uni takomillashtirish uchun doimiy ravishda o'zini-o'zi tahlil qilish[7].

Resurslarni boshqarish - o'quv materiallari va vositalarini samarali boshqarish va ularni dars va darsdan

tashqari faoliyatlarda qo'llashni bilish. Dars vaqtini metodik jihatdan to'g'ri taqsimlash va o'quv jarayonini samarali tashkil etish.

Innovatsion yondashuvlar - pedagogik texnologiyalar va ta'lim dasturlarini o'quv jarayoniga samarali muvaffaqiyatli amalga oshirish. Dars jarayonidagi manbalarni yangilash va o'quvchilarga qiziqarli, tushunarli bo'lish uchun ijodiy yondashuvlarni qo'llash.

Kognitivlik bu - boshqaruv nazariyalari, metodologiyalari, va strategiyalar haqidagi bilimlarni egallash. Pedagogik yondashuvlar, ta'lim metodikasi va ta'lim jarayonini boshqarish bo'yicha bilimlarni egallash.

Qadriyatli boshqaruv - ijtimoiy qadriyatlar yo'nalishlari, pedagogik boshqaruv funktsiyalarini ongli ravishda bajarishga munosabatlar, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining shaxsiy e'tiqodiga asoslangan kasbiy xulq-atvorning individual standartlari, o'zini-o'zi boshqarishda aniq sub'ektiv o'quv faoliyatini boshqarishdir. Ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga e'tibor qaratish, professional faoliyatda sub'ektning faol munosabati, aloqasi, ta'lim muassasasi hayotida faol ishtirok etish istagi, muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyaning ustunligi, ta'lim munosabatlarining barcha sub'ektlarini o'z-o'zini rag'batlantirish va rag'batlantirish qobiliyati, kasbiy rivojlanishga shaxsiy tayyorgarlik jarayonlari kiradi.

Emotsional intellekt -o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan emotsional aloqalarni boshqarish va ularni to'g'ri tushunish. Bu mezonlar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetentligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash uchun asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. O'qituvchilar ushbu mezonlar asosida o'z faoliyatlarini yanada takomillashtirib, samarali ta'lim jarayonini yaratishlari mumkin.

Bu mezonlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshqaruv kompetentligini oshirish, ularning professional rivojlanishiga, ta'lim metodologiyalarini takomillashtirishga va o'quvchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga yordam beradi.

**Xulosa.** Globallashtirish jarayonlarining faollashuvi jarayonida turli daraja va sohadagi rahbarlarning o'z faoliyatidagi ijtimoiy-ma'naviy yo'nalishga e'tiborini kuchaytirishni talab etilishi bejiz emas. Bolajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida boshqaruvchilik kompetentligini shakllantirish uchun interfaol darslar, davra suhbatlari, binar ma'ruzalar, loyihalar o'tkazish maqsadga muvofiqdir, ya'ni bo'lajak pedagoglarni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda qadriyatli, kognitiv, funktsional-faollik, pedagogik bilim, ko'nikmalar, innovatsion yondashuvlar, resurslarni boshqarish, emotsional intellekt mezonlarini shakllantirish muhimdir. Bu mezonlar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetentligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash uchun asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. O'qituvchilar ushbu mezonlar asosida o'z faoliyatlarini yanada takomillashtirib, samarali ta'lim jarayonini yaratishlari mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Беруний Абу Райхан. Индия. Соч., т.2. – Т.: «Фан», 1963. – С. 74 - 125 б
2. Xasanov A. Boshqaruv ma'naviyati va rahbar ma'naviy qiyofasi: uslubiy qo'llanma. -Toshkent: XK "Umid Design", 2021. -7 b.
3. Avezova R.R. "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining boshqaruv kompetentligini takomillashti- rishdagi kasbiy sifat larning ahamiyati. Inter education & Global Study Ilmiy -nazariy va metodik jurnal 2024-yil, 4(2)-son243-250b
4. Goziyev E. Umumiy psixologiya darslik Toshkent 2002 182- bet
5. March, James G.; Simon, Herbert A. (1993). "Organizations Revisited". Industrial and Corporate Change. 2: 299–316.

6. Avezova R.R. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshqaruvchi sifatidagi hissiy-emotsional sifatleri. "Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar" II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi Materiallari-2024 y. 26 aprel 222-227 bet.
7. Avezova R.R. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshqaruv kompetentligini shakllantirish usullari Elektron Ta'lim. Inson. Hayot Ilmiy jurnal December. 2023. ISSUE №1 O'zbekiston 6bet
8. Тураева, Д. Р. (2018). Стили деятельности педагогов в системе «педагог-учащийся»-как предмет исследования. Международная научно-техническая конференция молодых ученых БГТУ им.ВГ Шухова (pp. 5628-5634).



UDK 101. (109)

*Mansurbek AYTBAYEV,*  
*Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, PhD*

*TDTrU.f.f.d. prof. J.S.Ramatov taqrizi asosida*

### MAHMUD ZAMAKHSHARI'S VIEWS ON BEING

Annotation

This article analyzes the views of Mahmud al-Zamakhshari on the issues of existence and its forms, the end of existence, the hereafter, absence, heaven and earth, human creation, existence, movement, physical world and metaphysical world.

**Key words:** Existence, path, earth and sky, transfiguration, doomsday, afterlife, life, death, existence, movement, morality, active consciousness, human nature.

### ВЗГЛЯДЫ МАХМУДА ЗАМАХШАРИ НА СУЩЕСТВОВАНИЕ

Аннотация

В данной статье анализируются взгляды Махмуда аз-Замахшари на вопросы существования и его форм, конца существования, загробной жизни, отсутствия, неба и земли, творения человека, существования, движения, физического мира и метафизического мира.

**Ключевые слова:** Существование, путь, земля и небо, преобразование, конец света, загробная жизнь, жизнь, смерть, существование, движение, мораль, активное сознание, человеческая природа.

### MAHMUD ZAMAXSHARIYNING BORLIQ HAQIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Mahmud az-Zamaxshariyning borliq va uning shakllari, borliqning oxiri, oxirat, yo'qlik, osmon va yerning, insonning yaratilishi, mavjudlik, harakat, jismoniy dunyo va metafizik dunyo masalalariga oid qarashlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zi:** Borliq, yo'qlik, yer va osmon, shakl o'zgarishi, qiyomat, oxirat, tiriklik, o'lim, mavjudlik, harakat, axloq, faol ong, inson tabiati.

**Kirish.** Mo'tazila nuqtayi nazaridan kalomda borliqning yo'qolishini ifodalovchi "fano" tushunchasi dunyoning butunlay yo'q bo'lib ketishini anglatadi va olamni undagi barcha narsalar bilan birga halok bo'lishini, Allohning o'zidan boshqa hech narsa qolmasligini bildiradi. Ahli sunnat va mo'tazila tarafdorlari fano masalasida yakdildir. Mo'taziliylarning ko'pchiligi, xususan, uning baxshimiylik yo'nalishi vakillari fanoni butunlay yo'qlik deb hisoblashsa, husayniya mazhabi uni butunlay yo'qlik emasligini, balki parchalanish shaklida sodir bo'lishini ta'kidlashadi. Ko'pchilik mo'tazila vakillari fikriga ko'ra, borliq butunlay vayron bo'lgandan keyin, yo'qlikdan vujudga keladi. Ikki mazhab o'rtasidagi itilofning asosiy sababi birinchi mazhab qarahiga ko'ra "ma'dum" so'zining mutlaq yo'qlikni ifodalashi bo'lsa, ikkinchisida "ma'dum" shayiyat masalasidir, ya'ni yo'qlikdan keying holat ham biror narsa deb nomlanishi mumkin. Birinchi qarashni qo'llab-quvvatlovchilarning fikricha, borliq yo'q bo'lib ketgan mavjudotlarni qayta yaratish shaklida bo'ladi. Ikkinchi qarashga ko'ra esa, parchalangan borliqning bo'laklarini birlashtirib, ruhlar tanalarga qaytariladi. Birinchi qarashni qo'llab-quvvatlovchilarning fikricha, borliq mutlaq yo'qlikka aylanadi;

ikkinchi fikrni qo'llab-quvvatlovchilarga ko'ra, odam qaytib kelgandan so'ng borliq qayta tiklanadi. G'azzoliy bu masala bo'yicha ham mo'tazila, ham islom falsafasida bu ikki holatdan birini dalillovchi aniq isbot yo'qligini aytadi. Taftazoniy ham xuddi G'azzoliy kabi har ikkala holat ham mumkinligini qayd etadi. Uning baxshimiylik an'anasidan ekanligi haqida fikrlar mavjud bo'lsa-da, bu boradagi Zamaxshariyning qarashlari husayniya mazhabi nuqtayi nazariga yaqinroqdir.

Zamaxshariyning diniy-falsafiy g'oyalarini shakllantirishda katta ta'sir ko'rsatgan ustozlari va do'stlari Ibn al-Malahimiy Husayniy (vaf.536/1141) hisoblanadi. Aksariyat ahli sunnat va mo'tazila vakillari dunyo butunlay vayron bo'lib, hamma narsa yo'q bo'lib ketgandan keyin ikkinchi tirilish boshlanadi, degan qarashni ilgari surishsa ham, Zamaxshariy buni dunyoning butunlay yo'q bo'lishi emas, balki shaklining o'zgarishi deb hisoblaydi. Qof (50/41) surasida sur chalinishi ikkinchi marta ta'riflanganda:

Ya'ni, "Quloq sol! Bir kuni jarchi yaqin joydan chaqiradi" deygan jumla uchraydi. Zamaxshariyning yozishicha, jarchi Isrofilidir. Jarchining juda yaqin joydan chaqirishini osmonga eng yaqin bo'lgan Maqdisdagi qoya tepasi deb talqin qiladi. Demak, borliq butunlay yo'q bo'lmagan, bu esa, oxirat borliqning shakli o'zgarishi ekanligidan dalolat beradi. Yer yuzidagi hamma narsa vayron bo'ladi va qayta tiklanadi. Shu boisdan ham, Isrofilning qiyomatdan keyin Bayt-i Maqdisdan yuqoriga chiqishi haqidagi fikr Zamaxshariyning borliqdagi shakl o'zgarishi haqidagi qarashlarini tasdiqlaydi. Zamaxshariy qiyomat tufayli yerni boshqa yer bilan, osmonni esa boshqa osmon bilan almashishi masalasida baxshimiy va husayniya o'rtasidagi itilof borligini ta'kidlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Zamaxshariy o'z fikrini isbotlash uchun Abdulloh ibn Mas'ud Ibn Molikdan: "Odamlar hech qanday gunoh qilinmagan oq tuproqda qayta tiriladilar ... yer kumushga, osmon oltinga aylanadi va inson shunday muhitda qayta tiriladi...biz yerni boshqa joyga, osmonni esa boshqa osmonga almashtirganimizda..." tavsifini keltiradi. Zamaxshariy baytdagi tabdil (o'zgarish, aylanish, almashtirish) ifodasiga to'xtalib, bu yerdagi o'zgarish borliqning o'zida ham, sifatlarida ham sodir bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Az-

Zamaxshariyning fikriga ko'ra, zikr etilgan o'zgarishning yer va osmonning o'zida sodir bo'lishi hamda ularning sifatlarining o'zgarishi ehtimolligini bildiradi. Sifatlarining o'zgarishiga tog'larning tekis bo'lib qolishi, dengizlarning esa qaynab turishi misol bo'la oladi. Bu yer yuzida hech qanday bo'rtmalar yoki shunga o'xshash notekisliklar bo'lmaydi, degan ma'noni anglatadi. Zamaxshariy bu misralar orqali qiyomatning kelishi bilan yerning tekislanishini olam shaklining o'zgarishi deb bilishi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

Oyat va hadislarida qayta tirilish badanga, tanaga xos, jismoniy hodisa ekanini aytilgan. Ahli sunnat va mo'tazila vakillari qiyomatda tananing tirilishiga imon keltiradilar. Darhaqiqat, ahli sunnat uchun qayta tirilish badanda bo'lishi fikri diniy farzlardan bo'lib, uni muhokama qilish ham joiz emas. Boshqa tomondan, islom faylasuflari tirilishning jismonan sodir bo'lishini ekanligini inkor etib, uning faqat ruhiy bo'lishini ta'kidlaydilar. G'azzoliy "Tahofut ul-falosifa" asarida faylasuflarni takfir qilgan masalalarda qiyomat masalasi birinchi o'rinda turadi. Islom faylasuflaridan Ibn Sino insonning vayron bo'lib, madumga aralashganidan keyin ham xuddi shunday qayta tirilishi mumkinligini asosli deb hisoblamaydi. Ibn Rushd ham qiyomatning jismonan emas, balki ruhiy bo'lishini ta'kidlaydi. Uning qarashlariga ko'ra, borliqning oxiri haqidagi oyat va hadislardagi tana va badan tasvirlari jannatga da'vat qilish va do'zaxdan qochishga undash maqsadida keltirilgan. Zamaxshariy mo'tazila mazhabiga amal qilib, tirilishning badanga oid hodisa ekanligini ilgari suradi. Qayta tirilishning jismoniy yoki ruhiy bo'lishi haqidagi bahslarga nuqta qo'yib, tana va ruhning birgalikda tirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, Alloh taoloning hayot va barcha jonzotlarni qayta yaratishini tiriltirish deb ataydi. Unga ko'ra, mavjudotni yo'qdan vujudga keltirish, ularni o'ldirish va qaytadan yaratish Alloh taoloning oliy qudratiga ikki dalildir.

Oxirat hayoti bilan bog'liq masalalarda ham az-Zamaxshariy tavhid tamoyiliga bevosita tayanadi. Zamaxshariy qiyomat masalasiga to'xtalar ekan, uning boshlanishi va mohiyati, qiyomatda butun mo'min-kofir insoniyat nimalarni boshdan kechirishini batafsil bayon qiladi. Zamaxshariyning fikricha, kofirlarning oxiratni inkor qilishining markazida aslida oxiratga ishonish yotadi. Chunki ular oxiratga e'tiqodni imkon qadar ko'rmaganliklari uchun oxiratni inkor etar edilar. Qayta tirilishni inkor etuvchi kofirlar uchun osmonlar va yerning yaratilishi insonning yaratilishiga nisbatan osonroq ekanligini biladilar. Sababi, kofirlar yer va osmonning yaratilishi buyuk kuch talab qiladigan ish ekanini anglab yetishgan va bunga faqat Alloh qudrati yetishini qabul qilganlar. Shu sababli, dalil sifatida Alloh taoloning qudrati jihatidan insonning qayta yaratilishi yer va osmonni yaratishga nisbatan ancha soddaga ekanligini keltiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamaxshariy Alloh taoloning borliqni ilk yaratishi va qayta yaratishni izohlar ekan, kofirlarga borliqni qayta yaratish ham xuddi ilk yaratish kabi oson ekanini tushuntiradi. Zamaxshariy tavhid tamoyiliga amal qilgan mo'taziliy sifatida na birinchi yaratilish, na qayta yaratilish Alloh uchun mushkul emas, deb ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, jins, tur va o'lcham kabi eng kichik xususiyatlarni bilganligi sababli, unga hamma narsani qilish oson kechadi. Zamaxshariy qayta yaratish mavzusiga o'z mazhabi nuqtayi nazaridan yondashadi. Uning so'zlariga ko'ra, biror ishni birinchi marta qilish – bu ishni bajaruvchining ixtiyoridir. Qayta yaratish esa, Allohning va'dasidir. Chunki Alloh taolo insonlarning zimmasida qilgan amallari uchun hisob-kitob qilishni vojib qilgan. Shuning uchun ham farz bo'lgan amal imkonsiz amaldan eng uzoq va amalga oshish ehtimoli esa eng yaqin bo'lgan amaldir. Shuning uchun ham Alloh taolo qayta yaratishni amalga oshirishni o'zi uchun ilk yaratilishdan osonroq amal deb biladi. U o'likdan tirikni, tirikdan o'likni chiqargan zotdir.

Zamaxshariyning ta'kidlashicha, Alloh taolo qushni tuxumdan chiqarganidek, o'likni ham tirikdan chiqaradi. Yer yuzida hayvonlar va o'simliklar yaratilib, hayotga kirganidek, odamlar ham qabrlaridan tiriltiriladi. Tirikdan o'likgacha, o'likdan tirikgacha har xil ziddiyatlarni keltirib chiqarishga qodir Alloh taoloning qudratida birinchi maxluq va ikkinchi maxluq teng sanaladi.

Zamaxshariyning Alloh taoloning qudrati haqida so'z yuritar ekan, Allohning qudrati bir xil holatda ekanini izohlaydi. U bir vaqtning o'zida har bir tovushni eshitadi va bir vaqtning o'zida ko'rinadigan hamma narsani ko'radi. Bir ishni bajarish uning boshqa ishni bajarishiga to'sqinlik qilmaydi. Alloh uchun yaratish va tiriltirish bir xildir.

O'zining o'tkir tili bilan mashhur bo'lgan Zamaxshariy boshqalardan farqli o'laroq, qiyomatni inkor etuvchilarni tanqid qiladi. Zamaxshariyning fikricha, inson tirilishini inkor etib muhokama qiladigan masala – yo'qlik, ya'ni insonning o'zi vujudga keladigan sohadir. Yo'qlikdan paydo bo'lgan insonning ijodni inkor etishi aslida uning aslini inkor etishni anglatadi. Bunday yondashuv quruq qaysarlik va takabburlikdan boshqa narsa emas. Chunki inkor qilingan hodisa Alloh taoloning yaratilishning birinchi dalili bilan qudratli deb sifatlagan narsalardan biridir.

Az-Zamaxshariy falsafiy qarashlariga oid barqaror, haqiqiy, mavjudlik va ijmo ma'nolarini anglatuvchi "haq" so'zi ham Qur'onda tilga olingan Allohning to'qson to'qqiz ismlaridan biridir. Allohni bilish va yaratilgan narsalarni shu ilm bilan baholash nuqtayi nazaridan "haq" islom metafizikasining asosiy tushunchasidir. Metafizik tamoyil sifatida "haq" so'zining ma'nosi uning diniy va falsafiy ma'no shakllarini belgilab bergan. Haq bu borliq tamoyili sifatida voqelik, bilish tamoyili sifatida haqiqatdir. Bu o'ziga xos qadriyat tamoyili sifatida adolatni anglatadi. Shu bilan birga, haq kalom ilmining g'oya va tasdiqlarini to'g'ri asosda ko'rib chiqish vositasi bo'lgan hikmatni nazarda tutadi. Bundan tashqari, haq shaxsiy fazilatlarini va ijtimoiy tinchlikni shakllantirish, inson darajasini oshirish, farovonlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan bilimlardir. U ijtimoiy munosabatlarda taraqqiyotga imkon beruvchi muhim tamoyildir. Haq, shuningdek, kalom ilmining tasavvur va tekshirish jarayonlarida qo'llaniladigan muhim o'lchovidir. Haq tushunchasining semantik zichligi tarix davomida turlicha talqin qilinishiga olib kelgan. Ana shu sabablarga ko'ra muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli kalomdagi oliy voqelik Qur'ondagi haq tushunchasining ma'no shakllari orqali tahlil qilindi.

Tavhid islom dini aqidasiining asosi bo'lgan Allohning birligidir. Mo'tazala tariqati vakillari tavhiddan boshlab, ba'zi masalalarda boshqa diniy oqimlardan farqli qarashlarni ilgari surganlar. Ularning fikricha, tavhid hukmiga asosan, Alloh taoloning sifatleri zotidan farq qiladi. Chunki, ularning fikricha, bu fikrning teskarisi, ya'ni Alloh taoloning zoti bilan sifatlarining bir ekanligi tavhidga qarshi chiqadi.

Mo'tazila vakillari sifat jihatidan o'zlarini ahlu't-tavhid deb atagan bo'lsalar, ahli sunnat ulamolari tomonidan Muattila (Allohning sifatlarini inkor qiluvchilar) deb ta'riflangan. Mo'tazila a'zolari fikriga ko'ra, insonning ixtiyori to'liq o'zida bo'lib, o'z qilmishi uchun faqat o'zi javobgardir. U yaxshi yoki yomon nimaiki qilsa, bu uning o'zinikidir. Shuning uchun ham qilgan yaxshiliklari uchun savob, yomonliklari uchun esa jazolanadi. Agar bandaning ishiga Alloh taolo aralashganda edi, banda o'z ishiga javobgar bo'lmas edi. Chunki bu holatda majburlash (jabr) bo'lib, majburlash ostida insonni o'z qilmishi uchun javobgarlikka tortish shafqatsizlikdir. Bu Allohning adolatiga to'g'ri kelmaydi. Chunki Alloh eng adolatli zotdir.

Yaxshi ish qilganlarni mukofotlash va yomonlik qilganlarni jazolash (al-va'd val-void), ya'ni yaxshi amallarning savob bo'lishi va yomonliklarning jazoga

tortilishi muqarrardir. Binobarin, Alloh taolo adolat talabi sifatida yaxshi amal qilgan bandalarini jannat (al-va'd) bilan mukofotlaydi;

yomon ish qilgan bandalarini jahannam (al-void) bilan jazolashini ham bildirgan. Alloh taolo buning teskarisini qilishi va bu va'dadan voz kechishi bilan ularni mo'min deb jannatga albatta kiradi, katta gunoh qilib, tavba qilmay vafot etgan kishi albatta do'zaxga tushadi. Bu Alloh adolatining talabidir. Mo'tazila bu nuqtayi nazar bilan axloqiy buzulishni keskin rad etadi.

Az-Zamaxshariyning fikriga ko'ra, katta gunoh qilgan odam imon bilan kufr oralig'ida bo'ladi. Bu qarash gunohkorlarni kofir deb bilganlar bilan ularni mo'min deb bilgan Rahmat firqalari o'rtasidagi mo'tadil qarashni ifodalaydi. U jamiyat va sog'lom axloqiy tuzilmani saqlash maqsadida har bir musulmonni yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytarmoqni lozim deb biladi.

Az-Zamaxshariy falsafasida inson tabiati masalasi ham faol tadqiq etilgan. Ayniqsa allomaning antropologik qarashlari har tomonlama rivojlangan tizimni ifodalaydi, unda ruh tushunchasi markaziy kategoriya hisoblanadi. Mutafakkirning fikricha, inson ikki qism ya'ni tana va ruhdan iborat ongli mavjudot hisoblanadi, lekin ruh insonning asl mohiyati, tana esa ruhning mexanizmi va uning shaklini tashkil qiladi. Inson tanasi, ruh bilan solishtirganda, nuqsonli, uning zindonidir. Badan va ruh o'rtasidagi bog'liqlik muammosiga to'xtalib, az-Zamaxshariy ularning o'zaro bir-biriga kirib borishi haqida so'z yuritir ekan, atirgul tanasiga atirgul suvining va kunjut tanasiga moyning kirib borishi bilan bog'liq holda tasvirlagan. Biroq, bu dunyoni faqat ruh anglaydi va idrok etadi, hislar esa ruh uchun tashqi ogohlantirishlarni idrok etishga xizmat qiladi. Shuningdek, ruh uni amalga oshirishdan oldin iroda va harakat qilish qobiliyatiga egadir.

Shunday qilib, az-Zamaxshariyning ontologik qarashlari uning dialektik fikrlarining eng yorqin namunasi bo'lib xizmat qilishi yaqqol ko'rinib turibdi. U o'zidan oldingi olimlar bilan jiddiy bahs yuritadi va ularning qarashlarini to'ldiradi, diniy va falsafiy tizimlarning zamonaviy intellektual dunyo sinovlariga dosh bera olmagan ko'plab "bo'laklari"ni ajratib oladi. Shu boisdan ham az-Zamaxshariyning merosi butun kalom tarixi davomida jonli bahs mavzusi bo'lib qolaveradi.

Az-Zamaxshariyning fikricha, inson ongi borliqni bilish salohiyatiga ega. Shaxsni harakatga undaydigan narsa ham borliqni bilishdir. Az-Zamaxshariy falsafasida inson borliqni bilish orqali anglaydi. Demak, az-Zamaxshariy nazarida bilish va borliq yoki borliq orqali bilish tengdir. Insonning to'liq shakllanishi o'limdan keyin tugaydi. Ko'rib turganimizdek, az-Zamaxshariyning bilim va amal tamoyili

yoki so'z va amalning yaxlitligi haqidagi qarashlari keyingi davrlarda yashab ijod qilgan buyuk mutafakkirlarimiz merosida tizimli ravishda o'z ifodasini topgan.

Az-Zamaxshariy dunyo tuzilishini tahlil qilar ekan, uning fazodagi chekli va chegaralanganligini tan olib, "Alloh taolo biznikiga o'xshash cheksiz olamlarni yaratishi mumkin", deb hisoblaydi. Yaratilganidan beri dunyo doimo harakatdadir, chunki faylasufning fikricha, "mavjudlik harakatdir". Az-Zamaxshariyning fikricha, "harakatdan to'xtash boshqa narsani anglatmaydi, faqat tananing bir joyda ikki lahza turishi, ya'ni uning ichida ikki lahza harakat qilishini anglatadi". Al-Ashariy olimning quyidagi fikr-mulohazalarini shunday izohlaydi: "Harakat qiluvchi kishining harakatlari tasodifdir; "to'xtash" esa faqat nutqqa oid: tana bir joyda qolsa, "bir joyda to'xtaydi" deyiladi. Ammo to'xtash harakatlanishdan boshqacha ma'noga ega". Al-Ashariy o'z asarining boshqa bir joyida az-Zamaxshariyning yana bir muhim g'oyasini shunday izohlaydi: "Harakat – mavjudlik, harakat –intilishdir... boshqa joyning mavjudligi undagi tananing harakatidir". Ko'rinib turibdiki, fizika sohasiga tegishli bo'lgan xulosalar mutafakkir metafizikasi bilan bog'liq. Demak, mo'tazililarning fikricha, jismlar Alloh taolo tomonidan yaratilish vaqtida "harakat qilish" holatida bo'ladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, az-Zamaxshariy fikricha, Alloh olamni yo'q qilmaydi va qayta yaratmaydi, balki tabiatni asl holida saqlab, shaklini o'zgartiradi. Xuddi shuningdek, Alloh taoloning insondan tashqaridagi amallarni yaratishini haqida gapirar ekan, Az-Zamaxshariy Allohning olamga bevosita aralashuvi haqida emas, balki Alloh yaratgan o'z tabiatiga ko'ra harakat qiluvchi olam haqida gapiradi.

Zamaxshariyning fikricha, ota-onalar farzandlari uchun qiladigan duo va la'natlar qaytarilmaydigan duolar sirasiga kiradi. Shuning uchun biz farzandlar sifatida ularning duolarini qabul qilishga, la'natlaridan uzoq bo'lishga harakat qilishimiz kerak. Ota-onalar doimo farzandlari uchun ibodat qilishlari kerak. G'azablanganlarida ularga aytadigan la'natlari, natijada o'zlariga og'riq keltiradi. Eng yaxshisi, Alloh ajrini bersin, Alloh uni isloh qilsin, Alloh yaxshiliklarini ziyoda qilsin, Alloh shifo bersin, degan go'zal iboralarni o'rganishdir.

**Xulosa va takliflar.** Zamaxshariy mo'tazila mazhabiga amal qilib, tirilishning badanga oid hodisa ekanligini ilgari suradi. Qayta tirilishning jismoniy yoki ruhiy bo'lishi haqidagi bahslarga nuqta qo'yib, tana va ruhning birgalikda tirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, Alloh taoloning hayot va barcha jonzotlarni qayta yaratishini tiriltirish deb ataydi. Unga ko'ra, mavjudotni yo'qdan vujudga keltirish, ularni o'ldirish va qaytadan yaratish Alloh taoloning oliy qudratiga ikki dalildir.

#### ADABIYOTLAR

1. Highland J. Guidance, Tolerance, and the Reverent Mindset in the Thought of al-Ghazzali and Symeon // *The Muslim World*. 2004.
2. Абу Хамид аль-Газали. Крушение позиций философов. М.: «Ансар», 2007. – 281 с.
3. Jibril S. Ibn Rushd's Metaphysics // *Philosophy and physics*. 2020.
4. Öztürk M., Mertoğlu M.S. Zemaşeri. <https://www.ulkucudunya.com/index.php?page=haber-detay&kod=21241>.
5. Ali Özek, Zemaşeri ve Arap Lüğatçılığındaki Yeri, İstanbul 2005, s.
6. <https://muslimphilosophy.com/sina/art/ibn%20Sina-REP.htm>



UDK:182.2

*Akbar ALIMOV,*  
*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedrası dotsenti, PhD*  
*E-mail: alimovakbar@sies.uz*

*SamDCHTI professori, f.f.d O.G‘aybullayev taqrizi asosida*

## HUSAYN VOIZ KOSHIFYNING AXLOQIY-FALSAFIY QARASHLARIDA MEHMON KUTISH ODOBI MASALASI

Аннотация

Maqolada Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy-falsafiy qarashlari mehmon kutish odobi va xizmat ko‘rsatishning axloqiy qoidalari e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada Husayn Voiz Koshifiy yashagan davrda – mamlakatdagi karvonsaroy va choyxonalarda, to‘y va ma‘rakalarda, xalq sayillari va turli bazmlarda – mezbun va mehmon hamda xodimlar va xizmatkorlarning odob-axloq qoidalari rioya etishlari ilmiy tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Mehmon, mehmondo‘stlik, odob-axloq, mehmon kutish odobi, etiket qoidalari, Husayn Voiz Koshifiy, “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asari.

## ПРОБЛЕМА ЭТИКЕТА ГОСТЕПРИИМСТВА В ЭТИКО-ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ ХУССЕЙНА ВОИЗА КОШИФИ

Аннотация

В данной статье основное внимание уделяется этико-философским воззрениям Хусейна Ваиза Кошифи, этикету ожидания гостей и этическим правилам обслуживания. В статье также научно анализируется соблюдение правил этикета хозяином и гостем, а также служащими и слугами во времена, когда жил Хоссейн Ваиз Кошифи - в караван-сараях и чайных домах, на свадьбах и маракках, общественных собраниях и различных вечеринках.

**Ключевые слова:** Гость, гостеприимство, манеры, правила этикета ожидания гостя, Хусейн ибн Али аль-Кашифи, «Футувватномаи Султони».

## THE PROBLEM OF HOSPITALITY ETIQUETTE IN THE ETHICAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF HUSSAIN VOIZ KOSHIFI

Annotation

This article focuses on the ethical and philosophical views of Husayn Vaiz Koshifi, the etiquette of waiting for guests and the ethical rules of service. The article also scientifically analyzes the observance of the rules of etiquette of the host and guest, as well as employees and servants, during the time when Hossein Vaiz Koshifi lived - in caravansary and teahouses, weddings and marakas, public gatherings and various parties.

**Key words:** Guest, hospitality, manners, rules of etiquette for waiting for a guest, Husayn Vaiz Koshifiy, "Futuvvatnomai sultani or javonmardlik tariqati".

**Kirish.** Mehmon deb aslida, boshpana, yegulik va ichgulik bilan ta‘minlashingiz uchun uyingizga musofir holda vaqtincha nozil bo‘luvchi kishiga aytiladi. “Ziyofat, ya‘ni mehmonnavozlik va mehmon kutish oliyanob xulqlardan bo‘lib, fozil kishilar bu narsaga qadim-qadimdan beri amal qilib keladilar. Xalqimiz mehmondo‘stligi, mehmonnavozligi bilan shuhrat qozongan. Biror o‘zbek xonadoni, oilasi yo‘qki, mehmonni xursandchilik bilan kutib olmagan, uyidagi bor ne‘matlarni dasturxoniga keltirib to‘kmagan bo‘lsa. “Mehmon – otangdan ulug‘”, “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kirar teshikdan”, “Mehmon oldida hatto mushugingni pishit dema” kabi maqol va hikmatlar bejjizga aytilmagan”[1].

Xizmat ko‘rsatish sohasiga oid qarashlar uzoq asrlilik tarixga ega bo‘lib, bu borada “Markaziy Osiyo xalqlari etnomadaniyatida ko‘plab milliy qadriyatlar yaratilgan. Ayniqsa, temuriylar davrida mehmonlarga xizmat ko‘rsatish yuqori darajada ekanligini Klavixo ham o‘z kundaliklarida e‘tirof etadi” [2]. Mehmonlarga xizmat ko‘rsatish temuriylar davrida muhim ahamiyat kasb etib, ajdodlarimiz tomonidan ibratli milliy qadriyatlar shakllangan. Mutafakkir allomalarimiz asarlarida xizmat ko‘rsatishga oid axloq-odob qoidalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada Husayn Voiz Koshifiy tomonidan ishlab chiqilgan tariqat vakillari egallashi

mumkin bo‘lgan kasblarning axloq-odob qoidalari – kasb etikasini hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi va mazkur sohadagi mutaxassislar uchun muhim nazariy va amaliy-uslubiy manba bo‘lib xizmat qilinishi tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik, germeneytik kabi usullar orqali yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Temuriylar davrining etuk allomalaridan biri Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy-falsafiy qarashlari bayon etilgan asarlarda xizmat ko‘rsatish, jumladan, mehmon kutish odobi batafsil yoritilgan.

Allomaning “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asarida “tariqat ahlining odobi haqida”gi bobida “mehmon kutish odobi” xususida alohida fasl mavjud bo‘lib, unda xizmat ko‘rsatish odoblarini batafsil yoritib berilgan.

Husayn Voiz Koshifiyning fikricha, mehmon kutishning muayyan odob-axloq qoidalari bo‘lib, har bir mezbun bu talablarga rioya etishi lozimligini ko‘rsatar ekan shunday deb yozadi: “agar mehmon kutishning odobi va qoidalari nechta deb so‘rasalar, o‘n to‘rtta deb aytgil. Ikkitasi shart, oltitasi asos (arkon), yana oltitasi odobdir” [3]. Koshifiy mehmon kutish odoblarini tasnifini keltirar ekan ularning sharti va asoslari hamda odoblarini har birini alohida izohlaydi.

“Agar ikki shart qaysidir deb so'rasalar, aytil: birinchisi mehmonga halol va pokiza taomni taqdim etish, ikkinchisi mehmonni biror g'arazli maqsad yoki riyo uchun kutmaslik” [3]. Halollik, pokizalik, samimiylik va beg'arazlik xalqlarimiz mentalitetining asosiy xususiyatlaridan bo'lgani bois, Koshifiy bu xislatlarni mehmon kutishning asosiy shartlaridandir deb tushuntiradi. Alloma bayon etgan Xushmuomalalik, odoblilik va mehribonlik, nazokatilik (muloyimlik) kamtarlik sabr-toqatlik hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatishning muhim muomala qoidalari xisoblanadi.

Husayn Voiz Koshifiy mehmon kutish odobining asoslarini ratsional tarzda izohlar ekan, shunday deydi: “agar oltita asos qaysidir, deb so'rasalar, aytil: birinchidan, mehmonni ta'zim bilan kutib olish va yaxshi joyga o'tkazish, ikkinchidan, mehmon qarshisida ochiq chehra bilan xushnud o'tirish. Uchinchidan, mehmon qancha (ko'p) kelsa ham ranjimaslik. To'rtinchidan, chaqirilmagan mehmonni ko'proq hurmat qilish. Beshinchidan baxillik qilmaslik va mehmondan narsasini qizg'anmaslik. Oltinchidan yasama iltifot ko'rsatmaslik, qo'ldan kelguncha mehmonni sidqidildan samimiy xursand qilish” [3]. Mazkur axloqiy fazilatlar milliy mentalitetimizga xos bo'lgan qadriyat bo'lib, bugungi kunda kasbiy etiket sifatida umumbashariy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois alloma tomanidan bayon etilgan bu kasbiy etiket qoidalari zamonaviy xizmat ko'rsatish tizimida alloma bayon etgan mehmon kutish odobining asoslari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Servis xizmatlar ko'rsatish sohasidagi hozirgi raqobat kuchaygan bir sharoitda har bir xodim Koshifiy bayon etgan mehmon kutishning bu asoslariga rioya etsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda sifatsiz servis xizmati har qanday korxonaga yoki tashkilotning inqiroziga sabablardan biri bo'lishi mumkin. Alloma bayon etgan mehmon kutish odobining to'rtinchi sharti “chaqirilmagan mehmonni ko'proq hurmat qilish” diniy qadriyatlarimizga muvofiq bo'lib, ko'pincha shaxsiy xonadoningizga kelgan mehmonni nazarda tutadi.

Kasb etiketida “odoblilik bu odamning vujudga kelgan har qanday vaziyatda ham boshqalar bilan to'g'ri muomala qilish, gaplashish ohangini to'g'ri tanlash, vaziyat keskinligini pasaytiruvchi so'zlarni o'z vaqtida topib ishlatish va o'zini xatti-harakatlarida odoblilik talablariga rioya qilish qobiliyatidir” [4]. Husayn Voiz Koshifiy mehmon kutishning adablarini ham alohida ta'kidlab o'tar ekan, shunday deydi: “agar oltita adab qaysidir, deb so'rasalar, aytil: avval shuki, mehmondan qaysi taomni yoqtirasiz deb so'ramang. Ikkinchidan, mehmon uchun o'zingiz xush ko'rgan eng yaxshi ovqatni pishiring. Uchinchidan, ovqat eyishga hadeb zo'rlamang. To'rtinchidan, agar tashqariga chiqsa, birga chiqing va kamida yetti qadam birga yuring. Beshinchidan, ataylab o'zini ko'rsatish uchun namoyishkorona uzgohlik qilmang. Oltinchidan, minnat qilmang, balki aksincha, mehmon dasturxonangizdan non eganidan xursand bo'ling va shukr qilib, minnatdorchilik bildiring” [3]. Mazkur odob qoidalari Sharq xalqlarida mehmon kutishning o'ziga xos etiketini tashkil etgan. Shu jihatlari bilan Sharq xalqlari o'zining mehmondo'stligi bilan ajralib turadi.

Alloma xizmat ko'rsatish jarayonida mezbondan tashqari mehmon ham rioya etishi lozim bo'lgan axloqiy qoidalar to'g'risida ma'lumot berib o'tadi. Mehmonning axloqiy qoidalari tasniflar ekan, ularni: ikkita odob qoidalari va sunnatga hamda o'nta adabga ajratadi. Dastavval, mehmonga borish odob qoidalari mantiqiy bayon etar ekan shunday deydi: “agar mehmonga borish odob-qoidalari qaysi, deb so'rasalar, aytilgil, birinchidan, yaxshi, halol odamlar uyiga mehmon bo'lib borish, fosiq kishilar haqqini yeydigan haromxo'rlar uyiga qadam qo'ymaslik kerak, ulardan hazar

qilmoq darkor. Ikkinchidan, shariatga xilof ishlar sodir bo'ladigan majlislariga bormaslik lozim, ammo agar sening hurmating uchun g'ayrisar'iy ishlar tark etiladigan bo'lsa, borish mumkin” [3]. Alloma bu erda qanday joylarga borish va qanday joylarga bormaslik kerakligini tushuntirib o'tmoqda.

Tasavvuf ta'limotining yirik nazariyotchilaridan biri sifatida Husayn Voiz Koshifiy mehmonning odobi xususida Islom dini nuqtai nazaridan amal qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb sunnatlarni quyidagicha bayon etadi: “ikkita sunnat shuki, birinchidan mehmonga taklif qilganlarida, darhol qabul qilsin, ikkinchidan, qanday ovqat yoki taomlar tayyorlashni so'ramasin” [3]. Bu odob qoidalari kamtarlik va samimiylik kabi axloqiy fazilatlar ko'rsatilmog'da.

Husayn Voiz Koshifiy mehmonning o'nta adabini ham ratsional mantiqiy tarzda tushuntirib o'tadi: “o'n adab qaysi, deb so'rasalar, aytil: birinchidan mehmonga borganda mezbondan oldin yurmaslik, ikkinchidan uyga etganda o'ng oyoq bilan kirsin, uchinchidan, uyga kirganda salom bersin. To'rtinchidan, qaysi joyni ko'rsatsalar, o'sha joyga borib o'tirsin. Beshinchidan, o'ng-so'liga va yuqoriga yoki pastga hadeb qaramasin. Oltinchidan, mezbondan xursand bo'lguncha taomdan yesin. Yettinchidan, o'z oldidagi taomni u yoq-bu yoqqa ko'tarib qo'ymasiz. Sakkizinchidan, taomni yegandan keyin zudlik bilan tursin. To'qqizinchidan, taomdan keyin shukrona aytib, uy egasini duo qilsin. O'ninchidan, tashqariga chiqqandan keyin shukr qilsin, ammo shikoyat qilmasin” [3].

Husayn Voiz Koshifiy xizmat ko'rsatish sohasidagi axloqiy talablarni bayon etar ekan, mehmon kutish odobidan tashqari yana, alohida bir faslda xodimlar (xizmatkorlar) odobi haqida ham ma'lumot berib o'tadi. Mazkur faslda xodimlarni odob-axloq qoidalari bayon etar ekan shunday deydi: “...xodim to'rt ishini yaxshi bilishi va doim ado etishi lozim. Buning biri – supurib-sidirish, ikkinchisi – ovqat pishirish, uchinchisi - kir yuvish, to'rtinchisi - idish-tovoq yuvish. Va bu ishlarning har biri uchun amal qilinadigan ma'lum qoidalar bor” [3]. Husayn Voiz Koshifiy bu qoidalarni barchasini birma-bir sanab o'tadi. Supurishning yigirmata qoidasini tushuntirib beradi. Bundan tashqari, xodimlarning ovqat pishirishda o'n oltita, kir yuvishda yettita qoidalariga rioya qilishlari lozimligini batafsil izohlab o'tadi. Shuningdek, meshkobchilar kasbiy axloqiy talablarini bayon etar ekan, avvalo “ular pok bo'lishi, xususan, ma'naviy jihatdan qalbi pok bo'lishi lozimligini ta'kidlab, ularning kasblariga tegishli o'nta axloqiy qoidani tushuntirib beradi” [3]. Husayn Voiz Koshifiy tariqat vakillari egallagan kasblarning axloq-odob qoidalari go'zallik va pokizalik (zamonaviy gigiyena talablari) hamda ma'naviy poklik kamtarlik, samimiylik, beg'arazlik, xushmuomalalik, xushfe'llik kabi axloqiy kategoriyalar orqali yoritib beradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki;

Birinchidan; musulmon Sharq xalqlari etiketida mehmon kutish odob qoidalari alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ajdodlarimiz tomonidan yaxshi milliy qadriyatlar yaratilgan.

Ikkinchidan; Husayn Voiz Koshifiy asarlarida servis - xizmat ko'rsatish odoblari mukammal ishlab chiqilgan. Shu bois, Husayn Voiz Koshifiy mehmon kutish odobi haqidagi qarashlari Markaziy Osiyoda xizmat kursatish darajasini namoyon etuvchi manbadir.

Uchiinchidan; alloma tomonidan Temuriylar davridagi mehmon kutish odatiga oid mulohazalari dolzarb ahamiyat kasb etadi va mazkur sohadagi mutaxassislar uchun muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Ismoilov Odilxon. Mehmondo'stlik hamda mehmon kutish va mehmonga borish odoblari // <https://islom.uz/maqola/1069>



2. Гонсалес, Руи Де Клавихо Самаркандга – Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406) –Тошкент.: O'zbekiston, 2010. - Б.154-185.
3. Кошифий Хусайн Воиз. Футуватномаи султоний; Ахлоқи муҳсиний. Нашрга тайёрловчилар М.Аминов, Ф.Хасанов. – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011. - Б.77.
4. Худойшукуров Т. ва бошқалар. Касбий этика ва этикет. Дарслик. – Тошкент.: Иқтисод-молия, 2021 - Б.41.
5. Akbar A. Rationality In Moral Philosophy Husayn Kashifi //European Journal of Humanities and Educational Advancements. 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 132-134.
6. Алимов А. Н., Узбекистан С. Хусейн Ваиз Кашифи о совершенствовании человеческой морали Hussein Waiz Kashifi on improving human morality //Ответственный редактор. – 2021. – С. 13.
7. Narboevich A. M. The role of sufism figures in the scientific and spiritual environment of Samarkand during the timurid period (in the case of Maulana Muhammad Kazi) //World Bulletin of Social Sciences. – 2023. – Т. 19. – С. 5-8.
8. Akbar A. Rationality In Moral Philosophy Husayn Kashifi //European Journal of Humanities and Educational Advancements. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 132-134.
9. Narboevich A. A. Aristotle and Husayn Waiz Kashifi: Harmony in Moral Views //Texas Journal of Philology, Culture and History. – 2022. – Т. 11. – С. 27-29.
10. Turayevich U. R., Qahramonovich H. N. Zamonaviy dunyoning axloqiy muammolari-zo ‘ravonlik falsafasi //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 57. – №. 4. – С. 422-425.
11. Хаққулов Н. Қ. Perfect generation-personality of private education and humanity facilities //Мировая наука. – 2019. – №. 2 (23). – С. 62-63.



Zilola ANVAROVA,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti tadqiqotchisi

E-mail: [anvarovazilola522@gmail.com](mailto:anvarovazilola522@gmail.com)

Toshkent Amaliy Fanlar universiteti,

*Pedagogika fanlari doktori M.Axmedova taqrizi ostida*

### CLINICAL AND CLASSIFICATION OF PEDAGOGICAL APPROACH IN TEACHING ETIOLOGY AND PATHOGENESIS OF ANATOMICAL AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN'S JOINTS IN MEDICINE

Аннотация

In the article, the pedagogical approach clinic and classification and methodical methods of its treatment are widely used in teaching the etiology and pathogenesis of anatomical and functional characteristics of children's joints in medicine in order to improve the medical knowledge of students in medical education. Clinical polymorphism, etiological and pathogenetic heterogeneity of the disease, which helps students to think independently in the teaching of neontology using modern information and communication technologies, expand the scope of creative research and thinking, as well as connect what they learned in the classroom with life the points determined by are stated.

**Key words:** Medical education, rheumatic disease, treatment, description, disease, treatment, medical skills, medical education, educational objective, bicillin, prevention, incidence and recurrence.

### КЛИНИКО-КЛАССИФИКАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ПРЕПОДАВАНИИ ЭТИОЛОГИИ И ПАТОГЕНЕЗА АНАТОМО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ДЕТСКИХ СУСТАВОВ В МЕДИЦИНЕ

Аннотация

В статье клиника педагогического подхода, классификация и методические методы ее лечения широко используются при обучении этиологии и патогенезу анатомо-функциональных особенностей суставов детей в медицине в целях совершенствования медицинских знаний студентов медицинского образования. Клинический полиморфизм, этиологическая и патогенетическая гетерогенность заболевания, что помогает студентам самостоятельно мыслить при преподавании неонтологии с использованием современных информационно-коммуникационных технологий, расширять сферу творческих исследований и мышления, а также связывать изученное на занятиях с жизнью. указаны точки, определенные.

**Ключевые слова:** Медицинское образование, ревматическое заболевание, лечение, описание, заболевание, лечение, медицинские навыки, медицинское образование, образовательная цель, бициллин, профилактика, заболеваемость и рецидивы.

### TIBBIYOTDA BOLALAR BO'G'IMLARINING ANATOMIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI ETIOLOGIYASI VA PATOGENEZINI O'QITISHDA PEDAGOGIK YONDASHUV KLINIKASI VA TASNIFI

Аннотация

Maqolada tibbiy o'qitishda talabalarning tibbiy bilimini takomillashtirishda tibbiyotda bolalar bo'g'imlarining anatomik va funksional xususiyatlari etiologiyasi va patogenezini o'qitishda pedagogik yondashuv klinikasi va tasnifi va uni davolashning metodik usullari keng foydalanilgan. Neontologiya fanini o'qitishda talabalarning dars mashg'ulotlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni dars mashg'ulotlarida o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga yordam beradigan klinik polimorfizm kasallikning etiologik va patogenetik heterojenligi bilan belgilanadigan fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tibbiy o'qitish, revmatizm kasaligi, davolash, tavsif, kasal, muolaja, tibbiy ko'nikma, tibbiy ta'lim, ta'limiy maqsad, bitsillin, profilaktika, kasallanish va qaytalanish.

**Kirish.** Tibbiyotda bolalar bo'g'imlarining anatomik va funksional xususiyatlari etiologiyasi va patogenezini o'qitishda pedagogik yondashuv alohida ahamiyatga ega. YRA ning asosiy etiologik omili bo'lgan yagona aphid aniqlanmagan, shuning uchun YRA polietiologik, ya'ni heterojen kasallik. YRA rivojlanishiga moyil bo'lgan omillarni va YRAni amalga oshirishga yordam beradigan omillarni (agar moyil bo'lganlar mavjud bo'lsa) ajrating. YRA rivojlanishiga moyil bo'lgan omillarning ushbu pozitsiyalaridan organizmda doimiy bo'lganlar guruhiga kiruvchi bir qator viruslar ko'rib chiqiladi. Bular, asosan, DNK-p PI IK ni o'z ichiga olgan viruslar (onkornaviruslar, retroviruslar, parvaviruslar va boshqalar) bo'lib, ular xromosomalardagi genomik hududlarni almashtira oladilar,

uzoq vaqt davomida faol bo'lmaydilar va faqat har qanday qo'zg'atuvchi omillar bilan boshlanganidan keyin mutagen funktsiyalarni bajaradilar. Ularning harakatlarining tashabbuskorlari immunitet mexanizmlarini zaiflashtiradigan tez-tez kasalliklar, gipotermiya, insolyatsiya, travma, noqulay ekologik omillar (radiatsiya ta'siri, og'ir metallar va boshqalar), surunkali stress bo'lishi mumkin. Biz YRA bilan og'riq bolalarda bir qator og'ir metallar va mikroelementlarning to'planish darajasini o'rgandik. Ularning 50% foizida xromning ko'payishi (ruksat etilgan qiymatlardan 3-4 baravar yuqori) va JRA bilan og'riq bemorlarning 85% foizida qon zardobida kadmiyning yuqori konsentratsiyasi borligi aniqlandi. JRA bilan og'riq bolalarning qon zardobida xrom va kadmiyning ko'payishi darajasi, ularning

tuproqda to'planish darajasi va bemorlarning yashash joyidagi suvda kontsentratsiyasi o'rtasida bog'liqlik aniqlandi. Bu fakt xrom va kadmiyning kasallikning rivojlanishi yoki zo'ravonligida ishtirok etishini ko'rsatadi. YRA genezisida sitomegalovirus va Ebshtein-Barr virusining roli aniqlandi. Bu viruslar aniq mutagen xususiyatga ega, immunokompetent moddalar uchun yuqori tropizmga ega. Ushbu viruslarning ta'sirini jadal o'rganish ularning tanadagi ko'plab immunologik o'zgarishlarning rivojlanishida ishtirok etishini isbotlaydi, bu esa bemorning individual xususiyatlari, shu jumladan HLA tizimida bir qator markerlarning mavjudligi bilan sharoit yaratadi. revmatik, onkologik va gematologik kasalliklarning rivojlanishi uchun. Hozirgi vaqtda artropatik (HLA-B27 bilan bog'liqlik mavjud bo'lganda) eperokolitik va urogenital infeksiyalarga (salmonellyoz, shigelloz, yersinioz, xlamidiya, mikoplazmoz va boshqalar) alohida rol beriladi. YRA ning mumkin bo'lgan etiologik omili nuqtai nazaridan, qizilcha virusi ham ko'rib chiqiladi, u artikulyar tuzilmalarda tropiostaga ega bo'lib, sinovitning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Immunitetning "kichik" anomaliyalari mavjudligi ham muhokama qilinadi: IgA va lizozimning selektiv etishmuvchiligi, fagotsitozning kamayishi, komplement C2 va C4 komponentlarining etishmasligi va boshqalar. Kasallikning HLA tizimining antijenlarini (B12, B27 B35, DR1, DR2, DR4, DR5, DW14, D) C2 va boshqalarni tashish bilan bog'lanishiga alohida rol beriladi. Umuman olganda, YRA jinsga moyil bo'lgan kasallik sifatida tasniflanadi. Kasallikning rivojlanishini boshlaydigan omillarning heterojenligi JRA ning klinik polimorfizmini belgilaydi. JRA kursining har bir varianti o'z amalga oshirish mexanizmiga ega, bunda yuqumli omillar va immunogenetik holatning xususiyatlari rol o'ynaydi. Predispozitsiya qiluvchi fon biriktiruvchi to'qima displaziyasining kichik sindromlari bo'lishi mumkin.

YRA bilan kasallangan bemorlarni HLA tizimiga ko'ra fenotiplash kasallikning bir qator shakllarini turli antigenlarni tashishning ustun chastotasi bilan bog'lash imkonini berdi. YRA ning eng og'ir shakllari jarayonda ichki organlarning ishtiroki bilan B35 bilan birgalikda DR lokusu antijenlarini tashish bilan bolalarda kuzatilishi aniqlandi. B12, B40 va B27 HLA lokuslarining mavjudligi ko'proq JRA ning asosan artikulyar shakllari bilan bog'liq va JRA ning seropozitiv variantlari HLA-DR1 mavjudligi bilan bog'liq. HLA-DR genetik aniqlashda ishtirok etadi deb hisoblash mumkin. JRA klinik polimorfizmi. YRA bilan og'rikan bemorlar va ularning oila a'zolarida HI A uchun fenotipik xususiyatlarni o'rganish ushbu kasallikning asosiy va ikkilamchi prognozi uchun istiqbollarni ochadi. So'ralganlarning oilalarida JRA bilan og'rikan bir nechta bolalar yoki yaqin qarindoshlar kamdan-kam uchrasa ham, HLA haplotiplarini o'rganish natijalari ushbu kasallikka tug'ma moyillikni taxmin qilish imkonini beradi. Ego, o'z navbatida, turmush tarzini (sport, qo'shimcha yuklamalar, ovqatlanish va boshqalar), qattiqlashuv, profilaktik emlashlar va boshqalarni tashkil etishga yondashuvlarda individuallashtirishni nazarda tutadi.

YRAning turli shakllari bo'lgan bolalarda HLA fenotipini aniqlashga oid adabiyot ma'lumotlari davolash strategiyasini tanlash imkoniyatini ko'rsatadi.

HLA-B8 va HLA-DR3 bilan bog'liq bo'lgan JRA bemorlarida oltin preparatlari bilan davolashda og'ir proteinuriya aniqlanadi va HLA-B35 bo'lgan bemorlarda kortikosteroid terapiyasining ta'siri yuqoriroq. HLA-DR3 va HLA-A3 haplotiplari bo'lgan bemorlarda davolanishga qaramay, ko'pincha JRA tez progressiv kursga ega, HLA-B5, HLA-DR] va HLA-JDR2 bo'lgan bemorlarda esa ko'pincha yaxshi prognoz va eroziv-destruktiv ketma-ketlikning sekin rivojlanishi kuzatiladi. bo'g'imlarda. Shunday qilib, JRA irsiy moyillikka ega bo'lgan multifaktorial kasallik bo'lib, uning

genezisida immunogenetik omillar, doimiy virusli infeksiyalar, atrof-muhitning salbiy ta'siri va psixoemotsional stress rol o'ynaydi. Klinik polimorfizm kasallikning etiologik va patogenetik heterojenligi bilan belgilanadi.

Umuman olganda, YRA otoimmün kasallik bo'lib, klassik nuqtai nazardan fiziologik immun jarayonlarning tartibga solinishi buzilganida rivojlanadigan patologik holat sifatida tavsiflanadi, bu o'z to'qimalarining tarkibiy qismlariga qarshi hujayrali va gumoral immunitet reaksiyalarining paydo bo'lishiga olib keladi. maqsadli organlarda strukturaviy va funktsional buzilishlarni keltirib chiqaradi. Otoimmün kasallik sifatida JRA ning muhim xususiyati o'z-o'zidan yorliqlarda, hujayralar ichida yoki inson tanasining hujayradan tashqari bo'shliqlarida mavjud bo'lgan antijenlarga qarshi qaratilgan otoantikorlarning ortiqcha ishlab chiqarilishidir. Avtoantikorlar keng doiradagi molekularlar - sitoplazma komponentlari, yadro, hujayra membranalar, qon zardobi oqsillari, gormonlar, fermentlar bilan reaksiyaga kirishishi mumkin. HLA, nuklein kislotalar, fosfolipidlar, steroidlar va boshqalar avtoantigen sifatida harakat qilishi mumkin. Otoantikorlarning asosiy xossalari o'zaro reaksiyalar va qon oqimida antigen-antikor komplekslarini hosil qilishdir. Antigen-antikor reaksiyalari komplement tizimining oqsillarini faollashishi bilan birga keladi, bu uning sinoviumdagi titrining pasayishi, qon tomir o'tkazuvchanligining oshishi va gidrolitik fermentlar, faol kislorod radikallari, araxidon kislotasi metabolitlari (etkazib beruvchi) ning chiqishi bilan namoyon bo'ladi. prostaglandinlar). Immunoglobulinlar va revmatoid omil (RF) molekularlari asta-sekin to'planib, artikulyar xaftaga sirt qatlamlarida to'planadi, bu sinovial membranada proliferatsiya jarayonlariga va pannus shakllanishiga yordam beradi. Klassik YRAning tizimli (artikulyar-visseral) shakllari, klinik ko'rinishlari va morfologiyasiga ko'ra, tizimli vaskulit deb hisoblanadi. Poliserozit va organlarning shikastlanishi hodisalari bilan oqadi. YRA bilan og'rikan bemorlarda tananing immunitet reaksiyasining deyarli barcha bosqichlarida xususiyatlar aniqlanadi. Ular kasallikning shakli va shakliga bog'liq. Umuman olganda, JRA patogenezida immunopatologik mexanizmlarning etakchi roli isbotlangan deb hisoblanadi. Yallig'lanishning o'tkir bosqichida, xususan, CRPda oqsillar mavjudligiga alohida qiziqish saqlanib qolmoqda. U JRA ning erta namoyon bo'lishining belgisi hisoblanadi va yuqori darajadagi IL-6 va bir qator lizosomal fermentlar bilan birgalikda kasallikning progressiv kursi va erta rivojlanishining prognostik omili (markeri) sifatida qaraladi. tizimli osteoporoz.

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bolalarda, ayniqsa JRA ning tizimli shakllarida, effektor hujayralar, xususan, polimorfonukulyar leykotsitlar va mononuklear hujayralar migratsiya funksiyalarining sezilarli darajada buzilishi mavjud. JRA bilan og'rikan bemorlarda ularning disfunktsiyasi asosan leykotsitlar xemotaksisi (leykotsitlarning yallig'lanish joyiga yo'naltirilgan ko'chishi) va xemokinez (komplementning C5 komponenti tomonidan rag'batlantirilgan migratsiya) faolligining pasayishi bilan namoyon bo'ladi. birlamchi (genetik) nuqson va immun yallig'lanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, darhol uni jarayonning vaqtiga qaratadi.

**Klinikasi va tasnifi.** JRA ning klinik ko'rinishi ko'plab omillarga bog'liq - bolaning yoshi, irsiyat, jinsi, immunitet tizimining boshlang'ich holati, uning atrof-muhit sharoitlari, hayotning psixo-emotsional holatining xususiyatlari, bolalarga munosabat va yaqin qarindoshlari kasallik, tashxisning o'z vaqtida, terapiyaning etariligi. Shuni ta'kidlash kerakki, 80% hollarda JRA ertami-kechmi nogironlikka olib keladigan qaytalanuvchi va progressiv kurs bilan og'ir surunkali kasallikdir. Kasallikning asosiy klinik ko'rinishlari bo'g'imlarning shikastlanishi, ko'zning o'ziga

xos shikastlanishi va umumiy revmatoid sindrom bo'lib, isitma, tipik revmatoid toshmalar, poliserozit va tizimli revmatoid vaskulit tufayli yuzaga keladigan ichki organlarning shikastlanishi bilan tavsiflanadi.

Articular sindromi JRA ning amalda eng erta alomatidir. Ba'zan, artrit boshlanishidan oldin, bola artralgiya bilan bezovtalanadi, keyinchalik sinovitning rasmi rivojlanadi, ya'ni sinoviumdagi yallig'lanish jarayoni. Shu munosabat bilan u shishiradi (shishadi), giperemik bo'ladi, ko'proq suyuqlik hosil qiladi, uning tarkibi oddiy suyuqlikdan sezilarli darajada farq qiladi. Suyuqlik past viskoziteye ega, engil somon yoki loyqa sariq bo'lishi mumkin, sitozning kuchayishi, leykotsitlar, neyrotrofillar ustunlik qilishi mumkin, oqsil kamayadi lizosomal fermentlar Bu sizga erta tashxis qo'yish, etarli davolanishni belgilash imkonini beradi. Klinik jihatdan, o'tkir sinovit bosqichida, bola og'riq va shish haqida tashvishlanadi, uning harakatchanligini cheklaydi va tana harorati odatda ko'tariladi. Jarayon davom etar ekan, sinovial membrananing mikrovillous proliferatsiyasi pannus (granulyatsiya to'qimalarining to'planishi) shaklida sodir bo'ladi. U artikulyar sirtga tarqaladi va B xaftaga kirib, unda distrofik va destruktiv o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu hujayralilik va periartikulyar osteoporoz bilan rentgenologik jihatdan namoyon bo'lishi mumkin. Keyinchalik kapsulaning fibrozi va bo'g'imdagi tolali yopishishlar rivojlanadi. Suyaklarning epifizlari eroziyalanadi va yo'q qilinadi. Bu jarayon odatda o'sib boradi va fibrozning yanada rivojlanishi qo'shilish konfiguratsiyasining o'zgarishiga, uning harakatchanligi va ankilozning cheklanishiga olib keladi. JRA uchun revmatoid tugunlarning mavjudligi xarakterlidir. Ular asosan tendon, bursalar bo'ylab tirsak, tizza va oyoq bo'g'imlarda lokalizatsiya qilinadi. Tugunlar odatda qattiq, harakatchan va palpatsiya paytida og'riqli. O'tkir jarayonning susayishi bilan ular yo'qoladi.

Tashxis va differentsial tashxis

JRA uchun diagnostika mezonlari

1. Klinik belgilari: 3 oydan ortiq davom etadigan bir bo'g'imning artriti, 2-3 oydan keyin paydo bo'ladigan ikkinchi bo'g'imning artriti. va keyinchalik, kichik bo'g'imlarning nosimmetrik shikastlanishi, tenosinovit yoki bursit, kontraktura, mushak atrofiyasi, ertalab qattqlik, revmatoid ko'zning shikastlanishi, revmatoid tugunlar, revmatoid vaskulitning ko'rinishlari (serozit, kardit, pnevmonit, nefrit va boshqalar).

2. Retpgenologik belgilar: periartikulyar osteoporoz, epifizning suyak tuzilishining kichik kistli qayta tuzilishi, bo'g'im bo'shlig'ining torayishi, suyak eroziyasi, bo'g'imlarning ankiloz, atlasning buzilishi yoki subluksatsiyasi bilan servikal umurtqa pog'onasining shikastlanishi.

3. Laboratoriya belgilari: musbat RF, sinovial suyuqlikda 5% dan ortiq hornotsitlar mavjudligi, sinovial membrananing ijobiy biopsiya ma'lumotlari (RF, o'ziga xos CEC, krioglobulinlar va boshqalar), T ning hamkorlikdagi nomutanosiblik belgilari. va B hujayralari, CRV konsentratsiyasining ortishi, immunoglobulinlar, RF, ANA mavjudligi, DNKga antikorlar, streptokokklar, xlamidiyalar, mikoplazmalar, ichak bakteriyalari, toksoplazma, toksakara va boshqa yuqumli omillar. Serologik tadqiqotlar: herpes simplex virusi, sitomegalovirus, Epstein-Barr viruslari, gepatit A, B va C, parvoviruslar, enteroviruslar va boshqalarga antikorlar Turli HLA haplotiplarini (DR1, DR2, DR i, DK5, B27 B35, B12 va boshqalar) aniqlash. ), shuningdek, bemorning yaqin qarindoshlarida HLA tizimining antijenlariga ko'ra otoimmün kasalliklarning rivojlanishiga moyillikning umumiy fenotiplari mavjudligi.

Artriting differentsial diagnostikasi. JRAni klinik ko'rinishida artikulyar sindrom mavjud bo'lgan revmatologik profil kasalliklaridan farqlash kerak. Bularga SLE, revmatizm,

dermatomiyozit, balog'atga etmagan skleroderma (tizimli skleroz) kiradi. Bolalardagi JRA reaktiv artropatiyalar, osteoxondropatiya nomi bilan birlashtirilgan kasalliklar, psoriatik va podagra artropatiyalari, bo'g'imlarning sil kasalligi va tayanch-harakat tizimining shikastlanishi bo'lgan bir qator irsiy genetik sindromlar bilan ham ajralib turadi. Tizimli qizil yuguruk. Agar SLE artikulyar sindromning yorqin klinik ko'rinishi va teri belgilarining yo'qligi bilan davom etsa, bu sezilarli differentsial diagnostika qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. JRA uchun atipik bo'lgan teriga ("kapalak"), markaziy asab tizimiga va buyraklarga zarar etkazish belgilari kasallikning dastlabki bosqichida paydo bo'lishi, shuningdek, artriting eroziv bo'lmagan tabiati qanday holatda? Yordam bering. Differentsial diagnostika leykopeniya, trombositopeniya, komplement darajasining pastligi, SLE diagnostik mezonlari bo'lgan qonda DNK va LE hujayralariga antikorlarning mavjudligi bilan to'ldiriladi.

O'tkir revmatik isitma. ARF o'z yo'nalishini o'zgartirdi, ko'pincha uning birinchi belgisi artrit, ammo JRAdan farqli o'laroq, u eroziv bo'lmagan xarakterga ega va terapiya vaqtida tez qaytariladigan kursga ega. Revmatizmning artrit har doim streptokokk infeksiyasi, o'tkir (tonzillit, skarlatina) yoki virusli infeksiya fonida surunkali tonzillitning kuchayishi bilan birga keladi, anamnezda revmatizmning "oilaviy birikmasi" mavjudligi haqida ko'rsatmalar mavjud. , nihoyat, allaqachon revmatizmning dastlabki bosqichlarida yurak shikastlanishi aniqlanadi tsa - miyokardit va / yoki endokardit. Ba'zi bolalarda revmatik xoreya bor. Qonda antistreptokokk antikorlarining yuqori darajasi (ASL-O, ASG va boshqalar) aniqlanadi, bu JRA bilan og'riqan bemorlarga xos emas. Tizimli skleroz (SS) shaklida balog'atga etmagan skleroderma. Deyarli har doim bu jarayonda mushak-skelet tizimining ishtiroki bilan davom etadi. Differentsial tashxisni o'tkazishda SSga xos bo'lgan vazospastik kasalliklarning mavjudligi, masalan, Reyno sindromi, ezofagit, teri sindromining indurativ-atrofik ko'rinishlari va SS uchun xarakterli bo'lgan umumiy progressiv tizimli obliteratsiya qiluvchi endarterit. Ma'lumki, SS, JRA kabi, klinik jihatdan polimorfik kasallik bo'lib, uning bir nechta mustaqil shakllarini aniqlash imkonini berdi. Ulardan ba'zilari, masalan, o'zaro bog'liqlik sindromi (xoch sindromi) rivojlanishning dastlabki bosqichlarida JRA bilan differentsial tashxisni talab qiladi. Reaktiv artropatiyalar - enterokolitik (yersinioz, salmonellyoz va boshqalar) yoki urogenital (xlamidiya, ureaplazmoz va boshqalar) infeksiyasidan keyin (yoki fonida) rivojlanadigan qo'shma kasalliklar. Bunday holda, sinovial suyuqlikdan artrit rivojlanishi holatida infeksiyon vosita ekilmaydi. Sinovial suyuqlikda xlamidiya, shigella, salmonella va boshqalar kabi yuqumli agent topilgan holdarda artrit yuqumli hisoblanadi (xlamidiya, salmonellalar va boshqalar). Ichak va genitouriya infeksiyalariga qarshi (yoki undan keyin) rivojlanadigan reaktiv artrit (artropatiyalar) HLA-B27 bilan bog'liqligi isbotlangan. Adabiyotga ko'ra, bir qator bemorlarda post-yersinia artriti uzoq muddatli takroriy kursni oladi va klassik ankiloz spondilitga aylanishi mumkin. Nazofarengial infeksiyaga qarshi (yoki undan keyin) paydo bo'lgan artrit (artropatiyalar), ya'ni. ICD-10 ga ko'ra, bir vaqtlar yuqumli-allergik deb atalganlar, infeksiyadan keyingi hisoblanadi.

Pediatriyaning dolzarb pedagogik-didaktik muammosi xlamidiya keltirib chiqaradigan reaktiv artritdir: ular ko'pincha JRA (JXA) ga aylanadi va progressiv ravishda bo'g'imlarda eroziv-destruktiv o'zgarishlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Takliflar mavjud: yoki HLA-B27 mikroblar uchun retseptor bo'lib, bu infeksiyani umumlashtirishga olib keladi yoki bu antijen hujayrali immunitet reaksiyalarining boshlanishida bevosita ishtirok etadi, bu esa immunitetning etarli emasligiga va mikroorganizmning barqarorligiga olib keladi. Reiter sindromi

(Reiter kasalligi yoki uretrookulosinovial sindrom). U simptomlarning klassik triadasi bilan tavsiflanadi: uretrit, kon'yunktivit, artrit. Jarayon odatda yoz-kuz davrida noqulay sanitariya-epidemiologik vaziyatda bo'lgan jo'kalarda sodir

bo'ladi. Klassik triadaning bir belgisi (uretrit yoki kon'yunktivit) bo'lmasa, "to'liq bo'lmagan Reiter sindromi" ni ajratib ko'rsatish noqonuniy hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Axmedova M.E.. Tibbiy ta'lim uchun. Pedagogika. Darslik. "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ. Toshkent - 2022. 223 bet.
2. Зернов Н.Г. О.Ф.Тарасов. Семиотика детских болезней. Москва,1984
3. Исаева Л.А. Детские болезни Москва, 1994.
4. Греф. Дж. Педиатрия (перевод с английского). Москва, 1997.
5. Сушко и соавт. Е.П. Детские болезни. Минск, 1998.
6. Ричард П. Полин, Марк Ф. Диттмар. Секреты педиатрии. 1999.
7. Шабалов. Н.П. Детские болезни. Санкт - Петербург, 2006.



UDK: 796.08:159.947.5

**Qodirjon ARZIBAYEV,**

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti*

*E-mail: Sportsmen4959@mail.ru*

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti, PhD J.Pulatov taqrizi asosida*

## O'SMIR SPORTCHILARDA MAQSADGA ERISHISH MOTIVATSIYASI TADQIQI

Аннотация

Ushbu maqolada o'smir sportchining sport faoliyati motiviga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. O'smir sportchilarda sport faoliyatiga doir motivlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'smir sportchi, motiv, motivatsiya, komponent, shark yakka kurashi, karate, trener, munosabat, omil.

## ИЗУЧЕНИЕ МОТИВАЦИИ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛИ У СПОРТСМЕНОВ-ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В данной статье собраны мысли и мнения о психологических особенностях спортсмена-подростка, влияющих на мотивацию спортивной деятельности. Освещены результаты исследования психологических факторов, влияющих на формирование мотивов спортивной деятельности у спортсменов-подростков.

**Ключевые слова:** Спортсмен-подросток, мотив, мотивация, компонент, единоборства, каратэ, тренер, отношения, фактор.

## STUDYING GOAL ACHIEVEMENT MOTIVATION IN ADOLESCENT ATHLETES

Annotation

This article contains thoughts and opinions about the psychological characteristics of a teenage athlete that influence the motivation for sports activities. The results of a study of psychological factors that influence the formation of motives for sports activities in teenage athletes are highlighted.

**Key words:** Teenage athlete, motive, motivation, component, martial arts, karate, coach, relationships, factor.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Inson komilligida jismoniy mashqlar o'rmini, bashariyat tarixining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy sohalarida salmoqli o'rin tutgan ajdodlarimiz Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Navoiy, Xorazmiy kabi ko'pdan ko'p olimu allomalarimiz, din ilmida dong taratgan olamga mashhur Al Buxoriy, Baxovuddin Naqshbandiy, Axmad Yassaviy kabi ulamolarimiz hamda jang san'ati va davlat boshqaruvi ilmi namoyondalari A. Temur, Z.M. Bobur, J. Manguberdi, Paxlavon Maxmud asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Sport faoliyatida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish, yuqori natijalarni qayd etish, raqobat sharoitlariga intilish, murakkab vazifalarni samarali bajarish, tanlagan sport turi bo'yicha ob'ro'-e'tibor qozonish, jismoniy imkoniyatlarini takmillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz psixolog-pedagog olimlardan R.A. Abdurasulov, D.N. Arzikulov, K.G. Atabekova, X.Sh. Barotov, A.S. Begmatov, Z.E. Gaziyeva, A.M. Nazarov, E.N. Nazarov, D.Sh. Nasirov, J.A. Pulatov, F.T. Egamberdiyev, A.U. Xaitov, A.A. Sobirov va boshqalar tomonidan sport faoliyati va sportchi shaxsiga oid masalalar o'rganilgan bo'lib, ularda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish, bo'lg'usi sportchilarni sport faoliyatiga tayyorlash, saralash va tanlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan G.M. Avanesyan, A.G. Assev, I. Bojovich, O.V. Dashkevich, E.P. Ilin, V.I. Kovalev, A.A. Lalayan, M.Sh. Magomed-Eminov, P.A. Rudik, A.V. Rodionov, V.F. Sopov, A.V. Shaboltas va boshqalar tomonidan jismoniy

madaniyat va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy kamolotini ta'minlashning psixologik shart-sharoitlari, sport motivlarining rivojlanish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan J. Kretti, A. Maslou, A.S. Puni, Y.Y. Palayma, R.A. Piloyan, X. Xekxauzen G.E. Kielhofner, C.S. Helfrich, G.T. Kielhofner, C.Y. Mattingly, L.R. Corno va boshqalar tomonidan trener faoliyatining psixologik-pedagogik jabhalari, sportda musoboqalashuv sharoiti ekanligi, chempionatlar va jismoniy talablar, sport motivlarining tabiati, irodani jihatdan tarbiyalashda regulatsion, erkin tanlov va motivatsion yondashuvlarning ahamiyati va shaxsining xarakterlovchi psixologik xususiyatlari masalasini ilmiy muammo sifatida tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Sharqona yakka kurashning karate-do sport turi bilan shug'illanayotgan o'smirlarning motivlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar differensial harakterga ega. Shu maqsadda A.V. Shaboltas "Sport bilan shug'ullanish motivlari", Y.M. Orlov "Muvaffaqiyatga erishish ehtiyojini aniqlash", M. Kubishkina "MAS" so'rovnomalardan foydalandik. Buning uchun Y.L. Xanin, A.V. Stambulov "Sportchi-murabbiy munosabatlari aniqlash" metodikasi bilan differensiasiyalangan sport motivlarini yuqorida keltirilgan so'rovnomalari natijalarini korrelyasion tahlilini amalga oshirdik.

Tadqiqotimiz natijalaridan kelib chiqib respodentlarni to'rt guruhga ajratib olgan edik va natijalar ham shu rakursda tahlil qilindi. Dastlab M. Kubishkina "MAS" so'rovnomasi hamda Y.L. Xanin, A.V. Stambulov "Sportchi-murabbiy

munosabatlari aniqlash” metodikasidan olingan natijalarni tahlil qilamiz.

**Tahlil va natijalar.** Gnostik komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivatsiyasi uch xil motivlar o'rtasidagi aloqa o'zaro ahamiyatlari yo'qligi ko'zga tashlanadi. Bunday xolatni biz gnostik komponentni yuqori belgilagan sportchilar o'ta ehtiyotkor va har bir narsada

bilish xissi yuqoriligi bilan izoxlash mumkin. ya'ni motivlar o'rtasida bir to'xtamga kela olmasligi ulardagi o'ta ehtiyotkorlik va xisob kitoblilik ko'rsatqichi yuqoriligidan deb qaradik. Demak motivlar o'rtasidagi o'zaro ahamiyatli aloqadorligi mavjud emasligining asosiy sababi shuki ular o'ta qaysarlik maqsadga intiluvchanlik sabab deb qaradik.

**1-jadval**  
Gnostik komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivlarining o'zaro aloqadorlik darajasi

Motivlar	emosional qoniqish	jamiyatda o'z o'rnini topish	jismoniy kamolotga erishish	ijtimoiy - emosional	ijtimoiy - ahloqiy	sportda muvaffaqiyatlarga erishish	sport bilish	reaksiya	kasbiy faoliyatga tayyorlik	fuqaroviy vatanparvarlik
emosional qoniqish motivi	-	-.096	-.067	.306	**-.498	.071	-.227	.046	-.164	*-.368
jamiyatda o'z o'rnini topish motivi		-	.264	.020	-.234	-.184	.017	-.180	*-.356	-.210
jismoniy kamolotga erishish motivi			-	*-.428	-.006	-.199	.151	-.028	-.300	*-.433
ijtimoiy - emosional motivi				-	*-.349	-.074	*-.331	-.019	-.051	-.033
sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi						-	*-.344	-.202	-.004	-.073

Xulqiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda sport bilan bilan shug'ullanish motivlarining ahamiyatli darajasi quyidagi jadvalda keltirilgan. Emosional qoniqish motivi – jamiyatda o'z o'rnini topish motivi (r=0,449), ijtimoiy-ahloqiy motiv (r=0,403), sport muvaffaqiyatlarga erishish motivi (r=0,414) va sport bilish motivlari (r=,447) bilan o'zaro ahamiyatli aloqadorligi aniqlandi. Jamiyatda o'z o'rnini topish motivi – reaksiya motivi (r=0,419) va fuqaroviy vatanparvarlik motivi (r=0,418) o'rtasida aloqadorlik borligi aniqlandi. Jismoniy kamolotga erishish motivi – ijtimoiy emosional motivi (r=0,626), sport bilish motivi (r=0,428) lari

o'rtasida o'zaro ahamiyatli aloqalar mavjud ekan. Ijtimoiy emosional motivi – sport bilish motivi (r=0,427) va kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi (r=0,455) o'zaro aloqador ekani ma'lum bo'ldi. Ijtimoiy-ahloqiy motivi – reaksiya (r=0,476), kasbiy faoliyatga tayyorgarlik motivi (r=0,423) o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi – kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi (r=0,475) bilan o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Bundan tashqari reaksiya motivi - fuqaroviy vatanparvarlik motivi (r=0,578) bilan o'zaro ahamiyatli aloqadorligi aniqlandi.

**2-jadval**  
Xulqiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivlarining o'zaro aloqadorlik darajasi

Motivlar	emosional qoniqish	jamiyatda o'z o'rnini topish	jismoniy kamolotga erishish	ijtimoiy - emosional	ijtimoiy - ahloqiy	sportda muvaffaqiyatlarga erishish	sport bilish	reaksiya	kasbiy faoliyatga tayyorlik	fuqaroviy vatanparvarlik
emosional qoniqish motivi	-	*.449	.248	.278	*.403	*.414	*.447	.186	.113	.071
jamiyatda o'z o'rnini topish motivi		-	.221	.031	.263	.102	.188	*.419	.118	*.418
jismoniy kamolotga erishish motivi			-	*.626	.067	.018	*.428	.085	.137	.117
ijtimoiy - emosional motivi				-	.360	.128	*.427	.194	*.455	.215
ijtimoiy - ahloqiy motivi					-	.210	.205	*.476	*.423	.298
sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi						-	.226	.165	*.475	.211
reaksiya motivi								-	.093	*.578

Hissiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda sport bilan bilan shug'ullanish motivlarining ahamiyatli darajasi quyidagi jadvalda keltirilgan. Ijtimoiy emosional motivi – sport muvaffaqiyatlarga erishish motivi (r=0,431),

sport bilish motivi (r=0,359) va fuqaroviy vatanparvarlik motivi (r=0,543) o'rtasida aloqadorlik borligi aniqlandi. Ijtimoiy-ahloqiy motivi – reaksiya (r=0,515) bilan o'zaro ahamiyatli aloqadorligi aniqlandi

**3-jadval**  
Hissiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivlarining o'zaro aloqadorlik darajasi

Motivlar	emosional qoniqish	jamiyatda o'z o'rnini topish	jismoniy kamolotga erishish	ijtimoiy - emosional	ijtimoiy - ahloqiy	sportda muvaffaqiyatlarga erishish	sport bilish	reaksiya	kasbiy faoliyatga tayyorlik	fuqaroviy vatanparvarlik
ijtimoiy - emosional motivi				-	.078	*.431	*.359	.165	.107	*.543
ijtimoiy - ahloqiy motivi					-	.243	.014	*.515	.335	.121

Identik komponentni yuqori baholagan sportchilarda sport bilan bilan shug'ullanish motivlarining ahamiyatli darajasi quyidagi jadvalda keltirilgan. Emosional qoniqish motivi – ijtimoiy-ahloqiy motivi (r=0,559) bilan o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Jamiyatda o'z o'rnini topish motivi -

jismoniy kamolotga erishish motivi (r=0,531), ijtimoiy-ahloqiy motivi (r=0,392), sport bilish motivi (r=0,408) va fuqaroviy vatanparvarlik motivi (r=0,551) o'rtasida aloqadorlik borligi aniqlandi. Jismoniy kamolotga erishish motivi - kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi (r=0,363) o'zaro

aloqador ekani ma'lum bo'ldi. Ijtimoiy emosional motiv - sport muvaffaqiyatlarga erishish motivi (r=0,364), reaksiyon motivi (r=0,421) va fuqaroviy vatanparvarlik motivi (r=0,391) bilan o'zaro ahamiyatli aloqadorligi aniqlandi. Ijtimoiy ahloqiy motiv - reaksiyon motivi (r=0,528) bilan o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Sportda muvaffaqiyatlarga erishish

motivi - reaksiyon motivi (r=0,519) o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Sport bilish motivi - kasbiy faoliyatga tayyorgarlik motivi (r=0,501) va fuqaroviy vatanparvarlik (r=0,411) o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Bundan tashqari reaksiyon motivi - fuqaroviy vatanparvarlik (r=0,574) motivlari o'rtasida o'zaro ahamiyatli aloqalar aniqlandi.

4-jadval  
Identik komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivlarining o'zaro aloqadorlik darajasi

Motivlar	emosional qoniqish motivi	jamiyatda o'z o'rnini topish motivi	ijtimoiy kamolotga erishish motivi	ijtimoiy - emosional motivi	ijtimoiy - ahloqiy motivi	qoida muvaffaqiyatiga erishish motivi	sport bilish motivi	reaksiyon motivi	kasbiy faoliyatga tayyorgarlik motivi	fuqaroviy vatanparvarlik motivi
emosional qoniqish motivi	-	,050	,026	,262	**,559	,250	,085	,084	,211	,110
jamiyatda o'z o'rnini topish motivi	-	**,531	,094	*,392	,030	*,408	,237	,273	**,551	
ijtimoiy kamolotga erishish motivi	-	-	,147	,036	,111	,285	,095	*,363	,021	
ijtimoiy - emosional motivi	-	-	-	,124	*,364	,074	*,421	,166	*,391	
ijtimoiy - ahloqiy motivi	-	-	-	-	,212	,179	**,528	,137	,296	
sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi	-	-	-	-	-	-	,316	**,519	,186	,319
sport bilish motivi	-	-	-	-	-	-	-	-	**,501	**,411
reaksiyon motivi	-	-	-	-	-	-	-	-	,042	**,574


Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, o'smir motivatsiyasiga ta'sir etuvchi omillar orasida moddiy manfaat, o'zini yaxshi his qilish, bilish, muloqotga ehtiyoj ustuvor harakterga ega. Chunki shaxsning faoliyati bilan bog'liq motivlar insonni ulug'likka yetaklaydi.

Shuningdek, model mazmunida qayd etilgan motivatsion sifatlarni shakllantirishga mos psixologik treninglar va ularni amalga oshirishning tadrijiy qoidalari o'rin olgan. Tadqiqotning maqsadiga muvofiq, ilmiy-amaliy natijalar bosqima-bosqich amalga oshirildi. Modelga qo'ra, o'smir karatechi sportchilarda sport faoliyati motivlarini shakllantirish va uni takomillashtirish ishlari, quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'smir karatechi sportchilarning psixologik tayyorgarligi;
- karate sport faoliyati turi uchun ahamiyatga ega motivatsion sifatlari;

- karate sport faoliyati turi uchun ahamiyatga ega irodaviy sifatlari;
- karate sport faoliyati turi uchun muhim bo'lgan kognitiv sifatlari;
- karate sport faoliyati turi uchun muhim bo'lgan koping sifatlari;
- karate sport faoliyati turi uchun muhim bo'lgan shaxslararo sifatlari;
- karate sport faoliyati turi uchun muhim bo'lgan emosional sifatlari.

Model mazmunida aks etgan mazkur sifatlarni majmui, o'ziga xos motivatsion sifatlarni sanalib, ularsiz hech bir sport turini tasavvur etish mushkul sanaladi. Shu bilan birga model mazmunida, motivatsion sifatlarni bilan aloqador bo'lgan, karate sporti uchun shart sanalgan boshqa psixik sohalarning roli ham keng e'tiborga olingan.



**Xulosa va tavsiyalar.** Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Shaxs motivatsion sohasida gnostik komponentning darajaviy ifodalanishi sportchilarda sportga kelish sabablari sifatida asosan bilishga intilish motivlariga bog'langan holda tahlil qilinadi. O'smir sportchilar, ayniqsa karate bilan shug'ullanishning faoliyat motivlarini xulqiy komponentini darajaviy ifodalanishi sportchilarda sportga kelish motivlarida, gnostik komponentni yuqori baholagan sportchilardan deyarli katta farq qilmaganligini kuzatishimiz mumkin. Xulqiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda sportga kelish sabablari sifatida quyidagi motivlar dispozitsiyasi aniqlandi. O'smir sportchilar faoliyat motivining hissiy komponentini yuqori bo'lgan sportchilarda sportga kelishiga sababchi bo'lgan motivlar asosan hisiy ko'rinishga ega bo'lganligi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. O'smirlarda identik ikki yoki uchala komponentlarni bir xil darajada baholagan sportchilarda sportga kelish motivatsiyasiga sababchi bo'lgan motivlar yuqorida keltirilgan jadvaldagi ko'rsatkichlarni tashkil etishi kuzatilgan.

**ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 noyabrda "Karate (WKF) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-356-sonli qarori
2. Abdurasulov R.A. Sport mashg'ulotlarining o'quvchi-sportchilar shaxsini shakllanishidagi roli (yakkakurash turlari misolida): Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent., O'zMU.2018.-65 b.
3. Arzikulov D.N. Sport - pedagogik faoliyat qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy - psixologik shartlari. Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent. O'zMU. 2022.-70 b.



4. Бабушкин Г.Д. Формирование спортивной мотивации / Г.Д. Бабушкин, Е.Г. Бабушкин. Монография. - Омск, 2000. - 179 с.
5. Бойко И.И. Мотивация достижения у подростков-спортсменов и ее развитие в процессе проведения коррекционно-тренировочных занятий / автореферат дисс. Иркутск 2006
6. Зайцева А.П. Особенности мотивационной сферы подростков // Молодой учёный. №18 (122). 2.09.2016. С.182-184.
7. Илин Е. П. Мотивация и мотивы [Текст] / Е. П. Илин. – СПб. : Питер, 2008. – 512 с. – (Серия «Мастера психологии»).
8. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность [Текст]: [учеб.пособие для вузов по направлению и специальности «Психология», «Клинич. психология»] / Хайнц Хекхаузен; науч. ред. пер. [с англ.] на рус. яз. Д. А. Леонтев, Б. М. Величковский. – 2-е изд. – М.: Смысл ; СПб. [и др.]: Питер : Питер принт, 2003. – 859 с. – (Серия «Мастера психологии»).



*Axadjon ATABOYEV,*  
*Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD*  
*E-mail: ataboyev.87@bk.ru*

*ADChTI professori, f.f.d V.Vositov taqrizi asosida*

## THE NATURE AND STRUCTURE OF PRIVATE AND SOCIAL CONSCIOUSNESS

Annotation

The article is devoted to the private and public consciousness. Private and public consciousness are complex, dialectically interconnected phenomena that reflect the level of human social development, and their in-depth study requires an understanding of the laws of social processes.

**Key words:** Consciousness, philosophy, cognition, axiology, communication, individual, community.

## ПРИРОДА И СТРУКТУРА ЧАСТНОГО И ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются частное и общественное сознание. Частное и общественное сознание представляют собой сложные диалектически взаимосвязанные явления, отражающие уровень социального развития человека, и их углубленное изучение требует понимания закономерностей социальных процессов.

**Ключевые слова:** Сознание, философия, познание, аксиология, коммуникация, личность, сообщество.

## XUSUSIY VA IJTIMOIY ONGNING MOHIYATI HAMDA TUZILISHI

Annotatsiya

Maqolada xususiy va ijtimoiy ong yoritilgan. Xususiy va ijtimoiy ong insonning ijtimoiy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi murakkab dialektik o'zaro bog'liq hodisalar bo'lib, ularni har tomonlama chuqur o'rganish ijtimoiy jarayonlarning qonuniyatlarini tushunishni taqozo etadi.

**Kalit so'zlar:** Ong, falsafa, idrok, aksiologiya, kommunikatsiya, shaxs, jamoa.

**Kirish.** Falsafadagi ong insonning tashqi dunyoni va o'z hayotini sub'yektiv idrok etishini, shuningdek, ushbu tajribani aks ettirish qobiliyatini anglatadi. Biologik jihatdan ong insonga o'zini va atrof-muhitni tushunishga imkon beradigan miya funksiyasi sifatida qaraladi.

Kognitiv, kumulyativ, aksiologik, maqsadga muvofiqlik, kommunikativ, tartibga solish va ijodiy funksiyalar kabi ongning turli tarkibiy qismlari yagona tizim sifatida birgalikda ishlaydi. Ushbu funksiyalarga bilish, bilimlarni to'plash, qiymatni baholash, maqsadlarni belgilash, shaxslararo munosabatlar, xulq-atvorni tartibga solish, tabiiy va ijtimoiy olamni tushunish hamda o'zaro aloqada mustaqil ijodkorlik kabi jarayonlar kiradi [2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ong – aql, taqakkur, falsafadagi markaziy kategoriyalardan biri. Ong ko'p qirrali va murakkab bo'lganligi tufayli falsafa, psixologiya, psixiatriya, fiziologiya, kibernetika, informatika singari turli fanlarning o'rganish ob'yekti hisoblanadi. Ongni diniy tushunish uni ilohiy hodisa, Xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko'pgina dinlarda inson ongni buyuk ilohiy aqlning mittigina aks etishi, uning namoyon bo'lishi shaklida tavsiflanadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimizning tashuvchisidir. Jon o'lishi bilan ong ham o'ladi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo'lsa-da, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Zero, u odam va olam yaratilganligi masalasi bilan bevosita bog'liq. Ong moddiylikning miyada inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin qilinadi [1].

Inson ongi ikki tomonlama tabiatga ega. Bu bir vaqtning o'zida ham shaxsiy, individual hodisa, ham ijtimoiy mahsulotdir. Ongning bu ikki jihati o'zaro chambarchas bog'liq va bir-biriga ta'sir qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xususiy yoki individual ong – bu shaxsga xos bo'lgan aqliy jarayonlar majmui. U

tug'ma fazilat, hayotiy tajriba, tarbiya, ta'lim va boshqa ko'plab omillar asosida shakllanadi. Shaxsiy ongning asosiy elementlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. O'z-o'zini anglash.
2. Dunyoqarash.
3. Qadriyat va e'tiqod.
4. Kognitiv qobiliyatlar (idrok, xotira, fikrlash, aql).
5. Hissiy soha (shaxsiy tajriba, kayfiyat, hissiyot).

Xususiy ong shaxsning yaxlitligi, individualligi va o'zini namoyon qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

**Tahlil va natijalar.** "Falsafa qomusiy lug'ati"da ijtimoiy ongga quyidagicha ta'rif berilgan: "Ijtimoiy ong – doimo o'zgarishda bo'lgan jamiyat hayotining moddiy va ma'naviy tomonlarini uzviy aloqadorlikda va o'zaro ta'sirda ekanligini ifodalovchi, sobiq ittifoqda mutlaqlashtirilgan falsafiy tushuncha. Ijtimoiy ong jamiyatni salohiyat darajasini, siyosiy potensialini belgilovchi falsafiy kategoriya. Axloq, din, san'at, fan kabi madaniyat tizimiga kiruvchi ijtimoiy ong shakllari mavjud". Lug'atda ijtimoiy ongni ijtimoiy borliq bilan bog'liqligi quyidagicha ta'kidlanadi: "Binobarin, ijtimoiy borliqsiz ijtimoiy ongning, ijtimoiy ong faol ishtirokisiz jamiyatning moddiy rivojlanishini ta'minlab bo'lmaydi"[1]. Anglashiladiki, Ijtimoiy ong – bu ma'lum bir ijtimoiy guruh, sinf yoki umuman jamiyat ichidagi odamlar tomonidan taqsimlanadigan g'oya, qadriyat va me'yorlar to'plami. Ijtimoiy ongning asosiy shakllari quyidagilar:

1. Axloq va odob (yaxshilik va yomonlik tamoyillari, to'g'ri, namunali xulq-atvor).
2. Mafkura (bu muayyan ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini aks ettiruvchi qarashlar tizimi).
3. Ijtimoiy psixologiya (jamoaviy kayfiyat, stereotip, qadriyatlar).
4. Jamoatchilik fikri (ijtimoiy ahamiyatga ega voqea va hodisalarni baholash).

5. Fan, san'at, din jamiyatning ma'naviy madaniyati sohalaridir.

Ijtimoiy ong ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omil, an'ana, ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalari ta'siri ostida shakllanadi. Bu shaxslar o'rtasidagi bog'liqlik vazifasini bajaradi.

Xususiy va ijtimoiy ong doimiy aloqada. Ijtimoiy ong shaxsning rivojlanishiga ta'sir qiladi, uning qadriyat va qarashlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, xususiy ong jamoatchilikni yangi g'oyalalar bilan oziqlantiradi, mavjud g'oyalarni o'zgartiradi.

Shaxsning uyg'un rivojlanishi va jamiyat barqarorligi faqat individual o'ziga xoslik hamda ijtimoiy birdamlikning to'g'ri shakllanishi bilan olib boriladi.

Anglashiladiki, xususiy va ijtimoiy ong inson mavjudligining bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ikki tomonidir. Xususiy va ijtimoiy oning mohiyati, tuzilishiga doir bir nechta muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan:

1. Shaxs va jamoa o'rtasidagi dialektik bog'liqlik. Xususiy va ijtimoiy ong dialektik bog'liqdir. Bir tomondan, shaxs ijtimoiy muhit, ijtimoiy norma va qadriyatlar ta'siri ostida shakllanadi. Boshqa tomondan, taniqli shaxslarning faol ijodiy faoliyati jamoatchilik ongini o'zgartirish va boyitishga qodir.

2. Jamiyat ongining darajalari. Jamiyat ongi tarkibida turli nazariy va kundalik darajalarni ajratish mumkin. Nazariy darajaga jamiyatning intellektual qatlam tomonidan yaratilgan falsafiy, ilmiy va siyosiy tushunchalar kiradi. Kundalik daraja – bu ommaviy oning dunyoqarashi, e'tiqodlari va stereotiplari. Bu darajalar o'zaro bog'liq bo'lib, bir-biriga ta'sir qiladi.

3. Tarixiy o'zgaruvchanlik. Ham xususiy, ham ijtimoiy ong tarixiy xususiyatga ega bo'lib, jamiyat tamadduni, uning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bilan birga o'zgarib turadi. Ham shaxslar, ham ijtimoiy guruhlarining qadriyat, ideal va e'tiqodlari o'zgarib bormoqda.

4. Milliy xususiyatlar. Har bir millatning ijtimoiy ongi odamlarning dunyoqarashi va xulq-atvorida iz qoldiradigan o'ziga xos madaniy, tarixiy hamda mental xususiyatlarga ega. Milliy xarakter, urf-odat va etnik stereotiplar shu tarzda shakllanadi.

5. Sinfy defferensatsiya (farqlanish). Jamiyatning sinfiy tuzilishi turli ijtimoiy guruh vakillarining ongida farqlarni keltirib chiqaradi. Hukmron sinflarning manfaat, qadriyat va mafkuralari oddiy ommaning ongidan farq qiladi. Bu ijtimoiy ziddiyat va kurash manbai hisoblanadi.

6. Namoyon bo'lish shakllari. Ijtimoiy ong shakllarining xilma-xilligi – axloq, san'at, din, fan, siyosiy nazariyalar bo'lib, har bir shakl jamiyatning ma'naviy hayotidagi vazifasini bajaradi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'zaro ta'sir qiladi va yaxlit tizimni shakllantiradi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, xususiy va ijtimoiy ong insonning ijtimoiy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi murakkab dialektik o'zaro bog'liq hodisalardir. Ularni har tomonlama chuqur o'rganish ijtimoiy jarayonlarning qonuniyatlarini tushunish uchun zarurdir.

Tilning idrokdagi roli tahlil qilinar ekan, shuni ta'kidlash kerakki, ushbu mavzu turli ilmiy fanlar bo'yicha munozara va tadqiqotlar mavzusi bo'lib qolmoqda. Ushbu masalani o'rganishda sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarning ko'p jihatlari hali ham olimlar uchun sir bo'lib qolmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент, 2004. – Б. 314. – 495 б.
2. <https://wiki.fenix.help/psychologiya/struktura-soznaniya>



UDK: 331.105.441

*Abdulhay AHMEDOV,*  
*Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail: abdulhayaxmedov5810@gmail.com*

*Andijon davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori O.Komilov taqrizi asosida*

## COLLABORATION OF TRADE UNION ORGANIZATIONS WITH OTHER PUBLIC ORGANIZATIONS

Annotation

This article describes the essence of cooperation between trade union organizations and other public organizations. Also, mutual cooperation of trade union organizations with other public organizations is of great importance in solving social justice, labor rights and various problems in society.

**Key words:** Trade union, Principle, reform, Principles of democracy and transparency, cooperation, social protection.

## ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ПРОФСОЮЗНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ С ДРУГИМИ ОБЩЕСТВЕННЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ

Аннотация

В данной статье описывается сущность сотрудничества профсоюзных организаций с другими общественными организациями. Также большое значение в решении социальной справедливости, трудовых прав и различных проблем в обществе имеет взаимное сотрудничество профсоюзных организаций с другими общественными организациями.

**Ключевые слова:** Профсоюз, Принцип, реформа, Принципы демократии и прозрачности, сотрудничество, социальная защита.

## KASABA UYUSHMA TASHKILOTLARINING BOSHQA JAMOAT TASHKILOTLARI BILAN O‘ZARO HANKORLIKLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasaba uyushma tashkilotlarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorliklari mazmun-mohiyatini haqida berilgan. Shuningdek, Kasaba uyushma tashkilotlarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorliklari ijtimoiy adolat, mehnat huquqlari va jamiyatdagi turli muammolarni hal qilishda katta ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** Kasaba uyushma, Prinsip, islohot, Demokratiya va oshkorlik prinsiplari, hamkorlik, ijtimoiy himoya.

**Kirish.** Kasaba uyushma tashkilotlarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorliklari ijtimoiy adolat, mehnat huquqlari va jamiyatdagi turli muammolarni hal qilishda katta ahamiyatga ega. Bu hamkorliklar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

Kasaba uyushma tashkilotlarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorliklari zamonaviy jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu hamkorliklar ishchilar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta‘minlash, madaniy va ekologik muammolarni hal qilish kabi ko‘plab sohalarda samarali natijalar beradi. Quyida ushbu hamkorliklarning ilmiy jihatlar va ularning amaliyotdagi o‘rni haqida batafsil ma‘lumotlar keltiriladi.

Kasaba uyushmalari jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan institutlardan biridir. Ular ishchilarning mehnat huquqlarini himoya qilish, adolatli ish sharoitlarini ta‘minlash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda katta rol o‘ynaydi. Kasaba uyushmalarining faoliyati faqat huquqiy himoya bilan cheklanmay, balki keng qamrovli ijtimoiy, madaniy va ekologik loyihalarni ham o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasaba uyushmalari ijtimoiy adolat va mehnat huquqlarini ta‘minlashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ular davlat organlari va ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlash orqali ishchilarning huquqlarini himoya qiladi va ijtimoiy sheriklik prinsiplarini rivojlantiradi. Kasaba uyushmalarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan huquqiy hamkorligi, ayniqsa, inson huquqlari va ijtimoiy himoya sohalarida dolzarb hisoblanadi. Ushbu hamkorliklar mehnat

huquqlarini himoya qilish, ishchilarni huquqiy savodxonligini oshirish va mehnat nizolarini hal qilishda katta ahamiyatga ega. Sababi jihatidan, kasaba uyushmalari inson huquqlari tashkilotlari bilan birgalikda mehnat nizolarini hal qilishda samarali natijalarga erishadi. Bu, ayniqsa, mehnat shartnomalari, ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish masalalarida huquqiy himoya va maslahat xizmatlarini taqdim etishda muhimdir.

Kasaba uyushmalari ta‘lim muassasalari, trening markazlari va boshqa ta‘lim bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik qiladi. Ushbu hamkorliklar ishchilarning kasbiy malakalarini oshirish, ularni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va ish joyidagi kasbiy bilimlarini takomillashtirishga qaratilgan. Shuningdek, kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilgan ta‘lim dasturlari va treninglar ishchilarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu hamkorliklar yangi mehnat bozorining talablari va zamonaviy texnologiyalarga moslashish imkonini beradi.

Kasaba uyushmalari madaniy-ma‘rifiy tashkilotlar bilan birgalikda turli madaniy, ma‘naviy va mafkuraviy tadbirlarni o‘tkazadi. Ushbu tadbirlar jamiyatning ma‘naviy rivojlanishi, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va ahloqiy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan. Bu borada, Ma‘naviy-mafkuraviy tadbirlar orqali kasaba uyushmalari ishchilarning jamiyatdagi faolligini oshiradi va ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga rag‘batlantiradi. Bu esa jamiyatda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kasaba uyushmalari ekologik muammolarni hal qilishda ham faol ishtirok etadi. Ular ekologik tashkilotlar

bilan birgalikda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ishchilarni ekologik madaniyatga o'rgatish bo'yicha hamkorlik qiladi. Bu orqali, Ekologik tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihalar va aksiyalar ishchilarni ekologik mas'uliyatni his qilishga, atrof-muhitni asrashga va ekologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga o'rgatadi. Ushbu hamkorliklar ekologik muammolarni hal qilishda samarali yondashuv sifatida ko'riladi.

Kasaba uyushmalari ijtimoiy sheriklik tamoyillarini rivojlantirish va davlat organlari faoliyatini nazorat qilishda ham muhim o'rin tutadi. Boshqa jamoat tashkilotlari bilan birgalikda ular jamoatchilik nazorati orqali davlat xizmatlari sifatini oshirish, korruptsiyaga qarshi kurashish va jamiyat manfaatlarini himoya qilishda faol ishtirok etadi. Shuningdek, Ijtimoiy sheriklik tamoyillarini rivojlantirish orqali kasaba uyushmalari jamiyat va davlat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday hamkorlik ijtimoiy adolatni mustahkamlash va davlat xizmatlari sifatini oshirishda muhimdir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Kasaba uyushmalarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorliklari haqida ko'plab ilmiy adabiyotlar, maqolalar va tadqiqotlar mavjud. Bu tahlilda asosiy adabiyotlarga tayanib, kasaba uyushmalarining turli sohalarda boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorliklarini, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi rolini va muammolarni ko'rib chiqamiz.

Ko'plab adabiyotlarda kasaba uyushmalarining ijtimoiy roli ta'kidlanadi. Kasaba uyushmalari faqat ishchilarning huquqlarini himoya qilish bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish va jamiyatdagi adolatni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu borada, A.I. Lukashevich, o'zining "Kasaba uyushmalarining zamonaviy jamiyatdagi o'rni" nomli asarida kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorliklar orqali ijtimoiy tenglik va mehnat huquqlarini ta'minlash masalalarini yoritib bergan. U, ayniqsa, kasaba uyushmalarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini alohida qayd etgan.

Kasaba uyushmalarining boshqa tashkilotlar bilan huquqiy hamkorligi ko'p hollarda ishchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, mehnat nizolarini hal qilish va huquqbuzarliklar bilan kurashish maqsadida amalga oshiriladi. Bu bo'yicha V.Ivanov o'z tadqiqotida kasaba uyushmalari va inson huquqlari tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik masalalariga e'tibor qaratgan. U, ayniqsa, sud protsesslarida kasaba uyushmalarining ishtiroki va ularning ishchilarga huquqiy yordam ko'rsatishdagi rolini ta'kidlagan.

Kasaba uyushmalarining ta'lim va kasbiy rivojlanish sohasidagi hamkorligi haqida ko'plab maqolalar va tadqiqotlar mavjud. Ushbu hamkorlik o'z a'zolarining bilim va ko'nikmalarini oshirishga, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan. J. Smith, (2019) "Professional rivojlanishda kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari hamkorligi" nomli maqolasida kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilgan o'quv kurslari, seminarlar va treninglar orqali ishchilarning kasbiy ko'nikmalarini oshirish masalalarini keng yoritgan.

Kasaba uyushmalarining madaniy va mafkuraviy hamkorliklari asosan milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan. Bu haqda turli adabiyotlar va ilmiy maqolalarda yoritilgan. Olim O.Yusupov, (2021) "Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda kasaba uyushmalarining madaniy tadbirlarda ishtiroki va ularning jamoat tashkilotlari bilan birgalikda o'tkazadigan tadbirlari orqali jamoatchilikning ma'naviy rivojlanishiga qo'shgan hissasini tahlil qilgan.

Ekologik masalalar bo'yicha kasaba uyushmalarining ekologik tashkilotlar bilan hamkorligi ham dolzarb

mavzulardan biridir. Ushbu hamkorliklar atrof-muhitni muhofaza qilish va ishchilarni ekologik madaniyatga o'rgatishga qaratilgan.

Klimov, D. (2017) "Kasaba uyushmalari va ekologik tashkilotlar: hamkorlik istiqbollari" nomli maqolasida kasaba uyushmalarining ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini ko'rib chiqadi va bu sohadagi hamkorlikning afzalliklarini tahlil qiladi.

**Natija va muhokama.** Kasaba uyushma tashkilotlarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorliklari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu hamkorliklar turli sohalarda amalga oshiriladi va ular nafaqat ishchilarning huquqlarini himoya qilish, balki keng jamoatchilikka xizmat qiluvchi muhim masalalarni hal qilishga ham qaratilgan.

#### 1. Ijtimoiy himoya va mehnat huquqlari

Kasaba uyushmalari o'z a'zolarining mehnat huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular turli sohadagi jamoat tashkilotlari, masalan, nodavlat notijorat tashkilotlari va inson huquqlari bo'yicha faollar bilan hamkorlikda ish olib boradi. Ushbu hamkorliklar orqali quyidagi maqsadlarga erishiladi:

Ishchilar uchun adolatli ish haqlari va ish sharoitlarini ta'minlash.

Mehnat nizolari yuzaga kelganda huquqiy yordam ko'rsatish.

Ish joyida kamsitish va diskriminatsiyani oldini olish.

#### 2. Ta'lim va kasbiy rivojlanish

Kasaba uyushmalari kasbiy rivojlanish va ta'lim sohasida boshqa ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik qiladi. Bu hamkorlik orqali:

Ishchilar uchun kasbiy malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etiladi.

Yangi texnologiyalar va bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan o'quv dasturlari ishlab chiqiladi.

Yosh mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash, ularning kasbiy rivojlanishiga yordam berish.

#### 3. Huquqiy maslahatlar va qo'llab-quvvatlash

Kasaba uyushmalari boshqa huquqiy tashkilotlar bilan hamkorlikda o'z a'zolariga huquqiy maslahatlar va himoya xizmatlarini taqdim etadi. Bu hamkorlik mehnat huquqlarini himoya qilishda va ish joyidagi huquqbuzarliklar bilan kurashishda katta yordam beradi.

Mehnat qonunchiligi bo'yicha maslahatlar berish.

Mehnat sudlarida vakillik qilish va himoya xizmatlarini ko'rsatish.

Ishchilarga mehnat shartnomalari va boshqa hujjatlarni tuzishda yordam berish.

#### 4. Mafkuraviy va madaniy tadbirlar

Kasaba uyushmalari madaniy va mafkuraviy sohada boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi. Bu hamkorlik orqali:

Madaniy tadbirlar, konsertlar, sport musobaqalari va boshqa dam olish tadbirlari tashkil etiladi.

Ishchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va milliy qadriyatlarini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar o'tkaziladi.

Yoshlar va xotin-qizlar uchun ma'naviyat va madaniyatga oid o'quv dasturlari ishlab chiqiladi.

#### 5. Ekologik muammolarni hal qilish

Kasaba uyushmalari atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik masalalarida ham faol ishtirok etadi. Ular ekologik tashkilotlar bilan hamkorlikda turli tadbirlar, aksiyalar va loyihalarni amalga oshiradilar. Bu hamkorlik:

Ish joyida ekologik xavfsizlikni ta'minlash.

Ishchilarni ekologik madaniyatga o'rgatish.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha jamiyatni xabardor qilish.

#### 6. Ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazorati

Kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari davlat organlari faoliyatini nazorat qilishda jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar. Bu jarayonda:

Davlat xizmatlari sifatini oshirish uchun takliflar beriladi.

Ishchilarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida turli forum va uchrashuvlarda ishtirok etiladi.

Korruptsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashda davlat organlari bilan hamkorlikda ishlanadi.

Kasaba uyushmalari turli favqulodda holatlar va xayriya tadbirlarida faol ishtirok etadi. Boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ular:

Ishchilarga va ularning oilalariga favqulodda holatlarda yordam ko'rsatish.

Ijtimoiy yordam va xayriya aksiyalarini tashkil etish. Muhtojlarga yordam berish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish. Kasaba uyushmalarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan samarali hamkorligi nafaqat ularning o'z faoliyatini kuchaytiradi, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Bu hamkorliklar ijtimoiy adolat, mehnat huquqlari va umumiy farovonlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kasaba uyushma tashkilotlarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorliklari O'zbekiston Respublikasining bir qator qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi. Quyida ushbu qonunlar va ulardagi kasaba uyushmalarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorliklari haqida misollar keltiriladi:

“Kasaba uyushmalari to'g'risida”gi Qonunida (1992-yil 2-iyul, yangi tahriri 2019-yil 19-sentabr) Ushbu qonun kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi, asosiy vazifalari va faoliyat tamoyillarini belgilaydi. Qonunga muvofiq, kasaba uyushmalari boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy muhofazani ta'minlash va mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun faoliyat olib boradi. Misol tariqasida, 9-modda: Kasaba uyushmalari o'z a'zolarining huquqlarini himoya qilishda va mehnat munosabatlarini tartibga solishda boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishi mumkin. 17-modda: Kasaba uyushmalari jamoat tashkilotlari bilan birgalikda ish joylarida mehnat sharoitlarini yaxshilash va ishchilarning sog'lig'ini himoya qilish maqsadida chora-tadbirlar o'tkazadi.

“Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi Qonun (2014-yil 25-sentabr). Bu qonun davlat organlari, kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik tamoyillarini belgilaydi. Qonun, ijtimoiy sheriklikning asosiy tamoyillari sifatida kasaba uyushmalarining ijtimoiy sherik sifatida davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorligini ta'kidlaydi. Misol uchun, 5-modda: Kasaba uyushmalari ijtimoiy sheriklik subyekti sifatida jamoat tashkilotlari bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi. 8-modda: Kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari ijtimoiy sheriklik kelishuvlari asosida mehnat sharoitlarini yaxshilash, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy himoya masalalarida hamkorlik qiladi.

“Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi Qonun (1999-yil 14-aprel). Bu qonun nodavlat notijorat

tashkilotlarining faoliyat tamoyillarini belgilaydi va kasaba uyushmalarining boshqa nodavlat tashkilotlari bilan hamkorligini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu qonun kasaba uyushmalariga boshqa jamoat tashkilotlari bilan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish imkoniyatini beradi. 19-modda: Nodavlat notijorat tashkilotlari kasaba uyushmalari bilan birgalikda mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda hamkorlik qilishi mumkin. 22-modda: Nodavlat tashkilotlari kasaba uyushmalari bilan ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda hamkorlik qilishi mumkin.

“Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonun (2016-yil 22-sentabr) Ushbu qonun mehnatni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini belgilaydi va kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari bilan mehnatni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni tartibga soladi. 12-modda: Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari ish joylarida mehnat muhofazasini ta'minlash va xavfsizlik me'yorlariga rioya qilishni nazorat qilishda birgalikda faoliyat olib boradi. 18-modda: Kasaba uyushmalari mehnat muhofazasi tadbirlarini tashkil etishda boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

“Jamoat birlashmalari to'g'risida”gi Qonun (1991-yil 25-fevral). Bu qonun jamoat birlashmalarining faoliyat tamoyillarini belgilaydi va ularning kasaba uyushmalari bilan hamkorligini qo'llab-quvvatlaydi. Qonun jamoat birlashmalarining xodimlar huquqlarini himoya qilish va mehnat sharoitlarini yaxshilashdagi rolini belgilaydi. 7-modda: Jamoat birlashmalari kasaba uyushmalari bilan birgalikda mehnat huquqlarini himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va xodimlar manfaatlarini himoya qilishda hamkorlik qiladi.

**Xulosa.** Hamkorlik doirasida kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari birgalikda o'quv dasturlari, seminarlar, treninglar tashkil etib, xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan faoliyat olib boradi. Bu hamkorliklar nafaqat xodimlarning huquqlarini himoya qilish, balki ularning kasbiy malakalarini oshirish, ijtimoiy va mehnat muhitini yaxshilashga ham qaratilgan.

Kasaba uyushmalarining boshqa jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorliklari nafaqat xodimlarning huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va umumiy farovonlikni oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ular mehnat sharoitlarini yaxshilash, mehnat huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish uchun birgalikda kurashadi.

Bu hamkorliklar kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlarining jamiyatdagi rolini yanada kuchaytiradi va ular orasidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Ushbu hamkorliklar turli sohalarida amalga oshirilib, nafaqat ishchilarning huquqlarini himoya qilish, balki keng jamoatchilikka xizmat qiluvchi dolzarb masalalarni ham hal qilishga qaratilgan. Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari birgalikda mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarning manfaatlarini himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni amalga oshiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Иноятов А.А. “Ўзбекистон Республикасининг меҳнат ҳуқуқи” –Тошкент: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2002 й. – Б.140
2. Симагин А.В. Историческая роль и уроки профсоюзного движения. – СПб.: ЗУМЦ, 2009. – С. 68-69
3. Содикова М. Касаба уюшмалари — фуқаролик ҳуқуқи ҳимоясида // <http://huquqburch.uz/uz>
4. Саггарова Г. Ўзбекистон Республикаси касаба уюшмаларининг фуқароларнинг меҳнат ҳуқуқларини ҳимоя қилишни таъминлашдаги ўрни // Мақола // Инсон ва Қонун / 2014 й. – Б. 4.
5. Mirziyoyev Sh.M. – O'zbekiston kasaba uyushmalariga tabrigidan. Xalq so'zi gazetasi. 11- Noyabr 2021 y
6. O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi. 24.07.2018 y

7. O'zbekiston Respublikasi mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 22.09.2016 yildagi O'RQ-410-son.
8. Mehnat huquqi. Toshkent-2006.
9. Kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonun. O'RQ-588-son 06.12.2019. ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)).
10. O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi – Vikipediya ([wikipedia.org](http://wikipedia.org)).O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasining Portali ([kasaba.uz](http://kasaba.uz))



UDK 372.8

*Durdona ACHILOVA,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali tadqiqotchisi*

*DSc, dotsent N.Alimov taqrizi asosida*

## IMPROVING THE METHODOLOGY OF MODELING CLUSTER COOPERATION RELATIONS IN CONTINUOUS EDUCATION

Annotation

This article examines enhancements in methodologies for modeling cluster cooperation relations within the framework of continuous education. It focuses on optimizing the interactions between educational institutions, businesses, and other stakeholders to create effective, integrated learning environments.

**Key words:** Cluster, cooperation, continuous, education, relations.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ МОДЕЛИРОВАНИЯ ОТНОШЕНИЙ КЛАСТЕРНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются усовершенствования методологий моделирования отношений кластерного сотрудничества в рамках непрерывного образования. Основное внимание уделяется оптимизации взаимодействия между образовательными учреждениями, предприятиями и другими заинтересованными сторонами для создания эффективных, интегрированных сред обучения.

**Ключевые слова:** Кластер, сотрудничество, непрерывное, образование, отношения.

## UZLUKSIZ TA'LIMDA KLASTERLI HAMKORLIK ALOQALARINI MODELLASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqola uzluksiz ta'lim doirasida klasterli hamkorlik munosabatlarini modellashtirish metodologiyasini takomillashtirishni ko'rib chiqadi. U samarali, integratsiyalashgan o'quv muhitini yaratish uchun ta'lim muassasalari, korxonalar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni optimallashtirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Klaster, hamkorlik, uzluksiz, ta'lim, munosabatlar.

**Introduction.** Importance and problems in modeling cluster cooperation relations in continuous education are described as in the following:

**Enhanced Collaboration and Resource Sharing:** Modeling cluster cooperation relations in continuous education facilitates improved collaboration among educational institutions, professionals, and stakeholders. By creating structured frameworks for cooperation, institutions can share resources, expertise, and best practices, leading to more efficient and effective educational outcomes.

**Promotion of Lifelong Learning:** Effective cluster cooperation supports the continuous development of skills and knowledge, crucial for lifelong learning. By modeling these relationships, educational systems can better align their offerings with the evolving needs of learners, ensuring that educational programs remain relevant and up-to-date.

**Optimization of Educational Strategies:** Analyzing and modeling cluster cooperation helps identify successful strategies and practices across different institutions. This can lead to the development of more cohesive and innovative educational strategies that enhance the quality of education and address gaps in the current system.

**Increased Adaptability and Resilience:** In a rapidly changing educational landscape, modeling cooperation clusters allows institutions to adapt more quickly to new challenges and opportunities. By fostering a network of collaborative relationships, educational systems become more resilient and better equipped to handle shifts in demand and policy changes.

Some challenges relating the problem are as in the following:

**Complexity in Coordination:** Coordinating between multiple institutions and stakeholders can be complex and challenging. Differences in institutional priorities, policies, and resources can lead to conflicts and inefficiencies in implementing cooperative strategies. The complexity of managing these relationships often requires sophisticated systems and processes.

**Unequal Participation and Resource Distribution:** In cluster cooperation, there may be unequal participation among institutions, with some contributing more resources or effort than others. This imbalance can create disparities in the benefits received by different institutions, leading to issues of fairness and effectiveness in collaboration.

**Data Privacy and Security Concerns:** Sharing information and resources among institutions raises concerns about data privacy and security. Ensuring that sensitive information is protected and that cooperation does not compromise individual or institutional data integrity is crucial, yet often challenging.

**Resistance to Change:** Institutions may resist changes required for effective cluster cooperation due to entrenched practices, institutional inertia, or lack of incentives. Overcoming resistance and fostering a culture of collaboration can be difficult, particularly in systems with established traditions and procedures.

**Assessment of Impact and Effectiveness:** Measuring the impact of cluster cooperation on educational outcomes can be difficult. Quantifying the benefits and effectiveness of



cooperative models requires robust evaluation frameworks and methodologies, which can be resource-intensive and complex to implement.

Thus, modeling cluster cooperation relations in continuous education is crucial for enhancing collaboration, promoting lifelong learning, and optimizing educational strategies. However, challenges such as complexity in coordination, unequal participation, data privacy concerns, resistance to change, and difficulties in assessing impact must be addressed to ensure the successful implementation and sustainability of these models.

**Literature review.** In recent years, the concept of cluster cooperation within continuous education has gained prominence, reflecting the need for collaborative and integrated approaches to lifelong learning. This literature review synthesizes recent research on modeling cluster cooperation relations, highlighting key developments, theoretical frameworks, and practical applications.

**Collaborative Learning Models:** Recent studies have expanded on collaborative learning theories to develop models for cluster cooperation in continuous education. The collaborative learning approach emphasizes the importance of interaction among educational institutions, industry partners, and learners. Research by Liu and Zheng (2020) introduces a dynamic model that integrates stakeholders' roles and interactions to enhance educational outcomes through collaborative clusters.

**Network Theory Applications:** Network theory has been applied to understand and model the cooperation among clusters in education. Chen et al. (2020) use network analysis to map the relationships between educational institutions and industry partners within clusters, illustrating how these networks influence knowledge sharing and resource utilization.

**Systems Thinking in Educational Clusters:** Systems thinking provides a holistic approach to understanding the interactions within educational clusters. Recent research by Smith and Anderson (2020) employs systems thinking to model the feedback loops and interdependencies among

different entities in continuous education systems, emphasizing the importance of adaptability and resilience.

**Implementation of Cluster Models in Vocational Education:** Case studies on vocational education highlight the practical benefits of cluster cooperation. Zhang and Li (2020) analyze several vocational education clusters, demonstrating how collaboration among educational institutions and industry partners enhances skill development and employment outcomes for learners.

**Impact of Digital Platforms on Cluster Cooperation:** The integration of digital platforms in cluster cooperation has been a significant focus. Research by Thompson and Liu (2020) explores how digital tools facilitate communication and collaboration within educational clusters, improving the efficiency and effectiveness of cooperative efforts.

**Policy and Governance in Educational Clusters:** Effective governance and policy frameworks are crucial for the success of cluster cooperation. Recent work by Brown and White (2020) examines various policy approaches and governance structures that support collaborative clusters in education, providing recommendations for policy makers and educational leaders.

The recent literature underscores the importance of modeling cluster cooperation relations to enhance continuous education. Theoretical frameworks such as collaborative learning models, network theory, and systems thinking provide valuable insights into the dynamics of educational clusters. Practical applications, including vocational education case studies and the impact of digital platforms, demonstrate the tangible benefits of effective cluster cooperation. Additionally, attention to policy and governance highlights the need for structured approaches to support these cooperative efforts. The evolving research in this area offers a comprehensive understanding of how cluster cooperation can be optimized to support lifelong learning and adapt to the changing needs of learners and the broader educational landscape.

**Methodology.** Approaches to Modeling Cluster Cooperation Relations in Continuous Education are described as in the following (see the table 1):

Table 1

Network Analysis and Graph Theory

	Network analysis and graph theory are used to model and understand the relationships and interactions between different educational institutions, organizations, and stakeholders within a cluster. This approach helps in visualizing and analyzing the structure and dynamics of cooperation networks [13]; [14].
Collaborative Learning Analytics	Collaborative learning analytics involves using data collected from various educational interactions and processes to model and enhance cooperation within education clusters. This approach helps in assessing the effectiveness of collaborative activities and identifying key factors influencing cluster dynamics [7]; [8].
System Dynamics	Modeling System dynamics modeling is used to simulate and analyze the behavior of educational systems and clusters over time. This approach helps in understanding how different variables and interactions impact the overall functioning and effectiveness of cooperation within the cluster [10]; [11].
Agent-Based Modeling	Agent-based modeling (ABM) is used to simulate interactions between individual agents (e.g., educators, institutions) within a cluster. This approach helps in understanding how individual behaviors and decisions influence the overall cooperation and effectiveness of the cluster [12]; [15].
Multi-Criteria Decision Analysis (MCDA) MCDA	Multi-Criteria Decision Analysis (MCDA) MCDA is used to evaluate and prioritize different aspects of cooperation within educational clusters based on multiple criteria. This approach aids in decision-making processes by providing a structured method to assess various factors influencing cluster dynamics [9]; [16].

These approaches provide valuable frameworks for modeling and enhancing cooperation within educational clusters, offering insights into network dynamics, collaborative practices, system behavior, individual interactions, and decision-making processes.

**Results and discussion.** The research results have been described as in the following:

**Cooperation Mechanisms:** The research identified key mechanisms that drive successful cluster cooperation, including regular communication channels, shared goals, and coordinated activities. Clusters with established protocols for regular meetings and joint planning sessions reported a 25% increase in collaboration effectiveness. Effective communication and clearly defined objectives were found to be critical for the success of these clusters [14].

**Impact on Educational Outcomes:** Data analysis revealed that clusters with strong cooperative relations resulted in improved educational outcomes, such as higher

completion rates and greater learner satisfaction. Educational institutions involved in well-functioning clusters experienced a 20% increase in student retention and a 15% increase in course completion rates [3].

**Challenges and Barriers:** Despite the positive impacts, the study also highlighted challenges in cluster cooperation, including conflicting objectives among stakeholders and difficulties in aligning schedules. Clusters that faced these issues reported a 10% decrease in cooperative efficiency. Addressing these challenges requires implementing effective conflict resolution strategies and flexible scheduling mechanisms [12].

**Role of Technology:** Technology was found to be a significant enabler of cluster cooperation, facilitating communication, data sharing, and collaborative planning. Clusters that effectively utilized digital tools reported a 20% increase in operational efficiency and a 15% improvement in the management of educational programs [2].

The results underscore the importance of cluster cooperation in enhancing the effectiveness of continuous education programs. The formation of diverse and multi-stakeholder clusters was shown to significantly improve educational outcomes, suggesting that a collaborative approach leverages a broader range of resources and perspectives. The key mechanisms identified, such as regular communication and shared goals, highlight the need for structured and strategic cooperation practices. Effective communication and well-defined objectives are crucial for maintaining productive cluster relationships and achieving desired educational outcomes. However, the study also reveals that challenges such as conflicting objectives and scheduling difficulties can hinder cluster cooperation. Addressing these issues through conflict resolution strategies and adaptable scheduling is essential for maximizing the benefits of cluster cooperation. The role of technology as an enabler of effective cluster cooperation emphasizes the importance of integrating digital tools into collaborative practices. Technology facilitates communication, data sharing, and coordination, thus enhancing the overall efficiency of educational clusters.

In summary, modeling cluster cooperation relations in continuous education offers valuable insights into how diverse stakeholders can collaborate to improve educational programs. By addressing challenges and leveraging technology, educational institutions and their partners can create more effective and sustainable continuous education environments.

**Conclusion.** Modeling cluster cooperation relations in continuous education provides a strategic framework for enhancing the effectiveness and efficiency of educational networks. By analyzing and optimizing how different educational institutions, organizations, and stakeholders interact, this approach fosters collaborative environments that can significantly improve educational outcomes. Key conclusions from this model include:

**Enhanced Resource Utilization:** Clusters enable institutions to pool resources, share best practices, and leverage collective expertise. This collaborative approach ensures that resources are used more effectively and that innovations in teaching and learning can be disseminated more widely.

**Strengthened Partnerships:** The model highlights the importance of forming strong partnerships among educational entities, industry players, and community organizations. These partnerships facilitate a more integrated approach to education, aligning curricula with real-world needs and creating more opportunities for students.

**Improved Student Outcomes:** By fostering collaboration and communication within educational clusters, the model supports a more cohesive and supportive learning environment. This interconnected network helps address diverse student needs and improves access to a range of educational services and opportunities.

**Scalable and Sustainable Practices:** The cluster model encourages the development of scalable and sustainable educational practices. By working together, institutions can implement pilot programs and best practices on a larger scale, ensuring that successful innovations are not limited to isolated contexts but can benefit a broader audience.

**Dynamic Adaptation:** The model underscores the need for flexibility and adaptability in education. As educational needs and technologies evolve, clusters can dynamically adjust their cooperative strategies to address emerging challenges and opportunities, ensuring continuous improvement and relevance.

In summary, modeling cluster cooperation relations in continuous education not only enhances the efficiency of educational networks but also fosters a collaborative culture that drives innovation and improves educational outcomes.

## REFERENCES

1. Brown, H., & White, S. (2020). "Governance and Policy Frameworks for Effective Cluster Cooperation in Education." *Policy Futures in Education*, 18(2), 142-159.
2. Chen, X., Wang, Y., & Zhao, Z. (2020). "Network Analysis of Cluster Cooperation in Continuous Education: A Case Study." *Journal of Education and Information Technologies*, 25(2), 1031-1047.
3. Liu, Q., & Zheng, Q. (2020). "Dynamic Models of Collaborative Learning in Clustered Educational Networks." *Educational Technology & Society*, 23(1), 54-67.
4. Thompson, G., & Liu, Y. (2020). "The Role of Digital Platforms in Enhancing Cluster Cooperation in Continuous Education." *Computers & Education*, 150, 103855.
5. Zhang, T., & Li, J. (2020). "Cluster Cooperation in Vocational Education: A Case Study Analysis." *Journal of Vocational Education and Training*, 72(3), 432-448.
6. Smith, L., & Anderson, R. (2020). "Applying Systems Thinking to Educational Cluster Cooperation: Insights and Implications." *International Journal of Educational Management*, 34(4), 579-591.
7. Arnold, K. E., & Pistilli, M. D. (2020). "Educational Data Mining and Learning Analytics: Understanding the Dynamics of Learning Clusters." *Research in Learning Technology*, 28(1), 1-15.
8. Baker, R. S., & Yacef, K. (2020). "The Role of Learning Analytics in Supporting Educational Clusters." *Journal of Learning Analytics*, 7(2), 64-81.
9. Dijkstra, L., & de Lange, R. (2020). "Multi-Criteria Decision Analysis for Educational Cluster Development." *Journal of Decision Systems*, 29(1), 23-39.
10. Kim, S. H., & Park, J. H. (2020). "System Dynamics Modeling for Educational Cluster Management: A Case Study." *Systems Research and Behavioral Science*, 37(4), 594-608.
11. Liao, T. W., & Huang, J. H. (2020). "Dynamic Modeling of Educational Clusters: Insights from System Dynamics." *Educational Management Administration & Leadership*, 48(6), 946-963.
12. Lee, D. H., & Yang, M. J. (2020). "Agent-Based Simulations for Modeling Educational Networks and Cluster Cooperation." *International Journal of Artificial Intelligence in Education*, 30(2), 155-170.
13. Ranjan, A., & Ghosh, M. (2020). "Application of Graph Theory in Education Cluster Analysis." *Journal of Educational Data Mining*, 12(1), 45-60.
14. Xie, J., & Li, J. (2020). "Network Analysis for Educational Cluster Cooperation: A Review and New Directions." *Educational Review*, 72(3), 299-316.
15. Zhang, L., & Liu, J. (2020). "Applying Agent-Based Modeling to Study Educational Cluster Cooperation." *Journal of Educational Technology Systems*, 48(3), 326-340.
16. Tavana, M., & Tohidi, S. (2020). "Applying MCDA to Optimize Cooperation Strategies in Educational Clusters." *Operations Research Perspectives*, 7, 100-112.



UDK:37.01:37.014.5:37.013

*Ilyosbek BOZORBAYEV,*

*Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti*

*E-mail: ibozorbayev@mail.ru*

*PhD, dotsent M.A. Innazarov taqrizi asosida*

## INTERNATIONAL EXPERIENCE IN DEVELOPING SPECIAL COMPETENCE OF TEACHING STAFF BASED ON CONTEXTUAL LEARNING

Annotation

This article analyzes international experience in developing special competence of teaching staff based on contextual learning. The article presents information about the theory and practice of contextual learning, its role in improving the professional qualifications of teaching staff and the pedagogical effectiveness of this process. The results of the study show the importance of studying international experience in developing special competence of teachers through contextual learning.

**Key words:** Contextual learning, special competence, teaching staff, international experience, professional development, pedagogical effectiveness, educational technologies, individualization of education.

## МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СПЕЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ НА ОСНОВЕ КОНТЕКСТНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируется международный опыт развития специальной компетентности педагогических кадров на основе контекстного обучения. В статье представлены сведения о теории и практике контекстного обучения, его роли в повышении профессиональной квалификации педагогических кадров и педагогической эффективности этого процесса. Результаты исследования показывают важность изучения международного опыта в развитии специальной компетентности педагогов посредством контекстного обучения.

**Ключевые слова:** контекстное обучение, специальная компетентность, педагогические кадры, международный опыт, профессиональное повышение квалификации, педагогическая эффективность, образовательные технологии, индивидуализация образования.

## KONTEKSTLI O‘QITISH ASOSIDA PEDOGOG KADRLARNING MAXSUS KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA XALQARO TAJRIBALAR

Annotatsiya

Ushbu maqola kontekstli o‘qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribalarni tahlil qiladi. Maqolada kontekstli o‘qitish nazariyasi va amaliyoti, uning pedagog kadrlarning kasbiy malakasini oshirishdagi roli hamda mazkur jarayonning pedagogik samaradorligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalari kontekstli o‘qitish orqali pedagoglarning maxsus kompetentligini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o‘zlashtirishning muhimligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Kontekstli o‘qitish, maxsus kompetentlik, pedagog kadrlar, xalqaro tajribalar, kasbiy malaka oshirish, pedagogik samaradorlik, ta’lim texnologiyalari, ta’limning individualizatsiyasi.

**Kirish.** Bugungi globalizatsiya davrida ta’lim tizimining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagogik kadrlarning malakasi va kompetentligiga bog‘liq. Zamonaviy dunyoda ta’lim mazmuni va metodlari tez sur’atlar bilan o‘zgarib bormoqda, bu esa pedagoglarning doimiy ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishini talab qiladi. Ta’lim sifatini oshirish va yuqori darajadagi bilim va ko‘nikmalarni yetkazish uchun pedagoglarning maxsus kompetentlik darajasini oshirish zarur. Bu maqolada kontekstli o‘qitish (contextual teaching and learning - CTL) asosida pedagogik kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribalar o‘rganiladi. Kontekstli o‘qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi, chunki:

Globalizatsiya va texnologik taraqqiyot: Ta’lim jarayonida globalizatsiya va texnologik taraqqiyotning o‘sishi bilan yangi kompetensiyalar va ko‘nikmalarga ehtiyoj ortmoqda. Bu esa pedagog kadrlarni zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlashni talab qiladi.

Ta’limning individualizatsiyasi: Har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish zaruriyati pedagoglarning maxsus kompetentligini oshirishni talab qiladi. Kontekstli o‘qitish bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

Kompetensiyalarni amaliy qo‘llash: Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalari bugungi kun pedagoglari uchun muhimdir. Kontekstli o‘qitish usullari bu ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xalqaro tajribalar: Xalqaro tajribalar va ularning ta’lim jarayoniga tatbiqi global ta’lim tizimlarini yaxshilashga imkon beradi. Bu borada kontekstli o‘qitishning xalqaro tajribalari katta ahamiyatga ega.

Butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimlarida pedagog kadrlar tarkibini murakkab va dinamik o‘qitish muhitida harakat qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan shakllantirish muhimligi tobora ortib bormoqda. Kontekstli ta’limning kasbiy rivojlanish dasturlariga integratsiyalashuvi nafaqat o‘quv tajribasining dolzarbligini oshiradi, qolaversa pedagog kadrlarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun yanada yaxshiroq tayyorlanishini ta’minlaydi. Xususan Gana mamlakati oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra malakali pedagog kadrlar yetishmasligi muammolari aynan pedagog kadrlarning maxsus kompetentligiga urg‘u berilganligi orqali ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarning salohiyati qolaversa mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishiga olib kelganini ta’kidlash mumkin[1].

Maxsus kompetentsiya - bu kasbiy faoliyatning tor (maxsus) sohasidagi kompetentsiya. Maxsus vakolatlar kasbiy faoliyatning ma'lum bir predmeti yoki sub'ektdan tashqari sohasining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Maxsus kompetentsiyalarni o'quv predmeti, kasbiy faoliyatning muayyan sohasi bo'yicha asosiy va asosiy kompetentsiyalarni amalga oshirish deb hisoblash mumkin. Ular ma'lum bir turga bog'langan va kasbiy kompetentsiyalarning o'zgaruvchan qismini tashkil qiladi[2]. Maxsus kompetentsiyalar pedagoglarning tegishli malaka darajasida ma'lum bir fan sohasidagi kasbiy faoliyatini aniqlaydigan o'z kasbiy profilini ifodalaydi.

Kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar olimlaridan A.A. Verbitskiy (Rossia) - Kontekstli o'qitish nazariyasini rivojlantirgan va bu borada ko'plab adabiyotlar yozgan. Uning ishlari kontekstli o'qitishning pedagogik samaradorligi va pedagoglar malakasini oshirishdagi ahamiyatini yoritadi[3,4,5]. John Dewey (USA) - Garchi Dewey kontekstli o'qitish terminini ishlatmagan bo'lsada, uning tajriba asosida o'qitish (experiential learning) va interaktiv ta'lim haqida yozgan asarlari kontekstli o'qitish tamoyillariga mos keladi [6]. Lev Vygotsky - Madaniy-tarixiy nazariyasi va konstruktivizm yondashuvi kontekstli o'qitish tamoyillariga asos bo'lib xizmat qiladi. Uning ishlarida ta'lim jarayonida kontekstning ahamiyati katta o'rin tutadi[7]. A.V. Xutorskoy - Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kontekstli o'qitish bo'yicha yetakchi mutaxassislardan biri. Uning ishlari pedagogik jarayonlarda kontekstli yondashuvning samaradorligini ko'rsatadi [8]. Bu olimlarning ishlari kontekstli o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirib, pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini oshirishga qaratilgan xalqaro tajribalarga asos bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro tajribalar. Xalqaro tajribalar pedagoglarning malakasini oshirishda va kontekstli o'qitish tamoyillarini qo'llashda katta ahamiyatga ega. Quyida kontekstli o'qitish asosida pedagoglarning maxsus kompetentligini rivojlantirish bo'yicha turli mamlakatlarning xalqaro tajribalari haqida keltirilgan ma'lumotlar bilan tanishib chiqamiz.

Finlandiya ta'lim tizimi butun dunyo bo'ylab eng samarali tizimlardan biri sifatida tan olingan. Finlandiyada ta'lim tizimi kontekstli o'qitish tamoyillariga asoslanadi. Pedagoglar maktablar va universitetlarda doimiy ravishda professional rivojlanish dasturlarida qatnashadilar. Ushbu dasturlar pedagoglarni o'qitishning yangi usullari va texnologiyalari bilan tanishtirishga qaratilgan. Finlandiyada tabiiy fanlardan dars o'tish jarayonida pedagoglar laboratoriya ishlarini va amaliy mashg'ulotlarni real hayotiy vaziyatlarga asoslab o'tkazadilar, bu esa pedagoglarning nazariy bilimlarini hayotga tatbiq etishlariga yordam beradi. Undan tashqari pedagoglar malaka oshirish moboyinida olgan bilimlarni talabalarni o'qitish davomida tatbiq etadilar.

Singapur ta'lim tizimi xalqaro miqyosda yuqori reytinglarga ega va uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglarning yuqori malakasiga bog'liq. Singapurda pedagogik kadrlarning kompetentligini rivojlantirish uchun maxsus tayyorlov dasturlari mavjud. Pedagoglar muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashadilar, bu kurslar pedagoglarning maxsus kompetentligini oshirish va ularni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan tanishtirishga qaratilgan. Singapurda fizikadan dars o'tish jarayonida pedagoglar real hayotdagi misollar va muammolarni yechish orqali bilim beradilar. Masalan, elektr toki va magnitizm kabi mavzularni o'rganishda pedagoglar amaliy tajribalar o'tkazib, bu jarayonlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashni talabalarga o'rgatadilar.

AQShda kontekstli o'qitish metodi keng qo'llaniladi. Pedagoglar doimiy ravishda amaliy mashg'ulotlar va tajriba

almashish dasturlarida ishtirok etadilar. Ta'lim muassasalari pedagogik kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish uchun turli xil treninglar, seminarlar va konferensiyalar tashkil etadi. AQShda fizikadan dars berish jarayonida STEM (Science, Technology, Engineering, and Mathematics) dasturlari orqali pedagoglar real hayotiy muammolarni hal qilishni o'rgatadilar. Masalan, mexanika va energiya saqlanish qonunlarini o'rgatishda pedagoglar laboratoriya ishlarini va amaliy mashg'ulotlarni real hayotiy misollar bilan boyitib o'tkazadilar. Bu bilimlarni talabalarga uzluksiz ravishda o'rgatib boradi.

Kanada ta'lim tizimida ham pedagogik kadrlarning kompetentligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Pedagoglar muntazam ravishda professional rivojlanish dasturlarida qatnashadilar va turli xil treninglar, seminarlar va konferensiyalarda ishtirok etadilar. Kanadada kontekstli o'qitish metodi keng qo'llaniladi, bu esa pedagoglarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashlariga yordam beradi. Masalan, optika va yorug'lik fanlarini o'rgatishda pedagoglar laboratoriyalarda real tajribalar o'tkazib, bu jarayonlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashni o'rgatadilar.

Rossiyada ham pedagogik kadrlarning kompetentligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Rossiya ta'lim tizimi kontekstli o'qitish tamoyillariga asoslanadi va pedagoglarni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan tanishtirishga qaratilgan maxsus dasturlar mavjud. Pedagoglarning malakasini oshirishda kontekstli o'qitish tinglovchilarni nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va ularning kasbiy malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Quyida Rossiyada pedagoglarning malakasini oshirishda kontekstli o'qitishdan qanday foydalanganligi haqida ma'lumot keltirilgan.

Kontekstli o'qitish tamoyillarini qo'llash.

Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish

Kontekstli o'qitish nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashni o'z ichiga oladi. Rossiyada bu tamoyil pedagoglarning malakasini oshirishda quyidagi yo'llar bilan qo'llaniladi:

Laboratoriya ishlarini: Pedagoglar darslarda nazariy bilimlarni laboratoriya ishlarini orqali amaliyotda qo'llaydilar. Masalan, fizikadan dars berishda pedagoglar laboratoriya ishlarini real hayotiy misollar bilan boyitib o'tkazadilar.

Amaliy mashg'ulotlar: Pedagoglar nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlaydilar. Bu usul orqali pedagoglar o'quvchilarga nazariy bilimlarni qanday qilib amaliyotda qo'llashni o'rgatadilar.

2. Interfaol yondashuv

Interfaol yondashuv pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida faol muloqot va hamkorlikni ta'minlaydi. Rossiyada bu tamoyil quyidagicha amalga oshiriladi:

Seminarlar va treninglar: Pedagoglar uchun muntazam ravishda seminarlar va treninglar tashkil etiladi. Bu tadbirlarda pedagoglar yangi pedagogik usullar va texnologiyalar bilan tanishadilar va o'zaro tajriba almashadilar.

Interaktiv darslar: Pedagoglar darslarda interaktiv usullarni qo'llaydilar. Masalan, munozaralar, guruhli ishlar va rolli o'yinlar orqali o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qiladilar.

3. Tajriba asosida o'qitish

Tajriba asosida o'qitish pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Rossiyada bu tamoyil quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

Amaliy tajribalar: Pedagoglar o'quv jarayonida amaliy tajribalar o'tkazadilar. Masalan, fizikadan dars berishda pedagoglar turli tajribalar o'tkazib, bu jarayonlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashni o'rgatadilar.

Simulyatsiya va modellash: Pedagoglar darslarda simulyatsiya va modellash usullarini qo'llaydilar. Bu usullar

orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni real hayotiy sharoitlarda sinab ko'radilar.

Pedagogik kadrlarning malakasini oshirish dasturlari. Rossiyada pedagoglarning malakasini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar kontekstli o'qitish tamoyillariga asoslanadi va quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

#### 1. Professional rivojlanish dasturlari

Treninglar va seminarlar: Pedagoglar uchun muntazam ravishda turli mavzularda treninglar va seminarlar o'tkaziladi. Bu tadbirlar pedagoglarning zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlari bilan tanishishiga imkon beradi.

Onlayn kurslar: Pedagoglar uchun onlayn platformalarda malaka oshirish kurslari tashkil etiladi. Bu kurslar orqali pedagoglar o'z bilimlarini yangilab boradilar va yangi ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

#### 2. Amaliyotga yondashuv

Amaliy mashg'ulotlar: Pedagoglar amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etadilar va nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Laboratoriya ishlari: Pedagoglar laboratoriya ishlarni o'tkazish orqali nazariy bilimlarni mustahkamlaydilar va ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashni o'rgatadilar.

#### 3. Xalqaro tajriba almashinuvi

Xalqaro konferensiyalar va seminarlar: Pedagoglar xalqaro konferensiyalar va seminarlar orqali chet el tajribalarini o'rganadilar va ulardan foydalanish yo'llarini o'rganadilar.

Xalqaro hamkorlik: Rossiyada pedagoglar xalqaro hamkorlik doirasida chet eldagi ta'lim muassasalari bilan tajriba almashadilar. Bu jarayon pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishga katta hissa qo'shadi.

Rossiyada pedagoglarning malakasini oshirishda kontekstli o'qitish tamoyillaridan keng foydalaniladi. Bu usul pedagoglarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va ularning kasbiy malakasini oshirishga xizmat qiladi. Muntazam ravishda tashkil etiladigan seminarlar, treninglar, amaliy mashg'ulotlar va xalqaro tajriba almashinuvi orqali pedagoglar zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlari bilan tanishadilar va o'z bilimlarini yangilab boradilar. Bu jarayon Rossiyada ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

**Xulosa.** Maqolada kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalar tahlil qilindi. Kontekstli o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari, uning pedagogik kadrlarning kasbiy

malakasini oshirishdagi ahamiyati hamda xalqaro tajribalar asosida bu jarayonning pedagogik samaradorligi ko'rsatib o'tildi. Tadqiqot natijalari, kontekstli o'qitish tamoyillarini qo'llash orqali pedagoglarning maxsus kompetentligini oshirishning muhimligini va xalqaro tajribalarning ushbu jarayonda o'ziga xos ahamiyatini tasdiqladi. Xususan, Finlandiya, Singapur, AQSh, Kanada va Rossiya tajribalari kontekstli o'qitish usullarini joriy etish orqali pedagogik kadrlarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini berishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu tajribalar pedagoglarning zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlanishi va ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kontekstli o'qitish tamoyillariga asoslangan ta'lim tizimi pedagogik kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning doimiy ravishda malaka oshirishlari, real hayotiy vaziyatlarda bilim berish va amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratish ularning professional darajasini oshirishda muhim omillardan biridir. Ta'lim tizimi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun pedagogik kadrlarning doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishlari zarur.

**Tafsiyalar.** Professional rivojlanish dasturlari: Pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini oshirish uchun muntazam ravishda professional rivojlanish dasturlari tashkil etilishi kerak. Bu dasturlar pedagoglarni yangi ta'lim usullari va texnologiyalari bilan tanishtirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Kontekstli o'qitish metodlarini keng qo'llash: Ta'lim jarayonida kontekstli o'qitish metodlarini keng qo'llash orqali nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Xalqaro tajribalarni o'rganish: Xalqaro tajribalarni o'rganish va ulardan o'z ta'lim tizimimizda foydalanish orqali pedagog kadrlarning malakasini oshirish mumkin. Bu borada xalqaro konferensiyalar, seminarlar va tajriba almashish dasturlari tashkil etilishi zarur.

Individual yondashuv: O'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini oshirishga yordam beradi.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish mumkin bo'ladi. Kontekstli o'qitish usullaridan foydalanish pedagoglarning nazariy bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llashga yordam beradi va ularning kasbiy malakasini oshiradi.

## ADABIYOTLAR

1. Natalie R. Language acquisition and cultural mediation: vygotskian theory. / -Asia Pacific Journal of Contemporary Education and Communication Technology. Year: 2017, Volume 3, Issue: 2
2. Козырева В.А., Н.Ф.Радионой. А.П.Тряпицовой Компетентностный подход в педагогическом образовании. Коллективная монография / - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2008. - 392 с
3. Вербицкий А.А. Контекстное обучение: Теория и практика. Москва-2002.
4. Вербицкий, А. А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход / А. А. Вербицкий. - М. : Высшая школа, 1991.
5. Вербицкий А.А. Компетентностный подход и теория контекстнообучения. - М.: ИЦ ПКПС, 2004.
6. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления / Пер. с англ. Н. М. Никольской; Под ред. (и с предисл.) Н. Д. Виноградова. — М.: Мир, 1915. — 202 с.
7. Выготский, Л. С. Избранные психологические исследования / Л. С. Выготский. - М. : Изд-во АПН РСФСР, 1956.
8. Хуторского А.В. Компетенции в образовании: опыт проектирования : сб. науч. тр. / под ред.— М.: Научно-внедренческое предприятие «ИНЭК», 2007. - 327 с
9. Хуторской А.В. Эвристическое обучение. Теория, методология, практика. - М.: Международная педагогическая академия. - 1988. - 266 с



UDK: 371.017

**Dilfuzaxon BURANOVA,**  
*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti o'qituvchisi*  
*E-mail: buranovadilfuzaxon@gmail.com*  
**Rahmatjon DJURAQILOV,**  
*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti dotsenti*  
*E-mail: rahmatjonjuraqulok@gmail.com*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti kafedra mudiri, dotsent D. Toshpo'latov taqrizi asosida*

#### METHODOLOGY AND COMPETENCE: INTERCONNECTEDNESS

Annotation

The article discusses some important issues of teaching methodology. In particular, the possibilities of developing students' competence abilities are studied.

**Key words:** Methodology, learning, teaching, competence, pedagogy, ability, skill, competence, knowledge, art.

#### МЕТОДИКА И КОМПЕТЕНТНОСТЬ: ВЗАИМООТНОШЕНИЕ

Аннотация

В статье обсуждаются некоторые вопросы о методике обучения и искусства преподавания. Изучаются возможности развития компетентности студентов.

**Ключевые слова:** Методика, обучение, преподавание, компетентность, педагогика, способность, умение, квалификация, знание, искусство.

#### METODIKA VA KOMPETENSIYA: O'ZARO UZVIYLIK

Аннотация

Maqolada o'qitish metodikasining ba'zi muhim masalalari muhokama qilinadi. Xususan talabalarning kompetensiyaviy qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Metodika, o'rganish, o'qitish, kompetensiya, pedagogika, qobiliyat, ko'nikma, malaka, bilim, san'at.

**Kirish.** Bugungi kun fan-texnika va ishlab chiqarishning rivojlanishi, ta'limda nazariya bilan amaliyot birligi, hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi talablari, talabaning mustaqil faol va ongli mehnatiga asoslangan, uning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradigan, tafakkurini rivojlantiradigan, vaqtdan unumli foydalana oladigan, bilim o'rganishini yengillashti-radigan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni o'quv jarayoniga tadbiiq etishni taqozo etadi. Muhtaram Yurtboshimiz aytganlaridek: "Xalqimiz ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o'z hayotida ijobiy o'zgarishlarni ko'rishni istaydi. Bizning mehnatkash, oq ko'ngil, bag'ri keng xalqimiz bunga to'la xaqlidir"[6].

Dunyo miqyosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun ular tajribalarining ijobiy taraflarini o'rganish va albatta dars jarayonida mavzularni muammoli metodlardan foydalanib, o'qitishni ta'lim tizimiga joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor yangi pedagogik texnologiyalarga qaratilishi hisobiga dars unumdorligining yuqori bo'lishiga erishish mumkin bo'ladi.

Hozirgi zamon jamiyati qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilaridan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasida chuqur nazariy va amaliy bilimlarni talab qilmoqda. Sivilizatsiyalashgan, yuqori darajada rivojlangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini shakllantirish va rivojlantirish muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning kasbiy mahoratiga, shaxsiy va ijtimoiy yetukligiga bog'liq[13].

Biz bilamizki, olimlar o'rtasida o'qitish, uning metodikasi, pedagogika sohasida bahslar hech qachon to'xtamagan va bu borada bahslar davom etaveradi, yangi-yangi ijobiy fikr-xulosalar tug'ilaveradi, chunki bu soha keng qamrovli sohadir.

**Adabiyotlar tahlili.** O'rganishning o'zi bir jarayondir, o'qitish esa san'atdir. O'qitishga o'rgatish esa yanada yuqori bosqichli san'atni talab qiladi. Zero metodika fan emas, balki san'at ekanligi to'g'risida ko'plab atoqli olimlarning hamfikir ekanliklari manbalardan ma'lum[1].

Metodika to'g'risida so'z yuritilganda bu tushuncha deyarli barcha sohalarga tegishlidir. Nainki aniq fanlar, balki masalan, aytaylik, qishloq xo'jaligi mutaxassislarini tayyorlash - o'qitish metodikasi yoki injenerlik, sanoat - qurilish shuningdek, masalan xuquq-tartibot sohasi kadrlarini tayyorlash metodikasi albatta kerak. Umuman olganda "metodika" kursi - g'oyat foydalidir deyish to'g'ri bo'ladi.

Yuqoridagi manbalarda o'qitishga o'rgatish qanchalik muhimligi haqida savol qo'yiladi. Biroq bu savolga qisqa va aniq javob berishning iloji yo'q, chunki mahoratli o'qituvchilar qancha bo'lsa, ularning o'qitish uslublari ham shunchalar xilma-xildir. Qaysi soha bo'lmasin o'qituvchining tajribasi ortib borgan sari uning o'qitish malaka-san'ati ham boyib boraveradi. Bu esa o'qitishni endigina bitirib, yangi ish boshlagan yosh mutaxassisning kompetensiyaviy xarakteri, qobiliyati qaror topib borishining asosiy omillaridan biridir. Zero hozirgi zamon ta'lim metodikasida yoshlarning kompetensiyaviy tarbiyasini kuchaytirish - dolzarb masalalaridan biri sifatida tan olinayotganligi bejiz emas. Chunki kompetensiya metodikaning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi deyilsa xato bo'lmaydi.

Atoqli olimlardan biri D.Poya kishi bilimining mukammal bo'lishi uchun uning to'la kompetensiyaga ega bo'lishi zarurligini alohida ta'kidlab o'tadi[1].

Qator manba'larda masalan[2] da ham o'qitishda aynan uning qiziqarlilik jihatlariga urg'u berilsa[3], da ko'proq o'qitishda soddalikka ahamiyat berish haqida aytiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'lim sohasi asosiy tushunchalari - bilim, ko'nikma va malakalar bilan ish yuritadi. Ammo kasbiy soha esa kompetensiyalar bilan shug'ullanadi. Professional soha talab darajasida buyurtma sifatida o'z e'tirozlarini qayd etishi mumkin. Ta'limning vazifasi olingan bilim, ko'nikma va malakalarni kasbiy sohada talab qilinganidek ma'lum bir kompetensiyalar darajasida qayta moslashtirishdan iborat.

Kompetentsiya nima? Kompetentsiya bu – ma'lum bir faoliyat yoki harakatni foydali, samarali (yuqori sa'viyada) bajarish, yana shuningdek ustalik, bilimdonlik, mohirlik bilan amalga oshirish demakdir. Ko'pgina mualliflar kompetensiyani Evropa Ta'lim Jamg'armasi (ETJ, 1997) atamasi bilan bog'lashadi. Bu esa ishga joylashish jarayonlarida nomzodga qo'yiladigan talablardan kelib chiqadi, ya'ni maxsus mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyatiga mos keladi. Ya'ni kompetentsiya bu - mutahassisning jamiyatga kerakli (arzirli) masala yoki muammolar to'plamini hal qilishga qaratilgan harakatlarining samaradorligini baholash natijasi - xarakteristikasidir.

Bilim, ko'nikma, qobiliyat, motivlar, qadriyatlar va e'tiqodlar kompetensiyaning mumkin bo'lgan tarkibiy qismlari sifatida qaraladi, lekin bu belgilar o'z-o'zidan insonni butunlay barkamol qila olmaydi.

Kompetentsiya bu - talabning ma'lum bir sohada samarali ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan oddiy holatda begona, oldindan belgilangan ijtimoiy talab (me'yor) dir.

Kompetentsiya bu - talabning tegishli qobiliyatga ega bo'lishi, shu jumladan uning o'ziga va faoliyat mavzusiga nisbatan shaxsiy munosabatidir.

Kompetentsiya bu - talabning allaqachon shakllangan shaxsiy sifati (sifatleri to'plami) va ma'lum bir sohada minimal ko'lsada tajribasi hamdir.

Kompetentsiya bu - o'quvchining ma'lum bir sferada samarali faoliyat yuritishi uchun oldindan zarur bo'lgan ijtimoiy talablar (normalar) dir[12].

Kompetentsiya keng ma'noli so'z bo'lib, umumiy lug'aviy tarjimaga ko'ra uning ma'nolari shaxsning yaxshi biladigan sohasi, vakolat, xuquq, mulohazalilik, asoslilik, omilkorlik, xabardorlik, bilim-tajriba va h.k. kabi ta'riflanadi. Bundan ko'rinadiki, yosh mutaxassis har qancha a'lo o'qigan bo'lmasin yuqorida sanab o'tilgan fazilatlariga o'z-o'zidan ega bo'lib qolmaydi.

Har qanday o'quvchi hech bo'lmagahda bu sanab o'tilgan fazilatlar, ya'ni qobiliyatning ibtidoiy shakllariga ega bo'ladi. Qolgan esa tarbiyaviy muhitga bog'liq. Shuning uchun ham yosh kadrlarni, jumladan qishloq xo'jaligi sohasining yosh mutaxassislari kompetensiyaviy rivojlanishining samaradorligini oshirishning vositalari, usullarini topish, ularni amalga oshirish, qo'llash metodikasini ishlab chiqish muhimdir.

Bu borada shunday uslublar kerakki, toki bu uslublar yangi, yosh mutaxassisning o'zi egallagan nazariy bilimlarini yangi faoliyati sohasida muvaffaqiyatli qo'llay bilishiga yordam bersin. Unda o'z funksiyasi doirasi va boshqa keng sohada ham tegishli topshiriq, vazifalarini "qoyilmaqom" qilib bajara olish qobiliyatini kuchaytirishga ko'mak bersin. U puxta bilimli bo'lsin. O'zining to'g'ri mulohazalarini asoslay oladigan, bir so'z bilan aytganda omilkor bo'lsin.

Hozirgi zamon jamiyati qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilaridan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasida chuqur nazariy va amaliy bilimlarni talab qilmoqda. Sivilizatsiyalashgan, yuqori darajada rivojlangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini shakllantirish va rivojlantirish muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning kasbiy mahoratiga, shaxsiy va ijtimoiy yetukligiga bog'liq. Shu jumladan tarmoqning rivojlanish darajasi bilan birga qishloq xo'jaligi mutaxassislarga qo'yiladigan talablar darajasi ham ortib

bormoqda, bu esa mutaxassislar tayyorlash strategiyasini jiddiy o'zgartirmoqda. Bu ayniqsa, raqamlashtirish jarayonini boshdan kechirayotgan qishloq xo'jaligi sohasida dolzarblik kasb etadi.

**Tahlil va natijalar.** So'nggi paytlarda har bir sohaning kasbiy faoliyatida mutaxassislarni tayyorlash sifati muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shuningdek oliy ta'lim muassasalari sonining o'sishi, shu jumladan nodavlat (tijorat) ta'lim xizmatlari ulushining ham ortib borishi oliy ta'lim sohasida sifatli bilim, jamiyatga kerakli mutahassis tayyorlashga bo'lgan talablarning yanada ortishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa ta'lim dargohlari o'rtasida erkin raqobatning o'sishiga olib kelmoqda.

Bu aytilganlar talaba va bitiruvchilarga qo'yiladigan zamonaviy talablarning bir qismidir deyish mumkin. Hozirgi kunda ehtiyojlar ham, talablar ham tez o'zgarishga yuz tutmoqda. Bu esa albatta ta'limda ham o'z aksini topadi. Ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab ortib borgan sari ta'limda ham o'zgarishlar amalga oshirish zaruriyati tug'iladi.

Albatta avvalo o'quv dasturlarini ham jiddiy tahrirdan o'tkazishga to'g'ri keladi. Chunki rejalar puxta bo'lishi kerak va bu rejalarini amalga oshirish uchun, ya'ni talabalarni yetarli ko'nikma-malakalarga ega bo'lishlariga yordam beruvchi o'rganishga o'qitish uchun yuqori malakali, o'qitishni "san'at" darajasiga ko'tara oladigan to'la kompetentli o'qituvchilar kerak.

O'qitish shunchalik keng qirraliki, avval aytilgandek har bir o'qituvchining uslubi o'ziga xosdir.

Atoqli o'qituvchilar o'qitishni hatto musiqa bilan ham qiyoslashadi. Dars davomida,- deydi ular, bir xil so'zni bir xil ohangda takrorlayvermang. Ular yana aytadi - kompozitorlarda ham hatto variatsiya degan tushuncha bor, bu degani ko'ngilga tegmasligi uchun biror kuyni ikkinchi bor takrorlaganda kichik bir o'zgarish qilishadi [1].

Bu kabi musiqa shakllarini o'qitishga ko'chirishning qiyin joyi yo'q. Pedagoglar, yana kompozitorlar sevib qo'llaydigan, musiqaning "rondo" deb atalgan shakli haqida ham eslatadiki, o'qitishda bu kabi tushunchalardan ijobiy foydalanish, ozmi-ko'pmi o'quvchilar diqqatini jalb qilishga, ularning darsga, mavzuga bo'lgan qiziqishlarining kuchayishiga, o'qitishda metodika, ya'ni o'qitish san'atining jozibadorligini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Pedagogikaning nozik nuqtalarini ko'rsatib beradigan misollar juda ko'p. Shulardan biriga ko'ra mashhur ixtirochi T.Edisonning bolalik paytida ustozidan onasiga xat berib yuboradi. Onasi xatni o'qib, o'yga tolib o'tirsa, uning nima haqida ekanligini so'ragan bolasiga onasi, o'qituvchisi uni maqtaganligini aytadi. Aslida esa ustoz yosh Tomas haqida uning aqli pastligi va uni nogironlar maktabiga borishi kerakligini yozgan bo'ladi. Agar onasi bu haqiqatni o'z vaqtida yosh Tomasga aytganida edi u balki mashhur inson bo'lib yetishmas edi.

Yana bir fakt: Litvada 1906 yilda otasi olti yashar qizchasi bilan birga qo'lbola teleskopda osmonda uchib o'tayotgan "Ikar" nomli kometani kuzatishadi. Qizcha shundan keyin kelajakda astronomiya, fizika, matematika o'qituvchisi bo'lib yetishadi va bu ayol o'qitgan 30 nafar o'quvchi sinf bo'yicha barchasi Moskva Davlat universitetiga fizika gruppasi bo'lib o'qishga kirishadi. Bundan esa o'qitish naqadar buyuk san'at ekanligini his qilamiz va bundan buyon pedagogika, metodika va shuningdek kompetensiyaviy qobiliyatni rivojlantirish masalalari nechog'li ahamiyatli, dolzarb ekanligiga shuningdek, bu tushunchalarning o'zaro uzviy bog'liq ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Bugungi kunda fan, ta'lim, sanoat, ishlab chiqarish va zamonaviy texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi oliy ta'lim dargohlaridan o'zlarining ta'lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlarini taqozo etmoqda.

Shu bilan birga oliy o'quv yurtlari ba'zan ta'lim sifatiga zid bo'lsa ham o'zlarining asosiy iste'molchisi - talabalarining talablari va ehtiyojlarini hisobga olishga intiladi. Bu boradagi ko'p uchraydigan muammolardan biri hozirgi ta'lim mazmunining zamonaviy iqtisod va sivilizatsiya talablari bilan u darajada mos emasligidadir.

Shunday qilib o'qitishda metodika - kompetent yondashuv talabalar tomonidan bilim va ko'nikmalarni bir biridan o'zaro ajratilgan alohida-alohida holda emas, balki ularni bir butun holda o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Shunga ko'ra o'qitish metodlari sistemasi o'zgaradi, yoki boshqacha aniqlanadi. O'qitish metodlarini shakllantirish, qurish, tanlash, saralash asosida ta'limda bajarilishi kerak bo'lgan kompetensiya va funksiyalar tuzilmasi yotadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda yosh mutaxassisning shaxsiyati uni qabul qilayotgan jamiyatda o'z-o'zini anglashga qaratilgan axloqiy-kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ta'lim va tarbiyaning maqsadlari jamiyatning, shaxsning intellektual, qadriyat yo'nalishlariga, uning kasbiy fazilatlariga bo'lgan ijtimoiy talablariga muvofiq holda belgilanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, so'ngi yillardan boshlab ish beruvchi o'zining ta'lim jarayonidagi o'rnini belgilab oldi: ta'lim dasturlarini ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etish, kasbiy kompetensiyalarni alohida aniqlash (baholash), ta'lim

dasturlarini kompetent yondashuv asosida shakllantirish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy vositalar ta'minotini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni attestatsiyasi va mutaxassislar tayyorlash sifatini baholashda ishtirok etish shular jumlasidandir. Natijada birgalikda o'tkaziladigan tadbirlar rejasi va ijtimoiy sheriklik shartlari ishlab chiqildi, sifatli samarali professional (kasbiy) ta'limni tashkil etish sohasida uzoq muddatli hamkorlik shartnomalari tuzildi, bitiruvchi mutaxassisning kompetensiyalari talab darajasida aniqlab (belgilab) olindi, ta'lim dasturlari mazmunan ekspertiza qilindi, darsliklar tayyorlash va diplom oldi amaliyotlarining mazmuni aniqlandi, yangi fan dasturlari kiritildi [11].

Shu bilan birga, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining kasbiy va shaxsiy kompetensiyalari sifatini oshirishga qaratilgan, yangi davr talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga hissa qo'shadigan bo'lajak mutaxassislarning malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish zarur.

Umuman ta'lim sohasida va uning tarkibiy bo'linalarida, bitiruvchi kafedralarda o'z-o'zini rivojlantirish, axloqiy va intellektual o'sish, shuningdek shaxsiy qadriyatlariga hos sharoit yaratish orqali ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarga erishish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Пойа, Д., "Математическое открытие". Наука. М. 1970.
2. Клайн, М., "Математика. Поиск истины.". Мир. 1989.
3. Djuraqulov R., D.Sh.Toshpo'latov., "Talabalarning ma'naviy kompetentligini rivojlantirishda buyuk o'zbek olimlarining me'rosidan foydalanish". Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2023.
4. Djuraqulov R., R. Umarov., "Об обучении в преподавании: простота– доступность"., Материалы XIV Международной научно-методической конференции "Перспективы развития высшей школы". Гродно. ГГАУ-2021.
5. Qulmatova B.A., Buranova D.A. (2022). The role of digital technologies in agriculture. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (108), 362-365. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-04-108-46> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.Scopus.ASCC>: 1700.
6. Qulmatova B. Buranova D. "Ta'lim jarayonida elektron ta'lim va an'anaviy ta'limning integratsiyasi". NamDU ilmiy axborotnomasi. 2020. 2-son. 366-373 bet.
7. Каримов Н., Кулматова Б.А., Буранова Д. "Ақли кишлок хўжалигини юритишда рақамли технологияларнинг жорий этиш масалалари". «The XXI Century Skills for Professional Activity» International Scientific-Practical Conference. Tashkent, Uzbekistan 2021, March 15.
8. Каримов Н., Кулматова Б.А., Д.Буранова. "Қишлоқ хўжалигида рақамли технологияларнинг жорий этиш масалалари". Academic research in educational sciences volume 2 | issue 3 | 2021.
9. Qulmatova B., Buranova D. "Oliy ta'limda zamonaviy ta'lim texnologiyarini qo'llashning afzalliklari". Mu'allim ham uzliksez bilimlendiriy. Nukus. 3/4-2022 жыл. ISSN 2181-7138. Илимий-методикалық журнал. 56-59 betlar.
10. Buranova D. "Qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlarida talabalarni kasbiy-kommunikativ tayyorlash". "Экономика и социум" №3(118). 2024. ISSN: 2225-1545; 2541-9285. [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru).
11. Buranova D. "Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarining kompetensiyaviy samaradorligini oshirish masalalari to'g'risida", "Mu'allim ham uzliksez bilimlendiriy", ISSN 2181-7138. 4-сан, июль, Нөкис-2024. Қарақалпақстан.
12. Buranova D. "Qishloq xo'jaligi bo'lajak mutaxassislarini kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim muammolari", Science and education in agriculture, iyul 2024. volume 7, issue 7. ISSN: 3030-3222, ОАК. <http://www.seagc.andqaxai.uz>
13. Мерхинова О.Ц., Доржиева С.Б., Оширов Э.Н. "Проблемы развития профессиональной компетентности будущих специалистов сельского хозяйства", Бурятская государственная сельскохозяйственная академия им. В.П. Филиппова, Россия [http://www.rusnauka.com/7\\_NITSB\\_2012/Pedagogica/2\\_103546.doc.htm](http://www.rusnauka.com/7_NITSB_2012/Pedagogica/2_103546.doc.htm).





Zafar DADABAYEV,  
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi  
E-mail:zafar\_dadabaev@gmail.com

NamDU dotsenti, PhD D.M.Sarimsakova taqrizi asosida

## TALABALARGA INGLIZ TILIDA SOHAGA OID MATNLARNI O‘QISHGA O‘RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha OTMlarida ingliz tilini maxsus yo‘nalishlarda shuningdek, boshqa soha vakillari ham o‘zlarining kasblarini kelajakda rivojlantirish maqsadida ESP (English for specific purposes) o‘rganishlari zamon talabi etib qo‘yilmoqda. O‘qish aloqa (kommunikatsiya) qilishning bir turi bo‘lib, o‘qish orqali talabalar ingliz tilida fan va texnikaning turli sohalariga oid autentik materiallarni va sohaviy matnlarni o‘qib o‘rganishadi. Mazkur maqolada talabalarga ingliz tilida sohaga oid matnlarni o‘qishga o‘rgatishning nazariy asoslarini yoritamiz.

**Kalit so‘zlar:** Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitish, sohaga oid matnlar, o‘qish materiallari, o‘qish kompetensiyasi.

## THEORETICAL FUNDAMENTALS OF TEACHING STUDENTS TO READ FIELD-SPECIFIC TEXTS IN ENGLISH

Annotation

Today, at all higher education institutions in our country, it is critical for representatives from various professions to study ESP (English for special purposes) in order to further their careers. Reading is a mode of communication in which students learn English by reading authentic materials and texts from a variety of scientific and technological sectors. In this article, discuss theoretical foundation of teaching students to read job-related texts in English.

**Key words:** Teaching English for special purposes, field-related texts, reading materials, reading competence.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЧТЕНИЮ ОТРАСЛЕВЫХ ТЕКСТОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Сегодня во всех высших учебных заведениях нашей страны для представителей различных профессий крайне важно изучать ESP (английский язык для специальных целей) с целью дальнейшего карьерного роста. Чтение — это способ общения, при котором студенты изучают английский язык, читая аутентичные материалы и тексты из различных научных и технологических секторов. В этой статье мы обсудим теоретические основы обучения студентов чтению профессиональных текстов на английском языке.

**Ключевые слова:** Преподавание английского языка для специальных целей, тексты профильной тематики, материалы для чтения, читательская компетентность.

**Kirish.** Ma‘lumkin, hozirgi raqamli texnologiyalar davrida inson o‘qish orqali juda katta ma‘lumotlarni oladi, bundan tashqari, nutq faoliyatining ushbu turi madaniyatlararo muloqot va umuman zamonaviy muloqotning asosini tashkil qiladi. Shuni ta‘kidlash joizki, chet tilini o‘rganishda o‘qish nafaqat maqsad, balki o‘rganish vositasi sifatida ham ishlaydi [1]. Umuman olganda, chet tilini o‘rganishning muvaffaqiyati bevosita talabaning o‘qishning boshida o‘qish texnikasini qanchalik yaxshi o‘zlashtirganiga bog‘liq. Bu, birinchidan, nutq faoliyatining barcha turlari o‘zaro bog‘liqligi, ikkinchidan, nutq faoliyatining bir turi sifatida o‘qishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda barcha OTM talabalarining xorijiy tilda, xususan ingliz tilida nutq ko‘nikmalarini (o‘qish, yozish, gapirish, tinglab tushunish) rivojlantirish, ularda ushbu tilda o‘z ta‘lim yo‘nalishlari doirasida erkin muloqot qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks ta‘lim tizimi yaratilmoqda.

**Mavzuga oid materiallar va tadqiqot metodologiyasi.** Kompetensiya – bu ichki, potensial, yashirin psixologik neoplazmalar (bilimlar, g‘oyalar, harakatlar dasturlari (algoritm)lari, qadriyatlar va munosabatlar tizimi), keyinchalik ular kompetensiyalarda namoyon bo‘ladi. Kompetensiya berilgan vazifani bajarish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini ta‘minlovchi, olingan

ko‘nikma, bilim va tajribaga asoslanadi [2]. Kompetentlik esa, biror soha bo‘yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati” [3]. Kompetentlik atamasi ta‘lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib keldi. Bu tushuncha noan‘anviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o‘zini qanday tutish, muloqotga kirishish, tomonlar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutish, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to‘g‘risida nazariy bilimlar zarurligini ko‘rsatadi.

Xorijiy adabiyotlar tahlilida, kompetentlik “chuqur bilimlar egasi”, “murakkab masalalarni yechish qobiliyati”, “o‘z paytida dolzarb faoliyatni amalga oshirish qobiliyati” kabi ma‘nolarni anglatadi. Kompetentlik o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi [2].

Ye.Zeer muhim kompetensiyalarni shaxsning turli kasbiy faoliyatga moslashishi va samarali faoliyat ko‘rsatish uchun ma‘lum ishlarni bajarishda zarur bo‘ladigan, ko‘nikma va malakalar shaxsiy sifatlar va qobiliyat sifatida ta‘riflaydi [4]. Ingliz tilini o‘rgatishda kompetensiyaga asoslangan

yondashuv faoliyatga turli yondashuvlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Innovatsion texnologiyalarning asosini o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish va tashkil etish, talabalarning faolligi, kognitiv faoliyati tashkil etadi. Bularning barchasi ularda muammoli masalalar ustida ishlash, noaniq vaziyatlardan chiqish, kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda topish va hokazolarni rivojlantiradi.

Talabalarga ingliz tilidagi sohaga oid matnlarni o'qishni o'rgatishda quyidagi tushunchalar orqali rivojlantirish mumkin:

1. Axborotni qayta ishlash nazariyasi: Bu nazariya o'qish turli kognitiv jarayonlarni, jumladan idrok, diqqat, xotira va tushunishni o'z ichiga oladi. Matnlardan ma'lumot olish va tushunishda ushbu jarayon muhimligini ta'kidlaydi. Ingliz tilida o'qish qobiliyatini rivojlantirish ushbu kognitiv jarayonlarni amaliyot va ko'rsatmalar orqali takomillashtirishni o'z ichiga oladi [5].

2. Ijtimoiy-kognitiv nazariya: Bu nazariya ta'lim jarayonida ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning rolini ta'kidlaydi. Bu talabalarga boshqalarni kuzatish va taqlid qilish, shuningdek, birgalikdagi faoliyat orqali o'rganishni taklif qiladi. O'qish kompetensiyasi kontekstida talabalar munozaralar, guruh ishlari va tengdoshlarning fikr-mulohazalari bilan shug'ullanishlari mumkin, bu esa ingliz tilidagi matnlarni tushunish va talqin qilishni kuchaytiradi [6].

3. Vigotskiyning eng yaqin rivojlanish zonasi (ZPD): Bu konsepsiya talabalarning hozirgi malaka darajasidan tashqarida bo'lgan vazifalarni bajarishda o'rganish uchun eng yaxshi vositadir. Ingliz tilida o'qish malakasini rivojlantirishda o'qituvchilar talabalarning o'qish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich yaxshilashga yordam berish uchun tegishli ko'rsatmalar berishlari mumkin. Buni boshqariladigan o'qish faoliyati, aniq ko'rsatma va mas'uliyatdan asta-sekin ozod qilish orqali amalga oshirish mumkin [7].

4. O'z-o'zini samaradorligini oshirish nazariyasi: Bu nazariya odamlarning muayyan vazifa yoki sohada muvaffaqiyat qozonish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonchini kuchaytiradi. O'qishda samaradorligi yuqori bo'lgan talabalar o'qish faoliyati bilan shug'ullanishlari, qiyinchiliklarga qarshi turishlari va o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. O'qituvchilar ijobiy fikr bildirish mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini taklif qilish orqali talabalarning o'z-o'zini samaradorligini oshirishi mumkin.

5. Motivatsiya nazariyasi: Motivatsiya ingliz tilida o'qish malakasini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ichki rag'batga ega bo'lgan talabalar keng qamrovli o'qish bilan shug'ullanishadi, qiyin matnlarni izlaydilar va mazmunini chuqurroq tushunishadi. O'qituvchilar qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi o'qish muhitini yaratish, o'qish materiallarida tanlov va mustaqillikni ta'minlash, o'qishni talabalarning qiziqishlari va maqsadlari bilan bog'lash orqali ularning motivatsiyasini oshirishlari mumkin. Ushbu psixologik asoslarni tushunish va qo'llash orqali o'qituvchilar talabalarning ingliz tilida sohaga oid o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga samarali yordam beradi.

**Tahlil va natijalar.** O'qish kompetensiyasi – yozma matnlarni tushunish va sharhlash qobiliyatini anglatadi. U turli ko'nikmalar va strategiyalarni o'z ichiga oladi, jumladan so'zlarni dekodlash, lug'atni tanib olish, jumladan tuzilishi va grammatikasini tushunish, kontekstdan ma'no chiqarish, matnning asosiy g'oyalari va tafsilotlarini tushunish. O'qish kompetensiyasi, shuningdek, tanqidiy fikrlash, ma'lumotni tahlil qilish va baholash, matnlar o'rtasida aloqa o'rnatish va bir nechta manbalardan ma'lumotlarni sintez qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu akademik muvaffaqiyatli ta'lim olish uchun zarur bo'lgan asosiy mahoratdir.

Talabalarga ingliz tilidagi sohaga oid matnlarni o'qishni o'rgatishni rivojlantirish uchun bir nechta muhim qadamlar qo'yilishi zarur:

1. O'qish materiallaridan foydalanishni ta'minlash: tegishli o'qish materiallaridan foydalanishni ta'minlash va ulardan samarali foydalanish juda muhimdir. Kitobxonlikni yoshlar tashkilotlari, kutubxonalar, o'quv darsliklari, internet va elektron kitob platformalari, shuningdek, "YouTube" kanallari orqali osonlashtirish mumkin.

2. Talaffuz amaliyoti: talaffuz amaliyoti talabalarga so'zlarni yaxshiroq tushunish va ifodalashda yordam berish umidida amalga oshiriladi. Bunga erishish uchun talabalar so'zlarni aniq ifodalash, o'qish jarayonida ma'lum harflarni guruhlash, so'zlarni talaffuz qilish, ma'lum ma'noli so'zlarni bir-biridan ajratish, so'zlarni so'z birikmalariga bog'lash kabi usullar o'rgatiladi.

3. Takrorlash: takrorlash talabalarga avval o'qiganlarini eslab qolish va mustahkamlashga yordam beradigan muhim qadamdir. Talabalarga o'qilgan materialni umumlashtirish va muhokama qilish kabi topshiriqlar beriladi.

4. Matn tahlil qilish: matn tahlil qilish talabalarga yozma matnning konseptual asosini tartibga solish va tushunishga yordam beradi. Bunga erishish uchun talabalarga matndagi muhim fikrlarni aniqlash, muhim ma'lumotlarni idrok etish, ularni tahlil qilish va izohlash bo'yicha mashqlar beriladi.

5. Tanqidiy fikrlash: tanqidiy fikrlash talabalarga matndagi konseptual xatolarni aniqlash va tushunishga, ularni tuzatishga va ilmiy asoslashni qo'llashga yordam beradi. Shu maqsadda talabalarga matndagi xatolarni aniqlash, ularni tuzatish, matndagi tushuncha xatolarini tushunish, ilmiy asoslashni qo'llash bo'yicha mashqlar beriladi.

6. Qiyosiy tahlil: qiyosiy tahlil talabalarga bir nechta matnlar orasidagi aloqalarni aniqlash, tushunish va ulardan foydalanishga yordam beradi. SHU maqsadda kitobxonlarga bir nechta matnlar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash va tushunish mashqlari beriladi.

7. Axborot sintezi: axborot sintezi talabalarga turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, ularni tahlil qilish va yangi g'oyalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu maqsadda talabalarga turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, tahlil qilish, yangi g'oyalar ishlab chiqish mashqlari beriladi.

O'qish qobiliyatini rivojlantirish uchun bir nechta muhim manbalar va mashqlar mavjud. Bunday manbalar va mashqlar talabalarga ham, o'qituvchilarga ham yordam beradi va ularning o'qish qobiliyatini oshiradi.

Psixologik asoslar bilan bir qatorda o'quvchilarning ingliz tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan lingvistik asoslar ham mavjud. Bu lingvistik asoslar fonologik xabardorlik, lug'at bilimi, sintaktik bilim va nutqni tushunishni o'z ichiga oladi.

Fonologik ong til tovushlarini tanib olish va boshqarish qobiliyatini anglatadi. Bu o'qish qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim mahoratdir, chunki u o'quvchilarga so'zlarni dekodlash va tushunishga yordam beradi. O'qituvchilar fonetika va fonemik ongni rivojlantirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berish orqali fonologik ongni rivojlantirishga yordam berishlari mumkin.

Yozma matnlarni tushunish va izohlash uchun lug'at bilimi zarur. So'z boyligi keng bo'lgan o'quvchilar murakkabroq matnlarni tushuna oladilar, so'zlar va tushunchalar o'rtasida aloqa o'rnatadilar. O'qituvchilar aniq lug'at o'rgatish, boy va rang-barang matnlar bilan tanishish va mustaqil o'qishni rag'batlantirish orqali o'quvchilarning so'z boyligini oshirishlari mumkin.

Nutqni tushunish matnning umumiy mazmuni va maqsadini tushunish qobiliyatini anglatadi. Bu jumladan va fikrlarning qanday bog'langanligini va matn ichida ma'lumot

qanday tashkil etilganligini tushunishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar matn tuzilmalarini, masalan, hikoya, tushuntirish yoki argumentativ matnlarni o'rgatish va talabalarga munozarada qatnashish va har xil turdagi matnlarni tahlil qilish imkoniyatini berish orqali o'quvchilarning nutqini tushunishlarini qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

O'qituvchilar talabalarga mohir kitobxon bo'lishga yordam berish uchun fonologik xabardorlik, dekodlash, so'z boyligi, ravon o'qish, o'qib tushunish va metakognitsiya bo'yicha aniq ko'rsatmalar va amaliyotni taqdim etishlari mumkin.

Fonologik ong – til tovushlarini anglash va boshqarish qobiliyati, so'zlarning alohida tovushlar yoki fonemalardan iboratligini tushunishni o'z ichiga olgan fonemik ongni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Fonologik xabardorlik so'zlarni dekodlash yoki talaffuz qila olish, imlo va so'zni aniqlash uchun muhim.

Dekodlash - bu harf-tovush munosabatlari haqidagi bilimlarni so'zlarni o'qish uchun qo'llash qobiliyati. Bu tovushlarni harflarga moslashtirish va so'zlarni shakllantirish uchun ularni birlashtirish uchun fonika ko'nikmalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. To'g'ri va ravon o'qish uchun dekodlash muhim.

Lug'at bilimi kishining so'z ma'nolarini tushunishini bildiradi. Bu alohida so'zlarning ma'nolarini bilish, shuningdek, so'zlarning bir-biri bilan qanday bog'liqligini tushunishni o'z ichiga oladi. O'qishni tushunish uchun lug'at bilimi muhim ahamiyatga ega, u o'quvchiga matn mazmunini tushunish imkonini beradi.

Ravon o'qish - bu tezlik, aniqlik va ifoda bilan o'qish qobiliyatidir. Ravon o'quvchilar so'zlarni avtomatik va tez tanib olishlari mumkin, bu ularga dekodlashdan ko'ra

tushunishga e'tibor berishga imkon beradi. Samarali o'qish va tushunish uchun ravonlik muhim ahamiyatga ega.

O'qishni tushunish - bu matnni tushunish va mazmunini yaratish qobiliyati. Bu matndagi ma'lumotlarni oldingi bilimlar bilan birlashtirish va xulosalar va aloqalarni o'z ichiga oladi. Tushunish nafaqat dekodlash ko'nikmalarini, balki asosiy bilimlarni, lug'at bilimlarini va metakognitiv strategiyalarni talab qiladi.

Metakognitsiya insonning o'z fikrlash jarayonlarini bilishi va nazorat qilishini anglatadi. Bu matnni tushunishni kuzatish, maqsadlarni belgilash va tushunishni kuchaytirish uchun strategiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Metakognitiv strategiyalar matnni oldindan ko'rib chiqish, savollar berish, umumlashtirish va o'qiganini mulohaza qilishdan iborat.

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, OTMlarda nofilologik ta'lim yo'nalish talabalari ko'proq kasbga va sohaga oid axborotga boy, qiziqarli matnlarni o'qishga ehtiyoj sezadi. Biroq, bunday matnlarni o'qish oddiy so'zlashuv yoki badiiy uslubdagi matnlarni o'qishga qaraganda ancha murakkabroq. Yuqorida keltirilgan ingliz tilida sohaga oid matnlarni o'qishga o'rgatishning nazariy asoslarini tushunish va qo'llash orqali talabalarni o'qish o'qish kompetensiyalari rivojlanadi. Bunda talabalarning yozma matnlarni tushunish va sharhlash qobiliyati oshadi, ya'ni so'zlarni dekodlash, lug'atni tanib olish, jumlar tuzilishi va grammatikasini tushunish, kontekstdan ma'no chiqarish, matnning asosiy g'oya va tafsilotlarini tushunish kabilar. Shuningdek, talabalarning tanqidiy fikrlash, ma'lumotni tahlil qilish va baholash, matnlar o'rtasida aloqa o'rnatish va manbalardan ma'lumotlarni sintez qilish malakalari rivojlanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Soliyev, U. (2024). Nofilologik yo'nalishlarda sohaviy matnlarni tanlashga qo'yiladigan talablarga doir. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 110-114.
2. Safarovna, S. F. (2023). Kasbiy kompetentlik sifatleri. Miasto Przyszłości, 34, 134-135.
3. Tolibova, G. (2024). Xorijiy til ta'limida kommunikativ kompetensiya: tushuncha va mohiyat. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 563-571.
4. Zeer, Y. F., Pavlova, A. M., & Symaniuk, E. E. (2005). Modernizatsiya professionalno obrazovaniya: kompetentnostny podkhod: uchebnoe posobie. Moscow, Russia: Moskovskiy psikhologo-sotsyalnyi institut (rus).
5. Simon, H. A. (1978). Information-processing theory of human problem solving. Handbook of learning and cognitive processes, 5, 271-295.
6. Tojiddinova, A. A., & Dilnavoz, I. (2023). Ijtimoiy kognitiv nazariya. obrazovanie nauka i innovatsionnye idei v mire, 34(5), 183-189.
7. Resnick, B. (2008). Theory of self-efficacy. Middle range theory for nursing, 2, 183-204.



UDK 370.152

*Toxirjon JABBOROV,*

*15 - umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchisi*

*E-mail: toxirjonjabborov05@gmail.com*

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD X.Abdinazarov taqrizi ostida*

### MODULLI TA‘LIM TEXNOLOGIYASIDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL MISOL VA MASALA YECHISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida innovatsion ta‘lim muhitini yaratish orqali o‘quvchilarni matematik savodxonligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Mazkur modulli ta‘lim texnologiyasini matematika fanida qo‘llashning afzalliklari va o‘quvchilarda modul dastur asosida mustaqil misol va masala yechish ko‘nikmalarini tarkib toptirish yo‘llari yoritib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Moddulli ta‘lim texnologiyasi, o‘quv faoliyat elementi, o‘quv bilish faoliyati, individual va guruhlarda ishlash metodi, mustaqil faoliyat ko‘nikmasi.

### ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО РЕШЕНИЯ ПРИМЕРОВ И ЗАДАЧ У ШКОЛЬНИКОВ В МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Создание инновационной образовательной среды в общеобразовательных школах открывает широкие возможности для повышения математической грамотности учащихся. В статье рассматриваются преимущества применения модульных образовательных технологий на уроках математики и способы формирования у школьников навыков самостоятельного решения примеров и задач на основе модульной программы.

**Ключевые слова:** Модульная образовательная технология, элемент учебной деятельности, познавательная деятельность, методы индивидуальной и групповой работы, навыки самостоятельной деятельности.

### OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING STUDENTS' SKILLS IN INDEPENDENT PROBLEM-SOLVING AND EXAMPLE RESOLUTION WITHIN MODULAR EDUCATION TECHNOLOGY

Annotation

Creating an innovative educational environment in general secondary schools provides extensive opportunities to enhance students' mathematical literacy. This paper explores the advantages of applying modular education technology in mathematics and discusses methods for developing students' skills in independently solving problems and examples based on the modular program.

**Key words:** Modular education technology, educational activity elements, cognitive activity, individual and group work methods, independent activity skills.

**Kirish.** Respublikamizning umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida innovatsion ta‘lim muhitini rivojlantirish maqsadida ta‘limning meyoriy-huquqiy bazasini tubdan takomillashtirish, xorijiy tajribalar va zamonaviy texnologiyalarni maktab ta‘limiga tadbiq etish mazmunida o‘quvchilarni o‘quv bilish faoliyatini samarali rivojlantirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori, 2020 yil 7 maydagi “matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli qarori, 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmonida [15] matematik ta‘lim mazmuni va mohiyatini sifat jihatidan yangilash, shuningdek o‘qitishning yangi aspektidagi metodikasini ishlab chiqish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, matematik ta‘lim mazmuni, mustaqil hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan matematik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish; matematik ta‘limni tashkil etishning zamonaviy shakl, metod va vositalari asosida o‘quv modullarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilab berilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Respublikamizda ta‘lim jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil qilish muammolarini A.A.Abdulloqodirov [1], N.N.Azizxodjayeva [2], M.M.Aripov [3], U.SH.Begimqulov [4], J.Yo‘ldoshev [5], M.A.Raximov [6], O‘.Q.Tolipov [7], boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ijodiy bilish faoliyatini shakllantirish va matematika darslarida ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha M.E.Jumayev [8], N.M.Zaynitdinova [9], D.I.Yunucova [10], F.M.Qosimov [11], L.V. Golish ta‘limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda dars ishlanmalarni tizimlashirishning metodik jihatdan loyihalashtirishning ilmiy metodik jihatdan izohlab bergan. Pedagog olimi D.I. Yunusovning tadqiqot ishlarida bo‘ljak matematika o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyotining tadqiq etilishi matematika o‘qituvchisini kasbiy pedagogik mahoratini shakllantirish imkoniyatlari yoritib o‘tilgan [10].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta‘lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagogik va axborot texnologiyalarini ilmiy asosini ishlab chiqish davr talabidir. Ta‘lim-tarbiya tizimida XXI asr pedagogik texnologiya asri bo‘ldi. Pedagogik va axborot texnologiyalarining samaradorligi ta‘lim-tarbiya qonuniyatlariga amal qilinishiga bog‘liq. Keyingi yillarda ta‘lim-tarbiya jarayonining obyektiv qonuniyatlari ilmiy asoslandi, bu pedagogik texnologiyani nazariy asoslarini

yaratish imkonini berdi. Pedagogik texnologiya ishlab chiqarish texnologiyasiga monand: maqsad, mazmun, amalga oshirish metodlari, shakllari va kafolatli natija tizimidir. Ishlab chiqarish jarayonida fizika, matematika va tabiat qonuniyatlari mujassam bo'lganidek, ta'lim-tarbiya jarayonida ham pedagogik qonuniyatlar mavjud [12].

Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda har-xil yondashuvlar mavjud. Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish borasida subyektiv yondashuvlar, pedagogik qonuniyatlarni buzilishi oqibati uni tanazzulga olib borgan ma'lum. Pedagogik texnologiyaning nazariy va amaliy asoslarini yaratishda obyektiv qonuniyatlarga asoslanilganining uning samaradorligi oshadi. Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim jarayonida interfaol uslublar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish ta'limning samaradorligini oshirishga bo'lgan imkoniyatlarga keng yo'l ochib bermoqda. Pedagogik texnologiyalar o'qituvchi uchun qulay vaziyat yaratish bilan birga darsda vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchi bilan individual ishlash va o'quvchilarni erkin kommunikativga faoliyatda bo'lish imkoniyatini yaratishi bilan afzaldir. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, tashkilotchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. Buning uchun, tanlangan pedagogik texnologiyalar maqsadi, vazifasi va mazmuni fanning maqsad va mazmuniga, shuningdek o'quvchining psixologik xususiyatini etiborga olishni talab etadi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani o'qitishda modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish sifat va samaradorligini oshirishga, shuningdek o'quvchilarni mustaqil misol va masala yechish ko'nikmasini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Modulli ta'lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so'zdan olingan bo'lib, qism (blok) degan ma'noni bildiradi. Modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda darsda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi. Shu o'quv topshiriqlari asosida, har bir modul yakunida savol-javob o'tkaziladi va xulosa chiqariladi [13]. Demak, biz tadbir etadigan modulli ta'lim

texnologiyasining didaktik maqsad va vazifasi shundan iboratki, o'quvchilarni matematik misol va masalalarni modul dasturi asosida mustaqil yechish imkoniyati mavjud bo'lib, har bir o'quvchi bilish faoliyatini mustaqil ish asosida tashkil etish imkoniyatini beradi. Texnologik yondashuv asosida o'quvchilarning bilish faoliyati esa mustaqil ish asosida quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

Modul dasturida o'quvchi bilishi zarur bo'lgan o'quv faoliyat elementi (O'FE)ni aniqlash; O'FE yuzasidan o'quv topshiriqlarining maqsadini aniqlash; matematikadan misol va masalalar yechish ustida mustaqil izlanish orqali o'quv bilish faoliyatini (O'BF) yuzaga keltirish; nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar asosida misol va masalalar javoblarning to'g'riligini tekshirib ko'rish; bilimlarni tizimga solish va mustahkamlash; bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo'llash.

**Tahlil va natijalar.** Modulli ta'lim texnologiyasi o'qitish ta'lim maqsadi, mazmuni, usul va shakl xamda vositalarini o'quvchilarning ehtiyojlarini xisobga olgan holda muvofiklashtirishdan iborat. Asosiy vazifasi esa, tugallangan axborotlar blokini, o'quv dasturlarini tula, qiska yoki chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bo'laklarga bo'lib o'qitish imkoniyatini yaratishdan iborat. Modulli o'qitishda o'quvchilar modullardan tuzilgan o'quv materiallari bilan mustaqil ishlashadi [14]. Pedagog olimi J.O.Tolipova modulli ta'lim texnologiyasida o'quvchilarning bilish faoliyati modullarni ketma-ket o'zlashtirishlarini nazarda tutgan holda tashkil etish, har bir modulni o'zlashtirish jarayoni o'quvchilarning yaxlit bilish faoliyatining elementi bo'lib, ya'ni bir darsda yaxlit tashkil etilishi ko'zda tutilgan o'quvchilarning o'quv faoliyati mavzu ajratilgan modullarga muvofiq holda o'quv faoliyati elementlari (O'FE)dan tashkil topishini ta'kidlaydi. Darsda o'rganiladigan mavzu mazmuni 4 ta moduldan iborat bo'lsa, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati mos holda 4 ta o'quv faoliyati elementi (O'FE) dan tashkil topadi. Shuni qayd etish kerakki, dars yakunida o'quvchilarning o'z faoliyatlarini tahlil qilishi va o'z-o'zini baholashini amalga oshirish maqsadida modul dasturini yakunlash bosqichi bo'ladi. Shu sababli fikr yuritilayotgan ushbu darsda foydalaniladigan modul dasturida 5 ta o'quv faoliyati elementi (O'FE) bo'ladi. O'qituvchi shu asosda modul dasturini tuzadi. Shuningdek, tadqiqot ishimizda modulli ta'lim texnologiyasini individual ishlash metodikasi asosida 5-6 - sinf o'quvchilarni mustaqil misol va masala yechish ko'nikmalarini tarkib toptirish metodikasini yoritishni maqsad qilib oldik.

1- bob "Natural sonlarni qo'shish va ayirish" bobini natural sonlar va nol mavzusini o'qitishda modul dasturni quyidagicha loyihalab olamiz.

O'quv faoliyati elementi (O'FE)	O'quvchilar o'zlashtirishi mustaqil misol yechishga oid topshiriqlar	Berilgan misol bo'yicha ko'rsatmalar
1-O'FE	Maqsad: natural sonlar va nolning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish. Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib chiqib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring. 1. Natural sonlar deb nimaga aytiladi? 2. Natural sonlar qatoriga misol keltiring..... 3. Ko'p xonali sonlar, ularning o'qilishi va yozilishiga misol yozing..... 4. O'zlashtirgan biliming asosida quyidagi sonlarni raqam bilan yozing: 453 ming..... 23 ming..... 235 ming..... 102 mlrd.....	O'qituvchi va o'quvchi hamkorligida ishlash
2-O'FE	Maqsad: Natural sonlarni mustaqil yozishga mashq qilish. Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib chiqib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring. 1. Shunday son yozingki, unda quyidagi xona birliklari bo'lsin..... 3. Sonlarni o'qing. mlrd mln ming bir a) 234 509 234 179; b) 490 324 800; d) 3 392 000 671; e) 234 000 999 000. 4. mustaqil mashq qiling. Quyidagi sonlardan keyingi soni yozing 2402358 - ..... 58082743-..... 102 812 443-..... 412000627-..... 24000003-.....	O'qituvchi va o'quvchi hamkorligida ishlash

3-O'FE	<p>Maqsad: Mavzuda berilgan masalalar ustida mustaqil ishlash. Darslikdagi matni diqqat bilan o'qib chiqib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring. 1. Matni o'qing. Unda qatnashgan sonlarni yozing. Har bir sonning necha xonali ekanligini aniqlang. Mening Vatanim - O'zbekiston Respublikasi. Uning yer maydoni - 448 900 kvadrat kilometr. 2020-yil boshiga kelib yurtimiz aholisi 33 mln 905 ming kishiga yetdi. Yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari natijasida qishloqlarda ham shahardan qolishmaydigan yashash sharoitlari yaratilmoqda. 2019-yilda qishloqlarda zamonaviy 17 100 ta arzon va shinam uylar qurildi. 2. Quyidagi masalani o'qing yechimini toping. Nurali cho'ponda 123 ta, Sherali cho'ponda esa undan 45 ta ko'p qo'y bor. Ikkala cho'ponda jami nechta qo'y bor?..... 3. 1 dan 99 gacha bo'lgan natural sonlar ketma-ket yozilib, uzundan-uzun ulkan son hosil qilindi. Bu sonda 1 raqami necha marta yozilgan? 2 raqamichi? Bu son raqamlar yig'indisini toping. 123456789101112131415161718..... 4. Nodir 1285so'mga portfel sotib oldi. Aziz esa undan 145 so'm qimmatga sumka xarid qildi. Aziz qancha so'mli sumka xarid qilgan?.....</p>	O'qituvchi va o'quvchi hamkorligida ishlash
4-O'FE	<p>Modul dasturini yakunlash. Modul dasturining didaktik maqsadini o'qib chiqing. Siz unga qay darajada erishdingiz? O'zingizning o'quv faoliyatingizni besh balli tizimda baholang. O'quv faoliyatingizdan qoniqish hosil qilgan bo'lsangiz ra'nodoshlar oilasiga mansub o'miLk nomlaridan foydalanib krossvord tuzing. Agar o'z o'quv faoliyatingizdan erishilgan natija sizni qanoatlantirmasa, modul dasturi yordamida mavzuni qayta o'rganing.</p>	O'qituvchi va o'quvchi hamkorligida ishlash

Tadqiqot rivojida matematikadan modulli ta'lim texnologiyasidan samarali foydalanish o'quvchilarni masala va mashqlar yechish jarayonida tahliliy, bog'lanishli, mustaqil va mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish imkoniyatlari berishiga asos bo'ladi. O'quvchilar masala va mashqlarda berilgan muammoli vaziyatlarni yechimini topishda ilmiy asoslangan faktlarni tanlaydi, ularni masala shartiga muvofiq taqqoslab, xulosa chiqarishga undaydi.

**Xulosa va takliflar.** Mazkur ta'lim texnologiyasi matematikani o'qitishda darslikda berilgan nazariy tushunchalar va ularni o'zlashtirishni qulay imkoniyatini beradi. O'quvchilar har bir o'quv topshiriqlarni mustaqil bajarishi va darslik bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga asoslangan ushbu texnologiya o'qituvchi uchun vaqtdan unumli foydalanish, shungidek o'quvchilar bilan individual ishlashga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2004. – B. 76.
2. Azizxodjayeva N.N. O'quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar - Toshkent, 2007. – B. 14-23.
3. Aripov M.M. Axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2009. – B. 198.
4. Begimqulov U.S.H. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dok. dis. – Toshkent:TDPU, 2007. – B. 305.
5. Yo'ldoshev J. Interfaol ta'lim sifat kafolati. –Toshkent, 2008. – B. 86.
6. Raximov M.A. Научно-методические основы разработки содержания и изучения технических дисциплин. Автореф. дисс. док. пед. наук. -Ташкент, 1998. – с. 42.
7. Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent:"Fan" 2006. – B. 76.
8. Jumayev M. O'qituvchining ijodiy shaxs sifatida rivojlanishida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik-matematik tayyorgarlik. Monografiya.T.: "Fan", 2009. – B. 240.
9. Zayniddinova M. Og'zaki matematik mashqlar sistemasi yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining hisoblash malakalarini shakllantirish. ped.f. nomzodi dar. olish uchun diss.– Toshkent, 1997.– 164 bet.
10. Yunusova D.I. Bo'lajak matematika o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. Avtoref. diss. dokt. ped. nauk. – Toshkent: TDPU, 2012. – B. 47.
11. Qosimov F.M. Matematikadan ijodiy topshiriqlarni yaratish jarayoni. Boshlang'ich ta'lim asoslari va usuliyoti. -Toshkent, 2013. – B.13-18.
12. Xodjayev B., Choriyev A., Z.Saliyeva, I.Choriyev/ Pedagogik tadqiqotlar va metodologiyasi. Darslik. – Toshkent -2019y, -223b, -99b.
13. Tolipova J.O. Biologiyani O'qitishda pedagogik texnologiyalar. darslik/J.O.Tolipova; mas'ul muharrir A.T.G'ofurov; O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. — 160 s.-63b.
14. [https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-02-11-351\\_a2e4bb2c8eec978bb53ae8608aa47f51.pdf](https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-02-11-351_a2e4bb2c8eec978bb53ae8608aa47f51.pdf)
15. [https://nrm.uz/contentf?doc=587392\\_&products=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=587392_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 y. PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni



UDK: 908

Lazizbek JOMURODOV,  
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi  
E-mail: Jomurodovlaziz440@gmail.com

QarDU dotsenti, PhD B.Toshpulatov taqrizi asosida

## O‘ZBEKISTONDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA YUQUMLI VA IJTIMOY KASALLIKLARNI OLDINI OLISH VA TUGATISHDA SANITARIYA-EPIDEMIYA XIZMATINING O‘RNI

Annotsatsiya

Muayyan hududning iqlimi, tabiiy sharoiti, ekologiyasi, aholiga ko‘rsatilgan kommunal xizmat sifati va ko‘lami, toza ichimlik suvi va kanalizatsiya ta‘minoti, sanitariya-epidemiya xizmatining holati kabilar shular jumlasidandir. Inson salomatligining 17–20 foizi iqlim va tabiiy shart-sharoitlarga bog‘liq. Atrof muhit havosining ifloslanishiga shaharlar sonining ortishi, sanoat sohasining rivojlanishi kabi omillar ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Jahonda ekologik muammolar va atrof muhitning ifloslanishi sog‘liqni saqlash sohasi rivojidadagi asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib kelgan.

**Kalit so‘zlar:** SES, Gegiyna, Profilaktika, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent, Navoiy, Dezinfeksiya.

## THE ROLE OF THE SANITARY AND EPIDEMIC SERVICE IN THE PREVENTION AND TERMINATION OF INFECTIOUS AND SOCIAL DISEASES IN UZBEKISTAN IN THE YEARS AFTER WORLD WAR II

Annotation

These include the climate, natural conditions, ecology of a certain area, the quality and scope of communal services provided to the population, the supply of clean drinking water and sewage, and the state of sanitary-epidemic services. 17-20% of human health depends on climate and natural conditions. Factors such as the increase in the number of cities and the development of the industrial sector also have a negative impact on environmental air pollution. In the world, environmental problems and environmental pollution have been one of the main obstacles in the development of the health sector.

**Key words:** SES, Hygiene, Prevention, Kashkadarya, Samarkand, Tashkent, Navoi, Disinfection.

## РОЛЬ САНИТАРНО-ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В ПРОФИЛАКТИКЕ И ЛИКВИДАЦИИ ИНФЕКЦИОННЫХ И СОЦИАЛЬНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация

К ним относятся климат, природные условия, экология конкретной территории, качество и объем коммунальных услуг, предоставляемых населению, обеспечение чистой питьевой водой и канализацией, состояние санитарно-эпидемиологической службы. 17-20% здоровья человека зависит от климата и природных условий. На загрязнение окружающего воздуха также негативно влияют такие факторы, как увеличение числа городов, развитие промышленного сектора. Во всем мире экологические проблемы и загрязнение окружающей среды были одними из основных препятствий на пути развития сектора здравоохранения.

**Ключевые слова:** СЭС, гигиена, профилактика, Кашкадарья, Самарканд, Ташкент, Навои, дезинфекция.

**Kirish.** Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekistonda sanitariya-epidemiya tarmog‘i alohida soha bo‘lmasdan, tibbiyot bo‘limlarida uning tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib bordi. Nihoyat, 1948 yilda O‘zbekiston sanitariya-epidemiya mutaxassislarining II s‘yezdi o‘tkazilib, uning ishtirokchilari SES larni alohida tarmoq sifatida tashkil etishni respublika hukumatidan so‘radi.

O‘zbekiston SSR Sog‘liqni saqlash ministrligi tegishli asoslovchi hujjatlarni hukumatga taqdim etdi. Mazkur Jadval

	1946 yil	1960 yil	1970 yil	1980 yil	1990 yil
O‘zbekiston	33	43	158	208	218

Ammo SESlar tarmog‘i kengaygan bo‘lsada, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularni kadrlar bilan ta‘minlash ishlari qoniqsiz holatda bo‘ldi. Sovet davrida SESlar ishini tashkil etish va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida muammolar tarmoq faoliyatini yaxshilashga va takomillashtirishga jiddiy to‘sqinlik qilib keldi. SES idoralari binolar bilan ta‘minlanishi qoniqsiz ahvolda bo‘ldi. SES xodimlariga qulay ish sharoiti yaratib berilmay kelindi.

hujjatlar CSSR Ministrlar Sovetida har tomonlama o‘rganib chiqildi va O‘zbekiston hukumatining 1952 yili 13 mayda qabul qilgan qarori bilan Ryespublika Sanitariya-epidemiya stansiyasi (SES) tashkil etildi[1].

**Mavzuga oid materiallar va tadqiqot metodologiyasi.** O‘zbekistonda yillar davomida SESlar tarmog‘ining kengayib borishini qo‘yida jadval misolida ko‘rish mumkin.

Masalan, Qashqadaryo viloyat SES idorasi faqat 1969 yilga kelib smeta loyihasi qiymati 115,6 ming so‘mlik yangi binoga ko‘chirildi. SES ning har bir bo‘limiga alohida transport ajratildi, bor bo‘lgan shtatlardan to‘liq foydalanildi. 1978 yilda viloyat va uning tumanlarida faoliyat ko‘rsatayotgan 15 ta SES dan faqat bittasi, viloyat SESigina namunaviy loyihada qurilgan binoga joylashtirildi, qolganlari moslashtirilgan binolarda ish olib bordi.

Bundan tashqari bu davrda Qashqadaryo viloyati tumanlarining SESlarini kadrlar bilan ta'minlash borasida ham muammolar mavjud edi. 1965 yilning yozida Qashqadaryo viloyat SES larida 10 nafar shifokor shtatida 27 nafar kishi xizmat qildi. Bu ahvol 80-yillarga kelib ham deyarli o'zgarishsiz qoldi. 1985-yilda janubiy viloyatlarda jami 484 ta shifokor faoliyat ko'rsatib, ular aholi ehtiyojini to'la qondira olmadi[2]. Shu kabi muammolar tufayli SES lar yuqumli kasalliklarning oldini olish va tugatish yuzasidan qilgan harakatlariga qaramay ko'zda tutilgan natijalar qo'lg'a kiritilmadi.

O'zbekistonda sanitariya-epidemiya xizmatidagi kamchiliklar sabab yirik epidemiya o'choqlari ko'payib bordi. Masalan, birgina Samarqand viloyatida 1958 yilning 7 oyi davomida 1957-yilning shu davriga nisbatan o'tkir dizenteriya kasalligi 64,0 foizga, ko'k yo'tal 63,1 foizga o'sdi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ushbu kasallanish holati asosan aholi punktlarining qoniqarsiz sanitariya holati va sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlanmaganligi bilan bog'liq bo'ldi [3].

Sanitariya-epidemiya stansiyalari, ayniqsa, qishloq joylarda tashqi muhitni chuqur gigiyenik o'rganish o'rniga, to'g'ri baholash va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun nihoyatda zarur bo'lgan sanitariya statistikasining eng muhim masalalari o'z faoliyatini hojatxona sanitariyasi bilan cheklab qo'ydi.

Qurilgan uy-joy kommunal ob'ektlarida profilaktika sanitariya nazorati sust olib borildi. Ob'ektlar sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari bilan kelishilmagan holda, katta kamchilik va nuqsonlar bilan foydalanishga topshirildi. Davlat sanitariya nazorati organlari tozalik va madaniyat uchun kurashda katta huquqlarga ega bo'lsalarda, lekin ular har doim ham ulardan foydalanmadi, ba'zan esa zararli liberalizmni ko'rsatdi [4].

**Tahlil va natijalar.** Keyingi yillarda O'zbekistonda bu boradagi vaziyatni yaxshilash maqsadida ba'zi chora-tadbirlar olib borildi. Viloyatlarda virusli gepatitga qarshi kurash maqsadida "Epidemiya qarshi kurash" guruhlarini tashkil etildi. Bu guruhlarga xodimlar birlashtirilib, ko'chma dezinfeksiya kameralari ajratildi.

Virusli gepatit o'choqlarida epidemiya qarshi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari ustidan davlat sanitariya nazorati kuchaytirildi. 1963 yilda 24 mingdan ortiq sanitariya-gigiyena tekshiruvlari o'tkazildi[5].

Masalan, Xorazm viloyatida ham bu tadbirlar kuchaytirilib, sanitariya-gigiyena talablarini buzganlik uchun jazo choralarini qo'llanildi. 519 nafar fuqaro ishdan chetlashtirildi, 328 ta ob'ektning ishi ularga nisbatan tegishli sanitariya tartibi o'rnatilgunga qadar bir muddat to'xtatildi. 4170 ta xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sanitariya kurslarida o'qitildi. Virusli gepatitga qarshi kurashish masalalari bo'yicha 1492 ta ma'ruza, 47600 dan ortiq suhbatlar o'tkazildi. Viloyat televideniyesida tibbiyot xodimlarining 71 uchrashuvi tashkil etilib, mahalliy matbuotda 8 ta maqola chop etildi[6].

Aholi punktlarida chiqindi uchun obodonlashtirilgan poligon maydonlari qurish ishiga ham tegishli e'tibor qaratilmaganligi aniqlanadi. Mavjud chiqindixonalar obodonlashtirilmagan, to'siqlanmagan, kirish yo'llari asfaltlanmagan, maxsus transport vositalari yuvilmagan, dezinfeksiya qilinmagan. Shu tariqa pashshalarni ko'paytirish uchun sun'iy ravishda barcha sharoitlar yaratilgan. Shaharlarda farroshlar shtati normadan past edi.

Masalan, muayyan maydonlarni tozalash uchun belgilangan farroshlar soni me'yorida nazarda tutilganidan bir necha marta kam ajratildi [7].

Yuqumli kasalliklar tarqalishining asosiy o'choqlaridan biri bu umumiy ovqatlanish shaxobchalari ham

hisoblanadi. Yuqumli kasallik darajasining holatiga ma'lum darajada umumiy ovqatlanish ob'ektlari, oziq-ovqat, go'sht-sut sanoati, kommunal ob'ektlar va bozorlardagi sanitariya-texnik holat va sanitariya-gigiyena normalari va qoidalariga rioya qilish ta'sir qiladi.

SES tomonidan oshxonalar va do'konlar ham tez-tez sanitariya nazoratidan o'tkazib turildi.

Masalan, 1971 yilning fevralida Buxoro shahrida oshxona va dukonlarning sanitariya holati tekshirilganda, 29 ta oshxona, restoran va oziq-ovqat do'konlari holati talabga javob bermagan. Shu munosabat bilan ushbu tekshiruv davomida ularning ko'pchiligi ta'mirlash yoki umumiy tozalashga yopilib, rahbarlar jarimaga tortildi. Bozorlar sanitariya holati qoniqarsiz ahvoldaligicha qolgan.

Bozorlarning aksariyati kapital ta'mirga muhtoj bo'lib, suv bilan ta'minlanmagan. Bozor maydonlari hududi o'z vaqtida tozalanmagan. Ariqlar chiqindi va loy bilan to'lgan. Hojatxonalar toshib ketgan, dezinfeksiya qilinmagan[8]. Shuningdek, Buxoro viloyati maktabgacha ta'lim muassasalarining sanitariya holati tekshirilganda ham ko'plab kamchiliklar aniqlanadi.

Viloyatning Sverdlovsk tumanidagi Gagarin, Kalinin, "Kommunizm" va Sverdlov nomidagi kolxozlarda bolalar bog'chalari minimal sanitariya talablariga javob bermadi. Sanitariya milisiyasi otryadlarini tuzish ishlari ham qoniqarsiz ahvolda bo'ldi. Viloyat sanitariya milisiyasi otryadlari shtatlaridagi 24,0 o'ringa bor-yo'g'i 3 tasi to'ldirilgan [9].

Respublikamizning boshqa hududlarida, hatto Toshkent shahrining o'zida ham ahvol bundan yaxshi emas edi. Toshkent shahrida o'tkazilgan tekshirishlar ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, ob'ektlarning ma'lum bir qismi qoniqarsiz holat bo'ldi. Chunonchi, shu davrda Chilonzor tumani oziq-ovqat savdosiga qarashli 64-sonli do'kon ko'pincha antisaniitariya holatida bo'lib, hududda bochka va qutilar to'planib, pashshalarning ko'payishi uchun qulay sharoit yaratilgan.

Tibbiy ko'rikdan o'tmagan shaxslar ishlashga ruxsat etilgan. Ushbu do'kon filiali davlat sanitariya nazorati organlari ruxsatisiz ochilgan. Shaxsiy gigiyena uchun sharoit yo'q edi. Do'kon sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan yopilgan. Shuningdek, shahardagi 58, 53, 20, 13, 22, 28, 79, 82 kabi do'konlarida qo'pol sanitariya qoidabuzarliklari aniqlangan.

Qoraqalpog'istonda ham bu holatlar aniqlangan. Do'konlar mahsulotlarni saqlash qoidalarini qo'pol ravishda buzib kelgan. Oziq-ovqat omborlarida asosiy kasallik taraqqatuvchilardan biri bo'lgan kemiruvchilar ko'p bo'lgan.

To'rtko'l tumanida muzlatgich agregatlarining aksariyati ishdan chiqqan, Tumandagi 24 ta katta hajmdagi muzlatkichlardan faqat 1 tasi ishladi. Xuddi shunday holat Taxtakopir tumanidagi oziq-ovqat ob'ektlarida ham kuzatilgan [10].

**Muhokama.** "O'zbekbirlashuv" tashkiloti oziq-ovqat mahsulotlarida bakteriologik ifloslanish 25-30 foizni tashkil qildi. Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, tayyorlash va sotishda sanitariya talablarini qo'pol ravishda buzish, o'z xizmat vazifalariga mas'uliyatsizlik, e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lish umumiy ovqatlanish korxonalarida ovqatdan zaharlanish holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Toshkent shahri "Kirov" oshxona trestiga qarashli 8-sonli oshxonada 1971 yil 26 martda ovqatdan zaharlanish qayd etilib, bunda jabrlanganlar soni 73 nafarni tashkil etdi. Bu kabi misollar O'zbekistonning har bir tuman va shahri ovqatlanish shaxobchalarida tez-tez takrorlanib turdi [11].

Umumiy ovqatlanish, savdo ob'ektining qoniqarsiz sanitariya holati, sanitariya me'yorlari va talablarining buzilishi fonida respublikada yuqumli kasalliklarning yuqishi va o'sishining sababi sifatida oziq-ovqat omilini istisno etib



bo'lmaydi. Shunday qilib, O'zbekistonda 1971 yilning oxirgi 3 oyda paratif isitmasi ko'payganligi qayd etilgan.

O'tkir ichak kasalliklari Toshkent viloyatida 25,8 foizga, Buxoro viloyatida 68,9 foizga, Namanganda 13,1 foizga, yuqumli gepatit Toshkent shahrida 70,1 foizga, Toshkent viloyatida 36,3 foizga, Qashqadaryo viloyatida 36,3 foizga oshgan. 1970 yili umumiy ovqatlanish va savdo ob'ektlarining sanitariya holati ustidan nazoratni amalga oshirishda davlat sanitariya nazorati organlari tomonidan 15643 ta jarima solingan va 8223 ta ob'jekt yopilgan [12].

Navoiy viloyatida ham bu davrda umumiy ovqatlanish va savdo, kommunal xizmat ko'rsatish, maktabgacha ta'lim va maktab muassasalari holatini nazorat qilish bo'yicha tadbirlar kuchaytirildi. Nazoratda 1218 ta umumiy ovqatlanish va savdo ob'ektlari, 2140 ta kommunal va maishiy, 1036 ta bolalar

maktabgacha ta'lim muassasalari, 278 ta sanoat korxonasi, jami 4662 ta ob'jekt bo'lib, shundan 4076 tasi (93foiz) ko'rikdan o'tkazildi [13].

**Xulosa.** Xullas, yer yuzi aholisi barcha tarixiy davrlarda yuqumli kasalliklardan aziyat chekib kelgan. Inson tanasida uchraydigan viruslar vaqti bilan tanaga kuchli zarari yetkazib turgan. Jumladan, sovet davlati sog'liqni saqlash tizimida yuqumli kasalliklarga qarshi kurash muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

O'zbekistonda maishiy hayot muammolari, tibbiy madaniyatining pastligi, qolaversa, davolash tizimi moddiy-texnika bazasining zaifligi tufayli aholi orasida bezgak, brusellyoz, difteriya kabi yuqumli kasalliklar tez-tez tarqalib turdi. O'zbekistonda bezgak, difteriya, brusellyoz kabi yuqumli.

#### ADABIYOTLAR

1. Mo'minova G.E., Toshtemirova N.D. O'zbekiston janubiy viloyatlari tibbiyoti va sog'liqni saqlash sohasi tarixi.–Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 2021. – B.103-107.
2. O'z ITTH MA, R-837-fond, 41-ro'yxat, 9182-ish, 13-varaq.
3. Axundjanov B.A. O merax snijeniya infektsionnoy zabolevayemosti v respublike // Medisinskiy jurnal Uzbekistana, 1960.– №2.– S-8.
4. O'z MA, R-837-fond, 41-ro'yxat, 6501-ish, 58-varaq.
5. O'z MA, R-837-fond, 41-ro'yxat, 2493-ish, 148-varaq.
6. O'z MA, R-837-fond, 41-ro'yxat, 2493-ish, 149-varaq.
7. O'z MA, R-837-fond, 41-ro'yxat, 2493-ish, 70-varaq.
8. O'z MA, R-837-fond, 41-ro'yxat, 2493-ish, 78-varaq.
9. O'z MA, R-837-fond, 41-ro'yxat, 6501-ish, 115-varaq.



UDK: 145:759:638

**Mahliyo JUMABAYEVA,**  
*Urganch Ranch texnologiya universiteti NTM "Pedagogika va aniq fanlar" kafedrasida stajor - o'qituvchisi*  
E-mail: jumaboyevamahliyo97@gmail.com

*Dotsent., U.Xadjiyev taqrizi asosida.*

## THE IMPORTANCE OF VOLUNTARY CHARACTERISTICS IN THE FORMATION OF STUDY MOTIVES OF UNIVERSITY STUDENTS

Annotation

In the article, the development of volitional aspects of university students, their importance in the formation of educational motives, and the specific characteristics of the educational motive and its formation, the stages of its formation, the psychological factors affecting it in the formation of educational and professional motives, as well as the student the necessary conditions for the manifestation of learning motives of young people and their age characteristics, the dynamics of the development of learning motives in the process of education and the role of career choice are highlighted.

**Key words:** Learning motive, will, volitional characteristics, responsibility, courage, tenacity, determination, enthusiasm, attentiveness, striving for the goal, dynamics of motive development, motivation, activity, need, social motives, interest, educational motives, social motives, gender characteristics, education.

## ЗНАЧЕНИЕ ДОБРОВОЛЬНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК В ФОРМИРОВАНИИ УЧЕБНЫХ МОТИВОВ СТУДЕНТОВ ВУЗА

Аннотация

В статье рассмотрено развитие волевых сторон студентов вуза, их значение в формировании учебных мотивов, а также особенности учебного мотива и его формирования, этапы его формирования, психологические факторы, влияющие на его формирование. Из учебных и профессиональных мотивов, а также студента выделены необходимые условия для проявления мотивов обучения молодежи и их возрастные особенности, динамика развития мотивов обучения в процессе обучения и роль выбора профессии.

**Ключевые слова:** Мотив обучения, воля, волевые характеристики, ответственность, смелость, упорство, решительность, энтузиазм, внимательность, стремление к цели, динамика развития мотива, мотивация, активность, потребность, социальные мотивы, интерес, учебные мотивы, социальные мотивы, гендерные особенности, образование.

## UNIVERSITET TALABALARI O‘QUV MOTIVLARI SHAKLLANISHIDA IRODAVIY XUSUSIYATLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada universitet talabalarining irodaviy jihatlarning rivojlanishi, o‘quv motivlari shakllanishidagi ahamiyati hamda o‘quv motivi va uni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, shakllanish bosqichlari, o‘qish hamda kasbiy motivlari shakllanishida unga ta’sir qiluvchi psixologik omillar, shuningdek, talaba yoshlarning o‘quv motivlarining namoyon bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar va ularning yosh xususiyatlari, ta’lim–tarbiya jarayonida o‘quv motivlari xususiyatlarning rivojlanganlik dinamikasi va kasb tanlashdagi o‘rni yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘quv motivi, iroda, irodaviy xususiyatlar, mas’uliyatlilik jur’atlilik, matonat, qat’iyatlilik, g‘ayratlilik, e’tiborlilik, maqsadga intiluvchanlik, motivlarning rivojlanish dinamikasi, motivatsiya, faoliyat, ehtiyoj, ijtimoiy motivlar, qiziqish, o‘quv-biluv motivlari, ijtimoiy motivlar, gender xususiyatlar, ta’lim-tarbiya.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimining yuqori bosqichi bo‘lmish, oliy ta’lim tizimida bir qator tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqil fikrga ega va yuksak saviyali kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilmoqda. Sh.M.Mirziyoyevning «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida»gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori aynan shu masalaga qaratilgandir [1] [9]. Zamonaviy ta’lim jarayonida birinchi o‘rinda talabaga faqat ma’lum ko‘nikma, bilim va malakalarni o‘rgatish emas, balki ta’lim jarayonining natijasini aks ettiruvchi shaxsning xususiyatini va individualligini shakllantirish [2] shaxsning ehtiyojlari va motivlari tizimini ishlab chiqish zarur bo‘lib, bu o‘z navbatida ta’lim sifatining ko‘rsatkichidir [3].

Biz yashab turgan XXI asr rivojlanish davri asri bo‘lib, bugungi kunda ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu esa talab qilinadigan eng muhim vazifalardan biri yoshlarning aqliy faoliyatini tafakkurini o‘stirishga, mustaqil ishlash qobiliyatini takomillashtirishga qaratilgan ko‘nikma va malakalar hosil qilishni taqazo etadi.

Demak, jamiyatimizning tamal toshini qo‘yuvchi barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy mezonini yoshlarning mustaqil fikrlay olishi, o‘rgangan bilim va tajribani amaliyotga qo‘llay bilishidir. Yosh avlodni ayniqsa mustaqil fikrli qilishda ularning o‘quv motivlarini ham o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi[4].

**Adabiyotlar.** A.A.Bodolev, A.N.Leontiev, T.N.Molkovskaya, L.I.Boyovich, motivlar asosidagi differensial ta’limning xususiyatlari, o‘quvchilarning ta’lim faoliyatidagi shaxsiy xususiyatlarning ahamiyati, o‘quv materiallari D.N.Bogoevlenkiy, V.A.Krutetskiy va boshqalar imkoniyatlarni o‘rgandilar. Ta’lim faoliyati psixologiyasi, uni

amalga oshirishda motivatsiya muammosi L.S.Vygotskiy, A.G.Asmolov, V.V.Davydov, A.N.Leontyev, A.R.Luriya, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn va boshqalar tomonidan doimiy ravishda o'rganilgan. L.I.Boyovich, A.B.Orlov, A.K.Markova, T.A.Matis, P.M.Yakobsonlar o'z ilmiy izlanishlarida o'quv faoliyati mazmuni va uni amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan kognitiv motivlarni, shuningdek, o'quv motivatsiyasining bir qismi sifatida talabning boshqa odamlarga munosabatini aniqladilar, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq ijtimoiy motivlarni ilmiy jihatdan o'rgangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda foydalanilgan usullarning metodologik asosi sifatida B.G.Ananev, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, V.V.Davidov, S.L.Rubinshteyn, Abulxanova-Slavskaya[5] kabi olimlarning determinizm, faoliyat, rivojlanish, ong va faoliyat birligi tamoyillari, tizimli hamda nazariy yondashuv, K.Levin tomonidan taklif qilingan motivatsiya nazariyasi, A.H.Maslou inson motivatsiyasi nazariyasi, A.N.Leontev, L.I.Bojovich motivlar ierarxiyasi nazariyasi, G.Olportning motivlar funksional avtonomiyasi nazariyasi tashkil qildi.

Metodologiya bu- eksperimental tadqiqotga nazariy asos bo'ladigan tamoyillar g'oyalari, konsepsiyalar, yondashuvlardir.

Rus psixologlari A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, V.V.Davidov, L.S.Vigotskiy va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan faollik tamoyili faoliyat nazariyasi va faoliyat yondashuvi negizida shakllangan bo'lib, shaxs faoliyatida rivojlanadigan va o'zgaruvchan deb tushuniladi. «Shaxs - bu muayyan tizim bo'lib, shaxsning tizimli sifatleri insonning keng ijtimoiy, tashqi va ichki aqliy va axloqiy faoliyatining natijasidir» [6]. Shu nuqtai nazardan ham shaxs shakllanishidagi muhim jihatlar uning o'quv motivlari shakllanishiga ham sezilarni ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotda davlat va xususiy universitetlardan 72 nafar talaba ishtirok etdi va ularning ta'lim motivlarining «Shaxsning irodaviy xususiyatlarini diagnostika qilish» metodikasining normal taqsimlanishiga mosligini tavsiflovchi statistika, n=72

Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Minimal ball	Maksimal ball	Z	P
Ma'suliyatlilik	6,2006	1,52217	1,00	9,00	3,605	0,000**
Tashabbuskorlik	6,1916	1,95730	1,00	10,00	2,107	0,000**
Jur'atlilik	4,5329	1,50787	1,00	8,00	2,387	0,000**
Mustaqillik	4,4880	1,53972	1,00	8,00	2,476	0,000**
Matonatlilik	5,4641	1,79009	1,00	10,00	2,424	0,000**
Qat'iylik	3,7216	1,55684	1,00	8,00	2,879	0,000**
G'ayratlilik	6,0329	1,90198	1,00	10,00	2,568	0,000**
E'tiborlilik	5,1377	1,89012	1,00	8,00	2,558	0,000**
Maqsadga intiluvchanlik	6,5090	1,42845	2,00	9,00	4,045	0,000**

Izoh: \*\*p≤0,01;

Tadqiqotda tanlangan metodika M.V.Chumakovning «Shaxsning irodaviy xususiyatlarini diagnostika qilish» metodikasi bo'lib, mazkur metodika yordamida talabalardagi o'qish motivlari namoyon bo'lishida irodaviy xususiyatlarining ahamiyatini aniqlash hisoblanadi. Mazkur metodika yordamida talabalardagi o'qish motivlari namoyon bo'lishidagi irodaviy jihatlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali talabning o'qishga bo'lgan munosabatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. M.V. Chumakovning «Shaxsning irodaviy xususiyatlarini diagnostika qilish» metodikasining normal taqsimlanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Unga ko'ra shaxsning irodaviy xususiyatlarini belgilash bo'yicha quyidagi natijalar kuzatildi. «Mas'uliyatlilik» (Z=3,605; p≤0,01) minimal 1,00 va maksimal 9,00 ballni tashkil qildi, «Tashabbuskorlik» (Z=2,107; p≤0,01) minimal ,00 va maksimal 10,00 ballni tashkil qildi, «Jur'atlilik» (Z=2,387; p≤0,01) minimal ,00 va maksimal 8,00 ballni tashkil qildi, «Mustaqillik» (Z=2,476;

namoyon bo'lishidagi differensial farqlarni aniqlash uchun asosiy tadqiqot usullaridan biri M.V.Chumakovning «Shaxsning irodaviy xususiyatlarini diagnostika qilish» metodikasi bo'lib [3-iloval], mazkur metodika 8 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan shaxslarning emotsional-irodaviy xususiyatlarining jiddiyligini tashxislash uchun mo'ljallangan. Texnika emotsional-irodaviy tartibga solishning rivojlanish darajasini umumiy baholashga, o'z qarori asosida amalga oshiriladigan ongli, qasddan xulq-atvorni ta'minlashga qaratilgan. Anketaning masshtablari semantik o'xshashlik usuli bilan aniqlangan sifatlarining omilli tahlili yordamida empirik tarzda shakllantirildi [7].

Mazkur metodika yordamida bir talabalardagi muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi hamda o'qish motivlari namoyon bo'lishida uning irodaviy sifatlarining ahamiyatlik darajasini aniqlash imkoniga ega bo'lamiz.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda psixologiya fani fanlararo integratsiyalashuv darajasi yuqori bo'lgan holda rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan universitet talabalari o'rtasida o'qishga bo'lgan motivatsiyaning hozirgi holati va ularning ta'lim faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Shaxsning motivatsion sohasini tahlil qilish ta'lim jarayonida shaxs rivojlanishini o'rganishning samarali usullaridan biridir. Shuning uchun o'quv motivatsiyasi muammosi ta'lim psixologiyasining asosiy muammolaridan biridir.

Motivatsiyani shakllantirishda his-tuyg'ular ham muhim rol o'ynaydi. Robert Frankning ta'kidlashicha, motivatsiyani hisobga olmasdan, hissiyotlar haqida gapirish mumkin emas. Uning fikricha, «Maqsadga mos keladigan hissiyotlar unga erishishni osonlashtiradi»[8]. Binobarin, tanlangan faoliyatning maqsadi qanchalik hissiy jihatdan kuchli bo'lsa, motivatsiya shunchalik kuchli bo'ladi. Tadqiqotimizning maqsadi - talabalarning ta'lim motivlarining namoyon bo'lishida irodaviy xususiyatlarining ahamiyati.

p≤0,01) minimal 1,00 va maksimal 8,00 ballni tashkil qildi, «Matonatlilik» (Z=2,424; p≤0,01) minimal ,00 va maksimal 10,00 ballni tashkil qildi, «Qat'iylik» (Z=2,879; p≤0,01) minimal 1,00 va maksimal 8,00 ballni tashkil qildi, «G'ayratlilik» (Z=2,568; p≤0,01) minimal 1,00 va maksimal 10,00 ballni tashkil qildi, «E'tiborlilik» (Z=2,558; p≤0,01) minimal ,00 va maksimal 8,00 ballni tashkil qildi, «Maqsadga intiluvchanlik» (Z=4,045; p≤0,0001) minimal 2,00 va maksimal 9,00 ballni tashkil qildi. Shaxsdagi irodaviy jihatlar uning nafaqat xulq-atvori, dunyoqarishi balki, qiziqishlar, motivlar tizimiga ham o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Quyidagi natijalardan shu narsani aytishimiz mumkinki, talabalardagi irodaviy jihatlar uning o'qish motivlari namoyon bo'lishida o'zining ta'sirini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Hozirgi fan-texnikaning rivoji bir tomondan axborotlar, ma'lumotlar olishni ko'paytirsa, osonlashtirsa, ikkinchi tomondan yoshlarda biror mutaxassislikka intilish, mutaxassislikka oid bilimlarga

barqaror intilish– qiziqishning pasayishiga, xatto yo'qolishiga olib kelmoqda, chunki qat'iylik, ijodiy izlanish, irodaviy zo'r berish o'rini loqaydlik, faoliyatsizlik egallamoqda. Boshqacha aytganda, ular «tayyor axborotlarning quli»ga aylanib ham kelmoqdalar. Talabani ta'lim o'quvchisidan muhim farqi shundaki, u faqat tinglovchi o'quvchigina emas, mustaqil ilm, hunar oluvchidir (student–lotincha «mustaqil shug'ullanuvchi degan ma'noni anglatadi). Talabalarga mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'z–o'zini boshqarish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va xokazolarni o'rgatishdir. Bu vazifalarni amalga oshirishning asosiy omili–monologik ma'ruzadan dialogik ma'ruzaga–muloqotga o'tishdir. Psixologlarning tadqiqotlari shaxs hayot tajribasini egallashda unda o'zligini anglash vujudga keladi, jumladan, shaxsiy hayotining mazmunini anglashi, aniq turmush rejasini tuzishi, kelajak hayot yo'lini belgilashi va xokazolar amalga oshirishini ko'rsatadi. Talabalar o'quv faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, diskomfort, (noqulay, noxush) tuyg'usini bartaraf qilish, mikromuxitda yuz beradigan ziddiyatlarning oldini olishdan iboratdir. Tajribada ishtirok etgan (72 nafar) sinaluvchilarning 15% shaxsiy faoliyatni boshqarish deganda o'zlashtirilayotgan o'quv materiallarini ko'p marta takrorlash jarayonini tushinadilar, uning bosh maqsadi matnning mohiyatini aniq anglashdan iborat deb biladilar. Uchraydigan shu qiyinchiliklarni mohiyati va shakliga ko'ra quyidagi uch guruhga ajratish:

1. Bilishdagi qiyinchiliklar: o'quv materiallarining mazmun va kulani jihatdan keskin farqlanishi, o'qitishning turli shakl va usullari (ma'ruza, seminar, kollokvium, sinov, maxsus kurs va boshqalar), seminar va ma'ruza materiallarining murakkabligi, ular uchun material olish manbalari xilma–xilligi, mustaqil bilim olish malakalari etishmasligi va boshqalar.

2. Ijtimoiy–psixologik qiyinchiliklar: atrof muxit va hayot sharoitining o'zgarishi; hayot va faoliyatning barcha jabhalarida mustaqillikka o'tilishi, irodaviy zo'r berish, qobiliyat, aqliy imkoniyatlar bo'yicha qat'iyatsizlik–masalan, sessiyalarda, o'qishdan haydalanishdan cho'chish, qo'rqish, xavfsirashning paydo bo'lishi.

3. Kasbiy qiyinchiliklar: Oliy ta'lim shart-sharoitlariga moslashish jarayonini noto'g'ri tasavvur qilish, mutaxassislik–ixtisoslik amaliyotidan unumli foydana olmaslik, nazariy buyumlar bilan amaliyotning ajralib qolganligi, talabalarining professiogrammadan xabarsizligi yoki professiogramma talabalariga javob beradigan kasbiy fazilatlariga ega emasligi[10]. Oliy ta'lim muhitiga moslashishda talabalarining o'ziga xos tipologik va yosh xususiyatlari, aqliy imkoniyatlari, aql–zakovati, axloqiy fazilatlarini ma'lum darajada rol o'ynaydi. Qiyinchilikning asosiy sabablari talabalar o'quv faoliyatining to'g'ri usullarini bilmasligi, aqliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat bo'lib, bular aqliy zo'riqishning negizi hisoblanadi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalardagi o'quv motivlari shakllanishi hamda davomiy bo'lishida irodaviy xususiyatlarning ahamiyati katta hisoblandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ш.М.Мирзиёевнинг «Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда оширилаётган кенг камровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича кўшимча чора – тадбирлар тўғрисида» ги 05.06.2018 йилдаги ПҚ – 3775 –сонли Қарори
2. Долганов Д.Н., Законнова Л.И., Седовских М.Е. Мотивационная готовность и отношение студентов технического ВУЗа к осуществлению научно-исследовательской деятельности // Вестник Кузбасского государственного технического университета. – 2015. – № 3(109). – С.172-181.
3. Черных А.В., Косянчук Н.М. Динамика учебно-профессиональной мотивации студентов-медиков // Педагогическое мастерство и педагогические технологии. – 2015. – № 3 (5). – С. 123-125
4. Кабулова С.Б. Психология фанида ўқув мотивациялари ва ўқишга эмоционал муносабатларини ўрганилиш назариялар academic research educational sciences volume 2 issue 6 | 2021 ISSN: 2181-1385
5. Абульханова-Славская К.А. Типология личности и некоторые задачи психологической службы в вузе// Психологическая служба ВУЗа: принципы, опыт работы: Сб. науч. тр. М.: НИИВО, 1993. - 215с
6. Розин М.В. Построение сценария жизни как механизм личностного развития юношества: Дис. канд. пс. наук. М., 1994. - 130 с., 18-19 б
7. Чумаков М.В. Диагностика волевых особенностей человека // Вопросы психологии. 2006. № 1. Б.169-178. М. В. Чумаков. Эмоциональные аспекты волевой регуляции. Построен: КГУ, 2005 г
8. Франкин Р. Поведенческая мотивация: биологический, когнитивный, социальный аспекты / Р. Франкин. - СПб.: Питер, 2003. с.407.
9. <http://lex.uz>.
10. Dedaquziyeva V.M.Talabalik davrida psixologik moslashishning refleksiv hususiyatlari Uzbek Scholar Journal Volume-04, May, 2022 [www.uzbekscholar.com](http://www.uzbekscholar.com)



UDK: 372.3/4

*Gulnaz ZAYNABITDINOVA,*  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi*  
*E-mail: gulnoz@mail.ru*

*Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida*

## LEADER'S CULTURE-AS ONE OF THE MAIN INDICATORS OF THE EFFECTIVENESS OF THE ORGANIZATION

Annotation

Leader culture is the formed (internal) spiritual capacity of a leader. Its spiritual psychological culture is a set of emotional knowledge that, based on the ancestor's testimony, is valued at the level of value, regulates the spiritual world of the individual, reaches the level of skill. In order for a leader to fully utilize his leadership potential, it is necessary to acquire knowledge that enriches his spiritual world, to increase his capacity for initiative. Knowledge, which has become the spiritual property of the leader, becomes a means for him to be able to limit his desires, to protect himself from external pressure and influences. That is, being a spiritually competent leader will be able to behave in any socio-psychological environment and live in satisfaction of creating a healthy environment and a sincere attitude towards people in the community he leads and among the general public.

**Key words:** New Uzbekistan, leadership culture, appearance, behavior, spirituality, speech culture, organization, productivity.

## КУЛЬТУРА ЛИДЕРА - КАК ОДИН ИЗ ГЛАВНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

Культура лидера - это сформировавшаяся (внутренняя) духовная способность лидера. Его духовно-психологическая культура - это совокупность эмоциональных знаний, которые, основываясь на свидетельствах предков, ценятся на уровне ценностей, регулируют духовный мир личности, достигают уровня мастерства. Для того чтобы лидер мог так эффективно реализовать свой лидерский потенциал, ему необходимо приобрести знания, которые обогатят его духовный мир, повысят его инициативность. Знание, ставшее духовным достоянием лидера, становится для него средством, позволяющим ограничить свои желания, защитить себя от внешнего давления и влияний. То есть, будучи духовно компетентным лидером, он сможет вести себя в любой социально-психологической среде и жить в удовлетворении от создания здоровой окружающей среды и искреннего отношения к людям в сообществе, которое он возглавляет, и среди широкой общественности.

**Ключевые слова:** новый Узбекистан, культура лидерства, внешний вид, поведение, духовность, культура речи, организованность, продуктивность.

## RAHBAR MADANIYATI-TASHKILOT SAMARADORLIGINING ASOSIY KO'RSATKICHI SIFATIDA

Annotatsiya

Rahbar madaniyati – rahbarning shakllangan (ichki) ruhiy quvvati. Uning ma'naviy psixologik madaniyati ajdodlar ibratiga asoslanib, qadriyat darajasida qadrlanadigan, shaxs ma'naviy olamini tartibga soladigan, ko'nikma darajasiga yetgan hissiy bilimlar majmuidir. Rahbar o'z rahbarlik salohiyatini tako millashtirishi uchun ma'naviy olamini boyituvchi bilimlarni egallashi, tashabbuskorlik qobiliyatini oshirishi zarur. Rahbarning ma'naviy mulkiga aylangan bilim unga xohish-istaklarini chegaralay bilish, o'zini tashqi tazyiq va ta'sirlardan himoya qilishga vosita bo'ladi. Ya'ni, ma'naviy jihatdan barkamol rahbar bo'lish har qanday ijtimoiy-psixologik muhitda o'zini tuta bilib, o'zi rahbarlik qilayotgan jamoada hamda keng jamoatchilik orasida sog'lom muhit yaratish va insonlarga samimiy munosabatda bo'lishdan qoniqib yashaydi.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, yetakchilik madaniyati, tashqi ko'rinishi, xulq-atvori, ma'naviyati, nutq madaniyati, tashkilotchilik, samaradorlik.

**Kirish.** Rahbar madaniyati – rahbar xodimlar, yetakchilar, yo'lboshchilarga xos ma'naviy qiyofa, axloq-odob, muomala va boshqaruv madaniyatini ifodalovchi so'z birikmasi. Madaniyat, avvalo, ma'naviy boylik hosilasi. Siyosiy madaniyati yuksak rahbar millat, davlat, xalq manfaati nuqtai nazaridan ish tutadi, umummanfaatni o'z shaxsiy ehtiyoj va manfaatlaridan ustun qo'yadi. Rahbar va rahbarlikka da'vogar shaxs alohida xulq-atvoriga, ma'naviyat va madaniyatga ega bo'lishi, uni doimiy ravishda takomillashtirib borishi lozim. Buning uchun siyosiy hayotdan xabardor bo'lish yoki iqtisodiy va kasbiy bilimlarni o'zlashtirishning o'zigina kifoya qilmaydi. Ular jahon tajribalari asosida shakllangan ilg'or boshqaruv malakalarini ham o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Bugungi rahbar bunga zimmasidagi vazifalarga yuksak mas'uliyat bilan yondashish, o'ziga nisbatan talabchanlik orqali erishadi. Masalan, u har

kuni gazeta-jurnallar o'qishi, radio va oynai jahon yangiliklaridan xabardor bo'lish orqali ham ma'lum darajada bilim olishi mumkin. Siyosat, iqtisod va ma'naviyatga daxldor kitoblar, mumtoz adabiyot, tarixiy jarayonlarni chuqur mushohada qilish ham uning dunyoqarashini kengaytiradi. Agar aql-zakovati, tafakkuri, ma'naviy kamoloti, madaniyati bilan rahbar mustaqil fikrlashdan, mushohada qilishdan, kundalik voqea-hodisalarni teran tahlil etib borishdan uzoqlashsa, rahbarlik talab etgan ma'naviyatdan uzoqlashib boradi. Rahbar o'zining ma'naviy faoliyatini fikrlash orqali shakllantirib boradi. Mushohada esa mushohadadan quvvat oladi. Amerikalik mashhur olim va ixtirochi Tomas Edison «Taraqqiyotning buyuk vazifasi odamni fikrlashga o'rgatishdir», degan edi. Vujud yalqovligi fikrlash yalqovligidan boshlanadi, fikrlash to'xtagan joyda rahbarning ma'naviyati ham, madaniyati ham zaiflashib boradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Rahbar ma'naviyat va madaniyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanishi, boshqaruv tizimidagi ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlik g'oyalari asosida rivojlantirib borishi dardor. Rahbarning tanqidi odamlarga katta va asosiy ta'sir ko'rsatuvchi vositadir. Shuning uchun ham uni kerakli vaziyatda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ishlatish kerak. Zero, rahbarlik uslubi boshqarish madaniyatining ma'lum elementlariga ega bo'lishni taqozo etadi. Boshqarish madaniyatining ko'rinishlari tegishli me'yorlar bilan belgilanadigan madaniyat qoidalarini o'z ichiga oladi. Rahbarlar bilan oddiy odamlar o'rtasidagi munosabatlar madaniyatlik qoidalariga asoslanmogi kerak. Bu qoidalar ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash, kishilar o'rtasida insonparvarlik munosabatlari, o'zaro hurmat, hamjihatlik va birodarlik kabilardan iborat. Rahbarlik madaniyatini takomillashtirish uning barcha elementlariga e'tiborni kuchaytirish demakdir. Bularning barchasi rahbar madaniy saviyasining o'sib borishiga va siyosiy madaniyatining takomillashtirishiga katta yordam beradi. Chunki cheklangan tafakkur, chala bilim, past madaniyat bilan dunyoda ro'y berayotgan murakkab jarayonlarni teran anglash, mas'uliyatli vazifa va mansabni egallab bo'lmaydi. Binobarin, demokratik asosda shakllanib borayotgan jamiyatimiz talabi shuki, siyosiy yetuk, aqlan va ma'n'an barkamol, puxta bilimga ega bo'lgan teran tafakkurli kishilargina rahbar bo'lishga haqlidir.

Rahbar ma'naviyati – rahbarning shakllangan (ichki) ruhiy quvvati. Uning ma'naviy psixologik madaniyati ajdodlar ibratiga asoslanib, qadriyat darajasida qadrlanadigan, shaxs ma'naviy olamini tartibga soladigan, ko'nikma darajasiga yetgan hissiy bilimlar majmuidir. Rahbar o'z rahbarlik salohiyatini tako millashtirishi uchun ma'naviy olamini boyituvchi bilimlarni egallashi, tashabbuskorlik qobiliyatini oshirishi zarur. Rahbarning ma'naviy mulkiga aylangan bilim unga xohish-istaklarini chegaralay bilish, o'zini tashqi ta'ziy va ta'sirlardan himoya qilishga vosita bo'ladi. Ya'ni, ma'naviy jihatdan barkamol rahbar bo'lish har qanday ijtimoiy-psixologik muhitda o'zini tuta bilib, o'zi rahbarlik qilayotgan jamoada hamda keng jamoatchilik orasida sog'lom muhit yaratish va insonlarga samimiy munosabatda bo'lishdan qoniqib yashaydi. Ma'naviyati yuksak rahbar jamiyatdagi yomonlik, adolatsizlik, qonunbuzarlik, Vatan manfaatlariga zid harakatlarga qarshi kurashda iroda, shijoat va faollik ko'rsata oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Albatta davlatimizning Uchinchi Renessansga qadam qo'yayotganligi hamda dunyo davlatlarining Yangi O'zbekistonimizni o'rganishga yanada qiziqishi ortayotganligida yosh rahbar kadrlarning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham yurtimizda bugungi kunda davom etayotgan jadal islohatlar davrida, progressev fikrlaydigan va salohiyatli yosh kadrlarga katta e'tibor qaratilib, siyosiy jabhalarga va strategik muhim sohalarga jalb qilinmoqda. Yangilanayotgan jamiyat talablari bo'lakcha. U fuqarolarni yurt, millat ravnaqi uchun qayg'urishga undaydi, hayotga teran va sergak qarashga da'vat qiladi[2]. Biz o'z oldimizga jamiyatning yangi qiyofasini yaratish, Yangi O'zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qo'ydik. So'nggi besh yilda mamlakatimizning har bir fuqarosi o'z kundalik hayotida teran his etayotgan beqiyos o'zgarish, yangilanish va tub islohatlarga ega bo'lgan davlatni ko'rib bormoqda. Jamiyatni siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish, ma'naviy jihatdan tiklash va yuksaltirish, mavjud qonunlarni, davlat boshqaruvi, iqtisodiy tizimni qayta ko'rib chiqish, bu borada tasirchan va samarali mexanizmlar yaratish, demokratik tamoyil va me'yorlarni hayotga tadbiiq etish bo'yicha misli ko'rilmagan keng ko'lamli va izchil chora-tadbirlarni amalga oshirdik[3]. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida olib borayotgan siyosatini qo'llab-quvvatlash uchun

biz kabi yoshlar belni mahkam bog'lab, qo'limizni shimarib oldinga qadam tashlashimiz lozim bo'ladi.

**Tadqiqotda qo'llanilgan usullar.** Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarning darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng darsda ko'rgazmali organayzerlar, ko'rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Rahbarning boshqaruvda muvaffaqiyatga erishishida boshqaruv kreativ yondoshuv asosida madaniyatini rivojlantirish zarurati, boshqaruv xodimlari madaniyati ko'p omillarga bog'liqligi, umumiy madaniyat darajasi, ishbilarmonlik sifatleri, boshqaruv ilmini chuqur va har tomonlama bilish va uni o'z faoliyati jarayonida qo'llay olish imkoniyatlariga ega bo'lish, yoshlarga oid Davlat siyosatining maqsadini anglash, yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga zarur shart sharoitlarni yaratib berish, jamoada sog'lom ma'naviy muhitni yaratish bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi. Kreativ yondoshuv asosida boshqaruv madaniyati tushunchasi rivojlanishi darajasining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib, bir qancha ma'noni bildiradi. Masalan, jamiyat madaniyati, ayrim shaxs madaniyati va nihoyat, inson faoliyatining ayrim turi madaniyati xaqida so'z yuritish mumkin [3]. Rahbarlarni ma'naviy-psixologik madaniyati darajasi nuqtai nazaridan bir necha toifaga bo'lishi mumkin:

1. Ma'naviy saviyasi nisbatan past shakllangan rahbarlar. Bunday rahbarlar oddiy axloqiy-ruhiy fazilatlaridan mahrum, jamiyat ma'naviy me'yorlarini tushunib yetmaydigan va ularni mensimaydigan shaxslardir.

2. Ma'naviy madaniyati, axloqiy darajasi past bo'lishi bilan birga, jamoat fikri, oila, xalq an'analari va boshqa qadriyatlar bilan bog'liq psixologik muhitni buzuvchi rahbarlar.

3. Axloqiy me'yorlarni hayotiy zarurat sifatida ichki ishonch va tuyg'u bilan o'zlashtirmay, ularni ko'rko'rona qabul qiluvchi rahbarlar. Bunday rahbarlar nazariy jihatdan yuqori bilimga ega bo'ladi, amalda esa bu bilimlarni qo'llay olmaydi yoki ularda tashkilotchilik qobiliyati yetishmaydi.

4. Ruhan zaif, ma'naviy madaniyati ancha yuqori bo'lsa-da, adolatsizlikni o'tkir hissiyot bilan qabul qiladigan rahbarlar. Ularda axloqiy bilimlar yetarli, ammo ularni namoyon qilish uchun tashabbuskorlik, mustaqillik va shijoat yetishmaydi.

5. Ma'naviy madaniyat va siyosiy-psixologik bilimlarni yetarli darajada egallagan, tashabbuskor, shijoatli rahbarlar. Ular chuqur bilim, teran tafakkur va o'tkir mushohada, ma'naviy hissiyotlarga boy bo'ladi.

Psixologik bilimlarni atroflicha o'zlashtirgan rahbar o'zida yuqori darajadagi madaniyat, xulq, axloq me'yorlarini mujassamlashtiradi. Bu esa rahbar o'zida individual va intellektual saviyani har tomonlama takomillashtirib borishini taqozo qiladi. Rahbarlarning shaxsiy e'tiqodi va ma'naviy qiyofasini tubdan o'zgartirishga mustaqil taraqqiyot yo'lida to'plangan tajriba, dunyo jamoatchiligi o'zbek modeli deya e'tirof etgan o'zimizga xos vamos taraqqiyot yo'li, kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarishlar va yangilanishlar katta yordam beradi. O'zining rahbarlik faoliyatini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, kelajak uchun qayg'uradigan rahbar hech bir davrda milliy g'oya va ma'naviy mafkurasiz kamol topishi mumkin emas. Ma'naviy qiyofasi, ma'naviy mafkurasiz bo'lmagan har qanday rahbar o'z yo'lidan adashadi. Qaysi jamiyat ma'naviy barkamol rahbarga ko'proq ega bo'lsa, ana shu jamtdagi tarixiy taraqqiyot, tiklanish keskin siyosiy «darzalarsiz, ijtimoiy «og'riqlarsiz va iqtisodiy «o'pirilishlarsiz kechadi. Ma'naviy nuqtai

nazardan yuksak, ongi tiyrak rahbar uchun kadrlar bilan katta yo'lga chiqish, xalq, millat oldida turgan barcha muammolarni ijobiy hal etish oson kechadi.

**Xulosa va takliflar.** O'zbekistonimizning ertangi kuni ma'naviy-madaniy barkamol, ruhan tetik, mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonasining ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga mos kasb-hunar mahoratini o'zida mujassam etgan, g'ururi baland, iymoni butun, irodasi baquvvat, chinakam vatanparvar, insofli va oriyatli insonlar

qo'lida. Menejment madaniyatining barcha unsurlari o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir etuvchidir. Shu bilan birga ular orasida boshqaruv xodimlari madaniyati etakchi ahamiyatga ega. Menejer boshqaruv jarayoni madaniyatining yuqori darajasiga erishish va o'z mehnatini tashkil etishni takomillashtirib borishi kerak. Buning uchun Rahbar o'z faoliyatini doimo tanqidiy taxlil qilib borishi va Rahbarlik madaniyatini uzluksiz takomillashtirib borishi lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr.
3. Кузмин Е.С. и др. Руководитель и коллектив. Социально-психологический очерк. –Л.: Лениздат, 1974.
4. Qosimova D.S. Boshqarish nazariyasi asoslari. O'quv uslubiy majmua. – T.: TDIU, 2011. – 428 b.
5. Baybayeva M. X. Ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatidagi roli //integration of science, education and practice. scientific-methodical journal. – 2022. – T. 3. – №. 5. – S. 59-66.
6. Baybayeva M. X. Rahbarlarning boshqaruv faoliyatlarida sog'lom va ijodiy muhitni yaratishga xos zamonaviy yondashuvlar //Oriental renaissance: Innovative,



UDK: 528.942

Nozimbek ZARIPOV,  
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti, PhD, dotsent  
E-mail: zaripov9898@mail.ru

Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD. F.Nurulloev taqrizi asosida

## MAKTAB O‘QUVCHILARIGA DASTURLASH TILLARINI O‘QITISH USULLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya

Ushbu maqola dasturlash tillarini o‘rgatish usullarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Mavzuning dolzarbligi kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan IT-texnologiyalar sohasida sifatli mutaxassislar yetishmasligi bilan izohlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda raqamli texnologiyalar birinchi o‘rinda turadi. Hayotimizni smartfon, shaxsiy kompyuter yoki biron bir sohaga xizmat ko‘rsatadigan dasturiy ta‘minotsiz tasavvur qila olmaymiz. Raqamli texnologiyalari jamiyatimizning barcha sohalariga, ayniqsa, tibbiyotda, sog‘liqni saqlash tizimida, axborotni himoya qilishda, ta‘limda, filmlar yaratishda, kosmik modellarni loyihalashda va boshqalarda qo‘llaniladi. Shuning boisdan ushbu sohada sifatli mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilariga dasturlash tillarini o‘qitishdagi muammolar tahlil qilinadi hamda hal qilish yo‘llari taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Informatika, algoritmik fikrlash, algoritmlash, dasturlash, blok-sxema, Python, Scratch, dasturlash tili, mobil ilova.

## МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ ЯЗЫКАМ ПРОГРАММИРОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация

Эта статья посвящена анализу способов преподавания языков программирования. Актуальность данной темы связана с нехваткой качественных специалистов в области IT-технологий с развитием компьютерных технологий. В развитых странах цифровые технологии являются первичными, и мы не представляем свою жизнь без смартфона, персонального компьютера или программного обеспечения, которое служит в любой сфере. Цифровые технологии используются во всех сферах нашего общества, особенно в медицине, здравоохранении, защите информации, образовании, кинопроизводстве, проектировании космических моделей и т. д. Поэтому важно готовить качественных специалистов в этой области. В данной статье анализируются проблемы обучения школьников языкам программирования и предлагаются пути их решения.

**Ключевые слова:** Информатика, алгоритмическое мышление, алгоритмизация, программирование, блок-схема, Python, Scratch, язык программирования, мобильное приложение.

## METHODS OF TEACHING PROGRAMMING LANGUAGES TO SCHOOLCHILDREN: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Annotation

This article is devoted to the analysis of the methods of teaching programming languages. The relevance of this topic is associated with the lack of quality specialists in the field of IT technologies with the development of computer technologies. In developed countries, digital technologies are primary and we cannot imagine our life without a smartphone, a personal computer or a software that serves in any field. Digital technologies are used in all areas of our society, especially in medicine, health care, information protection, education, filmmaking, designing space models, etc. Therefore, it is important to train quality specialists in this field. This article analyzes the problems of teaching programming languages to schoolchildren and suggests solutions.

**Key words:** Computer science, algorithmic thinking, algorithmization, programming, block diagram, Python, Scratch, programming language, mobile application.

**Kirish.** Raqamli texnologiyalari rivojlanib borayotgan sharoitida yosh avlodni informatika va axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasiga tayyorlash alohida ahamiyatga ega. Ta‘lim muassasasining didaktik vazifalaridan biri o‘quvchining intellektual rivojlanishi bo‘lib, uning muhim tarkibiy qismi algoritmik fikrlashdir. Informatika va axborot texnologiyalari fani maktab o‘quvchilarida algoritmik fikrlashni rivojlantirish uchun eng katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, atrofimizdagi dunyoni tahlil qilish, axborot jarayonlarini va tizimli-axborot yondashuvini shakllantiradigan ilmiy bilimlarning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Informatika ta‘limining tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni ko‘p jihatdan modellashtirish va loyihalash texnikasi, ayniqsa, obyektga yo‘naltirilgan modellashtirish sohasidagi zamonaviy ishlanmalar bilan bog‘liq.

**Mavzuga doir manbalar tahlili.** O‘quvchilarga dasturlash tillarini o‘qitish metodlari, tamoyillari, dasturlash muhitini o‘qitish modellari J. J. Босова tomonidan ishlab chiqilgan [4]. Shuningdek, laboratoriya ishlarini tashkil etish, o‘quvchilar bilan individual va guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalari tuzatish, metodlari, dastur kodlarini yaratish usullari va xususiyatlari batafsil yoritilgan [5]. K.M. Rich tomonidan kompyuterda ishlash ko‘nikmalari, dasturlash tillarida ishlash va axborot nazariyasiga alohida e‘tibor qaratilgan [6]. Т.А. Щучка tomonidan axborot texnologiyalari rivoji, axborotlarni qayta ishlash qurilmalari, dasturlash muhitida kod yozish qoidalariga alohida e‘tibor qaratilgan [7]. Shuning bilan birgalikda, loyihalarni bajarish, konstruktor dasturlarda ishlash, o‘quvchilarni Python dasturlash muhitida ishlash bo‘yicha nazariy ma‘lumotlar keltirilgan.



**Tadqiqot metodologiyasi.** Har qanday fan sohasi uchun tushunchalar tizimini aniqlash, ularni atributlar va harakatlar majmui sifatida taqdim etish, harakatlar algoritmlari va mantiqiy xulosalar sxemalarini tavsiflash qobiliyati insonning ushbu fan sohasiga doir tafakkuri qay darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Masalan, "Algoritmiklash va dasturlash" mavzusini o'rganish jarayonida o'quvchilar muammoni yechish rejasini ishlab chiqish, gipotezalarni ilgari surish va isbotlash, yechim natijalarini bashorat qilish, tahlil qilish va oqilona usullarni topish kabi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Algoritmik fikrlash qobiliyati deganda istalgan natijaga erishish uchun harakatlar rejasini tuzishni talab qiladigan turli xildagi muammolarni hal qilish qobiliyati tushuniladi.

Dasturlash tillarini o'qitish o'quvchilarda quyidagi ijobiy jihatlarini rivojlantiradi:

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish: Dasturlash masalalarni yechishda analitik va mantiqiy yondashishni talab qiladi, bu esa o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kelajakdagi kasbga tayyorgarlik: Bugungi dunyoda dasturlash borgan sari talab qilinadigan mahoratga aylanib bormoqda va dasturlash asoslarini bilish talabalarga kelajakdagi kareralarida yordam beradi.

Texnik savodxonlikni oshirish: Kodlash nafaqat dasturlarni yaratishni, balki raqamli dunyoda foydali bo'lgan texnologiyani asosiy tamoyillarini tushunishni ham o'rgatadi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish: dasturlarni yaratish ijodiy yondashuvni talab qiladi va maktab o'quvchilarida ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Haqiqiy muammolarni hal qilish: Kodlash talabalarga haqiqiy loyihalarni yaratish va haqiqiy muammolarni hal qilish imkonini beradi, bu esa ularga o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

Maktabda dasturlash tillarini o'qitishning asosiy muammosi bu masalaga aniq tizimli yondashishning to'g'ri tashkil qilinmaganligidir. Muammo shundaki, maktabda o'quvchilar dastur tuzib yangi ilovalar ishlab chiqish emas, balki faqat dasturlash tilining nazariy jihatlarini o'rganadilar ya'ni o'quvchilarda kichik-kichik loyihalar bilan ishlash, ma'lum bir muammoni hal qilish ko'nikmalari mavjud emasligidir. Kam sonli dasturlash qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchilar buni mustaqil ravishda o'rganadilar, ko'p sonli o'quvchilar esa dasturlash g'oyasini "zerikarli mashg'ulot" deb bilishadi. Albatta barcha o'quvchilar kelajakda dasturchi bo'lmasada, lekin dasturlash jarayonida egallagan ko'nikmalari uning kelajakdagi hayotida yaxshi yordamchi bo'ladi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi axborot asrida inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish qamrab olgan bo'lib, bu hodisa har bir kishidan yuqori axborot madaniyatini talab qiladi. Shu sababli maktablarning o'quv dasturlari o'quvchilarining bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydigan ma'lumotlar bilan boyitish zarur. Buning uchun o'quvchilarni ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish ta'lim sifatini oshishiga olib keladi. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi – pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Darsga kiruvchi har bir o'qituvchidan quyidagi 3 ta sifat talab qilinadi:

– o'qituvchi bilimli ya'ni, o'zi o'qitadigan fanni chuqur bilishi;

– o'qituvchining pedagogik mahorati ya'ni, mavzuni o'quvchilarga yetkaza berishi;

– o'qituvchining psixologik holati ya'ni, darsda ruhiy muhitni yaratish olishi nazarda tutiladi.

Ushbu 3 sifat sinfda sog'lom muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Maktab o'quvchilarini dasturlash tillariga qiziqtirishda, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda quyidagi muammolarni hal etish muhim vazifalardan biri deb hisoblanadi:

– O'quvchilarning o'qituvchiga tayanib qolishi. Dars jarayonida o'quvchilar bilan alohida yoki guruh bo'lib ishlaganda, ularga savollar bilan murojaat qilinganda o'quvchilar jim bo'lib qolishi, to'g'ri javobni bilganda ham o'qituvchining to'g'ri javobni aytishini kutishadi. O'quvchi to'g'ri javobni biladi, javobni aytadi, ammo shunday bo'lsa ham o'qituvchidan javobni eshitishni xoxlaydi. Dars jarayonida bunday holatlarni kamaytirib, o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishi, o'z fikrini erkin bayon qilish va o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishi, ularni rag'batlantirib turishi lozim.

– Bir yoki bir nechta o'quvchilarning doimiy ustunlik qilishi. Dars davomida a'lochi o'quvchilarning har doim faolligi va qoniqarsiz o'zlashtiruvchi o'quvchilarning darsni to'liq o'zlashtira olmasligini ko'rish mumkin. Informatika darslarida bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik kerak. Hamma o'quvchilar darsda faol qatnashishlariga teng imkon yaratib, vaqtni to'g'ri taqsimlash zarur.

– O'quvchilarni darsga tayyorgarliksiz kelishi. Bu holatning birinchi sababi darsni o'zlashtirishga doir topshiriqlarni o'qituvchi tomonidan yetarli darajada talab qilinmasligi bo'lsa, ikkinchidan uyda ota-ona o'z farzandiga vaqt ajratmasligi, vazifalarni bajarilishi va kundalik baholarini nazoratsiz qoldirishi bilan bog'liq. O'quvchilarni darsga tayyorlanmay kelishlarining yana bir sababi "tushunmadim" degan sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatlarni oldini olish uchun o'qituvchi topshiriqni aniq tushuntira olishi, har bir o'quvchini topshiriqni tushunganligiga ishonch hosil qilishi, vazifani to'g'ri bajarilishi uchun ko'rsatmalar berish lozim.

– O'quvchilarning zerikib qolishi. Darsni an'anaviy tarzda faqat daftarga yozdirish yoki ma'ruza qilish o'quvchilarning zerikishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun darslarni tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan (proyektor, elektron doska, planshet, kompyuter va boshqalar), infografika orqali bajarilgan slayd-shoulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktab o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun eng yaxshi dasturlardan biri bu – Scratch dasturlash muhitidir. Scratch bu MIT Media Lab tomonidan ishlab chiqilgan vizual dasturlash tili bo'lib, u o'quvchilar kompyuter fanlari va dasturlashni o'rgatish uchun mo'ljallangan. Bu dastur bloklar yordamida animatsiyalar, o'yinlar, multfilmlar va boshqa interaktiv loyihalarni yaratishga imkon beradi. Scratch dasturida o'quvchilarlar dasturlarni yaratish uchun bloklardan foydalanadilar, bu esa jarayonni yanada vizual va tushunarli qiladi.

O'rta sinf o'quvchilari uchun Minecraft, Python hamda Roblox Studio dasturlaridan foydalanish mumkin. Chunki bu yoshdagi o'quvchilarning hammasi ham aniq nimani xohlashlarini bilishmaydi. Shuning uchun bunday holda o'qituvchi aralash ta'limni tanlashi mumkin. Roblox Studio dasturi o'yinlar yaratishga mo'ljallangan dastur hisoblanadi. Ushbu til obyektga mo'ljallangan dasturlash tili bo'lib, ish Lua dasturlash tili yordamida bajariladi. Bu jarayonda o'quvchilar o'ziga xos o'yin olamini yaratish, mustaqil ravishda landshaftlar yaratish, personajlar va obyektlarni ixtiro qilish va ularni ilovaga qo'shish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Unity juda mashhur bo'lgan yana bir o'yin yaratish mo'ljallangan dastur hisoblanadi. Ushbu dasturlash tili yordamida Genshin Impact, Subway Surfers, Cities: Skylines, Cuphead, Ori and the Blind Forest, Hollow Knight va boshqalar kabi o'yinlar yaratilgan. Yana bir hozirgi kunda ko'plab foydalanuvchilarga ega Python dasturlash tili hisoblanadi. Python yuqori darajadagi dasturlash tili bo'lib, uning mashhurligi butun dunyoda tan

olingan. Python dasturlash tili yordamida turli xildagi ilovalar, chatbotlar, veb saytlar, o'yin dasturlari yaratish imkoniyatini beradi [1].

Informatika fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning quyidagi texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir [3]:

- o'yinli texnologiyalar;
- muammoli o'qitish;
- dasturlashtirilgan o'qitish;
- kompyuterlashtirilgan o'qitish;
- algoritimli o'qitish;
- modulli o'qitish.

Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyatini tashkil etish, loyihalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, yangi jamoaga tezda kirishib ketishni, ma'naviy-axloqiy hamda estetik qarashlarni tarbiyalashga mo'ljallangan.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, dasturlash sohasida sifatli kadr tayyorlashda quyidagi muammolarni hal qilish muhim ahamiyatga ega:

- maktablarda IT ga ixtisoslashtirilgan sinflar sonini ko'paytirish hamda informatika fani soatlarini ko'paytirish;
- IT-kompaniyalar bilan hamkorlikka yo'lga qo'yish;
- oliy ta'lim muasasalari bilan birgalikda darslik hamda o'quv adabiyotlarini ishlab chiqish;
- o'qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil qilish;
- o'quvchilar o'rtasida olimpiada va turli tanlovlar tashkil etish.

O'quvchilarni dasturlash tillariga o'rgatish mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi: tahlil qilish, muammolarni hal qilish va mantiqqa asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bugungi kunda dasturlash ko'plab imkoniyatlarini ochadigan asosiy ko'nikmalardan hisoblanadi. Dasturlash o'quvchilarga yangi dastur va ilovalarni yaratish, tasavvurlarini rivojlantirish va o'z g'oyalarini amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. O'quvchilar dasturlash tillarini o'zlashtirishi turli texnologiyalar qanday ishlashini tushunishga yordam beradi, bu esa ularni kompyuter va internet tarmog'idan foydalanishda yanada malakali va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Голицына О.Л., Попов И.И. Основы алгоритмизации и программирования: Учебное пособие. М.: Форум: Инфра-М, 2004
2. Liu et al., 2013 – Liu, A., Newsom, J., Schunn, Ch. and Shoop, R. (2013). Students Learn Programming Faster Through Robotic Simulation. *Techdirections*. Vol. 72, n.8.
3. Maloney, J., Resnick, M., Rusk, N., Silverman, B., & Eastmond, E. (2010). The Scratch Programming Language and Environment. *ACM Transactions on Computing Education (TOCE)*, 10(4), 1-15.
4. Босова Л. Л., Босова А. Ю. Информатика. 10–11 классы. Базовый уровень: методическое пособие. М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2016. 56 с.
5. Самылкина Н. Н., Калинин И. А. Информатика. 10–11 классы. Углубленный уровень: методическое пособие. М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2016. 168 с
6. Rich, K. M., Strickland, C., & Franklin, D. (2017). A Literature Review through the Lens of Computer Science Learning Goals: Theories, Practices, and Principles. *Computer Science Education*, 27(3-4), 182-205.
7. Щучка Т.А., Вестник Сибирского института бизнеса и информационных технологий № 1 (25) 2018. 149-154 с



UDK: 091

Feruza ZULXAYDAROVA,  
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

TXKMRM professori, f.f.d. M.Nuritdinov taqrizi asosida

### DEVELOPMENT OF LEADERSHIP QUALITIES IN YOUTH STUDENTS

Annotation

This article talks about the development of leadership qualities in students and the reforms that are being implemented in this regard in our country today.

**Key words:** Leadership ability, state policy, student youth.

### РАЗВИТИЕ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье говорится о развитии лидерских качеств у студентов и реформах, которые реализуются в этом направлении сегодня в нашей стране.

**Ключевые слова:** Лидерские способности, государственная политика, студенческая молодежь.

### TALABA YOSHLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada talaba yoshlarda liderlik sifatlarini rivojlantirish va bugungi kunda mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar borasida so'z yuritiladi

**Kalit so'zlar:** Liderlik qobiliyati, davlat siyosati, talaba yoshlar.

**Kirish.** Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talaba-yoshlarning kasbiy jihatdan tayyorlashga ularda boshqaruvchilik, liderlik kabi sifatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Shuningdek, yangilanib borayotgan ta'lim va jamiyat muhiti uchun talaba-yoshlardagi liderlik eng asosiy ahamiyatga molik qobiliyatlar sifatida qaralmoqda.

Respublikamizda yoshlarda liderlik qobiliyatini shakllantirish davlatimiz va jamiyatimiz rivojiga hissa qo'shadigan mutaxassislar yetishtirishning muhim shartlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugun O'zbekistonda yoshlarning ezgu maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari uchun zarur barcha sharoitlar yaratilmoqda. Yoshlar muammolari davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. 2017 yil 30 iyunda mamlakatimiz yoshlari hayotida yangi sahifa ochildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi, uning asosiy faoliyati yoshlarning barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirishga qaratildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yoshlar ittifoqi tomonidan yoshlar bilan ishlashda mutlaqo yangi, ilgari mavjud bo'lmagan mexanizmlar, metod va uslublardan foydalanishga harakat qilinmoqda. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda ijodkorlik, kreativlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirish maqsadida qator yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Yangi yoshlar siyosatini qurishda mamlakatimiz Prezidentining shaxsan ishtirokini alohida ta'kidlash zarur. Davlat rahbari tomonidan yosh avlodni shakllantirishning dastlabki pallasida tarbiya masalalariga, boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim islohotiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta'lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir.

Mamlakatimizda yoshlar jamiyatda o'z o'rnini topishida ularni jismonan baquvvat va aqlan barkamol qilib tarbiyalash, turli xavf-xatarlardan asrashda jamoatchilik nazoratiga e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" deb nomlangan ma'ruzasida yoshlar tarbiyasi masalasiga to'xtalib, quyidagi fikrlarni ilgari surdi: "Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustozmurabbiylar, jamoatchilik, mahalla bu masalada hushyorlik va ogohligni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur." Bundan ko'rinadiki, yoshlarning ijtimoiy faollik pozitsiyasini oshirishda ularning ta'lim-tarbiyasiga ahamiyat qaratmoq lozim.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari unda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim tizimi negizida kelajak avlod taqdiri, davlat va xalq manfaatlarini mujassam.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbekiston mustaqillikka erishgach, taraqqiy etish yo'lida jadallik bilan davom etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan qabul qilingan barcha qonun va qarorlar, farmon va farmoyishlar, avvalambor, mana shu yurt, xalq hamda kelajak egalari bo'lgan yoshlarning farovon hayot kechirishlari uchunligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizning taraqqiy etishi, xalqimizning farovon hayot kechirishida yoshlarning bilimi, dunyoqarashi va tarbiyasi alohida o'rin tutadi.

Yoshlarimiz, farzandlarimiz ongi, tafakkurini yot va zararli ta'sirlardan himoyalash, ichki dunyosini komillik sari yo'naltirish orqali bo'shliqlarni to'ldirish bugunning dolzarb masalalaridan biridir. "Nega deganda, biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz"[1].

Qaysi mamlakatda iste'dodli, fidoyi hamda ijodkor yoshlar qanchalik ko'p bo'lsa, o'sha yerda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ko'zga tashlanadi. Kelajagini o'ylagan davlat ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ijodiy faoliyatga keng yo'l ochib beradi.

"O'zbekiston yoshlari - 2030" konsepsiyasi loyihasida "kadrlarning turli xil salbiy vaziyatlarga chidamlilik va mojarolarni boshqarish kabi qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida psixologik va sotsiologik testlar o'tkazish hamda ularni tegishli rahbar kadrlar zaxirasiga kiritish tizimini ishlab chiqish" vazifasi belgilanganligi yosh rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini yuksaltirishni talab etadi[2].

**Tahlil va natijalar.** Bugun O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi jamiyatning barcha sohalarida shiddatli o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. Ushbu davrda yosh, progressiv fikrlaydigan va salohiyatli kadrlarga katta e'tibor qaratilib, ular strategik muhim sohalariga jalb etilmoqda.

Mustaqillik davrida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelingan. Bu borada mamlakatda keng faoliyat olib borayotgan O'zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatining asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etishi, jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berishdan iborat, deb belgilangan [3].

Yoshlarda liderlik qobiliyatini shakllantirish davlatimiz va jamiyatimiz rivojiga hissa qo'shadigan mutaxassislar yetishtirishning muhim shartlaridan biridir.

Liderlik bu - maqsad va vazifalarga erishish yulida jamoadagi har bir kishining ijodiy kuch va energiyasini to'g'ri sarflashga yunaltirish hamda ruhlantirish uchun amalga oshiriladigan sa'y-harakatlar jarayoni. Liderlik qobiliyatini shakllantirib borish orqali yoshlarda boshqaruvchilik va rahbarlikni rivojlantirish bilan bir qatorda, mamlakatimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan kadrlar etishib chiqishiga zamin yaratish mumkin.

"Yetakchi" so'zi ingliz tilidagi "leader" so'zining tarjimai - "boshchilik qiluvchi" ma'nosini anglatadi[4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 30 iyun - Yoshlar kuni munosabati bilan O'zbekiston yoshlariga yo'llagan bayram tabrigida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Biz yoshlarning mamlakatimiz hayotidagi demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishiga, ularning siyosiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu nafaqat yosh avlodning, balki butun xalkimiz manfaatlarini ta'minlashga katta hissa bo'lib qo'shiladi"[5].

Zamonaviy psixologiya fani o'z yutuqlari orqali, liderga xos fazilatlar tabiati va unga erishish yo'l-yo'riqlari haqida yetarlicha ma'lumot bera oladi. Shu munosabat bilan liderga xos bo'lgan jihatlarni uch toifaga kiritishimiz mumkin:

1) jamoa manfaatlariga yo'nalganlik;

2) kasbiy mohirlik, har qanday muammoli vaziyatda qiyinchilikni o'z bo'yniga olish va ishni oxirigacha haletishda tashabbuskor bo'lish;

3) emotsional, hissiy jalb etuvchanlik xislatlari. Yuqorida sanab o'tilgan xislatlar majmuasining ketma-ketligi ham o'z mantiqiga ega. Shaxsdagi liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishida, avvalo, oiladagi muhit kuchli ta'sirga ega.

O'ziga ishonchi yuqori, keng fikrlaydigan, mulohazali nuqtai-nazarga ega, faol, izlanuvchan, qat'iyatli, tashkilotchilik sifatlarining shakllanishi oiladagi bola shaxsiga bo'lgan munosabatlardan, unga beriladigan e'tibor va ishonchdan kelib chiqib shakllanadi. Oilada ota-ona va boshqa oila a'zolari tomonidan bolaning har bir fikrini hurmat qilib tinglanishi, munosabatlarini tahlil qilinishi va faoliyatiga e'tibor qaratilishi mustaqil fikrlashiga, o'ziga bo'lgan psixologik ishonchining yuzaga kelishiga imkon yaratadi.

Liderlik faoliyatida notiqlik, oratorlik qobiliyati eng birlamchi ta'sir vositasi sanaladi. Shaxsdagi liderlik fazilatlarini ko'pincha jamoaviy muhitda namoyon bo'ladi. Ko'pchilik orasida o'zini tutishi, o'zgalar hulqi va faoliyatini nazorat qilishi, yetakchi, aniq fikrlarni bildirishi, jamoaviy muhitdan energiya olishi liderlikka xos xususiyatlarni ifodalaydi. Shu bois yoshlarni guruhlar orasida o'rganish, ulardagi ma'lum sifatlarini jamoa muhitida shakllantirish eng muhim imkoniyat sanaladi.

Farobiyning ta'kidlashicha, mukammal jamiyatda har bir tabaqa yaxlit ijtimoiy organizmning ajralmas qismi sifatida, o'zining muayyan funksiyalariga ega bo'lib, go'yoki u vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashgan. "O'zidan boshqalarga rahbarlik qilish, ularning baxt-saodatga erishuv darajasiga ko'tarish har kimning qo'lidan kelavermaydi. Kimda bironi baxt-saodatga erishtirish, zarur bo'lgan ish-harakat kabilarga ruhlantira olish qobiliyati bo'lmasa va bu ish-harakatni bajara olishga qudratsiz bo'lsa, bunday odam sira ham rahbar bo'la olmaydi"[6].

Mashhur diplomat J.Boll qudratli davlat formulasini quyidagicha taklif etadi: "Resurslari va aholisining kontinental miqyosi + ichki hamjihatligi va barqarorligining yukori darajasi + kuchli liderlar"[7].

Liderlik holati, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida amalga oshadi. Biron-bir shaxsning lider darajasida tan olinishi unga hissiy yaqinlikni, uning ish bilan bog'liq bo'lgan qator fazilatlarini yuqori baholashni va ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e'tiborini anglatadi. Lider - guruhning hamma a'zolari tomonidan tan olingan shaxs. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihati - guruq manfaatini har narsadan ustun qo'yish, doimo guruh oldiga qo'yilgan vazifani yechishga sidqidildan kirishish va bu jarayonda jamoani safarbar eta olishidir[8].

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib aytganidek, "Dunyoda ikki turli inson haqiqiy hisoblanadi: biri - o'rgatuvchi, biri - o'rganuvchi". Liderlik fazilatiga ega bo'lgan insonlar atrofidagilarning ham rivojlanishi uchun yangilik yaratib ilhomlantira oladi, shu bilan birga, doimiy harakatdagi izlanuvchi hisoblanadi.

Rivojlanayotgan davlatimizning bugungi va ertangi kuni bo'lgan yoshlar orasida liderlik sifatlarini rivojlantirish oldimizda turgan vazifalardan biridir. Liderlikning shakllanishi:

- inson hayotining dastlabki yillaridagi (maktabgacha ta'lim muassasasi va

maktab) peshqadamlikning rivojlanishi;

- gumanitar fanlarga yo'naltirilgan ta'lim chuqur bilim uchun asos yaratadi;

- bilimlarni amalda qo'llash natijasida orttirilgan tajriba donolik sari yetaklaydi;

- kasbiy va ruhiy tayyorgarlikning turli xil vaziyatlarda qo'llanishi tajribani boyitadi.

Lider qo'yidagilarni o'zida jamlaydi:

- boshliqdan farqli ravishda, yutuqlarni faqat o'zining deb hisoblamaydi, balki jamoani erishgan yutuqlari uchun mukofotlaydi, rag'batlantiradi;

- namunali do'st yoki hamkasb sifatida hurmatga sazovor bo'ladi;

- jamoa a'zolariga va voqeliklarga nisbata e'tiborli; yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi; tizimli fikrlaydi va uzoqni ko'ra oladi.  
**Xulosa va takliflar.** Shunday ekan, liderlik qobiliyatini yoshlarda ilk davrlardanok tizimli ravishda

shakllantirib borish, ta'lim muassasalarida individual tarzda yoshi va psixologik xususiyatlari, xarakter kategoriyalaridan kelib chiqqan holda turli mashqlar, o'quv mashg'ulotlari, treninglar orqali yanada mustaxkamlab, rivojlantirib borish zarur.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent : O'zbekiston, 2018.1-jild. –529-bet.
2. "O'zbekiston yoshlari – 2030" konsepsiyasi.
3. O'zbekiston Yoshlar ittifoqining maqsad va vazifalari. Elektron resurs: <https://yoshlarittifoqi.uz/uz/menu/maqsad-va-vazifalar>
4. Qirg'izboev M. Siyosatshunoslik. –T.: Yangi avlod, 2013. 294-b.
5. Mirziyoev Sh. O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. URL manzil: <https://president.uz/uz/2690>
6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 189.
7. Abdullaeva R. Liderlik va rahbarlik sifatlarining bog'liqlik jihatlari // Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar
8. to'plar 2019 yil 20 noyabr.- B. 255-256.
9. Xolnazarova, M. X. (2015). Formirovanie tvorcheskix sposobnostey lichnosti v protsesse sotsializatsii. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences, 1(3-4), 109-111.
10. Nishonova, Z. U., Kamilova, N. G., Abdullaeva, D. U., & Xolnazarova, M. X. (2017). Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya-Toshkent-2017–yil.
11. Xolnazarova, M., & Alibaeva, D. (2021). BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH VA RAHBAR SHAXSINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(Special issue), 209-212.
12. Xolnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. Conferencea, 126-134.



UDK:0009-0007-0248-3308

**Bibinur ILXAMOVA,**  
Urganch Innovatsion universiteti o'qituvchi-stajyori  
E-mail: [bibinurilxamova@gmail.com](mailto:bibinurilxamova@gmail.com)

*P.f.d, professor S.Xodjanियazov taqrizi asosida*

### THE ESSENCE AND SIGNIFICANCE OF DEVELOPING RESEARCH COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

Annotation

The article talks about the research competence of future primary school teachers and reveals its essence and importance. The requirements for students in the development of research competence and various instructions for their creative approach to scientific research are mentioned.

**Key words:** education, research, competence, research, occupation, students, scientific research.

### СУЩНОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В статье говорится об исследовательской компетентности будущих учителей начальных классов, раскрывается ее сущность и значение. Упоминаются требования к студентам в развитии исследовательской компетентности и различные указания по их творческому подходу к научным исследованиям.

**Ключевые слова:** образование, исследовать, компетентность, исследовать, занятие, студенты, научные исследования.

### BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MOHIYATI VA AHAMIYATI

Аннотация

Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyasi haqida so'z yuritilib, uning mohiyati va ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda talabalarga qo'yiladigan talablar va ularning ilmiy izlanishga kreativ yondashishlari uchun turli xil ko'rsatmalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tadqiqot, kompetensiya, tadqiqotchilik, kasb, talabalar, ilmiy-tadqiqot.

**Kirish.** Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha birlashgan millatlar tashkilotining "Ma'rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish" to'g'risidagi Bitimida dunyo miqyosida o'qituvchilar maqomini oshirish, xalqaro malaka talablari asosida bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitish sifatiga nisbatan keng sharoitlar yaratish, tajriba almashish va kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Bugungi kunda mamlakatimizda yosh olimlar safini kengaytirish maqsadida qator tashabbuslar ko'rsatilmoqda, shu sababli, bugungi kun pedagogida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish bo'lajak kadrlarni raqobatbardoshligini oshirishga ham yordam beradi. Chunki, talaba kelajakda yuqori malakali mutaxassis bo'lib chiqishi hamda ilmiy muammolarni hal qilishga tayyor bo'lishi kerak. Shu bilan birga ta'lim sohasidagi ilmiy va ilmiy-amaliy adabiyotlarni tahlil qilishga yo'naltirilgan tadqiqot vazifalarini, ta'lim sohasidagi tadqiqotlar muammosiga muvofiq eksperimental ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishni, ta'limning turli darajalarida kadrlar tayyorlash mazmunini loyihalash, ijtimoiylashuvga, shaxsning umumiy madaniyatini shakllantirishga, kasbiy ta'lim dasturlarini ongli ravishda tanlashga va keyinchalik ishlab chiqishga ko'maklashishni, o'zlarining kasbiy malakalarini muntazam ravishda oshirish, o'qituvchilarning turli kasbiy birlashmalari faoliyatida ishtirok etishga tayyor

bo'lish, ota-onalar (ularning o'rmini bosuvchi shaxslar) bilan muloqot qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi bugungi kunda bo'lajak pedagoglarga qo'yilayotgan talablardir.

Bo'lajak pedagog o'z darajasiga (malakasiga) mos keladigan kasbiy va ta'limiy vazifalarni hal qilishga tayyor bo'lishi lozim. Oliy ta'limning yetakchi vazifalaridan biri talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb qilishdir, bu nafaqat bitiruvchilarni sifatli tayyorlashni yaxshilash, shuningdek, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot ehtiyojlariga yo'naltirilgan tadqiqotchilarning yangi avlodini yetishtirish demakdir.

Shaxsning intellektual rivojlanishi, xususan, uning tahlil qilish, umumlashtirish va aks ettirish qobiliyati, shunga ko'ra, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish, tadqiqot muammolarini mustaqil ravishda qo'yish va hal qilish qobiliyati zamonaviy ta'limning dolzarb sohasiga aylanmoqda. Shu munosabat bilan o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatining xususiyatlari ham o'zgarib bormoqda va kasbiy faoliyatning barcha turlarining mohiyatini belgilaydigan mutaxassis kompetensiyalarini shakllantirish uchun ta'lim muassasasida pedagogik sharoitlarni yaxshilash katta ahamiyatga ega [1].

Tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot malakasini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishda o'zaro bog'liq mezonlar tizimini tekshirish, "oliy ta'limi tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi metodologiyasi, shakllantirish amaliyoti" uslubiy qo'llanmalar, o'qituvchilar uchun modul kurslari, talabalar uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish. Tadqiqot

natijalari va materiallaridan oliy ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv jarayonida foydalanish mumkin [2].

I.A.Zimnyaning ta'kidlashicha, tadqiqotchilik faoliyati shaxs ongi va faolligi bilan bog'lanadigan, bilish va intellektual ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, natijalari yaqqol namoyon bo'ladigan maqsadga muvofiq olingan yangi bilim va maqsadlarning haqiqiyli va egallanishini aniqlaydigan obyektiv qonunlar va mavjud holatlarga muvofiq keladigan maxsus inson faoliyati tushuniladi [3].

Ta'lim oluvchi navbatdagi ko'nikmalar to'plamini shakllantirish yo'li bilan kelgusi kasbiy faoliyatiga tayyorlanishi emas, balki, kompetensiyalarni bir vaqtning o'zida singdirib borishi kerak. Shuning uchun kompetentlik yondashuv natijasida quyidagi vositalar ta'minlanishi lozim:

- o'z-o'zini rivojlantirish manbai sifatida ta'lim olishga ichki motivatsiyaning mavjud bo'lishi;

- yaxlit faoliyatni egallash sharti sifatida o'quv faoliyati jarayonida o'z-o'zini safarbar etish qobiliyati;

- har bir darajani o'zining u yoki bu o'quv materialini o'zlashtira olish darajasini aniqlash imkoniyatini beruvchi o'z-o'zini differentsiyalash (o'z darajasini aniqlay bilish) qobiliyati;

- ta'lim oluvchi tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga erishish;

- ta'lim jarayonining subyektlari o'z kasbiy faoliyatlariga oid ko'nikma va malakalarni egallashlarida o'zaro bog'liqlikni ta'minlash[4].

Bo'lajak o'qituvchi o'z darajasiga mos keladigan kasbga oid va ta'limga oid vazifalarni hal qilishga tayyor bo'lishi lozim. Oliy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishdir. Bu nafaqat bo'lajak pedagoglarni sifatli tayyorlashni yaxshilash, shuningdek, zamonaviy va kreativ fikrlaydigan tadqiqotchilarning yangi avlodini yetishtirish demakdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilikni rivojlantirishning yana eng muhim jihatlaridan biri – bu rivojlangan davlatlar qatori mamlakatimizda ham ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishdir.

Turli pedagogik vaziyatlarni doimiy tahlil qilish o'qituvchidan ko'rib chiqilayotgan hodisani modellashtirish va sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, uning parametrlarini diagnostika qilish, pedagogik jihatdan mos yechimlarni aniqlash, uning mumkin bo'lgan natijalarini loyihalash asosida ularni hal qilishning optimal usullarini mustaqil izlashni talab qiladi.[5]

Tadqiqot ko'nikmalari universitet talabalarini tayyorlashda muhimdir, chunki ular amaliyotda qo'llash imkonini beradi ilmiy bilimlarni nazariy, mantiqiy va uslubiy jihatdan ishlab chiqarish qobiliyati va malakalari majmuidir. Shuningdek, ular ma'lumotlarga kirish, qayta qurish va almashish uchun tanqidiy so'rov ko'nikmalarini rivojlantiradilar hamda akademik o'qish va yozishni rivojlantirishga ko'maklashishadi.

Talabalar uchun tadqiqot qobiliyatlari nimani anglatishini tushunishga turli hissa qo'shadi. Castillo Martinez va Ramirez-Montoyalar ilmiy bilimlarni rivojlantirish uchun kuzatish, o'qish, argumentatsiya qilish, muammo yaratish va tadqiqotni ijtimoiylashtirish kabi ko'nikmalarni takomillashtirish natijalari zarur ekanligini eslatib o'tishadi [8].

Tadqiqot qobiliyatlari tadqiqot qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va tajribadir. Bunday ko'nikmalar maktab

ta'limi, seminarlar va shunga o'xshash tadbirlar orqali ishlab chiqilgan yoki takomillashtirilgan bo'lishi mumkin. Tadqiqotlarni olib borishdagi tajribalar ham tadqiqot malakalarini oshirishga yordam beradi va ta'limni takomillashtirishdan so'ng keyingi chegara sifatidagi natijalardir [9].

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi kunda ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalariga eng ustivor vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

- ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlarini ta'lim jarayoni va ilmiy rahbarlikka jalb qilish, magistratura va doktorantura bosqichlaridagi ilmiy ishlarni mazkur ilmiy-tadqiqot muassasalarida olib borilishi hamda himoya qilinishini ta'minlash;

- jahon ilmiy tadqiqotlar bozori tendensiyalaridan kelib chiqib, har bir oliy ta'lim muassasasida (fakultet, kafedra va laboratoriyalar kesimida) ilmiy tadqiqotlarni tor va fanlar tutashligidagi sohalarga ixtisoslashtirish, ularni ishlab chiqarish va hududiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish, qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni belgilash, ushbu yo'nalishlarda yuqori malakali professor-o'qituvchilar va talabalar salmog'ini oshirish[6].

Ma'lumki, asosiy tadqiqotchilik kompetentliklarini o'zlashtirish pedagogning tadqiqotchilik kompetentligining mavjudligidan dalolat beradi. Tadqiqot olib borish kompetensiyasi talabalarda o'quv jarayoni va darsdan tashqari mashg'ulotlarda va turli faoliyat jarayonlarida shakllanadi. Universitet talabalar orasida ushbu kompetentlikni shakllantirishning asosiy yo'llari va texnologiyalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar;
- munozaralar, suhbatlar, treninglar;
- yozma ishlar(referatlar, hisobot va ma'ruzalar)ni bajarish;

- kasbiy vazifalarni hal etish;
- auditoriyada turli xil loyihalar ustida ishlash, natijalarni taqdim etish;

- tadqiqot topshiriqlari;
- o'quv amaliyotlarida bajariladigan vazifalar;
- auditoriyadan tashqari tadbirlarda turli loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish;

- kursning bajarilishi va yakuniy malaka (diplom) ishlari.

Shuni ta'kidlash lozimki:

- \* maktabda juda kam talabalar ilmiy-tadqiqot ishtarini olib bordilar va ularning uchdan bir qismi ilmiy doiralarda asosida universitetda shug'ullanadi;

- \* talabalar tadqiqot tuShunchalarini yetarlicha to'g'ri talqin eta olmaydilar;

- \* ko'pchilik talabalar zamonamizning dolzarb muammolarini ko'ra oladilar;

- \* ularning aksariyati ilmiy-tadqiqot ishlariga bo'lgan qiziqishlarini unga asos deb hisoblaydilar;

- \*talabalarining taxminan yarmi ilmiy-tadqiqot ishtarini davom ettirmoqchilar [7].

**Xulosa va takliflar.** Bugungi kunda zamonaviy pedagoglarni yetishtirib chiqarishda ularning tadqiqotchilik faoliyatlariga jiddiy e'tibor qaratmoq lozim. Ta'limning boshlang'ich poydevori bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasida ekan, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion ta'lim tizimini yaratishga bo'lgan ehtiyojini qo'llab quvvatlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Черняева, Лариса Александровна “Формирование исследовательской компетенции студентов педагогического колледжа” Автореферат Новокузнецк-2011.

2. Ишкова Алла Эдуардовна “Педагогические условия развития исследовательской компетентности учащихся в системе начального профессионального образования” Иркутск-2008.
3. Rahmatova Feruza Abulqosimovna “Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning dinamik tizimi” Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 8-son (2023-yil, sentabr) Buxoro-2023. 63-bet.
4. Rahmatova Feruza Abulqosimovna “Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning dinamik tizimi” Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 8-son (2023-yil, sentabr) Buxoro-2023. 64-bet.
5. Талманова Талия Мубаракловна “Формирование исследовательской компетенции учителя начальных классов в системе непрерывного образования” Автореферат Москва-2003
6. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF 5748-sonli Farmonida “O.,zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” (3-bob, 3-paragraf), Toshkent-2019.
7. Nasiba Abdusolomovna Abdullayeva “Ilmiy tadqiqot olib borish kompetentligi – bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish omili sifatida” Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022. 606-bet.
8. Carlos Enrique George-Reyes, Edgar Omar López-Caudana, Maria Soledad Ramírez-Montoya “Research competencies in university students: Intertwining complex thinking and Education 4.0” 2-bet.
9. Oluwaseyi Esther, Opeyemi Ebenezer, Marcus Oladotun “Research competence of postgraduate students in library schools in south-west, Nigeria” 3-bet.





UO'K:378.036

*Dilshod ISMAILOV,*

*Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat Markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

*E-mail: dilshod6004@mail.ru*

*JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida*

## DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MA'NAVY-AXLOQIY FAZILATLARINI BAHOLASH (XORIJ TAJIRIBASI ASOSIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada rahbar-kadrlarga oid davlat siyosatini targ'ib qilish, davlat xizmatchilari faoliyatini tartibga solish, yuqori malakali va bilimli, chuqur kasbiy va siyosiy dunyoqarash va bilimga, tashkilotchilik va ishbiarmonlik qobiliyatiga, boshqaruv qobiliyatiga ega davlat fuqarolik xizmatchilarini tayyorlash, ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, davlat xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy kompetensiyalari masalasi, davlat xizmatchilarida axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga yondashuvlardagi farqlarni aniqlash imkoniyatlariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Davlat, xizmatchi, fuqarolik xizmati, KPI, rahbar-kadr, axloq, ma'naviy-axloqiy fazilat, samaradorlik, tajriba.

## ОЦЕНКА ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ (НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА)

Аннотация

В данной статье рассматривается продвижение государственной политики в отношении руководителей и кадров, регулирование деятельности государственных служащих, подготовка высококвалифицированных и образованных государственных гражданских служащих, обладающих глубоким профессиональным и политическим кругозором и знаниями, организаторскими и деловыми навыками, управленческими навыками анализируются умения, их духовные и вопросы, связанные с развитием нравственных качеств. Также в статье уделяется внимание вопросу морально-этических компетенций государственных служащих, возможностям выявления различий в подходах к развитию моральных качеств у государственных служащих.

**Ключевые слова:** государство, служащий, государственная служба, КПИ, лидерство, этика, духовно-нравственные качества, эффективность, опыт.

## ASSESSMENT OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PUBLIC CIVIL SERVANTS (BASED ON FOREIGN EXPERIENCE)

Annotation

In this article, the promotion of the state policy regarding managers and personnel, the regulation of the activities of civil servants, the training of highly qualified and educated state civil servants with deep professional and political outlook and knowledge, organizational and business skills, and management skills, their spiritual and issues related to the development of moral qualities are analyzed. Also, the article focuses on the issue of moral and ethical competencies of civil servants, the possibilities of identifying differences in approaches to the development of moral qualities in civil servants.

**Key words:** state, employee, civil service, KPI, leadership, ethics, spiritual and moral quality, efficiency, experience.

**Kirish.** Rivojlangan mamlakatlar davlat xizmatida axloqiy qadriyatlar va tamoyillarni rivojlantirish muammosi, davlat xizmatchilari axloqiy qadriyatlarining evolyusiyasi va davlat xizmatchilarida ularni rivojlantirish usullari va vositalari yaxshi o'rganilgan. Jumladan, davlat xizmati xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotida axloqiy yetakchilik fenomeni va uning davlat xizmatidagi o'rni va uning davlat xizmatchilarida axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, davlat xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy kompetensiyalari masalasi borasida komparativ tadqiqotlar turli mamlakatlarda davlat xizmatining axloqiy jihatlari borasidagi qarashlarni taqqoslash va davlat xizmatchilarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga yondashuvlardagi farqlarni aniqlash imkoniyatini beradi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev o'z nutqlari va asarlarida ta'kidlanganidek, mamlakatning rivojlanib borishida, amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ta'minlashda turli sohalarda faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlar, xususan, vazirliklar, boshqa davlat idoralari, viloyat, tuman va shahar hokimliklari rahbarlari va xizmatchilarining ma'naviy burchi qat'iy lashtirildi. "Rahbarlik va boshqaruv madaniyati, hayotiy

bilim va tajribalar qayerdan boshlanadi? Xalq bilan bevosita muloqot qilishdan boshlanadi. Ayniqsa, quyi pog'onadagi rahbarlar o'z dunyoqarashini o'zgartirib, oddiy fuqaroga yelkadosh bo'lib, tadbirkorga do'st bo'lib ishlamasa, biz qanchalik ko'p kuch va mablag' sarflamaylik, farmon va qarorlar qabul qilib, sharoit yaratmaylik, joylarda islohotlarimizning oldinga yurishi qiyin bo'ladi"[1]. Umuman olganda, bugungi kunda davlat xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy qiyofasi hamda fazilatlarini o'rganish, baholash o'z navbatida jamiyatning ma'naviy-axloqiy hayotidagi o'zgarishlarni o'rganish kontekstida katta qiziqish uyg'otadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Davlat fuqarolik xizmatchilarining ijtimoiy-madaniy jihatlari J.Burdon, M.Veber, E.Dyurkgeym, P.Land, E.Yu. Bocharova, E.A.Anufrieva, Z.A.Berbeshkina, M.Quronov, S.Otamuratov, Q.Nazarov, Q.Quronboyev, M.Xoliyarova, F.Ravshanov kabi olimlarning fundamental tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Ushbu olimlarning ilmiy asarlarida davlat xizmati faoliyatining ma'naviy va qadriyat asoslarini yaratish, uni tubdan qayta tashkil etishning eng muhim shartlari, jamiyatdagi va shaxsiy axloqiy kategoriyalari o'rtasidagi munosabatlari, shuningdek,

siyosat va axloq o'rtasidagi munosabatlar asoslarini, davlat xizmati xodimlarining hokimiyat subyekti va axloqiy xususiyatlarning tashuvchisi sifatida shakllanishi jarayonini sotsiologik va psixologik tahlil qilishning asosiy tamoyillarini ochib beradilar.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi vaqtda bir qator rivojlangan xorijiy davlatlarda davlat xizmati sohalarini o'zlarining turli lavozimlardagi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashgan xususiy ta'lim bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar yoki firmalarga qayta tayyorlab berish uchun jo'natadilar, ularning maqsadlari ma'lum, tashkilot va kadr mehnati samaradorligida zamondan orqada qolmaslik. "Amaldagi davlat xizmati xodimlarini tarbiyalash masalasida Yaponiyada kadrlar, hatto, telefonda so'zlashuv madaniyatiga alohida kurslarda o'rgatiladi va davlat xizmati xodimi lavozimlarini egallash uchun turli sohalar bo'yicha bir nechta imtihon topshiriladi. Bularning barchasi ilmiy xulosa va tavsiyalarining amaliy hayotga tatbiq etilishi, deydiki mumkin. Yaponiya, Fransiya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarda davlat xizmatchilarini tanlash e'lonlar berish yo'li bilan jalb etilgan kadrlardan kategoriyalar bo'yicha bir nechta turda bosqichma-bosqich imtihonlar olish orqali saralash asosida amalga oshiriladi. Fransiyada ishga munosabatda madaniyat ustunlik qilishi ko'rinib turadi, Xitoyda tadbirkorlikka kuchli e'tibor qaratilsa, Germaniyada tashabbuskorlikka ahamiyat beriladi. Rossiyada esa huquq va tartib-intizomga e'tibor kuchaytirilgan" [2].

Bu borada 2001 yil AQShda qabul qilingan qonun "Zamonaviy ta'lim oluvchida qanday sifatlar tarbiyalanishi kerak?", degan savolga o'ziga xos javob beradi. Hujjatda quyidagi sakkiz fazilat mavjud[3]:

1. Dovyuraklik - o'z vijdoniga vafodor bo'lish, olomon fikriga qarshi tura olish, o'z nuqtai nazarini himoya qilishda qat'iyatlilik. Biz yaxshi sifatlar va ezgu tilaklar egasi bo'lishimiz mumkin biroq xarakter qilishdan, o'zimizni ko'rsatishdan, qiyinchilik va omadsizlikdan qo'rqsak, yuqoridagilar bizga foyda keltira olmaydi. Bizda yuksak akademik tayyorgarlik darajasi bo'lgan holatda ham xarakter qilishga o'rgatishga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Ya'ni xuquqlarini himoya qilish, muhim masalalar bo'yicha majlislar o'tkazish, muhim ijtimoiy masala bo'yicha o'z noroziligimizni bildirish o'rgatilmaydi. Biz o'ziga xosligimizni ko'rsatishga uyalimiz, ommadan ajralib boshqalarga o'xshamay qolishdan qo'rqamiz va mana shu mustaqil fikrlashni biz yoshlarimizga o'rgatishimiz lozim.

2. To'g'ri qarorlar qabul qila olish - yaxshi va muhim maqsadlarni ajrata olish, o'z harakatlarining oqibatlarini xaqida fikr yuritib, sog'lom fikrlab mantiqiy to'g'ri qarorlar qabul qilish.

3. Halollik - to'g'ri so'z, ishonchli va halol bo'lish uchun ichki kuchni shakllantirish lozim. Odillik va g'urur bilan harakat qilishga o'rgatish lozim.

4. Mehribonlik - o'zgalarga e'tibor berish, shirinsuxanlik, yordamga hozirlik, tushunish, qayg'urish, xamdardlik, do'stlik, saxiylik va o'ziga nimani ravo ko'rmasa bironvga xam shuni ravo ko'rmaslik.

5. Qat'iyatlilik - qiyinchiliklarni yengib o'ta olish, ishni yarim yo'lda tashlab ketmaslik va oxirigacha yetkazish.

6. Hurmat - odamlarga, xususan rahbariyat va o'ziga, mulkiga va Vatanga hurmatni namoyon qilish.

7. Mas'uliyatlilik - vazifalarni bajarishdagi ishonchlilik, bergan va dasini bajara olish, o'z so'zlari va xarakterlari uchun javob berish, jamiyat hayotida faol bo'la olish. Hozirgi kunda ko'pincha mas'uliyatli, daxldor va o'z atrofidagi voqeyalarga ta'sir qilishga tayyor yoshlarni tarbiyalash tajribasi yetishmaydi. Yoshlar ko'proq tafakkur qilib atrofni o'zgartirishdagi o'z o'rinlari xaqida fikrlashlari lozim. Anglash va xarakter qilish - mana shularni hozirgi zamon fuqarolik tarbiyasi amalga oshirishi lozim.

8. O'zini idora eta olish - qattiq mexnat qila olish, maqsadga erishish uchun intilish, o'zida irodani tarbiyalash, doimiy rivojlanish va or-nomusini pok tutish. Bu o'z so'zlarini va xarakterlarni boshqarish, zararli odatlardan tiyilish va o'zini eng yaxshi tomondan namoyon etish kabildir.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlaridan uzoqlashgan davlat xizmatchisi qaysi mamlakat yoki mintaqada bo'lmasin, hamisha bir xil, marginal qiyofada namoyon bo'ladi: idoraviy ma'naviyatni, qonun-qoidani ro'kach qilib, taraqqiyotga g'ov bo'ladi, o'zi esa zimdan qonunni buzib, korrupsiya asosida yashaydi. Sharq ma'rifatparvarlaridan Jalol Ali Ahmad bunday davlat xizmatchisini o'zligini, milliyligini yo'qotgan, g'arbiylik kasaliga muhtal bo'lgan kishi siymosida ko'radi. "Bunday kishi, - deb yozadi u, "millatning o'tmishi, hozirgi hayoti, kelajagi haqida, hatto, tushunchaga xam ega emas. U ko'pincha o'qigan, ziyoli rahbar bo'lib ko'rinadi. Biroq u to'liq ustidagi xasdek beqaror. Oyog'ini qo'yib, tayanadigan yeri yo'q. Shu sababli vaziyatlar shamoli qayoqqa qarab essa, u ham shunga mos ravishda o'zgarib turadi. Unda mustaqil fikrning o'zi yo'q... U dunyoda shaxsiy manfaatidan tashqari barcha narsaga befarq. Masjidda ham, kinoteatrdam ham, partiya yig'ilishida ham xuddi futbol o'yinining kuzatuvchisiga o'xshaydi. Hech qachon uning chuqur o'ygatolganini ko'rmaysiz. U do'sti vafot etganda xam qatra yosh to'kmaydi. U biron-bir kichik o'ljani ham qo'ldan boy bermaydi, jirkanmay unga o'zini otadi. U o'ziga xoslikdan maxrum. O'ziga haddan tashqari oro beradi, oyok kiyimi, mashinasi, uyi, kiyimining qanday ko'rinishi ustida tinmay tashvish chekadi. Uni maktab, masjid, kasalxonam uammolari emas, avvalo, uyidagi elektrli kir yuvish mashinasi uskunalarining yaxshi ishlashi qiziqtiradi. U o'zining uzoq Bandar Abbosdagi hamqishloqlarining urf-odatlarini haqida xech narsa bilmaydi. Ammo sizga Buyuk Britaniya leyboristlar partiyasi o'ng qanotida bo'lib o'tgan sezilar-sezilmas o'zgarishlarni qoyilmaqom qilib aytib bera oladi...." [4].

"Osiyo yo'lbarisi" deb nom olgan Singapurning rivojlanishida yuqori malakali va axloqiy fazilatlariga ega davlat xizmatchilarining o'rni nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu haqda 25 yil Singapur Bosh vaziri lavozimida faoliyat yuritib, o'z mamlakatini qoloch davlatdan dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqqan Li Kuan Yu shunday deydi: "Hukumatda layoqatli vazirlar va ularga yordam bergan yuksak axloqiy fazilatlariga ega (ta'kid bizniki. D.I.) davlat xizmatchilarining borligi Singapurning muvaffaqiyatli taraqqiyotini ta'minlashda asosiy, hal qiluvchi omilga aylandi [6]".

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunda Singapur davlat xizmatchilariga qo'yilgan talablarni ko'rish mumkin. Masalan, Qonunning 11 moddasida belgilangan "davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish; davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish; davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish" bandlari davlat fuqarolik xizmatchisidan mustahkam irodani, qat'iyatni, halollikni talab qiladi. Bular esa ma'naviy-axloqiy fazilatlardir [7].

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda davlat fuqarolikxizmatchisi namunaviy qiyofasini shakllantirish va o'z navbatida davlat fuqarolik xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini baholash muhim masalaga aylanib bormoqda. Bu borada an'anaviy va individual uslublardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishda bir qator masalalarga e'tibor qaratish dolzarb hisoblanadi. Bu borada "Davlat xizmatchilari va davlat organlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash

tizimi bo'yicha "Milliy reyting" tizimini joriy etish" [8] muhim ahamiyat kasb etadi.

"KPI – bu tashkilot (idora, muassasa va korxonalar) va xizmatchilar faoliyatini belgilangan talab darajasida olib borilishini yoki belgilangan maqsadga erishishni nazorat qiluvchi, baholovchi samaradorlik yoki natijadorlik ko'rsatkichi deb ham yuritiladi. Qisqacha aytganda, KPI - belgilangan maqsad bo'yicha "o'lchov moslamasi" hisoblanadi. Ingliz tilida mazkur tushunchalar "samaradorlik ko'rsatkichlari" ("performance indicators"), "eng muhim natijadorlik ko'rsatkichlari" ("key results indicators - KRI") va "muvaffaqiyatning muhim faktorlari" ("critical success factors") kabi tushunchalar bilan izohlanadi" [9].

Mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatida KPIni joriy etish samaradorligi avvalo, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasidagi yutuqlar va amaliyotni o'rganish natijasida milliy kadrlar tayyorlash tajribada qo'llanishi bilan birga davlat fuqarolik xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini baholash mexanizmi, faoliyat samaradorligini erishishga bo'lgan jihatlar ko'zga tashlanadi.

Bugungi kunda davlat fuqarolik xizmatida KPIni joriy etish quyidagi maqsad ko'zlanadi:

- davlat idoralari, ularning bo'linmalari, alohida xizmatchilarni samarali va sifatli ishlashga rag'batlantirish;
- davlat xizmatchilari vazifalarining jamiyat ehtiyojlariga mosligini tahlil qilish;
- davlat xizmatchilarining faoliyatini tashkilotning strategik maqsad-vazifalari bilan bog'lash;
- rahbar kadrlarning davlat xizmatlari iste'molchilari (aholi) bilan qaytma aloqasini yo'lga qo'yish;
- davlat xizmatchilari faoliyatining nazoratini tashkil etish;
- davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirish.
- davlat xizmatchilarining kadrlar salohiyatini tahlil qilish nafaqat yoshi, ma'lumoti, tajribasi, jinsi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha, balki mehnat faoliyatining maqsadi va mazmuniga ko'ra ham amalga oshirilishi kerak. Inson hayotiy kuch, shaxsiy jasorat va shaxsiy mas'uliyatni ma'naviy-axloqiy e'tiqoddan oladi. Ular davlatga, jamiyatga, xalqqa ongli xizmat qilishga zamin yaratadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. <https://president.uz/uz/lists/view/4547>
2. Бочарова Е. Ю. Особенности регулирования этики государственной службы в США // Государственное управление. Электронный вестник. – 2011. – №. 29. – С. 3.
3. Равшанов Ф. Давлат фуқаролик хизматчисининг маънавий кифёси. Рисола. / Ф.Равшанов. – Тошкент: "Маънавият" нашриёти, 2023. – Б.28.
4. Character Education: Informational Handbook and Guide: For Support and Implementation of the Student Citizen Act of 2001 (Character & Civic Education)//[https://cdn1.creativecirclemedia.com/ncpress/files/20181206-183857-content 2.pdf](https://cdn1.creativecirclemedia.com/ncpress/files/20181206-183857-content%202.pdf), - pp.14-15.
5. Al-e Ahmad J. gharbzadegi: weststruckness // brekley: Mizan, 1984. –pp.123.
6. Ли Куан Ю. Учунчи дунёдан биринчи дунёга. Сингапур тарихи (1965-2000). Тошкент, Академнашр, 2022. –Б.36.
7. The Singapore Public Service // <https://www.careers.gov.sg/about-us/>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son // <https://lex.uz/docs/-5841063#-5843873>
9. Muxitdinov A. Davlat fuqarolik xizmatida faoliyat samaradorligini baholash: xorijiy tajriba, milliy amaliyot // <https://argos.uz/oz/press-center/news/447>
10. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son
11. Akbaraliyev K. Davlat xizmati tushunchasi va uning oziga xos xususiyatlari // Наука и технология в современном мире. -2022.-Т. 1. №. 6. – С. 153-155.



UDK: 372

**Saidjon ISMAILOV,**  
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, PhD  
E-mail: [saidjonismailov.@.ru](mailto:saidjonismailov.@.ru).

O'zMU professori D.Bekchanov taqrizi asosida

### BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINI IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Maqolada bo'lajak kimyo o'qituvchilarning iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash mexanizmlari va ularni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikalari, iqtidorli o'quvchilarni o'qitishda ularni pedagogik psixologik holatlari o'rnatilganligi hamda bu mexanizmlarni takomillashtirish to'liq yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** intellektual salohiyat, "Bilimlar bellashuvi", "Kichik akademiyasi", kompetentlik.

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАБОТЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ С ОДАРЕННЫМИ УЧЕНИКАМИ

Аннотация

В статье полностью освещены механизмы работы будущих учителей химии с одаренными учениками и методики использования современных педагогических технологий в их обучении, установление их педагогических психологических состояний при обучении одаренных учеников, а также совершенствование этих механизмов.

**Ключевые слова:** интеллектуальный потенциал, "соревнование знаний", "маленькая академия", компетентность.

### IMPROVING THE MECHANISMS OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS' WORK WITH GIFTED STUDENTS

Annotation

The article fully highlights the mechanisms of work of future chemistry teachers with gifted students and the methods of using modern pedagogical technologies in their education, the establishment of their pedagogical psychological states in teaching gifted students, as well as the improvement of these mechanisms.

**Keywords:** intellectual potential, "knowledge competition", "small academy", competence.

**Kirish.** Jahon ta'lim tizimida sodir bo'layotgan global o'zgarishlar intellektual salohiyatli, iqtidorli, kreativ fikrlaydigan mutaxassislarga ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Explore learning (Angliya) iqtidorni rivojlantirish markazi, National Association for Gifted Children iqtidorli bolalar milliy assotsiatsiyasi, Brilliant NYC (Amerika) iqtidorni rivojlantirish boshlang'ich maktablarida iqtidor va noyob iste'dod egalarini kashf etish sohasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Shu bois iqtidorli yoshlarning boshqalarga ma'lum bo'lmagan qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ularni namoyon etishga qodir pedagog kadrlar tayyorlashning innovatsion metodikasini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning o'ziga xos jihatlari A.A.Abdugodirov, U.Sh.Begimqulov, B.Z.To'raev; iqtidorni rivojlantirish metodikalari: M.Abdullaeva, R.X.Djuraev, M.E.Inoyatova, U.I.Inoyatov; xususiy-metodik darajada kimyo o'qitish metodikasini takomillashtirish, iqtidorni namoyon etish kompetensiyalarini shakllantirish H.Omonov, Sh.Mirkomilov, M.Umarov, A.Mamajonov, J.Fayozov, T.Gulboev, A.Azimov, Sh.Begmatov, kimyo fanini axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etib o'qitish E.U.Eshchanov, F.A.Alimova, L.T.Zaylobov, N.A.Anvarova, I.E.Shernazarov, Sh.Shomuratova, R.Berdiqulov va boshq. tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

MDH mamlakatlarida bo'lajak kimyo o'qituvchilarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlariga oid izlanishlar V.L.Blinova, K.B.Oralbaeva, N.L.Buylova O.S.Zaysev, N.Ye.Kuznesova, V.A.Slastenin, V.P. Lebedeva, G.A.Pichugina tomonidan olib borilgan. Ta'lim sifatini yaxshilash, axborot va

pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning kimyo fanidan o'zlashtirgan bilimlarini baholash, fanni o'rganishda kompyuter texnologiyalarining afzalligi hamda zamonaviy o'qitishning samarali usullarini birlashtirib o'qitishni joriy qilish masalalari Ye.O.Yemelyanova, Ye.Yu.Zashivalova, A.A.Siromyatnikov, V.N.Lixachev, A.A.Podgornova, A.S.Artemeva, O.Ye.Gorbunova, N.S.Mixaylova kabi olimlarning ishlarida tadqiq qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Iqtidorlilik ichki tuzilishi nuqtai nazaridan "yopiq tizim" va dinamik "ochiq tizim" sifatida ko'plab tashqi va ichki determinantlar ta'sirida qayta quriladi. Hamma uchun majburiy va tashqi tartibga solingan maktab ta'limi o'quvchilar iqtidorining namoyon bo'lishi va rivojlanishiga kuchli, uzoq muddatli va tizimli ta'sir ko'rsatadi.

Yangi O'zbekistonda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobitqadamlik bilan olib borilmoqda. Xususan, iste'dodli o'smir va qizlarni izlab topish, ularning qobiliyati va iste'dodini o'stirish bo'icha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Iqtidor - bilimning tegishli sohalarini va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish hamda ulardagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim muassasalarida o'quvchilar shaxsining rivojlanishi, ularning qiziqishlari, iqtidorlarining ro'yobga chiqishi, mustaqil bilim olishlariga va ijodiy mehnat qilishlariga shart-sharoit yaratish lozim [1]. Buning uchun OTMlarida bo'lajak kimyo o'qituvchilari umumta'lim maktablarining iqtidorli o'quvchilari bilan ishlash metodikasini takomillashtirish doirasida "bo'lajak

o'qituvchilar uchun ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini beruvchi metodlarni ishlab chiqish" zarur [2].

Umumta'lim maktablarida iqtidorli o'quvchilar maxsus psixologik va pedagogik test o'tkazish orqali aniqlanadi. Bunday o'quvchilarni maqsadli hayotga yo'llashda ta'lim muassasalarining vazifalari quyidagilardan iborat: iqtidorli o'quvchilarning intellektual salohiyati, chuqur bilim olishi va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, malakali o'qituvchilarni iqtidorli o'quvchilar bilan individual ishlashga safarbar qilish lozim [3]. Ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy jamiyat ishlashga iqtidorli o'quvchilarni keng jalb etish, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash uchun maktabda iqtidorli o'quvchilar haqidagi ma'lumotlar jamg'armasi va ularni doimiy tashxislash monitoringini shakllantirish, ular bilan ishlashning ilg'or pedagogik texnologiyalarini aniqlash, OTM, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan yetuk mutaxassislar bilan hamkorlik qilish kerak bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash o'qishning dastlabki kunlaridan va kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish jarayonida amalga oshiriladi [4]. Umumta'lim maktablarida iqtidorli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash mazmuni quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin: kimyoviy iqtidorni shakllantirishga oid maqsadli dastur ishlab chiqish, ta'limni individuallashtirishga alohida e'tibor qaratish, OTM, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi talablariga asoslangan holda, maktabda iqtidorli o'quvchilarning kasbiy, o'quv-ijodiy va tarbiyaviy tayyorgarligining qo'shimcha yo'nalishi va ta'lim xizmatlarini joriy etish.

Iqtidorli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash dasturlarida ular egallashi zarur bo'lgan quyidagi omillar nazarda tutiladi: fanlarni yuqori darajada o'zlashtirish, kompyuter (savodxonligi) hamda dasturlashtirishni chuqur bilish, xorijiy tillardan savodxonlik, ilmiy-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlash, yangi fikr-mulohazalarni bildira olish ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini hamda soha bo'yicha yangiliklarni tezkorlik bilan egallash, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri tushunadigan va uni qo'llab-quvvatlaydigan, vatanparvar, barkamol inson sifatida o'zini namoyon etish [5].

Iqtidorli o'quvchilarning ilmiy rahbarlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi: iqtidorli o'quvchilarni maqsadli tayyorlash dasturini yaratish va uni amalga oshirishga rahbarlik qilish, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha yetakchi xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalarni bilish va ularni o'z faoliyatida qo'llash. Yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq qilish, kompyuter texnologiyasi va video, audiotexnikalar, elektron darsliklarni keng qo'llash, maqsadli dasturni muvaffaqiyatli bajarayotgan iqtidorli o'quvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish. Umumta'lim maktablarida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni tashkil etishning o'ziga xos tizimi mavjud bo'lib, unda muassasada mavjud barcha sub'ektlar ishtirok etadi. Jumladan, maktab direktori va uning o'rinbosarlari, metod birlashmalar, sinf rahbari, xotin-qizlar qo'mitasi va yoshlar ittifoqi tashkilotlari, ota-onalar hamda barcha o'qituvchi-murabbiylar shular jumlasidan. Mazkur sub'ektlarning iqtidorli bolalar bilan ishlashda o'z vazifalari bo'lib, ular yagona maqsadni amalga oshiradilar [6].

Ta'lim muassasalarida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash bo'limi yoki maktab "Kichik akademiyasi" tashkil etilishi mumkin. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni sifatli tashkil etish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktabi quyidagi ishlarni amalga oshiriladi: iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha yo'riqnomalar, o'qituvchilarning iqtidorli o'quvchilarga bergan tavsiyalari va unga ilova qilgan hujjatlar va fotosuratlar, o'quvchilarning yaratayotgan ishlari va maketlari,

konferensiyalar, fan olimpiadalari, "Bilimlar bellashuvi", tanlov, musobaqalar o'tkazilishiga oid hujjatlar.

Umumta'lim maktablarida bo'lajak kimyo o'qituvchilarning iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga kasbiy – metodik tayyorlash maqsadida pedagogik amaliyot davomida mazkur hujjatlar va ish mazmuni bilan mas'ul o'qituvchilar hamda o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari rahbarligida tanishtirish lozim.

O'zlashtirishda yuqori natijalarga erishgan iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlarini ko'rish "Eng iqtidorli o'quvchi" tanlovini tashkil etish va o'tkazish, iqtidorli o'quvchi faoliyati bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish va davriy ravishda yangilab, iqtidorli o'quvchilarning faoliyati bo'yicha monitoring olib borish. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash orqali ta'lim muassasalari o'z oldiga qo'ygan vazifalarni, ya'ni yoshlarni mustaqil fikrlash, bo'sh vaqtlarini tashkil etish, ularning birorta kasb-hunar egallashi uchun poydevor yaratish, iqtidorli, ijodkor o'quvchilarni rag'batlantirish ishlarini mahalla hamkorligida amalga oshirish orqali iqtidorli o'quvchilar safini kengaytirishga erishadi [7].

Tajribalar dalolat beradiki, iqtidorli o'quvchilarni tanlash va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi: uzluksiz ta'lim jarayonida, ixtisoslik fanlarini o'qitishda, cindan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonlari, tadbirlar, olimpiadalari, «Bilimlar bellashuvi», to'garaklar, musobaqalarda, kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish jarayonida, ota-onalar va mahalla hamkorligida, iqtidorli, iste'dodli, qobiliyatli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish jarayonida. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun talabalarni OTMda fan olimpiadalariga tayyorlash, to'garaklar, turli tanlovlar, pedagogik amaliyot jarayonida, "Ustoz-shogird" tizimi asosida kasbiy-metodik tayyorlash amalga oshiriladi.

O'quvchilarda iqtidor, ayniqsa, faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. O'quvchining shaxsiy nuqtai nazari, xotirasining o'tkirligi fikr almashish jarayonida ham ma'lum bo'ladi. Iqtidorning yorqin va yashirin namoyon bo'lish shakllari mavjud. Yorqin iqtidor o'quvchilar faoliyatida tezda namoyon bo'ladi. Har qanday sharoitda ham bunday iqtidorni ilg'ab olish mumkin. Yashirin iqtidor esa o'quvchi faoliyati jarayonida tezda ko'zga tashlanmaydi. Buni sezish uchun ustozlarning ziyrakligi va mehnati talab qilinadi [4]. Bilimli, iqtidorli, qobiliyatli o'quvchi nafaqat o'zining, balki mamlakat, millatning ham kelajagini belgilaydi. O'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligi ko'p jihatdan o'qitishning izchilligi, o'quvchi psixologik-fiziologik imkoniyatlarining hisobga olinishiga ham borib taqaladi.

Ta'kidlash lozimki, bo'lajak kimyo o'qituvchilarni iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlashda oilada noxush holatlarni boshidan kechirayotgan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga alohida tayyorgarlik talab etadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilarda quyidagi jihatlarni rivojlantirish lozim: umumiy kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, shaxsiy-kasbiy, psixologik-pedagogik usul va metodlarni qo'llay olish, do'stona muloqotga kirishuvchanlik, boladagi o'zgarishlarni tez ilg'ay olish, mashg'ulotlarda mazmunan boyitadigan maxsus didaktik vositalardan foydalanish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish. Bu jarayon bevosita umumkasbiy va mutaxassislik fanlari mazmunida amalga oshiriladi. Shunday qilib, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, tanlash va tarbiyalash borasida mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, vatanimiz iqtidoriy salohiyatni dunyo miqyosida namoyon etish imkonini beradi. Shuningdek:

umumta'lim maktablarida iqtidorli bolalarni aniqlash va tarbiyalashning pedagogik mehanizmini yaratish, iqtidorli bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish mazmunini ishlab chiqish, umumta'lim maktablarida mavjud pedagogik sub'ektlar imkoniyati va salohiyatini shu jarayonga safarbar

etish, umumta'lim maktablari qoshida "Iqtidorli bolalar maktabi", "Kichik akademiya"lar tashkil etish va ularda iqtidorli bolalarning qiziqishlariga ko'ra, iqtidorlarini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Kimyo o'qitishda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga kasbiy yo'naltirishda ta'lim sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri iqtidorni namoyon etishga qaratilgan kompetentli yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etish hisoblanadi. Lug'aviy jihatdan inglizcha "competence" tushunchasi "qobiliyat" ma'nosini bildiradi. Mazmunan "kompetentlik" tushunchasi "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalana olish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etish" deya talqin qilinadi.

Kompetentlik – kasbiy faoliyatni amalga oshirishda mutaxassis tomonidan o'zi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi. Kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi: murakkab jarayonlar mazmunini yoritishda, noaniq vazifalarni bajarishda, bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda, kutilmagan vaziyatda to'g'ri faoliyat rejasiga ega bo'la olishda [4].

"Kompetentlik" (ingl. "competence"-"qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish [7]. Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: o'z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o'zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi. Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatning mohiyati qisqacha yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Ijtimoiy kompetentlik. Maxsus kompetentlik (ruhiy, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik).

Shaxsiy, texnologik, ekstremal kompetentlik. Ijtimoiy kompetentlik: ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish, ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish [2].

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyat natijalarini real baholash, BKM kompetensiyani izchil rivojlantirib borish. Ushbu kompetentlik negizida ruhiy, metodik, axborotli, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentliklar ko'zga tashlanadi [3]. Individual rivojlanish dasturi (IRD) – har bir shaxs yoki mutaxassisning o'zida ma'lum sifat, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy tavsifdagi dastur.

Pedagogning individual rivojlanish dasturi – mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o'zida u

yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko'nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy tavsifdagi dasturi pedagog tomonidan ishlab chiqiladigan "Individual rivojlanish dasturi" quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi. Pedagogning o'z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi: o'z faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarini aniqlash, yutuqlarini boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq qarorga kelish, ushbu qaror bo'yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo'llarini izlash, xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish, qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish.

Pedagogning mutaxassis sifatida: aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish, pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish, izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish, ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish. Shu bilan birga faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish, kasbiy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini takomillashtirish, salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarni izlash yo'lida olib boradigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi.

Mazkur vazifalardan kelib chiqib, bo'lajak kimyo o'qituvchilarni iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash faoliyatiga tayyorlashda metodik ta'minotni mustahkamlash, o'qitishning innovatsion metodikalarini tatbiq etish zarur. Keyingi bobda bo'lajak kimyo o'qituvchilarning iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodikasini takomillashtirishga e'tibor qaratiladi.

**Xulosa va takliflar.** Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodikasini takomillashtirishning tarkibiy-mazmunli tuzilishi o'rganilganda shunday xulosaga kelindiki, umumta'lim hamda ixtisoslashtirilgan maktablar uchun zarur ekanligi va yaratilgan metodlarni takomillashtirib, yangilab borish hozirgi kun talabi ekanligi aniqlandi.

Kimyo o'qitishda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga kasbiy yo'naltirishda ta'lim sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri iqtidorni namoyon etishga qaratilgan kompetentli yondashuv asosida o'quv jarayoni tashkil etilgan. Pedagogning individual rivojlanish dasturi-mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o'zida kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko'nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik kabi sifatleri shakllantirilgan.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga metodik tayyorlashda ularni me'yorlangan bilimlarni (me'yoriy hujjatlar asosida), ko'nikma malaka va kompetensiyalarni shakllantirish qiyosiy tahlil natijasida aniqlangan. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash faoliyatiga tayyorlashda metodik ta'minotini mustahkamlash, o'qitishning innovatsion metodikalari tatbiq etilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Ismailov.S.A Ta'lim muassasalarida SMART texnologiyasi yordamida kimyo fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish // UZLUKSIZ TA'LIM. Maxsus son. 25.05.21 ISSN 2091-5594.- Toshkent, 2021.-B. 24-27.
2. Ismailov S.A. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining iqtidorli talabalar bilan ishlashga metodik tayyorgarligining hozirgi holati // A versatile teacher issue №5(11), 2020 (1) issn: 2309-6009. latvian pedagogical journal- Pp 31-33.
3. Ismailov.S.A. Bo'ajak kimyo fani o'qituvchilarining kimyo fanini o'qitishda eksperimental tajribalardan foydalanishining ahamiyati // UzAcademia ilmiy-uslubiy jurnali nauchno-metodicheskiy jurnal scientific-methodical journal issn (e) – 2181-1334 barcha sohalar bo'yicha vol 2, issue 1 (11), februaru. 2021
4. –Rr. 21-24.
5. Ismailov S.A. Bo'lajak kimyo o'qituvchisini iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlashning pedagogik aspektlari // "Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiro". 2019. 6-son.–B. 91-95. (13.00.00, №20).

6. Ismailov S.A. Improving The Methodological Training Of Future Chemistry Teachers To Work With Talented Students // The american journal of social science and education innovations sjif-5.525 doi-10.37547/tajssei volume 2 issue 8, 2020 issn 2689-100x , impact factor 5,525. – Pp. 547-552.
7. Ismailov S.A. Kimyo fanini o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi va kichik guruhlarda ishlash, spinner metodidan foydalanishning ahamiyati // The journal of academic research in educational sciences. SJIF: 5.7 ISSN 2181-1385 VOLUME 2, SSUE 1 JANUARY 2021.-Pp. 514-522 (13.00.00 № 1).
8. Ismailov S.A. Yangi O'zbekiston ilm-fan taraqqiyoti yo'lida kimyo sohasiga berilayotgan e'tibor // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal issn 2181-1784 volume 1, issue 7 impact factor: 5.423-Toshkent, 2021. 30.08.- Pp. 296-301.



UDK:372.4

*Izzatulla KARIMOV,*  
*Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail: izzatullo@mail.ru*

*Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida*

### MECHANISMS FOR TEACHING CLINICAL SCIENCES IN THE E-LEARNING ENVIRONMENT IN MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

This article discusses the importance of creating an electronic environment, the use of information and communication and pedagogical technologies in the teaching of Clinical Sciences in medical higher education institutions. The article will talk about electron educational technologies, information and pedagogical technologies, their application to the educational process.

**Key words:** medical education, future doctors, Information Technology, electron education technology, electron education environment, communication, integrated education, switching, electron resources.

### МЕХАНИЗМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В СРЕДЕ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ В МЕДИЦИНСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В данной статье обсуждается важность создания электронной среды, использования информационно-коммуникационных и педагогических технологий при преподавании клинических дисциплин в медицинских высших учебных заведениях. В статье рассматриваются технологии электронного обучения, информационно-педагогические технологии, механизмы их применения в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** медицинское образование, будущие врачи, информационные технологии, технология электронного обучения, коммуникация, интеграция, интегрированное обучение, коммутация, электронный ресурс.

### TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA KLINIK FANLARNI O'QITISH MEXANIZMLARINI

Аннотация

Ushbu maqola tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida klinik fanlarni o'qitishda elektron muhit yaratish, axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati muhokama qilingan. Maqolada elektron ta'lim texnologiyalari, axborot va pedagogik texnologiyalar, ularni ta'lim jarayoniga qo'llash mexanizmlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Tibbiy ta'lim, bo'lajak shifokorlar, axborot texnologiya, elektron ta'lim texnologiyasi, elektron ta'lim muhiti, kommunikatsiya, integratsiyalashgan ta'lim, kommutatsiya, elektron resurslar.

**Kirish.** Mamlakatimizda milliy tibbiyot ta'limini modernizatsiya qilish, ushbu sohaga xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, aholi salomatligini muhofaza qilishning dolzarb muammolari bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, ta'lim olayotgan yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning samarali tizimini yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Elektron ta'lim muhiti haqida olimlar tomonidan turli ta'riflar va turli fikrlar berilgan bo'lib quyida fikrlarning bazilari bilan tanishib chiqamiz. Elektron ta'lim muhiti, bir tomondan, inson tarbiyasini, ikkinchi tomondan, elektron va ijodiy fikrlaydigan o'qituvchi shaxsini shakllantirishni ta'minlaydigan o'zaro bog'liq sharoitlar majmuasi sifatida qaraladi. Elektron ta'lim muhiti - bu ta'lim jarayonini yanada samarali va zamonaviy qilish uchun yangi texnologiyalardan, metodlardan va vositalardan foydalanishdir. Innovatsion ta'lim muhiti - bu kelajakka yo'naltirilgan holda ta'lim amaliyotlari rivojlanishi va o'zgarishi bilan rivojlanish va moslashishga qodir bo'lgan muhit. Elektron ta'lim muhiti kuchli tomonlarga asoslangan o'qitish va o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu talabalar va o'qituvchilarga moslashuvchanlik, mustaqillik, hamma joyda va o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi. An'anaviy va elektron ta'lim jihatlari ma'lum bir xususiyatlari jihatidan uzviylik kasb etmoqda.

Elektron ta'lim o'zida ta'limning innovatsion yondashuvini, jumladan multimediyaga va internet texnologiyalarni qo'llagan holda ta'lim sifati va imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Shularni e'tiborga holda elektron ta'lim talabalarga qulay tashkillashtirilgan muhitda bilim olish imkonini beradi deb hisoblash mumkin. Elektron ta'lim metodikasini ishlab chiqish elektron ta'limning masofali kurslari o'quv dasturlariga muvofiq holda tizimli yondashgan holda yaratilishi, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda zamonaviy bilimlar va qarashlarga ega bo'lishini talab etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy ta'lim texnologiyalari- bu ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuv asosida ta'lim berish usullarini tadbiiq etish, yangi pedagogik ta'lim metodlaridan foydalanish, ta'lim jarayonida zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish asosida ta'lim sifati oshirish. O'qituvchi tomonidan darsni no'an'anaviy tashkil qilish bu ham innovatsiya hisoblanadi, maslan oqutuvchi "Yurak qon -tomir kasalliklari va ularni oldini olish yollari" mavzusini o'qitishda "Virtual Box" dasturiy vositasidan foydalangan holda amaliy mashg'ulotlarni olib borishi mumkin bunda talaba virtual mashina yordamida operatsion tizimni o'rnatish, disklarni bo'lish, tezkor xotirani, doimiy hotirani sozlash kabi ishlarni amaliyotda qilib ko'rish imkoniyati yaratiladi. Dars jarayonida kompyuterdan foydalanish o'qituvchi va talabalarga, interaktiv o'quv qo'llanmalari bilan bog'liq bo'lgan yangidan-



yangi o'ziga xos qulayliklar yaratadi. O'qituvchi tomonidan yaratiladigan interaktiv o'quv qo'llanmalari uchun zamonaviy dasturlash tillarini bilgan holda, ularni talabalar tomonidan qiziqish bilan qabul qilinishiga erishimiz zarur. Kompyuterni boshqa o'qitish vositalari masalan proyektor, elektron doskalar bilan operativ qo'shilishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanib ma'lumot berish hajmini oshiradi va bu bilan o'qituvchi uchun dars vaqtidan unumli foydalanishga imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda zamonaviy dasturlash tillari ya'ni, Delphi, Mathlab, MathCad, Maple, Mathematica, Cilarning imkoniyatlaridan foydalanish dars jarayonlarini sifatli tashkil qiladi. Natijada dars samaradorligi ortadi va o'quvchilarning qiziqishi, hamda munosabati o'zgaradi. Ta'limda o'qitishning sifatini oshirish so'zsiz yangi o'qitish usullaridan qanday foydalanishga bog'liq bo'lmoqda. Yangi o'qitish usullarida talaba doimiy ravishda izlanish va xarakterda bo'lishi lozim, ya'ni berilgan ma'lumotlarni olishi, qayta ishlashi va olgan bilimlarni aniq masalalar yechishda qo'llashi lozim. O'qitishning ma'ruza, amaliyot, laboratoriya va mustaqil ta'lim shakllarida axborot texnologiyalarning qo'llanilishi tezlik bilan o'z samarasini beradi. Masalan laboratoriya darsida virtual stendlarning qo'llanilishining o'zi albatta mashg'ulotning sifatli tashkil etilishiga asos bo'ladi. Kompyuter va dasturiy maxsulotlarning beqiyos darajada rivojlanishi axborot texnologiyani ta'limda qo'llashga keng imkoniyatlar ochib bermoqda. O'quv materiallarini multimedia tizimlari ko'rinishida tayyorlash va ularni kompyuter tarmoqlari va uzatish vositalari orqali ko'pchilikka taqdim etish mumkin. Kompyuter texnologiyalarining ta'lim tizimiga keng joriy etilishi barcha turdagi o'qitish shakllarining o'quv materiallarini qaytadan ko'rib chiqishni talab etadi. Xar bir o'qitish shakliga mos ravishda multimediali elektron o'quv materiallari tayyorlash kerak bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilm-fan, texnologiya va innovasiyalardagi o'zgarish sur'ati bugungi kunda juda yuqori tezkor va malakali monitoringni o'tkazmasdan ta'lim faoliyatining samaradorligini ta'minlash deyarli mumkin emas. Ta'lim faoliyatini barqaror rivojlanishini ta'minlash, innovation ta'lim muhitini kengaytirish orqali kadrlar raqobatbardoshligini oshirish, uning rivojlanishi nafaqat mavjud tendentsiyalariga asoslangan holda, balki istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ta'lim va texnologik yutuqlarni hisobga olgan holda uzoq muddatli prognozlash usullarini - Forsaytni qo'llash zarurati bilan bog'liq [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]. Forsayt – mazkur atama ingliz tilida (foresight - kelajakka nazar ma'nosini anglatadi. U innovatsiyani ilgari surish, strategik baholashni faollashtirish va ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha uzoq kelajakka mo'ljallangan foaliyatni nazarda tutadi Forsayt – taniqli olimlar soha mutaxassislari guruhi rahbarlik qiladigan, ilmiy tadqiqotlarning muayyan sohasida erishilgan yutuqlari bilan ajralib turadigan, ilmiy-tadqiqot muammolari bo'yicha yutuqlarga erishgan, uzoq kelajakka mo'ljallangan hamkorlikdagi harakat kordinatsiyasi (FOREN Guede). Aqlli tizimlar hozir tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bu allaqachon o'quv jarayoniga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, IBM ta'lim muassasalarida aqlli tizimlarning paydo bo'layotgan shakli bo'lgan Uotson superkompyuteridan foydalanmoqda. Ushbu yechim Avstraliyadagi Deakin universiteti talabalar uchun kuniga 24 soat, yiliga 365 kun talabalarga maslahat beradi. Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar

bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning fikriga ko'ra, pedagogik innovatsiyalarning tasnifi quyidagi tasnifi keltirilgan faoliyat turlari, amal qilish muddati, o'zgarishlar muhiti, foydalanish ko'lami, vujudga kelish manbalari, amalga oshirish usullari kabi tasniflanadi.

**Tadqiqotda qo'llanilgan usullar.** Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarining darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng darsda ko'rgazmali organayzerlar, ko'rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Bizning tadqiqotimiz elektron ta'lim platformalarining zamonaviy sharoitda turli mamlakatlar hukumatlari ilmiy sohaga, xususan tadqiqot va innovatsiyalarga katta miqdorda sarmoya kiritmoqda. Masalan, Germaniya tadqiqot va ishlanmalar uchun taxminan yalpi ichki mahsulotining 2,7%, AQSh - 2,8%, Yaponiya - taxminan 3,5% yo'naltiradi. Iqtisodiyoti o'tish davri mamlakatlari ancha kam: Belarusiya - yalpi ichki mahsulotining 0,74%, Rossiya - 1,04% sarflaydi [220]. Jahonda ta'lim jarayonida electron ta'lim texnologiyalarida foydalanish bo'yicha Germaniya, AQSH, Svetsiya, Janubiy Korea, Xitoy kabi davlatlar Yuqori o'rnlarni band qilgan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlaridan Rossiya 47 o'rinda 2022 yilgi ma'lumotlarga asoslangan holda Ozbekiston 82-o'rinni egallaganini ko'rishimiz mumkin. AQSH universitetlari tashkiliy jihatdan juda moslashuvchan tuzilmalar bo'lib, o'z mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va ta'lim muhitining yuqori darajadagi innovatsionligini saqlashda juda muhim rol o'ynaydi. Talim jarayonida virtual haqiqat tizimlaridan foydalanish- VR yordamida o'rganish talabaning virtual muhitda bo'lishi orqali amalga oshiriladi. Bu sizga o'quv jarayonida turli xil faoliyat turlarini amalga oshirishga imkon beradi. Avvalo, bu ko'proq realizm bilan birgalikda ishlashni tashkil etishga tegishli. Virtual haqiqat, shuningdek, talabalarni virtual va Real dunyoni o'rganishga undaydigan "xato qilish huquqi" bilan turli xil ob'ektlar bilan ishlash uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishni ta'minlaydi. AR texnologiyasi (kengaytirilgan haqiqat - kengaytirilgan haqiqat) raqamli formatdagi tarkibni haqiqiy foydalanuvchi muhitiga joylashtiradi. Ma'lumot matn, rasm, video, audio va 3D model shaklida bo'lishi mumkin. Qoida tariqasida, u uchun projektorli engil ko'zoynaklar yoki uyali telefon kamerasi ishlatiladi. MR (Mixed Reality – aralash haqiqat) texnologiyasi VR va ARning birgalikda yashashi bo'lib, voqelik gibridini yaratadi. Eshitish vositasi atrofda dunyoni skanerlaydi, ob'ektlarni taniydi va ularning 3D modellari yaratadi, bu sizga virtual dunyo orqali haqiqiy dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lishga imkon beradi. Bu talabalarni o'quv jarayoniga jalb qiladi, ularga ko'nikmalarni mashq qilish, muammolarni hal qilish va bilimlarni atrofda dunyoda qo'llash imkonini beradi, bu esa o'rganish dinamikasini yaxshilaydi va talabalarni kelajakka tayyorlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, elektron ta'lim platformalarining an'anaviy o'quv amaliyotini o'yin mexanikasi bilan birlashtiradi. Bu talabalarga o'quv dasturini yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. Boshqa tomondan, jiddiy o'yinlar talabani aniq ob'ektlar va maqsadlarga moslashtirish uchun odatiy o'yin tuzilishiga amal qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Information and communication technologies in education: UNESCO Institute for information technologies in education – M. : IITO YUNESKO, 2013.
2. Novak, P. The Growing Digital Divide: Implications for an Open Research Agenda. Understanding the Digital Economy: Data, Tools and Research. Ed. B. Kahin and E. Brynjolfsson. Cambridge, MA: The MIT Press., 2000.
3. Measuring the Information Society (MIS). Executive Summary. ITU edition, 2015.

4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
5. Portal Internet-obucheniya E-education.ru – <http://www.e-education.ru>.
6. Muratov Khusan Holmuratovich. Implementation of independent educational activities of students. European journal of research and reflection in educational sciences. vol. 7 no. 12, 2019. issn 2056-5852. 25-25.
7. Muratov Khusan Kholmuratovich; Abdulkhamidov Sardor Mardanaqulovich; Jabbarov Rustam Ravshanovich; Khudaynazarova Ugiloy Sharifovna and Baymurzayeva Oyqaram Shodiyevna. Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). International Journal of Psychosocial Rehabilitation ISSN:1475-7192. March 2020. Volume 24 – Issue 5. –pp. 2043-2048.



UDK 372.3/4

*Nixola KASIMOVA,*  
*Andijon davlat tibbiyot instituti tadqiqotchisi*  
*E-mail:k.k.nixola@mail.ru*

*Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida*

## IMPROVEMENT OF THE SYSTEM FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE

Annotation

In order for the future doctor to be successful and demanding, he must be ready for any changes, be able to quickly and effectively adapt to new conditions, demonstrate a desire to become a professional, constantly renew his knowledge. These skills, striving for self-development, tolerance for uncertainty, willingness to take risks, i.e. it is mentioned that they are qualified at the professional level.

**Key words:** professional competence, information competence, Doctor-Teacher, Student, Medical higher education institution, modern information technology, mediacompetence, knowledge, qualifications, skills.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ

Аннотация

Чтобы будущий врач был успешным и требовательным, он должен быть готов к любым изменениям, уметь быстро и эффективно адаптироваться к новым условиям, проявлять желание стать профессионалом, постоянно обновлять свои знания. Это умения, стремление к самосовершенствованию, терпимость к неуверенности, готовность рисковать, т. говорят о профессиональной компетентности. Ключевые слова:

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, информационная компетентность, врач-преподаватель, студент, медицинское высшее учебное заведение, современные информационные технологии, медиаккомпетентность, знания, квалификация, умения.

## BO'LAJAK SHIFOKORLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Bo'lajak shifokor muvaffaqiyatli va talabchan bo'lishi uchun har qanday o'zgarishlarga tayyor bo'lishi, yangi sharoitlarga tez va samarali moslasha olishi, professional bo'lish istagini namoyon qilishi, o'z bilimni doimiy ravishda yangilab turishi kerak. Bu ko'nikmalar, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish, noaniqlikka bag'rikenglik ko'rsatish, tavakkal qilishga tayyor bo'lish, ya'ni professional darajada malakali bo'lishligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Kasbiy kompetensiya, axborot kompetensiyasi, shifokor-o'qituvchi, talaba, tibbiyot oliy ta'lim muassasasi, zamonaviy axborot texnologiyalari, mediakompetentlik, bilim, malaka, ko'nikma.

**Kirish.** Bo'lajak tibbiyot o'qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyasi metodik faoliyat olib borishga tayyorligini ta'minlaydi. Aynan tibbiy pedagogik kompetensiya, tibbiy bilim, o'qitish metodikalarining tarixi va holati, taraqqiy etgan mamlakatlarda o'qitish tajribaci, bo'lajak tibbiyotchilarda pedagogik kompetensiya mazmuni, ta'lim metodlari va texnologiyalari, o'qitishning psixologik-pedagogik asoslari, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun nazariy-amaliy materiallar yig'ish, pedagogik kompetensiya asosida talabalarga dars mashg'ulotlarida va amaliy klinikalarda olib borishni rejalashtirish, ta'lim vositalarinitanlash va qo'llay olish, bo'lajak tibbiyot o'qituvchilarining individual va mustaqil ishlarini tashkil qilish, bo'lajak tibbiyotchida pedagogik kompetensiya bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yo'naltirilishi lozim. Tibbiy metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, tibbiy bilimni yetarli darajada o'zlashtirilishi, kasbiy jihatdan ahamiyatli shaxsiy fazilatlar, integrativ bilim, ko'nikma va malakalar vujudga kelishini ta'minlovchi ko'plab sa'y-harakat va amallarni o'zida aks ettiradi. Nazariy va amaliy tahlil, tibbiy oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish, shuningdek, pedagogik kompetensiya asosida talabalarining metodik tayyorgarlikni

takomillashtirish bugungi kunning muhim vazifasi sanaladi. Jahon tibbiyot ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini raqamlashtirish, axborot muhitida mediata'lim maxsulotlarini joriy etishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Ta'limda kasbiy kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish "kompetensiya", "kompetentlik", "kasbiy kompetensiya", "kasbiy kompetentlik" tushunchalari bilan bog'liq Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalga yuqori darajada qo'llay olinishidir.

Mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarining xususiyatlarini tahlil qilganda I. Y. Lerner, V. V. Kravtsevskiyga ko'ra ularni qismga ajratish mumkin, kasbiy va umumiy ta'lim kompetensiyalarini o'zlashtirish va ulardan o'quv jarayonida foydalanish zarurati va istagi bilan tavsiflanadigan motivatsion, bu professional darajada muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyadir; tushunchalar va qonunlar tizimini belgilaydigan kognitiv; nazariy va amaliy muammolarni hal qilish jarayonida bilimlarni, o'quv va hayotiy tajribalarni tezkor qo'llashni belgilaydigan faoliyat; mutaxassis tomonidan kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish va

shaxsiy o'zini o'zi takomillashtirishning ahamiyatini anglashda namoyon bo'ladigan va kasbiy ko'nikma va malakalarning shakllanish darajasi bog'liq bo'lgan muhim fazilatlarini o'z ichiga olgan shaxsiy [Ошибка! Источник ссылки не найден.]. Mustaqillik yillarida ta'lim sohasida olib borilgan keng ko'lamli islohotlar tibbiyot oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, o'quv dasturlari, o'quv metodik adabiyotlarni xalqaro talablarga mos holda yangilash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Olib borilayotgan amaliy ishlardagi yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida: "...xalqaro tajribalardan kelib chiqib, o'quv jarayonlarini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajriba asosida zamonaviy ta'lim va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish xisobiga talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish..." vazifasi pedagogik zarurat sifatida belgilandi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish aspektlari" haqida fikr yuritar ekanmiz, mavzu uchun AQSh, Fransiya, Yevropa mamlakatlari, Rossiya pedagogikasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga e'tiborimizni qaratish bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi ilmiy va amaliy izlanishlarni o'rganishga, ularni tahlil qilishga harakat qilamiz. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqildi. Konsepsiyada belgilab berilganidek Oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish maqsadida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalardan, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, webinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish kabi vazifalar belgilab o'tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bo'lajak shifokorlarning kasbiy kompetensiyasi (kasbiy malakasi va ko'nikmalari) tibbiyot sohasida yuqori sifatli xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlarni o'z ichiga oladi. Quyida bo'lajak shifokorlar uchun muhim bo'lgan asosiy kompetensiyalar keltirilgan:

1. Tibbiy bilim va klinik ko'nikmalar.

Anatomiya, fiziologiya, biokimyoy va patofiziologiya: Tananing tuzilishi va funksiyalarini tushunish.

Diagnostika: Bemorlarning kasalliklarini aniqlash uchun kerakli tekshiruvlar va tahlillarni o'tkazish.

Davolash va boshqarish: Turli kasalliklar uchun samarali davolash usullarini qo'llash.

Favqulodda vaziyatlarda yordam: Tez yordam ko'rsatish va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.

2. Muloqot va munosabatlar.

Bemorlar bilan muloqot: Bemorlarga aniq va tushunarli tushuntirish, ularni tinglash va ular bilan samimiy munosabat o'rnatish.

Hamkasblar bilan hamkorlik: Tibbiy jamoa a'zolari bilan samarali hamkorlik qilish.

Oila a'zolari bilan muloqot: Bemorlarning oila a'zolari bilan aniq va ishonchli muloqot qilish.

3. Axloqiy va huquqiy mas'uliyat.

Tibbiy axloq va deontologiya: Tibbiyot sohasida axloqiy qoidalarga rioya qilish.

Konfidentsiallik: Bemorlarning shaxsiy ma'lumotlarini sir saqlash.

Yuridik bilimlar: Tibbiyot sohasidagi qonunchilik va huquqiy masalalarni bilish.

4. Professionalizm va shaxsiy rivojlanish.

Halollik va ishonchlilik: O'z ishida halol bo'lish va ishonchni saqlash.

Doimiy ta'lim: Hayot davomida ta'lim olish va o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab turish.

Tafakkur va tanqidiy fikrlash: Muammolarni hal qilish va qaror qabul qilishda analitik va tanqidiy fikrlash.

5. Texnologik savodxonlik.

Tibbiy texnika va texnologiyalar: Tibbiyotda qo'llaniladigan zamonaviy texnika va texnologiyalarni bilish va ulardan foydalanish.

Axborot texnologiyalari: Tibbiyotda qo'llaniladigan axborot texnologiyalarini bilish va ulardan samarali foydalanish.

6. Tadqiqot va ilmiy faoliyat.

Ilmiy tadqiqotlar: Tibbiyot sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularning natijalarini amaliyotda qo'llash.

Ma'lumotlarni tahlil qilish: Tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish va ularning asosida xulosalar chiqarish.

7. Jamoaviy ish va liderlik.

Jamoa ishlash: Jamoada samarali ishlash va jamoaning bir qismi bo'lish.

Liderlik ko'nikmalari: Tibbiy jamoani boshqarish va muammolarni hal qilishda yetakchilik qilish. Shu bosqichlarni muvaffaqiyatli tamomlagan shifokorlar kasbiy faoliyatlarini yuqori darajada amalga oshira oladilar va bemorlarga sifatli tibbiy yordam ko'rsata oladilar.

**Tadqiqotda qo'llanilgan usullar.** Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarning darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng darsda ko'rgazmali organayzerlar, ko'rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Tibbiy ta'lim sifatini oshirish sohasida xorij olimlaridan Spirichev V.B., Tutelyan V.A., Kiseleva T.L., Kochetkova A.A., tibbiy kompetensiyaviy yondashuv yuzasidan dastlabki qarashlar va bugungi kunda Bill Roberts, Mal Coad tibbiy ta'lim sohasidagi kasbiy-axborot ahamiyati yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan ta'limda kompetentli yondashuv masalalari Z.M.Bolshakova, O.A.Imanova, N.A.Konova, S.A.Korolkova, N.F.Radionova, A.N.Sklyarenko, A.V.Timova, I.A.Zimnyaya T.Yu.Parshina, I.A.Koroleva, I.V.Kuznetsova, L.V.Shkerina va boshq. izlanishlar olib borgan. Kompetensiyaviy yondashuvlar I.A.Korolevaning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan, axborot manbalaridan foydalanish masalalari N.A.Piontkovskaya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish masalalari V.V.Kyurshunovanning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Ta'lim mazmunini va o'qitish metodikasini shaxs sifatida takomillashtirishda kasbiy-axborot muhitining pedagogik ta'siri macalalari bo'yicha bo'yicha o'zbek olimlari Muslimov N.A., O'razova M.B., O.Avazov, S.Alixonov, M.Barakaev, M.Tojiev, D.Yunusova, B.Abdullaeva, N.Bikbaeva, M.E.Jumaev, R.A.Mavlonova, N.X.Rahmonqulova, B.Ye.Sabirov, kabi pedagog olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish, elektron muhitda axborot almashishning nazariy va metodik asoslari A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, G.S.Ergasheva kabilarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Ta'limda

kompetentsiyaviy yondashuvning mohiyati F.M.Zakirova, R.G.Isyanov, N.A.Muslimov, A.K.Raximov, J.E.Usarovning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Bo'lajak tibbiyot o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish shart-sharoitlari tibbiy pedagogik faoliyat motivlari va ehtiyojlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi mezonlar aniqlandi: rag'batlantiruvchi, kognitiv, jarayonli, integrativ. Bo'lajak tibbiyot o'qituvchisi metodik tayyorgarligining rag'batlantiruvchi mezoniga ehtiyoj, shaxsiy-kasbiy mezonlari kiradi. Bo'lajak tibbiyot o'qituvchisi metodik tayyorgarligining kognitiv mezon: psixologik-pedagogik bilimlar – tibbiyotda o'qituvchilarning tibbiy bilimlari va psixofiziologik xucuciyatlarini, o'quv jarayonini tashkil qilishning shakl, metod va vocitalarini, talabalarni tashxislashning asosiy metodikasini, innovatsion pedagogik texnologiyalarni bilishi; didaktika tamoyillarini, didaktik va tarqatma materiallar ishlab chiqishga qo'yilgan talablarni, ta'lim va tarbiya birligi qonuniyatini bilishi; tibbiy bilimlar – bo'lajak tibbiy pedagoglarni tibbiy bilimni rivojlantirish maqsadlarini, asosiy ilmiy tushunchalar (ta'riflar, xususiyatlar, qoidalar, metodlar va boshqalar) mazmunini bilishi. Bo'lajak tibbiyot o'qituvchisining metodik tayyorgarligida jarayonli mezon: kommunikativ ko'nikmalar – ta'lim jarayonida talabalar bilan pedagogik muloqotni tashkil qilish mahorati, pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlar

o'rnatish qobiliyati, bo'lajak tibbiyot o'qituvchilari uchun turli xil tibbiyotga oid o'rgatuvchi dacturlarda topshiriqlar ifodalanishining tushunarlik darajalarini tahlil qilish qobiliyati, bo'lajak tibbiyot o'qituvchilari integrativ faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan ko'nikmalar; axborot ko'nikmalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalar orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim jarayonida samarali texnologiyalarni tanlash va ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish qobiliyati o'z aksini topgan. Kasbiy-pedagogik kompetentsiyaga asoslangan talabalarga o'qitish uchun tibbiy kasbga tayyorlashda, quyidagilarga e'tibor qaratadi: turli bilim sohalaridagi ilmiy tushunchalar shakllanishi uchun yagona asosni vujudga keltirish, tibbiyotda talabalarga rag'batlantiruvchi, kognitiv, didaktik, axborot-kommunikatsiyali, tibbiy kasbiy ijod va o'sishga intilish, metodik tibbiy bilimlar, tibbiy ilmiy-tadqiqot, diantologik yondashuv kabi kompetentsiyalar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rmda shuni aytib o'tish joizki, Bo'lajak shifokorlar ushbu kompetensiyalarga ega bo'lishlari uchun uzluksiz ta'lim, amaliyot va tajriba orttirish muhimdir. Bu ularni kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlari va bemorlarga yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatishlariga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Исканджанова, Ф. К. (2022). Методология повышения профессионально педагогической и информационной компетентности врача-педагога: Исканджанова Феруза Камолдиновна, Преподаватель кафедры «Педагогика и психология» Ташкентская медицинская академия. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6.2. Махсус сон), 163-166.
2. Исканджанова, Ф. К., & Хамрасва, М. Э. (2023). Психолого-педагогическая деятельность врача на современном этапе. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 347-353
3. Muslimov N. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f. doktori darajacini olish uchun dissertatsiya.–Toshkent, 2007.–337 bet.
4. Мусурмонов А. Дидактические основы меж предметных связей математики и трудового обучения в общеобразовательной школе: Дисс. на соиск. уч. степ. канд. пед. наук. –Ташкент: 1988, -149 с.
5. Сайидахмедов Н.С. Теория и практика подготовки студентов педвуза круководству общественно полезным производительным школьником: Дисс. докт. пед. наук. –Т: 1992. –406с.
6. Сериков В. В. Образование и личность: Теория и практика проектирования педагогических систем. -Москва: Логос, 1999. –271 с. 91.10.Смирнова Е.Е. Формирование модели специалиста высшим образованием. -Томск, 1984. -132 с. 92.



UDK:37.01

*Sharifjon KENJABOYEV,*  
*Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi*  
*E-mail:sharifjonkenjaboev@gmail.com*

*NamMQI katta o'qituvchisi, PhD P.Botirova taqrizi asosida*

## INDIVIDUAL KASBIY RIVOJLANISH TUSHUNCHASINING TARIXIY, IJTIMOY-PEDAGOGIK TADQIQI HAMDA BO'LAJAK O'QITUVCHI FAOLIYATIDA USTUVORLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada individual kasbiy rivojlanish tushunchasining ilmiy, pedagogik, ijtimoiy hamda tarixiy aspektlari, bo'lajak o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari va pedagogik faoliyati uzviyligi hamda kasbiy-pedagogik fazilat va xislatlarini rivojlantirish masalalari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Individuallik, kasbiy rivojlanish, shaxsiy motivatsiya, kreativlik, pedagogik ijodkorlik, kasbiy sifat, pedagog, RIASEC modeli.

## HISTORICAL, SOCIO-PEDAGOGICAL STUDY OF THE CONCEPT OF INDIVIDUAL PROFESSIONAL DEVELOPMENT AND PRIORITY IN THE ACTIVITIES OF THE FUTURE TEACHER

Annotation

This article discusses the scientific, pedagogical, social and historical aspects of the concept of individual professional development, the personal characteristics of the future teacher and the integrity of pedagogical activities, as well as the issues of developing professional and pedagogical qualities of the future teacher.

**Key words:** individuality, professional development, pedagogical creativity, personal motivation, creativity, professional quality, pedagogy, RIASEC model.

## ИСТОРИЧЕСКОЕ, СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОНЯТИЯ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ И ЕГО ПРИОРИТЕТА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА

Аннотация

В статье рассматриваются научно-педагогические, социальные и исторические аспекты концепции индивидуального профессионального развития, личностных особенностей будущего учителя и целостности педагогической деятельности, а также вопросы развития профессионально-педагогических качеств будущего учителя. учитель.

Ключевые слова: индивидуальность, профессиональное развитие, личностная мотивация, творчество, педагогическое творчество, профессиональное качество, педагог, модель RIASEC.

**Kirish.** Ma'lumki, "individual kasbiy rivojlanish" tushunchasining mazmun-mohiyatini anglash "individuallik" hamda "kasbiy rivojlanish" tushunchalarini alohida tahlil qilinishini taqozo etadi. Individuallik (lotincha "individuum" – "bo'linmas") – muayyan narsa va hodisa, shaxs va jonivorning o'zigagina xos, betakror xususiy belgilaridir.

Individual kasbiy rivojlanish deganda shaxsning o'z kasbiy karyerasini muvaffaqiyatli amalga oshirish va kasbiy maqsadlarga erishish uchun o'z ko'nikmalari, bilimlari, tajribasini doimiy ravishda kengaytiradigan va takomillashtiradigan jarayoniga aytiladi. Individual kasbiy rivojlanish bu doimiy amalga oshiriluvchi jarayon bo'lib, unda inson o'z kasbiy mahoratini mustahkamlaydi, yangi ko'nikmalarga ega bo'ladi, kasbiy rivojlanishini davom ettiradi va o'z kareyera maqsadlariga intiladi. Quyida individual kasbiy rivojlanish tushunchasini ilmiy, pedagogik, ijtimoiy va tarixiy aspektlari tahlil qilib o'tiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bo'lajak o'qituvchining individual kasbiy rivojlanish tushunchasini ilmiy, pedagogik, ijtimoiy hamda tarixiy aspektlariga:

1. Ilmiy jihatlar. O'zini-o'zi anglash hamda shaxsiy samaradorlik nazariyalari individual kasbiy rivojlanish tushunchasining asosiy mazmunini anglash uchun asos bo'ladi. Shaxsiy samaradorlik nazariyasi shaxsning o'z faoliyati samaradorligiga ishonchi bo'lib, Albert Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasining asosiy tushunchasi hisoblanadi [2]. Ushbu nazariyalar shaxsiy motivatsiya, o'zini o'zi anglash va qadriyatlar individual kasbiy rivojlanishga

qanday ta'sir qilishini tushuntiradi. Jan Piage va Lev Vygotskiy nazariyasi kabi kognitiv rivojlanish nazariyalari kasbiy mahoratni o'rganish va rivojlantirish jarayoni haqida tushuncha beradi [3].


2. Pedagogik jihatlar. Tajribaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim va konstruktiv ta'lim kabi pedagogik yondashuvlar talabalarning faolligini ta'minlaydi va o'rganganlarini real vaziyatlarda amalda qo'llashni ta'kidlaydi. Bu kabi pedagogik yondashuvlar individual kasbiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirilgan ta'lim dasturlari kasbiy rivojlanish uchun motivatsiyani va ta'lim muvaffaqiyatini oshirishi mumkin. Amaliyot, murabbiylik va boshqa amaliy ta'lim imkoniyatlarini ta'lim dasturlariga integratsiyalash talabalarga tegishli kasbiy ko'nikmalarni egallash va kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlanish imkonini beradi.

3. Tarixiy jihatlar. Oldingi kasbiy-pedagogik ta'lim modellari asosan metodik hamda didaktik bilimlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar muvaffaqiyatli professional rivojlanish uchun zarur bo'lgan, moslashuvchan ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalar muhimligini ta'kidlaydi. Tarixan individual kasbiy rivojlanish jamiyat yuqori qatlami uchun imtiyoz (privilegiya) sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy jamiyatda individual kasbiy rivojlanish jamiyatdagi teng huquqlilik, gender tenglik kabi siyosiy islohotlar natijasida barcha uchun bir xil imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

4. Ijtimoiy jihatlar. Mehnat bozori va kasbiy ko'nikmalarga bo'lgan talablar texnologik taraqqiyot, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar tufayli doimiy ravishda o'zgarib turadi va bu dinamik xususiyatga ega. Shuning uchun individual kasbiy rivojlanish o'zgaruvchan sharoitlarga javob berishi lozim bo'lgan, umrbod davom etadigan jarayondir. Ijtimoiy talablar va me'yorlar kasbiy faoliyat mazmuni hamda unga qo'yiladigan talablarni o'zgartirib boradi. Shuningdek, jamiyatda shakllangan ijtimoiy-madaniy talablar va me'yorlar

kasbiy rivojlanishga bo'lgan turli yondashuvlarni shakllantirishi mumkin.

Bo'lg'usi o'qituvchilarning individual-kasbiy rivojlanishida kasbiy qiziqish, nafaqat mutaxassislikni tanlashda, balki oliy ta'limmuassasasida ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanib, rivojlanib boriladi. O'z shaxsiyatini o'qituvchi kasbi bilan identifikatsiyalash, jamiyatda o'qituvchi maqomiga ega bo'lishi, jamiyat oldidagi kasbiy burch va vazifalarni anglashi, bajara olishi pedagogik qadriyat darajasiga yetishi lozim bo'ladi.



1-rasm. Bo'lajak o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari va pedagogik faoliyati uzviyligi.

Mayr bo'lajak o'qituvchilar faoliyatidagi zaruriy xususiyatlarni 6 ta guruhga ajratgan [5]. Mayr tomonidan ishlab chiqilgan RIASEC modeli bo'lajak o'qituvchining individual-kasbiy rivojlanishini shaxsiyati, uning qiziqishlari, ularda shakllangan pedagogik qadriyatlar tizimiga muvofiq 6 ta yo'nalishga ajratgan. Mayrning ta'kidlashicha, bo'lg'usi o'qituvchi shaxsning rivojlanishi, uning qiziqishlari, hayotiy tamoyillari, shakllangan qadriyatlar tizimi va u tanlagan kasbiy-pedagogik faoliyatning moslik darajasi qancha yuqori bo'lsa, uning mehnat faoliyatidan qoniqishi, kasbiy muvaffaqiyatga erishishi shunga monand yuqori bo'ladi hamda unda yetarli kasbiy kompetensiya va identitetlik rivojlanadi. Bu mulohazalar Mayrning "Mos kelish nazariyasi" (Congruence theory) da o'z ifodasini topgan. RIASEC modeli 6 ta yo'nalishning bosh harflari jamlanmasidan tuzilgan bo'lib, quyidagicha tavsiflanadi:

1. Realistik yo'nalish (Realistic). Bu yo'nalish o'qituvchining faolligi, izlanuvchanchanligi, atrof-olamni real baholay olishi, aqlan ham emotsional jihatdan muvozanatni boshqara olishini tavsiflaydi. Bu orqali o'qituvchilarda an'anaviy siyosiy va iqtisodiy qadriyatlar yetarli shakllanishini ko'rish mumkin.

2. Izlanuvchilik yoki tadqiqotchilik (Investigative) yo'nalish (Intellectual). Bu yo'nalish o'qituvchilarning yashayotgan jamiyatidagi muammolarga intellektual yondashuv ustunligini tavsiflab, muammolar, hodisa va voqealar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, umumiyliklarni topishga ishtiyoq kuchli bo'lishini tavsiflaydi va o'z pedagogik faoliyati mazmuniga singdirishga erishiladi.

3. Badiiy (san'at) yo'nalishi (Artistic). Bu yo'nalish orqali o'qituvchilarning "intrasektiv" (o'z'lari va o'z ongi bilan bog'liq) ekanligi tavsiflanib, badiiy vositalar (asosan so'z ta'siri, ifodalsh, verbal va noverbal ta'sir) yordamida o'z-o'zini ifoda etishga va shu orqali ta'lim oluvchilarning aql-zakovatini o'sishiga, ijobiy munosabatlar shakllanishiga ta'sir qilish qobiliyatini tavsiflaydi.

4. Ijtimoiy yo'nalish (Social). Bu yo'nalish o'qituvchilarning jamiyat hayotida o'zlarini ijtimoiy jihatdan mas'ul ekanligini va ijtimoiy munosabatlarda faolligini tavsif etadi. Ularda ijtimoiy va verbal ko'nikmalar yuqori rivojlangan bo'lib, intellektual, emotsiyalar, ijtimoiy vaziyatlar va muammolarni hal qilishga moyilligi kuchli bo'ladi hamda ularda pedagogik, psixologik va jamoatchilik faoliyatiga ma'sullik ustuvor bo'ladi.

5. Tashkilotchilik yo'nalishi (Enterprising). Bu yo'nalish o'qituvchi shaxsiyatida rahbarlik xususiyatlari mavjudligini ifodalab, ularda muloqot qilish kompetensiyasi va pedagogik ta'sir qilishdan zavqlanish xarakteri yuqori

ekanligini ko'rsatadi. O'qituvchi uzoq vaqt davom etadigan va intellekt bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni bajonidil amalga oshiradi.

6. An'anaviy yo'nalish (Conventional). Bu yo'nalish o'qituvchi faoliyatini qat'iy tizimlashgan, ma'suliyatli vazifalar ijrochisi ekanligi (o'quvchi, ota-ona uchun ishonchli suhbatdosh) va umume'tirof etilgan me'yor, talab-qoidalarni amal qilish an'anasiga sodiqligi hamda bu pedagogik burchi ekanligi ko'rsatib o'tadi.

Bo'lg'usi o'qituvchilarda individual-kasbiy rivojlantirishda RIASEC modelini ahamiyati shundaki, ularning shaxsiyati, kasbiy qiziqishlari, shakllangan pedagogik qadriyatlar tizimiga asosan berilgan 6 ta yo'nalishdan qaysi qay darajada rivojlanayotganini belgilab beradi. Bu esa bo'lg'usi o'qituvchilar uchun pedagogik-psixologik kontseptsiyalar ishlab chiqishda muhim ma'lumotlar vazifasini bajaradi. Bo'lg'usi o'qituvchilarda individual-kasbiy rivojlantirishda ularning yosh xususiyatlari (16-30 yosh oralig'ida) hisobga olib, ularni ijtimoiy-demografik guruh sifatida qarash lozim bo'ladi. Bu guruh o'ziga xos psixologik jismoniy xususiyatlari, ijtimoiy mexanizmi, hayotga kirib borishi bilan bog'liq alohida faoliyatni olib borsa, boshqa tomondan, submadaniyat, jamiyat ijtimoiy tabaqalanishiga bog'liq ichki differentsiatsiyalash jarayonlari bilan tavsiflanadi.

Individual-kasbiy rivojlanish sotsiologiyadagi avlodlar almashinuvi nazariyasi bilan uzviylikda amalga oshiriladi. Avlodlar almashinuvi nazariyasi hozirgi avlodlar xulqi, faoliyati maqsadlarini belgilashni, hayotiy ustuvorliklarini belgilash kabilarini o'zida ifoda etadi [6].

Umuman olganda, individual kasbiy rivojlanish va uning jihatlari bir-biriga ta'sir qiluvchi va shakllantiradigan turli xil ilmiy, ta'lim, tarixiy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu jihatlarni har tomonlama tushunish samarali ta'lim va rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, shaxsiy va kasbiy o'sishni rag'batlantirish uchun juda muhimdir.

Individual kasbiy rivojlanish pedagogik qobiliyat va kasbiy motivatsiya bilan uzviy tarzda amalga oshiriladi hamda bir-birini to'ldirib boradi. Pedagogik qobiliyat – pedagogning pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini, shuningdek, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqara olishini ifodalovchi qobiliyat [1].

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi kunda bo'lajak o'qituvchilarning individual kasbiy rivojlanishini xorijiy til bilimlarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mobilligi aynan xorijiy til vosiatisida

samarali hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tildan ta'lim olish jarayonida kasbiy mobillikka tayyorlikni rivojlantirish uchun bir qator pedagogik shart-sharoitlarni yaratish kasbiy mobillikka tayyorlikni rivojlantirish darajalarining samarali o'sish dinamikasi mumkinligini ko'rsatadi.

Pedagogik ta'limda ta'limiy mazmun, o'quv vaziyatlaridan, auditoriyadagi holatdan kelib chiqqan holda, auditoriyada talabalarni rivojlantiruvchi muhitni shakllantirish professor-o'qituvchining maqsadi bo'lishi lozim. Bu talabalarining individual kasbiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Talabalarni individual kasbiy rivojlantiruvchi muhit quyidagi jihatlardan tavsif etiladi:

talabalarga kasbiy-pedagogik faoliyatga undovchi motivatsiya berish;

talabalarni mustaqil fikrlash, o'rganish faoliyatiga undash orqali tushuncha, tasavvur va ko'nikmalarni shakllantirish;

kerakli ma'lumotlarni qidirish, pedagogik tushunchalarni amaliyotga tatbiq etish;

kasbiy faoliyat maqsadini anglash va natijaga ma'suliyat bilan yondashish;

talabalarni "to'liq faoliyat"ni amalga oshirishga undash (g'oya shakllantirish, rejalashtirish, amalga oshirish, baholash, muammolarni aniqlash, vazifalarni taqsimlash va h.k.);

talabalarni turli xil shakldagi munozaralardagi ishtirokini ta'minlash.

talabalarda pedagogik fikrlash tarzini tizimlashtirishga yo'naltirish;

baholash tizimi orqali talabalar o'z bo'lg'usi natijalarini takomillashtirish, o'z darajalariga va natijalariga baho berib, ularni yanada takomillashuviga erishish.

**Muhokama.** Pedagogik oliy ta'limda rivojlantiruvchi muhitni shakllantirish orqali individual kasb etib, har bir talabaning individual rivojlanishini ta'minlaydi. Individual kasbiy rivojlanish va kasbiy identitelikni rivojlantirishda professor-o'qituvchilar rivojlantiruvchi ta'lim muhitida quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi:

mustaqil ravishda biror g'oyani, loyihani amalga oshirmoqchi bo'lgan talabalarni qo'llab-quvvatlaydi;

qo'yilgan maqsadga yetmoqchi bo'lgan talabalar yutuqlarini taqdim etish va ularning yutuqlari bilan qiziqish;

aniq qo'yilgan, mukammal lekin amalga oshirilishi mumkin bo'lgan maqsadlarga undash;

atrofdagilarning qarashlariga nisbatan o'z qarashlarini ifodalashga o'rgatish;

pedagogik, futurologik fikrlash usullariga undash; talabalarni turli xil rivojlantiruvchi faoliyatga o'rgatib borish;

turli motivatsiya shakllarini yaratish va talabalar o'rganish faoliyatini yanada faollashtirish;

shaxsiy tasavvurlari asosida yangi faoliyat sharoitlarini yaratish;

muammolarni hal qilishda shijoat ko'rsatishini rag'batlantirish, xato qilishdan qo'rqqanlikka o'rgatish;

savol berishga va o'z mustaqil fikrini bayon qilishga o'rgatish;

o'zgalarni tinglash, ular fikrini tushunish lekin ular bilan kelishuvchanlik qoidasiga amal qilish;

qiziqishi va qobiliyati yuqori va o'zgacha bo'lgan talabalarni tushunishga o'rgatish;

talabalarga ish natijalarining baholarini to'liq tushunarli yetkazib berish;

o'z faoliyatini va uning natijalarini aniq manbalar asosida o'zini-o'zi baholashga o'rgatish;

agar talabalar xato qilsalar ularni qo'llab-quvvatlash va xatolarini tuzatishlariga yordam berish;

talabalarga "Bilmayman", "Bajara olmayman", "Tushuna olmayman" tushunchalari noqulaylik keltirmasligi,

aksincha bular o'rganish uchun imkoniyat ekanligini tushuntirish;

talabalar o'z tengdoshlari bilan muhokama qilinyotgan mavzu va muammolarni, o'z fikri va kechinmalarini o'rtoqlashishlari yoki fikr almashishlariga imkoniyat yaratish;

yakuniy va ijobiy natijalarga erishish uchun talabalarga mas'uliyatni o'z zimmlariga olishga o'rgatish.

**Xulosa.** Xulosa qilish mumkinki, o'quv amaliyotiga talabalarining avtonomiyasi, kompetensiyasi, ijtimoiy integratsiyasi, ichki motivatsiyasi, o'zini o'zi boshqarishi, tengdoshlarining o'zaro ta'sirini rag'batlantiradigan usullar va shart-sharoitlarni yaratish orqali bo'lajak o'qituvchilar individual kasbiy rivojlanishini barqaror ravishda oshirish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik/ -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - B.28 (80).
2. Bandura A., Richard H. Walters. Social learning theory. Vol. 1. Prentice Hall: Englewood cliffs, 1977. - P. 426.
3. Huitt W., Hummel J. Piaget's theory of cognitive development". Educational psychology interactive 3.2, 2003. - P. 45-60.
4. Nicolopoulou A. Play, cognitive development, and the social world: Piaget, Vygotsky, and beyond. Human development 36.1, 1993. - P. 1-23.
5. Mayr, J. Empirical findings on the teacher training course. In: Education and Teaching 1-2/2009. - P. 18.
6. Christian E.W. Kremser. The Misery of Historicism Today: The Generational Theory of William Strauss and Neil Howe. Brill publishing house, 2019. - 179-205-p.





UDK: 130.1

*Raushana KURBANIAZOVA,*  
TTA Urganch filiali dotsenti, PhD  
E-mail: r.kurbaniyazova57@mail.ru

Ur.DU kafedra mudiri f.f.d., prof. M.S.Xajieva taqrizi asosida

### MILLIY MENTALITET VA MILLIY XARAKTERNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Аннотация

Ushbu maqolada milliy mentalitet va milliy xarakterning o‘zaro bog‘liqligi masalasi yoritilgan. Har bir xalqning bir-biridan farq qiladigan mentaliteti va xarakter xislatlari, ularning tafakkur tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi, tarixiy taraqqiyoti va yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Millatlarning o‘ziga xos qadriyat yo‘nalishlari, tafakkur tarzi va milliy xakteri mentalitetning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar.** Mentalitet, milliy mentalitet, xarakter, temperament, tabiiy omillar, ijtimoiy omillar, ijobiy xislatlar, salbiy xislatlar.

### ВЗАИМОСВЯЗЬ НАЦИОНАЛЬНОГО МЕНТАЛИТЕТА И НАЦИОНАЛЬНОГО ХАРАКТЕРА

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос взаимозависимости национального менталитета и национального характера. Разные черты менталитета и характера каждого народа определяются его образом мышления, социально-экономическим опытом, историческим развитием и условиями жизни. Индивидуальные ценности, образ мышления и национальный характер наций являются составляющими менталитета.

**Ключевые слова:** Менталитет, национальный менталитет, характер, темперамент, природные факторы, социальные факторы, положительные черты, отрицательные черты.

### INTERDEPENDENCE OF NATIONAL MENTALITY AND NATIONAL CHARACTER

Annotation

This article examines the issue of interdependence of national mentality and national character. The different mentality and character traits of each nation are determined by its way of thinking, socio-economic experience, historical development and living conditions. Individual values, ways of thinking and the national character of nations are components of mentality.

**Key words:** Mentality, national mentality, character, temperament, natural factors, social factors, positive traits, negative traits.

**Kirish.** Mamlakatimizda istiqloq yillarida millat va uning o‘ziga xos jihatlari ifoda etuvchi milliy til, milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlar va milliy tarixni o‘rganish hamda undan jamoatchilikni xabardor qilish borasida ma’lum muvaffaqiyatlarga erishildi. Yangilanayotgan davr xalqimizning milliy mentalitetini faollashtirish, ularning tafakkuri, siyosiy saviyasini demokratik o‘zgarishlar sur‘atlari bilan moslashtirib borishni talab etadi.

Millatlarning o‘ziga xos qadriyat yo‘nalishlari, tafakkur tarzi va milliy xakteri mentalitetning tarkibiy qismlari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek “...bizning eng asosiy yutug‘imiz – ko‘p millatli xalqimizning vujudga kelayotgan qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga beparvo bo‘lmasdan, aksincha daxldorlik tuyg‘usi bilan yashayotganidir” [1].

Dunyo ilm-fanida millatlarning o‘ziga xosliklarini ifoda etuvchi milliy mentalitet va milliy xarakterni tadqiq etish, uning falsafiy jihatlari o‘rganish bo‘yicha muhim ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Shu bois milliy mentalitet va milliy xarakterning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya. Har bir millat vakillarining voqelikni o‘ziga xos idrok etishi, fikrlashi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar natijasida shakllanib, ular urf-odat, an‘ana, xarakter tarzida namoyon bo‘ladi va millat mentalitetini tashkil etadi. Mentalitet tushunchasini turli ijtimoiy guruhlarning qiyosiy kategoriyasi sifatida birinchi

bo‘lib frantsuz faylasufi va antropologi L.Levi-Bryull 1922 yilda yozgan “Ibtidoiy mentalitet” asarida asoslab bergan. Bu kategoriya orqali u ibtidoiy va zamonaviy inson tafakkuri o‘rtasidagi farqni tavsifladi. Levi-Bryull, muayyan turdagi jamiyat o‘z institutlari va axloqiga ega bo‘lib, o‘z tafakkuriga ega bo‘lishi muqarrar [2]– deb yozadi.

Mentalitet milliy xarakterda namoyon bo‘ladi. Qadimgi yunon faylasufi Teofrast (mil.avv. IV asr oxiri – III asrning birinchi yarmida yashagan) jamiyat tarixida ilk bor xarakterning o‘ziga xos xususiyatlarini tizimlashtirishga harakat qilgan. U “Axloqiy xarakterlar” nomli asarida xarakterning o‘ttiz xil tipologiyasini ko‘rsatib o‘tgan [6].

Ingliz faylasufi D.Yum “Milliy xarakter haqida” asarida har bir millatning o‘ziga xos psixologiyasi va xarakterini ochib berishga harakat qilgan. Milliy xarakter shakllanishining asosiy omillarini tabiiy va ijtimoiy (axloqiy) turlarga bo‘lib tushuntiradi. Milliy xarakterning umumiy xususiyatlarini kasbiy faoliyatdagi muloqot asosida shakllanishi, iqtisodiy manfaatlar nafaqat ijtimoiy va kasbiy guruhlarni, balki xalqning alohida qismlarini ham birlashtirishini ta’kidlagan. Turli davlatlar xalqlar mentaliteti xususiyatlari va xarakteridagi ijobiy va salbiy xislatlarni tahlil etgan. U professional guruhlarning xakteri va odamlarning milliy xakteri o‘rtasidagi dialektikani ishlab chiqdi [5].

I.Kantning fikricha inson ikki xil dunyoga tegishli mavjudotdir: birinchidan tabiat olamiga tegishli bo‘lib, tabiiy zaruratga bo‘ysunadi; ikkinchidan erkinlik olamiga – u yerda axloqiy o‘zini o‘zi belgilaydigan mavjudot sifatida harakat qiladi. Birinchisi temperament bilan bog‘liq bo‘lsa, faqat

ikkinchisi aql, axloqiy va amaliy tamoyillardan kelib chiqadigan uning xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi [4].

XIX asrning ikkinchi yarmida M.Latsarus (1824-1903) va X.Shteyntal' (1823-1899) fanda yangi yo'nalish – xalqlar psixologiyasi kontsepsiyasini ta'riflab berganlar. Keyinchalik bu kontsepsiya eksperimental psixologiya asoschisi V.Vundt (1832-1920) tomonidan rivojlantirilgan. U “xalq ruhi” degan nomuayyan va ancha abstrakt tushunchadan voz kechgan va inson ruhiyatining teran qatlamlarini uning til, miqlar odatlardagi ifodalari o'rganish yo'li bilan aniqlash vazifasini qo'ygan [3]. V.Vundt fikricha, til, mif va urf-odatlar ijodiy milliy ruhning har qanday bo'lagi emas, balki “xalqning o'z ruhi”dir. Shu bilan birga, u umumiy xalq ruhi avvalo, milliy ongda namoyon bo'lishini, ya'ni ularning mentaliteti va xarakterida ifodalanishini ta'kidladi.

A. Ful'e (1838-1912) o'z qarashlarida milliy xarakter vujudga kelish jarayonida biologik irsiyatga, irqiy xususiyatlarga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga tabiiy iqlim omillari, mamlakatning geografik o'rni, madaniyat, avlodlardan-avlodga o'tib kelayotgan jamoaviy tarixiy tajriba, o'timshdagi yirik voqealar haqidagi xotiralar ham muhokama qilingan. U milliy xarakterning xususiyatini iroda va temperamentga bog'lab tushuntiradi va har bir millatda nafaqat individual farqlar, balki viloyat va mahalliy farqlar ham mavjudligini ham aytib o'tgan. “Milliy xarakterda sezgirlik, aql va irodani farqlash lozim. Sezuvchanlik, fiziologik sabablar bilan izohlansa, asosan irsiy tuzilish temperamentga bog'liq. Bu guruhlari va shaxslar hayotida katta rol o'ynaydi.

Temperament asosan zavqlanish yoki azoblanish yo'liga hamda harakatlarda his-tuyg'u va istaklarning ifodalanishiga ta'sir qiladi; xarakter asosan istakning o'ziga va irodaning yo'nalishiga ta'sir qiladi” [7].

Ful'e o'z qarashlarida ovqatning o'zi xalqlarning temperamentiga, ularning xarakteriga bevosita ta'sir qilishiga ham e'tibor qaratgan. Pifagorning so'zlariga ko'ra, deb yozadi Ful'e, go'shtli oziq-ovqatning ko'pligi odamlarda qattiqqo'llik va dag'allikni keltirib chiqaradi, o'simlik mevalari va sabzavotlarni iste'mol qilish esa tana faoliyatini sustlashtiradi va odamlar tabiatini muloyimlashtirishi mumkin.

Keyingi paytlarda olimlar tomonidan bu kuzatuvlar tasdiqlangan. Go'shtni ko'p iste'mol qilgan qadimgi varvarlar va qizil terilar (tanlilar) jangovar va tadbirkor bo'lganlar; hindlar, misrliklar va xitoyliklar kabi meva va donni iste'mol qiladigan xalqlar tabiatan xarakterlari barqaror bo'lgan [7].

A.Mamanov jamiyatda milliy mentalitet va ijtimoiy xarakterning shakllanishi ishlab chiqarish usulidan paydo bo'lgan degan fikrni asoslashga harakat qilgan va shu orqali Sharq xalqlari va G'arb xalqlari mentaliteti va ijtimoiy xarakteri o'rtasidagi tafovutlarni qiyosiy o'rgangan.

“Har bir xalq yashaydigan hududning iqlim va geografik shart-sharoitlari o'ziga xos moddiy ishlab chiqarish usulini vujudga keltiradi. Masalan, Sharqqa xos bo'lgan quruq va issiq iqlim dehqonchilikni sun'iy sug'orish asosida olib borishni jalb etgani holda, G'arbgacha xos bo'lgan sernam va mo'tadil iqlim lalmikor dehqonchilik uchun sharoit yaratadi.

Bizning taraqqiyot yo'limiz va uning tarkibiy qismi bo'lgan mentalitetimiz ijtimoiy xarakterimizning o'ziga xosligi ham sug'orma dehqonchilikning o'ziga xos talab va ehtiyojlari tufayli kelib chiqadi. Sharq (o'zbek) ijtimoiy xarakterining eng ko'zga ko'rinarli jihatlari jamoaviylik, andisha, murosasozlik, o'zidan yosh va mansab jihatidan kattalar oldida hurmat va itoatkorlik, o'zaro munosabatlarda huquqdan ko'ra axloq, an'analarning kengroq va muhimroq o'rin tutishi – mazmunan va mohiyatan G'arb ijtimoiy axloqiga teskaridir [11].

A.Ashirov va Sh.Atadjanovlar xalqimizning milliy mentaliteti va xarakter xususiyatlarini tekislik va cho'llardan iborat keskin kontinental iqlim sharoitlariga bog'lab tushuntirishga e'tibor qaratganlar. “Mamlakatimizning asosan

tekislik va cho'llardan iborat keskin kontinental iqlimli, geografik hududda joylashganligi, qahraton qish jazirama issiq, yoz bilan almashinishi, bahor va kuzning shiddat bilan kelishi va ketishi xalqimizning fe'l-atvorida aniqlik va lo'ndalikni, to'porilik va qaynoq mehri, qattiqqo'llik va intizomni tarkib toptirgan.

O'zbeklarning asosiy ildizi turkiylardan boshlanganligiga (turkiylarga xos jangovarlik, mardlik, lafz haloligi) bag'rikenglik, saxovatpeshalik, hojatbarorlik kabi xislatlarda o'zining yorqin ifodasini topgan” [8].

Professor M.Quronov millat xarakteriga – milliy quvvatni paydo qiluvchi, saqlovchi, milliy davlat taraqqiyotiga yo'naltiruvchi ma'naviy manba sifatidagi roliga ahamiyat qaratib, o'zbek xarakteri shakllanishini milliy tarbiya jarayonlari bilan bog'lab tahlil etganlar. Milliy tarbiya dasturida milliy xarakterning tarkib topish jarayonini quyidagi ketma-ketlikda ifodalaydi: milliy – g'oya – milliy mafkura – milliy tarbiya – milliy xarakter – milliy taraqqiyot [13].

Professor M.Bekmurodov: mustaqillik yillarida xalqimiz tabiati, fe'l-atvori, turmush tarzida qonunlarga itoat, amaldagi tartib-qoidalarga hurmat qadriyati tarkib topganligi, hayotga ratsional, aql-ko'zi bilan qarash, har bir ishda me'yorga rioya qilish, o'zini hayotda qadrlay bilish kabi ijobiy fazilatlarining tarkib topayotganligi haqida yozadi [10].

Tahlil va natijalar. Mentalitet tushunchasiga berilgan turli ta'riflar mavjud.

O'zbek falsafa qomusiy lug'atida mentalitet (lot. mens – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllanadigan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati [16] deb ta'rif berilgan.

Professor M.Bekmurodov: “Mentalitet millatlarning aqliy intellektual imkoniyatlari va ruhiy o'ziga xosliklarni qamrab oladi. Xarakterdagi o'ziga xosliklarning negizini esa shu xalqning tarixiy tajribalari, urf-odatlari, marosim va ma'rakalarining yaxlit tizimi tashkil etadi” [9], – deb ta'rif berganlar.

Muallif fikricha, mentalitet u yoki bu jamiyatning bir madaniyatga mansub bo'lgan kishilarida ularga o'z tabiiy va ijtimoiy muhiti hamda o'z-o'zini o'ziga xos tarzda idrok etish va anglab yetish imkoniyatini beradigan muayyan “aqliy vosita”, “ruhiy dastak” mavjudligini anglatadi [14].

Xarakter muammosi mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida XX asrning birinchi yarmida nemis psixologiyasida tadqiq qilina boshlangan.

“Xarakter (yunoncha karakter – belgi, ajratuvchi, sifat, xislat) – ijtimoiy muhitda tarkib topadigan, shaxsning tevarak-atrofdagi voqelikda va o'ziga o'zi munosabatlarida ifodalanadigan, uning muayyan vaziyatlarda hamda sharoitlarda namoyon bo'luvchi xatti-harakatlarini belgilab beradigan barqaror, turg'un ruhiy xususiyatlarining majmuasi” [16].

M.Mamatov talqiniga ko'ra, xarakter deb shaxsda ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiya tarbiya ta'sirida tarkib topib, uning xatti-harakatlari va xulq-atvorida namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlarga aytiladi [12].

B.E.Toshboev ilmiy-tadqiqot ishida “milliy xarakter – millat bosib o'tgan uzoq tarixiy tajriba, uni o'rab turgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy muhit ta'sirida shakllangan, millatning qalbi, ruhiga singgan va uning mentalitetini, tafakkur tarzini, o'ziga xosligini, urf-odatini, did va orzularini ifoda etuvchi va zamon ruhiga hamohang takomillashib boruvchi tipik xususiyatlar majmuasidir” [15], – deb ta'rif bergan.

Ilmiy adabiyotlarda milliy xarakterdagi ijtimoiy va biologik munosabatlarni tushuntirishda ikki xil nuqtai nazarni kuzatish mumkin. Birinchisiga ko'ra, milliy xarakter ajdodlardan meros bo'lib o'tmaydi, balki tarbiya jarayonida

orttiriladi, ikkinchisiga ko'ra, milliy xarakterning asosini millatning psixofiziologik xususiyatlari tashkil etadi, uning genofondi bilan belgilanadi.

Har bir xalqning bir-biridan farq qiladigan xarakter xislatlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi, tarixiy taraqqiyoti va yashash sharoitlari bilan belgilanadi.

Mentalitet va milliy xarakter o'rtasidagi farq shundaki, milliy xarakter mentalitetning tarkibiy qismi bo'lib, hayotning umumiy psixofiziologik xususiyatlarini (millat tomonidan qabul qilingan qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi) o'z ichiga oladi. "Mentalitet" tushunchasi mazmunan "milliy xarakter" tushunchasiga qaraganda ancha kengroqdir.

Milliy xarakter mentalitetning tarkibiy qismidir, chunki umuman xarakter inson ruhiyatining bir qismidir. Mentalitet xarakter xususiyatlaridan tashqari, mentalitet tashuvchisining motivatsion, kognitiv-intellektual, pertseptiv, ratsional, hissiy xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Ruhiy olamning kechishi, uning mazmuni, shakli, ko'lam, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shuning uchun insonlar tabiat hodisalari, ijtimoiy turmush voqealari omillariga, ta'sir kuchlariga tez yoki sekin, yengil yoki vazminlik bilan javob qaytarishga moyildirlar.

Professor M.Quronov o'zining "O'zbek xarakteri va milliy tarbiya" asarida o'zbek xarakteriga xos bo'lgan ijobiy va salbiy sifatlarini quyidagi turlarga bo'lib ko'rsatadi. Jamiyat yuksalishini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan ijobiy sifatlar sifatida: ruhan uyg'oqlik, bilimdonlik, o'zini millat ishiga tikkanlik, ona tiliga fidoyilik, so'z va ish birligi, qat'yatlilik, uquvllilik, xushyorlilik, ishbilarmonlik, vaqtini qadrlay bilish, intizomlilik, mas'uliyatlilik, o'z ustida doimo

ishlash, vatanparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, burchga sadoqat, fuqarolik mas'uliyati, vatan uchun o'z farog'atidan kecha olish kabi jihatlarni sanab o'tganlar.

Hozir biz qutulishimiz kerak bo'lgan eng muhim salbiy sifatarga esa: beparvolik, beg'amlik, mahalliychilik, hech kim bilan munosabatni buzmaslikka intilish, loqaydlik, islohotlar mohiyatini bilmaslik, dunyoqarashning torligi, jur'atsizlik, eskicha fikrlash, shaxsiy sadoqat ustuvorligi, so'z va ish orasidagi tafovut, hafsalasizlik kabi jihatlarni ko'rsatib o'tganlar [13].

Xulosa va takliflar. Jamiyat hayotining o'zgarishi mentalitet o'zgarishlariga va u orqali kishilarning qarashlari va g'oyalari rivojlanib borishiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa xarakter xususiyatlarida ham o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Milliy o'ziga xoslik eng avvalo, millat mentalitetining jamoaviy ongsiz, xulq-atvor stereotiplarini saqlab qolgan holda, millatning o'ziga xosligini tartibga soladi va mustahkamlaydi.

Milliy mentalitet va milliy xarakter shaxsning milliy o'z-o'zini anglashni shakllantirishda faol ishtirok etadi, chunki u insonning voqelikni idrok etish va xatti-harakatlarining asosini tashkil qiladi, bunda shaxslar voqelikni etnomilliy modeliga kiritilgan o'zlikni anglash shakllari orqali quradilar.

Milliy mentalitet va milliy xarakter negizini inson faoliyatining umumlashgan mo'ljallari va faoliyat dasturlari tashkil etadi. Shu tariqa mentalitet shaxslarning intellektual faoliyatini oqilona tartibga solish omiliga aylanadi.

Milliy mentalitet va milliy xarakterning o'zaro bog'liqligi millatning zamonaviy ijtimoiy jarayondagi o'rni, uning shaxsni tarbiyalash, ijtimoiy aloqalarni tartibga solish, jamiyat integratsiyasidagi imkoniyatlarini ochib beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.. Миллий тараққиёт йўлимизни қағъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. –Б.46.
2. Люсьен Леви-Брюлл .“Первобытное мышление”. М., 1930.
3. Вундт В. Проблемы психологии народов. – Москва: Космос, 1912. –С.26.
4. Кант И. О характере как образе мыслей .Сочинения Том.6. –Москва, "Мысль", 1966.
5. Юм Д. О национальных характерах. Сочинения в двух томах. Том 2. Москва, "Мысль", 1996. – С. 605-621.
6. Теофраст. Характеры. //https://coollib.com/b/545760-teofrast-harakteri /readhttps://vk.com/album-26136450\_154516649
7. Фулье А. Психологии французского народа. Издательство Ф. Павленкова, СПб., 1899. - С.- 9-10 ; 17-18.
8. Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. –Тошкент: "Иқтисод-молия", 2008. –Б. 136-137.
9. Бекмуродов М. Ўзбек менталитети хусусиятлари. // Ижтимоий фикр. 1998. №1. –Б.98.
10. Бекмуродов М. Ўзбек менталитети. –Тошкент, "Info Capital Group ", 2011.
11. Маманов А. Миллий менталитет: хусусиятлар ва омиллар. – Самарқанд: "Zarafshon", 2015. –Б.7-8.
12. Маматов М. Инсон характери ва унинг шаклланиши. –Тошкент: Ўзбекистон, 1983. –Б.6.
13. Куронов М. Ўзбек характери ва миллий тарбия. – Тошкент: "Маънавият", 2005. – Б.24; 22-23.
14. Курбаниязова Р.К. Жамият ўзгаришларининг ижтимоий менталитетга таъсири". – Тошкент: "Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi", 2022. – Б.17.
15. Тошбоев Б.Э. Миллий характер шаклланиши ва такомиллашувининг ижтимоий-фалсафий масалалари. Фалс.фан.бўйича фалс.доктори (PhD) дисс.автореферати.СамДУ. – Самарқанд, 2018. –Б. 11.
16. Фалсафа комусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.257; 440.



УДК: 15.7:102.5:140.4 (040)

**Muattar KODIROVA,**  
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti  
E-mail:muatka.1992@gmail.com

Qarshi davlat universiteti dotsenti, PhD Z.Boymurodov taqrizi asosida

### ABDULQODIR GIYLONIY TA'LIMOTIDA SHAXS MA'NAVIY QIYOFASI TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishida tasavvufning mumtoz ta'limotlaridan bo'lgan qodiriya tariqatining asoschisi Abdulqodir Giyloniyning qarashlari tahlil etilgan. Mutasavvif qalamiga mansub manbalarga tayangan holda kerakli xulosalar qilingan.

**Kalit so'zlar:** Mashg'ullik ila forig'lik, ijtimoiy faollik, kasbiy menejer, kasb, hunar, bekorchilik, dangasalik, faqir, miskin, mehnatsevarlik.

### INTERPRETATION OF THE SPIRITUAL IMAGE OF THE INDIVIDUAL IN THE TEACHINGS OF ABDULKADIR GAYLANI

Annotation

This article explores the views of the founder of Qadiriyya, one of the classical Sufi teachings, on the formation of a person's spiritual character. The conclusions are drawn from primary sources authored by the mystic.

**Key words:** leisure with occupation, social activity, professional manager, profession, craft, idleness, laziness, poor, hardworking.

### ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДУХОВНОГО ОБЛИКА ЛИЧНОСТИ В УЧЕНИИ АБДУЛКАДИРА ГАЙЛАНИ

Аннотация

В данной статье анализируются взгляды основателя Кадирийи, одного из классических учений суфизма, на формирование духовного образа человека. Необходимые выводы были сделаны на основе источников, принадлежащих перу мистика.

**Ключевые слова:** досуг с занятием, общественная деятельность, профессиональный управленец, профессия, ремесло, праздность, лень, бедный, трудолюбивый.

**Kirish.** Tasavvuf – insonni kamolotga yetkazuvchi mumtoz ta'limotdir. Uning markaziy mavzularidan biri inson axloqiy kamoloti va ma'naviy yetuklik masalasidir. Tasavvuf tarixida qodiriya ta'limotining asoschisi sifatida tanilgan Abdulqodir Giyloni (1079-1165yy.)ning bu boradagi qarashlari o'ziga xos bo'lib, bugungi kunning dolzarb mavzularidan bo'lgan shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natijalar. Giyloni o'zining Alkunyali tolibi tariqil Haqq asarida kamolotga yetkazuvchi o'n xislatni ta'riflar ekan "Boshqalarga yuk bo'lmaslik" fazilati mehnatsevarlik, faollik sifatlarini keltirib chiqaradi – deydi. Ushbu fazilatni kasb-hunar egallash sifati bilan to'ldirib o'zining Rabboniylikni anglash asarida "Dining bilan emas, kasbing bilan hayot kechir. Kasb-hunar o'rganib, uni boshqalarga ham o'rgat. Mo'minlarning kasb qilmog'i, siddiqlik martabasidir. Faqat faqirlar va miskinlar foydalanishini ta'minlaydigan, insonlarga nisbatan rahmatni vasila qiladigan va Alloh taoloning roziligini talab qiladigan kasb – hunarlar uchungina nasiba bordir"[1] – deb ta'kidlaydi Giyloni. U "Rabboniylikni anglash va rahmoniy fayzni qozonish" asarida bu masalaga maxsus e'tibor bergan. Kasb-hunar bilan mashg'ul bo'l, ilm egallash bilan mashg'ul bo'l, ilmingni amalga oshirish bilan mashg'ul bo'l deb ta'kidlagan. Lekin shu mashg'ullikni forig' bo'lib, ya'ni ixlos bilan, xolis, Alloh yodi bilan mashg'ul bo'lib amalga oshirish lozim deb aytgan. Ta'kidlash joizki bu o'rinda falsafaning inkorni inkori hosil bo'lmoqda. Bekorchilik, dangasalik, birovga ta'ma qilishni mashg'ullik inkor etsa, mashg'ullikning o'zini Xudo yodi bilan forig' bo'lish inkor etib, "Mashg'ullik ila forig'lik" degan go'zal bir axloqiy fazilat vujudga kelmoqda.

Darhaqiqat, din kun kechirishga vosita bo'lmasligi kerak. Zero, islom dini riyokorlikni, ta'magirikni qoralaydi. Kasb – hunar bilan kun kechirish qodiriya tariqatida "mashg'ullik ila forig'lik" shioriga asoslangandir. Shu sababli qodiriya suluki ahli dehqon, bog'bon, chorvador va hunarmand bo'lgan Turkiston xalqlari uchun eng maqbul yo'l bo'lib, g'oyat qadrlanar edi.

Mashg'ullik ila forig'likning ma'nosi:

ochko'zlik va xudbinlikdan butkul yiroq bo'lishdir;

o'zi yaratgan moddiy-ma'naviy boylikdan o'zgalar

ham bahramand bo'layotganidan sevinib, faxrlanib yashashdir;

ko'pchilik uchun fidoyilik va buning evaziga ahli dunyoni xursand qilib, Alloh taolodan ajr-savob kutishdir;

ko'pga bersin, ko'p qatorida menga ham bersin, deya duoda bo'lib mehnat qilishdir, "o'z nafsining baxilligidan saqlana olishdir";

tongla rohat istagan ehsondin ayrilmasin, deya o'z vijdoniga murojaat qilib yashashdir.

Bu shiorni Hazrati Bahouddin Naqshband "Dast ba kuru dil ba yor" deya yanada rivojlantirganlar[2].

Shuni aytish o'rinliki, tasavvuf ahli uchun halol luqmaga e'tibor kuchli bo'lgan. Chunki tanaga kiradigan moddiy ne'matlar ma'naviy quvvat hosil qilishi fanda isbotlangan hodisa. Ma'lum va mashhur tariqat ahli vakillari ma'lum hunar bilan mashhur bo'lganlari sabab ularning laqablari ham kasbu korining nomi bilan qo'shib aytilgan. Jumladan, Abu Said G'arroz mahsido'z, shayxulislom Xoja Abdulloh Ansoriy etikdo'z, shayx Muhammad Sakkok pichoqchi, Shayx Abulfayz Haddod temirchi, o'z zamoni qutbi (zamonasining yagona avlyosi, valiyulloh) va g'avsi

(madadkori) hisoblangan shayx Abul Abbas Omiliy hammol, shayx Abulhasan Najjor duradgorlik bilan shug'ullangan, Sayid Amir kulol kasbi kulol, Fariddin Attor attor, Hazrat Bahouddin "kimxobga naqsh bog'lamoqqa" mashhur bo'lganliklari sabab Naqshband nomi bilan mashhur bo'lganlar.

Demak, kasb–kor, mehnat inson nomini yuksaklikka yetkazar ekan, qalb Alloh bilan qo'l mehnat bilan band bo'lishi lozimligi bu ta'limotning asosiy mezonidir. "Mashg'ullik ila forig'lik" shiori asosida yashovchanligini davom ettirib kelayotgan qodiriya ta'limotining asosiy mohiyati ham shundandir.

Mashg'ul bo'lib turib Allohga tavakkul qilish qalb farog'atini keltirib chiqaradi.

Tavakkul haqida buyuk so'fiylar juda ko'p bahsmunozara yuritishgan.

1. Siriy as-Sahtiy aytadilar. "Tavakkul – bu kuch va quvvatdan butunlay ajralishdir"

2. Sahl aytadilar: "Tavakkul – bu o'zini Alloh qo'liga topshirishdir".

3. Ibn Masruh aytadilar: "Tavakkul – bu hukmlarda kechayotgan taqdirga tan berishdir".

Sahl aytadilar: "Har bir maqomning yuzi va teskari tomoni bo'ladi, lekin tavakkulda bu narsa yo'q. Unda faqat yuz bo'lib, teskarisi yo'q. Unda bir zotga tavakkul qilish maqsad qilinadi, lekin uning g'amxo'rliqi ko'zlanmaydi, ya'ni bir narsani talab qilib tavakkul qilinmaydi[3]. Demak, "Boshqaga yuk bo'lmaslik" xislati insonga chuqur ta'sir etar ekan uning asosida tavakkul turadi..

Shuningdek inson kamolotining o'ziga xos jihatlari ham mavjud. Masalan, uning iqtisodiy jihatlari iqtisod fanlari doktori Baxtiyor Navro'zzoda o'zlarining ilmiy ishlarida tahlil qilib bergan[4]. Olimning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Iqtisodiy nafilik nuqtai nazaridan barkamol inson bosqichlari quyidagi ko'rinishda bo'lar ekan:

Birinchi bosqichda – ishchi kuchi sifatidagi inson[5]. Bunda ishga layoqatli, xohish – istakli, jismonan sog'lom inson nazarda tutilgan.

Ikkinchi bosqich – aniq mehnat subyekti sifatidagi inson[6;65]. Shaxs o'z mehnati orqali oilasi ehtiyojlarini to'la qondirish layoqatiga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda iqtisodiy komil inson hisoblanadi.

Uchinchi bosqich – tadbirkor sifatidagi inson[7]. Bunda tadbirkor mehnati mahsulotidan, foydasidan nafaqat shaxsiy manfaat, balki jamiyat uchun naf keltiradi. Bunday insonlar iqtisodiy kamol topgan insonlar toifasidandirlar.

To'rtinchi bosqich – menejer sifatidagi inson. Bu bosqichda kishi o'z mehnat va tadbirkorlik qobiliyatlarini uyg'unlashgan holda korporatsiya tizimida ro'yobga chiqaradi. Korporatsiya biznesning eng rivojlangan tashkiliy shakli bo'lib uning o'ziga xos xususiyati – mulk egasidan boshqaruvchilik (menejerlik) vazifalarini ajratilganlikdadir. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida korporatsiyani tashkil qilgan mulkdor, boshqaruv ishining quyi, o'rta va yuqori pog'onalariga menejerlik fazilatlariga ega bo'lgan mutaxassislarini yollaydi. Menejerlik lavozimlarini egallash uchun kishi bozor usulida boshqarish ko'nikma va tajribasiga ega bo'lib, menejment bo'yicha ta'lim olishi kerak. Korporativ menejer sifatidagi kishi aksiyadorlik jamiyatlarida shartnoma asosida menejerlik lavozimini egallab, biznes boshqaruvi faoliyati bilan shug'ullanadi. Mazkur jamiyatning foyda olib ishlashini ta'minlaydi. U kasbiy yollanma menejer sifatida mehnati uchun ish haqi oladi va o'z tadbirkorlik qobiliyatini samarali ro'yobga chiqarganligi uchun aksiyadorlik jamiyat ko'rgan foydadan muayyan foizda ulush oladi. Bu ulush bir oyda yuzlab ming so'mni tashkil qilishi ham mumkin. Natijada kishi farovon turmush ko'rish imkoniyatiga ega bo'lib, iqtisodiy barkamollikka erishadi.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida inson bosqichma-bosqich: dastlab ishlab chiqarishning potensial (ishchi kuchi) va real (aniq mehnat subyekti) shaxsiy omili sifatida, keyin esa xususiy tadbirkorlik kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkor, nihoyatda korporativ tizimida kasbiy menejer sifatida iqtisodiy kamol topadi.

Iqtisodiy yondashuvda aniqlangan inson kamoloti bosqichlari, darajalari va maqomlari bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy barkamol insonni tarbiyalashda muhim nazariy va uslubiy asos sifatida xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

Talqin etganimiz bu xislatlar barkamol insonning shakllanishida asosiy sifatlar bo'lib xizmat qiladi. Ushbu insoniy fazilatlarini egallashimiz, o'rni kelganda yor-birodalarimizdan xafa bo'lmay kechirimli bo'lishimiz, g'azab va fitna-fasodga uchmay halimlik xislatlarini egallashimiz, bizga yomonlikni ravo ko'rgan kimsalarga nisbatan ham dilimizda biror g'araz tuyg'usining bo'lmasligi yoki mudom kamtarlik va xokisorlikka intilishimiz ham hayotimizning baxtli va osuda o'tishiga sabab bo'lar ekan. Zero, o'zbek xalqi o'ta bag'rikeng va kechirimli xalqdir, uning baxti-saodati mudom o'z qo'lida ekan, hech qachon g'azabga berilmaslik, hasad o'tida yonmaslik, yomon bo'lsa ham biz bilan yonmayon yashayotgan qo'shnimiz, birodarimizning fe'ldan kamchilik qidirmay, murosaya-yu madora qilish - yuksak insoniy fazilatlaridandir.

Demak shaxs iqtisodiy barkamolligining asosi sifatida botillik, yalqovlik, ilmiga amal kilmaslik kabi illatlar bartaraf etilishi shaxs ma'naviy qiyofasining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ta'sir etishini anglagan holda o'sib kelayotgan yosh avlodga bu ta'limot mohiyatini kengroq tushuntirishga kirishishimiz kerak, toki kelajak bugundan boshlanadi, ertangi kundan yaxshilik kutsak harakatni bugundan boshlash kerakligini unutmaylik.

Iqtisodiy barkamollikka eriishish uchun avvalo jamiyatda ijtimoiy faollikka intilish zarur. Zero faylasuf olim Q.Nazarovning e'tirofiga ko'ra: "Shu ma'noda, iqtisodiy islohotlarning eng asosiy muvaffaqiyatlari nafaqat moddiy ko'rsatkichlar, balki ma'naviy ko'rsatkichlar, ya'ni insonning ruhi, ma'naviy qiyofasi va o'z faoliyatiga munosabatidagi o'zgarishlarga ham ko'p darajada bog'liq"[8]. Inson faoliyati unumli, aksariyat hollarda amaliydir, lekin unumsiz ham, noamaliy ham bo'lishi mumkin. Moddiy faoliyatni soddalashtirib predmetlar bilan ish ko'rish sifatida, ma'naviy faoliyatni esa – predmetlarning obrazlari bilan ish ko'rish sifatida tasavvur qilish mumkin. Abstrakt mulohaza yuritish orqali moddiy va ma'naviy faoliyatni "sof ko'rinish"da, muayyan qarama-qarshilik sifatida tasavvur qilish mumkin. Ammo ma'naviyatdan xoli bo'lgan moddiy faoliyat behudadir.

E'tirof etish kerakki, Abdulqodir Giyloniy asarlarida ijtimoiy faollik – eng avvalo Mashg'ullik ila forig'lik shiorida namoyon bo'ladi. YA'ni inson mehnat bilan mashg'ul bo'lib turib, qalbida o'zi erishgan moddiy boyliklarga havas uyg'otmasdan yoki qalban bog'lanmasdan, Yaratganning ishq bilan forig'lanish masalasi qo'yilgan. Agar jamiyatda faol inson o'zi qilayotgan mehnati tufayli erishgan martaba, egallagan darajalari va unvonlariga bog'lanib qolmasdan, ma'naviy yetuklikka intilsa, moddiylikka haddan ziyod bog'lanib qolish holati yuz bermaydi. YA'ni haddan ziyod moddiylikka bog'lanish insonni ma'naviy buzilishga olib kelishi mumkin. Yoki moddiy boyliklariga qalban bog'langan inson, masalan tadbirkor bexosdan bankrotga uchrasa buning natijasida yuragi dosh berolmasdan infarkt kasalligiga giriftor bo'lsa oxiri bexos o'lim bilan yakun topishi mumkin ekan.

Bundan tashqari ijtimoiy faollik tushunchasi – bu hushyorlik tushunchasi bilan ham bevosita aloqador tushuncha. Chunki globallashuv davrida atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan xabardorlik

tuyg'usining bo'lishi insoniyatni turli ofatlardan qutqarishi mumkin.

**Xulosa.** Jamiyat hayotida shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishida Abdulqodir Giyloniy ta'limotining o'rni

beqiyos. Ilmiy tadqiqot ishimiz doirasida amalga oshirgan ijtimoiy so'rovnoma natijasida shu xulosaga keldikki bu ta'limotning bunyodkorlik ruhiga yo'g'rilgan g'oyalarni kengroq ijimoiy hayotga tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдулқодир Жийлоний (Ғавсул Аъзам). Раббонийликни англаш ва раҳмоний ғайзни қозониш. Биринчи китоб. Таржимон: Муҳаммадҷон Нуриддин ва бошқалар. Т.: Мовароуннаҳр, 2005. 27- бет.
2. Мансуров Ш., Остонақулов И.. Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар. - Т. Ғафур Ғулом. 1994. 87-бет.
3. Шайх Ал-Қолободий. Тасаввуф сарчашмасино. Т.: 2002. Б-84.
4. Наврўззода Б.. Инсон иқтисодий қамолотидаги босқичлари. Мезонлари ва даражалари. //Бух. Университети илмий ахборотлари. 2004 й. 4 – сон. 63 – 69-бетлар.
5. Ўша жойда.
6. Наврўз-зода Б.. Инсон иқтисодий қамолотидаги босқичлари. Мезонлари ва даражалари. //Бух. Университети илмий ахборотлари. 2004 й. 4 – сон. 65-бет.
7. Ўша жойда.
8. Назаров Қ. Аксиология. – Тошкент: “Академија”, 2011. – Б. 361.



UDK: 372.8

*Shakarjon QO‘CHQAROVA,*  
*Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti*

*PhD, dotsent M.Boltayeva taqrizi asosida*

## APPLICATION OF SPEAKING COMPETENCE DEVELOPMENT PROCESS IN PRIMARY CLASS STUDENTS TO PRACTICAL ACTIVITY

Annotation

This article analyzes the activity of the practical significance of the process of developing speech competence of primary school students. The main requirements of speech competence, including not only grammatical knowledge, but also the ability of students to use language skills effectively, are considered. Also, the speech competences that a primary school student should acquire and the practical importance of their formation are given.

**Key words:** elementary school, student, speech competence, analysis, grammar, language skills, educational process.

## ПРИМЕНЕНИЕ ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ПРАКТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируется деятельностная практическая значимость процесса развития речевой компетентности учащихся начальных классов. Рассмотрены основные требования речевой компетентности, включающие не только грамматические знания, но и способность учащихся эффективно использовать языковые навыки. Также приведены речевые компетенции, которыми должен овладеть учащийся начальных классов, и практическая значимость их формирования.

**Ключевые слова:** начальная школа, ученик, речевая компетентность, анализ, грамматика, языковые навыки, учебный процесс.

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING AMALIY FOLIYATGA TATBIQI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining amaliy ahamiyati faoliyati tahlil qilinadi. Nutq kompetensiyasining asosiy talablari, jumladan, nafaqat grammatik bilim, balki o‘quvchilarda til ko‘nikmalaridan samarali foydalanish qobiliyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi egallashi kerak bo‘lgan nutqiy kompetensiyalar va ularni shakllantirishning amaliy ahamiyati berilgan

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, nutq kompetensiyasi, tahlil, grammatik, til ko‘nikmalari, o‘quv jarayoni.

**Kirish.** Zamonaviy ta‘lim o‘z oldiga ta‘lim jarayonida o‘quvchi shaxsining har tomonlama shakllanishini ta‘minlash, shuningdek, yuqori darajadagi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo‘yadi. O‘quv jarayonida o‘quvchining nutqiy kompetensiyaga ega ekanligi asosiy o‘rin tutadi va o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish ta‘lim jarayonining ajralmas qismiga aylanadi. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini o‘quv faoliyatiga amaliy tatbiq qilish jarayoni tahliliga bag‘ishlangan. Ta‘limda o‘quvchining nutq kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy ta‘lim talablarini hisobga olish kerak. Bu talablar nafaqat malakali va chiroyli gapira olish, balki turli kommunikativ vaziyatlarda, jumladan, raqamli va media muhitda nutq ko‘nikmalaridan samarali foydalana olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Interfaol ta‘lim dasturlari, onlayn resurslar va raqamli vositalardan foydalanish tilni yanada samarali o‘zlashtirishga yordam beradi va o‘quvchilar qiziqishini faollashtiradi. Har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta‘limga tabaqalashtirilgan yondashuvni qo‘llash muhimdir. Bunga turli til darajalariga ega guruhlarini tashkil qilish va qo‘shimcha yordamga muhtoj bo‘lganlar uchun qo‘shimcha darslardan foydalanish kiradi. Og‘zaki kompetensiya bu faqat grammatika va lug‘at bilan chegaralanib qolmaydi. Samarali muloqot ko‘nikmalari; tinglash, o‘z fikrini ifodalash, o‘z nuqtai nazarini bahslash va guruhda ishlash ko‘nikmalarini

shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarda tafakkur rivojlanishi uchun ko‘proq adabiyotlar bilan tanishish zarur deb hisoblaymiz. Matn vositasida o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, obrazli fikrlash badiiy idrok qilish ko‘nikmasining egallanganligi muayyan bosqichlarda amalga oshadi. Agarda matn ustida ishlash jarayoni aniq tizimli tashkil qilinsa, o‘quvchida avvalo, ijodiy fikrlash, muhokama qilish, o‘z fikrini ishonarli nutqiy bayon qilish ko‘nikmasi shakllanadi. “Ijodiy tafakkur – murakkab bilish faoliyatidan biri bo‘lib, tadriziy ravishda, o‘zaro bog‘langan izchil protsesslardan tashkil topadi”[1] o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarning sinflar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak ma‘lum izchillik to‘g‘ri tashkil qilinmaganligi guvohi bo‘lamiz. Ya‘ni nutqiy bayon 4-sinf o‘quvchisi bilan yuqori sinf o‘quvchilarida ma‘lum darajada yuqori kompetentlik ko‘rsatmaydi, chunki ularga qo‘yilgan talab hamda izchillik bir xil.

Zamonaviy ta‘lim o‘qituvchi va metodistlar oldiga mas‘uliyatli vazifani qo‘yadi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq kompetensiyasini samarali rivojlantirishni ta‘minlash. Ta‘limning dastlabki bosqichlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq kompetensiyasini rivojlantirish ularning ijtimoiy va shaxsiy o‘sishi uchun asosdir. Samarali og‘zaki muloqot nafaqat asosiy mahorat, balki turli sohalarda muvaffaqiyatga erishish kalitidir. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bilan bog‘liq maqsad va

vazifalarni o'rganadi, ularning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ta'limning jonli jarayonida har bir dars, faoliyat va o'zaro ta'sir orqali bitta asosiy zina qo'yiladigan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun fikrlarni ifoda etish, his-tuyg'ularni ifodalash va mazmunli suhbatlarda qatnashish qobiliyati sinf doirasidan tashqariga chiqadigan mahoratdir. Ushbu maqola eng yosh o'quvchilar orasida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga xos bo'lgan maqsad va vazifalarni o'rganishga kirishadi. Asosiysi, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdan maqsad o'quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirishdir. Og'zaki so'z kuchli vosita bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga samarali muloqot qilish qobiliyatini oshirish ularning ta'lim jarayoni uchun zamin yaratadi. Nutq kompetensiyasi o'quvchining akademik muvaffaqiyatga erishishining asosidir. Akademik sohadan tashqari, nutq kompetensiyasi ijtimoiy faollik uchun ko'prik hamdir. G'oyalar va his-tuyg'ularni ifodalay olish qobiliyati ijobiy munosabatlarni shakllantiradi, tengdoshlar bilan o'zaro hamkorlikni rag'batlantiradi va maktab jamoasiga tegishlilik tuyg'usini rivojlantiradi. Nutq qobiliyatlarini rivojlantirish tanqidiy fikrlashni tarbiyalash bilan birga kechadi. G'oyalarni og'zaki ifoda etish o'quvchilarni o'z fikrlarini izchil tartibga solishga, ma'lumotlarni tahlil qilishga va mantiqiy dalillarni keltira olishga o'rgatadi – ta'lim olish uchun zaruriy ko'nikmalar. O'quvchilar o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyatini his qilsalar, ular dars jarayonida faol qatnashadilar, o'z fikrlari bilan o'rtoqlashadilar va ishtiyok bilan darsdan tashqari ishlarga qatnashadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining amaliy jarayoni tahlili erta yoshda ta'lim va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish sohasida qo'llaniladigan asosiy tendentsiyalar, usullar va yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi. Har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga oladigan yondashuvlar nutq qobiliyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Ya'ni o'qituvchi ta'lim jarayonini albatta belgilangan, rejalashtirilgan yondoshuv asosida tashkil qilishni talab qiladi. Ushbu yondoshuvda o'z-o'zidan farqlanadigan topshiriqlarni, kichik guruhlarda ishlashni va maxsus rejalashtirilgan o'quv materiallaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy metodlar ta'lim va real hayot o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishga intiladi.

Mavzu: Vatan madhi dillarda (ilmiy-ommabop matn)

Matn mazmun-xususiyatiga ko'ra: Vatan haqida.

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarning to'g'ri, ifodali, ravon o'qish hamda fanga oid va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda Vatanga mehr, faxr tuyg'usini rivojlantirish, Vatanimizning buyuk o'tmishi, ajdodlarimizning Vatan va xalq uchun fidoyiliklari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning matnni tushunish, idrok etish hamda so'z boyligini oshirish, matn tuzish malakasini rivojlantirish va vatan haqidagi dunyoqarashini kengaytirish.

O'quvchilar egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar!

Vatanparvar shaxs qanday bo'lishi?, Vatan himoyachisi qalbida qanday tuyg'ular bo'lishi kerakligi, tug'ilib o'sgan yurti asrab-avaylash muhimligini bilish.

Insonlarda Vatanga muhabbat tushunchasi nima ekanligi, O'zbekiston deb atalgan yurtimizni har qanday sharoitda asrab avaylash, "Mustaqil yurt" tushunchasini o'quvchilar ongiga singdirish.

2 - yo'nalish: tarqatma materiallar asosida (bunda o'qituvchi tomonidan o'rganilgan mavzu yuzasidan so'z ma'nolarini izohlash hamda matn tuzish bilan bog'liq topshiriqlar beriladi).

O'zbek xalqining o'tmishi, yurtimizdagi muqaddas joylar, Xiva, Buxoro, Samarqand shaharlari to'g'risidagi ommabop ma'lumotlarni bilish.

Dars jihozi. O'qish savodxonligi 3-sinf darsligi (1-qism), O'zbekistonni madh etuvchi rasmlar, davlat ramzlari, Vatanparvarlikni aks ettiruvchi videoroliklar, mutafakkirlarning rasmlari, elektron doska, multimediali dasturlarni namoyish qilishga mo'ljallangan vositalar.

Dasr metodi. An'anaviy metodlar (savol-javob, suhbat, hikoya, tushuntirish, ko'rgazmalilik, kuzatish); interfaol metodlar: BBB, Klaster, Aqliy hujum, Sinektika.

Dars turi: yangi bilim berish.

Dars shakli: noan'anaviy.

Dars rejasi:

I. Tashkiliy qism.

II. Uyg'a vazifani so'rash.

III. O'tgan mavzuni mustahkamlash.

IV. Yangi mavzuga tayyorgarlik.

V. Yangi mavzu bayoni.

VI. Yangi mavzu mustahkamlash.

VII. Uyg'a vazifa berish.

VIII. O'quvchilarni baholash.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism. Ushbu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni darsga tayyorlash maqsadida quyidagi yumushlarni amalga oshirishi lozim.

a) navbatchi axboroti tinglanadi

b) yil, oy, sanani so'raydi;

d) fasl va ob-havo haqida suhbatlashadi;

e) fasldagi bayramlar, tarixiy sanalar haqida ma'lumot beradi;

II. Uyg'a vazifani so'rash. Bu bosqichda ilgari o'rganilgan mavzular yuzasidan savol va topshiriqlar beriladi.

Bunda sinf o'quvchilarning ko'pchilik qismini savol-javobga jalb qilish maqsadida uchta yo'nalishda jarayonni tashkil erish maqsadga muvofiq:

1 - yo'nalish: o'quvchilarga yakka savollar berish.

Bunda o'rganilgan mavzu yuzasidan bir nechta savollar beriladi (savollarning murakkablik darajasi o'rtacha bo'lishi lozim).

2 - yo'nalish: tarqatma materiallar asosida (bunda o'qituvchi tomonidan o'rganilgan mavzu yuzasidan so'z ma'nolarini izohlash hamda matn tuzish bilan bog'liq topshiriqlar beriladi).

3 - yo'nalish: sinf xattasida har qatorda 1 nafardan o'quvchiga o'rganilgan mavzu yuzasidan topshiriq beriladi.

III. O'tgan mavzuni mustahkamlash. Bu bosqichda ilgari o'rganilgan mavzular yuzasidan savol va topshiriqlar beriladi.

Bunda sinf o'quvchilarning ko'pchilik qismini savol-javobga jalb qilish maqsadida uchta yo'nalishda jarayonni tashkil erish maqsadga muvofiq:

1 - yo'nalish: o'quvchilarga yakka savollar berish.

Bunda o'rganilgan mavzu yuzasidan bir nechta savollar beriladi (savollarning murakkablik darajasi o'rtacha bo'lishi lozim).

1. Vatan deganda nimani tushunasiz?

2. Vatanparvarlik degandachi?

3. Davlat ramzlariga nimalar kiradi?

4. Milliy boyliklar deganda nimani tushunasiz?

5. Vatanni asrash va himoyalashga qanday hissa qo'shish mumkin?

6. "Vatan ostonadan boshlanadi" fikrini qanday izohlaysiz? va hk.



Vatan va vatanparvarlik so'zlarini izohlang	"Bizning Vatanimiz" mavzusida matn yarating	Vatanimizning tarixiy shaharlarini aytib bering
Vatanimizning milliy boyliklari haqida ma'lumot bering	Davlatimiz ramzlari haqida she'r aytib bering	"Ona yurtning oltin beshiging" maqolini izohlab bering

3 - yo'nalish: sinf xattasida har qatorida 1 nafardan o'quvchiga o'rganilgan mavzu yuzasidan topshiriq beriladi.

1-qator: "E'tiqod" so'zi ishtirok etgan gap tuzing	2-qator: "Mahalla" so'zini fonetik tahlil qiling	3-qator: "Iftixor" so'zining lug'aviy ma'nosini izohlang
---	---	---

IV. Yangi mavzuga tayyorgarlik. Bunda o'qituvchi "Vatan" haqida kichik suhbat tashkil etadi hamda vatanni aks ettiruvchi videorolik, vatanparvarlik aks ettilgan qo'shiqlardan eshittirishi ham mumkin. Mazkur bosqichda "Aqliy hujum" metodi samarali hisoblanadi. Ushbu metodni qo'llashda savollardan foydalaniladi.

V. Yangi mavzu bayoni. Ushbu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni matn bilan tanishtiradi.

Dastlab o'qituvchi mavzu nomini tushuntirishdan ishni boshlashi lozim. Bunda o'quvchilar bilan hamkorlikda mavzu nomlanishi tahlili qilinishi zarur. Mavzu "Vatan madhi dillarda".

O'qituvchi "Vatan, "madh", "dil" so'zlarining lug'aviy ma'nosini savol- javob asosida izohlaydi. Savol – javob jarayonida o'quvchilarni faollashtirish maqsadida hayotiy dalillardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Vatan madhi dillarda

Vatan! Bu so'z bizning qalbimizga ona allasidan uning qaynoq muhabbatidan singadi. Agar ma'lum bir uning qaynoq muhabbatidan singadi. Agar ma'lum bir muddat o'z uyimizdan sal olisroqda yashab qolsak, ko'nglimiz g'ash bo'laveradi. Har qanday ko'ngilochar narsalar ham bizni quvontira olmaydi. Negaki, biz o'z go'shamizni qo'msay boshlaymiz. Bu Vatanni sevishning bir ko'rinishi emasmi?! Vatanga muhabbat, uni ardoqlash, ona Vatanga tegishli bo'lgan har bir narsani muqaddas bilish, o'zini shu Vatan kengliklariga daxldor deb his qilish haqiqiy insonlarga xos fazilatdir.

Aziz bolajonlar, mana, yana bir yoshga ulg'aydik. Orzu-o'ylarimiz, niyatlarimiz ham biz bilan qo'l ushlab bo'y cho'zmoqda. Ulg'ayganimiz sari qalbimizda, ongimizda yangi-yangi tuyg'ular uyg'ona boshlaydi. Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, ajdodlarga nisbatan iftixor, mas'uliyat,

ishonch kabi tuyg'ularni kiritish mumkin. Bu tuyg'ularni kiritish mumkin. Bu tuyg'ularni kiritish mumkin. Bu tuyg'ularning asosi muhabbatdir. Bizni quchog'iga olgan, tinch va osoyishta yashayotgan, ilm olayotgan Vatanimizni sevmay bo'ladimi?! O'zbekiston deya atalmish, bog'larida jannat shivirlaydigan serquyosh o'lkamizda dunyoni qalam bilan tebratgan ne-ne shoirlar, o'z aqli bilan hozirgi kunda ham olam ahlini lol qoldirib kelayotgan olim-u fuzalolar yetishib chiqqan. Biz buyuk bobolarimiz bilan fahrlanamiz va ularga munosib avlod bo'lishga intilamiz.

Darsning keyingi bosqichi o'quvchilar matn bilan tanishtiriladi. Mazkur jarayonda o'qituvchi avval o'zi matnni qayta hikoyalab berishi, keyin o'quvchilarga o'qitishi samarali hisoblanadi.

Matn bilan tanishgandan so'ng darslikda berilgan savol va topshiriqlarni bajarish lozim.

Matn yuzasidan 3 ta savol berilgan har bir savolni "Muammoli o'qitish texnologiyasi"ga tayangan holda avval o'quvchilarning fikri eshilib, keyin o'qituvchi tomonidan to'ldirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darslikda berilgan topshiriqlardan tashqari o'qituvchi quyidagi integratsiyalangan qiziqarli savollardan ham foydalanishi mumkin:

1-qator. Vatanni aks ettiruvchi rasm chizing.

2-qator. Vatanimizning xaritasini chizing.

3-qator. "O'z o'yingni o'zing asra" fikrini rasm bilan ifodalab bering.

VI. Yangi mavzu mustahkamlash. Ushbu bosqichda o'qituvchi darsning boshqa jihozlari asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanishi lozim.

Mazkur bosqichda o'qituvchi darslikda berilgan 2 ta topshiriqdan foydalansa ham bo'ladi.

Iqtidorli sinf o'quvchilari uchun o'qituvchi quyidagi topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

1-topshiriq.

VATAN	ijobiy		
	salbiy		
VATANPARVARLIK	ijobiy		
	salbiy		
TUYG'U	ijobiy		
	salbiy		
ORZU-UMID	ijobiy		
	salbiy		

2-topshiriq.

MATNDAN "VATAN"NI AKS ETTIRISHGA ASOS  
BO'LADIGAN TAYANCH TUSHUNCHALARNI AJRATIB  
CHIQRING




"Tanqidiy fikrlashni o'rgatish"

Jamiyatdagi huquq va burchlaringizni bir-biridan qanday farqlaysiz? Sizningcha, bu boshqalar uchun ham zarur deb hisoblaysizmi?

VII. Uyg'a vazifa berish. Bu bosqichda o'qituvchi darslikning 9-betida berilgan "Vatan – mening tasavvurimda" mavzusida hikoya tuzish vazifasini beradi.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining hozirgi holati bo'yicha tahliliy xulosa bir nechta muhim jihatlarni ajratib ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim dasturlari nutq qobiliyatlarini



rivojlantirish uchun texnologiyadan faol foydalanadi. Interfaol ilovalar, onlayn resurslar va dasturlar bolalarga o'yin orqali bilim olishga yordam beradi, bu esa o'rganishga qiziqish uyg'otadi va o'quv jarayonini faollashtiradi. "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi"[3] Yuqorida ko'rsatib o'tilgan fikrlar asosida barcha darslarda ham o'quvchilarga ma'lumotlar bilan ishlash va qabul qilishni o'rgatish orqali ularni bilim olishga, shuningdek ijodiy tafakkur qilishga o'z fikrini erkin bayon qilishga o'rgatish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Safarova R.G. Shaxsni shakllantirish omillari\ ta'lim taraqqiyoti J. 2001. – B.60-63.
2. Raximov B.X. Talaba yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'nalishning ijtimoiy pedagogic asoslari. Monografiya. T. Fan. 2007. B 11. -20B
3. Mirziyoyev Sh. Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotining yangi bosqichi muhokama konferensiya nutqi Andijon
4. Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'grisida. // Prezident Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 13-yanvar. – № 9. – 1-b.
5. Abduqodirov A., Ishmuhammedov R., "Ta'limda innovatsiya" T.; Istedod- 2010.



UDK:370.2

*Javlon QUCHQOROV,*

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasini mudiri, PhD*

*E-mail: j\_kuchkarov@gmail.com*

*NamMQI professori M. Ismoilov taqrizi asosida*

## MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIYANING MADANIY HODISALAR SIFATIDAGI DIALEKTIK ALOQADORLIK LARI

Аннотация

Ushbu maqolada tarixni dialektik madaniy tushunish, madaniy borliq, milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasiga madaniy hodisalar sifatida qarash tarixni dialektik madaniy tushunish tufayli yuzaga kelgan xulosa ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy g'oya, madaniy tushunish, konsepsiya, madaniy hodisalar, demokratiya, demokrtaik jarayonlar, jamiyat.

## ДИАЛЕКТИЧЕСКИЕ СВЯЗИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ И ДЕМОКРАТИИ КАК КУЛЬТУРНЫХ ЯВЛЕНИЙ

Аннотация

В данной статье обосновано, что диалектическое культурное понимание истории, диалектика культурного существования, национальная идея и демократические изменения рассматриваются как явления культуры как результат диалектического культурного понимания истории.

**Ключевые слова:** Национальная идея, культурное понимание, концепция, культурные события, демократия, демократические процессы, общество.

## DIALECTICAL ASSOCIATIONS OF NATIONAL IDEA AND DEMOCRACY AS CULTURAL PHENOMENA

Annotation

In this article, it is justified that the dialectical cultural understanding of history, the dialectic of cultural existence, national idea, and democratic changes are viewed as cultural phenomena as a result of the dialectical cultural understanding of history.

**Key words:** National idea, cultural understanding, concept, cultural events, democracy, democratic processes, society.

**Kirish.** Tarixni dialektik madaniy tushunish-bu tabiatdan o'zini aqliy faoliyati tufayli ajratayotgan insonning moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonida ham jismonan, ham aqliy jihatdan madaniylashib borishini e'tirof etuvchi falsafiy qarashlar tizimidir. Bu tizim, bir tomondan insonni biologik jarayonlar mahsuli, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy mavjudod sifatida e'tirof etgan holda, ularni o'zaro qayta birlashtiruvchi dialektik integratsiyalashuv nuqtai nazardan bioijtimoiy mavjudod ekanligini qat'iy ravishda isbotlashga asoslangan falsafiy qarashlardan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Aslini olganda, nemis materialistik mumtoz falsafasining asoschilari tomondan ishlab chiqilgan tarixni materialistik tushunishda birlamchiligi ilgari surilgan omil – moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish usuli ham madaniy hodisadir. Ushbu madaniy jarayon – moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayoni davomida odam tanasi ham madaniylashib borgan. Shuning uchun ham odam biologik tur sifatida ham biomadaniy hodisadir. Insonning ijtimoiy madaniy tomoni, uning ijtimoiy qobiliyatidandir. Bu ikkala tomonlarning dialektik birligi jamiyat mavjudligi va rivojlanishining asosi – madaniy borliq bag'rida amal qiladi. Demak, inson bioijtimoiy madaniy hodisadir [1]. Insonlarning mikro va makro birliklari darajasida ham ijtimoiy jarayonlar g'oyalarsiz mavjud bo'la olmaydi.

Madomiki, inson bioijtimoiy madaniy hodisa ekan, uning substantsional asosini tashkil qiluvchi "madaniyat" tushunchasini izohlovchi konsepsiyalar doirasida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda, birinchi konsepsiyaga muvofiq, madaniyat insonlar tomondan yaratilgan buyum va munosabatlardir. Bunda buyum jamiyat bo'lsa, demokratiya munosabatlar sifatida talqin qilingan.

Ikkinchi konsepsiyaga ko'ra, madaniyat insonlar tomondan yaratilgan moddiy va ma'naviy buyumlarning

qadriyatga aylanishi. Ko'rinib turibdiki, bu konsepsiyada chalkashliklar mavjud. Savol kelib chiqadi: insonlar tomondan yaratilgan moddiy va ma'naviy buyumlarning barchasi ham qadriyatli-mi? Masalan, atom bombasi yoki qo'shtirnoq ichidagi "ommaviy madaniyat" ham qadriyatlimi? Yo'q albatta.

Uchinchi konsepsiyada madaniyat ijodiy faoliyat va uning maxsus usullaridir. Bunda insonning yaratuvchilik faoliyati natijalari madaniyat tizimidan chetda qolmoqda. Demak, g'oyalar va ularning amaliyoti, jumladan, demokratik fuqarolik jamiyatini qurish amaliyoti ham madaniyat tizimidan chetda qolgan.

To'rtinchi konsepsiyaga muvofiq, madaniyat kishilarning tarixan tarkib topgan bilimlari yig'indisi hamda ularning moddiylashuvidir. Bu konsepsiyada g'oya, jumladan, demokratiya to'g'risidagi g'oyalar ijtimoiy hayotda qo'llanilishi e'tirof etilgan, biroq mazkur g'oyadan oldingi elementlar – g'oyaning sub'ektlari, motivi, uni ijodiy yaratish jarayoni madaniyat tushunchasidan chetda qolib ketgan.

Beshinchi konsepsiyaga muvofiq, madaniyat insonning takomillashganligidir. Inson madaniyatning sub'ekti, demak, uning bitta elementi yoki tomonidir. Bu konsepsiyaning yutug'i insonning madaniyat tizimiga kiritilganligidir. Kamchiligi esa inson faoliyati va uning natijalarining madaniyat tizimidan chetda qolayotganligidir.

Oltinchi konsepsiyaga muvofiq, madaniyat jamiyatning sifat holatidir. Bu yondoshish milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining har bir mamlakatda qanday yuz berayotganligini qiyoslash imkonini beradi. Ammo bu dialektik jarayonning madaniy hodisalar sifatidagi mohiyatini ochib bermaydi.

Madaniyat to'g'risidagi yuqoridagi konsepsiyalarning yutuqlarini umumlashtirsak, madaniyat – bu inson va ular

tomonidan ishlov berib yaratilgan buyumlar va munosabatlardir, ya'ni yangi sifatga ega bo'lgan borliq – madaniy borliqdir. Demak, milliy g'oya ham, demokratik jarayonlar ham, ularning dialektikasi ham insonlar tomonidan ongli ravishda ishlov berib yaratilgan hodisa - madaniy hodisalardir. Madaniy borliq jamiyat mavjudligi va rivojlanishining asosini tashkil etadi. Milliy g'oya ijtimoiy hayotning barcha sohalarini mamlakat manfaatlari yo'lida aks ettiradi. Milliy g'oya ijtimoiy hayotning barcha tarmoqlarining madaniy qismlari tomonidan taqozo qilinadi.

Milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasiga madaniy hodisalar sifatida qarash tarixni dialektik madaniy tushunish tufayli yuzaga kelgan xulosadir. Buning birinchi sababi, xalqimiz va uning yo'l boshchilarining asosiy maqsadi mamlakatimizda milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan jamiyat – demokratik fuqarolik jamiyati, ya'ni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishdan iborat faoliyatimiz madaniy jarayon ekanligidir. Bu faoliyat mazkur madaniy qadriyatlar yuzaga kelishining atributi - mavjudlik usulidir. Jamiyatning rivojlanishi demokratik tartiblar asosida yuz berishi kerak.

Bu xulosaning ikkinchi sababi, olimlarimizning madaniyat va madaniy hodisalar, jumladan, tajriba, mafkura, demokratiya va qonunlar, sivilizatsiyalar to'g'risidagi qarashlari, xususan I.A.Karimovning “jamiyatning rivojlanishi evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyot”[2] dan iborat, “jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha umumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish Respublikaning qat'iy pozitsiyasidir”[2], “demokratik jarayonlar o'z ob'ektiv qonunlari asosida rivojlanadi”[3], “xalqning madaniyati va ma'naviyati jamiyatimizni muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir”[4], kishilik jamiyati muayyan tarixiy makon va zamonga ega “ko'pdan-ko'p mustaqil sivilizatsiyalardan”[4, 144] tashkil topgan, “yangi mafkuraning asl ma'nosi eskicha aqidalardan xoli bo'lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iboratdir”[4] degan ijtimoiy-falsafiy fikrlaridir.

Buning uchinchi sababi, madaniyatning mazmun-mohiyatiga oid konseptsiyalarni tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilinib, madaniy borliq to'g'risidagi yangi konseptsiyaning yuzaga kelishidir. Tarixni dialektik madaniy tushunish va uning tufayli yoritilgan korrelyasion-funksional va substansional qonunlar doirasida doktorlik va nomzodlik ishlari himoya qilindi. Yuridik fanlari doktori, professor Z.M.Islamov “shu bois keyingi vaqtda tarix, jumladan, huquqni dialektik madaniy tushunish ham tarkib topmoqda”[5], deganida haqdir.

Biz demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish va takomillashtirish sari ketmoqdamiz. Bu holat, birinchidan, xalqning ishtirokida hokimiyatning bevosita yoki bilvosita boshqaruvi amalga oshadi, demakdir. Ikkinchidan, bu holat davlat qonun doirasida insonlar uchun, ularning tinch-totuv va farovon hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bermog'i, imkoniyatlarini ta'minlamog'i shart, degani. Bu holat, uchinchidan, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlash demakdir. Davlatimizning fuqarolar bilan munosabatidagi bu umumdemokratik g'oya-tamoyil-konstitutsion normalar I.A.Karimovning: “...demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak”[2, 8], degan dasturilamal g'oyalari asosida qabul qilingan.

**Tahlil va natijalar.** Xullas, I.A.Karimovning milliy manfaatlarni ifodalagan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati to'g'risidagi va boshqa olimlar-tadqiqotchilarning iqtisodiy-g'oyaviy, siyosiy va huquqiy g'oyaviy, falsafiy va axloqiy g'oyalari negizida yuzaga kelgan

normativ-huquqiy hujjatlar asosida mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlar qilindi. Va bu demokratik o'zgarishlar yuzaga keltirgan ehtiyojlar milliy g'oyalarni ko'rinishlarida navbatda demokratik islohotlarning gnoseologik asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Har bir mamlakatning manfaatli istiqbollari aks ettiruvchi va umuminsoniy manfaatlarga zid kelmagan milliy g'oyalarni, ular siyosiy g'oyaviy, huquqiy g'oyaviy, iqtisodiy - g'oyaviy, estetik va axloqiy - g'oyaviy, falsafiy - g'oyaviy shakllarda bo'lmasin, bundan qat'iy nazar, SH.M.Mirziyoev so'zi bilan aytganda tanqidiy tahlil asosida yuz beradi[6]. Tanqidiy tahlil aslida, o'z mohiyatiga ko'ra bilishning dialektik yo'lidir.

Olimlarning fikriga ko'ra “demokratiya tajribaga asoslangan va doimiy ravishda mazmunan boyib, barkamollashib, mohiyati chuqurlashib boradigan faoliyatdir”[7]. Demokratik faoliyat demokratiyaning mavjudlik usuli, ya'ni atributidir. Demokratiyaga bunday faoliyatli yondashuv substansional yondashishning ko'rinishidir. Demokratiya madaniy hodisa, chunki uning yuzaga kelishida onglik bor, maqsadga muvofiqlik bor. Agar demokratiyani rejim-tartibot sifatida bir butun madaniy tizim qilib olsak, unda uning sistema tashkil qiluvchi substansional elementlari ham mavjud. Ularning birinchisi, insonlar bo'lib, ular demokratiyaning yaratuvchilari va tashuvchilardir, ya'ni sub'ektlardir. SHuning uchun ham demokratiyaning xalqaro darajadagi mazmuni, regionlar darajadagi mazmunlari, mamlakat darajadagi mazmuni, millat darajadagi mazmuni, sinf va sotsial qatlam darajasidagi mazmuni, oila darajasidagi mazmunlari mavjuddir. Ushbu holatni hisobga olib, I.A.Karimov “aytish mumkinki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati demokratiyaning o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ikki jihati, ikki qanotidir”[8], degan edi. Ikkinchisi, demokratiyaga bo'lgan ehtiyoj, undan manfaatdorlikdir. Demokratik ehtiyoj va manfaat demokratik rejim yuzaga kelishi va amal qilishining motividir. Uchinchisi, demokratiyaga bo'lgan ehtiyoj va manfaatlarni anglashdir. Keyingi vaqtlarda bu ma'naviy jarayon “demokratik ong” tushunchasi orqali ifodalanoqda. To'rtinchisi, demokratik ong doirasida demokratik g'oyalarni, jumladan, demokratik siyosiy rejimlarni ishlab chiqish, ijod qilish jarayonlari yuz beradi. Tadqiqotchilarning ishlari buning yorqin faktidir. Beshinchisi, demokratiya to'g'risidagi ijod namunalari, kitob, dissertatsiya, maqola - tavsiyalar ko'rinishlarida tarkib topadi. Oltinchisi, ushbu tavsiyalarning hayotga joriy bo'lishidir.

Demak, demokratiyani ijod qilish va demokratiya to'g'risidagi tavsiyalarni hayotga qo'llash demokratik faoliyatdir. Bu bilan ham demokratiyaning to'liq ma'no-mazmuni yechilmaydi. Masalan, X.T.Odilqoriev va D.X.Razzoqovlarning fikricha demokratiya: “Real demokratiya hech qaerda va hech qachon xalq hokimiyati bo'lgan emas, chunki bunday holda u nodavlat, ijtimoiy o'z-o'zini boshqarishni bildiradi. Aslida “demokratiya” tushunchasi o'zi paydo bo'lgan zamonlardan boshlab davlat bilan, demak majburlash bilan bog'langan. SHu sababli, demokratiya eng yaxshi ma'noda ko'pchilikning kamchilik ustidan hokimiyati hisoblanadi, ko'pincha esa ko'p yoki kamroq darajada xalq nazoratida bo'luvchi, yaxshi tashkil etilgan ozchilikning boshqaruv shaklidir.

**Muhokama.** SHunday qilib, jamiyatda davlat mavjud bo'lganda demokratiya to'liq bo'lmaydi, to'liq demokratiyada esa davlatga – ijtimoiy munosabatlarni boshqarishning hokimiyat ko'rinishidagi shakliga ehtiyoj qolmaydi”[9]. Demak, bunda “demokratiya” tushunchasiga ontologik yondoshish mavjudligini ko'ramiz. Ko'pchilik olimlar tomonidan demokratiyaga berilgan ta'rif-tavsiflarda asosiy urg'u davlat hokimiyati va uning o'rnatadigan rejimiga qaratilgan. To'g'ri, davlat hokimiyati mamlakat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini kafolatlaydi. Ammo demokratiyani davlatchilik

bilan chegaralab qo'yish kerak emas. Bunda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati demokratiyaning ikki ajralmas tomoni bo'lsada, davlat hokimiyati fuqarolik jamiyatining barcha sohalarining ichki ishlariga aralashmasa-da, uni kafolatlaydi. Bu esa oilada ham, xususiylab chiqarish korxonasida ham demokratiya bo'lishi kerakligini anglatadi. Bu xususda A.Dal Robert: "Agar, demokratiya davlatni boshqarishda oqlangan ekan, u xuddi shundayin iqtisod sohasida korxonani boshqarishda ham oqlangan"[10],- deydi.

S.O.Abduxolliqov yuqoridagi demokratiyaga berilgan ta'riflarni umumlashtirib, demokratiyaga quydagicha ta'rif-tavsif beradi: "Demokratiya" so'zi etimologik ma'nosiga ko'ra xalq hokimiyatidir. Ammo u keng ma'noda manfaatlar uyg'unligi va ularning boshqarilishidir. Agar fuqarolar huquqlari xalq hokimiyati orqali amalga ohsa, qabul qilinsa va kafolatlansa, unday jamiyatga demokratik fuqarolik jamiyati deymiz. SHu o'rinda fuqarolik huquqi, yoki "civilnoe pravo" so'ziga e'tibor berish masalaning mohiyatini yoritishga yordam beradi, degan fikrdamiz. Demak, demokratiya manfaatlar uyg'unligi va uning boshqarilishi, bunda xalq hokimiyatni o'z qo'liga olsa, manfaatlar uyg'unligini ta'minlovchi bu hokimiyatni bevosita demokratiya va vakillik

demokratiyasi orqali tartibga soladi. Davlatning huquqlarning ob'ektivligidan kelib chiqishi va unga muvofiq yuridik normalarni ishlab chiqishi uning huquqiylikidan dalolat beradi. Bunday davlat huquqiy davlat tusini ola boshlaydi. Mustaqil mamlakatimizda demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish pirovard maqsadimizdir.

Har qanday shaxs, ijtimoiy guruh, elat, millat, xalq, davlat va jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va uni amalga oshirishga qaratilgan vazifalari bo'ladi. SHuningdek, mustaqil O'zbekiston o'z oldiga huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishni bosh strategik maqsad qilib qo'ydi. Demak, bizning bosh strategik maqsadimiz – ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir.

**Xulosa.** Xullas, milliy g'oya mamlakatimizdagi amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning gnoseologik asosini tashkil etsa, aksincha, demokratiya g'oyalari bilan sug'orilgan o'zgarishlar milliy g'oyalarimizning manbai va mezon hisoblanadi. Xuddi shu holat milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining mohiyatidir. Demokratik o'zgarishlar to'g'risidagi fikr-bilimlar milliy g'oyamizning o'zak qismini tashkil etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдухаликов С. Виждон эркинлиги: методология муаммолари. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 192-198.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1992. – Б. 10.
3. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1995. – Б. 10.
4. Karimov Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1995. – Б. 139-140.
5. Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 18.
6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик фаолияти бўлиши керак.//Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2018. – Б. 235.
7. Иброҳимов А., Султанов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1996. – Б. 327.
8. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: "Маънавият", 2008. – Б. 108.
9. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2009. – Б. 200-201.
10. Dahl, Robert. A Preface to Democratic Theory. - Chicago: University of Chicago Press, 2006.



UDK: 37.032

**Saboxat MAYDONOVA,**  
*Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*  
*E-mail:saboxat\_87@mail.ru*

*Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.n D.Axatova taqrizi asosida*

### THE MAIN FACTORS OF PROMOTING LIBRARY IN THE FAMILY IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation

In this article, we have provided information about the main factors of promoting reading in the family among elementary school students. All the educational qualities of a child are first formed in the family, which means that reading also occurs and develops with the support and influence of family members. Factors that are effective in the pedagogical process aimed at developing the culture of reading in the family among elementary school students are described in detail.

**Key words:** elementary school, book fairs, reading, knowledge, family, parenting, skills, competence, development.

### ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ БИБЛИОТЕКИ В СЕМЬЕ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье мы предоставили информацию об основных факторах популяризации чтения в семье среди учащихся младших классов. Все образовательные качества ребенка впервые формируются в семье, а значит, чтение также происходит и развивается при поддержке и влиянии членов семьи. Подробно описаны факторы, действующие в педагогическом процессе, направленном на развитие культуры чтения в семье у учащихся младших классов.

**Ключевые слова:** начальная школа, книжные ярмарки, чтение, знания, семья, воспитание детей, навыки, компетентность, развитие.

### BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA OILADA KITOBXONLIKNI TARG'IB QILISHNING ASOSIY OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida oilada kitobxonlikni targ'ib qilishning asosiy omillari haqida ma'lumotlar berganmiz. Boladagi barcha tarbiyaviy xislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o'z oilasi a'zolari ko'magi va ta'sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonda samarali bo'lgan omillari batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf, kitob ko'rgazmalari, kitobxonlik, bilim, oila, ota-ona, ko'nikma, malaka, rivojlanish.

**Kirish.** Bugungi kunada jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, ayniqsa, intellektual rivojlanishida XXI asr katta o'zgarishlarga olib kelmoqda. Taraqqiyot o'z ortidan ta'limni ergashtirib, o'ziga yanada katta e'tibor talab etmoqda. Global axborotlashuv sharoitida intellektual mulk jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z extiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Kitob o'qish, kitobxonlikning jamiyat va shaxs uchun ahamiyati, kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy-individual jihatlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qish ko'nikma, malakalarini shakllantirish, uning pedagogik, psixologik, metodik talablari, oilaviy kitobxonlik va sinfdan tashqari kitob o'qishni tashkil qilish masalalari insonni ijtimoiylashuvida muhim dolzarb muammodir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-mart kuni yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, yoshlarda axborot texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Mazkur, 2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasining to'rtinchisi, ya'ni aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular

o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ta'bir joiz bo'lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma'naviyatimizda g'oyat ulkan voqea bo'ldi. Ushbu sa'y-harakat milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo'lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o'rinda xorij tajribasini o'rganish, yoshlar o'rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o'rganish kabi masalalarning ko'tarilgani g'oyatda tahsinga loyiqdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ma'lumki, kitobxonlik insonning ta'lim-tarbiyasi, kamolotida beqiyos o'rin tutadi. O'zbek xalqining bir necha ming yillar davomida yaratgan, avaylab-asrab kelayotgan axloq-odob durdonalarini, boy qadimiy merosini, milliy qadriyatlarimiz yutuqlarini o'rganish va unga amal qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Shuningdek, faxrimiz bo'lgan Sharq allomalarimiz Kaykovus, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy kabi jahonga mashhur ma'rifatparvar shoir va yozuvchilarning ma'naviy-axloqiy

qarashlari, ular naql qilgan rivoyatlari yosh avlodlarimiz uchun axloq-odob sabog'idir.

Sharqda pedagog olimlar asrlar davomida bola tarbiyasiga, ma'naviy-axloqiy qarashlariga katta e'tibor berganlar. Bu tarbiya masalalari Sharq olimlari tomonidan yaratilgan asarlarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, mashhur hind masali "Kalila va Dimna", Nizomul Mulkning "Sayohatnoma", Nosir Hisravning "Saodatnoma", "Ro'shnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Vaqfiya", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Safo Matchon: "Kitobxonlik - o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmochi bo'lgan fikrini nechog'li uqishini, ya'ni asar "tili"ga tushinishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi". Uning fikricha kitobxonlik talanti tug'ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi.

Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: "Kitobxonlikka o'rganish uchun qanchalik ko'p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag'ishladim, lekin hali ham o'rgandim, deb ayta olmayman". Professor V.F. Asmus o'zining "Kitobxonlik - mehnat va ijod" nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta'rif beradi: "Mutolaa vaqtida asar bir ko'zadan ikkinchi ko'zaga quyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi". "Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda, deb yozadi H.To'xtoboyev, - kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki kitob o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir"

Shuningdek, o'zbek adabiyoti tarixida nom qozongan shoirlar va yozuvchilardan Abulqosim Firdavsiy, Tusi, Rudakiy, Nosir Hisrav, Sakkokiy, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Rizo Ogahiy, Munis Xorazmiy va boshqalar o'zlarining badiiy asarlarida ajoyib ta'limiy, axloqiy, tarbiyaviy fikrlarini, tushunchalarini ifoda etganlar.

Ma'lumki, insoniyat o'z xatti-harakatidagi, xulqidagi yo'nalishlar, eng muhim belgilar mujassamlashib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida xulq-axloq qoidasining asosi bo'lib xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, adabiyot odam bolasida chin insoniy fazilatlarini shakllantiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shuningdek, insoniyat tomonidan yaratilgan barcha umumbashariy kashfiyot va innovatsiyalarning asosini intellekt (inson tomonidan

yaratilgan g'oya) tashkil etadi. Ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotni belgilab beruvchi kreativ va innovatsion g'oyalarni asoslashda shaxsning fikrlash, yanada aniqrog'i kreativ, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Har qanday jamiyatda shaxslarning fikrlash malakasiga egaliklari, qolaversa, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda kreativ, innovatsion fikrlash qobiliyatini o'zlashtira olishlari badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarni o'qishga nisbatan ijobiy munosabatga egaliklariga bog'liq. Zero, badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarni o'qish shaxsda fikrlash, tasavvur, tahlil hamda tafakkur qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada esa jamiyatni har tomonlama taraqqiy etishni ta'minlovchi g'oyalar shakllandi. Shu sababli so'nggi uch yil davomida O'zbekistonda yoshlarda fikrlash qobiliyatini, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Bu borada keng ko'lamga ega tizimli ishlar amalga oshirilmogda.


Davlatimiz tomonidan Axborot-kutubxona markazlari va Axborot-resurs markazlari ishini takomillashtirish bo'yicha bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va bevosita ijobiy ishlar samarali yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining 2011 yilda 13 aprelda qabul qilingan "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, Prezidentimizning 2019 yil 7 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori asosida aholiga AKM va ARM xizmatlari joriy etilgan. Mazkur qonun va qarorda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha bir qancha ustuvor vazifalar ham belgilab berilganligi muhim ahamiyat kasb etmogda.

Har qanday faoliyat, jarayon va tizimning g'oyasi, amaliy qiymati uning qanday tamoyillarga tayanganligiga bog'liq bo'ladi. SHu sababli faoliyatni tashkil etishni rejalashtirish, jarayonning kechishini ta'minlash va tizimni shakllantirishda uning mohiyatida yetakchi o'rin tutuvchi ustuvor tamoyillar belgilab olinadi. Zero, tamoyillar ularning tadrijiy yo'nalishini belgilab beradi, shuningdek, tartib, qoida tusini oladi. Shu bois tadqiqotni olib borish davrida boshlang'ich sinf o'quvchilarida oilada kitobxonlikni targ'ib qilishning asosiy omillarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashda ustuvor bo'lgan tamoyillarni aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot muammosiga oid ilmiy ishlarni nazariy tahlil qilish, pedagogik amaliyotni kuzatish, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondent-o'quvchilar, metodist o'qituvchilarning jarayonga bo'lgan munosabatlarini tahlil qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida oilada kitobxonlikni targ'ib qilishning asosiy omillarini rivojlantirishda quyidagi tamoyillar ustuvor ahamiyatga egaligiga ishonch hosil qilindi (1-rasm):



1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida oilada kitobxonlikni targ'ib qilishning ustuvor bo'lgan tamoyillari

Tadqiqotni olib borishda boshlang'ich sinf o'quvchilarida oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonda samarali bo'lgan omillar ham aniqlandi.



Kitob ma'naviy ozuqa ekan, kitobxonlik madaniyatini oshirish, jamiyatda ma'naviy kuchni shakllantirishimiz lozimligini davrning o'zi ko'rsatib turibdi. Kitob o'qishni ma'naviy ehtiyojga aylantiradigan vaqtga yetib keldik.

Kitobxonlikda eng muhimi oilada kitobga mehr uyg'otish, uni avaylab-asrashni tarkib toptirishdir. Buning uchun maktabda, oiladagi muhim vazifa kitobxonlikni inson hayotidagi zaruratga aylantirishdan iborat. Agar kitobxonlik zaruratga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, e'tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin emas.

Bolalar uchun mo'ljallangan kitoblarning barchasi besh jihatdan amaliy qiymatga ega:

- birinchidan, bolani atrof-muhit bilan yaqindan tanishtirgan holda ularning tasavvurini boyitadi;

- ikkinchidan, ularda kitobga, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni hosil qiladi;

- uchinchidan, bolalarni ongini boyitadi, nutqi va tafakkurini boyitadi,

- to'rtinchidan, boy tasavvurga ega bo'lishini ta'minlaydi, nutq boyligini oshiradi;

- beshinchidan, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qiladi

**Tahlil va natijalar.** Oila kitobxonligi bu - oila a'zolarining aql-zakovati va yuksak ma'naviyatini shakllantiruvchi, inson ma'naviy dunyosini boyituvchi, kitobga mehr-muhabbat hamda uni zaruriyatga aylantirishning ma'lum tizimidir. Bu tizim o'smirlarning aqliy, ma'naviy, axloqiy, estetik rivojlanishi tizimidan iborat bo'lib, o'zbek oilalarining kitobxonlikka doir boy an'anasi va hozirgi davrda to'plangan boy tajribasiga asoslanadi.

O'qishga o'rgatish oiladan boshlanadi. Bu yerda bir muammoga duch kelishimiz mumkin. Hamma ota-ona ham o'zi o'qish madaniyati xususiyatlariga ega bo'lmashligi mumkin, bolaning yoshiga mos kitobni tanlay olmasligi, farzandiga to'g'ri, ifodali o'qib bera olmasligi mumkin.

Buning sabablari ota-onada bo'sh vaqtning yo'qligi, kutubxonaga bo'rmasligi, bolalar adabiyotini yoqtirmasligi yoki bilmasligi, yetarlicha ma'lumotga ega emasligi, savodsizligi, kutubxonachi bilan muloqotda bo'lmashligi, kutubxonachining ota-ona bilan birga ishlamasligi va shu kabilar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar maktab, litsey va kollej oqituvchilari, tarbiyachilar, kutubxona xodimlari bilan hamkorlikda ish olib borishlari, maslahatlashishlari zarur.

Albatta, kitobxonlik oiladan boshlanishi kerak. Ota-onalar farzandi uchun ertaklar aytib berishi, vatanparvarlik ruhidagi doston, maqol va masallarni o'qib berishi-bolaning ongini o'stirishi bilan bir qatorda, uni kitobxonlikka tayyorlab boradi. Bu esa bevosita onalarimiz kitobxon bo'lishi lozimligini ham anglatadi. Kitobxonlikni shakllantirib olishimiz uchun esa kitobxon onalarni tayyorlashimiz kerak. Oilada ayolning, onaning o'rni beqiyos. Mutafakkir jadid bobomiz "Onalar-butun bashariyatning tarbiyachilaridir", degan bo'lsa, fransuz faylasufi Jan Pol jamiyatga shunday xitob qiladi: "Siz bizga yaxshi onalarni bering, biz sizga yaxshi farzandlarni beramiz". Demak, har bir ona jamiyatga yaxshi farzandni kamolga yetkazishi uchun mas'ul ekanligini his etishi va o'zining dunyoqarashini, bilim va ko'nikmalarini oshirib borishi judayam muhim.

**Xulosa va takliflar.** Jamiyatda oilada kitobxonlik madaniyatini madaniyatini oshirish uchun oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, har bir oilada shaxsiy kutubxonalar tashkil etish, ota-ona farzandining kitob o'qishiga bevosita ko'makchi bo'lishi kerak.

Biz kitobxonlikni oiladan va mahalladan boshlasak, ko'proq natijaga erishamiz. Buning uchun esa joylardagi mahalla guzarlarida ko'chma kutubxonalar hamda xonadonlarda shaxsiy kutubxonalar tashkil etilsa, kitob o'qishda avvalo oilada ota-ona, kattalar ibrat, namuna bo'lsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 y 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" dagii PQ-3271-son qarori.
2. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Xudoyberdiyeva G. Keksalarning yosh onalarga maslahatlari. Chaqaloq, Tarbiya.
4. Qodirov M, Quronov M .Yosh ota-ona kitobi. Uzliksiz ma'naviy tarbiya trilogiyasi. 1-qism [Matn]: 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha qo'llanma, – Toshkent: Muharrir, 2018.
5. Zaynutdinova M. Bola parvarishi. Psixologiya. – T: O'zbekiston, 2021.
6. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti // O'qituvchi" nashriyat-matbaa ijodiy uyi, Toshkent. – 2013 y.
7. Matchon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi.T. " O'qituvchi".
8. Мадатов К., Матлатипов С., Арипов М. Узбекский текст переписки с образовательный потенциал учеников: тематическое исследование из Школьного корпуса // архив препринт архив:2303.00465. – 2023.
9. G'aniyeva D.A. Axborot-kutubxona muassasalarida kitobxonlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy tadbirlarning roli –T.: «Tafakkur» nashriyoti, 2017.
10. Nishonov S. «Ta'lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta'limi, 2000 y.1- son, 12,16-b.





UDK: 372.3/4

**Erkinoy MAMAJONOVA,**  
Andijon davlat tibbiyot instituti tadqiqotchisi  
E-mail:erkinoy@mail.ru

Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida

## METHODS OF TEACHING BIOPHARMACY ON THE BASIS OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Annotation

This article will talk about the need, methodological basis for teaching modern teaching technologies, methods in medical higher education institutions at the moment. Issues of improving the methods of teaching biopharmacy science, work on this Soha in developed countries and technologies that future doctors should know are discussed.

Key words: student, medical higher education institution, biopharmacy, modern information technology, methods, methods, knowledge, qualifications, skills.

## МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ НАУКИ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В данной статье речь пойдет о необходимости, методической основе преподавания современных технологий и методов обучения в медицинских высших учебных заведениях. В нем рассматриваются вопросы совершенствования методов преподавания биофармацевтических наук, работы, проводимой в этой области в развитых странах, и технологий, о которых должны знать будущие врачи.

**Ключевые слова:** студент, медицинское высшее учебное заведение, биофармация, современные информационные технологии, методы, методы, знания, умения, навыки.

## ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BIOFARMATSIYA FANINI O'QITISH METODLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada hozirgi paytda zamonaviy o'qitish texnologiyalari, metodlarini tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'qitish zarurati, metodologik asosi haqida so'z boradi. Biofarmatsiya fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish masalalari, rivojlangan mamlakatlarda bu soxaga olib borilayotgan ishlar va bo'lajak shifokorlar bilishi kerak bo'lgan texnologiyalar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Talaba, tibbiyot oliy ta'lim muassasasi, biofarmatsiya, zamonaviy axborot texnologiyalari, metodlar, usullar, bilim, malaka, ko'nikma.

**Kirish.** Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovasion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri shu vaqtgacha ta'lim maqsadlari o'quvchi-talabalarning faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirib olishlariga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni ijodiy faollikka, egallanishi lozim bo'lgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, kreativ yondashishga, ijodiy fikrlashga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatishi bilan bog'liqdir. Innovasion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, fanga kreativ yondashishga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba-sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlaydilar. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. Mikroguruhlarining har bir a'zosi topshiriqni bajarishda o'z hissasini qo'shishga harakat qiladi.

Bu holat o'quvchilarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi. Uzluksiz ta'lim tizimida bilim oluvchi va tarbiyalanuvchilarni innovasion texnologiyalar asosida o'qitish bilan cheklanib qolmasdan, kelajakda amaliy faoliyatlarida o'zlari innovasion texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashlariga o'rgatishni uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashning asosiy vazifalaridan biri, deb hisoblaymiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida zamonaviy innovasion pedagogik texnologiyalar asosida biofarmatsiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun innovasion ta'lim muxiti zarur bo'ladi. Innovasion ta'lim (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Bu ta'lim o'qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra ta'lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim hamda tarbiya jaraeni to'laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro'ebga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta'minlash, tafakkuri va dunëqarashini boyitishni nazarda tutadi. Bu turdagi ta'lim talabalarni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoën eta olishi, bilish

faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. Talabalar innovasion ta'lim muxitida o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy endoshishni, yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o'z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish, bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi[45] Innovasion ta'lim muhiti tufayli biofarmasiyani o'qitishda nimalarga erishiladi, degan savolga javob sifatida aytilish mumkinki, birinchi navbatda, jamiyatdagi o'zgarishlar, islohotlar ta'lim mazmuniga singdirilib, ta'lim oluvchining tasavvurida zamon bilan hamqadam bo'lishi lozimligi dolzarb vazifadek kun tartibiga chiqadi va tadrijan an'anaviy (konservativ) pedagog sahnaning o'rtasidan chetqoq o'rin oladi. Uning o'rniga faol bo'lgan, ijodiy va kasbiy faoliyatga sazovor, pedagog-novator, tadqiqotchi, maslahatchi, loyihalar yaratuvchisi, innovasion tafakkur egasi bo'lgan pedagog kirib keladi. Ikkinchidan, aynan, shu sifatlar egasi bo'lgan pedagog, ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya sifatiga ijobiy ta'sir o'tkazib, jamiyatning ehtiyojiga mos va xos bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash va tarbiyalashga hamda innovasion muhiti mustahkamlashga hissa qo'shadi. Innovasion ta'lim muxiti odatda biofarmasiyani o'qitish jarayoniga ga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Ta'limdan ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun esa pedagogning innovasion faoliyatga qo'shilishi natijasida yuzaga keladigan innovasion ta'lim muhiti yaratishdir. Pedagogik faoliyat aslida turli o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan yangiliklarni yaratish va joriy etish sharti bilan innovasion bo'lib qoladi (masalan, yangi o'qitish metodikasi, o'quv jarayonining sifatini baholashning yangi texnologiyasi va boshqalar)

**Tadqiqot metodologiyasi.** Innovasion ta'lim muxiti ta'lim sifatini ta'minlashga xamda o'qitish metodlarini takomillashtirish uchun kerakli bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar qatoriga kiradi. Bunda o'qitishning innovasion usullari, interfaol o'quv materiallari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va faol o'rganishga yordam beradigan boshqa vositalardan foydalanish ko'zda tutiladi. Demak, auditoriyada innovasion ta'lim muhiti ta'minlangan bo'lishi muhim xisoblanadi. Innovasion ta'lim muxitiga maxoratli pedagog va innovasion o'qitish usullari va bu usullarni amalga oshirish uchun kerak bo'lgan anjomlar kiradi. Innovasion ta'lim muxitida talabalarga biofarmasiya fani innovasion o'qitish usullari: "Muammoli vaziyatlar", "Hamkorlikda o'qitish", "Loyiha texnologiyasi" asosida o'qitish, kooperativ ta'lim va boshqalar kiradi. Ushbu usullar talabani o'quv jarayonining markaziga qo'yadi, uning ishtirokini faollashtiradi, tanqidiy fikrlashni, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Innovasion muxitda interaktiv o'quv materiallari: turli xil o'quv o'yinlari, interaktiv topshiriqlar, veb-ilovalar, multimedia taqdimotlari va o'rganishni yanada qiziqarli va qulayroq qiladigan boshqa turdagi materiallarni o'z ichiga oladi. Axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanib dars jarayonlarini tashkil etishda o'quv jarayonini yaxshilash uchun kompyuterlar, Internet, dasturiy ta'minot va boshqa texnik vositalardan foydalaniladi. Axborot -kommunikasion texnologiyalardan masofadan o'qitish, interaktiv darslar yaratish, tadqiqot ishlari, bilim almashish va boshqa ko'plab maqsadlarda ishlatilishi mumkin.

**Tadqiqotda qo'llanilgan usullar.** Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarining darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng darsda ko'rgazmali organayzerlar, ko'rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Biofarmasiya fanini o'qitish metodlarini takomillashtirishda yana e'tiborga olish kerak bo'lgan jixati shuki, biofarmasiyada amaliy mashg'ulot va laboratoriya ishlari xam bo'lganligi bois talabalarni fanni faol o'rganishlarini rag'batlantiradigan boshqa vositalar: bularga laboratoriya jihozlari, o'quv robototexnika dizaynerlari, multimedia taqdimotlari, virtual ekskursiyalar va talabalariga o'quv materialiga sho'ng'ish va interaktiv tarzda o'rganishga yordam beradigan boshqa vositalar xam bo'lishiligi dars samaradorligini ta'minlaydi. Zamonaviy ta'lim usullari va texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarga o'quv jarayonini yanada samarali, qiziqarli va talabalar uchun qulay qilishga yordam beradi, ularning mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Albatta dars jarayonlarida o'quv jarayonini individuallashtirish, ya'ni talabalarining individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish, o'qitishga tabaqalashtirilgan vazifalar va yondashuvlarni tashkil yetish muxim. Biroq talabalarining individual xususiyatlari va ehtiyojlaridan qat'i nazar, barcha talabalar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash pedagogik mahorat talab qiladi. Bu jarayonda talabalarni dars jarayonlarida baholash va fikr-mulohazalar tizimining mavjudligi e'tiborga olish kerak. Biofarmasiya darslarida talabalarining yutuqlarini baholash, ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va o'quv jarayonini yaxshilash uchun fikr-mulohazalarni taqdim etish yana xam darsni sifatli chiqishi ta'minlanadi. Ushbu omillar birgalikda o'quv jarayonining samaradorligini aniqlaydi va talabalarining muvaffaqiyatli o'qishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Innovasion ta'lim muxitida tashkil qilingan darslar asosan uchta quyidagi maqsadga xizmat qiladi:

1) talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash;

2) talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash; 3) talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbolli reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish.

Innovasion ta'lim muhiti talabalarining biofarmasevtik bilimlari, chuqur ilmiy tahlili, ilmiy tajriba, dori vositalarining qo'llanilishi va tayyorlash texnologiyalarini ishlatishga oid yangi ideyalarni qo'llash imkonini yaratadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, Innovasion ta'lim muhiti, o'quvchilarni yangi ilmiy va amaliy ideyalarni o'rganish, ilmiy rivojlantirishga qat'iy ta'sir ko'rsatib, ularni ma'lumot yozish va keng yozish bo'yicha ishlarni amalga oshirishda qo'llash maqsadida yaratilgan. Innovasion ta'lim muxiti innovasion ta'lim texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. U biofarmasiyani o'qitish jarayoniga yangilik kiritish yo'li bilan ta'lim-tarbiya jaraenini maqbullashtirish, sifat va samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrda «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni, – T.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
3. Шерджахан Абдуфатаев Абдуазимович. Интегративный подход как основа развития базовых и предметных компетенций студентов. Физико-технологического образование, (6).2022.
4. Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy, 60p.
5. Buxarkina M., Mosiyeva V. Ta'lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari. – M., 2000. 3.



UDK: 321:342.3

**Komal MAXMUDOV,**  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD*  
*E-mail: kamol.maxmudov2020@gmail.com*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD A.Raxmanov taqrizi asosida*

### СИЙОСИЙ РЕЖИМЛАР ТУШУНЧАСИ ВА ТУРЛАРИНИНГ О'ЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ

Аннотация

Mazkur maqolada siyosiy rejim tushunchasi, mazmun-mohiyati, kelib chiqishi, rivojlanishi, siyosiy rejimning ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatlari, siyosiy rejimning mafkuraviy, ideologik asoslari, davlat boshqaruvining siyosiy maqsadlari, qoidalari va prinsiplariga ko'ra davlat boshqaruvining demokratik, avtoritar yoki totalitar siyosiy rejimlardagi turli xil ideologiyalar ustunlik jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Siyosiy tizim, siyosiy rejim, demokratik siyosiy rejim, avtoritar siyosiy rejim, totalitar siyosiy rejim.

### СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОНЯТИЯ И ВИДЫ ПОЛИТИЧЕСКИХ РЕЖИМОВ.

Аннотация

В данной статье рассматриваются понятие политического режима, его сущность, происхождение, развитие, общественно-политические и культурные аспекты политического режима, идейно-идеологические основы политического режима, политические цели, правила и принципы государственного управления, согласно В демократическом, авторитарном или тоталитарном политическом режиме выделены преимущества различных идеологий в этих режимах.

**Ключевые слова:** Политическая система, политический режим, демократический политический режим, авторитарный политический режим, тоталитарный политический режим.

### SPECIFIC ASPECTS OF THE CONCEPT AND TYPES OF POLITICAL REGIMES

Annotation

In this article, the concept of political regime, its essence, origin, development, socio-political and cultural aspects of the political regime, ideological and ideological bases of the political regime, political goals, rules and principles of the state administration, according to the democratic, authoritarian or totalitarian political regime the advantages of different ideologies in the regimes are highlighted.

**Key words:** Political system, political regime, democratic political regime, authoritarian political regime, totalitarian political regime.

Siyosiy rejimlarning kelib chiqishi va rivojlanishi tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Siyosiy rejimlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi asosan, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillarga bog'liq bo'ladi. Ularning tuzilishi va funksiyalari jamiyatning o'ziga xos xususiyatlariga moslashadi. Siyosiy rejimlarning tahlili jamiyatning siyosiy hayotini, davlat boshqaruvini va fuqarolarning huquqlarini tushinishda muhim ahamiyatga ega.

“Siyosatshunoslikda siyosiy rejim kategoriyasi hukmdorlar va boshqariladiganlar o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy mohiyati va tartibini hamda umuman boshqaruv usullari va samaradorligini tavsiflash uchun ishlatiladi. Siyosiy rejim hokimiyat buyrug'i sifatida qaraladi. Bular. Hokimiyat jamiyatga o'z ta'sirini siyosiy rejim orqali amalga oshiradi, bu hokimiyatni amalga oshirishning o'ziga xos shakllari va usullarini, vakolatlari hokimiyat tarmoqlarini tashkil etish tamoyillari bilan belgilanadigan davlat institutlarining muayyan tuzilmasini anglatadi”[1].

Siyosiy rejimlarning kelib chiqishi va rivojlanishining iqtisodiy omillarga to'htaladigan bo'lsak. Avvalo jamiyatning iqtisodiy holati rejimlarning shakllanishida katta ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning rivojlanishi siyosiy rejimni ta'sirlantiradi. Misol uchun, agrar jamiyatlarda odatda avtoritar rejimlar ko'proq uchraydi, chunki iqtisodiy resurslar markazlashgan bo'ladi. Iqtisodiy inqirozlar avtoritar rejimlarning paydo bo'lishiga yordam berishi mumkin. Tabiiy resurslarga ega

bo'lish, resurslar uchun kurash va iqtisodiy manfaatlar ham siyosiy rejimning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy rejimlarning kelib chiqishi va rivojlanishining ijtimoiy omili ijtimoiy sinflar, ularning manfaatlari va ular orasidagi munosabatlar siyosiy rejimlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, jamiyatdagi yuqori sinflar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun avtoritar rejimlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Siyosiy rejimlarning ijtimoiy omillari, fuqarolarning ijtimoiy harakatlarini qo'llab-quvvatlashga moyillik bildirganda, fuqarolarning ijtimoiy harakatlari rivojlanishi tezlashadi hamda ishchilar sinfi, ayollar, yoshlar yoki etnik guruhlarining huquqlari uchun kurashlariga imkoniyatlar ochilishi va buning natijasida jamiyatda demokratik o'zgarishlar yuz berishiga olib kelishi mumkin.

Siyosiy rejimlarning kelib chiqishi va rivojlanishining madaniy omillarga bog'liqligi ya'ni madaniy an'analar va diniy e'tiqodlar ham siyosiy rejimlarning rivojlanishida ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatdagi madaniy qadriyatlar - demokratiya, erkinlik, adolat - siyosiy rejimni belgilaydi. Masalan, demokratik qadriyatlarga ega jamiyatlarda demokratik rejimlar ko'proq rivojlanadi. Jamiyatning tarixidagi siyosiy tajribalar (inqiloblar, urushayotgan rejimlar) ham kelajakdagi siyosiy rejimlarni shakllanish va rivojlanish bosqichlariga ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy rejim tushunchasi mazmun-mohiyatini o'z ichiga qamrab olgan holda universal ta'rif berish qiyin.

Siyosatshunos J.L.Kermonn bergan ta'rif ko'pchilikka ma'lum: "Siyosiy rejim – ma'lum vaqt davomida ma'lum bir mamlakatda siyosiy hokimiyat shakllanishiga yordam beradigan mafkuraviy, institutsional va sotsiologik tartib elementlari yig'indisidir"[2].

Siyosiy rejim berilgan ta'rifga nazar soladigan bo'lsak. Avvalo muallif siyosiy rejimga bergan ta'rif orqali mamlakatdagi siyosiy hokimiyatning shakllanishi, faoliyati va amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan mafkuraviy, institutsional va sotsiologik elementlar majmuidan tashlik topganligini tushuntirishga harakat qilgan.

Siyosiy rejimning mafkuraviy, ideologik asoslari, ya'ni davlat boshqaruvining siyosiy maqsadlari, qoidalari va prinsiplariga ko'ra davlat boshqaruvining demokratik, avtoritar yoki totalitar rejimlarda turli xil ideologiyalar ustunlik qilishini ko'rishimiz mumkin.

Siyosiy tizimning tashkil etilishining institutsional elementlari orqali, davlat boshqaruvini tashkil etilish, ya'ni davlat organlari, partiyalar, saylov tizimi va boshqa institutsiyalari. Bu elementlar davlatning faoliyatini belgilaydi va siyosiy qarorlarni qabul qilish mexanizmlarini ta'minlaydi.

Siyosiy rejimning sotsiologik elementlariga ko'ra jamiyat va davlat boshqaruvida jamiyat a'zolarining siyosiy madaniyati, aholining siyosiy faolligi, ijtimoiy guruhlar va ularning munosabatlari. Bu elementlar jamiyatning siyosiy jarayonlarga bo'lgan munosabatini va ishtirokini aniqlaydi. Shu sababli, siyosiy rejimni to'g'ri tushunish uchun ushbu elementlarning o'zaro aloqasini va ularning mamlakatdagi siyosiy muhitga ta'sirini hisobga olish kerak.

"Siyosiy rejim shaxslarni boshqaruv pozitsiyalariga tayinlash, hokimiyatni amalga oshirish va o'tkazish modellarini, siyosiy jarayonda zo'ravonlikning rolini, shuningdek siyosat sub'ektlarining faoliyatini tavsiflaydi: siyosiy raqobat darajasi, siyosiy elitlarning yaqinlik darajasi, fuqarolarning boshqaruvda ishtirok etish darajasi, aktyorlarga yuklangan institutsional cheklolvar. Ba'zida siyosiy rejim tushunchasi jamiyatdagi siyosiy erkinlik va inson huquqlariga rioya qilish darajasini ham o'z ichiga oladi"[3].

Siyosiy rejimlar tarixiy jarayonlar, inqiloblar, urush va ijtimoiy harakatlar orqali o'zgarib boradi. Misol uchun, demokratik rejimlar ko'pincha inqiloblar natijasida paydo bo'ladi. Zamonaviy dunyoda globallashtirish ham siyosiy rejimlarga ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro munosabatlar, iqtisodiy aloqalar va madaniy almashinuv rejimlarning rivojlanishini tezlashtiradi. Jamiyat va davlatda iqtisodiy erkinlik va texnologiyaning rivojlanishi, ayniqsa, axborot texnologiyalari, siyosiy rejimlarning shakllanishiga va ularning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy rejimlarning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi tahlillar jamiyatning tarixiy kontekstida o'rganishni talab etadi. Siyosiy rejimlarning kelib chiqishining ijtimoiy omili jamiyatni ichki dinamikasi, iqtisodiy sharoiti, madaniy qadriyatlar va tarixiy konteksti bilan yaqindan bog'liq. Bu omillarning barchasi birgalikda jamiyatning siyosiy tuzumini shakllantiradi va uning rivojlanishini belgilaydi.

"Siyosiy rejim" (lotincha rejim, fransuzcha rejim - boshqaruv) tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy muomalada paydo bo'ldi. Bu siyosiy hayotning va butun jamiyatning siyosiy tizimining hodisasidir. G'arb siyosatshunosligi siyosiy rejimlarni o'rganish bo'yicha eng katta tajribani to'plagan. Sovet ijtimoiy fani uzoq vaqt davomida bu tushunchadan umuman chetga chiqib, bitta tushuncha - siyosiy tizimdan foydalangan. Siyosiy rejim nazariy kategoriya sifatida faqat davlat va huquq nazariyasi fanida boshqaruv shakli va davlat tuzilishi shakli kabi kategoriyalar bilan chambarchas bog'liq holda mavjud bo'lgan. 1985 yildan keyin SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlarda totalitarizm parchalanishi boshlanishi munosabati bilan bu muammo ham siyosiy nazariya, ham

siyosiy amaliyotda eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, turli mamlakatlarning katta nazariy tadqiqotlar bazasi va amaliy tajribasi mavjudligiga qaramay, ushbu muammoning ko'p jihatlarini na G'arbda, na mahalliy siyosatshunoslikda yagona echimga ega emas. Ilmiy adabiyotlarda siyosiy rejimga ta'riflar ko'p"[4].

Aytishimiz mumkinki, siyosiy rejim - bu jamiyat siyosiy tizimining asosiy elementlarining faoliyat ko'rsatishi va o'zaro bog'liqligi haqidagi qarashlarni bilib olishimizga yordam beradi. Jamiyat siyosiy tizimining asosiy elementlari qanday bog'langanligiga qarab, ular siyosiy rejimning u yoki bu turini va shunga mos ravishda siyosiy tizimning tipini tashkil qiladi. Siyosiy rejim konsepsiyasi asosiy hokimiyat tizimlari haqidagi g'oyalarni shakllantirish uchun asosiy hisoblanadi. Har qanday mamlakatdagi siyosiy rejimning tavsifi jamiyatning siyosiy hayotini tashkil etish tamoyillari haqida haqiqiy tasavvur beradi.

"Siyosiy rejim. Siyosiy tizim mohiyatini chuqurroq bilib olish uchun "siyosiy rejim" (siyosiy tartibot) tushunchasi mazmunini bilib olish juda muhim. Garchi, fransuz siyosatshunosi N.Dyuverje "siyosiy tizim" va "siyosiy rejim" tushunchalarini sinonimlar deb hisoblasa-da, bu ikki tushuncha o'rtasida muayyan farq mavjud. Chunki siyosiy tizim tushunchasi kengroq va siyosiy rejim uning ayrim jihatlarini ochib beradigan bir ko'rinishdir. "Siyosiy rejim" tushunchasi orqali hokimiyatga egalik qilishning u yoki bu shakli, davlat va siyosat tizimining amal qilishi anglashiladi.

Siyosiy rejim belgilari sifatida siyosiy etakchilik uchun kurash tabiatini (ochiq, yopiq) xalqning siyosiy hayotgan jalb etilganligini, xalqning siyosatdan chetlatilganligi yoki unga siyosatga ta'sir etish imkonining belgilanganligini, siyosiy rahbariyat qanday qadriyatlarga suyanishi (konservatizm, reformizm, revolyutsionizm va hokazolar)ni sanab o'tish mumkin. Yuqoridagi belgilarga ko'ra siyosiy rejimlar totalitar, avtoritar demokratik rejimlarga bo'linadi.

Amalda birorta siyosiy rejim sof holda uchramaydi. Shuningdek, siyosiy rejimlar rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lib, demokatiya, avtoritarizm yoki totalitarizmga, avtoritarizm demokratiyaga o'sib o'tishi mumkin. Quyida totalitar va avtoritar rejimlar to'g'risida qisqacha mulohaza yuritamiz"[5].

Demokratik siyosiy rejim — bu davlat boshqaruvi tizimi, unda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va siyosiy ishtirok etish imkoniyatlari kafolatlangan. Demokratiyaning asosiy prinsiplari va xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Demokratik siyosiy rejimda saylovlar muhim rol o'ynaydi, chunki ular fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlaydi. Saylovlar demokratiyaning asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi va ularning o'rni quyidagilar bilan izohlanadi.

Demokratik siyosiy rejimda jamiyat a'zolari davlat boshqaruvida faollik ko'rsatishlari uchun demokratik saylovlar orqali fuqarolar o'zlarining siyosiy huquq va erkinlarini namoyon etib jamiyatda turli xil o'zgarishlarni amalga oshiradilar. Davlat boshqaruvida fuqarolarning ishtiroki demokratiyaning asosiy prinsiplaridan biri bo'lib, u davlatning samaradorligi, shaffofligi va hisobot berishiga yordam beradi. Fuqarolarning ishtiroki quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi.

Saylovlar fuqarolarga o'z rahbarlarini tanlash imkonini beradi, bu esa ularning davlat boshqaruvidagi ishtiroki va ovozi ta'minlaydi. Fuqarolar o'z manfaatlarini ifodalash va siyosiy qarorlarda ishtirok etish imkoniga ega bo'ladilar.

Parlament va prezident saylovlarida fuqarolar o'z vakillarini tanlash imkoniga ega. Bu ularning davlat boshqaruvi ta'sir qilishini ta'minlaydi. Mahalliy saylovlar kengashlarga bo'lib o'tadigan saylovlar orqali fuqarolar

mahalliy hokimiyat organlarini saylash fuqarolarga o'z jamoalaridagi masalalarni hal qilishda ishtirok etish imkonini beradi.

Saylovlar davlat rahbarlarini fuqarolarga hisobot berishga majburlaydi. Agar rahbarlar o'z vazifalarini bajarishmasa, fuqarolar ularni saylovlarda chetlatish imkoniyatiga ega. Saylovlar muxolifat partiyalari va nomzodlarga imkoniyat beradi, bu esa siyosiy plyuralizmni ta'minlaydi. Fuqarolar turli siyosiy qarashlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Saylov jarayonida har bir fuqaro teng ovozga ega bo'ladi, bu ijtimoiy adolatni ta'minlaydi. Saylovlar orqali ijtimoiy muammolarni hal etish uchun talablar ifodalanadi. Adolatli va shaffof saylov jarayonlari fuqarolarda davlat institutlariga ishonchni oshiradi. Saylovlarning shaffofligi korrupsiya va manipulyatsiyalarga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. Saylov jarayonlari fuqarolarda siyosiy madaniyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, bu esa demokratik qadriyatlarni rivojlantiradi. Fuqarolarning siyosiy bilimlari va faolligi oshadi. Demokratik siyosiy rejimda saylovlar fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash, rahbarlarning mas'uliyatini oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va siyosiy plyuralizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular demokratiyaning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, davlatning barqarorligini ta'minlaydi.

Demokratik siyosiy rejimda jamiyat a'zolari davlat boshqaruvida faollik ko'rsatishlari uchun avvalo fuqarolik jamiyatlarida bo'lishi kerak bo'lgan siyosiy institutlarning faoliyatining me'yoriy huquqiy mexanizmlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi hamda NNTlar, fuqarolarning huquqlari, ekologik masalalar, ijtimoiy adolat va boshqa mavzularda faoliyat yuritishlari, fuqarolar o'z manfaatlarini ifodalash uchun birlashib, ijtimoiy harakatlar tashkil etishlari, fuqarolar davlat organlari tomonidan tashkil etilgan masxatlarda ishtirok etib, o'z fikr va takliflarini bildirishlari, ommaviy muhokamalarda qatnashish, ijtimoiy media orqali fikr bildirishlari, fuqarolar davlat organlariga shikoyat va takliflarini bildirish orqali o'z huquqlarini himoya qilishlari, ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali fuqarolar o'z fikrlarini ifodalash, muammolarni yoritish va davlat organlarining faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari, siyosiy bilimlarni oshirish uchun ta'lim dasturlari, seminarlar va treninglarda qatnashishlari, bu fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faol ishtiroki uchun muhimdir.

Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki demokratik tizimning samaradorligini ta'minlaydi. Ularning faolligi davlatni shaffof, hisobotli va fuqarolarning manfaatlariga mos holda boshqarishga yordam beradi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun fuqarolarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolar o'z rahbarlarini saylash huquqiga ega. Saylovlar adolatli, erkin va shaffof bo'lishi kerak. Saylov jarayonida muxolifat partiyalari va nomzodlarga imkoniyat berilgan. Fuqarolarning fikr bildirish, yig'ilish va assotsiatsiya huquqlari himoya qilinadi. Ommaviy axborot vositalari mustaqil bo'lib, senzura uchramaydi. Barcha fuqarolar, jumladan davlat rahbarlari, qonun oldida tengdir. Qonunlar aniq va shaffof bo'lishi, ularni bajarish uchun mexanizmlar mavjud bo'lishi kerak. Siyosiy partiyalar va harakatlar ko'pchilikni tashkil etadi, fuqarolarning turli qarashlari va manfaatlari ifodalanadi. Oppozitsiyaning mavjudligi va faoliyati kafolatlanadi. Fuqarolarning jamiyatdagi faolligi, volontyorlik harakatlari, NNTlar (notijorat tashkilotlari)ning rivojlanishi. Jamiyatning davlatga ta'siri va ta'riflash mexanizmi.

Fikrlarning erkinligi, tanqidiy muhokama va ijtimoiy debatlar ruxsat berilgan. Ommaviy axborot vositalari mustaqil va erkin bo'lishi kerak. Demokratik rejimlarga ega mamlakatlarga quyidagilar davlatlar kiritiladi. Bularga AQSh,

Kanada, Germaniya, Shvesiya, Avstraliya kabi davlatlarni kiritishimiz mumkin. Demokratik siyosiy rejim fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va davlat boshqaruvini shaffof qilishga asoslangan. Ushbu rejimlarning barqarorligi demokratik institutlarning samaradorligi, iqtisodiy rivojlanish va fuqarolik faolligi bilan bog'liq.

Avtoritar siyosiy rejim - bu davlatdagi siyosiy hokimiyatning markazlashgan, fuqarolarning siyosiy ishtirokini cheklovchi tizim. Ushbu rejimda davlat organlari va rahbarlari o'z manfaatlarini ilgari surishadi, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari ko'pincha cheklanadi. Avtoritar rejimning asosiy xususiyatlari:

Ommaviy axborot vositalari, internet va boshqa kommunikasiya kanallari davlat tomonidan kuzatib boriladi. Normativ-huquqiy hujjatlar orqali senzura amalga oshiriladi. Siyosiy muxolifat va oppozitsiyaga qarshi repressiyalar (qamoq, qo'zg'olonlarning bosilishi, ta'qib) amalga oshiriladi. Fuqarolarning siyosiy faolligi cheklanadi, mitinglar va namoyishlarga ruxsat berilmaydi. Saylovlar formal xarakterga ega bo'lishi mumkin, ammo ular odatda adolatli va erkin emas. Saylovlardagi natijalar ko'pincha manipulyatsiya qilinadi. Davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar. Davlat apparati juda katta, jamiyatning boshqa institutlari (sinf, partiyalar) davlat tomonidan nazorat qilinadi. Fuqarolarning jamiyatdagi faoliyati davlat manfaatlariga mos kelishi kerak. Avtoritar rejimlar ko'pincha o'z ideologiyasini taraqqiy ettirish uchun harakat qilishadi, bu esa jamiyatni birlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Ideologiya davlatning rasmiy pozitsiyalariga mos kelishi kerak. Avtoritar rejimlarda rahbarlik odatda bir shaxs yoki kichik guruhning qo'lida jamlangan bo'ladi. Rahbarlar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun har qanday vositalardan foydalanishlari mumkin. Hozirga davrda ko'plab mamlakatlarda avtoritar rejimlar mavjud, jumladan: Severnaya Koreya, Belarussiya, Turkiya (keyingi yillarda) va Rossiya (keyingi yillarda) davlatlarini kiritishimiz mumkin.

Avtoritar siyosiy rejim fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini cheklashi, jamiyatdagi muvozanatni buzishi va iqtisodiy rivojlanishni to'sishi mumkin. Ushbu rejimlarning barqarorligi ko'pincha iqtisodiy holat, xalqaro munosabatlar va ichki siyosiy vaziyat bilan bog'liq.

Totalitar siyosiy rejim - bu davlatning barcha sohalarida, jumladan, siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va madaniyatda to'liq nazoratni o'rnatishga intiluvchi hokimiyat shakli bo'lib, totalitar siyosiy rejimning asosiy xususiyatlari quyidagilar iborat.

Totalitar siyosiy rejimlar odatda mustahkam ideologiyaga ega bo'ladi, bu ideologiya davlatning rasmiy g'oyasi sifatida qabul qilinadi. Ushbu ideologiyadan aholini birlashtirish va ularning harakatlarini nazorat qilish uchun foydalaniladi. Siyosiy hokimiyat markazlashgan bo'lib, barcha qarorlar yuqori darajadagi rahbarlar tomonidan qabul qilinadi. Siyosiy partiya (odatda, yagona partiya) davlatning barcha sohalaridagi faoliyatni nazorat qiladi.

Totalitar siyosiy rejimlarda siyosiy muxolifat va o'zgarishlarga qarshi qat'iy choralar ko'riladi. Bu repressiya, senzura, qamoq va hatto jismoniy jazolarni o'z ichiga oladi. Davlat odamlarning hayotini to'liq nazorat qilishga harakat qiladi. Bu jumladan, axborot vositalari, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy tashkilotlarga nazoratni o'z ichiga oladi.

Totalitar siyosiy rejimlar aholini davlat maqsadlari uchun mobilizatsiya qilishga intiladi, bu esa ijtimoiy tashkilotlar, partiya faoliyati va propaganda orqali amalga oshiriladi.

Totalitar rejimlarga misol sifatida Sovet Ittifoqi (Stalin davri), Natsist Germaniyasi, KXDR va boshqa ba'zi mamlakatlarni keltirish mumkin. Ushbu siyosiy rejimlar

jamiyatdagi har qanday muxolifatni to'sish va davlatning barcha sohalarida o'z ta'sirini o'rnatish uchun kurashadilar.

Totalitar siyosiy rejimlar jamiyatdagi barcha sohalarida davlatning to'liq nazoratini o'rnatishga intiladi. Ushbu rejimlar mustahkam ideologiya, markazlashgan hokimiyat, repressiya, axborot nazorati va massoviy mobilizatsiya xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular muxolifatni qat'iy to'sib, aholini o'z maqsadlari uchun faollashtiradi. Totalitar rejimlar odatda inson huquqlarini buzadi va ijtimoiy adolatni yo'qotadi, bu esa jamiyatda qo'rquv va ishonchsizlik muhitini

yaratadi. Tarixda bunday rejimlarning natijalari ko'pincha fojiali bo'lgan, shuning uchun ularning ta'sirini tushunish va tahlil qilish juda muhimdir.

Hulosa qilib aytganda, demokratik, avtoritar va totalitar siyosiy rejimlar davlat boshqaruvidagi o'ziga xos tomonlari, siyosiy rejimlarning har biri o'zining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kontekstiga ko'ra turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ushbu rejimlar jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi va ularning ta'siri har bir mamlakatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Concept and types of political regimes. Democratic political regime | Legal system of modern states | Дзен (dzen.ru)
2. Odilqoriev X.T., D.X.Razzoqov. "Siyosatshunoslik" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan (Qayta ishlangan uchunchi nashr), Toshkent-2012 y. 101-bet.
3. Siyosiy rejimlar - Vikipediya (wikipedia.org)
4. Лекция 9. Политический режим (nicbar.ru)



УДК: 297.371

Эъзоaxon **МИРДЖАЛАЛОВА**,

Базовый докторант Международной исламской академии Узбекистана

E-mail: [ezoza1993@mail.ru](mailto:ezoza1993@mail.ru)

На основе рецензии начальника отдела Международного научно-исследовательского центра имама Матурудди, PhD.Сотволдиев О.

## HISTORY OF THE ARAB-MUSLIM CULTURAL PHENOMENON AND THE ETYMOLOGY OF THE TERM

Annotation

The Arab-Muslim world, as a historical-political concept, can be primitively regarded as the general civilizational status of countries united by the League of Arab States. But how can one understand Arab-Muslim culture within the Arab-Muslim world itself? What does it represent? And how can Arab-Muslim culture be considered in the etymological sense of the word? The demand for a definition by the global community is gaining momentum and requires a clearer and more substantiated approach. The reason for this may be the centuries-old disputes between ethnic groups, which have not found their rational-humanitarian resolution to this day. In this case, as a source scholar, one should first turn to the origins of the concept, which will allow for a more thorough study and objective assessment of this historical and cultural phenomenon.

**Key words:** Middle East, Muslim culture, Islamic culture, Arab-Muslim culture, historiography.

## ИСТОРИЯ АРАБО-МУСУЛЬМАНСКОГО КУЛЬТУРНОГО ФЕНОМЕНА И ЭТИМОЛОГИЯ ТЕРМИНА

Аннотация

Арабо-мусульманский мир как историко-политическое понятие, можно рассматривать в примитивном смысле как общее цивилизационное положение стран, объединенное с помощью Лиги арабских государств. А как же понять саму арабо-мусульманскую культуру в арабо-мусульманском мире? Что он представляет собой? И как же можно рассматривать арабо-мусульманскую культуру в этимологическом смысле этого слова? Спрос мировой общественности по определению набирает обороты и требует более четкого и обоснованного подхода. Причиной того могут послужить многовековые распри между этническими группами, которые не нашли своё рационально-гуманитарное разрешение и по сей день. В данном случае как источниковед, следует сперва обратиться к истокам понятия, что позволит более изучить и объективно оценить данный историко-культурный феномен.

**Ключевые слова:** Арабский восток, мусульманская культура, исламская культура, арабо-мусульманская культура, историография.

## ARAB-MUSULMON MADANIYATI FENOMENI VA ATAMANING KELIB CHIQISH TARIXI

Annotatsiya

Arab-musulmon dunyosi, tarixiy-siyosiy tushuncha sifatida, Arab davlatlari ligasi tomonidan birlashtirilgan mamlakatlarning umumiy sivilizatsiyaviy holati sifatida sodda qilib qaraladi. Lekin arab-musulmon madaniyatini arab-musulmon dunyosi doirasida qanday tushunish mumkin? U nimani anglatadi? Va arab-musulmon madaniyati so'zining etimologik ma'nosini qanday tushunish mumkin? Global hamjamiyat tomonidan ta'rif talabi kuchayib bormoqda va aniqroq va asoslangan yondashuvni talab qilmoqda. Buning sababi asrlar davomida etnik guruhlar o'rtasida kelib chiqqan nizolar bo'lib, bu kungacha o'zining ratsional-gumanitar yechimini topmagan. Bu holatda, manba olim sifatida, avvalo tushunchaning kelib chiqishiga murojaat qilish kerak, bu esa ushbu tarixiy-madaniy hodisani yanada chuqur o'rganish va ob'ektiv baholash imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** Yaqin Sharq, musulmon madaniyati, islom madaniyati, arab-musulmon madaniyati, tarixnavislik.

**Введение.** В условиях нынешнего периода арабский мир представляет собой колоссальную феноменальную авансцену эстетики, в котором могут переплетаться разнообразные: как восточные, так и остальные культуры с элементами эллинизма. Арабский мир как политическое понятие, можно рассматривать в примитивном смысле как общее цивилизационное положение стран, объединенное с помощью Лиги арабских государств. А как же понять арабо-мусульманскую культуру в арабо-мусульманском мире? Что он представляет собой? И как же можно рассматривать арабо-мусульманскую культуру в этимологическом смысле этого слова? Спрос мировой общественности по определению набирает обороты и требует более четкого и обоснованного подхода. Причиной того могут послужить многовековые распри между этническими группами, которые не нашли своё рационально-гуманитарное разрешение и по сей день. В

данном случае как источниковед, следует сперва обратиться к истокам понятия.

**Методология исследования.** Исследование арабо-мусульманской культуры требует многоаспектного подхода, который включает системный анализ, хронологию и изучение этимологии слова и т.д.. Вот как может быть структурирована методология по данной теме:

1. Системный анализ: Определение объекта и предмета исследования: Установление границ исследования, включая временные рамки и географические границы арабо-мусульманской культуры.

Анализ ключевых элементов: Изучение основных компонентов культуры, таких как язык, религия, искусство, наука и философия.

Изучение взаимосвязей: Рассмотрение взаимодействия между различными элементами культуры и их влияние на общую культурную динамику.

Динамический анализ: Отслеживание изменений в арабо-мусульманской культуре со временем и их влияние на современное состояние.

2. Хронология: Создание хронологической шкалы: Упорядочивание событий и явлений во времени для понимания исторического развития культуры.

Анализ причинно-следственных связей: Использование хронологии для понимания взаимосвязей между событиями и их последствиями.

3. История этимологии: Этимологический анализ терминов: Изучение происхождения и развития ключевых терминов, связанных с арабо-мусульманской культурой.

Влияние языка на культуру: Рассмотрение роли арабского языка как носителя культурных значений и его влияния на формирование культурной идентичности. Эта методология позволяет глубоко понять арабо-мусульманскую культуру, её историческое развитие и современное состояние, а также взаимодействие с другими культурами и цивилизациями.

**Анализ и результаты.** Арабо-мусульманский мир, включая страны Лиги, созданной 22 марта 1945 года на основании Александрийского протокола и её большой культурный мир может наизнанку представлять арабо-мусульманскую культуру во всех её красках. Но существуют и мнения о том, что данная синкретическая культура берёт начало с создания Аббасидского халифата (750–1258 гг.). В нынешний период его я рассматриваю как любую другую культуру, в котором есть элементы:

В первую очередь, арабской культуры доисламского и пост исламского периода;

Во вторых, исламскую культуру, либо мусульманскую и идентичность;

В третьих, смешанную, но синкретическую культуру, которая, в конечном итоге сформировалась как арабо-мусульманская.

Здесь будет уместно добавить воззрения ко второму пункту: по словам Роберта Мантрана, «мы должны видеть в этом ограничивающее значение, стремясь невольно различать арабов и мусульман, хотя на самом деле существует только одна литература с арабским выражением, даже если это иногда была работа неарабов или не арабов. –Мусульмане [19]. Здесь, как правило, знаменитый французский историк XX века Роберт Мантрана подразумевал и ссылался на священную книгу Коран как единое, что объединяет как арабов-бединцев, мусульман так и не мусульман под единым куполом ислама.

Английский и американский востоковед Бернард Льюис (Bernard Lewis) предложил использовать прилагательное «исламский» в культурном значении, а слову «мусульманский» придать религиозный смысл. Но подобное распределение соблюдается далеко не всегда. Действительно, существуют определенные преимущества, если определять термин «исламский» как «относящийся» к исламу, исторической кумулятивной традиции, а термин «мусульманский» рассматривать как «относящийся» к мусульманам, последователям определенной религии. В некоторых случаях это разделение может оказаться полезным и облегчить понимание материала.

Арабо-мусульманская культура – это комплекс духовных и материальных достижений народов исламского мира, включающий науки, искусства, ремесла, материальные артефакты и т.п. Под арабо-мусульманской культурой понимается также способ организации духовно-материального производства, включающий представления о социальном и политическом устройстве, человеке и его месте в мире, систему ценностей и другие факторы, определяющие поведение носителя культуры. Наконец, под арабо-мусульманской культурой можно понимать

способ осмысления мира, находящий свое выражение в картине мира и определенной эпистеме[14].

В данном определении термина автор Смирнов рассматривает арабо-мусульманскую культуру исключительно как исламскую, не зная на то, что данная культура включает в себя и достижения культуры доисламского периода. С научной точки зрения, арабская культура возникла задолго до появления религии ислам на протяжении их исторического развития. Внешними проявлениям арабской культуры принято считать классический арабский язык, изобразительное искусство, арабскую музыку, арабский фольклор и, конечно же, поэзию. Следовательно, здесь уместно сделать поправку в определении:

Арабо- мусульманская культура- это национально-духовное достояние арабов и других народностей доисламского и пост исламского периода, представляющее собой все, что создано людьми, не исключая при этом арабов что и отличает её от других цивилизаций. Культура включает в себя ценности, нормы, обычаи, верования, обряды, знания, умения, технику, технологии, искусство, литературу, историю и многое другое арабо-мусульманского сообщества.

Развитие арабо-мусульманской культуры тесно связано с процессом становления ислама в качестве религии, однако не ограничивается им как по хронологии, так и по существу. Арабо-мусульманская культура невозможна без учета доисламского арабского наследия, включающего в себя элементы неисламского происхождения. В настоящее время характеризуется сужением роли религии и вторжением западных цивилизационных образцов. Термин "арабо-мусульманская" следует понимать как указание на важную системообразующую роль арабского языка и арабской культуры, включая доисламский период, а также на значение народов исламского мира и их культурного наследия.

Итак, по исследованиям самого первого автора Смирнова А.В., рассмотревшего арабо-мусульманскую культуру под одной обложкой, в котором раскрыты произведения, представляющие всю традицию арабо-мусульманской философии от ее зарождения до настоящего времени можно констатировать, что в развитии арабо-мусульманской культуры обычно выделяют четыре этапа: 1) доисламский, который для арабов был периодом джахилии (полтора-два века до возникновения ислама), 2) классический (VII–XIII вв.), который часто называют также исламским; 3) период застоя (XIV–XIX вв.), или период «закрытия дверей иджихада», традиционалистский этап; 4) современный (после 2-й пол. XIX в.), который был открыт движениями «реформаторства» (ислаḥ) и «возрождения» (нахда) [14;9-10].

Примечателен тот факт, что развитие арабо-мусульманской культуры связано с развитием религии ислам, но она не ограничивается им ни по существу, ни хронологически. Данная культура немислима без арабского доисламского наследия (период джахилия [1;30]), также она включает в себя элементы иных религий, а на современном этапе характеризуется сужением роли религии и вторжением западных цивилизационных образцов. Название «арабо-мусульманская культура» следует понимать как указание, с одной стороны, на системообразующую роль арабского языка и культуры, в том числе доисламской, и с другой, на роль народов обширного исламского мира и их культурного наследия. Территориальной, религиозной и политической основой арабо-мусульманской культуры стала Аравия, которая оказалась дельтой в плане



экспансии арабо-мусульманского наследия. Можно сказать, что арабо-мусульманская культура, как следует из самого словосочетания, несет на себе печать ислама и арабизма с его духом свободы и терпимости, который сохранялся в эпоху арабской гегемонии в арабо-мусульманском обществе и его государстве – халифате. Однако в нынешний период, не смотря на сокращение территориальных единств в отличии от средних веков, арабо-мусульманская культура смогла сохранить идейно-эстетические палитры за пределами Лиги арабских государств. А первоначальное использование понятия как такового встречается в более поздних источниках. Так как для целостного представления синкретической арабо-мусульманской культуры понадобилось аж более тысячи лет, чтобы дать полноценное определение по существу и вывести эти хронологические и культурологические рамки для научной общности.

**Анализ источников.** Итак, впервые термин арабо-мусульманская культура был использован историками источниками нового периода. В.В. Бартольд: «Восток в мусульманскую эпоху продолжил культурную работу, прерванную в греко-римском мире, и в течение нескольких веков занимал в культурном отношении первое место. Эта культура и представляет собой так называемую арабо-мусульманскую культуру, началом которого является появление и распространение религии мусульман» [3]. Примечателен тот факт, что в исламских энциклопедических словарях [2] и пособиях невозможно найти аналогичное точное определение к данному понятию, но схожие понятие, либо приближенные разъяснения к термину не исключены [5, 15, 13, 18, 9, 4].

Не удивительно, что полное, но не полноценное определение арабо-мусульманской культуры впервые удалось собрать в виде единого пособия российским исламоведом Смирновым А.В., что позволяет нам создать целую картину философии арабо-мусульманской культуры. Не полноценное объясняется тем, что наука стабильно развивается и модернизированные взгляды, в свою очередь, прибавляясь общественностью постепенно становится достоянием общества. Арабо-мусульманская культурная традиция подчинила, исламу и ассимилировала новые для арабов народы под свою сущность и до сегодняшнего дня перевоплощает синкретические арабское и мусульманское культур воедино, тем самым добавляя новшества, взятые из корней новых либо приближенных цивилизаций.

В средневековой арабо-мусульманской цивилизации, как подчеркивает американский ориенталист Ф. Роузентал в работе "Торжество знания", "знание" приобрело такую значимость, которой нет

равных в других цивилизациях. "Знание", о котором идет речь, - и светское, и религиозное, однако его важное место в системе ценностей средневекового мусульманского общества свидетельствует по крайней мере о том, что в этом обществе было достаточно много образованных людей. Они исчислялись сотнями тысяч, что доказывает даже малая часть дошедших до нас рукописей, обогащавшие культурное наследие арабо-мусульманского мира.

Целесообразно полагать, что особенности арабо-мусульманской культуры и цивилизации в целом должны рассматриваться не в контексте противопоставлений - "Восток-Запад", старое и новое, прошлое и настоящее, самобытность и современность, традиционализм и рационализм, наследие и обновление, религиозное и национальное, - а на основе их взаимосвязи. В связи с этим важно ответить на вопрос, как сопоставить или как соотносить в философско-ценностном измерении классическую арабо-мусульманскую культуру, открытую к взаимодействию с другими культурами, и современную исламскую культуру, которая если и не противостоит, то, видимо, не готова к современным меж цивилизационному диалогу. В ареале мусульманской культуры в настоящее время одной из главных проблем является определение того неизменного, что должно сохраниться в решении вопроса о соотношении ислама как цивилизационного феномена и национализма как национально-государственного измерения в контексте перехода к индустриальному и постиндустриальному развитию обществ мусульманского Востока [20].

**Выводы и рекомендации.** В итоге можно констатировать, что даже в новейшем периоде истории и историографии арабо-мусульманской культурной эпистемы не даны полноценные определения данному термину. Можно смело заявить, что данный термин как таковой в новое время только начал присваиваться и применяться как таковой с середины XIX века. Все больше людей в мире хотят знать, как правильно определить этот вопрос и требуют более ясного и обоснованного решения. Это связано с тем, что веками существовали конфликты между разными народами, которые так и не смогли найти разумный и гуманный выход из ситуации. В статье доказано, что арабо-мусульманский культурный феномен берёт истоки даже в доисламскую эпоху, выявлены более ранние и поздние источники, рассматриваемые исламоведами, а также дана полная характеристика арабо-мусульманской культуры в терминологическом смысле этого слова, результаты которого могут быть применены как в эмпирическом, так и в теоретическом исламоведении и историографии ислама.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Ализаде А. А. Джахилийя // Исламский энциклопедический словарь. – М. : Ансар, 2007.
2. Али-Заде А. Исламский энциклопедический словарь. «Ансар» -2007.;
3. Бартольд В.В. Ислам и культура мусульманства. М.1992. С. 3.
4. Бартольд В. В. Мусульманский мир. П., 1922;
5. Басилов В. Н., Ложаснова Б. Р. Ислам и народная культура. – Институт этнологии и антропологии РАН, 1998. – 260 с. Современный ислам: культура и политика. – М.: Институт востоковедения РАН, 1994. – 162 с.;
6. Всемирная история. В 10 т., т. 3-4. М., 1957-58;
7. Гольдциер И. Ислам. СПб, 1911;
8. Ковалевский А. П. Книга Ахмеда Ибн-Фадлана о его путешествии на Волгу в 921–922 гг. Х., 1956;
9. Крачковский И. Ю. Избранные сочинения, т. 1-5. М.-Л., 1955-58;
10. Крымский А. Е. История арабов и арабской литературы, светской и духовной, ч. 1–2. М., 1911-12;
11. Крымский А. Е. Арабская литература в очерках и образцах. М., 1911;
12. Искусство стран ислама. Каталог. Составитель М. К.Вязьмитина. 1930;
13. Мухаммад Ф. Р. Исламская культура. – Андалус, 2005. – 238 с.;
14. Смирнов А.В. История арабо-мусульманской философии: Учебник и Антология. М.: Академический проект: ООО «Садра», 2020. С. 9.
15. Brill E.J. The Encyclopaedia of Islam. New edition Vol. V. Fasc. 91-92.

16. Islam in the World Today: A Handbook of Politics, Religion, Culture, and Society / ed. Werner Ende and Undo Steinbach. – Cornell University Press, 2010.;
17. Michael Cook. Studies in the Origins of Early Islamic Culture and Tradition. –17. Ashgate/Variorum, 2004. – 370 p. – ISBN 9780860789161.;
18. Umair Mirza Encyclopedia of Islam. Volume-5. 1986-02-01. Usage Attribution-NonCommercial-NoDerivs 4.0 International. P. 688.;
19. Арабо-мусульманский мир - frwiki.wiki
20. Проблемы понимания мусульманской культуры: Русская философия: Руниверс (runivers.ru)



UDK:821.512.133-13

*Kurshedjon MIRZABOYEV,*  
*Namangan muhandislik texnologiya instituti katta o'qituvchisi*  
*E-mail:mirzaboevhursedzon@gmail.com*

*Namangan muhandislik texnologiya instituti dotsenti Q. Sotiboldiyev taqrizi asosida*

## SPORTS AND PHYSICAL EDUCATION IN STUDENTS

Annotation

The problem of improving physical fitness and health of students remains the most important national problem. Playing sports is the main factor in the formation of a person as a person, the growth of his worldview and the strengthening of willpower. Playing sports is the leader of motivational factors in the formation of positive qualities of a person, gaining his own status in society. Protecting and strengthening the health of student youth is one of the priority tasks for higher education today. Each higher education institution should strive to increase the level of physical development of students, improve their sports skills, and promote a healthy lifestyle. This article explains the role of physical education and sports in the life of students.

**Key words:** physical education, sport, physical culture, healthy lifestyle, student, mental health, mental health.

## СПОРТ И ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ

Аннотация

Проблема повышения физической подготовленности и здоровья студенческой молодежи остается важнейшей общенациональной проблемой. Занятия спортом являются основным фактором формирования человека как личности, роста его мировоззрения и укрепления силы воли. Занятия спортом являются ведущим мотивационным фактором формирования положительных качеств человека, обретения собственного статуса в обществе. Защита и укрепление здоровья студенческой молодежи сегодня является одной из приоритетных задач высшего образования. Каждое высшее учебное заведение должно стремиться повышать уровень физического развития студентов, совершенствовать их спортивные навыки, пропагандировать здоровый образ жизни. В данной статье объясняется роль физического воспитания и спорта в жизни студентов.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, спорт, физическая культура, здоровый образ жизни, студент, психическое здоровье, психическое здоровье.

## TALABALARDA SPORT VA JISMONIY TARBIYA

Аннотация

Talaba yoshlarning jismoniy tayyorgarligi va salomatligini mustahkamlash muammosi eng muhim milliy muammo bo'lib qolmoqda. Sport bilan shug'ullanish kishining shaxs bo'lib shakllanishida, dunyoqarashining o'sish va irodaviy xususiyatlarining mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi. Sport bilan shug'ullanish shaxsning jamiyatda o'z statusiga ega bo'lish, ijobiy sifatlarining shakllanishida motivatsion omillarning yetakchisi sifatida maydonga chiqadi. Talaba yoshlar salomatligini asrash va mustahkamlash bugungi kunda oliy ta'lim oldidagi ustuvor vazifalardan biridir. Har bir oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy rivojlanish darajasini oshirish, ularning sport mahoratini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga intilishi kerak. Ushbu maqolda jismoniy tarbiya va sportning talaba yoshlar hayotidagi o'rni yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy tarbiya, sport, jismoniy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, talaba, aqliy salomatlik, ruhiy salomatlik.

**Kirish.** Dunyoning ko'pgina mamlakatlari uchun talabalar sporti sport sohasidagi milliy siyosatning asosi hisoblanadi. Bu sohaning ham elita sport zaxirasini shakllantirish, ham yoshlar o'rtasida sport madaniyati va sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini keng targ'ib etish borasidagi alohida ahamiyati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya yetakchi o'rinni egallagan sog'liqni saqlash va mustahkamlashda insonning turmush tarzining hal qiluvchi rolini tan olmaslik mumkin emas. Jismoniy tarbiya insonning yoshga bog'liq rivojlanishida juda muhim rol o'ynaydi. Bu nafaqat o'sib borayotgan organizmning normal jismoniy rivojlanishiga yordam berish va uni yaxshilash, sog'lig'ini mustahkamlash, balki shaxsning ma'naviy fazilatlarini shakllantirishga ham tegishli hisoblanadi. Bularning barchasi jismoniy tarbiyani to'g'ri tashkil etish, uni boshqa ta'lim turlari: aqliy, axloqiy, mehnat, estetika bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirishni talab qiladi.


Jismoniy tarbiya har bir inson hayotida muhim rol o'ynaydi, bu orqali insonning jismoniy rivojlanishi sodir

bo'ladi. O'z navbatida, jismoniy tarbiyada turli sport turlari alohida o'rin tutadi. Shu bilan birga, sport yoshlar, ayniqsa, talabalar hayotida alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalar sport bilan shug'ullanish orqali o'zlarini sog'lom turmush tarziga yo'naltiradilar. Biroq, aksariyat hollarda, universitetga o'qishga kirgach, yoshlar sport bilan faol shug'ullanishni to'xtatadilar. Sababi, ularning fikricha, asosli - ular o'qishlari bilan juda band.

Talabalarni jismoniy tarbiyalash oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biridir. Jismoniy tarbiyani tamomlagan talaba bu fanning inson rivojlanishi va mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyatini tushunadi. Jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi asoslarini biladi. Salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ta'minlaydigan amaliy ko'nikmalar tizimiga ega. Aqliy va jismoniy qobiliyat va sifatlarini rivojlantiradi va yaxshilaydi. Kelajakda hayotiy va kasbiy maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan va barkamol, yuqori malakali mutaxassisni shakllantiradigan katta tajriba paydo bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Hozirgi vaqtda sportchi shaxsi muammosining e'tiborga molik tadqiqotlari A.G.Asmolov, Ye.A.Klimov, A.A.Krilov, A.N.Leontev, G.S.Nikiforov, G.V.Suxodolskiy, V.D.Shadrikovlarning ilmiy konspetsiyalari mazmunida, shaxs tushunchasi tahlili bilan bog'liq tadqiqotlar B.G.Ananev, V.L.Marishuk, B.K.Merlin, Yu.P.Platonov, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin ilmiy izlanishlarida, yoshlar sportida trener faoliyatining psixologik jihatlarini S.I.Volkov, V.M.Proxorova, I.N.Reshetev, R.N.Terexinalar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Tadqiqotchi olimlardan M.G.Davletshin, E.G.G'oziev, B.R.Qodirov, G.B.Shoumarov, M.M.Mamatov, G.To'laganova, Z.T.Nishonova, R.I.Sunnatova, A.Rasulov, D.Arziqulov, D.Muxamedova, L.Tursunovlar muammoga sof psixologik jihatdan, Z.G.Gapparov, R.D.Xalmuxamedov, F.A.Kerimov, Y.N.Masharipovlar musobaqa muhiti omillari orqali yoritishga, T.S.Usmanxodjaev, A.N.Abdiev, N.T.To'xtaboev sportchilar kasbiy mahoratini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy jismoniy tarbiyada jismoniy tarbiya (umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning birligi, tananing shakllari va funktsiyalarining rivojlanishi, jismoniy sifatlari, harakat Tadqiqotchilarning kuzatishlariga ko'ra:



yoshlarning atigi 31,7 foizi (o'g'il bolalarning 20,1 foizi va qizlarning 11,6 foizi) "yuqori yutuqlar" sporti bilan shug'ullanadi. Boshqalar, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish salomatlikni saqlash uchun yetarli deb hisoblashadi [4].

O'z navbatida, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining muvaffaqiyati jismoniy rivojlanishning ma'lum darajasi, jismoniy va funktsional tayyorgarligi, qiziqishlar, motivlar, ehtiyojlar va qadriyatlarining shakllanishi bilan birgalikda tavsiflangan shaxsning jismoniy madaniyati darajasi bilan belgilanadi.

Jismoniy tayyorgarlikning asosini tizimli jismoniy mashqlar va sport tashkil etadi, buning natijasida turli harakat qobiliyatlari va jismoniy sifatlari shakllanadi va takomillashtiriladi, tana faoliyatidagi morfologik va funktsional o'zgarishlar majmuasi bilan tavsiflangan jismoniy tayyorgarlik bosqichma-bosqich rivojlanadi, tartibga solish, jismoniy faoliyatga moslashish, tiklanish jarayonlarini tezlashtirish mexanizmlari takomillashtiriladi[3].

Talabalar jismoniy tarbiyasining vazifalarini aniqlash uchun talaba shaxsining jismoniy madaniyati darajasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash kerak. Talaba shaxsining jismoniy madaniyati darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

✓ shaxsning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun jismoniy tarbiya va sportdan amaliy foydalanish zarurligiga hissiy va qadriyat ahamiyati va ishonchi, ijtimoiy va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarini shakllantirish uchun o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga tayyorlik;

✓ oliy maktab bitiruvchilarining ilmiy va amaliy tafakkurini shakllantiradigan jismoniy mashqlardan

qobiliyatlari va ko'nikmalari) shaxsga turli xil ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda jismoniy tarbiyaning ko'plab ijtimoiy ahamiyatga ega natijalariga faqat qisman erishilmoqda. Bularning barchasi talabalarning jismoniy tayyorgarligi muammosini ko'rsatadi[4].

Jismoniy tarbiyaning maqsadi uning yo'nalishi va mazmunini to'liq belgilaydigan boshlang'ich nuqtadir. Uning mohiyati shaxs va jamiyatning ob'ektiv ehtiyojlaridan kelib chiqishi kerak. Oliy ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya jarayoni shunday tuzilishi kerakki, talaba ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida uning markaziy figurasi bo'lsin hamda jismoniy madaniyatning yuksak darajasi shakllansin. Jismoniy madaniyat - bu salomatlikni mustahkamlash va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan inson faoliyati.

U tanani uyg'un rivojlantiradi va ko'p yillar davomida mukammal jismoniy holatni saqlaydi. Jismoniy tarbiya insonning umumiy madaniyatining bir qismi, shuningdek, jamiyat madaniyatining bir qismi bo'lib, jamiyat tomonidan insonning jismoniy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan qadriyatlar, bilimlar va me'yorlar yig'indisidir.

foydalanishning umumiy tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari bilan ishlashga imkon beruvchi jismoniy madaniyat bo'yicha fundamental bilimlar;

✓ jismoniy tarbiya vositalari yordamida ishlab chiqarish, tashkiliy, boshqaruv va tarbiyaviy ishlarni bajarishda ijodiy muammolarni qo'yish va hal qilish qobiliyati;

✓ harbiy xizmatni bajarishda jismoniy tarbiya ko'nikma va malakalariga amaliy ega bo'lish va ulardan kundalik hayotda foydalanish;

✓ sog'lom turmush tarzini uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil eta olish, mustaqil sport va kasbiy amaliy mashg'ulotlar usullarini egallash;

✓ kasalliklardan yoki yuqori neyro-emotsional stressdan keyin rehabilitatsiya qilish uchun jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish qobiliyati;

✓ ishlab chiqarish jamoasining mehnat va tarbiyaviy faoliyatiga, oilaviy hayotga jismoniy madaniyatni ijodiy joriy etish.

Jismoniy tarbiya jarayonini ham talabalarning ongli va faol faoliyatidagi tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zaro manfaatdorlik mavjud bo'lgandagina samarali bo'ladi - o'qituvchi o'qitishga intiladi, talabalar esa yangi bilim, ko'nikma, yangi jismoniy mashqlarni o'rganish, o'zlashtirish va takomillashtirishga intiladi [2].

Jismoniy tarbiyaning salomatlik maqsadlari:

- talabalar salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash;

- to'liq jismoniy rivojlanishga, barkamol fizikaga erishish;

- aqliy va jismoniy ish faoliyatini oshirish.

Jismoniy tarbiyaning tarbiyaviy maqsadlari:

- vosita ko'nikmalarini shakllantirish.  
 - vosita qobiliyatlarini rivojlantirish.  
 Jismoniy tarbiyada sportning tarbiyaviy vazifalari:  
 - jismoniy mashqlarga qiziqish va ehtiyojni shakllantirish;

- tarbiyalovchi faollik, mustaqil va axloqiy-irodaviy shaxs fazilatlarini.

O'z navbatida, talaba jismoniy tarbiyasida sportning maxsus vazifalari quyidagilarga qaratilgan:

- talabalarning har tomonlama jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligining yuqori darajasiga erishish;

- ushbu kasbiy faoliyat uchun ayniqsa muhim bo'lgan jismoniy fazilatlarini imtiyozli va maxsus rivojlantirish;

- kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradigan vosita ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish;

- talabalarning kelajakdagi faoliyatiga xos bo'lgan aniq mehnat sharoitida ishlashga tayyorgarlik;

- o'ziga xos irodaviy fazilatlarini tarbiyalash;

- talabalarning mehnat unumdorligini oshirishga hissa qo'shish;

- kasb-hunarga tezlashtirilgan o'qitishni rag'batlantirish va shaxsni yuqori samarali mehnatga tayyorlash;

- talabalarning faol dam olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish orqali ishchilarning ishlab chiqarishdagi shikastlanishlari va mehnat bilan bog'liq charchoqqa qarshi kurashishni ta'minlash.

Talaba jismoniy tarbiyasidagi sport jismoniy tarbiya tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u amaliy bilimlarni, jismoniy va maxsus fazilatlarini, qobiliyat va ko'nikmalarni shakllantirishi kerak, bu insonning muvaffaqiyatli faoliyatga tayyorligiga erishishga yordam beradi. Universitetda o'qishning butun davri davomida talabalarda aqliy faoliyat dinamikasi va yuqori aqliy faollikni saqlash kun va o'quv haftasidagi jismoniy faollik miqdoriga bog'liqligi aniqlandi. Binobarin, jismoniy va aqliy faoliyat o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. Tizimli jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida jismoniy ko'rsatkichlarning oshishi markaziy asab tizimining funktsional holatining yaxshilanishi bilan birga keladi, bu esa talabalarning aqliy faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida ta'kidlaganidek, bo'lajak mutaxassis shaxsini shakllantirish jarayoni sodir bo'ladigan universitetda o'qish davrida talabalar doimiy ravishda o'z ustida ishlash, tana xususiyatlarini o'rganish, oqilona ovqatlanish, jismoniy imkoniyatlaridan optimal foydalanish zarurligiga ishonch hosil qiladi. va sog'lom turmush tarzini olib boring. Sog'lom turmush tarzi omillarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, unga bo'lgan munosabat dinamikasi doimiy ravishda pasayib bormoqda, bu pasayish ijtimoiy muhitning o'zgarishi va turmush darajasining umumiy pasayishi bilan bog'liqdir.

Hozirgi kunda talabalar sportini shakllantirish va rivojlantirishda turli sport to'garaklarining ahamiyati katta. Gap shundaki, sport klubi jismoniy tarbiya va sport harakatining eng muhim tashkiliy shakllaridan biridir[4].

O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining zamonaviy sharoitlari bugungi kunda sport klublari ishining yangi shakllarini izlash masalalarini kun tartibiga qo'ydi. Birinchi navbatda, madaniyat va sport ishlarini yanada kuchaytirish, sport klublari faoliyatini kengaytirish, ikkinchidan, ular faoliyatining mohiyati, mazmuni va yo'nalishini o'zgartirish zarurati tug'ildi. Endi ular ikkita asosiy muammoni hal qilishmoqda. Birinchisi, sport klubi ishining demokratik xarakterini, insonparvarlik yo'nalishini kuchaytirish. Ikkinchisi, ommaviy sport (hamma uchun sport) va elita sportlari o'rtasidagi tub farqni hisobga oladi.

Sport to'garaklarida mashg'ulotlar o'quvchilarning muayyan jismoniy sifatlari va harakat qobiliyatlarini rivojlantirish, dam olish va boshqa yosh sportchilar bilan muloqot qilish, ijobiy his-tuyg'ularni olish, bo'sh vaqtlarini ijodiy va foydali o'tkazish uchun real imkoniyat yaratadi. Elita sportlari uchun esa, birinchi navbatda, sport mahoratini oshirish, istiqbolli sportchilarni tanlash kerak. Bu erda nafaqat o'zini ta'minlash, balki ularning asosiy zaxirasi - talabalar sportini ham boqish mumkin bo'lgan professional talabalar klublarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ommaviy sportning ham, talabalar sport ittifoqining yuksak yutuqlarga erishayotgan sport turlarining ham rivojlanishi ana shu birlikka bog'liq bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Shu bois mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlarida sport uslubi va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Afsuski, hozirgi vaqtda barcha talabalar sport turmush tarzining ahamiyatini tushunmaydilar. Bundan kelib chiqqan holda, universitet jismoniy tarbiya o'qituvchilari dars jarayonida talabalarga sog'lom turmush tarzining nazariy tamoyillarini qat'iyat bilan tushuntirib borishlari va uning asosiy qoidalarini kundalik hayotga kiritishga undashlari shart.

Umuman olganda, talabalarning turmush tarzi bo'lajak mutaxassislarning motivlari, qadriyat yo'nalishlari, mazmuni, usullari va shakllarining ko'rsatkichi ekanligini ta'kidlaymiz. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, talabalar odatda sog'lom turmush tarzini olib boradilar, sport bilan shug'ullanadilar, o'z sog'lig'ini nazorat qilishga harakat qiladilar, lekin yetarlicha dam olmaydilar, bo'sh vaqtlaridan oqilona foydalanmaydilar. Talabalarning muntazam mashg'ulotlarga bo'lgan ishtiyogini oshirish uchun ta'lim muassasalarida "jismoniy madaniyat" fanidan o'quv-uslubiy majmuani ishlab chiqish kerak[5].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, o'qituvchining asosiy vazifasi talabalarda jismoniy madaniyatga, yoki sodda qilib aytganda, harakatga, jismoniy faollikka, har doim jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish zaruratiga aylanadigan muhabbatni uyg'otishdan iborat.

#### ADABIYOTLAR

1. Видякин, М.В. Начинаящему учителю физкультуры/ М.В. Видякин - Волгоград: Учитель, 2004.- С.154.
2. Дергач, А.А., Исаев А.А. Творчество тренера / А.А. Дергач, А.А. Исаев // Физкультура и спорт, - М.1982. - С. 3-5.
3. Захаров Е.Н., Карасев А.В., Сафонов А.А., Энциклопедия физической подготовки: Методические основы развития физических качеств/ Е.Н. Захаров, А.В. Карасев, А.А. Сафонов, - М : Лептос, 1994.- 368с.
4. Ильинич, В.И. Физическая культура студента и жизнь. Учебник для ВУЗов/ В.И. Ильинич- М: Гардарики,2010- 368с.
5. Минаев,Б.Н.,Шиян Б.М. Основы методики физического воспитания школьников: Учебное пособие для студентов пед. спец. высш. учеб. заведений/ Б.Н. Минаев, Б.М. Шиян – М.: Просвещение, - 1989. – 222с.
6. Karimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar.-T.: «Zar qalam», 2004. – 334 b.
7. Klimov Ye.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. - Rostov-na-Donu: Izd-vo «Feniks», 1996. – 512 s.
8. Usmonxadjaev T.S. Nauchno-pedagogicheskie osnovy fizicheskogo sovershenstvovaniya detey v svyazi s ix dvigatelnoy aktivnostyu (na materialax obshchobrazovatelnykh shkol Uzbekistana) - T., 1995. – S.118 b 55.
9. Xalmuxamedov R.D. Boks nazariyasi va uslubiyoti.-T.,2008. – 108 b.
10. Shayxuddinov R.Z. Metodiki psixodiagnostiki v sporte. M., 2012 – 76 s.



UDK: 378.147

*Ma'rufjon MUTALLIBJONOV,*  
*Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail: mutallibjonov1985@mail.ru*

*Ped.fan.dok., professor M.Artikova taqrizi asosida*

## THE IMPORTANCE OF INDICATORS, CRITERIA AND TECHNOLOGY OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL MORALITY IN STUDENTS

Annotation

In this article, the development of professional spirituality is one of the important directions of the education system today. It is necessary to identify and use indicators, criteria and technologies for the development of professional morale of students. This article highlights the opinions and experiences of scientists on the development of professional spirituality.

**Key words:** spirituality, profession, professional spirituality, morality, professional qualification, professional ethics, standard

## ЗНАЧЕНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ, КРИТЕРИЙ И ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПРАВСТВЕННОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

Развитие профессиональной духовности сегодня является одним из важных направлений системы образования. Необходимо выявить и использовать показатели, критерии и технологии развития профессионального духа студентов. В данной статье освещены мнения и опыт ученых по вопросам развития профессиональной духовности.

**Ключевые слова:** духовность, профессия, профессиональная духовность, нравственность, профессиональная компетентность, профессиональная этика.

## TALABALARDA KASBIY MA'NAVIYATNI RIVOJLANTIRISH KO'RSATKICH, MEZONLARI VA TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish bugungi kunda ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirish uchun ko'rsatkichlar, mezonlar va texnologiyalarni aniqlash va ulardan foydalanish zarurdir. Ushbu maqolada olimlarning kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish bo'yicha fikrlari va tajribalari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviyat, kasb, kasbiy ma'naviyat, axloq, kasbiy malaka, kasb axloqi, mezon.

**Kirish.** Kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish bugungi kunda ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirish uchun ko'rsatkichlar, mezonlar va texnologiyalarni aniqlash va ulardan foydalanish zarurdir. Ushbu maqolada olimlarning kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish bo'yicha fikrlari va tajribalari yoritiladi. Kasbiy ma'naviyat, bu kasbiy faoliyat jarayonida insonning axloqiy qadriyatlarini, o'qib-axloq me'yorlari va ma'naviy qoidalarning mujassamlashgan ifodasi bo'lib, uning kasbiy faoliyatidagi axloqiy tamoyillarga rioya qilishini ta'minlaydi.

Kasbiy ma'naviyatni o'rganishda pedagogik va psixologik aspektlarni tizimlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada kasbiy ma'naviyatning pedagogik va psixologik jihatlari hamda ularning tizimlashtirilishi nazariy asosda tahlil qilinadi. Kasbiy ma'naviyatning pedagogik aspektlari ta'lim mazmunida aks etadi. Ta'lim jarayonida axloqiy qadriyatlar va ma'naviyat asoslari o'rganiladi. Bu esa talabalarning kasbiy faoliyatida axloqiy tamoyillarga amal qilishini ta'minlaydi. Pedagogik jarayonlarda ma'naviyat va axloqiy tarbiya darslari, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar orqali talabalarga kasbiy ma'naviyat haqida bilim beriladi.

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlar kasbiy ma'naviyatni shakllantirishda katta rol o'ynaydi. O'qituvchining shaxsiy namunasi, uning axloqiy qoidalarga amal qilishi talabalarga o'rnak bo'ladi. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi ochiq va samimiy munosabatlar talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantiradi. Shaxsiy xususiyatlar va axloqiy qadriyatlar kasbiy ma'naviyatning psixologik

jihatlarini tashkil etadi. Shaxsning ichki dunyosi, uning axloqiy tamoyillari va ruhiy holati kasbiy ma'naviyatning shakllanishiga ta'sir qiladi.

Shaxsning o'zini anglash, o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlari kasbiy ma'naviyatni mustahkamlaydi. Motivatsiya va axloqiy tamoyillar kasbiy ma'naviyatning psixologik asoslarini tashkil etadi. Kasbiy faoliyatda motivatsiya yuqori bo'lsa, shaxsning axloqiy tamoyillarga amal qilish ehtimoli oshadi. Psixologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, motivatsiya va ma'naviyat o'rtasidagi bog'liqlik insonning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shaxsiy rivojlanish va o'zini anglash psixologik jarayonlar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning o'z maqsadlarini aniqlashi, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishi va kasbiy ma'naviyatga mos keladigan qarorlar qabul qilishi uning psixologik kamolotiga bog'liq. Psixologik treninglar, maslahatlar va individual yondashuvlar orqali shaxsning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirish mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish talim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun ko'rsatkichlar, mezonlar va texnologiyalarni aniqlash va qo'llash zarurdir. Olimlarning asarlari va fikrlari ushbu yo'nalishda muhim manba hisoblanadi.

Lawrence Kohlberg: Axloqiy rivojlanish nazariyasida axloqiy qaror qabul qilish jarayonlari va shaxsiy axloqiy tamoyillarni rivojlantirish haqida so'z yuritadi. Uning fikriga ko'ra, axloqiy me'yorlarga amal qilish kasbiy ma'naviyatni

rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Asar: Stages of Moral Development (1971).

James Rest: Axloqiy baholash modeli axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini baholash uchun ishlatiladi. Bu model kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish ko'rsatkichlarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Asar: Moral Development: Advances in Research and Theory (1986).

Donald Schön: Kasbiy refleksiv amaliyot nazariyasida kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish haqida so'z yuritadi. Uning fikriga ko'ra, talabalarning kasbiy bilimlari va amaliyotdagi ko'nikmalari kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishda muhim ko'rsatkichdir. Asar: The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action (1983).

John Dewey: Tajribaviy ta'lim nazariyasida kasbiy bilimlarni amaliyot orqali o'zlashtirishni ta'kidlaydi. Bu yondashuv talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Asar: Experience and Education (1938).

Abraham Maslow: Inson ehtiyojlari iyerarxiyasi nazariyasida axloqiy qadriyatlar va qoidalar insonning yuqori darajadagi ehtiyojlari sifatida ifodalanadi. Uning fikricha, bu qadriyatlar va qoidalar kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy mezonlar hisoblanadi. Asar: Motivation and Personality (1954).

Carol Gilligan: Axloqiy rivojlanish nazariyasida g'amxo'rlik va adolat tamoyillari asosiy axloqiy qadriyatlar sifatida keltiriladi. Bu mezonlar talabalarning kasbiy ma'naviyatini baholashda muhim rol o'ynaydi. Asar: In a Different Voice: Psychological Theory and Women's Development (1982).

O'zbekistonda talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirish masalasi pedagogik va psixologik jihatdan keng o'rganilgan. O'zbek olimlari bu borada qator tadqiqotlar o'tkazib, ko'rsatkichlar, mezonlar va texnologiyalarni ishlab chiqqanlar. Quyida o'zbek olimlarining asarlarida keltirilgan fikrlar va tadqiqotlar asosida kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish bo'yicha ba'zi misollar keltiriladi.

M. M. Mo'minov: Axloqiy tarbiya va uning talabalarga ta'siri haqida yozadi. Uning fikriga ko'ra, axloqiy me'yorlarga amal qilish kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Axloqiy tarbiya jarayonida talabalarga halollik, adolat, mas'uliyat va hurmat kabi tamoyillarni singdirish muhimdir. Asar: O'zbek pedagogikasi: An'analar va zamonaviylik (2002).

A. Qodirov: Talabalarning kasbiy ma'naviyatini shakllantirishda axloqiy tamoyillarga amal qilish zaruriyatini ta'kidlaydi. U axloqiy me'yorlar va kasbiy axloqiy qoidalarga rioya qilishning talabalarning ma'naviy rivojlanishiga ta'sirini o'rganadi. Qodirovning dissertatsiyasida kasbiy bilim va ko'nikmalar talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. U kasbiy ta'lim jarayonida talabalar kasbiy bilimlarni qanday o'zlashtirishlarini tahlil qiladi. Asar: Kasbiy etika va ma'naviyat asoslari (2015) va Kasbiy ta'lim tizimida ma'naviyat va ma'rifat (2012).

N. To'rayev: Kasbiy bilim va ko'nikmalar talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. U kasbiy ma'naviyatni shakllantirishda kasbiy bilimlarni chuqur egallash va amaliyotda qo'llashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Asar: O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish muammolari (2009).

I. R. Muminov: Kasbiy ta'limda axloqiy tarbiya masalalarini o'rganib, kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish orqali kasbiy ma'naviyatni oshirish yo'llarini tavsiya etadi. Asar: Pedagogik mahorat va kasbiy tarbiya (2012).

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishda kompleks metodlardan foydalanish muhimdir. Bu metodlar ta'lim jarayonida pedagogik va psixologik

jihatlarini birlashtirishga qaratilgan. Kasbiy ma'naviyat, talabalarning kasbiy faoliyatlarida axloqiy va ma'naviy tamoyillarga amal qilishlarini ta'minlaydigan muhim jihatdir. Kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish talim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun ko'rsatkichlar, mezonlar va texnologiyalarni aniqlash va qo'llash zarurdir.

**Tahlillar va natijalar.** M. Eshonqulov: Axloqiy qoidalar va qadriyatlar kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishda muhim mezonlar sifatida baholanadi. U talabalarning axloqiy qoidalar va qadriyatlarga rioya qilish darajasini o'rganish va baholashni tavsiya etadi. Eshonqulovning dissertatsiyasida kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishda axloqiy me'yorlarga amal qilish muhim ko'rsatkich sifatida ta'kidlanadi. U talabalarning axloqiy tamoyillarga rioya qilish darajasini o'rganish orqali ularning kasbiy ma'naviyatini baholash usullarini keltiradi. Asar: Talabalarda kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari (2010) va Ma'naviyat va axloq asoslari (2013).

Sh. Karimov: Talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishda axloqiy qadriyatlarining o'rni haqida yozadi. Uning fikriga ko'ra, axloqiy qoidalar va qadriyatlar talabalarning kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Asar: Axloqiy tarbiya va uning asosiy tamoyillari (2014).

Talabalarning kasbiy faoliyatida axloqiy tamoyillarga rioya qilishlari asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu me'yorlar halollik, adolat, mas'uliyat, hurmat va insonparvarlik kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi. Talabalarning o'z kasbiy vazifalarini bajarayotganda axloqiy me'yorlarga amal qilishlari ularning kasbiy ma'naviyat darajasini ko'rsatadi.

N. Ahmedov: Shaxsiy rivojlanish va o'zini anglash kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy mezonlar hisoblanadi. U shaxsiy rivojlanish va kasbiy o'sishni bir-biriga bog'liq holda o'rganishni taklif etadi. Asar: Shaxsiy rivojlanish va kasbiy o'sish (2011).

U. Qosimov: Talabalarning o'zini anglash va shaxsiy rivojlanish qobiliyatlarini baholash orqali ularning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirish yo'llarini tadqiq qiladi. Asar: O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish (2015).

M. Yo'ldoshev: Interaktiv ta'lim texnologiyalari talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. U interaktiv metodlar va texnologiyalar orqali talabalarning axloqiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashni tavsiya etadi. Yo'ldoshevning dissertatsiyasida axloqiy qoidalar va qadriyatlar kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy mezonlar sifatida baholanadi. U talabalarning axloqiy qoidalar va qadriyatlarga rioya qilish darajasini o'rganish va baholash usullarini ko'rsatadi. Asar: Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlari (2016) va Axloqiy tarbiya va kasbiy ma'naviyat (2013).

A. Raxmatov: Interaktiv ta'lim metodlari va texnologiyalarini qo'llash orqali talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirish usullarini o'rganadi. Asar: Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning ahamiyati (2014).

Talabalarning shaxsiy rivojlanish va o'zini anglash qobiliyatlari ham kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishda muhim mezon hisoblanadi. Bu qobiliyatlar ularga kasbiy faoliyatda o'z axloqiy tamoyillariga rioya qilish imkonini beradi.

Z. Rahimov: Refleksiv amaliyot texnologiyalari talabalarning kasbiy tajribalarini tahlil qilish va ulardan saboq olish orqali kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishni ta'minlaydi. U refleksiv amaliyot metodlarini qo'llashni tavsiya etadi. Asar: Refleksiv ta'lim va uning pedagogik asoslari (2013).

Sh. Boboyev: Refleksiv amaliyot va kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish texnologiyalarini tadqiq qilib, talabalarning kasbiy faoliyatdagi axloqiy muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish yo'llarini ko'rsatadi. Asar: Kasbiy mahorat va refleksiv ta'lim (2015).

O. Yusupov: Axloqiy qaror qabul qilish texnologiyalari talabalarning axloqiy tamoyillarga amal qilish qobiliyatini oshiradi. U axloqiy dilemma va qaror qabul qilish jarayonlarini o'rgatish texnologiyalarini tavsiya etadi. Asar: Axloqiy qaror qabul qilish va kasbiy ma'naviyat (2012).

M. Zokirov: Talabalarning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali kasbiy ma'naviyatni oshirish texnologiyalarini o'rganadi. Asar: Kasbiy ta'limda axloqiy qaror qabul qilish (2014).

Bundan anglashimiz mumkinki, Talabalarning axloqiy qoidalar va qadriyatlarga rioya qilishlari kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishning asosiy mezonini hisoblanadi. Bu qadriyatlar talabalarning kasbiy faoliyatda axloqiy tamoyillarga amal qilishlarini ta'minlaydi. Axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

**Xulosa va takliflar.** Talabalarda kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish ko'rsatkichlari, mezonlari va texnologiyalari murakkab va keng qamrovli jarayonni o'z ichiga oladi. Olimlarning asarlari va fikrlari ushbu yo'nalishda muhim manba hisoblanadi. Axloqiy me'yorlarga amal qilish, kasbiy bilim va ko'nikmalar, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati

asosiy ko'rsatkichlar sifatida ta'kidlanadi. Axloqiy qoidalar va qadriyatlar, shaxsiy rivojlanish va kasbiy mas'uliyat mezonlar sifatida muhim rol o'ynaydi. Interaktiv ta'lim texnologiyalari, refleksiv amaliyot va axloqiy qaror qabul qilish texnologiyalari talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar talabalarning kasbiy ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

O'zbek olimlari talabalarda kasbiy ma'naviyatni rivojlantirish bo'yicha qator tadqiqotlar o'tkazib, ko'rsatkichlar, mezonlar va texnologiyalarni ishlab chiqqanlar. Axloqiy me'yorlarga amal qilish, kasbiy bilim va ko'nikmalar, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati asosiy ko'rsatkichlar sifatida ta'kidlanadi.

Axloqiy qoidalar va qadriyatlar, shaxsiy rivojlanish va kasbiy mas'uliyat mezonlar sifatida muhim rol o'ynaydi. Interaktiv ta'lim texnologiyalari, refleksiv amaliyot va axloqiy qaror qabul qilish texnologiyalari talabalarning kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar talabalarning kasbiy ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Avloniy A.. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi nashriyoti. 1992. –B.15.
2. Асмус В.Ф. Античная философия:— 3-е и зд.— М.: Высш. шк., 1999.— 400 с.; Семенов В.А. Античная философия Учебное пособие по курсу философии для студентов, магистрантов и аспирантов Учебное электронное издание Минск, БНТУ, 2008.
3. Таранов П. Энциклопедия высокого ума. М., 1999, с.16.
4. Xalq so'zi gazetasi. 2021 yil 20 yanvar, 13 (7793)
5. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Fors tojik tilidan N.Komilov tarjimasini. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq meros nashriyoti, 1994.-B.26.





*Samandar NORBUTAYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi*

*OzDJTU, PhD M.Miliyeva taqrizi asosida*

## INTERPRETATION OF CHANGES MANIFESTED IN THE BEHAVIOR OF MILITARY PERSONNEL IN STRESSFUL SITUATIONS

Annotation

Modern people today are reacting to side events and processes that have arisen due to their mental and emotional tension with their health, which is very valuable to them, as well as a decrease in working capacity. This article examines the problems faced by the sergeants of the National Guard of the Republic of Uzbekistan in their activities to maintain public order and ensure the safety of citizens, the stressful situations that occur in them in a chronic way, the consequences of this situation, as well as ways to prevent them.

**Key words:** Stress, stress resistance, stressors, stress response, stress symbiosis, service stress, family stress, information and financial stress.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИЗМЕНЕНИЙ, ПРОЯВЛЯЮЩИХСЯ В ПОВЕДЕНИИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В СТРЕССОВЫХ СИТУАЦИЯХ

Аннотация

Современные люди сегодня реагируют на побочные события и процессы, возникшие из-за их психического и эмоционального напряжения, связанного с их здоровьем, которое для них очень ценно, а также снижением трудоспособности. В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются сержанты Национальной гвардии Республики Узбекистан в своей деятельности по поддержанию общественного порядка и обеспечению безопасности граждан, стрессовые ситуации, которые возникают у них хронически, последствия этой ситуации, а также способы их предотвращения.

**Ключевые слова:** стресс, стрессоустойчивость, стрессоры, стресс-реакция, стресс-симбиоз, служебный стресс, семейный стресс, информационный и финансовый стресс.

## STRESSLI VAZIYATLARDA HARBIY XIZMATCHILAR XULQ-ATVORIDA NAMOYON BO'LADIGAN O'ZGARISHLAR TAHLILI

Аннотация

Bugungi kundagi zamonaviy insonlar yon atrofda kechayotgan voqea- hodisalar hamda yuzaga kelgan jarayonlarga o'zlarining aqliy va emotsional zo'riqishlari tufayli ularga juda qimmatli bo'lgan sog'lig'i, shuningdek, ish qobiliyatining pasayishi bilan reaksiya qilmoqdalar. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi serjantlarining jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyatida duch kelayotgan muammolar, ularda surunkali tarzda kechayotgan stressli vaziyatlar, bu holatning oqibatlari, shuningdek, ularni oldini olish usullari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Stress, stressga chidamlilik, stressorlar, stresslar reaksiyasi, stresslar simbiozi, xizmat stressi, oilaviy stress, axborot va iqtisodiy stress.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari ham jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xizmatga jalb qilingan vaqtida tegishli qaror qabul qilish va uni ijrosini ta'minlash jarayonida harbiy xizmatchilarning emotsional holati o'zgaruvchan bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda, qabul qilgan qarorlari natijasi uchun mas'uliyat ortadi. Harbiy xizmatchilar mazkur faoliyati doirasida stressli vaziyatlar sabab ruhiy zo'riqishni his qiladilar.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan 2006 yilda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, Yevropadagi 870 milliondan 100 millionga yaqini doimiy tashvish va ruhiy tushkunlik holatini boshdan kechirgan. 4 million kishi bipolyar affektiv buzilishdan, 4 million kishi esa vahimadan aziyat chekkan. Shu bilan birga, ruhiy kasallar tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli harakatlar ham ro'yxatga olinib, ular 36,6%ni tashkil etgan [2].

Ma'lumki, zamonaviy armiyada xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilarning hayoti stressli vaziyatlarga to'la. Ba'zi hollarda ular ijobiy ta'sirga ega

bo'lib, salbiy omillarga qarshilik ko'rsatishga yordam beradi. Boshqa hollarda esa stresslarning haddan tashqari ta'siri natijasida funksional tizimlar ishini beqarorlashtirishi va qaytarilmas jarayonlarga olib kelishi mumkin.

Ayrim xorijiy tadqiqotchilar ishlarida harbiy xizmatchining kundalik faoliyatida boshdan kechiradigan jismoniy va emotsional stress sharoitidagi tushunchalar ochib beriladi. Xususan, stressorlar – harbiy xizmatchilarda keskinlik (tez qo'zg'aluvchanlik)ni keltirib chiqaradigan, ta'sirga moslashishga qaratilgan har qanday tashqi ta'sirlardir [6].

Rus olimi R.S.Lazarus qarashlarida stress reaksiyalari – his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga himoya reaksiyalari va stressni bartaraf etish jarayonlari hamda harbiy xizmatchilarning ichki ruhiy holatini aks ettiruvchi subyektiv reaksiyalar hisoblanadi [4]. S.Folkmaning fikriga ko'ra stressorlarning simbiozi va organizmning talabga yoki zararli ta'sirga reaksiyasidir [1].

Amerikalik psixolog R.S.Lazarusning konsepsiyasiga ko'ra, "stress" ning psixologik va fiziologik turlari mavjud. Fiziologik stress haqiqiy jismoniy stimurning ta'siri bilan

bevosita bog'liq. U og'riqli ta'sirlarni, ortiqcha jismoniy yuklamani, ekstremal harorat sharoitlarini o'z ichiga oladi. Psixologik stress qaror qabul qilish zarurati, topshirilgan vazifa uchun javobgarlik, tajribalar, noroziliklar, nizolar, xavf-xatar signallarini o'z ichiga oladi [5, 6].

Shu o'rinda ta'kidlashimiz kerakki, har bir fan sohasi stressni o'ziga xosligidan kelib chiqqancha ta'rif beradi:

Tibbiy ensiklopediyada stress – bu organizmning turli kuchli yoki yangi ta'sirlari sovuq, og'riq, jismoniy zo'riqishlar, psixoemotsional travmalar va h.k.) ta'sirida rivojlanadigan nospetsifik reaksiyasidir [11]. Biologiya fani stress tananing har qanday kuchlanishi va ishlashiga to'sqinlik qiladi, deb hisoblaydi [12]. Sotsiologiya sohasini stressni psixologik, fiziologik va inson xulq-atvori darajasidagi ekstremal vaziyatlarda shaxsda yuzaga keladigan taranglik holati sifatida baholaydi [13].

Ayrim psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlarda stressga turlicha ta'rif berilgan, xususan, “stress” ta'limotining asoschisi Avstriyalik olim, fiziolog G.Sele tomonidan shaxs hayoti, faoliyati davomidagi ko'proq taranglik holati, deb ta'rif bergan [13].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tanada paydo bo'ladigan reaksiyalar adaptiv xususiyatga egadir. Shuning uchun stress shaxs hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Rus olimi I.P.Pavlov eksperimental ravishda stressni tananing asabiy holatidagi o'zgarish ekanligini tasdiqlagan, bu letargiya (uzoq uyquga o'xshash og'riqli holat, og'ir holatlarda deyarli sezilmaydigan nafas olish va yurak urishi) yoki giperaktivlikda namoyon bo'ladi. Bunday hollarda shaxsning umumiy faolligi pasayadi va reflekslar faolligi buziladi. Haddan tashqari qo'zg'alish holati yuzaga kelsa, tanada qo'zg'alish kuchayadi, tashvish, uyqu buzilishi hamda adrenalinning haddan tashqari ajralishi kuzatiladi. Qisqa qilib aytganda, odam muvozanatdan chiqib ketadi va ekstremal vaziyatlardan biri, ya'ni apatiya yoki giperaktivlik holatlaridan biriga tushadi. Har ikkala holat ham organizmga halokatli va zararli ekanligini isbotlagan [14].

E.Gellxorning ta'kidlashicha, insonda stress paydo bo'lgan vaqtda ham salbiy, ham ijobiy his-tuyg'ularni boshdan kechirish mumkin. Stressga tushganlarning tabiati vegetativ tizimning ikkita, ya'ni simpatik va parasimpatik omillarga reaksiyasi hisoblanadi [13]. Simpatik ijobiy his-tuyg'ularni va quvonchni keltirib chiqarsa, parasimpatik insonlar asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

R.S.Lazarus odamning stress vaqtidagi harakatlarga dosh berishi strategiyalarini ishlab chiqqan. Stress vaqtida insonning tahdidlarga subyektiv bahosi va ushbu tahdidlarni bartaraf etishda resurslar bilan belgilanadigan individual reaksiya, deya baholagan [5].

A.G.Maklakov esa “stress – organizmning unga taqdim etiladigan tashqi yoki ichki talablariga xos bo'lmagan javobidir” deb hisoblaydi [7].

Yu.V.Sheyrbatixga ko'ra, stress – bu tashqi va ichki muhitning inson tanasidagi kuchli hamda uzoq davom etdigan ta'siriga o'ziga xos bo'lmagan reaksiyasidir. Ushbu ta'sirlarga moslashishda neyrogormonal mexanizmlarni ishga tushiradi [9]. V.P.Zinchenko va B.G.Mesheryakov ta'kidlashicha, stress – bu kundalik holatlarda, alohida, eng qiyin sharoitlarda, ya'ni kosmik parvoz vaqtida ham ruhiy zo'riqish yuzaga keladi [8].

M.Kordvell o'zining psixologiya bo'yicha lug'at-ma'lumotnomasida stressni qo'zg'atuvchi reaksiya sifatida inson va atrof-muhit o'rtasidagi muvozanatning yo'qligini tushunish kerakligini yozgan. Stress atrof-muhitning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan biri bo'lib, bunda stress ham vaqt yetishmasligi, ham jamoadagi noqulay axloqiy-psixologik iqlim hisoblanadi. Stress – qiyin vaziyatlarda yuzaga keladigan ruhiy zo'riqish holatidir [8].

Biroq, G.Sele “Tirik odam doimo stressni boshdan kechiradi: uyg'onish, ochlik, ortiqcha ovqatlanish, tashnalik,

uyqusizlik, ish joyidagi hamkasblar va boshliqlar bilan yuzaga keladigan nizolar, oshiq bo'lish, kuyish va h.k.” [10]

I.V.Dubrovina stressni keskinlik holati, ekstremal va noqulay omillar (stressorlar) ta'sirida hayvonlar yoki odamlarda yuzaga keluvchi fiziologik himoya reaksiyalari majmui sifatida tushuntiradi [3].

Bizningcha, inson hayoti davomida xoh ijobiy, xoh salbiy stress ta'sirini boshdan kechiradi. Natijada faoliyatga kirishish, ekstremal vaziyatlarda yashab qolish refleksini psixofiziologik jihatda kuchaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Ya'ni, psixikaning fiziologik asoslari borasidagi qarashlarni chuqurroq o'rganish zarurati oshadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar ta'yanan holda, stressni quyidagicha ta'riflash imkoni yuzaga keladi: “Stress – tashqi va ichki ta'sirlarga nisbatan inson tanasi hamda ruhiyatining javob reaksiyasi” bo'lishi mumkin.

Ilmiy manbalarda stressning eustres va distress turlariga ajratiladi. Eustres – ijobiy, ya'ni harbiy xizmatchilar u bilan tanasining aqliy va jismoniy harakatlari hamda kuchlarini safarbar etadilar (masalan, har oying oxirida nazorat sinov mashg'ulotlarini amaliy va nazariy tartibda imtihon topshiradilar). Distress esa harbiy xizmatchilarni tanasi kuchining pasayishiga, ya'ni ularning asabiylashishlari yoki haddan tashqari beparvo bo'lib qolishlariga olib keladi. Ya'ni stressing ijobiy hamda salbiy tomonlari tushuntiriladi.

Bizningcha, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xizmatga jalb qilingan harbiy xizmatchilarda yuzaga keluvchi stresslarni shartli ravishda quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

- xizmat stressi – bu harbiy xizmatchilarda jamoat xavfsizligini ta'minlash xizmatida yuzaga keladigan ekstremal vaziyatlarga ularning tayyor bo'lmaganliklari oqibatida yuzaga kelishi mumkin;

- oilaviy stress – bu harbiy xizmatchilarning oilaviy munosabatlarda salbiy holatlarning ko'pligi bilan ta'riflanadi. (masalan, er-xotin orasidagi doimiy kelishmovchiliklar, yaqin qarindoshlarning harbiy xizmatchiga bo'lgan salbiy munosabati va h.k.).

- axborot va iqtisodiy stresslar – jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xizmatga jalb qilingan harbiy xizmatchilarda ijobiy, salbiy axborotlarning ko'payishi, uning to'liq axborot qolipiga tushib qolishi hamda bugungi kunda ularga to'lanadigan pul ta'minotini rejali sarflamasliklari oqibatida yuzaga kelishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarda stress belgilari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- o'zi xizmat qilayotgan hududda xizmat qilishdan norozilik;

- xizmat o'tash vaqtida arzimagan voqealarga asabiylashishi;

- harbiy xizmatchining o'zini-o'zi hurmat qilishining pasayishi va h.k.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalarida xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilarda xizmat yuklamasining ko'payishi oqibatida hissiy zo'riqishlar, stresslar ularda turli xil kasalliklar (bosh og'rig'i, yurak-qon tomir kasalliklari) ni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. To'xtovsiz davom etayotgan stress va ruhiy zo'riqishlar ta'sirida harbiy xizmatchilarda o'z faoliyatidan charchash paydo bo'ladi.

Har bir harbiy xizmatchi o'zida yuzaga kelayotgan ruhiy zo'riqish va stresslarni oldi olinmasa, u astalik butun jamoada tushkunlik, kayfiyatni tez-tez o'zgarishiga kabi hislar qamrab olishini yuzaga keltirishi mumkin. Buning natijasida jamoada keskinlik, xizmat samaradorligi pasayishi, xizmatga bo'lgan motivatsiyaning pasayishi hamda boshliqlarni asossiz tanqid qilish holatlari yuzaga kela boshlaydi.

Aynan shu nuqtai nazardan komandir(boshliqlar) tomonidan shxsiy tarkibda yuzaga keladigan turli darajadagi

stresslarni oldini olish harbiy xizmat samaradorligini oshirishiga xizmat qilishi hamda ularning ruhiy holatini yaxshilashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Bizningcha, stresslar boshqarilmasligi jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari harbiy xizmatchilarida stresslarning quyidagi alomatlarini yuzaga keltirishi mumkin:

-harbiy xizmatchiga berilgan odatiy vazifalarni bajarilishida xatoliklarga yo'l qo'yilishi;

- harbiy xizmatchilarni doimiy charchoqni his etishlari;

- xizmat jarayonida xotiraning pasayishi;

- xizmat vaqtida arzimagan voqea-hodisalarga agressiv reaksiya qilish;

- harbiy xizmatchilarda uyqusizlik va o'yanchlik;

- harbiy xizmatchilarni haddan ziyod qaysarligi;

- harbiy xizmatchilarda ishtaha yo'qolishi yoki doimiy ochlikni his etishi;

- harbiy xizmatchilarda xizmatdan keyingi maishiy muammolarning ko'payishi dam olish imkoniyatini pasaytirishi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari harbiy xizmatchilarida stressga olib keladigan omillar sifatida,

Birinchidan, harbiy xizmatchilarga taalluqli bo'lmagan ob-havoning keskin sovib ketishi, muntazam havo haroratining isib ketishi, narxlarning keskin oshishi, inflyatsiya darajasini oshib ketishi;

Ikkinchidan, harbiy xizmatchining o'ziga xos kasbiy, shaxsiy muammolari – komandir (boshliq)larning shaxsiy tarkibni har doim ham suhbat vaqtida tushunmasligi, rotatsiya masalalari, oiladagi iqtisodiy qiyinchiliklar, maishiy

muammolarning ko'payib borishi, kasbiy-harbiy tayyorgarlikdagi muvaffaqiyatsizliklar, xizmat munosabatlarida iltimoslarni rad eta olmaslik, aybdorlik hissini kuchayishi va natijada shaxsiy chegaralarni buzilishi ko'rishimiz mumkin boldi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida hatbiy xizmatchilarda yuzqaga keladigan stressli vaziyatlarni tahliliy o'rganish natijalariga ko'ra quyidagi xulosaga keldik. Xususan, harbiy xizmatchilarda stresslarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash aynan psixoprofilaktikani kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Birinchi, harbiy xizmatchilarda vaziyatga oid stresslarni oldini olish o'z harakatlarini yakunin obyektiv baholay olishi zarur ekan. Bu ko'proq harbiy xizmatchining o'z shaxsiy vaqtini to'g'ri taqsimlay olmasligi, bo'sh vaqtini nozarur ishlarga sarflashi kabi holatlar bilan tushuntirish mumkinligi o'rganildi.

Ikkinchi, harbiy xizmatchilar jamoasida xizmat vaqtida yuzaga keladigan turli ekstremal vaziyatlarga shaxsiy munosabatini o'zgartirishi zarurligi. Mazkur holat jamoadagi harbiy xizmatchilarning xulq-atvori, fikr-mulohazalarini to'liq nazorat qilishning imkoniyati yo'qligi, shuningdek, atrofda qilishni his-tuyg'ularini nazorat qilishni emas balki o'zini o'zi boshqarishi zarurligini tushunishi kerakligi kuzatildi.

Uchinchi, harbiy xizmatchilarda ekstremal vaziyatlarda stressni boshqarish bo'yicha alohida harbiy me'zonlarni yaratish, stressni shaxsiy tarkibinbg psixosotsial munosabatlariga ta'sirini o'rganish, adolatlilik tamoyilining ekstremal vaziyatlardagi me'yorini belgilash kabi ayrim muammolar kuzatilishi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Бодров В.А. Психологический стресс: развитие учения и современное состояние проблемы. – Москва: Ин-т психологии РАН, 1995. 128 с.
2. Дубровина В.И. Словарь для начинающего психолога. – СПб., 2010. Стр.12.
3. Всемирная организация здравоохранения: обзор основных проблем здравоохранения. ВОЗ/Eye1упHockвle1п. [электронный ресурс].- Режим доступа. // [http://www.who.int/governance/eb/who\\_constitution\\_ru.pdf](http://www.who.int/governance/eb/who_constitution_ru.pdf). // Мурожаат санаси: 12.03.2016).
4. Исследовательский центр портала Superjob [электронный ресурс]. -Режим доступа: <http://www.superjob.ru/> // Мурожаат санаси: 12.02.2016.
5. Лазарус Р.С. Теория стресса и психофизиологические исследования. // Эмоциональный стресс: сб. ст. – Ленинград: Медицина, 1970. С.178.
6. Lazarus R.S., Folkman S. Coping and adaptation. // The Handbook of Behavior Medicine. – New York: Guilford, 1984. P. 282-325.
7. Маклаков А.Г. Общая психология.–СПб.,2012. стр 456.
8. Психологический словарь / под ред. В.П. Зинченко, Б.Г. Мещерякова. – М., 2004. Стр. 404.
9. Щербатых Ю.В. Психология стресса и методы коррекции. – СПб., 2012. Стр.15.
10. G.Selye. Moslashuv sindromi haqidagi esselar / G. Sel'ye. Moskva: Medgiz, 20b.-254p;
11. URL: <http://medicina.dobro-est.com/stress-prichinyi-factoryi-simptomiyi-i-snyatie-stressa.html> (Мурожаат санаси: 01.09.2018).
12. URL: <http://kemgkb4.ru/soobshhenie-o-stresse-biologija> (Мурожаат санаси: 20.09.2018.)
13. URL: <http://kemgkb4.ru/stress-v-sociologii> (Мурожаат санаси: 01.09.2018).
14. URL: <http://zerostress.ru/chto-takoe-stress/teorii-stressa> (Мурожаат санаси: 23.09.2018.).



UDK:091

*Erkin OMONOV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti erkin izlanuvchisi*  
*E-mail: erkin.omonov@mail.ru*

*O'zR OM Senati bosh maslahatchisi, f.f.d. S.Sanginov taqrizi asosida*

## EKOLOGIK ONGNING TIPOLOGIYASI, SHAKLLANISH OMILLARI VA FUNKSIYALARI

Аннотация

Mazkur maqolada ekologik ongning turlari va xususiyatlari chuqur tahlil qilinib, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va jamiyat hayotidagi rollari o'rganiladi. Muallif ekologik ongning turli shakllarini tasniflaydi va uning shakllanishiga yordam beruvchi psixologik, ijtimoiy va tarbiyaviy omillarni o'rganadi. Bundan tashqari, maqolada ekologik ongning amaliy vazifalari, jumladan, uning atrof-muhit xulq-atvoriga ta'siri, siyosatni ishlab chiqish va jamoatchilik ishtiroki muhokama qilinadi. Ushbu keng qamrovli tadqiqot ekologik xabardorlikni oshirish va ekologik mas'uliyatli harakatlarni rag'batlantirishga qiziqqan tadqiqotchilar, o'qituvchilar va siyosatchilar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** Ekologik ong, tipologiya, shakllanish omillari, atrof-muhit xulq-atvori, psixologik omillar, ijtimoiy omillar, tarbiyaviy omillar, atrof-muhit siyosati, jamiyat ishtiroki, ekologik javobgarlik.

## ТИПОЛОГИЯ, ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ФУНКЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ

Аннотация

В данной статье подробно анализируются различные виды и характеристики экологического сознания, изучаются факторы, влияющие на его развитие и роль в жизни общества. Автор классифицирует различные формы экологического сознания и изучает психологические, социальные и образовательные факторы, способствующие его формированию. Кроме того, в статье обсуждаются практические последствия формирования экологического сознания, включая его влияние на экологическое поведение, разработку экологической политики и активизацию экологических инициатив. Это комплексное исследование предоставляет ценную информацию для исследователей, преподавателей и политиков, заинтересованных в повышении экологической осведомленности и продвижении экологически ответственных действий.

**Ключевые слова:** экологическое сознание, типология, факторы формирования, экологическое поведение, психологические факторы, социальные факторы, образовательные факторы, экологическая политика, участие сообщества, экологическая ответственность.

## TYPOLOGY, FACTORS OF FORMATION AND FUNCTIONS OF ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS

Annotation

In this article, various types and characteristics of ecological consciousness are analyzed in depth, the factors affecting its development and its role in the life of society are studied. The author classifies various forms of ecological consciousness and studies the psychological, social and educational factors contributing to its formation. In addition, the article discusses the practical implications of environmental consciousness, including its impact on environmental behavior, policy development, and public participation. This comprehensive study provides valuable insights for researchers, educators, and policy makers interested in increasing environmental awareness and promoting environmentally responsible actions.

**Key words:** environmental consciousness, typology, formation factors, environmental behavior, psychological factors, social factors, educational factors, environmental policy, community participation, environmental responsibility.

Ekologik muammolarni hal etishning asosiy jihatlaridan biri yangi ekologik ongni shakllantirishdir. Bu tabiatni muhofaza qilishning muhimligini anglash, barcha tirik mavjudotlar va ularning atrof-muhitining o'zaro bog'liqligini tushunish va kelajak avlodlar oldida o'z harakatlari uchun javobgarlikni o'z ichiga oladi. Ammo ekologik ongni o'zgartirish shunchaki mavhum tushuncha bo'lib qolmasligi kerak.

Ushbu mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlilli ekologik ongga turli yondashuvlar va fikrlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, I.G.Gonochilina asarlarida ekologik ongning tuzilishi, M.N.Slyapnikova maqolalarida ekologik ongni shakllanishiga san'at vositalari ta'sir qilish, V.V.Valykovskayz ekologik ong va ekologik tarbiya axloqiy va estetik tarbiya bilan bog'liqligi masalalariga asosiy e'tobor qaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, tahlil va sintez, tizimli yondashuv va ilmiy bilishning boshqa usullariga asoslanadi.

**Tahlil va natijalar.** Ekologik muammolarni hal qilish jamiyatning barcha qatlamlarida individual ongdan tortib, global siyosiy va iqtisodiy chora-tadbirlargacha kompleks yondashuvni talab qiladi. "Ekologik ongning tuzilishi atrof-muhit holati va ekologik sohada sodir bo'layotgan voqealarga shaxsiy ishtirok etish haqida tashvishlanishda namoyon bo'ladigan hissiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi; kognitiv komponent, atrof-muhitga bo'lgan e'tiqod va atrof-muhitni bilishda ifodalangan; Fuqarolar atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha o'z faoliyatiga va hokimiyatning kelajak avlodlar uchun tabiiy yashash muhitini saqlash bo'yicha faoliyatiga bog'laydigan ma'no va qadriyatlarga asoslangan faoliyat komponentidir. Ekologik ongning ekotsentrik tipini

shakllantirish hissiy darajadan boshlanadi va atrof-muhitga ijobiy munosabat namunasiga asoslanadi" (1).

Ekologik ongni chuqur miqyosda o'zgartirishning ahamiyati va uning tabiiy muhit barqarorligiga ta'siri haqidagi munozaralaringiz ekologik muammolarni muhokama qilishning muhim jihatlari tashkil etadi. Darhaqiqat, butun sayyoramiz aholisining ekologik ongini rivojlantirish ekologik muammolarni hal qilishning asosiy omilidir. Inson faoliyati va atrof-muhit o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish odamlarga ko'proq ongli qarorlar qabul qilish va odatlarini yanada barqaror turmush tarziga o'zgartirish imkonini beradi. Ekologik ongga inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni tushunishni o'z ichiga olgan ijtimoiy ong shakli sifatidagi ta'rif, shuningdek, bu tushunchadan kundalik faoliyatda foydalanish ekologik ongi va faolligi haqidagi zamonaviy g'oyalarga to'la mos keladi. "Atrof-muhit ongini rivojlantirish jarayoniga dialogizm holatining kiritilishi bizni fan uchun noan'anaviy, ammo odamlar uchun an'anaviy bo'lgan usullarga murojaat qilishga, unga ta'sir ko'rsatishga majbur qildi. Biz qo'yilgan muammoni har qanday ijobiy hal qilish faqat ijodiy harakatlar majmui sifatida mumkinligini aniqladik, shu bilan birga ongga ta'sir qilish san'at vositalari orqali eng samarali amalga oshiriladi" (2).

Sharq va G'arb ekologik onglari o'rtasidagi farqlarni tavsiflash ham dolzarb ko'rinadi. Ular tabiat va atrof-muhitga turli madaniy va falsafiy yondashuvlarni tasvirlaydi. Uyg'unlik va tabiatga hurmatga yo'naltirilgan Sharqiy ekologik ong insonning atrof-muhit bilan muvozanatli munosabati haqida qimmatli saboqlarni berishi mumkin. G'arb ekologik ongi tabiatni ilmiy tushunishga va texnologik echimlarga urg'u berib, ekologik muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni taklif qilishi mumkin. Umuman olganda, sizning atrof-muhitni muhofaza qilish va uning tabiat va insoniyatni asrashga ta'siri haqidagi bayonotingiz atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi keyingi muhokama va harakatlar uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan muhim g'oyalarni o'z ichiga oladi.

Atrof-muhit odob-axloqi tabiatga hurmat va muhabbatni hisobga oladigan yangi axloqning asosi sifatida ekologik etikani tushunish atrof-muhitga munosabatni o'zgartirish yo'lidagi muhim qadamdir. Bunday axloqni qabul qilish jamiyatning iste'mol qadriyatlari va munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga yordam beradi. Texnologik sivilizatsiyada qadriyatlarni o'zgartirish mexanizmi sifatida ekologik huquqiy ongni joriy etish insonning tabiat bilan munosabatlarini tartibga solishda huquqiy normalar va standartlarning rolini ta'kidlaydi. Bunda tegishli qonun va meyoriy hujjatlarni qabul qilish ham, fuqarolarni ekologik mas'uliyat ruhida tarbiyalash ham kiradi. Shu boisdan ham mamlakatimizda "ekologiya sohasidagi ishlarning ahvolini yaxshilash" (3) muhim ahamiyatga ega.

Ekologik inqirozdan chiqish uchun nafaqat texnologiya va iqtisodiy modellarni o'zgartirish, balki jamiyat mentaliteti va ma'naviyatini ham tubdan o'zgartirish zarur. Tabiatga hurmat va unga g'amxo'rlik qilishga asoslangan ekologik ong atrof-muhitni asrash va insoniyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'lishi kerak. Ekologik ong bir qancha ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, jumladan, kognitiv (tabiatdagi munosabatlarini tushunish), tarbiyaviy (tabiatga hurmatni shakllantirish) va amaliy (ekologik jihatdan oqilona qarorlar qabul qilish). Ekologik ong ijtimoiy ongning axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy va iqtisodiy kabi boshqa shakllari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Masalan, barqaror rivojlanishga erishish uchun axloqiy va estetik mezonlar huquqiy va siyosiy ongda aks etishi kerak.

Ekologik ongning mohiyati tabiatga insoniy munosabatda bo'lish va o'zini tabiiy dunyoning bir qismi sifatida anglashdadir. Ekologik ongning rivojlanishi tabiatga

ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uning boyligi va go'zalligini saqlashga intilish orqali namoyon bo'ladi.

Ekologik ong ekologik axloq bilan bogliq. Ekologik axloq inson ongini tabiatga hurmat va muhabbatga yo'naltirish, shuningdek, jamiyatning iste'molchi munosabatidan voz kechish muhimligini anglatadi.

Ekologik ongni yana bir jihati - ekologik huquqiy ondir. Ekologik huquqiy ong - ekologik siyosatni huquqiy qo'llab-quvvatlash va sivilizatsiya rivojlanishining yangi paradigmasini yaratish uchun qoidalarni izlashning o'rnini aniqlashga xizmat qiladi.

Ekologik ongni muhim jihati koevolyusiya goyasi bilan bogliq. Koevolyusiya - jamiyat ehtiyojlari va tabiat imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga alternativa sifatida jamiyat va tabiatning o'zaro rivojlanishini nazarda tutadigan tushuncha hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida tabiiy muhitni saqlab qolgan holda mamlakatning boshqariladigan va uyg'un rivojlanishini ta'minlash uchun koevolyusiya konsepsiyasini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bunday tahlil va ekololar barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va ekologik muammolarni samarali hal etishda foydali bo'lishi mumkin.

Inson va tabiatning birligi muammosi faqat ilmiy manfaatlar bilan chegaralanib qolmaydi, balki obyektiv qarama-qarshiliklarni va ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlarini aks ettiruvchi o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega. Bunday murakkab muammoni samarali hal etish uchun g'oyaviy, ilmiy, ma'naviy-axloqiy ko'rsatmalar beradigan tegishli nazariya zarur. Shunday qilib, inson va tabiatning birligini ilmiy va falsafiy tushunishga, shuningdek, diniy va falsafiy ta'limotlar tomonidan ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ekologik ongni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Global ekologik inqirozning kuchayishi sababli ekologiya tobora ijtimoiy yo'naltirilgan bo'lib bormoqda. Olimlar jamiyatning ilmiy asoslangan rivojlanishi zarurligini tan oladilar. Ekologik xulq-atvor muammolari, jumladan, diniy va falsafiy xususiyatga ega bo'lgan jihatlar tadqiqotchilarning diqqatini tortadi. Jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammosi insonning global ekologik muammolarning markaziy elementi sifatidagi o'rnini bilan bog'liq. Ekologik rivojlanishning eski tushunchalari insonni faqat ko'p omillardan biri sifatida ko'rib, uning ma'naviy va gumanistik jihatini e'tiborsiz qoldirdi. Bir qator madaniyatlarda diniy asosda dunyoga va tabiatga ijobiy munosabat shakllangan. Bu ekologik muammolarni hal qilishda diniy va axloqiy jihatlar muhimligini ko'rsatadi. Birinchidan, global ekologik inqiroz kuchayib borayotganiga javoban jamoatchilik ongini o'zgartirish zarur. Bu inson faoliyati atrof-muhitning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan baholanadigan yangi paradigmani o'rnatishni o'z ichiga oladi. Din, ijtimoiy organizmning bir qismi sifatida, insonning tabiat bilan munosabatlarini aniqlash uchun an'anaviy qadriyatlarga tayanib, o'z hissasini qo'shishi kerak. Hozirgi vaqtda ongning ekologik yo'nalishi ustun bo'lishi kerak. Ikkinchidan, sanoat jamiyatining qadriyatlar tizimi va zamonaviy ekologik imperativ o'rtasidagi ziddiyatlarga ishora qiladi. Din barcha muammolarni hal qila olmaydi, lekin umuminsoniy axloqiy tamoyillarning sintezi sifatida u umuminsoniy qadriyatlar dunyosini yaratishga hissa qo'shishi va ekologik vaziyatni yaxshilashga hissa qo'shishi mumkin. Bu tabiatni asrash uchun kurashda imonlilar va dinsizlarning say-harakatlarini birlashtirishning muhim shartiga aylanishi mumkin. Bizning nazarimizda, dindagi ma'naviy jihatlar tabiatga ongli munosabatda bo'lishga yordam berishi mumkin, bu esa diniy va madaniy an'analarda singdirilgan ekologik meyor va tamoyillarga asoslanadi.

Ekologik ongni shakllantirishning universal omillariga ekologik ta'lim, ekologik tarbiya va jahon dinlari tomonidan

targ'ib qilinadigan qadriyatlar kiradi. Din, jumladan, uning g'oyalari va e'tiqodlari odamlarning atrof-muhit bilan munosabatlarini tartibga soladi, iqtisodiy faoliyatning turli shakllarini qonuniylashtiradi. Shunday qilib, u barqaror rivojlanishni rag'batlantirish va ekologik ongni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Hadislarida Payg'ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Pok bo'linglar, zero Islom pok dindir va faqat pok kishilar jannatga kirur" (4).

Musulmon dunyosida insonning tabiat bilan munosabatini shakllantirishda din muhim o'rin tutadi. Islom manbalarida asosan diniy va axloqiy tamoyillar bilan bog'liq bo'lgan ekologik ko'rsatmalar mavjud. Ushbu ko'rsatmalar jamiyatning barqaror rivojlanishiga erishish yo'lida asosiy yo'l-yo'riq bo'lishi mumkin va islomga asoslangan qadriyatlar yangi ekologik madaniyatni shakllantirishga yordam beradi. Musulmon dunyosidagi zamonaviy diniy-falsafiy tafakkur ekologik inqirozning yechimini islom dini ostida yangi axloqiy muhit yaratishda ko'radi.

Ekologik ongni shakllantirishda ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynaydi. Shu bois aholining ekologik muammolardan xabardorligini oshirish uchun ushbu muassasalarning tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyat yuritishi zarur. Ekologik inqiroz bugungi kunda asosan ta'lim va axloq masalasiga aylanib bormoqda. Jamiyatning tabiatga ta'sir darajasi shaxsning ichki dunyosiga bog'liq. Shuning uchun ekologik ongning shakllanishi ma'naviy sohada o'zgarishlar bilan bog'liq.

Ijtimoiy ong ekologik ongni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan ekologik qadriyatlarni tasdiqlash, shuningdek, odamlar va ularning qadriyatlarini saqlab qola oladigan dunyoqarashni shakllantirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Diniy qadriyatlar ekologik ongni shakllantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Sotsiologik tadqiqotlar odamlar ongini qayta qurish va ekologik muammolarni hal qilish uchun jahon dinlarining ekologik qadriyatlaridan foydalanish zarurligini tasdiqlaydi. Bu topilmalar jamiyat hayotining turli sohalarini o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va ekologik muammolarni hal qilishda turli resurslardan, jumladan, diniy qadriyatlardan foydalanish muhimligini ko'rsatadi. Islom dini din sifatida hayotning dunyoviy va ma'naviy sohalarini ajratmaydi, aksincha, ularni birlashtirishga yordam beradi. Bu diniy islom ta'limotlaridan dindorlarni atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolarni hal qilishga safarbar qilish uchun asos sifatida foydalanish imkonini beradi. Bu xususda Alloh taolo "An'om" surasida bunday deydi: "Yer yuzidagi har bir jonot va ikki qanoti ila uchuvchi qush borki, hammasi siz kabi ummatlardir" (38 oyat), ya'ni hayvonlarning har bir turi yoki oilasi alohida olingan ummat hisoblansa, aynan shu hukm bilan ular boshqa ummatlar orasida yashashga, mavjudlik haqqiga egadir" (5).

OAV jamoatchilik fikrini shakllantirish va odamlar ongiga ta'sir qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular diniy e'tiqodlar haqidagi noto'g'ri qarashlar va stereotiplarni engishga yordam beradi va ekologik qadriyatlarining ahamiyatini va ularning diniy ta'limotlarga mosligini tushunishga yordam beradi. Shuni hisobga olish kerakki, turli musulmon mamlakatlari va ularning jamiyatlarida diniy o'ziga xoslik har xil rol o'ynashi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda islom milliy borliqning asosi bo'lib, ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor normalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, musulmon mamlakatlari va possovet hududidagi diniy va ekologik muammolar o'rtasidagi murakkab dinamikani tushunish ekologik muammolarni bartaraf etish va barqaror rivojlanishga ko'maklashish uchun yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Atrof-muhit muammolari zamonaviy jamiyat uchun eng muhim masalalardan biriga aylangan. Tabiat, birinchi

navbatda, inson ehtiyojlarini qondirish uchun manba sifatida qaraladigan antropotsentrizmning tarqalishi atrof-muhit uchun jiddiy oqibatlariga olib keldi. Bunday muammolarni hal qilish uchun ekologik ongga stixiyali yondashuvdan ijtimoiy, texnologik va tabiiy munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan tizimli yondashuvga o'tish kerak. Bu bizga atrof-muhit bilan samarali munosabatda bo'lish, shuningdek, antropotsentrizmdan ekologik markazga o'tish imkonini beradigan yangi fikrlash paradigmatlari va modellarini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu jarayonda ekologik ongni shakllantirish va rivojlantirish sohasidagi tadqiqotlar asosiy o'rin tutadi. Bu ijtimoiy-madaniy omillar tabiatni idrok etish va uni muhofaza qilish va barqaror foydalanish bilan bog'liq qadriyatlarni shakllantirishga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi.

Ekologik ongning asosiy xususiyatlari, nafaqat muammoni tushunishimizni aks ettiradi, balki uni hal qilish uchun harakatni faol ravishda rag'batlantiradi. Bu bizga nafaqat muammolarni ko'rish, balki yangi texnologiyalarni rivojlantirish, fikrlash tarzimiz va turmush tarzimizni o'zgartirish orqali ularni bartaraf etishga intilish imkonini beradi. Shunday faol va ongli ekologik ong orqali biz sayyoramizni saqlab qolish va barchaga barqaror kelajak yaratish uchun harakat qilishimiz mumkin. "Ekologik bilim elementlarini falsafiy, tarixiy, diniy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy, estetik ongga kiritish demakdir. Ekologik ongni jamiyatning ilg'or rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan hukmron ijtimoiy ongga aylantirish shartlaridan biri tabiiy muhit holatini ijtimoiy taraqqiyot mezonlari va iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga erishishdir. Ekologik bilimlarni davlat darajasida tashkil etilgan faoliyat sifatida targ'ib qilish, mustahkam moliyaviy yordam ko'rsatish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Tabiatni hissiy va estetik idrok etish asosida yosh bolalar bilan ishlashdan boshlab ekologik ta'lim tizimini yaratish ham muhim hisoblanadi. Ekologik tarbiya axloqiy va estetik tarbiya bilan bog'liq bo'lishi kerak" (6).

Atrof-muhit ongining antropotsentrizmdan ekotsentrizmga bo'lgan evolyusiyasi tabiat haqidagi va bizning unga bo'lgan munosabatimizdagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Sof insonparvarlikdan butun tabiiy muhitga yaxlit tizim sifatida hurmatli munosabatda bo'lishga o'tgan qarash insoniyatning dunyodagi rolini tushunishda "kamolot" ko'rsatkichidir. Bu o'zgarishlarda ijtimoiy-madaniy omillar muhim rol o'ynaydi, chunki ular jamiyat qadriyatlari, meyorlari va dunyoqarashini shakllantiradi. Eksploatsion sivilizatsiyadan o'z-o'zini tashkil etuvchi sivilizatsiyaga o'tish inson idrokining tabiatni resurslar manbai sifatida ko'rishdan uni umumiy yashash maydoni sifatida tushunishgacha o'zgarishini ko'rsatadi, bunda inson faqat ishtirokchilardan biri hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Ekotsentrizmga yo'naltirilgan zamonaviy ekologik ong bioxilma-xillikni saqlash, tabiiy resurslardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish muhimligini anglashni o'z ichiga oladi. Bu bizga o'zimizni tabiiy dunyoning asosiy o'yinchisi sifatida emas, balki kattaroq ekotizimning teng huquqli ishtirokchisi sifatida ko'rish imkonini beradi.

Neoekologik ong, axborot jamiyatining shakllanishi bilan bog'liq yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarni aks ettiruvchi qiziqarli falsafiy va sotsiologik tushunchadir. Ushbu konsepsiyada taklif qilingan asosiy tamoyillar va texnikalarni ko'rib chiqishga imkon beradi:

a) Naturalizm: bu tamoyil hodisalarni yagona tabiiy va ijtimoiy-tarixiy voqelikning bir qismi sifatida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Bu yondashuvda tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tushunish, shuningdek, ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishda tabiiy qonuniyatlarni qo'llash muhim.

b) Obyektivizm: bu tamoyil tabiatga nisbatan qimmatli mulohazalar zarurligini ko'rsatadi. U tabiatni hurmat qilish,

himoya qilish va asrashni talab qiluvchi mavjudot sifatida tan olish muhimligini ko'rsatadi.

c) Operatsionizm: bu usul ekologik muammolarni hal qilish modellarini mantiqiy qurishda ilmiy tushunchalarni aniqlashni o'z ichiga oladi. U mavhum tushunchalarni muayyan ekologik muammolarni hal qilish uchun aniq usullar va harakatlarga aylantirishga yordam beradi.

d) Birgalikda evolyusiya: bu tamoyil tabiat va jamiyatning birgalikdagi va uyg'un rivojlanishini muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi. Demak, jamiyat va tabiat o'zaro bog'liq holda, bir-biri bilan uyg'unlikda rivojlanishi kerak.

e) Sinergetika: bu usul har qanday real tizimni murakkabroq, lekin termodinamik jihatdan barqaror holatga aylantirish imkoniyatini aks ettiradi. Bu tabiat va jamiyatning turli jihatlarining murakkabligi va o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda ekologik muammolarning moslashuvchan va barqaror yechimlarini topish muhimligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, neoyekologik ong - bu tabiiy va ijtimoiy-madaniy jihatlarni hisobga oladigan, shuningdek, inson va tabiatning uyg'un yashashiga intiladigan ekologik muammolarni hal qilishning yaxlit yondashuvning asosidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Гоношилина И.Г. Экологическое сознание : Социально-политический аспект : диссертация ... канд. филос. наук. - Ульяновск, 2003. - 174 с.
2. Шляпникова М.Н. Экологическое сознание в условиях антропологического кризиса : диссертация ... канд. филос. наук. - Волгоград, 1997. - 116 с.
3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. 20-21 betlar.
4. No'monov M. Islomda tabiatga munosabat. –T.: Movarounnahr, 2011. -B.3.
5. Otaboyev SH., Mirvaliyev S.va Tursunov E.– Ekologiyada madaniyat va ma'naviyat muammolari. –T.: Nishon noshir nashriyoti, 2009. –B.257.
6. Вальковская В.В. Экологическое сознание как самосознание цивилизации: диссертация ... док. филос. наук. - Москва, 2000. - 371 с.



UDK:378.046.4

**Baxodirjon ONORBOYEV,**  
*O'zR VM mas'ul xodimi, t.f.d, professor*  
**Alibek ABDULLAYEV,**  
*Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, t.f.n*  
*E-mail: quqon\_alibek@mail.ru*

*Qo'qon DPI katta o'qituvchisi, PhD A.Kamolov taqrizi asosida*

## METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL TRAINING OF COMPUTER SCIENCE TEACHERS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Annotation

The development of pedagogical science has always been based on the advanced research results of the entire scientific community. Therefore, the concept of the development of a teacher of Informatics in the process of developing continuous professional training in the process of professional development with the active use of methodological approaches and universal principles should be carried out taking into account domestic and foreign experience. This article describes the concept of developing professional training of Informatics teachers in advanced training courses, methodological approaches and based on universal principles.

**Key words:** innovative thinking, concept, continuous, integrative approach, synergistic approach, motivational, skills and competencies, pedagogical activity, competence, professional training, mixed model.

## МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Аннотация

Развитие педагогической науки всегда основывалось на передовых результатах исследований всего научного сообщества. Поэтому концепцию развития непрерывной профессиональной подготовки учителя информатики в процессе повышения квалификации с активным использованием методических подходов и общедоступных принципов следует реализовывать с учетом отечественного и зарубежного опыта. В данной статье изложена концепция развития профессиональной подготовки учителей информатики на курсах повышения квалификации, методологические подходы и обоснование общедидактических принципов.

**Ключевые слова:** инновационное мышление, концепция, непрерывный, интегративный подход, синергетический подход, мотивационный, навыки и умения, педагогическая деятельность, компетентность, профессиональная подготовка, смешанная модель.

## MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Pedagogika fanining rivojlanishi doimo butun ilmiy jamoatchilikning ilg'or tadqiqot natijalariga asoslanib kelgan. Shu sababli, metodologik yondashuvlardan va umumdilaktik tamoyillardan faol foydalangan holda informatika o'qituvchisini uzluksiz kasbiy tayyorgarligini malaka oshirish jarayonida rivojlantirishning konsepsiyasini mahalliy va xorijiy tajribani hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Ushbu maqolada informatika o'qituvchilarini malaka oshirish kurslarida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi, metodologik yondashuvlar va umumdidaktik tamoyillarga asoslanishitahlili bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion fikrlash, konsepsiya, uzluksiz, integrativ yondashuv, sinergetik yondashuv, motivatsion, ko'nikmalar va malakalar, pedagogik faoliyat, kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik, aralash model

**Kirish.** Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri – uzluksiz ta'lim, professional kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning zamonaviy tizimini yaratish vazifasini hal qilish uzluksiz kasbiy ta'lim xizmatlari iste'molchilarini qo'llab-quvvatlash tizimini yaratishni nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida ta'lim muassasalari ishini tashkil etishning yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Bu "jamiyat talab qiladigan uzluksiz ta'limni barpo etish uchun axborot ta'lim resursini ko'p qirrali rivojlantirish va turli ta'lim tuzilmalari tajribasini uyg'unlashtirish"ni nazarda tutadi. Bunday o'zgarishlar faqat asosiy tashkil etuvchi elementi oliy kasbiy ta'lim muassasasi bo'lgan yagona axborot ta'lim makonida samarali amalga oshirilishi mumkin degan fikr mavjud. Ta'lim muassasalarida IT texnologiyalar, bulutli texnologiyalar, elektron tashkiliy shakllar va ta'lim vositalari hisobiga ta'lim ishtirokchilarining

shakllangan tuzilmalarini buzmagan holda fan, ta'lim va hayotni integratsiyalash zarur[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** T.S.Skorobogatova o'qituvchining pedagogik faoliyatda ta'limning zamonaviy usullari, innovatsion shakllari va vositalaridan foydalanishga tayyorligi uchun quyidagi bilim va ko'nikmalarni ajratib ko'rsatadi: motivatsion; axborot-mazmunli; tashkiliy - reflektiv[4]. M.M.Abdurazakov o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlagan holda, informatika fani o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorligining quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatadi: shahsiy; mazmunli - jarayoniy; motivatsion; maqsadni belgilovchi[5]. Informatika o'qituvchisini rag'batlantirish va motivatsiyalash, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ta'limni o'zgartirish va tahlil qilishni qobiliyati yangi metodlar, tashkiliy shakllar va ta'lim vositalari sifatida, o'qitish jarayonida ta'lim



oluvchilarni rag'batlantirish, kasbga yo'naltirib o'qitish va motivatsiyalash sifatida o'qitishning qanchalik samarali joriy etilishi bilan aniq belgilanadi. Bizning tadqiqotimizda informatika fani o'qituvchilarini axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi kasbiy kompetentlikning motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv komponentlarini uzviylashtirish orqali informatika o'qitishda dasturiy ta'minotni loyihalashni intensiv rivojlantirish hamda elektron didaktik ta'minotni raqamli texnologik mobillashtirish asosida takomillashtirildi. Dasturiy ta'minot loyihasi mobil ilovalar yaratishda foydalanildi. Loyiha quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1-bosqich. Didaktik ta'minotni tanlash, dasturlash tilini tanlash;

2-bosqich. Algoritmlash, blok sxemasini qurish;

3-bosqich. Modellashtirish, formallashtirish;

4-bosqich. Dasturlash, testlash;

5-bosqich. Ta'lim jarayoniga tadbir qilish.

Mazkur to'rt bosqichda dasturlash orqali informatika fanining mobil ilovasi ishlab chiqildi va ta'lim jarayoniga joriy etildi.

Zamonaviy informatika o'qituvchisining ta'lim jarayonida innovatsion shakllardan foydalanishga tayyorligining uchta darajasi: past, o'rta va yuqori mavjud.

Informatika o'qituvchisining ta'lim jarayonida innovatsion shakllardan foydalanishga yuqori darajada tayyorligi quyidagi ko'nikmalarga bog'liq:

- zamonaviy metodlar, innovatsion shakllar va yangi ta'lim vositalaridan foydalanishni hisobga olgan holda ta'lim muassasasining zamonaviy axborot-ta'lim muhitini shakllantirish;

- ta'lim muassasasida o'quv jarayonini konstruksiyalash, tashkil etish va loyihalashda an'anaviy va innovatsion shakllar (loyiha, modulli ta'lim, tarmoqli aloqa, keys texnologiyasi va boshqalar) dan foydalanish;

- ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun, masalan, tarmoq texnologiyalaridan foydalanish yordamida zamonaviy metodlar, innovatsion shakllar va zamonaviy ta'lim vositalarini qo'llash;

- ta'lim jarayonida yangi metodlar, innovatsion shakllar va zamonaviy ta'lim vositalaridan maqsadli foydalanish[6].

Informatika o'qituvchisining ta'lim jarayonida innovatsion shakllardan foydalanishga tayyorligining o'rtacha darajasi quyidagi malakalar bilan belgilanadi:

- ta'lim muassasasining axborot-ta'lim muhitini saqlash, masalan, maktabning axborot-ta'lim muhitidan foydalanishda boshqa o'qituvchilarga yordam berish;

- ta'lim jarayoni sifatini oshirish va rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish maqsadida AKT vositalari asosida yangilanayotgan axborot-ta'lim muhiti komponentlaridan foydalanish;

- ta'lim muassasasining yangilanayotgan axborot-ta'lim muhitidan foydalangan holda ta'lim jarayonini konstruksiyalash, tashkil etish va loyihalash;

- ta'lim jarayonida o'qitishning an'anaviy metodlari, shakllari va vositalaridan maqsadli foydalanish.

Zamonaviy informatika o'qituvchisining ta'lim jarayonida innovatsion shakllardan foydalanishga tayyorligining past darajasi quyidagi bilimlarga bog'liq: ta'lim jarayonida yangi AKT vositalarini qo'llash asosida tayyor dars ishlanmalaridan foydalanish; ta'lim jarayonida ta'lim muassasasining axborot-ta'lim muhiti vositalaridan foydalanish; ta'lim muassasasining o'quv jarayonida o'qitishning an'anaviy metod, shakllari va vositalarini qo'llash.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Malaka oshirish jarayonida informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda o'quv modullari tuzilishi *ma'ruza, amaliy*

*mashg'ulot, ko'chma mashg'ulot va mustaqil tayyorgarlik* shakllaridan iborat. Nazariy mashg'ulotlar "Problem lecture" - muammoli ma'ruza shaklida tashkil etiladi. Kattalar ta'limida ta'lim oluvchilarning passiv ishtirokchiga aylanishi tinglovchilarni zerikdiradi. Shuningdek, kattalar ta'limida olingan bilimlardan "kechiktirilgan" tarzda foydalanish ya'ni keyinchalik emas, tezkor amaliyotda qo'llash imkoniyatining mavjudligi nuqtai nazaridan, tinglovchilarda ta'lim olishga bo'lgan diqqatning darajasi o'zgaradi va shunga mos ravishda mavzuni predmet sifatida o'rganishdan muammoga yo'naltirilgan ta'lim tarzida o'rganishga yo'naltiradi.

Muammoli ma'ruza o'quv materialini taqdim etishning qulay vositasi bo'lishi bilan birgalikda bir darsda ko'plab yangi ma'lumotlarni berish imkonini beradi. Muammoli ma'ruzada tinglovchilar tayyor axborotni olish emas muammoli vaziyatning yechimini topishda ijodiy tashabbus ko'rsatadilar. Bunda ta'lim beruvchi muammoli vaziyatni tahlil qilishda tinglovchilarning ishtirokini ta'minlashi, ularni muammoli vaziyatlarni hal etishga jalb etish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Muammoli ma'ruza o'quv materialini taqdim etish davomida yechimini topish kerak bo'lgan savolni shakllantirishni talab qiladi. Biroq, muammoli ma'ruzada muammoli savoldan farqli ravishda tayyor yechimga ega emas. Ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savollar tinglovchilarda aqliy fikrlashni yuzaga keltirishi va maqsadli aqliy izlanishni talab qilishi kerak. Muammoli vaziyatni yaratishda quyidagi metodlar taklif qilinadi:

- muammoning bevosita bayon etilishi; - savol ko'rinishidagi muammoli vazifa;

- amaliy faktlarni ilmiy faktlarga qiyoslash; - har qanday masala yuzasidan qarama-qarshi fikrlar muloqoti; - ma'ruzaning bir qismini tinglagandan so'ng tinglovchi javob berishi kerak bo'lgan savolni belgilash va xulosa chiqarish.

Shuningdek, nazariy mashg'ulotlarda *bahs-munozara, aqliy hujum* kabi muammoli o'qitish texnologiyalari tadqiqotimizda qisman ko'rib o'tildi [1]. Amaliy mashg'ulotlarda informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini malaka oshirish jarayonida rivojlantirish Case study, Bascet, Budding kabi metodlar bilan integratsiyalashgan holda qo'llash metodikasi yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida ta'kidlanganidek, hozirgi vaqtda maktablarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, elektron ta'lim resurslari kutubxonasi bilan texnik ta'minlanganlik darajasi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining tayyorgarligi darajasiga to'g'ri kelmaydi. Buning sabablaridan biri pedagogik kadrlarning qarishi bilan bog'liq dolzarb muammodir. Faqat e-learning texnologiyalari asosida ta'limni tashkil etishning murakkabligini hisobga olgan holda aralash ta'lim texnologiyalaridan keng va oqilona foydalanish ma'lum darajada mavjud texnik va axborot ta'lim resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. So'nggi paytlarda ta'lim sohasi uchun mutaxassislarining malakasini oshirishni moliyalashtirish xarajatlarini minimallashtirish muammosini hal qilish ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi. Pedagog xodimlarning malaka oshirish kurslari uchun bir martalik xizmat safarlari uchun to'lovlarning umumiy moliyaviy xarajatlari har doim ham oqlanmaydi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishini hisobga olgan holda bu, ayniqsa, informatika o'qituvchilari malakasini oshirishga to'g'ri keladi. Faqatgina buyurtmachining malaka oshirish tizimiga qo'llanilishi uning moliyaviy xarajatlarini kamaytiradi va maktabni axborotlashtirishning individual dasturi doirasida va o'qituvchilarning kasbiy tayyorligini hisobga olgan holda maqsadli o'qituvchilar guruhini sifatli tayyorlashni ta'minlaydi.

Shunday qilib, aralash ta'lim strategiyasiga murojaat qilish ma'lum bir ta'lim muassasasiga tegishli moliyaviy

xarajatlar bilan optimal o'qitish rejimini tanlash imkonini beradi.

**Xulosa va takliflar.** Informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv modulining mustaqil ta'lim jarayonlarini tashkil etishda va bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlashda loyihalash metodidan foydalanildi. Mustaqil tayyorgarlik mavzulari modul birliklari bo'yicha tuzilgan bo'lib, keltirilgan mavzular informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mustaqil ta'lim ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlardan biri mazkur jarayonni loyihalashtirish bo'lib, bunda pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish, natijalarni oldindan ko'ra bilish va rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish kabi vazifalar bajariladi.

Tinglovchilarning mustaqil, shu bilan birga ta'lim beruvchi bilan hamkorlikda o'quvjarayonining mazmuni, metodlari va vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan jarayon, o'quv maqsadlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: ped. fan. nom. diss. – T.: 2006. – 182 b.
2. Xodjabayev A.R., Husanov I.A. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 192 b.
3. Alimov A.A. Ta'lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish modeli // Kasb-hunar ta'limi. – T.: 2012. – №1, – B. 27-28.
4. Karimova N.N. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish: ped. bo'y. fal. dok. (Phd) diss. avtoref. –T.: 2018.
5. Qodiraliyevich, Abdullayev Alibek. "ISSUES OF PREPARING FUTURE TEACHERS IN US PRACTICE." *Gospodarka i Innowacje*. 40 (2023): 16-19.
6. Abdullayev A.Q. "Informatika o'qituvchisini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda metodologik yondashuvlar integratsiyasi" // "Ta'lim, Fan va Innovatsiya" Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent -2024. 3-son \ bet 1187-1195.



УДК: 591.9(575.1)

**Меҳрибон ОЧИЛОВА,**  
Ассистент Ўзбектко - Финляндского педагогического института  
E-mail:ochilovamexrubon97@gmail.com  
**Феруза ХАМРОЕВА,**  
Доцент Ўзбектко - Финляндского педагогического института

По основы рецензией доцент А.Р.Ботировой

## ПРЕИМУЩЕСТВО И НЕДОСТАТКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ В ШКОЛАХ

Аннотация

В современном мире в эпоху оцифровки и модернизации всех сфер жизни населения и общества, система образования не осталась в стороне. Как основной результат можно указать образовательные платформы. Данная статья представляет собой попытку определения понятия образовательные платформы, и анализа преимуществ и недостатков использования образовательных платформ в школах.

**Ключевые слова:** Цифровые образовательные платформы, видео контенты, образовательные ресурсы, синхронизация, образовательные платформы, ICIL, ISCED.

## MAKTABLARDA TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING AVZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Annotatsiya

Zamonaviy dunyoda, aholi va jamiyat hayotining barcha jabhalarini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish davrida ta'lim tizimi ham orqada qolmadi. Ta'lim platformalarini esa asosiy natija sifatida ko'rsatish mumkin. Ushbu maqola ta'lim platformalari tushunchasini aniqlashga, maktablarda ta'lim platformalaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli ta'lim platformalari, video kontent, ta'lim resurslari, sinxronizatsiya, ta'lim platformalari, ICIL, ISCED.

## ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF USING EDUCATIONAL PLATFORMS IN SCHOOLS

Annotation

In the modern world, in the era of digitalization and modernization of all spheres of life of the population and society, the education system has not been left behind. Educational platforms can be specified as a core result. This article is an attempt to define the concept of educational platforms, and analyze the advantages and disadvantages of using educational platforms in schools.

**Key words:** Digital educational platforms, video content, educational resources, synchronization, educational platforms, ICIL, ISCED.

**Введение.** XXI век - это эпоха значительных изменений почти во всех сферах жизни Узбекской нации. И система образования не является исключением. Ярким индикатором эмоту являютя множество нормирующих документ принятые за последние годы. Постановление Президента Республики Узбекистан о «Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» ПФ-60 от 28 января 2022 года, «О мерах по дальнейшему совершенствованию государственной политики в области науки и инновационного развития» PQ- №5047 от 1 апреля 2021 года, «О мерах по созданию условия для усовершенствования систему информационных техногий в Республике» «PQ-5099 от 30 июня 2017 года «PQ-5099 от 27 июля 2017 года, «О мерах по дальнейшему расширению участия отраслей и секторов экономики в повышении качества подготовки высоко квалифицированных специалистов» PQ-3151 от 27 июля 2017 года который служит в определенной степени реализации задач, определенных иными нормативными правовыми документами.

Технический прогресс способствующий повышению спроса на определённые профессии и компетенции явно отразились на современное образование в стране. Необходимым ресурсом для достижения поставленных задач по формированию ключевых компетенций является инновационные

образовательные технологии. Современный учитель должен владеть инновационными образовательными методиками, технологиями и применять их в учебно-воспитательной деятельности. Стронником данной идеи является В.Ф. Ефимов, трактующий так, «новой миссией школы станет формирования человеческого потенциала для инновационной экономики». [2].

В данном направлении как в стране так и зарубежом проведены ряд исследований, престижных исследовательских центров таких как: Международная ассоциация по оценке учебных достижений, Организация Экономического сотрудничества и Развития, Международное исследование по изучению компьютерной и информационной грамотности обучающихся ICILS, Международный Стандартный Классификатор Образования. Исходя из требований к выше перечисленных международных классификаторов образовательной системы важнейшей задачей образовательной системы страны является воспитать квалификационных кадров имеющих профессиональные компетенции и превлекательных мировому трудовому рынку, для достижения этих целей необходима разработка инновационного дизайна содержания образования, классификация и сгруппировка компетенций, усовершенствовать новых методических моделей

образования а также профельный подход к их применению.

В целях решения таких задач образовательные организации в организации образовательного процесса, должны обратить внимание на формирование у школьников исследовательских, аналитических и проектных компетенции. В достижение этих целей нам могут помочь широкий выбор доступных цифровых образовательных ресурсов и инструментов дающий возможность педагогам с иного ракурса смотреть традиционные педагогические технологии и «оцифровать» их. Цифровой подход к образованию регенирирует формированию специфических педагогических технологий, способов обучения и трендов. [9]. По мнению Ш.Х.Паилова учебный процесс это общая система который включает в себе объяснение и представление темы, выполнеие заданий и контроль знаний. Все эти задачи можно выполнить посредством «педагогических программных средств» корорые также переименовались различными научными терминами: «Практические программные пакеты», «Технические педагогические средства», «Учебно педагогические программы», «Автоматизированные учебные программы», «Современные образовательные технологии».[10]. Програмные педагогические средство в мировое образовательное сообщества также называют «Образовательными платформами». В научных литературах существует множество описаний этой категории однако мы решили остановиться на некоторых из них. По выводам Н.Н.Тиунова «Образовательная программа-это ограниченный, личносно ориентированный или ограниченная интерактивная сеть подобных, полностью посвящённый вопросам образования и развития, непременно содержащие учебные материалы предоставляющий их пользователям на тех или иных условиях»[7]. Эту же трактовку Л.С.Махмудова использовала при описании web-платформ [4]. Сегодняшние широкие реформы в сфере образования, бурное развития науки и техники, инновационнии в образовании, и ряд схожих факторов, требуют коренное изменения, и радикальное усовершенствование, процесса образования, как по всем таправления так и по географии. При этом необходимо обратить внимание на цифровые образовательные платформы, которые могут выполнить роль инструмента для дистанционного образования и усовершенствовать или дополнить традиционное (очное) образование. «Цифровая платформа» - это цифровая среда с набором функций и сервисов удовлетворяющих потребность производителей курсов (преподавателей) и потребителей (учеников), а также обеспечивающий их взаимосвязь[1].Под цифровой образовательной платформой понимается «информационное пространство, объединяющие участников процесса обучения, который даёт возможность для удалённого образования, обеспечивает доступ для контроля уровня знаний обучающихся» [6].

Р.С. Зарипова [3] отмечает значение когнетивных образовательных технологий в формирование познавательных способностей путём познания обобщающего вопроса, а не готовых ответов на них. В развитии когнетивных способностей учащихся не мало важными являются образовательные платформы которые позовяют скачать различные курсы и уроки, учиться где угодно и когда угодно. По словам В.В. Матонина [5] преимущество образовательных платформ - является его «Геймификация», в широком смысле, понимают - применение игровых методов в неигровых средах, так как современные дети растут играя интерактивные игры с визуальными эффектами, их мозг не хоче принимать

информации преподносящимся им в традиционном виде, но применения геймификации в образования повышает мотивацию учиться и получать новые знания, а очки и уровни которые даются им при выполнении заданий их мотивирует к сохранению темпа освоение курса. Но для этого требуется внедрения новых методов и подходов к организации содержания учебного процесса. Ещё один преимущество образовательных платформ - это возможность учащихся выбрать свою образовательную траекторию при котором учащиеся становятся «хозяином» своего процесса обучения, проводит мониторинг и несёт за него ответственность. Цифровая образовательная среда создаёт условия в традиционной классно-урочной системе с применением возможностей электронного обучения, электронных информационных и образовательных ресурсов и обеспечивает комплексную методическую и технологическую поддержку дистанционного процесса, включая обучение, управление образовательным процессом и его качество.

По результатам исследования О.А. Фиофанова [8] выявлено, что учителя матевированы на выполнение рефлексии причинно-следственных связей образовательных результатов школьников, на проектирование учебно-методических, а так же психолого-педагогических смен для организации образовательного процесса, но недостаточная компетенция в области аналитики и интерпретации образовательных данных не даёт им возможность более глубоко осмыслить цифровые данные образовательных платформ.

Кроме выше сказанных, иной важной задачей образовательных платформ является, осуществление взаимодействия между субъектами образовательного процесса (учителем и учеником), направленное на достижение качественных результатов обучения.

Преимущество образовательных платформ.

По результатам анализа литературных источников можно выделить следующие основные преимущество цифровых образовательных платформ:

-В неурочных занятиях в школах, мы часто сталкиваемся с проблемой нехватки помещения для проведения занятий. Это проблему могут с лёгкостью решить образовательные платформы имеющий инструмент виртуального класса.

-Образовательная организация может пригласить преподавателей из любых регионов страны или зарубежных педагогов для организации и проведения курса, так как физическое присутствие не обязательно;

-В образовательных платформах часто загружаются заранее подготовленные преподавателем материалы курса, что создаёт гибкий график и экономит время учителей.

-Не требуется обустройство помещений, с помощью инструмента интерфейса учитель может оказаться в аудитории или библиотеке, иначе говоря, через смену заднего фона у учеников при видео конференции появляется ощущение что преподаватель находится в рабочей обстановке.

-Возможность привлечения большого количество учеников. На аудиторных занятиях число учеников ограничено вместимостью помещений, в онлайн занятиях можно приглашать одновременно весь контингент. При этом качество предоставляемых материалов или голос учителя не ухудшается, и всем доступно одинаково. В отличии от аудиторных, где на последних партах не достаточно визуализируется голос и мимика преподавателя.

-Образовательные платформы уменьшает нагрузку на учителей работая на основе автоматических шаблонов.

Формирование отчётов посещаемости и успеваемости, проверка тестовых заданий, рассылка уведомление и другие задачи можно выполнить несколькими щелчками на основе автоматизированных шаблонов, но проверка индивидуальных и письменных заданий остаётся за преподавателем.

-Возможность автоматической рассылки отчётов по успеваемости и посещаемости учеников их родителям или администрации школы.

-Большой выбор инструментов. Образовательные платформы даёт большой спектр возможностей: загрузка презентации, документов, делиться изображением экрана учителя, чатинг, моделирование интерфейса. Всё это делает процесс обучения более привлекательным и помогает результативно доносить материалы.

-Доступность к учебным материалам без ограничений во времени. Ученики могут вернуться в материалы пройденной темы в любое время и изучить их исходя из личной скорости освоения.

-Индивидуальность. Каждый ученик воспринимает поразному, и имеет свой путь и стиль обучение. Некоторые школьники хорошо воспринимают визуально, другие же через аудио или чтения. Также некоторые ученики хорошо работают в группе другие же преуспевают в одиночке. Образовательные платформы с его набором опции и инструментов даёт возможность создать идеальную среду обучения отвечающие потребности каждого ученика.

Недостатки образовательных платформ.

Рассмотрев основные преимущество цифровых образовательных платформ, необходимо определить недостатки и проблемы с которыми сталкиваются преподаватели и школьники при использовании цифровых образовательных платформ.

-Доминирующим недостатком использование образовательных платформ, то что оно требует от школьников самостоятельности и ответственности в прохождении курсов, а контрольные и тесты могут быть выполнены не самостоятельно, что угрожает качеству образования и может привести к отклонению от цели обучения.

-Среди основных проблем, необходимо отметить отключки в сети интернет, или низко скоростная связь. Некоторые школы страны не оборудованы Wi-Fi, или они

раздают сеть доступа только в административной части школы.

-Нехватка преподавателей хорошо владеющими инструментами цифровых образовательных платформ, и уверенно использующих их возможности.

-Демотивация учеников. Из за однообразия контрольных и тестовых заданий и отсутствие самодисциплины. Особенно это касается младшей и средней школы.

-Отсутствие эмоционально-зрительного контакта. Что создаёт трудности в оценке уровня вовлечённости и понимание материала. Так же ученикам сложно сохранить фокус на контент без зрительного контакта, мимики и жестов.

-Проблема познания пользователя при сдаче контрольных или экзаменов, решением могут стать видеонаблюдение, но и это не гарантирует самостоятельности выполнения.

Опасность для здоровья. Многие родители обеспокоены опасностью для здоровья учеников долгое просиживание перед экраном. Неуправляемость времени проводимое перед экраном, может негативно влиять на зрение, осанку, и пищеварения. Это является большим минусом использования образовательных платформ в школе.

**Заключение.** В заключении стоит отметить что, существует большинство преимуществ использования образовательных платформ в школах. Так же при их использование преподаватели и ученики сталкиваются с рядом недостатков платформ. Но полный переход на цифровое образование или полный отказ образовательных платформ в школах будет иррациональным в современном мире. Цифровые образовательные платформы целесообразно рассматривать как дополнение или расширение классических (традиционных) форм обучения. Даже самые лучшие образовательные платформы с расширенными инструментами не могут полностью заменить личный контакт, коммуникацию, и зрительный, человеческий контакт между участниками образовательного процесса. Поэтому крайне важно балансировать использование образовательных платформ в школах и эффективно их использовать для улучшения качество обучения.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Анахов С. В., Анахов, Д. С. (2020) Цифровые платформы: аспекты развития в научно-образовательной сфере//Новые информационные технологии в образовании и науке. Вып. 3. С. 6–15.
2. Ефимов, В.С. Будущее высшего образования в России: экспертное видение / В.С. Ефимов, А.В. Лаптева. - Текст: непосредственный // Университетское управление: практика и анализ. - 2011. - № 4 (74). - С. 52-64.
3. Зарипова, Р.С. Глобальные тренды современного образования / Р.С. Зарипова. – Текст. Педагогические науки. - 2018. - № 13. - С. 232-234.
4. Махмуджаева Л.С. Онлайн образование и цифровое средства обучения в вузах Узбекистана. Открытое образование Т.25 №3 2021.
5. Матонин, В.В. Тренды современного образования: геймификация / В.В. Матонин. - Текст: непосредственный // Вестник Бурятского государственного университета. - 2017, вып. 2. - С. 36-40.
6. Перелов С.В. Использование цифровых образовательных платформ в образовательном процессе// Информатика и ИКТ. 2021.:[Электронный ресурс] (дата обращение: 23.06.2024).
7. Тиунова Н.Н. Образовательные платформы как средство интенсификации профессиональной подготовки студентов колледжа// Professional Education in Russia and Abroad 2(22) 2016.
8. Фиофанова О.С. Институционные возможности и проблемы использования и интерпретации образовательных данных электронных образовательных платформ и сервисов образовательной статистики // Цифровая гуманитаристика и технологии в образовании. 2020 г.
9. «Цифровая трансформация в образовании: проблемы и перспективы развития»: сборник материалов Межрегиональной научно-практической конференции. 2021. – ISBN 978-5-91023-086-0 стр 27-30.
10. Pozilova.Sh.X. Pedagogik dasturiy vositalar. O'quv qo'llanma.-T.:2021.



UDK: 372.8

**Gulbaxor RAXIMOVA,**  
*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti*  
*E-mail: rahimovagulbaho17r@gmail.com*

*Pedagogika fanlari doktori M.Axmedova taqrizi ostida*

### TALABALARGA SA'DIY SHEROZIY IJODI NAMUNALARINI O'RGATISHDA "DIDAKTIK TAHLIL METODI" DAN FOYDALANISH USULLARI

Аннотация

Maqolada talabalarga Sa'diy Sheroziy ijodi namunalarini zamonaviy texnologiyalar orqali o'rgatish usullari tahlil qilingan. Tanlangan metodni qo'llash orqali talabalarning mumtoz adabiyotga, milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Talabalar mavzuga ijodiy yondashadi, o'z fikrlarini erkin bildirishga harakat qiladilar. Bu bilan ularning mustaqil fikri teranlashadi, dunyoqarashi o'sadi, darsga qiziqishi ortadi, topqirligi, zukkoligi, tezkorligi, faolliklari oshib boradi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion metod, boshlang'ich ta'lim, mumtoz adabiyot, hikmat, ta'lim, tarbiya, odob-axloq.

### МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ «МЕТОДА ДИДАКТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА» ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ОБРАЗЦАМ ТВОРЕНИЯ САДИ ШЕРАЗИ

Аннотация

В статье анализируются методы обучения студентов образцам творчества Саади Ширази с помощью современных технологий. Применяя выбранный метод, повышается интерес учащихся к классической литературе, национальным ценностям. Учащиеся творчески подходят к теме, стараются свободно выражать свои мысли. При этом углубляется их самостоятельное мышление, растет мировоззрение, повышается интерес к занятию, повышается находчивость, смекалка, сообразительность, активность.

**Ключевые слова:** инновационный метод, начальное образование, классическая литература, мудрость, образование, воспитание, этикет.

### METHODS OF USING THE "DIDACTIC ANALYSIS METHOD" IN TEACHING THE STUDENTS OF THE SAMPLES OF SADI SHERAZI CREATION

Annotation

The article analyzes the methods of teaching students' samples of the work of Saadi Sherozi through modern technologies. By applying the chosen method, students' interests in classical literature, national values increase. Students approach the topic creatively, try to freely express their opinions. With this, their independent mind is terrified, their worldview grows, their interest in the lesson increases, their resourcefulness, ingenuity, agility, activity increases.

**Key words:** innovative method, primary education, classical literature, wisdom, education, upbringing, etiquette.

**Kirish.** Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlariga qayta-qayta murojaat qilish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Chunki uning asarlarida ilgari surilgan har bir axloqiy qoida kishilarga ma'naviy komillikka va baxt-saodatga erishish haqida saboq beradi. Muruvvat, sadoqat, tavoze, mehnat, saxiylik, nomus, omonatga vafo, adolat, yumshoq fe'llik, shijoat kabi go'zal xislat va xayol odamga baxt-saodat keltirishi obrazli tarzda bayon qilinadi. Hasad, adovat, baxillik, xiyonat, takabburlik, yomonlik, munofiqlik, chaqimchilik, johillik va yalqovlik esa odamlarni falokatga sudrashi tayin ekanligi badiiy tarzda mahorat bilan ifodalanadi.

Sa'diyning boy hayotiy tajriba asosida yaratgan "Bo'ston" (1257) va "Guliston" (1258) asarlari unga olamshumul shuhrat keltirdi. "Guliston" asari sakkiz bobdan iborat bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: debocha; birinchi bob – podshohlar siyrati zikrida; ikkinchi bob – darveshlar axloqi zikrida; uchinchi bob – qanoat fazilati zikrida; to'rtinchi bob – sukut saqlashning foydalari zikrida; beshinchi bob – ishq va yoshlik zikrida; oltinchi bob – qarilik va zaiflik zikrida; yettinchi bob – tarbiyat ta'siri zikrida; sakkizinchi bob – suhbat odobi zikrida.

Mashhur fransuz faylasufi va adibi Volter "Guliston" dan xabardor bo'lgan va ba'zi she'rlarida undan

foydalangan. Taniqli fransuz masalchisi Lafonten ham "Guliston" dagi hikoyat va naqlardan o'z masallarida istifoda etgan. Rus shoiri A.S.Pushkin: "Sa'diy va Hofiz asarlarining pinhoniy asroriga yetguncha she'rlarimda quvonchbaxsh jihatlar va hayotdo'stlik kam uchrardi", - degan edi.

Sa'diy asarlari qadimdan o'zbek xalqi orasida ham mashhur. "Bo'ston" va "Guliston" asarlari madrasalarda asosiy darsliklar sifatida o'qitilib kelingan. Toshkentlik mudarris va shoir Mullo Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'li "Shavqi Guliston" deb atalgan asarida madrasa talabalari ehtiyojini hisobga olib, asarning qiyin so'z va iboralarini sharhlagan. Bir so'z bilan aytganda, Sa'diyning "Guliston" asari o'zining nozik badiiy vazni va mazmuniy qiymati bilan alohida vaznga egadir.

"Sa'diy yolg'iz Eron emas, balki Osiyoning, Afriqoning hamma yerida hurmatli bir faylasufdir. Uning tarzi bayonining tarovatini va ifodasining qimmatini Ovrupo ilmu adab ahli ham ko'pdan beri tan olganlar", - deb yozadi mashhur major olimi Xerman Vamberi. Nemis shoiri va mutafakkiri I.V.Hyote Sa'diyi "juda mahsuldor va fayzli", "hayot tajribasi bilan boyigan juda yaxshi shoir" deb hisoblagan.

Guliston gullar to'plami bo'lganidek, "Guliston" ham she'r va hikoyalar to'plamidir. U donolik manbai sifatida keng tilga olinadi. G'arb dunyosida hamon tez-tez takrorlanadigan

quyidagi mashhur aforizm ham “Guliston” asaridan olingan: “Men oyoq kiyimim yo‘qligidan noliganda, oyog‘i yo‘q odamni uchratib qoldim”.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga adabiy didaktik asarlarni o‘qish va uqish, mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, talabaning badiiy ijod namunalarini to‘g‘ri tahlil qilishga o‘rgatish bugungi ta‘lim tizimining muhim shartlaridan biridir. Darhaqiqat, talaba badiiy matnни chuqur idrok qilmasa, undan estetik zavq olmasa, ularda ma‘naviy va ma‘rifiy, komillik tuyg‘usini shakllantirish qiyin kechadi.

Ma‘lumki, har qanday badiiy asar, u qaysi janrda bo‘lishidan qat‘i nazar, tahlilga, muhokamaga tortilmas ekan, matnning mohiyatiga kirilmas ekan, u tarbiyalanuvchining ma‘naviyatiga hech narsa bermaydi. Shu ma‘noda mazkur she‘r matni ustida ishlash uchun ta‘limning didaktik tahlil metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Talabalar Sa‘diy Sheroziy asarlarining mazmun-mohiyatini tushinishlari uchun avval “didaktik tahlil” tushunchasining mohiyatini anglab olishlari o‘rinli bo‘ladi. Prof. Q.Yo‘ldoshev o‘zining “Badiiy tahlil asoslari” nomli monografik tadqiqotida asarlar tahlili turlari haqida so‘z yuritir ekan, didaktik tahlilga shunday ta‘rif beradi: “O‘quv (didaktik) tahlili jamoa shaklida amalga oshirilib, badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantig‘i hamda estetik o‘ziga xosligini anglash orqali o‘quvchilarda ezgu ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan estetik-pedagogik faoliyatdir”.

Olim adabiy asarlarni didaktik tahlil etishda o‘qituvchi-o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatini quyidagi uch usulda uyushtirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

- a) muallifga ergashib yoki matn doirasidagi tahlil;
- b) badiiy obrazlar asosidagi tahlil;
- v) muammoli o‘quv tahlili.

Didaktik tahlilning birinchi usulida o‘qituvchi badiiy matnning estetik mohiyatigagina emas, balki uning qurilish tartibiga ham amal qilishi va matn mantig‘ini, uning ichki tartibini aslo o‘zgartirmagan holda asar zaminidagi ma‘noni, badiiy jozibani o‘quvchilar bilan birgalikda kashf eta borishini ta‘kidlaydi. Buni tekstual tahlil, ya‘ni asar matniga tayanib tashkil etiladigan tahlil usuli deyish ham mumkinligini va bunday tahlil kechimida o‘qituvchi yo‘naltiruvchi faoliyat ko‘rsatishini aytadi.

Ikkinchi yo‘nalish, ya‘ni obrazlarga tayanib tahlil qilishda o‘qituvchining e‘tibori asardagi timsollarga qaratilishi va asarning badiiy ma‘nosi, jozibasi obrazlar ruhiyatini anglab borish asnosida ochilishini ma‘lum qiladi. Bu usuldagi tahlilni muallif timsolli tahlil deb atashni ma‘qul ko‘radi va bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan tahlilda o‘quvchilarning ancha faol ishtirok etishlariga imkoniyat tug‘ilishini aytadi.

Asarlar didaktik tahlilining uchinchi usuli – muammoli tahlil asosan o‘quvchilar tomonidan olib borilishi ko‘zda tutilishi ta‘kidlanadi. O‘qituvchi tarbiyalanuvchilari oldiga badiiy asar matnidani kelib chiqqan holda badiiy yoki hayotiy muammo qo‘yishini va ularga bu muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatib, bu kechimda foydalanish mumkin bo‘lgan qo‘shimcha adabiyotlar bilan ta‘minlashi kerakligi aytiladi. Asar tahlili jarayonida o‘quvchilar faqat o‘zlari bilgan tushunchalaridagina foydalanib qolmay, bir qator yangi estetik-mantiqiy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirib olishga ham majbur bo‘lishlari ma‘lum qilinadi. Jamoaviy muammoli tahlil kechimida o‘quvchilarning ma‘naviy olamida ham, aqliy dunyosida ham maayyan o‘zgarishlar sodir bo‘lishi, muammoli tahlil faqat jamoaviy shaklda emas, balki individual yo‘sinda ham amalga oshirilishi mumkinligi, biror asar yuzasidan qo‘yilgan hayotiy-estetik muammoni yechish uyga vazifa qilib berilganda, individual muammoli o‘quv tahlili yuzaga kelishi aytiladi.

Ushbu metodlardan kelib chiqib, Sa‘diy asarlaridagi hikmatli so‘zlarni quyidagicha tahlili qilish mumkin.

Badiiy matn tahlili namunasi:

Shayx Sa‘diyning hikmatli so‘zlari bolalarda odamiylikka xos, tarbiyaviy jihatlarini shakllantiradigan, bir qator ijobiy sifatlarni kamol toptiradigan, buyuklikka undovchi asardir.

O‘z mehnatidan non yegan kishi

Hotam minnatidan ozod yoz-qishi.

Insoniy qadr-qimmatni u birinchi galdan mehnatda, o‘z mehnatiga, bilimi va hunariga tayanishida, bironvga xor bo‘lmaslikda deb tushunadi va shunday ta‘lim beradi.

Hikmat o‘qituvchi tomonidan ehtiros bilan aytib berilgach, talabalarning tuyg‘ulari sovimasdan uning muhokamasiga o‘tilib, asosiy e‘tibor dastlabki qatoriga qaratiladi va yana qaytadan o‘qib beriladi. Talabalardan birinchi misrada ilgari surilgan fikrning mazmuni, unda nima deyilayotgani so‘raladi. Sa‘diy nazarida inson faqat o‘zi uchun emas, boshqalar taqdiri uchun ham, butun bashariyat taqdiri uchun ham javobgar. Insonning ko‘zini ochishga, unga yashamoq yo‘llarini o‘rgatishga umrini bag‘ishlagan Sa‘diy hayotda insonni pok, irodali, kuchli va mag‘rur ko‘rishni istaydi. Hikmatda hamma narsa faqat harakat va jasorat bilan qo‘lga kirishi mumkinligi lo‘nda qilib ko‘rsatib berilgan. Lekin “bersang yeyman, ursang o‘laman” qabilida ish tutish ham yaramaydi. Ushbu hikmatda haqiqatan ham, o‘z mehnati, peshona teri bilan topilgan taomni iste‘mol qilish kishiga o‘zgacha huzur baxsh etishi haqida fikr yuritilmoqda. Bu yerda faqat non yeyish emas, o‘zi uchun harakat qilmasdan tekin tomoqlikni kasb qilib olish nazarda tutilyapti. Oramizda shunday mas‘uliyatsiz, tekintomoq insonlar ham uchrab turadi. Ular mehnat qilishdan ko‘ra o‘zini bechorahol ko‘rsatib, boshqalar bergan “tayyoriga ayyor” bo‘lishni xush ko‘radilar. Shoir hikmatli so‘zi orqali ana shu kimsalarga chiroyli nasihat qiladi. Ikkinchi misrada esa “Qo‘ldan berganga qush to‘ymas” deganlaridek, insonning o‘z mehnati, harakati ortidan kelgan ne‘matga hech narsa teng kelmaydi. O‘zgani bergani chin dildan chiqqandek tuyulsa-da, baribir ortida minnati bo‘ladi deyilyapti. Shu o‘rinda Hotam obraziga ham ta‘rif berib o‘tilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Badiiy adabiyotda Hotam saxiylik, qo‘li ochiqlik bilan shuhrat qozongan obraz sifatida ishlatiladi. Demak, ana shunday bag‘rikeng Hotamning ham insonlarga qilgan saxiyligi qachonlardir barham topadi. Sa‘diy insonlarga bir umr muruvvat kutib yashab bo‘lmasligi to‘g‘risida saboq beradi.

Talabalar hayotiy tajribasizliklari tufayli bu masalalarni birdan anglab yetmasalar-da nazariy jihatdan ilg‘ab olishga harakat qiladilar. Ularning ma‘nan tafakkuri ana shunday tarzda yo‘naltirilganligi adabiy ta‘limning katta yutug‘idir. Bu keyinchalik o‘z samarasini berishi aniq.

Minbarning poyida tursa ham eshak,

Tarbiya yuqmaydi, bo‘lmaydi odam.

Tarbiya ko‘rmayin ulg‘aysa kishi.

Eshak bo‘lib qolur yuzga kirsam ham.

She‘r o‘qib berilgach, talabalarning diqqati matnning mazmuniga qaratiladi va zavq bilan qaytadan aytiladi. She‘roziy farzand tarbiyasi masalasiga alohida e‘tibor qaratadi. Inson zoti o‘zining ongilligi, aql-farosati va tarbiyasi bilan boshqa tirik jonzotlardan farq qilib turadi. Yoshligidan tarbiya ko‘rmagan shaxs qarigan chog‘ida ham o‘sha tarbiyasizligicha qoladi, vaholanki, ushbu kimsa eshakka qiyoslanayapti. Eshakni qanday jonzotligi barchaga ma‘lum. Tarbiyasiz insonda eshak bilan farqli biron jihat bo‘lmas ekan. Shu sababdan, ota-onalar farzand tarbiyasiga mas‘uliyatli bo‘lishlari darkor. Shuning uchun ham u kishi qadrini, insonni insonlik sharafini yerga uradigan ta‘ma, hasad va shunga o‘xshash past odatlarni qattiq qoralaydi. Bobomiz doimo odamiylik fazilatlarini o‘zida mujassam etgan kishilarni ulug‘laganlar, fe‘l-atvoridagi chaqimchilik, dangasalik,

ochko'zlik kabi yomon illatli kishilardan ehtiyot bo'lish kerakligini uqtirganlar:

Olib borma shohga ta'mali so'zing,  
Ta'mani yo'qotganda shohsan o'zing.  
Jirkanchdir xor bo'lib topishgan ovqat,  
Ozon to'lur, ammo or bilan faqat.

Insondagi yomon xislatlarni orttiradigan, uni hatto yolg'onchilik, o'g'rilikka boshlaydigan, dag'dag'a, janjal chiqarib, inson sharafini pastga uradigan mayxo'rlikni ham qattiq qoralagan shoir: "Asali arzimas nishi-zahriga" deydi. Sa'diy hayotda mardonavor mehnatga, rostgo'ylikka, bilim, hunar orttirishga chaqiradi. U tekinox'rlar va zolimlarni ayovsiz fosh qilib, hammaga ozor beruvchi zolim kishidan ko'ra odam yukini yengil qiluvchi ish hayvonlarini afzal ko'radi. Ushbu hikmatga boy falsafiy fikrlar talabalarda odamiylikka xos, tarbiyaviy jihatlarni shakllantiradigan, bir qator ijobiy sifatlarni kamol toptiradigan, ulug'vorlikka undovchi asarlardir. Bunday hikmatlar yoshlar tarbiyasi, ularda insoniylik va oliyanoblik kabi fazilatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega:

Kimga yoshlikdan berilmas odob,  
Ulg'aygach, bo'ladi baxtsiz, dili g'ash.  
Ho'l novda egilar qay xilda egsang,  
Quruqni to'g'rilar faqat o't-otash.

She'r o'qib berilgach, talabalarga odob va yaxshi xulq haqida soddagina tushuncha beriladi. "Odob" so'zining lug'aviy ma'nosi hadislarida aslida yaxshi xulq, yaxshilik degan ma'nolarni anglatar ekan. Odob shunday bir gavhardirki, u har qanday o'rinda kattaga ham, kichikka ham birday yarashadi, o'zgalarga yoqimli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bobomiz odoblilikni go'zal xulqda deb bilganlar. Chunki insoniy fazilatlarini o'zida mujassam etolgan kishidagina boshqa insonlarga ham yaxshilik yetadi, kun kelib o'sha yaxshiligi o'ziga qaytadi, jamiyat rivojlanadi, deydi. Talabalarga inson hayoti davomida ko'plab ezgu amallarni bajarishi kerak ekanligi, natijada oliy mukofotlarga erishishi mumkinligi aytiladi. Yaxshilikni barcha atrofdagilarga bevosita, ustozlariga, ota-onasiga, bobo-buvilariga, do'stlariga qilish mumkinligi uqtiriladi. Shayx Sa'diy tarbiya bilan birga ta'lim jarayoniga ham be'tibor bo'lmaydi:

Agarda muallim bo'lsa beozor.  
Darsxonani qilgay bolalar bozor.

Barchamizga ma'lumki, tarbiya bilan birga ta'lim masalasi ham dolzarb sanaladi. Bolalar sifatli ta'lim olishlari uchun qulay sharoit va mahoratli pedagog vositasida dars tashkil qilinishi kerak. Bugungi kunda talabalar orasida ustozning tanbehlaridan qo'rqib dars qiluvchilar ham yo'q emas. Shoir dars o'tayotgan o'qituvchining darsni nazorat qilishiga o'xtaladi, o'quvchilarga ortiqcha erkinlik berilsa, g'ala-g'ovur ko'tarilishi, ularga ta'lim berishda qattiqqo'llik ham yetarlicha ahamiyatga egaligi ta'kidlanadi. O'qituvchi darsini shunday muhit yaratgan holda o'tishi kerakki, o'quvchi tushunmagan narsasi yuzasidan savol berishga qo'rqmasin shu bilan birga darsni muhim jarayon sifatida his qilsin va ortiqcha shovqin ko'tarmasin. Ta'limda qattiqqo'llik va shavqat yonma-yon turishi kerak. Bu o'quvchilar mukammal ta'lim olishlari uchun muhim asos sanaladi. She'roziy hikmatlarida oliy ta'lim sohasi haqida ham gapirib o'tadi. "Istamay mutolaa qilayotgan talaba – qanotsiz qush". Bir ishga inson mehr qo'yib chin dildan bajarmasa, u ishning natijasi a'lo darajada bo'lmaydi. Qo'l uchida qilingan ish ko'ngildagidek chiqmasligi tabiiy hol. Talabalar ham o'zlariga berilgan

topshiriq, mavzuni mehr bilan o'rganishmasa mukammal bilimga ega bo'la olishmaydi. Kelajakda sohalari bo'yicha ishlaganda, kasbiy faoliyatida ko'p bora qoqilishadi. Istamasdan shunchaki dars qiladigan talaba bejizga qanotsiz qushga qiyoslanayotgani yo'q. Qushlar qanotlari yordamida parvoz etishadi, qanotlari bo'lmasachi? Xo'sh qushning qanotsizi qanday bo'ladi? Birdan-bir vazifasi bo'lgan uchishni ham eplay olishmasa, unday qushlarga qushlar safdoshlari safida o'rni bo'ladi? Albatta, yo'q. Majburlikdan, baho yoki o'qituvchilar uchun o'qiydigan talabalar ham xuddi shu qanoti yo'q qushlar singari jamiyatda o'rniga ega bo'lmagan, qadsiz inson sanaladilar. Shunday ekan, inson kitob bilan hamnafas bo'lmog'i lozim, yo'qsa mevasiz daraxt singari odamlarga nafi tegmaydi. Oliy o'quv dargohini tamomlab bir kasbning egasi bo'ladigan talabalar vaqtida o'qishlari, kasbi uchun zarur bo'lgan bilim va malakalarni mukammal egallashlari zarur. Axir, ular vatanimizga munosib xizmat qiladigan, o'z kasblarining chinakam ustalari bo'lib yetishishlari darkor. She'roziy talabalar misolida jamiki insonlarni o'z ishlariga qunt, mehr va mas'uliyat bilan yondashishlariga da'vat etadi. Inson dunyoga kelib o'zidan yaxshi nom qoldirish uchun foydali amallar bilan mashg'ul bo'lmog'i lozim. Adibning aytishicha:

Erta kun arpaga zor bo'lmay desang.  
Bu kun ek, shoyadki, bug'doy non esang.

Insonning ertasi bugundan boshlanadi. Bugungi kunini besamar o'tkazgan kishining kelajagi tashvish va iztiroblarga to'la bo'ladi. Hayotda har bir insonning o'z riziqi, nasibasi belgilangan, kimgadir ko'p yana kimgadir kamroq, uning miqdori esa o'zi qilgan harakatga bog'liq ekanligi ta'kidlangan.

Harchand o'qibsan – bilimdonsan,  
Agar amal qilmading – nodonsan.

Talabalar hikmatning mazmunini o'z idroklari doirasida tushinishadi, albatta. Avvalo hikmatning asl ma'nosini chaqish uchun unda ishlatilgan "bilimdon" va "nodon" so'zining ma'nosi kengroq tahlil qilishlari zarur. Chunki ular bu so'zni shunchaki be'tibor eshitishgan bo'ishlari mumkin. Biroq ular "dono" so'zini juda yaxshi bilishadi. Talabalar "nodon" so'zini birinchi navbatda "dono" so'zi bilan birgalikda parallel ravishda izohlaydilar. Aqlli, farosatli, bilimli kishilar dono, aksincha, yaxshini yomondan, yomoni yaxshidan ajrata olmaydigan imsiz, fahmsiz kishilar esa nodon deb baholanadi. Shundan so'ng talabalar ko'p o'qib, o'rganib yetuk bilimga ega bo'lish mumkinligini, biroq bu egallagan bilimlarini amaliyotga joriy qilmaslik haqiqiy nodonlik ekanligini his etishadi. Sa'diy bobomiz ana shunday nodonlik to'g'risida nasihat qilganlar.

Xullas, ma'naviy yetuk insonni tarbiyalab voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan hozirgi davrda buyuk mutafakkir Sa'diy Sheroziy ijodidagi ma'rifiy g'oyalar, pand-o'git va yo'riqnomalar biz uchun mukammal dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonida bunga alohida e'tibor qaratish pedagoglarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Buni bevosita badiiy adabiyot orqali amalga oshirish mumkin. Chunki badiiy asarlar o'quvchi ongiga yetarli darajada o'z ta'sirini ko'rsata oladi. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimiz namoyandalarning asarlarini o'rganish, ularda aks ettirilgan umuminsoniy g'oyalar komil insonni tarbiyalashni tashkil etadi. Bu bugungi kunimiz uchun ham dolzarb masala sanaladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Sa'diy Sheroziy. Guliston. –T.: "Yoshlar nashriyot uyi", 2018. – 153 b.
2. Sa'diy Sheroziy. Guliston. Bo'ston (to'plam). –T.: G'.G'ulom, 2021. – 264 b.
3. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Т.: "Камалак", 2016.–264 б.
4. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. – Toshkent: "Ilm zijo", 2004.



5. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). – Samarqand: SamDU, 2022. – 308 b.
6. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т: Ўқитувчи”, 1996. – 192 б.
7. Quronov M. Milliy tarbiya yo‘riqnomasi. G‘arb va Sharq tarbiyaviy tajribalari namunalari tahlili // Xalq ta‘limi. 1993. 8-son, 6-10-b.
8. [www.pedagog.Uz](http://www.pedagog.Uz)
9. [www.Nadlib.uz](http://www.Nadlib.uz) (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)
10. [www.ziyonet.Uz](http://www.ziyonet.Uz)



UDK: 323;342(C52)

A. RAXMANOV,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, f.f.n X.Axmedov taqrizi asosida

### JAMIYATNI MODERNIZATSIYALASHDA YOSHLARNING IJTIMOY-SIYOSIY FAOLIGINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada, jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligining o'ziga xos xususiyatlari, modernizatsiya va jamiyat tushunchalarining mazmun mohiyatiga e'tibor qaratildi.

**Kalit so'zlar:** Yoshlar, dunyoqarash, iqtisodiyot, raqobat, qonun, sotsiologiya, jamiyat, qadriyat, milliy, modernizatsiya, umuminsoniy, ijtimoiy, siyosiy, strategiya, liberallashtirish, tamoyil, kreativ, industrial, texnologik.

### СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ МОЛОДЕЖЬ В МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА ВАЖНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье уделено внимание специфическим особенностям общественно-политической активности молодежи в процессе модернизации общества, сущности понятий модернизация и общество.

**Ключевые слова:** Молодежь, мировоззрение, экономика, конкуренция, право, социология, общество, ценность, национальная, модернизация, универсальная, социальная, политическая, стратегия, либерализация, принцип, творческий, индустриальный, технологический.

### SOCIAL AND POLITICAL YOUTH IN THE MODERNIZATION OF SOCIETY THE IMPORTANCE OF ACTIVITY

Annotation

This article pays attention to the specific features of socio-political activity of young people in the process of modernization of society, the essence of the concepts of modernization and society.

**Key words:** Youth, outlook, economy, competition, law, sociology, society, value, national, modernization, universal, social, political, strategy, liberalization, principle, creative, industrial, technological.

Darhaqiqat, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlanirish, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda inson omiliga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining V bob 19-moddasida "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart[1].

Ijtimoiy hayotning murakkabligi va undagi jarayonlarning xilma-xilligi jamiyat qonunlarini tasniflashning bir qancha obektiv mezonlari borligini isbotlab bermoqda.

Jamiyat tushunchasini tahlil etishda bir qancha ta'rif va yondashuvlarni uchratish mumkin. Masalan, jamiyat bu kishilar orasidagi ijtimoiy munosabatlarning tarixiy taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan ijtimoiy borliqdir. Yana bir ta'rifga ko'ra, jamiyat bu o'z hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirishda o'zaro aloqador bo'lgan kishilarning birgalikda yashashining muayyan sistemasidir. Boshqa bir ta'rifga ko'ra, jamiyat bu aql idrokka ega bo'lgan kishilar o'rtasidagi moddiy va ma'naviy munosabatlar va tabiat bilan o'zaro bog'lanishlarga asoslangan murakkab dinamik sistemadir.

Ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning vujudga kelishi, amal qilishi va rivojlanishida bir vaqtning o'zida turli darajadagi va har xil ahamiyatga molik qonunlar namoyon bo'ladi. Ularning

ba'zilar butun bir jamiyatga xos jarayonlarni aks ettirsa, boshqalari uning alohida bir tizimi elementlari o'rtasidagi aloqadorlik va bog'lanishlarni ifodalaydi, uchinchi xil qonunlar esa ijtimoiy munosabatlarning faqat ma'lum turlarini qamrab oladi. Jamiyat qonunlaridan ba'zilar ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi, mavjudligini ifodalasa, boshqalari esa ularning rivojlanishini belgilab beradi.

Jamiyatdagi barcha qonunlar mazmun-mohiyatiga ko'ra iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning vujudga kelishini hamda rivojlanishini ifodalaydi, chunki har qanday qonun muayyan shart-sharoitda voqea va hodisalar rivojining xususiyati va yo'nalishini belgilaydigan aloqadorlik va bog'lanishlarni aks ettiradi.

Yoshlar ongidagi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni yangi sifatga ega bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy muhitni yaratish bilan bog'liqdir. Jamiyatda ma'naviy muhitni yangilash muammolari bilan shug'ullangan faylasuf olim M.Qahharovanning fikricha: "birinchidan, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitini mavjud ehtiyojlarga asosan istiqbolli ravishda belgilash, ikkinchidan, bugungi ma'naviy-axloqiy muhitimizni takomillashtirib borishda tarbiya, korreksiya (tuzatish va isloh qilish), tushuntirish va ko'niktirish, uchinchidan, ma'naviy-axloqiy muhitni takomillashtirib borish ijtimoiy tarbiya institutlari bo'lmish oila, ta'lim tizimi, mahalla va mehnat joylarining mutasaddilari tomonidan amalga oshiriladi"[2].

Dunyo mamlakatlari yoshlarga oid davlat siyosatini belgilar ekan, ularning davlat va jamiyat tayanchi ekanligiga e'tibor berishi, iqtisodiyotda yoshlar asosiy mehnat resursi ekanligi, yoshlarning aqliy mehnat imkoniyatlarini, dunyoqarashini, davlat va jamiyat strategiyasiga mos ravishda

shakllantirish orqali, davlatlar o'rtasidagi o'zaro raqobatda keng imkoniyatlarga ega bo'lishini maqsad qilib oladi.

Mamlakatimizda ham yoshlarning intellektual salohiyati, ichki potensialini yanada ko'tarish natijasida yurtimizning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish maqsadga muvofiq. Shuningdagi yoshlarimiz o'zlarining daxldorlik mas'uliyatini his qilgan holda ijtimoiy-siyosiy faollik ko'rsatadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida dastlab 1991-yil 20-noyabr kuni "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"[3] gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun bilan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat tashkilotlari va tabaqalarining vazifalari belgilandi. Shu davrdan boshlab yoshlar siyosatiga bag'ishlangan davlat dasturlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilina boshlandi.

Yoshlar siyosatining umumjahon miqyosidagi talqini BMTning bu boradagi rasmiy hujjatlarida ham aks etgan. Ushbu hujjatlarda yoshlar siyosati tushunchasi birmuncha keng ta'riflangan.

Shuningdek, 2016-yilning 14-sentyabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"[4] gi Qonunida yoshlar bilan olib boriladigan ishlar ko'lamini belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati asosiy yo'nalishlarining ba'zilar quyidagilardan iborat: yoshlarni ishga joylashtirish va ularning mehnat qilishi uchun imkoniyatlar yaratish, yoshlarni vatanparvarlik, bag'rikenglik, qonunlarga va me'yoriy hujjatlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida, turli salbiy zararli ta'sirlarga nisbatan o'ziga bo'lgan ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, yoshlar tadbirkorligini kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratish, yoshlarning sog'lom turmush-tarzi ga intilishini qo'llab-quvvatlash, takomillashtirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali o'tkazish yo'llarini izlash.

"Siyosiy faollik jamiyatda istiqomat qiluvchi ayrim shaxslarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga, o'zlarining siyosiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda aks etadigan jami faoliyatining hayot kechirishini ma'lum shakllarida namoyon bo'lishidir"[5], degan ta'riflar bilan ham xayrixoh emasmiz. Chunki, bu ta'riflar ham faollikni to'la tasvirlab beraolmagan. Tor yondashuv xususiyatiga ega. Jamiyatning turli yo'nalishlari qamrab olinmagan.

Prezident Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bizning eng asosiy yutug'imiz – ko'p millatli xalqimizning vujudga kelayotgan qiyinchilik va sinovlarni engishga qodirligi, zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga beparvo bo'lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotganidir"[6].

Islohotlarning rahnomasi davlatdir, davlat organlarida turli mutaxassisliklarga bo'lgan rahbarlar ish olib boradilar. Endilikda ularning katta qismi ham yoshlardir. Shu munosabat bilan Prezident Sh.M.Mirziyoev: "Yoshlarni haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi"[7], deb ta'kidlaydi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini tahlil qilishning ilmiy-metodologik asoslari mamlakatdagi siyosatning aniq holatini ko'rish, unga doir asosiy xulosalar, shuningdek, kelajak taraqqiyotiga taalluqli tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. XXI asrning boshlariga kelib yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki taraqqiy etib borishi bilan ularning siyosiy xulq-atvori va siyosiy madaniyatini empirik tadqiqot metodlari asosida o'rganishga zarurat tug'ildi. Ana shu tadqiqot uslubi statistikadan foydalanish, hujjat tahlili, anketa so'rovnoma, laboratoriya eksperimenti, ish o'yini, kuzatish va boshqa metodlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini o'rganishda ana shu kabi metod va yondashuvlarning qo'llanilishi yoshlarga oid davlat siyosatini hayotga tatbiq etish davrida ro'yobga chiqadigan hodisalarni bir yoqlama, bir o'lchovga ko'ra, bir chiziqli tahlil etish imkoni etishmayotganligini anglatadi. Yoshlarga oid davlat siyosatini ilmiy tahlil qilishda izlanishlar amaliy va maqsadli natijalarga olib kelishi uchun ularni turli usullar asosida har tomonlama tatbiq etish zarur.

Xo'sh, shunday ekan yoshlarning jamiyatni modernizatsiyalash davriga qanday aloqasi bor? Shu sababli avvalo modernizatsiya so'zining ma'nosiga e'tiborni qarataylik.

"Modernizatsiya (inglizcha modern – zamonaviy, ilg'or, yangilangan) – ob'ektni yangilash, uni yangi talab va normalarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish jarayoni. Asosan mashina va uskunalar, ishlab chiqarish va texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar modernizatsiya qilinmoqda. Demak, sotsiologiyada modernizatsiya deganda an'anaviy jamiyatdan hozirgi zamon jamiyatiga, agrar jamiyatdan industrial jamiyatga o'tish tushuniladi va hokazo. Modernizatsiya nazariyasi modernizatsiyani o'rganadi"[8]. Yoki boshqacharoq aytganda modernizatsiya – yangilanish, yangiliklarga qarab borish ma'nosini bildiradi.

Istiqlol yillarida xalqimizga ajdodlarimizdan qolgan buyuk ilmiy-intellektual, badiiy-ma'naviy meros qaytarildi va bu ish davom etmoqda. Tarixiy xotirani tiklash, zamonning eng yangi yutuqlarini o'zlashtirish davomida milliy g'urur ham tiklanib, mustahkamlanmoqda. Ayniqsa, yangi avlodni barkamol etib tarbiyalash, ya'ni jismonan baquvvat, ma'nan etuk qilib tarbiyalash masalasiga jamiyat miqyosida ustuvor vazifa deb qaraldi. Ayrim xorijlik sotsiologlar nazdida "Modernizatsiya texnologik yangiliklar determinatsiyasi ta'sirida tizimli funksional yangilanishlar (U.Mur, D.Medouz va boshqalar) deb tushunish mavjud"[9]. Har bir jamiyat texnologik modernizatsiya yangiliklarini ijtimoiy hayotga tatbiq etar ekan, eng avvalo, jamiyatni harakatlantiruvchi ziyolilar qatlami hamda keng jamoatchilik a'zolarini, modernizatsiya o'zgarishlariga ma'nan va ruhan yangiliklarga, o'zgarishlarga tayyorlamog'i, islohotlarning faol ishtirokchisi bo'lgan sub'ektlarni dunyoqarashini shakllantirmasdan turib, jamiyatda ditermenistik modernizatsiyani amalga oshirib bo'lmaydi. Modernizatsiya jarayonlarini tatbiq etgan rivojlangan davlatlarning islohotlariga e'tiborni qaratsak, avvalo, rivojlanishga, taraqqiyotga yuz tutadigan jamiyat a'zolarini modernizatsiya islohotlarini jamiyat a'zolarining ongi va qalbga singdirmasdan turib amalga oshirib bo'lmasligi tarixdan ma'lum.

"Modernizatsiya-muayyan jamiyatda yuzaga keladigan talab va ehtiyojlarning aql yordamida hal etilishi, davlat va jamiyat boshqaruvida xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiluvchi har qanday ilg'or g'oyani milliy qadriyatlar bilan umumlashtirgan holda amaliy hayotga tatbiq etishdir"[10].

Davlatlar o'z oldiga ijtimoiy hayotda modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirmoqchi bo'lsa, jamiyatning faol ziyolilar qatlami va ijtimoiy siyosiy faol bo'lgan jamiyat a'zolarining taklif va tavsiyalarini inobatga olmog'i, amalga oshirmoqchi bo'lgan islohotlarini aql markazlari tomonidan tahliliy xulosalarga kelinishi hamda xalqning xohish-irodasi va milliy manfaatlariga xizmat qilishi, xalqning umuminsoniy, milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirmog'i lozim.

Rivojlangan davlatlar jamiyatda islohotlarni amalga oshirar ekan, avvalo jamiyat a'zolari modernizatsiya o'zgarishlariga tayyor bo'lmog'i, yangi o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini aqlan tushunib etmog'i, o'zgarishlarga oid dunyoqarashni shakllantirmog'i zarur.

F.Abdurahmonovning fikricha, "Modernizatsiyalashtirish keng qamrovli, uzluksiz jarayondir

va uning har bir rivojlanish bosqichida vazifalariga ko'ra yangilanib turadi. Modernizatsiyalashning pirovard maqsadi iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va u orqali aholining turmush darajasi va sifatini oshirish hisoblanadi"[11]. Modernizatsiya tushunchasiga berilgan ta'riflar turli xarakterga ega, B.Berdievning ta'kidlashicha: "Modernizatsiya har tomonlama yangilanish, hayotga moslashish, yuzaga keladigan talab va ehtiyojlarning ratsional qondirilishi, boshqaruv tizimida xalq va mamlakat farovonligi ta'minlanishi uchun dunyo yangiliklaridan o'z milliy manfaatlari yo'lida samarali foydalanish, hokimiyatning yoki unga ega shaxs, guruh, sinf, partiyaning xalq ustidan hukmronlik qilishda zo'rovonlikka tayanishini qonuniy yoki boshqa mexanizmlarni joriy qilish yo'li bilan zamonaviy usullar yordamida bartaraf etish imkoniyatlarining oshishi kabilarni anglatadi"[12].

"Modernizatsiyalash ijtimoiy taraqqiyot bo'lib, inventiv-(lotincha "ochish") va innavativ (lotincha "yangilik kiritish"), ya'ni innovatsiyani va yangi texnologiyani joriy qilish jarayonlaridan iborat. Shuningdek, integrativ jarayon ham mavjud bo'lib, u ko'proq milliy xarakter, madaniy an'analar, xalq mentalitetini hisobga oladi, o'zgaradi va o'z imkoniyati, tayyorgarlik darajasi asosida amalga oshiradi"[13], deyish maqsadga muvofiqdir.

"Modernizatsiya (ingl. modernisation – o'zgarish, yangilanish, zamonaviylashtirish) 1. Industrilashtirish, sanoatlashtirish davrida agrar, tarixiy va zamonaviy jamiyatlar taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishini ifoda etuvchi ijtimoiy jarayon. U jamiyat hayotining barcha jabhalari: iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohaning modernizatsiya qilinishini taqozo etadi"[14].

Zamon talabiga asosan shu ma'noda bizningcha modernizatsiya bu yangi bosqichga yo'nalish uchun jamiyat hodisalariga yangiliklar olib kirib maqsadga erishuvdir. Bu ta'rif orqali modernizatsiyani inson hayotini barcha

jabhalariga tatbiq etish mumkin. Masalan, og'ir va engil sanoatni, qishloq xo'jaligini, mashinalarni, texnologiyalarni, jamiyatni modernizatsiya qilishga joriy etish mumkin. Binobarin bu ta'rif yoshlar to'g'risidagi yangilishlarni ham qamrab oladi.

Modernizatsiya sharoitida bugungi kunda yoshlar muammolarini yoshlar nuqtai nazaridan o'rganish keng qamrovli hisoblanadi. Zamonaviy O'zbekistondagi yoshlarga oid davlat siyosatining o'ziga xos jihatlarini ko'rib chiqishdan oldin, mazkur mavzuga oid kategoriyalar apparatini aniqlab olish, buning uchun esa, yoshlar siyosati, yoshlar siyosatining modellari, yoshlar siyosatining tamoyillari hamda yoshlar siyosatining ob'ekti va sub'ekti kabi va boshqa tushunchalarni aniq ta'riflab olish, shuningdek yoshlarga oid davlat siyosatini o'rganishda qo'llaniladigan siyosiy fanlar metodlari tahliliga diqqat qaratish lozim.

Mamlakat iqtisodiyotiga chet el sarmoyasini jalb etish iqtisodiy faoliyatning asosiy jihatlaridan biri bo'lib, buning uchun eng avvalo joylarda qulay sharoit, ya'ni infrastruktura yaratmoq lozim. Chunki, kimki o'z faoliyatida chet sarmoyasidan foydalanishni istasa shunga yarasha infratuzulma yaratish lozim. Xorijiy investitsiyani iqtisodiyotga jalb etishning yana bir yo'li, ishlab turgan zavod va fabrikalar negizida qo'shma korxonalar tashkil etishdan iborat. Iqtisodiy islohotlarni ikkinchi bosqichida, chet el sarmoyalarini jalb etish amaliyoti natijalarini inobatga olgan holda ularni tez foyda keltiradigan sohalariga kirib kelganini hisobga olib, investitsion faoliyatni rag'batlantiruvchi tizimini joriy etishga qaratildi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarga oid davlat siyosati turli ijtimoiy-gumanitar fanlar tomonidan o'rganish uchun manba, predmet sifatini o'tay olishini, sohalararo tadqiqot predmeti bo'la olish xususiyati ham borligini hisobga olish zarur.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: "Ўзбекистон" 2023. Б.-13
2. Қаҳҳорова М.М. Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит: муаммо ва ечимлар. Фалсаф.фан.док...дисс.-Тошкент: 2012.- Б. 240.
3. <https://lex.uz/docs/140894>
4. <https://lex.uz/docs/3026246>
5. Политология. Энциклопедический словарь. Издательство Московского коммерческого Университета. – Москва, 1993. – С. 259.
6. Мирзиёев Ш. Тошкент: "Ўзбекистон", 2019. 1-том, -Б. 46.
7. Мирзиёев Ш. Тошкент: "Ўзбекистон", 2019. 1-том, -Б.145.
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
9. Российская социологическая энциклопедия. Под ред. Г.В.Осипова. – Москва: Изд.гр.НОРМА-ИНФРА-М., 1998. – С. 553.
10. Орипов Э. Миллий кадрятлар ва модернизация // ЎЗМУ хабарлари. №1. – Тошкент, 2012. – Б. 127.
11. Абдурахмонов Ф. Модернизациялаштириш ва иқтисодий ривожланиш. Ташкентский финансовый институт Московской гуманитарно – экономический институт Социально – экономические проблемы развития интеграционных процессов в условиях либерализации национальной экономики. Сборник научных трудов. – Москва, 2008. – С. 77-78.
12. Бердиев Б. Модернизация ва унга таъсир этувчи омиллар // Жамият ва бошқарув. "Академия", 2007. – № 2. – Б. 42-43.
13. Амонов Б. Янгиланиш – табиий жараён// Жамият ва бошқарув. "Академия", 2007. – № 2. – Б. 40.
14. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. – Тошкент: "Академия", 2007. – Б. 222-223.



UDK: 355.133.4

*Abrorbek RAHMONOV,  
O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi 36184-harbiy qism podpolkovnigi, tadqiqotchi*

*Namangan davlat universiteti professori, DSc Z. Isaqova taqrizi asosida*

## VATANPARVARLIK VA HARBIY VATANPARVARLIK TUSHUNCHALARINING O'ZARO ALOQADORLIGI

Аннотация

Maqola vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik tushunchalarining o'zaro aloqadorligining retrospektiv va germeenvtik talqinidagi ijtimoiy-falsafiy tahliliga bog'ishlangan bo'lib, ajdodlarning Vatan uchun jonlarini fido qilganliklari, o'z xalqini vaziyatning har qanday og'ir sharoitlarida ham tashlab ketmay yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini namoyon qilganliklari global dunyo yoshlari uchun ibrat namunasi bo'lishi tarixiy qahramonlar hayoti va ilmiy manbalar asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Vatan, Vatan manfaati, vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, fuqarolik mas'uliyati, shaxs, tarbiya, yurt himoyasi, Vatan ozodligi, milliy g'urur, konsepsiya.

## АДЕКВАТНОСТЬ ПОНЯТИЙ ПАТРИОТИЗМА И ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА

Аннотация

Статья посвящена социально-философскому анализу взаимосвязи понятий патриотизма и военного патриотизма в ретроспективно-герменевтической интерпретации, тому факту, что предки жертвовали жизнью за Родину, проявляли высокие патриотические чувства, не оставляя свой народ даже в трудных обстоятельствах, а также раскрывалась на основе историческими героями, являющимися примером для молодежи глобального мира, выявленными на основе их жизни и научных источников.

**Ключевые слова:** Родина, интересы Родины, патриотизм, военный патриотизм, общественная деятельность, гражданская ответственность, личность, образование, защита Родины, свобода Родины, национальная гордость, концепция.

## ADEQUACY OF THE CONCEPTS OF PATRIOTISM AND MILITARY PATRIOTISM

Annotation

The article is devoted to the socio-philosophical analysis of the relationship between the concepts of patriotism and military patriotism in a retrospective-hermeneutic interpretation, the fact that ancestors sacrificed their lives for the Motherland, showed high patriotic feelings, not leaving their people even in difficult circumstances, and was also revealed on the basis of historical heroes who are an example for the youth of the global world, identified on the basis of their lives and scientific sources.

**Key words:** Motherland, interests of the Motherland, patriotism, military patriotism, social activity, civic responsibility, personality, education, defense of the Motherland, freedom of the Motherland, national pride, concept.

**Kirish.** XXI asrning birinchi o'n yillik mezonida mamlakat yoshlarida vatanparvarlik tuyg'usini aynan harbiy vatanparvarlik bilan chambarchas bog'liqlikda shakllantirish mamlakat taraqqiyoti va xavfsizligi yo'lidagi dolzarb masalalardan biriga aylanadi. Axborot makonidagi qarama-qarshiliklar kishilar, ayniqsa, yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan sharoitda harbiy vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o'rni va ahamiyatini zaruriyatga aylantirmoqda. Savol tug'iladi: yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usi qaysi davrdan boshlab shakllana boshlaydi? Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi nimadan iborat? Hukumat miqyosida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida olib borilayotgan islohotlar muhim poydevor bo'lishi uchun yana qanday yo'l-yo'riq ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq?

Mazkur maqolada yuqoridagi savollarga javob topish asnosida yosh avlod ongida vatanparvarlik tuyg'usining shakllanish davrlarini tahlil qilish, vatanparvarlik tarbiyasining asosiy funksiyasi o'z vatani va o'z xalqi bilan faxrlanish, Vatanning ulkan yutuqlari hamda ajdodlar merosiga chuqur ehtirom bilan qarash, Vatan taqdirini o'z taqdiri deb bilish, vatanparvarlik ongini rivojlantirish, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o'ziga xos o'xshash va farqli aspektlari ijtimoiy-falsafa prizmasida tadqiq etilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik tushunchalarining o'zaro aloqadorligi

o'z davrining mashhur tarixchilari va faylasuflari tamonidan turli nuqtai nazarlarda o'rganilib, tadqiq etilgan. Vatanparvarlik ham axloqiy, ham ijtimoiy hodisa sifatida qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi V-IV asrlarda paydo bo'lgan. Vatanparvarlikni anglashda ijtimoiy ong munosabatlari axloq va siyosat sferasida ko'rib chiqilgan. Arastu vatanparvarlik tushunchasini axloqning asosiy tamoyillari sifatida tahlil qilib, vatanparvarlikni ezgulikning eng oliy darajasi deb baholagan [1].

Vatanparvarlik mavzusi rus olimlari A.V.Shevchenko, V.I.Lutovinov, A.N.Puzevich, V.I.Krutilov, D.L.Fedotov, S.A.Medyankin, O.M.Rodionov, R.V.Titov, M.R.Rezakov asarlarida, shu bilan birga, jadid ma'rifatparvarlari A.Cho'lpon, A.Fitrat, M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy asarlarida aks etgan. Bu asarlar vatanparvarlik va vatansparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgani uchun ularda millatni vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash yetakchi o'rinda turgan.

Mustaqillik yillarida vatanparvarlik tuyg'usi yangicha aspektda o'rganilgan. Jumladan, "Harbiy vatanparvarlik yuksak ishonch va sadoqat" ilmiy jurnalida harbiy fanlar bo'yicha falsafa doktori B.X.Toshmatov yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning an'anaviy va zamonaviy usullari haqida yoritib o'tgan bo'lsa, yuridik fanlari doktori, professor M.B.Usmonov yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy, ma'naviy va madaniy meroslarning o'rni

beqiyosligi to'g'risida fikr yuritgan. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) K.X.Usmonov o'z tadqiqotida yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usi shakllanishining milliy ma'naviy va axloqiy asoslari haqida so'z yuritgan. Ammo hozirgi global dunyoda o'sib kelayotgan yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'usini shakllanish davrlari, harbiy vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi dolzarb mavzu sifatida o'rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik tushunchalarining o'zaro aloqadorligini chuqur tahlil qilish, ularning mohiyati, o'zaro bog'liqligi va jamiyatdagi ahamiyatini aniqlashtirish maqsadida ustuvor vazifalar belgilandi. Tadqiqotning ijtimoiy-falsafiy asoslari sifatida vatan, millat, inson, jamiyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, huquq va burch, himoya, sadoqat, fidoyilik, milliy ong, jamiyat rivoji, harbiy xizmat, ta'lim va tarbiyaning ahamiyati tahlilida aks etgan. Tadqiqotda ilmiy bilishning analiz, sintez, deduksiya, induksiya, tarixiylik, mantiqiylik, modellashdirish, germeneytik talqin, tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Vatanparvarlik insonning ona yurti, tug'ilib o'sgan joyiga muhabbati va sadoqati ifodasi bo'lib, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, har bir inson, millat, elat, xalqlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmagan umumbashariy ma'naviy qadriyatdir. Vatanga bo'lgan muhabbat zamirida tuproqqa, yashash manziliga, davlatga bo'lgan muhabbat jamlanadi. Abdulla Avloniy tili bilan aytganda "Vatan tuyg'usi eng insoniy, eng mo'tabar tuyg'ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zolash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'am-xasratini baham ko'rish farzandlarning burchi" [2].

Insoniyat taraqqiyotining turli davrlarida vatanparvarlik tushunchasi o'z davrining qadriyatlari mezonida o'lgangan. Vatanparvarlik tuyg'usi va harbiy vatanparvarlik tushunchasining ildizi qadimgi Yunoniston, qadimgi Rim, qadimgi Bobil va qadimgi Somir sivilizatsiyasiga borib taqaladi. Chunki qabilalar, qavmlar, millatlar, xalqlar, davlatlar o'rtasidagi nizolar o'zaro urush yordamida hal qilingan. Bu holat hozirgi yuksak sivilizatsiyalashgan va tafakkur taraqqiyotining oliy darajasi aks etgan axborotlashgan dunyoda ham shu tarzda amalga oshirilmoqda.

Vatanparvarlik tuyg'usini singdirish uchun farzandlarning yoshligidan Vatan uchun jonini fido qilgan qahramonlarning hayoti va jasorati tildan tilga, eldan elga, ajdodlardan avlodlarga suhbatlar va hikoyalari orqali yetkazilgan. Yurt o'g'lonlari yoshligidan jangovar ruhda shijoatli va jasur qilib tarbiyalangan. Eng muhimi, harbiy vatanparvarlik ta'lim jarayonining bir qismiga aylangan. Qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiy (mil.avv. V-IV asrlar) maktabida o'quv jarayoni to'rtta fandan tashkil topgan bo'lsa, uning birinchisi vatanparvarlik g'oyalari singdirilgan hukmdorga, o'z-o'ziga va o'z maslagiga sodiqlik haqidagi bilimlar bo'lgan [3]. Bundan anglashidiki, vatanparvar insonni tarbiyalash cheksiz muhabbat va sadoqat arkoniga qurilishi, unda Vatan, ota-ona va hukmdor teng qiymatli va oliy qadriyat darajasida ko'rilishi "qismat" deb baholangan. Mutafakkirning "Suhbatlar va mulohazalar" asarida shunday yozilgan: "Oqil inson ota-onasiga holdan toygunicha, hukmdoriga o'zini qurbon qilguncha xizmat qiladi" [4]. Konfutsiyning bu hikmati zamirida buyuk haqiqat mujassamdirki, insonning xulq-atvorini uning dunyoqarashi belgilaydi. Ota-onasini e'zozlaydigan, oqil davlat rahbarining har qanday hukm-farmonlarini chin dildan qabul qiladigan, qat'iyatli, ahdiga vafodor, jasur va mard farzandlar buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Ular hech qachon Vatanga xiyonat

qilmaydi, milliy ravnaq va yurt farovonligi yo'lida jonini ayamaydi, iste'dodi, qobiliyati va malakasini mamlakat taraqqiyoti uchun baxsh etadi. So'zining ustidan chiqmaydigan, atrofda insonlarga befarq, beburd va munofiq kimsalar uchun Vatanga muhabbat hissi bo'lmaydi.

Vatan tinchligi oliy ne'mat. Vatanni himoya qilish oliy burch. Qur'oni karimda ham Vatan tinchligi haqida quyidagicha zikr etilgan: "Ey, imon keltirganlar! Yoppasiga itaotga (tinchlikka) kirishingiz va shaytonning izidan ergashmangiz. Albatta, u sizlarga aniq dushmandir" [5].

Insoniyat bugungi kunga qadar ko'plab urush va janglarni boshidan kechirgan. Bularning aksariyati o'z yurti, o'lkasi, vatani va yaqinlarini asrab qolish bilan bog'liqdir. Bu urushlardagi ko'rsatilgan qaxramonlik va vatanparvarliklar bugunga qadar tillarda doston bo'lib yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda dasturi amal bo'lib kelmoqda. Birgina misol. Miloddan avvalgi VI asrda Eron shog'i Doro I qo'shini Turonzamin hududiga bostirib kirgan. Yunon tarixchisi Poliyen "Harbiy xiyalalar" [6.608.] asarida ilk bor Shiroqning jasorati haqida yozgan. Shiroqning jasorati turkiy xalqlarning milliy qahramoniga aylanib, rivoyatlar va jangnomalar yaratilgan. Jumladan, Mirkarim Osimning "Shiroq" qissasi, Usmon Qo'chqorning "Shiroq" dostonida Shiroqning jasorati tilga olingan [7].

Yana bir misol. Turkiyaning Marash shahriga XVI asrda asos solingan. Bir turk qizining sha'nini saqlash "Vatan sha'ni"ni saqlash deb anglangan turk yigitining xatti-harakati bilan butun turk o'g'lonlari 1920 yilda Fransiya arman legionini butunlay parchalab tashlab, ona Vatanni ozod qilgan. 1973 yilda Marash shahriga "Qahramonmarash" nomi berilgan [8]. Sivilizatsiyalar tarixida bu kabi hodisalar ko'p sodir bo'lganki, o'z yurtini himoya qilish, Vatan sha'nishavkatini saqlash insonning o'z uyi, oilasi, sevimli yori va bolalari, yaqinlari, ota-bobolarining tabarruk xoki yotgan muqaddas tuproqni himoya qilish deganidir.

Insonning tug'ilgan ona eri Vatandidir. Odam bolasi dunyoga kelayotganida, "Men falon erda, falon mamlakatda, falon vatanda tug'ilaman" deya olmasligi tabiiy bir holdir. Shu ma'noda inson Vatanni emas, Vatan uni tanlaydi, inson qaysi Vatanda tug'lsa, hech inkorsiz o'sha Vatan farzandi bo'ladi [9].

1231 yilning bahor va yoz oylarida xorazmshohlar saltanati poytaxti Ko'xna Urganchga Chingizxonning 150 minglik qo'shini bostirib kiradi va shaharni olti oy davomida qamalda tutadi. Chingizxonning katta sonli qo'shiniga taslim bo'lmay, taslim bo'lishdan ko'ra o'limni afzal qo'rgan, ona yurtini so'ngi tomchi qoni qolguncha himoya qilib mo'g'ul jangchilariga qarshi mardonavor kurashgan bu ko'xna urganch xalqi va ularga boshchilik qilgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdingning ustoz Shayx Najmiddin Kubro [10.136.]dir. Abulg'oziyning yozishicha, Hazrati shayx aytib yubordilar, kim yaxshilikda men bu halqning tamomi birlan oshno va do'st yor erdim. Endi yomon kunda nechuk bo'larni tashlab borayin, men bora bilmayen, tedi" [11]. Chingizxonning xavasi kelib: "Yoshi saksonga yaqinlashib qolganida xalqini o'z ketidan ergashtirib, sizlarday mardu maydon sarkarda farzandlarimning 150 ming qo'shinining yulini yarim yildan ortiq, ko'kragini qalqon qilib to'sib turgan insonning izzat-xurmatini joyiga qo'yinglar. Biz jangchilar, garchi u dushmanimiz bo'lsa-da, shu yoshda o'zini, xalqi, Vatanni ozodligi, erkiga bag'ishlab, o'limni afzal bilgan bu insonni islomiy udumlar bo'yicha dafn etinglar" [12] deydi.

Ajdodlarning qaxramonona kurashi, Vatan sha'ni, yigitlik nomusini o'limi va qoni bilan, ozodlikni jonidan kechib himoya qilganligi mustaqillikning qadr-qimmatini va ahamiyatini teran anglash, or-nomus, erk va ozodlikni har narsadan ustun qo'ygan ajdodlardan faxrlanish tuyg'usini kuchaytiradi. Bu esa vatanparvarlik tuyg'usining aynan o'zidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29-iyundagi "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 267-sonli qarorida muxtasar bayon qilingan bo'lib, unga ko'ra, 3-7 yoshdagi bolalarga xos xususiyatlar, jumladan, ilk o'z tuyg'ulari, xatti-xarakatini boshqarish ko'nikmalari, shaxsiy fazilatlar asoslari, ijtimoiy motivlar va milliy an'analarga qiziqishlarining paydo bo'lishi, o'zini namoyon etish hamda muvaffaqiyatga erishish kabi ehtiyojlarini inobatga olib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladi. Bu bosqichda bolalar bilan milliy g'urur, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat va uni himoya qilish, davlat ramzlari, buyuk ajdodlar, me'moriy va tarixiy obidalarga hurmat, o'zaro yordam, mehribonlik kabi olijanob fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan she'r, ertak, kuy-qo'shiq, sport va milliy o'yinlarni o'rgatish, teatrlashtirilgan sahna to'mashalarini namoyish etish mujassamlashgan tadbirlar o'tkazilishi belgilangan [13].

Vatanparvarlik ijtimoiy hodisa sifatida uch bosqichda namoyon bo'ladi: birinchisi, bilish, ya'ni Vatan tushunchasiga xos bilim va qadriyatlarini egallash; ikkinchisi, e'tiqod, ya'ni qadriyatlar haqida olgan bilimlarni e'tiqodga aylantirish; uchinchi, harakat, ya'ni e'tiqodni amaliy faoliyatda namoyon etish [14].

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali maqsad ularda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog'liq bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va halqining taqdiri uchun yuksak ma'suliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlar mustahkamlanadi [15].

Mahallalardagi yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlar o'rtasida profilaktik ishlarni samarali tashkil etish va amalga oshirish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, sog'lom

turmush tarzida hayot kechirishiga ko'maklashish, vatanparvarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, huquqiy savodxonligi va qonunga itoatkorlik hissini oshirish, ijtimoiy maishiy muammolarni hal etish maqsadida huquq tartibot, mudofaa organlari, mas'ul idora hamda tashkilotlar, ta'lim muassasalariyu jamoatchilik vakillari tomonidan profilaktik ishlarni tashkil etish bo'yicha harakatlar mexanizmini o'rganishga yordam beradi [16].

Inson o'zini anglagani, nasl-nasabini tanigani sari uning qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, mustahkamlanadi. Vatanparvarlik hech qachon zavol topmaydigan, eskirmaydigan buyuk "fenomenal" hodisa bo'lsa, harbiy vatanparvarlik tushunchasi mamlakat harbiy tarixi va zamonaviy Qurolli kuchlariga mas'uliyatli munosabat, mamlakat mudofaa qudrati, milliy xavfsizlikni mustahkamlash uchun ongli ijtimoiy mas'uliyat hissi, qahramonlik an'analari sodiqlik tuyg'usi, ularni bardavom etish istagining ifodasidir.

**Xulosa va takliflar.** Jahonda va mintaqadagi harbiy siyosiy vaziyatning keskin o'zgarib borishi, axborot makonida yoshlarni turli xil yod g'oyalar ta'siriga tushib qolish extimolining yuqoriligidan kelib chiqib, yoshlarni maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab oliy ta'lim muassasalari davriga qadar ular ongi va qalbida Vatanni sevish, uni asrab avaylash, vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning optimal yo'llari va vositalarini amaliyotda qo'llash maqsadga muvofiq.

Yoshlar ongi va shuurida murakkab ijtimoiy tuzilma bo'lgan harbiy vatanparvarlik yoshlarni buyuk ajdodlarning qahramonliklari, ko'rsatgan jasoratlar va ularni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi yo'lida o'z jonlarini ayamandan fido qilganliklarini yoshlar qalbiga vatanparvarlik ruhini singdirishning sinalgan amaliy indikatoridir.

#### ADABIYOTLAR

1. Аристотель. Никомахова этика / Пер. с древнегреч. Н.В. Брагинской // Аристотель. Собр. соч.: в 4 т. Т. 4. Москва: Мысль, 1983. - С. 50-53.
2. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. – B. 10.
3. Роузман Г. О знании (чжи): дискурс-руководство к действию в "Аналектах" Конфуция // Сравнительная философия: Знание и вера в контексте диалога культур / Институт философии РАН. - Москва: Восточная литература, 2008. - С.20-28.
4. Конфуций. Suhbatlar va mulohazalar / Qadimiy va zamonaviy xitoy tillaridagi nashrlardan M.Maxmutxodjaev va N.Ismatullaeva tarjimasini. – Toshkent: YAngi asr avlodi, 2014. – B. 123.
5. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Baqara surasi, 208-oyat / Tarjima va izohlar muallifi A.Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2004. – B. 32.
6. Полиэн. Стратегемы. / Пер. О.Ю.Владимирской. Под общ. ред. А.К.Нефедкина. СПб., Евразия, 2002. - 608 стр.
7. Sagdullaev A., Aminov B., Mavlonov O., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Birinchi qism. – Toshkent: Akademiya, 2000. – B. 79.
8. Encyclopaedia of Islam. - Leiden: E.J.Brill, 1991. - Vol. VI. - P. 506-507.
9. Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – B. 11-14.
10. Ishaqova Z.R. Shayx Najmiddin Kubro. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 136 b.
11. Hasanov F., Turon xalqlari harbiy san'ati. Toshkent: O'zbekiston, 2018. Shayx Najmiddin Kubro jasorati, B.300-301.
12. Raximov J. Vatanning sheryurak bahodiri. Hal qiluvchi xujum. Chingizxon bosh tug'i shunday yirtilgan edi.Toshkent: 2015. - B. 272
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyun kunidagi "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. - Toshkent: 2023. – B. 5-6.
14. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. – B. 105.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyun kunidagi "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Toshkent: 2023. – B. 6.
16. Murtazaev A.M., Ernazarova O.E., Alimov A.A., Azizov D.A., Yunusov B.A., Mirzatillaev U.M., Huquq-tartibot va mudofaa organlari tomonidan 2024 yilda yoshlarni otaliqqa olish va ular bilan manzilli ishlash mexanizmlari bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2024. – B. 37.



UDK: 372.4

**Adhamjon ROXIBJONOV,**  
Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: adhamjon@mail.ru

Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida

## METHODOLOGY FOR TEACHING CLINICAL SCIENCES TO FUTURE DOCTORS ON THE BASIS OF INTEGRATIVE TECHNOLOGIES

Annotation

The article discusses the importance of integrated educational methods and the use of pedagogical technologies in the teaching of Clinical Sciences in medical higher education institutions. Currently, medicine is described about modern integrated educational technologies used in the musassasalsr of Higher Education.

**Key words:** Medical education, future doctors, educational methods, pedagogical technology, communication, integration, integrated education, students, Clinical Sciences.

## МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ КЛИНИЧЕСКИМ НАУКАМ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В статье обсуждается важность использования интегрированных методов обучения и педагогических технологий в преподавании клинических дисциплин в медицинских высших учебных заведениях. В нем рассказывается о современных интегрированных образовательных технологиях, применяемых в настоящее время в медицинских высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** Медицинское образование, будущие врачи, методы обучения, педагогические технологии, коммуникация, интеграция, интегрированное образование, студенты, клинические науки.

## BO'LAJAK SHIFOKORLARGA KLINIK FANLARNI INTEGRATIV TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida klinik fanlarni o'qitishda integratsiyalashgan ta'lim metodlari va pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati muhokama qilingan. Hozirgi kunda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan zamonaviy integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari haqida bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Tibbiy ta'lim, bo'lajak shifokorlar, ta'lim metodlari, pedagogik texnologiya, kommunikatsiya, integratsiya, integratsiyalashgan ta'lim, talabalar, klinik fanlar.

**Kirish.** Respublikamizning tibbiyot ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini olib kirish bugungi kunda muxim masalalardan biri qatoriga kiradi. Ta'lim jarayoniga yangi innovasion texnologiyalarini joriy etish bu oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va o'quvchilariga xam bir qancha qulayliklar yaratadi. Maxsus texnologiyani o'zlashtirish yordamida qo'yilgan maqsadgato'la erishish mumkin. Yuqori samarali ta'lim texnologiyalarini amaliyotga keng ko'lamda tadbiiq etish, talabalarning imkoniyatlarini oshishiga, yuqori malakali kadrlar bo'lib yetishishlariga undaydi. Zamonaviy interfaol usullar talabalarda mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Tibbiyot oliygohlarida talabalar uchun "Kardiologiya" fanini o'qitishdan maqsad so'nggi yillarda yurak kasalliklari bilan kasallanayotgan bemorlar soni ko'payib bormoqda. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'qish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishlarini qo'llab olib borilmoqda, ulardan asosiylari, kognitiv, evristik, inversion, integrativ pedagogik texnologiyalardir. Dars davomida qo'llangan texnologiya asosida talabalarda tashabbuskorlik va mustaqillikni bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirishni zarur malaka va ko'nikmalarni ularni kuzatuvchanligin itafakkur, xotira va ijodiy tasavvurini tarbiyalashga imkon beradi. Klinik fanlarni o'qitish jarayonida amaliy mashg'ulotlarni yangi pedagogik texnologiya

usullaridan "Xazinalar oroli", "Klaster", "Blis-so'rov", "Assesment", "Zinama-zina" va "Labirint" "Mergan", "Magazin", usullaridan foydalanish talabalarning dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materiallarni yodida saqlab qolish, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida o'qituvchi barcha talabalarni baholay olishga qaratilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yuqorida aytib o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, dars jarayonida innovasion texnologiyalarni qo'llanilishi bo'lajak mutaxassislar uchun fanning umumnazariy qismlarini, tuzilish qonuniyatlarini chuqurroq tushinish va ularni to'ldira olish imkoniyatlari kengayadi. Buning muhimligi shundaki, bu talabalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Bo'lajak kardiologlar bilimlarini kelajakda ular duch keladigan vaziyatlar bilan bog'lash qanchalik erta boshlansa, shunchalik foydali bo'ladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanib o'qitish talabalarni fanga bo'lgan qiziqishini ortishiga, muntazam ravishda darslarga tayyorlanib kelishiga, internet tizimidan foydalanib mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishiga va albatta klinik fanlarni o'zlashtirish darajasini oshishiga olib keldi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iktisodiy va intellektual resurslarini inobatga olgan holda jamiyat xayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni



ta'minlamokda. Pedagog tomonidan dars jarayonida innovasion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy, tankidiy yondoshishga, yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o'z fikrini himoya qilish, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keyingi yillarda atrof-muhitning xar hil mutagen omillar bilan ifloslanishi tufayli turli hil kasalliklar ko'payib bormokda. Bu kasalliklarning kelib chiqishida mutagen omillar hujayraga o'z ta'sirini o'tkazmokda. Xususan hujayraning bo'linish jarayonlariga ta'sir qilmokda, natijada hujayra strukturasi uning genetik apparatini o'zgarishlariga olib kelmokda. Shuning uchun bizni o'rab turgan atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish kerakligi to'g'risida tushuncha berish uchun o'qituvchi dars jarayonida turli hil innovasion texnologiyalardan foydalanadi. O'qituvchi savollar yordamida talabalarning ekologiya sohasidagi, modifikasion o'zgaruvchanlikning mohiyatini, uni o'rganishning biometrik usullarini, genotipik o'zgaruvchanlik, uning kombinativ va mutasion o'zgaruvchanlikning mohiyatini, mexanizmlari va tibbiy biologik ahamiyati kabi umumiy bilimlarini aniqlaydi. O'qituvchi dars jarayonida qoidalar muhokamasini o'tkazadi. Ya'ni muhokama davomida talabalarning tilga olingan muammolar haqidagi bilimlari, mulohazalari va munosabati yuzaga chiqadi. Hulosada o'qituvchi javoblarni zarur axborot bilan to'ldiradi. O'qituvchi mavzuga oid ko'rgazmali jixozlar, "aqliy hujum", "klaster", "baliq skeleti" usullari, namoyish, videousul, amaliy ish usuli, kitob bilan ishlash kabi ta'lim usullaridan foydalangan holda talabalarga suhbat va savol-javob asosida mavzuni keng yoritib beradi. Dars jarayonida mavzuga oid tarqatmali materiallar, chizmalar, klaster, vaziyatli masalalar va test savollari tarqatiladi. Ushbu topshiriqlarni dars jarayonida xar bir talabaning o'zi mustaqil ravishda bajarishi nazorat qilinadi. Bu topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishi quyidagi natijalarga erishish imkonini yaratadi. o'zlashtirilgan mavzu bo'yich ilimlarni mustahkamlash; muammoning mohiyatini aniqlashtirish, ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish; o'z nuqtai nazariga ega bo'lib, mantiqiy xulosa chiqarish; mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash; Tavsiya etilgan amaliy mashg'ulot darslarini tashkil etish va o'tish uchun o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Interfaol usulning mohiyati shundaki, hamma talabalar bilish jarayonida jalb qilinadi, ular mavzuni o'z tafakkuri, o'z bilimlarini ishga solgan holda tushunish va anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol metodlar axborot olishning turli usullarini birgalikda ko'llashni taqozo etadi. Hozirgi vaqtda o'qituvchilar tomonidan guruhlarda ishlashning quyidagi bir qancha shakllari; "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "O'yla-mulohaza qil, o'rtoklash -qiyosla", "Kartochkalar", "Guruhdagi bahs", "Sehrlil quticha" kabi usullar ishlab chikilgan bo'lib, talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishi, muammolar yechimini topish yullarini izlash, hal qilish, bilim, tajriba va fikrlar almashinuvini anglatadi. Innovasion texnologiyalar orkali ukitish tibbiyot oliygoxlari talabalarini tibbiyotga kizikishini yanada orttiradi, ta'lim olish darajasini oshiradi, mustakil fikrlashni urgatadi va kelajakda yetuk mutaxassis bulib chikishida katta axamiyatga ega. Klinik fanlarni o'qitishda amaliy mashgulotlarida "meta ta'lim" "shifokor va bemor" "keys stadiya" "baxs munozara" "stol urtasida ruchka" "ishchan uyinlar" "vaziyatli masalalar" nomli innovasion texnologik ukitish usullari kullanildi. Xar bir gurux uchun kullanilgan bunday ukitish usulini, boshka fan professor-ukituvchilarini xam uzaro darslarga katnashishi bilan birgalikda olib borildi. Bundan tashkari maxsus seminarlar, kushimcha treninglar xamda master-klaslar ukitishning innovasion texnologik usullari bilan birgalikda professor-ukituvchilar tomonidan olib borildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarning darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng darsda ko'rgazmali organayzerlar, ko'rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Shunday kilib amaliy mashgulotlarda faol innovasion texnologik usullarni kullash tibbiyot soxasidagi muammolarni yechishda, talabalarimizning amaliy kunikmalarini yanada mustahkamlashda, xamda ularning mustakil fikrlaydigan yetuk tibbiy mutaxassis bulib chikishida katta axamiyatga ega. Ukitishning innovasion texnologik usullari kay darajada samara berganligini biz talabalarimizning ta'lim olishi ijobiy tomonga yaxshilangani, joriy va oralik nazorat baxolari oldingi semestrda uzlashtirishiga karaganda yaxshilangani misolida kurishimiz mumkin. Xulosa kilib aytganda, tibbiy ta'limda klinik fanlarni o'qitishda ukitishning innovasion texnologik usullarini kullash, talabalarimizni sifatli tayyorgarlikka ega mutaxassis bulib yetishishida muxim rol uynaydi. Bugungi kunda oliy tibbiy ta'lim muasasalari pedagoglarining pedagogik mahoratini shakllantirish va yuksaltirish masalasi o'zining dolzarbligi bilan alohida axamiyat kasb etmoqda. Malaka oshirishning dolzarbligi bugungi kunda ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiiq etish, ta'lim jarayonida innovasion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonida innovasion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonida innovasion ta'lim muxitini yaratib berish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa, tom ma'noda pedagoglardan pedagogik maxoratni talab etadi. Oliy tibbiy ta'lim sifatini ta'minlash va malakali mutaxassislarni tayyorlashda yuqoridagi masalalarning ahamiyati katta. Chunki bugungi kunda oliy tibbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash ta'lim jarayoniga nisbatan innovasion yondashuvni, pedagoglarning kasbiy-pedagogik mahoratini yanada yuksaltirishni talab etmoqda. Shunday ekan, tibbiy ta'lim muassasa pedagoglarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tarmoq markazida bu masalaga katta e'tibor qaratilmoqda va bu kabi masalalar bugungi kunda malaka oshirish tizimining dolzarb mavzularidan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Malaka oshirish tizimida tinglovchilarni pedagogik mahorat asoslari bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Zero, tinglovchilar tomonidan pedagogik mahoratning tarkibiy elementlari haqida ma'lumot olinishi ularda pedagogik bilimdonlik, pedagogik relaksasiya, pedagogik takt, pedagogik texnika, nutq madaniyati, pedagogik odob, pedagogik hamdartlik, kommunikativ kompetentlik pedagogik nizolarni bartaraf etishda taktik yondashuv, zamonaviy pedagog imidji, kreativlik, pedagogik boshqaruv usullari, pedagogik qobiliyat to'g'risidagi ma'lumotlarning o'zlashtirilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. Pedagogik mahorat asoslari va uning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish jarayonida tinglovchilar pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga doir nazariy bilimlar bilan tanishtiriladi, pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish ko'nikma va malakalari rivojlanadi, pedagogik muloqot, pedagogik ta'sir ko'rsatish malakalarini o'zlashtirish ta'minlanadi, kompetentlik sifatleri shakllanadi. Pedagogning mahorati bevosita uning kasbiy-pedagogik faoliyatida ko'rinadi. Shu sababli, pedagog ta'lim jarayonining umumiy mohiyatini chuqur anglay olish, yangiliklardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini egallay bilishi va amaliyotga tadbiiq eta olishi lozim. Oliy ta'limning eng muhim

vazifalaridan biri zamonaviy o'quv dasturlari asosida yuqori natijali o'qitish va malakali qadrlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Bugungi oliy ta'limni isloh qilish oliy ta'lim pedagogi vazifasini ham o'zgartirishi tabiiydir. Pedagog mutaxassisligi bo'yicha ilmiy bilimlardan qat'iy nazar, kerakli pedagogik minimumga ega bo'lishi, ya'ni pedagogik va psixologik bilimlarni o'zlashtirgan, dars berish metodikasi va texnologiyasini egallagan bo'lishi, innovasion ta'lim muhitini yarata olishi kerak. Kadrlar tayyorlash malaka oshirishi va qayta tayyorlash tizimida ta'lim va tarbiya samaradorligi, sifati, o'qituvchilarning bilim saviyasi, pedagogik va kasbiy tayyorgarligi, qolaversa pedagogik mahoratiga bog'liq.

**Xulosa va takliflar.** Bo'lajak shifokorlarni integrasiyalashgan texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi ta'lim jarayonini samarali va innovasion qilishga qaratilgan. Bu metodika nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, interaktiv usullardan foydalanish va turli texnologiyalarni tatbiq qilishni o'z ichiga oladi. Integrasiyalashgan texnologiyalar asosidagi o'qitish metodikasi shifokorlarning tayyorgarligini yaxshilashga, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga va zamonaviy tibbiy bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Bu talabalarni real hayotdagi tibbiy vaziyatlarga tayyorlashga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Habibova, M. N. (2021). Jorjina Houellning "Queen of the desert" biografik asarida gertruda Bell timsoli tasviri. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 770-778.
2. Habibova, M. N. (2021). The theme feminism in the epistolary novels in modern times. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(103), 1101-1105.
3. Habibova, M. N. (2022). The history of the russian epistolary novel in eighteenth century. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(3), 135-139.
4. Kurbanova Gulnoz Nematovna, Mechanism of developing the 13.professional thinking of students.
5. Kurbanova G.N. Pedagogical and psychological bases on developing students' professional thinking in medical pedagogical education // *International Journal of Psyc*



UO\*K:796.012.11:853.23:015.132

*Mirzaraxim ROZIBAYEV,*

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti mustaqil izlanuvchisi*

*E-mail mirzo0701@gmail.com*

*PhD, dotsent A.Mo'minov taqrizi asosida*

## METHODOLOGY FOR PREPARING QUALIFIED HANDBALL PLAYERS FOR PRE-COMPETITION CYCLES

Annotation

This article is provided information on the distribution and analysis of loads for the pre-competition, striking, and recovery cycles of qualified handball players.

**Key words:** Handball, ampoule, Polar G 10, functional YuQS, innovative, individual, vital capacity of the lungs, kcal, energy consumption, fat competition, training process.

## МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ГАНДБОЛИСТОВ К ПРЕДСОРЕВНОВАТЕЛЬНЫМ ЦИКЛАМ

Аннотация

В статье представлена информация о распределении и анализе нагрузок для предсоревновательного, ударного и восстановительного циклов квалифицированных гандболистов.

**Ключевые слова.** Гандбол, ампула, Polar G 10, функциональная ЮКС, инновационная, индивидуальная, жизненная емкость легких, ккал, расход энергии, жировая конкуренция, тренировочный процесс.

## MALAKALI GANDBOLCHILARNI MUSOBAQA OLDI SIKLLARIGA TAYYORLASH USLUBIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada malakali gandbolchilarni musobaqa oldi dastlabki va yakuniy bosqichlariga yaqinlashtiruvchi, zarbdor, tiklovchi sikllarga yuklamalarni yo'nalishlariga qarab taqsimlab qo'llash hamda tahlil qilish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Gandbol, amplua, Polar G 10, funksional YuQS, innovatsion, individual, o'pkaning tiriklik sig'imi, kkal, energiya sarfi, yog' musobaqa, mashg'ulot jarayoni.

Ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi: Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, mamlakatimiz sportchilarining xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda sportchilar tayyorlash metodologiyasini takomillashtirish, sport turlari bo'yicha terma jamoalar tarkibini sifatli to'ldirish uchun sport zaxirasini shakllantirish va yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jarayoniga innovatsion loyihalarni joriy etish" vazifasi belgilab berilgan [2]. Sportning jamoaviy o'yin turlarida, xususan gandbolda, hozirgi vaqtga qadar, o'yinchilarni amplua bo'yicha tayyorlash, asosan markaz o'yinchilarining xujum samaradorligini takomillashtirish uslubiyatini ishlab chiqishni talab etmoqda. Bugungi kunda malakali markaz o'yinchilarni tayyorlashda ularning to'psiz va to'p bilan o'zgaruvchan yo'nalishli yugurish tezligi, muvozanat saqlash turg'unligi va harakat aniqligini takomillashtirish bo'yicha mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish, hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Malakali gandbolchilar musobaqa oldi sikllarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. 1. Malakali gandbolchilar musobaqa oldi sikllariga vositalarni saralash va yo'nalishini belgilash. 2. Malakali gandbolchilarni musobaqa oldi siklini takomillashtirish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Makrosikl mashg'ulotlarida yuqori malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarlik tizimini ishlab chiqish hamda nazorat qilishni ilmiy asoslab berishgan. Harakat tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mashqlar bilan bog'liq holda, zarur va yetarli tamoyillarga rioya qilish kerak. Uning mohiyati shundan

iboratki, agar ulotirishni bajarish uchun zarur bo'lgan mushaklarning kuchi, tezligi va chidamliligi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, yuqori sifatli ijroni kutish mumkin emas. Jismoniy sifatlar yetarli darajada bo'lsa, ularni yanada yuqori darajaga ko'tarish uchun vaqtni behuda sarflash tavsiya etilmaydi, chunki ularning haddan tashqari rivojlanishi harakat texnikasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuni ham hisobga olish kerakki, aniqlik ustida ishlaganda gandbolchi yangi sharoitga mos keladigan fiziologik rejimda bo'lishi kerak.

Gandbolchilarni tayyorlashda va musobaka faoliyatida yuklamalarning taksimlanishi. Gandbolda musobaqa yuklamasi tushunchasini ma'lum tayyorgarlik boskichida gandbolchilarni utkazgan uchrashuvlari sonini anglatadi. Musobaqalarni soni ortish bilan mashg'ulot yuklamasini xajmini baxolash ayniksa muxim bulib koladi.

Yuqori malakali gandbolchilarni mashg'ulot jarayonini boshqarish stifikasi katta xajmdagi o'yinlarni o'tkazishni aks ettiradi. Bu ko'rsatkich xozirda 80 ta o'yingachani tashkil qilmokda.

Siklik va ba'zi sport turlarida xam musoqakalar xozirda ko'p lekin ularda aniqlik moyilroq ya'ni, asosiy nazorat musobaqalari aniq belgilab olingan bo'ladi. Bu sport turlarida asosiy musobaqalarga maxsus tayyorgarlik ko'riladi. Masalan: startga bir necha hafta qolganda yuklamalarni sekin kamaytirib boriladi.

Musobaqalarga bir necha kun qolganda esa mashg'ulotlarni butkul to'xtatiladi.

Gandbolda esa bunday xolat kuzatilmaydi va barcha musobaqalar aniq belgilab olingan bo'ladi. Keyingi o'yinga tayyorlanish juda qiyin chunki o'yinlar oralig'i odatda 3-4 kuni tashkil kiladi.

Musobaqa yuklamasini baholashda asosiy va o'rtoliqlik uchrashuvlarini alohida inobatga olish lozim. Misol uchun

yuqori malakali gandbolchiga asosiy xisoblanadi va ular 30 ta uchrashuvni tashkil qiladi.

Gandbolda musobaqa yuklamalari					
Tayyorlov musobaqalari		Asosiy musobaqalari			
Nazorat	O'rtoliqlik uchrashuv		Mamlakat chempionati	Mamlakat kubogi	Kontinental kuboklari

Gandbol asosiy musobaqalar umumiy musobaqalarini 60%-70% tashkil qiladi. Shuning uchun gandbolchilar asosan yuqori yuklamalarga dosh berishga to'g'ri keladi. G'alabalarga erishish uchun ko'p jismoniy energiya yo'qotish bilan ko'p nerv energiya sarfini xam bajarishadi.

O'yinlarga tayyorgarlik mashg'ulot yuklamalarini xajmi va sifat ko'rsatichlarini o'zgartirish bilan va o'yinlar keyingi maxsus tiklanish vositalari yordamida amalga oshiriladi. Yuqorida aytib o'tilganlar shuni takozo etadiki, o'yinlar aro sikllarda shunday mashg'ulotlar tizimini yaratish kerakki, ularda kerak bo'ladigan dam olish intervallarini va tiklanish vositalarini rejalashtirish kerak bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida biz musobaqa davridagi mashg'ulot jarayonining musobaqaoldi mikrosiklini ishlab

### Natijalar muhokamasi

1-jadval

#### Malakali gandbolchilarni tayyorlashning musobaqaoldi davrining dastlabki bosqichining mikrosikl tuzilishi

Oylar	Mikrosikl	Kunlar	Yuklamani yo'nalishi
Sentabr	Yuklamali	3 (1)	Aerob-anaerob. Chidamlilik
	Musobaqaoldi	3;3	Anaerob-alaktat. Tezlik
	Musobaqa		
	Tiklovchi	3	Aerob, aerob-anaerob (140 zar/daq.gacha)
	Yuklamali	3;3 (1)	Aerob/Kuch; Aerob-anaerob, chidamlilik
	Yuklamali	4 (1)	Aerob-anaerob. Chidamlilik
Oktabr	Zarbdor	4 (1)	Anaerob-glikolitik. Tezkor-kuch
	Musobaqaoldi	4	Anaerob-alaktat. Tezlik va koordinatsiya
	Musobaqa		
	Tiklovchi	3	Aerob, aerob-anaerob (140 zar/daq.gacha)
	Yuklamali	3;3 (1)	Aerob/kuch; Aerob-anaerob, chidamlilik
	Yuklamali	3 (1)	Aerob-anaerob. Tezkor-kuch
Noyabr	Zarbdor	3;3 (1)	Anaerob-glikolitik. Tezkor-kuch, aerob-anaerob. Koordinatsiya
	Musobaqaoldi	3 (1)	Anaerob-alaktat. Tezlik + koordinatsiya
	Musobaqa		
	Tiklovchi	4 (1)	Aerob, aerob-anaerob, (140 zar/daq.gacha)
	Yuklamali	3;3 (1)	Aerob-anaerob. Chidamlilik. Aerob-anaerob, tezkor-kuch.
Dekabr	Yaqinlashtiruvchi	4 (1)	Aerob-anaerob. Texnika-taktika
	Musobaqaoldi	4;3 (1)	Anaerob-alaktat. Tezlik-koordinatsiya
	Musobaqa		

53 kun davom etgan va mezosikl bo'lgan chempionatning ikki bosqichi oralig'ida biz tayyorgarlikning yakuniy bosqichi uchun mikrosiklini ishlab chiqdik. Fevral bosqichidan keyingi yakuniy bosqichda keyingi bosqichga 10 kundan ortiq vaqt qolmadi. Shu munosabat bilan, 3-jadval

rivojlantiruvchi xususiyatlarga ega yuklamalar mikroblokidan va tiklanishdan keyin musobaqadan oldingi mikroblokdan foydalandik. Musobaqa taqvimiga ko'ra, 45 kunlik uzoq tanaffus rejalashtirilgan bo'lib, unda tayyorgarlikning yakuniy bosqichi ham amalga oshirildi.

#### Malakali gandbolchilarni musobaqa davrining yakuniy bosqichining mikrosikl tuzilishi

Oylar	Mikrosikl	Kunlar	Yuklamani yo'nalishi
Dekabr	Tiklovchi	4 (1)	Aerob
	Yuklamali	3;3 (1)	Aerob/Kuch Aerob-anaerob. Chidamlilik (150 zar/daq.gacha)
	Yuklamali	4 (1)	Aerob-anaerob. Tezkor-chidamlilik
Yanvar	Musobaqa	2	Nazorat
	Tiklovchi	2	Aerob
	Yuklamali	3 (1)	Aerob-alaktat. Chidamlilik (150 zar/daq.gacha)
	Zarbdor	4 (1)	Anaerob-glikolitik. Tezkor-kuch
	Yuklamali	4 (1)	Aerob-anaerob. Chidamlilik (160 zar/daq.gacha)
	Musobaqaoldi	3;3 (1)	Anaerob-alaktat. Tezlik-koordinatsiya
Fevral	Musobaqa		
	Tiklovchi	2	Aerob
	Yaqinlashtiruvchi	3 (1)	Aerob-anaerob. Texnika-taktika
	Musobaqaoldi	3 (1)	Aerob-anaerob + koordinatsiya. Anaerob-alaktat. Tezlik

Mart	Musobaqa		
	Tiklovchi	3	Aerob
	Yuklamali	3:3 (1)	Aerob/kuch. Aerob-anaerob, Chidamlilik. (150 zar/daq.gacha)
	Yuklamali	3:3 (1)	Aerob-anaerob, Chidamlilik. (160 zar/daq.gacha). Aerob-anaerob. Tezkor-kuch
	Yuklamali	4 (1)	Aerob-anaerob + koordinatsiya
Aprel	Zarballi	4 (1)	Anaerob-glikolitik. Tezkor-kuch
	Musobaqaoldi	4	Anaerob-alaktat
	Musobaqa (nazorat)	2	
	Tiklovchi	2	Aerob
	Yuklamali	3:3 (1)	Aerob-anaerob. Chidamlilik (150 zar/daq.gacha) Aerob-anaerob+koordinatsiya
	Musobaqaoldi	4 (1)	Anaerob-alaktat. Tezlik+koordinatsiya
	Musobaqa		
	Tiklovchi	4 (1)	Aerob
	Yaqinlashtiruvchi	3:3 (1)	Aerob-anaerob. Chidamlilik (150 zar/daq.gacha) Aerob-anaerob+koordinatsiya
	Musobaqaoldi	3	Anaerob-alaktat. Tezlik
	Musobaqa		

Ishlab chiqilgan mikrosiklning samaradorligini aniqlash malakali gandbolchilarni tayyorlashning uzoq raqobatli davridagi mashg'ulotlar jarayonida biz asosiy pedagogik tajribani tashkil qildik va mashg'ulotlarda qo'lladik. Tajribaning mohiyati quyidagicha edi. Biz ishlab chiqqan o'quv jarayonining strukturasi 2022-2023 yilgi mavsumda Skuf jamoasini tayyorlashda foydalanilgan. Musobaqa ko'rsatkichlari avvalroq o'rganilgan ushbu jamoalar gandbolchilarning o'tgan mavsumdagi musobaqa davridagi faoliyatiga qarab rejalashtirildi. Shuningdek, tajriba guruhi jamoa gandbolchilarining maxsus jismoniy sifatlari ko'rsatkichlari aniqlandi va tahlil qilindi. Nazorat guruhlarida o'quv jarayoni an'anaviy tuzilishga ega, tajriba guruhida esa "3+1", "2+1" taktik sxemalardan foydalanildi. Turli yo'nalishdagi yuklamalarning nisbati quyidagicha: aerob yuklama 5% gacha, aerob-anaerob - 56 dan 65% gacha,

anaerob glikolitik - mikrotsikllarga qarab 5 dan 15% gacha, anaerobik alaktik (qisqa ligamentlarda texnik va taktik ish). 12-15 gacha c) 24% gacha rejalashtirildi. Malakali gandbolchilarni musobaqa oldi dastlabki va yakuniy bosqichlariga mikrosikl tuzilmasini qo'llash orqali musobaqalarda yuqori natijaga erishish imkoniyati oshdi. Unversiada sport musobaqalarida jamoalarimiz birinchi o'rinni egallashdi.

**Xulosa.** Biz tomonimizdan malakali gandbolchilarni musobaqa oldi dastlabki va yakuniy bosqichiga ishlab chiqilgan sikllarni qo'llash orqali jismoniy va funksional tayyorgarlik yaxshilanishiga shu bilan birga navbatdagi mashg'ulotga organizmni tez tiklanishiga hamda yaqinlashtiruvchi, zarbdor mikrosikllarni qo'llash orqali esa musobaqalarda yuqori natijaga erishish imkoniyati kengaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6099-son Farmoni. Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2022 yildagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-414-son qarori. Lex.uz.
3. Мўминов А.Ш. Турли малакали ганд-болчиларнинг чакконлик сифати кўрсаткичларини тахлилиий ўрганиш. "ФАН-СПОРТГА" илмий назарий журнал 2021. 1 сон. - Б.23-25.
4. Fozilov X.Q. Gandbolchi talaba qizlarinig maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash va tahlil qilish // Fan-sportga ilmiynazariy jurnal. 2021. 2 son. – B.41-43 [13.00.00. №16]
5. Tulaganov Sh.F., F.A.Abdurahmanov, Sh.K.Pavlov, R.R.Kariyeva, R.I.Isroilov, A.Sh.Muminov. Injuries in handball players and ways to prevent them. Journal of critical reviews, 2020. Pg. 1699-1702.
6. Абдурахманов Ф.А., Павлов Ш.К., Кариева Р.Р. Исследование эффективности защитных гандболистов различного возраста и квалификации в условиях соревновательной деятельности: Фан-спорта илмий-назарий журнал. 2007. № 4. – С. 17-20.



UDK. 316.334.3

**Ravshonbek SAUROV**,  
Toshkent xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi, PhD  
E-mail: ravshonbek.saurov@gmail.com

PhD M. Aytboyev taqrizi asosida

### “IJTIMOIY DAVLAT” VA “DEMOKRATIYA” TUSHUNCHALARINING ILMIY-ETIMOLOGIK, FALSAFIY-KRATOLOGIK TALQINLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada, “ijtimoiy davlat” va “demokratiya” tushunchalarining ilmiy-etimologik, falsafiy-kratologik talqinlari berilgan bo‘lib, ularning immanent belgilari, tarixiy kelib chiqishi va unga zamin yaratgan shart sharoitlar to‘g‘risida so‘z boradi. Shuningdek, demokratiyaning ro‘yobga chiqarishda ayniqsa, davlat boshqaruvi bilan uyg‘unlashtirish borasida ziddiyatli fikrlar mavjudligi ta’kidlanadi hamda misollar orqali izohlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiylik, demokratiya, demokratizm, ijtimoiy davlat, siyosiy reallik, ijtimoiy funktsiya, demokratizm prinsipi, xalq irodasi.

### НАУЧНО-ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЕ, ФИЛОСОФСКО-КРАТОЛОГИЧЕСКИЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ПОНЯТИЙ «СОЦИАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВО» И «ДЕМОКРАТИЯ»

Аннотация

В данной статье даны научно-этимологические, философско-kratologические интерпретации понятий «социальное государство» и «демократия», обсуждаются их имманентные признаки, историческое происхождение и условия, создавшие для него почву. Также на примерах подчеркивается и поясняется наличие противоречивых мнений в вопросах реализации демократии, особенно в плане гармонизации с государственным управлением.

**Ключевые слова:** Социальность, демократия, демократизм, социальное государство, политическая реальность, социальная функция, принцип демократии, воля народа.

### SCIENTIFIC-ETYMOLOGICAL, PHILOSOPHICAL-KRATOLOGICAL INTERPRETATIONS OF THE CONCEPTS OF "SOCIAL STATE" AND "DEMOCRACY"

Annotation

In this article, the scientific-etymological, philosophical-kratological interpretations of the concepts of "social state" and "democracy" are given, and their immanent signs, historical origin, and the conditions that created the ground for it are discussed. Also, it is emphasized and explained by examples that there are conflicting opinions in the implementation of democracy, especially in terms of harmonization with state management.

**Key words:** Sociality, democracy, democratism, social state, political reality, social function, principle of democracy, people's will.

**Kirish.** Ilmiy tadqiqotning qanday maqsadni va vazifalarni oldiga qo‘ygani undagi asosiy kategoriyalarda o‘z aksini topadi. Kategoriyalar shunchaki so‘z, ibora yoki leksikologik to‘qimalar emas, ular tadqiqotchi diqqatini jamlaydigan, uni ma‘lum bir maqsadga, obyektga yo‘naltiradigan, L.Vitgenshteyn iborasi bilan aytganda, borliqdagi faktlarga taalluqli “pozitsiyalar yig‘indisi”dir. Faktlarning mantiqiy ifodasi bo‘lgan mulohazalar, so‘z, fikr, kategoriyalar borliqdagi mavjud faktlar (ya‘ni obyekt va predmetlar) haqidadir. Shuning uchun kategoriyalar bilan ifodalanmaydigan narsalar, obyektlar haqida gapirmagan, ya‘ni “jim qolgan ma‘qul”[1]. Biroq L.Vitgenshteyn faktlarni predmetlardan farqlaydi. “Dunyo, – deb yozadi u – predmetlardan emas, balki faktlardan iborat”[1]. Uning talqinida faktlar pozitsiyalar yig‘indisi, ya‘ni tadqiqotchi tasavvurlari, tasvirlari, kategoriyalaridir. Bu aslida R.Dekartning “fikrlayapman, demak, mavjudman” degan [2] subyektivistik fikriga yaqindir.

**Adabiyotlar tahlili.** “Ijtimoiy davlat” kategoriyasi ilmiy adabiyotlarda o‘tgan asrning ikkinchi yarimlarida paydo bo‘ldi. Biroq bu davlatning ijtimoiy funksiyalari avval bo‘lmagan degan fikrni anglatmaydi. Agar davlatni ijtimoiy-siyosiy institut sifatida e’tirof etadigan bo‘lsak, u ushbu xususiyatini ma‘lum bir ijtimoiy muhitda, makonda,

an‘analarda namoyon etishi mumkinligini anglab yetamiz, bunday ijtimoiy muhitsu siyosiy institut, davlat, boshqaruv tizimi shakllanishi aslo mumkin emas. Demak, ijtimoiylik har qanday davlat institutining atributidir. Biroq bu ijtimoiylikning darajalariga qarab davlatni klassifikatsiya qilish falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy adabiyotlarda keng tarqalgan. Masalan, yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida taqdim etilgan, yirik huquqshunos va davlatshunoslar tomonidan tayyorlangan “Davlat va huquq nazariyasi” kitobida davlat, formatsion ko‘rinishlariga ko‘ra, sharqona, quldorlik, feodal, burjua va sotsialistik ko‘rinishga o‘tayotgan davlatlar tiplariga, turlariga nisbatan esa totalitar, avtoritar, liberal va demokratik davlatlarga klassifikatsiya qilinadi [3]. Mazkur klassifikatsiyada, umuman, darslikda “ijtimoiy davlat” kategoriyasi tilga olinmaydi. Ammo darslik mualliflari burjua davlatining uchinchi bosqichi (o‘tgan asrning 30 yillaridan boshlab)da davlat jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy talablari bilan hisoblashishga, ya‘ni “egiluvchan rejalashtirish, davlat buyurtmalarini joylashtirish, kreditlar ajratish” kabilar orqali o‘zining ijtimoiy funksiyalarini bajarishga o‘tdi, natijada rivojlangan g‘arb kratologiyasida “umumfarovonlik davlati”, “xalq kapitalizmi”, sinfiy xarakterini yo‘qotgan “demokratik huquqiy davlat” degan kategoriyalar paydo bo‘ldi, bu davlatning ijtimoiy funksiyasi “huquq mexanizmlari orqali

boylarni kambag'alroq, kambag'allarni esa boyroq qilish" bo'ldi [3], deb yozadilar. Mazkur prinsipning shakllanishi uzoq davlatchilik tarixi va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning murakkab, ziddiyatli, goho anglash qiyin bo'lgan bosqichlari bilan bog'liqdir.

Demokratiya genezisi to'g'risida gap ketganida avvalo Afina demokratiyasini esga olishadi. Tarixiy, falsafiy-kratologik va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar ko'rsatadiki, Afina demokratiyasi xalq hokimiyatchiligining ilk modeli edi. Taniqli siyosatshunos va sotsiolog K.Satorining fikricha, demokratiya ilk ko'rinishidan tortib, to zamonaviy ko'rinishigacha xalq irodasi va uning qiziqishlarini ifoda etib kelayotgan ijtimoiy-siyosiy voqelikdir. Demokratiya markazida xalq irodasi va qiziqishlari turadi va ularning zarur ijtimoiy-siyosiy mexanizmlarini yaratish orqali ko'pchilikning davlat boshqaruvidagi ishtiroki ta'minlanadi [4]. Ushbu uyg'unlikda davlat va xalq bir birini ifoda etib keladigan, davlat xalq nomidan faoliyat yuritadigan, xalq esa davlat kuchiga, siyosatiga tayanadigan ikki subyektlar sifatida namoyon bo'ladi. K.Satori demokratiya nazariyasi evolyutsiyasini ushbu uyg'unlik orqali tahlil qiladi. Ba'zan u subyektivizmga beriladi, ijtimoiy-siyosiy manbalarni, tajribalarni tahlil qilishdan ko'ra nazariyaga e'tibor qiladi. Empirik manbalar va tajribalarni chetlab o'tishga harakat qilish, goho esa ularni ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-kratologik izlanishlar bilan bog'lay olmaslik nafaqat nazariyaning, shuningdek, amaliyotning ham inqirozini bildiradi. Faylasuf va huquqshunos, professor A.Kovlarning yozishicha, XX asrning oxirlarida dunyoda yuz bergan siyosiy o'zgarishlar, globallashuv jarayonlarining ziddiyatli ta'siri tufayli kechayogan, goho nazariya anglashi qiyin bo'lgan voqeeliklar, g'arb taqdim etgan demokratiya modellarining inqirozini anglatmoqda. Biroq bu inqiroz xalq hokimiyatchiligi prinsipini rad etayotgani yo'q, balki, aksincha, uni yangicha ko'rinishda, shakllarda va siyosiy ekzistensial mohiyatda davom ettirishni taqozo qiladi [5]. Demak, Afina demokratiyasi shakllantirgan prinsip o'z mohiyatini yo'qotmagan, demokratiya markazida hamon "xalq hokimiyatchiligi" degan tushuncha turibdi. Uning tarixiy-siyosiy jarayonlardagi ko'rinishlari esa o'sha davrlarning mahsuli, siyosiy tafakur va tajribalarning ifodasi hisoblanadi.

**Natijalar va muhokama.** Demokratiyaning ilmiy etimologik, falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy talqinlari "xalq hokimiyatchiligi" degan ta'rifga tayansa-da, ularda urg'u soha xususiyatlariga qaratiladi. Masalan, kratologik tadqiqotlar demokratiya tushunchasini hokimiyat, hokimiyatning taqsimlanishi va hokimiyatning omma bilan aloqalariga qaratadi [6]. Ularda hokimiyat va demokratiya inson, jamiyat, boshqaruv, ijtimoiy fikr hamda ularning qaror qabul qilish jarayonlariga siyosiy ta'siri orqali tahlil qilinadi. Hokimiyatning regulativ va ma'muriy funksiyalari demokratiyaga qanchalik muvofiqligi yoki unga xalaqit berishi masalalari ochib beriladi. Kishilar ma'lum bir erklaridan voz kechib, davlatni, hokimiyatni shakllantiradilar, ammo bu ixtiyoriy voqelik, ma'lum bir obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida, ularning erksizligini keltirib chiqaradi. Mazkur ziddiyatni davlat va hokimiyatning o'zi hal etishi kerak, chunki ularning tub maqsadi xalqqa xizmat qilishdir. Demokratiya nazariyasiga oid adabiyotlarda aynan ushbu ziddiyatni bartaraf etish, xalq hokimiyatini real voqelikka aylantirish muammolari muhokama qilinadi [8]. Falsafiy huquqiy yo'nalishdagi tadqiqotlarda esa demokratiya ko'pincha huquq fenomeni, shaxsning huquq va erkinliklari, ularni ta'minlashda davlat, hokimiyat va siyosiy institutlarning faoliyati orqali ochib beriladi. Ularda huquqning ijtimoiy makondagi o'rni, shaxsning o'z huquq va erkinliklarini anglashi demokratik jarayonlar sifatida tahlil qilinadi [10]. Shunday bo'lsa-da, ularning barchasida demokratiyaga bo'lgan ishonch mavjud. Demokratiyaning ideal ekani hech

kimda shubha uyg'otmaydi, ammo uning ro'yobga chiqarish, ayniqsa davlat boshqaruvi bilan uyg'unlashtirish borasida ziddiyatli fikrlar saqlanib qolmoqda.

AQShlik siyosatshunos D.Xeld zamonaviy siyosiy hayotda uchrayotgan demokratiya modellarini tahlil qilgan va ularning o'nga yaqin ko'rinishlari borligini aniqlagan [15]. Falsafa fanlari doktori A.A.Nudenkoning ta'kidlashicha, demokratiyaning ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan ellikdan ziyod ta'riflari, ilmiy talqinlari mavjud [16]. D.Xald taklif etgan modellar bilan A.A.Nudenko ko'rsatgan ilmiy ta'riflar o'rtasida jiddiy farq mavjud. D.Xald diqqatini g'arb, ayniqsa AQSh siyosiy tajribasiga qaratadi va undan demokratiya modellarini keltirib chiqaradi. A.A.Nudenko esa demokratiyaning tarixiy-siyosiy tajribalariga murojaat etadi va tadqiqotchilarning ilmiy ta'riflarini tahlil qiladi. Aslida bunday tajriba modelni o'rganishga borib taqaladi, model ta'rif va ilmiy talqinlarga empirik baza bo'lib xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, demokratiyaning modellar tarzida kelishi demokratizm prinsipini, ilmiy talqinlari esa tadqiqotchilarning yondashuvlarini ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan demokratiya (ideal tarzida) nazariya, ta'rif, talqin, demokratizm esa model, prinsip, empirik bazadir. Ikkinchisi birinчисini taqozo etib, o'ziga ideal topganidek, birinчisi ham ikkinчisi orqali gnoseologik tajribaga, izlanishlarga aylanadi. Shu o'rinda ilmiy-nazariy, metodologik ahamiyatga ega bo'lgan, adabiyotlarda yetarli yoritilmagan qaysi belgilariga nisbatan demokratiya va demokratizmning falsafiy-kratologik ahamiyatini aniqlash, belgilash mumkin, degan savol tug'iladi. Mazkur savol o'zbek tadqiqotchisi, falsafa fanlari doktori, professor B.A.Talapovning diqqatini tortgan. Uning fikricha, demokratiya va demokratizm prinsipining ichki immanent belgilarini ochib bermay ularning siyosiy-kratologik va falsafiy-huquqiy ahamiyatini anglab bo'lmaydi. U ushbu immanent belgilarni:

- 1) ko'pchilikning ijtimoiy-siyosiy voqelikda, xayotiy jarayonlarda qatnashishi;
- 2) vakillik organlari (institutlari) yoki xalq vakillari orqali davlat va jamiyat hayotini boshqarish;
- 3) tiymoq va qarama-qarshi kuchlarni murosada ushlab turmoq;
- 4) siyosiy yetakchilar va elit guruhlar o'rtasidagi raqobat, konkurensiya;
- 5) iqtisodiy demokratiya, iqtisodiy musobaqa, raqobat;
- 6) markazlashgan boshqarishni mahalliy va o'zini o'zi boshqarish bilan uyg'unlashtirish;
- 7) ijtimoiy tenglikni ta'minlash;
- 8) demokratiya – shaxs erkinligi;
- 9) demokratiya – davlat va ijtimoiy hayotni boshqarish shakli;
- 10) demokratiya – ijtimoiy yuridik voqelik;
- 11) demokratiya – sotsiologik voqelik;
- 12) demokratiya – ijtimoiy-siyosiy voqelik;
- 13) demokratiya – ijtimoiy taraqqiyot modeli, sotsium orzu tilaklarini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq mexanizm, inson erkini ta'minlash vositasi [17].

Ushbu immanent belgilarning har biriga B.A.Talapov retrospektiv-falsafiy va ilmiy-nazariy nuqtai nazardan misollar keltiradi, ulardagi funksional xususiyatlarni chet ellik tadqiqotchilar, faylasuf va sotsiologlar, siyosatshunoslarning konseptual fikrlari negizida ochib beradi. Bu o'rinda tadqiqotchining ayrim belgilari bilan bahslashish mumkin, ammo ulardagi ratsional, demokratiyaning ijtimoiy borliq, reallik bilan bog'liq, shaklan esa turlicha hodisa ekanini ko'rsatgani ijobiy yondashuvdir. Demak, demokratiyaga berilgan turli ta'riflar va uning rang-barang modellarini keltirilishi bejiz emas. Tadqiqotchi demokratiyaning milliy xususiyatlariga e'tibor qaratib yozadi: "Har qanday ijtimoiy voqelik, shu jumladan, demokratiya va demokratizm prinsipi

ham, ma'lum bir etnomadaniy va etnosotsial munosabatlar in'ikosi, ifodasidir. Ushbu xususiyatlarni hisobga olmaslik demokratiyani mavhum, hatto kosmopolitik g'oyaga aylantiradi, natijada demokratiyaning umuminsoniy mohiyati bilan etnomadaniy, etnosotsial borliq o'rtasida ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar kelib chiqadi" [17]. Shuningdek, tadqiqotchi demokratiya fenomenining ijtimoiy-siyosiy borliq, talqinlari to'g'risida gap ketganida, avvalo ularning ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bog'liq tomonlari nazarda tutiladi. Barcha bahs, munozaralar ana shu voqelik bilan bog'lab qaraladi. Shuning uchun B.A.Talapov o'rinli ko'rsatadi: "Demokratiya siyosiy tuzum bilan bog'liq, aynan siyosiy tuzum shaxsning siyosiy erkinligini va demokratik huquqlarini, rasmiy konstitutsion va huquqiy normalarning siyosiy reallikka muvofiq kelishini ta'minlaydi" [17] Shu bilan birga, siyosiy tuzum keng qamrovli va rang-barang siyosiy jarayonlarni ifoda etibgina qolmay, u, bir tomondan, davlat, siyosiy tuzum va siyosiy guruhlar manfaatlarini ifoda etadi, ikkinchi tomondan, ijtimoiy-siyosiy voqelikni, reallikni, ommaviy harakatlarni, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini umumiy demokratik taraqqiyot nuqtai nazaridan tashkil etadi. Demak, demokratiya o'zidan o'zi yuzaga keladigan, hatto ko'pchilik xohishini ifoda etishga da'vog'ar guruhlarining ham harakati emas, u ijtimoiy taraqqiyot qonunlariga rioya qiladigan va ushbu qonunlarni o'zining faoliyatiga singdirgan, anglangan faoliyat natijasidir" [16]. Demokratizm esa ushbu voqelikni, ya'ni demokratiyaning immanent belgilarini, ular bilan bog'liq vazifalarini ma'lum bir tartibda, me'yorlar doirasida amalda ta'minlash vositasidir.

Shuning uchun demokratiya va demokratizm mudom yonmayon keladi, ulardan birini inkor qilgan ikkinchisini ham inkor qilishga majburdir.

Demokratizm mudom aniq mexanizmga tayanishi bilan farq qiladi. Masalan, kishilarning saylov jarayonlarida qatnashishi keng ma'noda demokratiya, ammo ushbu jarayon ma'lum bir ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, hatto madaniy- ma'rifiy mexanizmlar orqali ro'y beradi yoki amalga oshiriladi. Kishilarni saylovlarga qatnashishga madaniy-ma'rifiy vositalar bilan da'vat etish yoki saylov uchastkalarini tayyorlash, bezatish, byulletenlarni chop etish kabilar demokratizmga oid jarayonlardir. Saylovchilarning ijtimoiy fikrini o'rganish, ularni ommaviy axborot vositalarida berib, yoritib borish, diskussiya va muloqotlar uyushtirish, nomzodlar bilan uchrashuvlar o'tkazish kabilar ham demokratizm vositalariga kiradi. Demokratizm vositalari qanchalik maqsadga, talablarga muvofiq ishlasa, u shunchalik demokratik voqelikdir.

**Xulosa.** Xulosa o'rmda qayd etish kerakki, Demokratizmni demokratiyaning vositasi, mexanizmi sifatida tushunish, talqin qilish ular o'rtasidagi uyg'unlikni, butunlikni anglashga xalaqit bermaydi. Demokratiyani demokratizm vositasiz amalga oshirib bo'lmaydi, demokratizm esa demokratiyaga muvofiq keladigan ijtimoiy-siyosiy makondagina o'z funksiyasini bajaradi. Demokratiyaning to'laonli ishlashi, mavjudligi demokratizm vositasiga bog'liq, ularning bir-birini qo'llab-quvvatlashi, uyg'unligi ijtimoiy-siyosiy makonni xalqchil, xalq irodasi va qiziqishlariga muvofiq qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Витгенштейн Л. Логико-философский трактат.- Москва: АСТ, 2022. С. 9
2. Декарт Р. Сочинения в двух томах. Том. 1.- Москва: Мысль, 1989. С. 316
3. Теория государства и права. Учебник для вузов.2 е изд.- Москва: Изд. группа НОРМА ИНФРА М, 2001. С.168 - 169
4. Satori Q. The theory of democracy Revisited. Part The classical Issues. Chatam, 1987. P. 31-1433
5. Ковлер А.И. Кризис демократии? Демократии на рубеже XXI века.- Москва Юристь, 1997. С.5-6
6. Банашак М., Форхольцер И. Человек и власть. - Москва: Прогресс, 1973;
7. Социология и власть. Под ред. Л.Н.Москвичева.- Москва: Инфра, 1997
8. Лужков Ю.М. Эгоизм власти.- Москва: Наука, 1996;
9. Хилчков В.Ф. Власть. Кратологический словарь.- Москва: Республика, 1997
10. Нерсесянц В.Философия права. Учебник.- Москва: НОРМА ИНФРА М, 1997;
11. Тихомиров Ю.А. Публичное право. Учебник.- Москва: ВЕК, 1995;
12. Алексеев С.С. Государство и право. Начальный курс.- Москва Юрид. лит., 1993;
13. Мельников Ю.Ф. Власть в современном обществе.- Москва: Юрил.лит., 1995;
14. Халипов В.. Кратология.- Москва: ЛУЧ, 2006
15. Held D. Models of Democracy. Oxford, 1987. P. 12
16. Нуденко А.А. Теория демократии.- Москва: Юристь, 2001. С.7
17. Талапов Б.А. Демократия ва Ўзбекистонда миллий демократик тараққиёт.- Наманган, Зиё, 2021. 16-21 б.





**Makhbuba SOBIROVA,**

*Doctor of pedagogical sciences (DSc), professor of Namangan Engineering-Constructional Institute*

*E-mail: davronjon.uzb@gmail.com*

**Matlubakhon KARIEVA,**

*Doctoral student of Namangan Engineering-Constructional Institute.*

*E-mail: matlubakarieva@gmail.com*

*In the basis review DSc, associate professor O.Baymetov*

### THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN EDUCATION

Annotation

the article deals with the definition of the harmony of national values in society, the inculcation of national values on the basis of Islamic values, oriental education, the meaning of values in society and human life, the opinion of researchers about the value, value that belongs to each person and his upbringing.

**Key words:** National value, value in society and in human life, value in education and upbringing.

### РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

в статье рассматриваются вопросы определения гармонии национальных ценностей в обществе, привития национальных ценностей на основе исламских ценностей, восточного образования, значения ценностей в обществе и жизни человека, мнения исследователей о ценности, ценности, которая принадлежит каждому человеку и его воспитанию.

**Ключевые слова:** Национальная ценность, ценность в обществе и в жизни человека, ценность в образовании и воспитании.

### TA'LIMDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada milliy qadriyatlarining jamiyatdagi uyg'unligini aniqlash, islom qadriyatlari asosida milliy qadriyatlarni singdirish, sharqona ta'lim, qadriyatlarining jamiyat va inson hayotidagi ma'nosi, qadriyat haqidagi tadqiqotchilar fikri, har bir insonga tegishli qadriyat va uning tarbiyasi.

**Kalit so'zlar:** Milliy qadriyat, jamiyat va inson hayotidagi qadriyat, ta'lim va tarbiyadagi qadriyat.

Large-scale reforms being carried out in the Republic of Uzbekistan are aimed at ensuring the priority of spiritual factors in all spheres of public life. In this process, as a result of the settlement of social relations on the basis of democratic and national values, on the one hand, socio-political, economic and spiritual paradigms characteristic of the development of society are formed, on the other hand, new relations between social layers and harmony of national values are established in society.

As a result of global social, economic, political and spiritual changes that have occurred in society since the 50s of the 20th century, increasing the level of people's education strengthens this harmony.

Spirituality is an integral part of ethics and educational and cultural heritage, which expresses the genius of our people, their worldview, spiritual and psychological image, goodness, kindness [1].

Culture, spirituality, morality, education, heritage are very voluminous concepts in which material and spiritual wealth, language, art of speech, values, rich history, historical monuments, traditions and customs accumulated by a historically established nation are embodied and generalized [2].

National Uzbek moral traditions are reflected in the relationships of people, their behavior, wedding performances, and holidays. As the scientist who conducted research on family and education issues, Oynisa Musurmonova, says: "Uzbeks are a people rich in types of weddings since ancient times: a wedding with circumcision (a procedure which is compulsory in Islam, the Prophet Muhammad stated that

circumcision was a "law for men"), a marriage wedding, a hair wedding (the day when a baby's hair is cut for the first time), a tooth wedding (when the baby's first tooth appeared), a child's first step wedding, a blessing wedding, a soldier's wedding (when a son of a family came from the Army), a house wedding (housewarming), wedding of the twelve-year calendar cycle, weddings of fiftieth anniversary and round dates, celebration of the Islamic holidays of Eid al-Fitr at the end of the month of Ramadan and Eid al-Adha, etc., each of which is solemnly celebrated with traditions and rituals performed before the wedding, during the wedding and after the wedding"[3].

The purpose of education and training is to raise a perfect personality. Its implementation includes physical, economic, labor, political, legal, ideological, mental, spiritual, moral, aesthetic, and religious education. Without a good knowledge of physical, spiritual, moral and psychological laws, it is impossible to achieve the desired goal, and a person develops on their basis. Failure to understand the natural and social causes of these laws will lead to the fact that the expected goal will not be achieved. As researcher M.O. Inomova said, "National morality is formed as a result of national education" [4].

Another principle of universal moral culture is that our virtuous scientists, brought up in the spirit of religious tolerance, were not afraid, even when choosing their teacher, that the future teacher would be a person of a different nationality and a representative of a foreign family. Their main goal was to achieve spiritual maturity. For example, our wise great-grandfather Farobiy learned the science of Logic

from the Christian scientist John the Baptist, and the Greek language from the Christian Abu Bishr Matta. Imam al-Bukhari chose his teacher based on the following 4 rules:

- 1) fairness - according to justice;
- 2) conquest - according to perfect memorization;
- 3) depending on the purity of the narrative;
- 4) depending on the strength of his faith.

It can be seen that al-Bukhari chose his teachers mainly based on their humanism, knowledge of hadith and status as sages in this field.

It is not for nothing that the mother is defined as the most respected person in Islamic values. When a woman marries and starts a family, she becomes a person responsible for the future of society.

The important thing is that the glorification and veneration of mothers is one of the scenes often found in oriental works of art, folk pedagogy, and historical and biographical sources.

Mrs. Schimmel, a mystical scientist, found very characteristic evidence of the age-old traditions and scientific-spiritual values inherent in the family of the Turkic peoples: "A European guest visiting any Pakistani, Turkish, Arab or Persian family will be surprised to see that the housewife, that is, the mother, regardless of whether she is literate or illiterate, is in charge of all the affairs of the family, and the children, regardless of whether they are ministers or professors, stand with folded hands before the mother. Even worldly affairs are carried out in the same way. If you look at the families of the Turkish kings or the great Baburids in India, you will see that the mothers of the king or crown prince also had more power than the kings and crown princes themselves. The king or crown princes always consulted with their mothers. The rulers who asked for entire countries also bowed to their mother; many affairs in the palace and in the country were carried out at the behest of the mother."

We refer to "Baburnama" as evidence of our opinion.

In Baburnama, Babur describes the ancestry and genealogy of the women belonging to his dynasty (for example, his mother, elder sister, younger sisters, etc.), and when describing others, he mentions his wife along with the men.

Such great respect for mothers is the result of Eastern upbringing in the family, instilling national values. If Babur had been raised by his father Umar Sheikh Mirzo in the spirit of disrespect for the family, humiliation and belittlement of princesses in the palace, then he would not have shown so much respect in his works for familiar and unfamiliar women. On the contrary, the status of women, especially mothers, in the life and work of Babur and the representatives of the Babur dynasty was kept at a high level. It is no exaggeration to say that they served as examples to others in matters of marriage, choice of brides, loyalty and love to their mothers and respect for their families.

The tradition of honoring mothers so strongly, maintaining their veneration until their death and even after death, isn't demonstrated immediately in the West. However, this does not mean that mothers are not respected abroad. Faithful to her family and children, a chaste, honest woman everywhere and at all times was considered worthy of great respect.

Usually, when we describe family, we always use it next to the word's community, country, homeland. The family is built on the basis of the laws of life and conscience, has its own centuries-old strong and spiritual foundations, democratic principles are established in the family, the needs and values of people are formed.

Most Uzbeks do not care about their personal well-being, but about the safety of their family, relatives and

friends, and neighbors. This is the highest spiritual and national value.

Due to the important place of values in the life of society and human beings, this concept has become the object of study in various disciplines, including sociology, philosophy, anthropology, economics, law, linguistics and others. In particular, in linguistics it is studied mainly as a linguocultural and linguo-oxological category. In this sense, from a linguoculturological point of view, it is recognized that worldview values are considered as intentional concepts. According to a researcher T.Evsvukova, values are determined in relation to something that characterizes a certain national culture (object, phenomenon, event, concept, cultural norm, etc.). Worldview values constitute a hierarchical system. The following manifestations of cultural values are recognized: art and literature, science, religion, morals, customs, traditions, behavior, ways of thinking, understanding and interpretation, stereotypes of speech behavior and other artifacts [5].

In the social sciences, in particular in linguistics, there is also the concept of the fundamental (basic) values, and their importance in human life and society is emphasized.

In the explanatory dictionary of the Uzbek language, published in 2020, value is defined as a concept used to show the universal, socio-ethical, cultural and spiritual significance of certain events [6].

Values are one of the most important components of group culture and are interpreted as values that symbolize the group and its member. Core values allow social groups to be defined as specific ethnic, religious, scientific or cultural communities. If an element of a particular national culture is the most important and distinctive aspect for that group or the factor that defines their identity as a group, then that element is considered a core value for the group [7].

Researcher Shalom H. Schwartz takes a social approach to the definition of values and determines that "Values (e.g., success, justice, freedom, social order, customs) are expressions of socially approved goals that motivate actions and express and justify chosen paths" [8].

Hiroyuki Nemoto argues that in some society's language is not only a means of communication and self-expression, but also a symbol of ethnic identity and a value embodied as a precondition for "true" group membership [9].

Values are the criteria that determine people's daily activities, their personal thoughts and actions, and guide them to make decision. Values have their own structure, scale of measurement and can interact with human behavior [10].

According to researcher Barbara Rodzevich, values are a universal and common to all phenomenon, they belong to every person, regardless of the time, cultural and social framework in which a person lives, they constitute the essence of human existence. She states that values are "concepts, circumstances and situations, attitudes and behaviors that act as "big ideas" that motivate people's actions [11].

Natalya Zerkina interprets values as ideals and priorities of human activity, characterizes them as a description of a person's inner world, specific features of a national-cultural worldview, enshrined and reflected in language. Therefore, it is clear that values can reveal certain aspects of a person's inner world and national-cultural worldview. In this case, values serve as the source of language in reflecting the above concepts. The scientist also explains that understanding language as a "mirror of the basic value system" ends with the understanding that language not only reflects, but also shapes personality and influences a person [12]. The research of researcher M. Sobirova shows [13,14,15,16] that an anthropocentric approach to education can be an important factor in instilling values.

Based on the opinions of the above researchers, we can say that since the value landscape of the world is reflected

in language, it would not be a mistake to say that this phenomenon is verbalized in language as a system. Values are a social norm or criterion that influences a person's daily behavior: way of thinking, acting, making decisions, and are a concept closely related to its structure, measurement parameters and human behavior. Values vary between nations and help define the particular character of that nation.

In the process of teaching language to young people, knowledge of the national customs and values of people who

are native speakers of the language being studied influences the expansion of our worldview. Since the language being studied is interpreted as a "mirror of the basic value system," it not only reflects the values of the people, but also influences, shapes and develops the individual. Value belongs to every person, educates him and is the main force that motivates a person's existence, the main idea that governs his activities.

#### REFERENCES

1. Tafakkur gulshani. – Tashkent: Literary and Art Publishing House named after G. Gulyam, 1989. P. 433.
2. Abu Iso Termiziy. Sahihi Termiziy. Tanlangan hadislar. – Tashkent: G. Gulyam Literary and Art Publishing House, 1993, p. 33.
3. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – Tashkent: Uchitel, 1999, p. 129.
4. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari (mustaqil hayot bo'sag'asidagi yoshlar): Diss. Doctors of Pedagogical Sciences / Tashkent State Pedagogical University. Nizami. - Tashkent, 1998. p. 279.
5. Tatyana V. Evsyukova et al. Axiological World Picture of the Virtual Language Personality in Blog-Discourse Space// European Research Studies Journal Volume XX, Issue 3B, 2017, P. 342-354.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Tashkent: Uzbekistan, 2020, Volume 5, P. 207
7. Hiroyuki Nemoto. Smolicz's Theory of Core Values and Language Maintenance and Shift in Dutch Immigrants in Australia//Foreign Language Institute Kanazawa University. Studies of Language and Culture. Volume 15, March 2011, P. 111-126.
8. Shalom H . Schwartz. A Theory of Cultural Values and Some Implications for Work// Applied Psychology: An International Review, 1999, 48 (1), P. 23–47.
9. Hiroyuki Nemoto. Smolicz's Theory of Core Values and Language Maintenance and Shift in Dutch Immigrants in Australia//Foreign Language Institute Kanazawa University. Studies of Language and Culture. Volume 15, March 2011, P. 111-126.
10. Ryan L. Boyd and et al. Values in Words: Using Language to Evaluate and Understand Personal Values// Proceedings of the Ninth International AAAI Conference on Web and Social Media, 2015, P. 31-40.
11. Barbara Rodziewicz. Values, Their Hierarchy and Understanding Among Polish, Russian, and German Students// Ethnolinguistics 28, 2017, P. 141-152.
12. Natalia Zerkinina, Yekaterina Lomakinab, Natalia Kostina. Axiological linguistics and foreign language teaching//Procedia - Social and Behavioral Sciences, 2015. – P. 254 - 260.
13. Sobirova M. The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. Part 3 – 234 P. 98-105 POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021.
14. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20E2%84%9634%20-%203%2028web%29.pdf> P. 98-105
15. Sobirova M. In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
16. Sobirova M. Innovative Technologies of Teaching in the Field of Higher Education Techniques. Design Engineering. International Research Journal of Advanced Engineering and Science (IRJAES) CKOIIYC 5288-5295 <http://thedesigneengineering.com/index.php/DE/issue/view/31>.
17. Sobirova M. Teaching language phenomena on the basis of anthropocentric approach. <https://www.int-jecse.net/abstract.php?id=5377> International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) OI:10.9756/INTJECSE /V14I7.91 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.
18. Kariyeva, M., & Katayeva, M. (2021). Erasmus+ project has given us many opportunities to broaden our horizons. An International Multidisciplinary research journal "Academicia".
19. Matlubahon, K., Mukarramxon, K., & Alisher, A. (2015). Role of the international cooperation in high education development. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences, (1-2), 72-73.



UDK: 681.142.37:371.3

*Guli TAYLAKOVA,*  
*Toshkent analiy fanlar universiteti kafedra mudiri, PhD, dotsent v.b*  
*E-mail: gulitaylakova88@gmail.com*

*TDPU professori M.Mamarajabov taqrizi asosida*

## THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

Today, students use a variety of software and tools to create presentations and projects instead of using pen and paper, unlike a heavy book, it is easier to carry an e-book, they are able to browse the information they need directly from the internet through their gadgets or receive education in two or more universities at the same time. This article provides a brief overview of the need for digital technology in education and discusses key programs and challenges in education.

**Key words:** Digital technology, distance education, innovative education, educational technologies.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация

Сегодня студенты используют различное программное обеспечение и инструменты для создания презентаций и проектов вместо ручек и бумаги, в отличие от тяжелой книги, электронную книгу легче носить с собой, они могут просматривать необходимую им информацию прямо из интернета через свои гаджеты или получать образование в двух и более высших учебных заведениях одновременно творится. В этой статье дается краткий обзор потребности в цифровых технологиях в образовании и обсуждаются основные приложения и проблемы в образовании.

**Ключевые слова:** Цифровые технологии, дистанционное обучение, инновационное образование, образовательные технологии.

## O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Bugungi kunda talabalar qalam va qog'ozdan foydalanish o'rniga taqdimotlar va loyihalarni yaratish uchun turli xil dasturiy ta'minot va vositalardan foydalanadilar, og'ir kitobdan farqli o'laroq, elektron kitobni olib yurish osonroq, ular o'zlariga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni gadgetlari orqali bevosita internet tarmog'idan ko'rib chiqishlari yoki bir vaqtning o'zida ikkita va undan ortiq oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlari imkoniyati yaratilyapti. Ushbu maqola ta'limda raqamli texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj haqida qisqacha ma'lumot beradi va ta'limdagi asosiy dasturlar va muammolarni muhokama qiladi.

**Kalit so'zlar:** Raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim, innovatsion ta'lim, ta'lim texnologiyalari.

**Kirish.** Prezident Sh.M.Mirziyoyev "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalariga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi", deya ta'kidladilar.

O'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish oliy ta'lim tizimida mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning dolzarb yo'nalishlaridan bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak mutaxassislarining mehnat bozorida raqobatbardoshlik darajasini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi va o'quv jarayonida interfaol sharoit yaratishga yordam beradi.

Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini

sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatis esan'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xorijiy, mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari va O'zbekiston Respublikasida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar va mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarida ta'limning turli bosqichlari uchun raqamli texnologiyalar asosida ta'lim mazmunini shakllantirish va ulardan foydalanish muammolari bilan Adam Swinyard, Niall Marriott, J.D.Willmslar, mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarida va Rossiya Federatsiyasida E.N.Ryichixina, Ye.A.Semina, A.N.Mayorov, V.I.Vovna, N.F.Ilina, Voronsova, Vvedenskiy, Moksheev; Kazakova, Mozgarevlar tomonidan o'rganilgan. A.Файсман kabilarning ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga oid ishlari mavjud. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalari asosida o'qitishning metodik tizimini ishlab chiqish hamda takomillashtirish

masalalari L.G.Гейн, Б.С.Гершунский, С.Г.Григорьев, В.П.Зинченко, А.Н.Иванченко, Э.И.Кузнецов, М.П.Лапчик, В.Г.Лебедев, А.Н.Лейбович, В.П.Панасюк, А.А.Поляков kabi olimlarning ishlarida alohida e'tibor qaratilgan.

Respublikamizda ta'limda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tadqiqotlar A.A.Abdugodirov, M.Aripov, U.Begimkulov, B.Abdullaeva, B.Begalov, F.Zakirova, M.Lutfullaev, N.I.Taylaqov, S.S.G'ulomov, R.H.Hamdov, U.Yuldashevlar tomonidan amalga oshirilgan.

Mavjud nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida ta'lim mazmunini shakllantirish va tajribalarni analitik tahlil etish raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik tizimini shakllantirish va amaliyotga joriy etish muammosining dolzarbligi hamda pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi bir qator yechimini kutayotgan muammolarning manbai bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Oliy ta'limni raqamlashtirish haqida gapirganda, biz zamonaviy universitetda raqamli texnologiyalardan foydalanishning uchta jihati haqida gapiramyiz:

raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish;

raqamli texnologiyalarni shaxs va ta'lim muassasasining ta'lim boshqaruvida qo'llash (shu jumladan materialni o'zlashtirish darajasini, kompetensiyalarni baholash, ta'lim deklarini qurish va sozlash);

professional maqsadlar uchun raqamli o'qitish.

Ta'limdagi raqamli texnologiyalarning afzalliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

masofaviy ta'limni qo'llash orqali ta'lim olishning keng imkoniyatlarini ochish;

o'qituvchiga bir qator vazifalarni bajarishni avtomatlashtirish yoki soddalashtirishga yordam berish;

kerakli ma'lumotlarga istalgan joydan kirishni ta'minlaydi va manbalar bilan ishlashda muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi.

**Tahlil va natijalar.** Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, zamonaviy o'qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalari va multimediyadan foydalana olishi kerak. Raqamli texnologiyalar o'qituvchilarning bir qator vakolatlarini shakllantirishda katta yordam beradi, ulardan biri raqamli vakolatdir.

Raqamli texnologiyalar - axborot ko'nikmalarini shakllantirish sohasidagi istiqbolli yo'nalish bo'lib, qo'llash jarayonida eng xilma-xil ma'lumotlarni tezkor qidirish va talabalarning o'quv jarayonida kompyuter texnologiyalarini qo'llash intensivligini oshiradi.

Hozirgi kunda jahondagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari va biznes maktablari o'rtasidagi hamkorlikni turli jihatlarida moliyaviy qo'llab-quvvatlaydigan bir qator dasturlarni amalga oshirib kelmoqda bular:

jismoniy shaxslarning o'quv harakatchanligi (talabalar va o'qituvchilar uchun yangi mobillik imkoniyatlari);

universitetlarning innovatsiyalar va ilmiy tatqiqot institutlari bilan hamkorliklari.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalligi, butun o'quv dasturini bajarish uchun texnologiyadan foydalanadigan va talabalarga tez o'rganish imkonini beruvchi o'rganish strategiyasidir. Talabalar noutbuklar, planshetlar va shu kabi texnologik yoki internetga ulangan gadgetlardan foydalanadilar. O'qituvchi o'rgatgan narsalarni qayd qilish o'rniga, o'quv dasturining aksariyati

o'quvchilarga qiziqarli va interaktiv platforma orqali onlayn tarzda yetkaziladi. O'rganilgan bilimlar ya'nada yaxshi o'zlashtirilishi uchun kompyuter orqali quiz testlar orqali o'tgan mavzularni bilish darajasini mustahkamlaydilar. Yangi aloqa kanallarining paydo bo'lishiga olib keldi, bu esa ta'lim jarayonida ma'lumotlarini uzatish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi hamda boshqa davlatning nufuzli universitetlari o'quv dasturini o'rganish, bilimlarni shakllantirish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

**Xulosa va takliflar.** Ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun nimalar qilish kerak?

Birinchidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarining so'ngi yutuqlarini o'zlashtirishga shartsharoitlar hamda imkoniyatlar yaratib berishimiz lozim.

Ikkinchidan, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlariga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani ta'lim muassasalarida qo'llash.

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.

To'rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va mul'timediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish.

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, videokonferentsaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish.

Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shunday bo'lsa, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz.

Bu muammolarni bartaraf qilish uchun avvalo mamlakatda raqamli texnologiyalar ishlab chiqarilishi, davlatda eng so'nggi modeldagi raqamli qurilmalar importi ko'paytirilishi, rivojlanayotgan davlatlar bu borada rivojlangan davlatlar bilan muzokaralar olib borishlari muammoga yechim bo'la olishi mumkin. Bizning hayotimizning har bir sohasi, boshqalar bilan aloqamiz, ish faoliyatimiz va o'qish jarayonimiz dastlabki raqamli texnologiyalardan foydalanishga muhtoj.

Shunday qilib, samarali ta'lim hamma uchun va hamma joyda mavjud bo'lishi uchun ilg'or raqamli texnologiya imkoniyatlaridan foydalanish o'quv dizaynerlari va pedagoglarga bog'liq bo'ladi. Raqamli ta'lim ijodkorlikni rivojlantiradi va o'quvchilarga muvaffaqiyat tuyg'usini beradi,

an'anaviy usullardan tashqari fikrlash orqali qo'shimcha o'rganishni rag'batlantiradi. Barcha davlatlar televidenie, radio, onlayn va mobil platformalar kombinatsiyasidan foydalangan holda masofaviy ta'lim texnologiyalarini o'zlashtira oldi, bu tahsinga sazovor. Texnologiyadan ta'lim maqsadlarida samarali foydalanilsa, ta'lim sifati yaxshilanadi,

yangi smart qurilmalar bilan moslashtirish raqamli ta'limdan foydalanish talabalarda qiziqish uyg'otadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni turli sohalarga nafaqat ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. Tillayev A.I. Axborot texnologiyalari kurslari bo'yicha elektron darsliklar yaratish va ularni ta'limda qo'llash //Amaliy matematika va informatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari –Al-xorazmiy xalqaro ilmiy anjuman.
3. Murodov Sh.N. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish – davr talabi. Pedagog's Jurnal // <https://www.pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/871>
4. Xolmuxammedov M.M.. "Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish". Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal. 2021. 6-son.



UDK: 371.126:54:371.3

*Maxsudjon TILYABOV,*  
*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*  
*E-mail: tilyabov\_maq@mail.ru*  
*Iskandar SHERNAZAROV,*  
*TDPU professori v.b., p.f.d*

*NavDPI professori v.b., p.f.d M.Ahadov taqrizi asosida*

## BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Maqolada bo‘lajak kimyo fani o‘qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning ilmiy-metodik ta‘minoti xalqaro baholash PISA tadqiqotidagi (funktional savodxonlik asosidagi kreativ faoliyatli, tabiiy-ilmiy) savodxonlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar mazmuniga tabiiy fanlar integratsiyasini individual murakkablikda singdirish, funktsional savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantirish metodikasi samaradorligini topshiriqlarni kognitiv darajalar bo‘yicha korrelyatsiyasini ta‘minlashning metodik tizimi ta‘limning interaktiv muhitiga takomillashtirishi asoslab berilgan. Shu bilan birga bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash metodikasi xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning noan‘anaviy yondashuvi va ilmiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmini intensiv barqarorligini ta‘minlash asosida takomillashtirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Funktsional savodxonlik, PISA, kognitiv daraja, interaktiv muhit, modellashtirish, adaptiv, produktiv.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ

Аннотация

Научно-методическое обеспечение подготовки будущих учителей химии к международным оценочным исследованиям в статье международная оценка интеграция естественнонаучных дисциплин в содержание заданий, направленных на формирование грамотности в исследовании PISA (творческая деятельность, естественнонаучная на основе функциональной грамотности) в индивидуальной сложности, обосновано совершенствование методической системы обеспечения соотношения заданий по когнитивным уровням эффективности методики развития на основе международных оценочных исследований функциональной грамотности в интерактивную среду обучения. При этом методика подготовки будущих учителей химии к международным оценочным исследованиям совершенствовалась на основе нетрадиционного подхода к подготовке к международным оценочным программам и обеспечения интенсивной устойчивости механизма развития научной компетентности.

**Ключевые слова:** Функциональная грамотность, PISA, когнитивный уровень, интерактивная среда, моделирование, адаптивный, продуктивный.

## IMPROVING THE METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF FUNCTIONAL LITERACY OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS

Annotation

Scientific and methodological support for the preparation of future chemistry teachers for international assessment studies in the article international assessment integration of natural science disciplines into the content of tasks aimed at the formation of literacy in PISA research (creative activity, natural science based on functional literacy) in individual complexity, the improvement of the methodological system for ensuring the correlation of tasks according to cognitive levels of effectiveness of the development methodology based on international evaluation studies of functional literacy in an interactive learning environment is justified. At the same time, the methodology of preparing future chemistry teachers for international assessment studies was improved on the basis of an unconventional approach to preparing for international assessment programs and ensuring intensive sustainability of the mechanism for the development of scientific competence.

**Key words:** Functional literacy, PISA, cognitive level, interactive environment, modeling, adaptive, productive.

**Kirish.** Jahonda sodir bo‘layotgan global ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar intellektual salohiyatli, iqtidorli, kreativ fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash amaliyotiga, xalqaro baholash tadqiqotlariga o‘quvchi va o‘qituvchilarni tayyorgarligini oshirishda funktsional savodxonlikka alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro baholash dasturlarida bugungi kunda ta‘lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, ta‘lim tizimida o‘zgarishlar kiritish zarurligi ta‘kidlangan.

Dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarning ta‘limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta‘sir etadigan ijtimoiy jarayon ekani e‘tirof qilingan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko‘p sonli ilmiy muassasalar faoliyati o‘quv dasturlarini takomillashtirish va qayta ishlashga qaratilgan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi «Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5538-son, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-

5712-son farmonlari, 2020-yil 6-noyabrda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son, 2018-yil 5-sentabrda "Xalq ta'limi tizimiga boshqarishning yangi prinsiplarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 997-son qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Oksford universiteti ta'limni baholash markazi (OUCEA - Oxford University Centre for Educational Assessment) bilan Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) birgalikda Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiyada o'quvchilarning o'qish, matematika va fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarini aniqlash uchun Milliy markaz sifatida faoliyat yuritib, 1997-yildan boshlab xalqaro baholash dasturi orqali butun dunyo bo'ylab maktab ta'lim tizimlarida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida mulohaza yuritish hamda amaliyotga samarali tatbiq etish qobiliyatlarini baholash tadqiqotini yo'lga qo'ydi. Mazkur xalqaro baholash tadqiqotlariga ko'ra o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, masalan, Shanxay va Sian universitetlari (Xitoy), Sharqiy Xitoy universiteti (Xitoy), Purdue, G'arbiy Lafaetti, Kentukke, Lexington universitetlari (AQSh), Utara universiteti (Malayziya), Kent universiteti (Britaniya), Singapur Milliy universiteti (Singapur), Hokkaydo universiteti (Yaponiya), Boshqird davlat universiteti (Rossiya), Belarus davlat universiteti (Belarus Respublikasi) kabi ko'plab ilg'or oliy ta'lim muassasalari bilan bir qatorda O'zbekistondagi bir qancha oliy ta'lim muassasalarida xam olib borilmoqda [2].

Mamlakatimizda ta'lim jarayonida ta'lim sifatini o'lchash, baholash, tahsil oluvchilarning sifatli ta'lim olishlarini Xalqaro baholash tadqiqotlari asosida ta'minlash masalalari mamlakatimiz olimlaridan D.M. Maxmudova, M.T. Ergasheva, I.E. Shernazarov, G'.A. Razakov, Z.B. Sangirovalar ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida olimlari G.S.Kovaleva, L.O.Roslova, G.A.Sidorova, A.Y.Pentin, PISA xalqaro tadqiqoti kontekstida kreativ fikrlashni baholash va rivojlantirish; B.Ye.Mixaylovich, Ye.M.Bugakova, L.S.Baytimerova, V.M.Grebennikova, K.B.Belikov "ta'lim oluvchilarning kreativ faoliyati tushunchasi", uni shakllantirish va rivojlantirish yo'llari, kreativ va ijodiy qobiliyatini shakllantirishning asosiy mazmuni; O.A.Rudze, Ye.S.Kvitko, K.A.Krasnyanskaya, L.O.Roslova, L.O.Denisheva, I.I.Karamova matematik savodxonlikni shakllantirish; S.Ye.Dyukova, T.V. Koval va bosh. global kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minoti tabiiy fanlar integratsiyasi asosida yaratish;

xalqaro baholash PISA tadqiqotidagi (funksional savodxonlik asosidagi kreativ faoliyatli, tabiiy-ilmiy) savodxonlikni shakllantirishga yo'naltirilgan kontekst topshiriqlar tayyorlash;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarning funksional savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va topshiriqlarni kognitiv darajalar bo'yicha korrelyatsiyasini ta'minlash;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashning metodik tizimi talabalarning mustaqil faoliyati

mazmuniga produktiv barqarorlikda kiritish asosida takomillashtirish;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash metodikasi xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning noan'anaviy yondashuvi va ilmiy kompetentligini rivojlantirish [4].

Tadqiqot usullari. Vazifalarni hal etish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi: tadqiqot mavzusi bo'yicha falsafiy, psixologik, pedagogik va kasbiy adabiyotlar nazariy tahlili; pedagogik modellash; oliy ta'lim muassasalari bo'lajak kimyo o'qituvchilari orasida tajriba-sinov, so'rovnoma va testlar o'tkazish, umumlashtirish, taqqoslash, tizimlashtirish; tashxis va bashorat qilish, tashkiliy tayyorgarlik, amaliy va umumlashtiruvchi bosqichlaridan iborat pedagogik tajriba-sinov ishlarini statistik tahlil metodlari asosida amalga oshirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minoti xalqaro baholash PISA tadqiqotidagi (funksional savodxonlik asosidagi kreativ faoliyatli, tabiiy-ilmiy) savodxonlikni shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar mazmuniga tabiiy fanlar integratsiyasini individual murakkablikda singdirish asosida takomillashtiriladi;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarning funksional savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantirish metodikasi samaradorligini topshiriqlarni kognitiv darajalar bo'yicha korrelyatsiyasini ta'minlash orqali takomillashtirish;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashning metodik tizimi ta'limning interaktiv muhitiga moslashuvchanligini barqarorlashtiruvchi adaptiv va amaliy yo'nalganlik tamoyillarini talabalarning mustaqil faoliyati mazmuniga produktiv barqarorlikda kiritish asosida takomillashtirish;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash metodikasi xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning noan'anaviy yondashuvi va ilmiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmini intensiv barqarorligini ta'minlash asosida takomillashtiriladi [5].

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak kimyo o'qituvchisining kreativ ta'minoti, shuningdek, malaka talablari, o'quv dasturlari va o'quv-kasbiy majmuasi takomillashtirilgan;

bo'lajak kimyo o'qituvchisining funksional savodxonligining kreativ kompetentligini takomillashtirish darajalari va mezon ko'rsatkichlari rivojlantirilgan;

bo'lajak kimyo o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayonga joriy etish bo'yicha o'quv, o'quv-metodik qo'llanma ishlab chiqilgan.

bo'lajak kimyo o'qituvchisining funksional savodxonligini takomillashtirish bo'yicha kontekst topshiriqlari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi bajarilishi ko'tilayotgan dissertatsiya ishida "Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish asosida xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish" metodlari tatbiq etilib, tegishli ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish va xulosalar berishdan iborat

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarning funksional savodxonligini, kreativ faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan muammoli-izlanishli-kreativ topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Xalqaro baholash tadqiqotlari" nomli o'quv qo'llanma yaratiladi va amaliyotga joriy etildi.

Muammoli yondashuv asosida talabalarning funksional savodxonligini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilib bo'lajak kimyo o'qituvchilarning funksional



savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantirish bo'yicha metodik ko'rsatma va tavsiyalar tizimi ishlab chiqildi.

**Tahlil va tadqiqot natijalari.** Mazkur tadqiqot "Bo'lajak kimyo o'qituvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish asosida xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish" bo'lib bunda

bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minoti xalqaro baholash PISA tadqiqotidagi (funksional savodxonlik asosidagi kreativ faoliyatli, tabiiy-ilmiy) savodxonlikni shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar mazmuniga abiiy fanlar integratsiyasini individual murakkablikda singdirish oid takliflaridan. Natijada, yaratilgan dastur va model asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilari va o'quvchilarning funksional savodxonligi shakllantirilgan;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarning funksional savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantirish metodikasi samaradorligini funksional savodxonlik kompetensiyalariga (o'qish, matematika, tabiiy-ilmiy, global, moliyaviy) oid topshiriqlarni kognitiv darajalar bo'yicha korrelyatsiyasini ta'minlashga oid amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada, bo'lajak kimyo o'qituvchilari kelajakdagi kasbiy faoliyatida o'quvchilarning funksional savodxonligining shakllantirish muammolarini hal qilishda fanlarning integratsiyasi asosidagi topshiriqlar yordamida tayyorlash yordamida amalga oshirishga erishilgan [6].

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashning metodik tizimi ta'limning interaktiv muhitiga moslashuvchanligini barqarorlashtiruvchi adaptiv va amaliy yo'nalganlik tamoyillarini talabalarning mustaqil faoliyati mazmuniga produktiv barqarorlikda kiritish hamda bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash metodikasi xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning noan'anaviy yondashuvi va ilmiy kompetentligi (bilish, tushunish, amalda qo'llash, tadqiqotlar va tajribalar o'tkazish, tahlil qilish, ijodiy fikrlayish, shaxsiy va kasbiy faoliyatida qo'llash)ni rivojlantirish mexanizmini intensiv barqarorligini ta'minlashga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada, model yordamida talabalarining ilmiy-amaliy kompetentligi, funksional savodxonligi rivojlantirilgan;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash metodikasi xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning noan'anaviy yondashuvi va ilmiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmini intensiv barqarorligini ta'minlash asosida rivojlantirishning ilmiy-metodik ta'minotining didaktik tizimi kreativ topshiriqlarni tuzishga o'rgatuvchi usullarni kasbiy yo'nalgan grafik-dizaynli topshiriqlar bilan maqbul kombinasiyalarda optimallashtirishga doir taklif ishlab chiqilgan. Natijada, ta'lim oluvchilarni ilmiy va amaliy kompetensiyalarni va kreativ faoliyatini shakllantirishga erishilgan [7].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki: tadqiqotning maqsadiga ko'ra bo'lajak kimyo o'qituvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashda

funksional savodxonligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat edi. Olingan natijalar va olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki tadqiqot maqsadi to'liq amalga oshirildi.

Hozirgi kunda o'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlar va ularni yaxshi natijalarga erishishlari uchun bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarning o'zlarida funksional savodxonlik shakllanishini amalga oshirishimiz lozim. Aynan olib borilgan tadqiqotning asosiy vazifalari ham shunga qaratilgan. Olingan natijalarning va tadqiqot yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni natijasi shuni ko'rsatadiki tadqiqotda ko'rsatilgan metodlar yordamida bo'lajak kimyo o'qituvchilari tayyorlansa ular funksional savodxon shaxs sifatida malaka va ko'nikmalarga ega shaxs deyish mumkin.

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlarida OTM talabalari ishtirok etishda olingan natijalarga ko'ra o'zlashtirish (zamonaviy pedagogik texnologiyalar va XXI asr ko'nikmalari shakllantirilgan talabalar soniga ko'ra) 12% ni ko'rsatdi. Olingan natija 3 o'quv yili hisobida hisoblanib matematik va statistik tahlillarga ko'ra aniqlandi.

Tadqiqot vazifalarida bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minoti tabiiy fanlar integratsiyasi asosida yaratish qismi to'liq bajarildi;

xalqaro baholash PISA tadqiqotidagi (funksional savodxonlik asosidagi kreativ faoliyatli, tabiiy-ilmiy) savodxonlikni shakllantirishga yo'naltirilgan kontekst topshiriqlar tayyorlash qismida kontekst topshiriqlar ishlab chiqildi;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarning funksional savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va topshiriqlarni kognitiv darajalar bo'yicha korrelyatsiyasini ta'minlash qismida metodlar ishlab chiqarilib va topshiriqlar saralanib ularni kognitiv darjalariga ko'ra variantlar tayyorlandi;

bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash metodikasi xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning noan'anaviy yondashuvi va ilmiy kompetentligini rivojlantirish qismida darslarni ananaviy shakldan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga o'zgartirildi hamda shu yaratilgan metodlar yordamida darslar tashkil qilindi.

Bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini Xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlarini aniqlashda o'quv faoliyatining psixologik mohiyati, o'quv faoliyati va ta'lim jarayonining besh elementi, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatiga ta'siri, xalqaro baholash tadqiqotlaridagi ilmiy savodxonlikning bir qismi sifatida o'rganilishi kerakligi aniqlandi.

Xalqaro baholash tadqiqotlaridan yuqori natijaga erishgan davlatlarning ta'lim tizimini o'rganish va millaylashtirish orqali ta'lim tizimimizga joriy etish hamda xalqaro baholash tadqiqotlariga qatnashib yuqori natijalarga erishish zarurat ekanligi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-3893445>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4312785>
3. 2020 yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5085887>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3893416>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4097073>

- 
6. Ismailov A.A., Karimov N.A., Haydarov B.Q., Ismailov SH.N., Turgunbayev R., Xafizov S., Mirzaahmedov M., Sanayeva M.SH., Soibova I., Muxtorova R., Roslova L.O. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash//Metodik qo'llanma. Toshkent. 2019. -B.90



UDK:091

Nazokatxon TOJIBAYEVA,  
"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti, PhD, dotsent

PhD M.Atavullayev taqrizi asosida

## OILA VA XOTIN-QIZLAR TIZIMI XODIMLARI VAZIFALARI VA FAOLIYATINING KOLLOBORATIV JIHATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari vazifalari, ularning faoliyatida kolloborativ jihatlariga chuqur e'tibor beriladi. Shu qatorda, oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari hamkorligining asosiy jihatlari sanab o'tildi. Bu bilan oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari uchun belgilangan zaruriy vazifalari, oila va xotin-qizlar tizimi amaliyoti sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda muhim omil ekanligi aniq bayon etildi.

**Kalit so'zlar:** Oila va xotin-qizlar tizimi, kolloborativ jihatlar, jamiyat, oila va xotin-qizlar tizimi masalalari, fikr-mulohaza.

## СОВМЕСТНЫЕ АСПЕКТЫ ЗАДАЧ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕРСОНАЛА СЕМЕЙНОЙ И ЖЕНСКОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация

В данной статье глубокое внимание уделено задачам сотрудников семейно-женской системы, совместным аспектам их деятельности. Кроме того, были перечислены основные аспекты сотрудничества сотрудников семейной и женской систем. При этом было четко указано, что необходимые задачи, поставленные перед работниками семейно-женской системы, и их ускоренное выполнение, сотрудничество являются важным фактором успешной работы в сфере практики семейно-женской системы.

**Ключевые слова:** семья и женская система, аспекты сотрудничества, проблемы общества, семья и женская система, обратная связь.

## COLLABORATIVE ASPECTS OF TASKS AND ACTIVITIES OF FAMILY AND WOMEN'S SYSTEM STAFF

Annotation

In this article, deep attention is paid to the tasks of family and women's system employees, collaborative aspects of their activities. In addition, the main aspects of the cooperation of family and women's system employees were listed. With this, it was clearly stated that the necessary tasks set for the employees of the family and women's system and their accelerated fulfillment, cooperation is an important factor in the successful operation in the field of practice of the family and women's system.

**Key words :** Family and women's system, collaborative aspects, issues of society, family and women's system, feedback.

**Kirish.** Bugungi kunda respublikamizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli olib borilmoqda. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalariga mas'ul tizim sifatida oila va xotin-qizlar tizimi xodimlarining professionalligi va faoliyati samaradorligini xalqaro miqyosga olib chiqishda ularning kollobrativ kompetentsiyalarini ahamiyati katta.

Oila va xotin-qizlar tizimi xodimlarining muhim kompetentsiyalaridan biri kollobrativ kompetentsiya hisonlanadi. Kollobrativ kompetentsiya quyidagi xususiyatlarga ifoda etadi: hamkorlikda ishlash, maqsadga yo'naltirilgan jamoaviy faoliyat, samaradorlikka qaratilgan aniq faoliyat, o'zini-o'zi va bir-biriga baho berish, ma'lumotlarning intensiv almashinuvi. Kolloborativ kompetentsiya shaxsni jamiyatda faol faoliyat bilan shug'ullanishga qaratilgan deb ta'riflash mumkin. Ayolning oiladagi va xotin-qizlar jamiyatidagi o'rni faqat kundalik ro'zg'or yumushlarini bajarish bilan cheklanib qolmaydi. Ko'pincha ayollar fikrlash, nizolarni hal qilish, vaziyatni baholash va oiladagi o'zaro munosabatlarni uslublarini ishlab chiqadilar. Bu odatda uning oilasi ayollarini aks ettiradigan va

sifat jihatidan yaxshiroq hayot, yanada tinch va boyitadigan fazilatlaridir.

Ayollar hayotning barcha jabhalarida ma'lum bir vaqtda zarur bo'lgan ochiq yordamni olishlari juda muhimdir. Ilgari ota-onalar qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashgan: ular uchun oilada urf-odatlar, oilaviy dam olish va oilaviy ierarxiya bo'lishi muhimligi aytilgan. Bugungi kunda esa qizlar va yosh ayollarning ta'lim va kasb-hunar egallash istiqbollari juda yaxshi. Hayotning ma'nosini ko'rmaslik, ishdan ajralib qolishdan qo'rqqmaslik, ajoyib oilaviy hayot va faqat tenglikni hisobga olish — bu oila hayoti uchun katta yutuq. Mazkur sanalganlarni xotin-qizlar hayotida keng ma'noda aks ettirish, tadbir etilishini ta'minlashda oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari faoliyatining roli, hamkorligi hamda ahamiyati shu o'rinda beqiyos ekanligi namoyon bo'ladi.

Oilaviy munosabatlarni saqlash va rivojlantirishda oila va xotin-qizlar tizimi xodimlarining o'rni katta. Ular oilaga nizolarni hal qilishning yechimlari va yo'llarini topishga, qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi va har bir a'zoning hayoti va o'zaro munosabati uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydi. Oila-ayollar tizimi doirasida xodimlar turli toifadagi odamlar bilan ishlaydi: bolalar, o'smirlar, kattalar, er-xotinlar. Ular psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatadilar, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga, his-tuyg'ularni boshqarishga va muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bugunga kelib oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari oiladagi zo'ravonlik, ichkilikbozlik va giyohvandlikning oldini olish,

oilaviy nizolar, maishiy muammolarni bartaraf etish borasida ham faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda oila va xotin-qizlar tizimi xodimlarining oldida bir qator murakkab vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar ularning faoliyati monbaynida chuqur e'tibor berish kerak bo'lgan vazifalardir. Aynan quyidagi vazifalar ro'yxatini shakllantirish natijasida oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari faoliyatida ko'zlangan maqsadga erishishga, samaradorlik ko'rsatkichini oshirish imkoniyatini kengaytirishga da'vat etiladi:

Oila va xotin-qizlar tizimi, jumladan, uning faoliyati, muammolari va ehtiyojlariga oid ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;

Oila va xotin-qizlar tizimining holati va ehtiyojlari to'g'risida ma'lumot olish maqsadida sotsiologik tadqiqotlar, so'rovlar, fokus-guruhlar va boshqa ma'lumotlarni yig'ish usullarini o'tkazish;

Turli ijtimoiy guruhlardagi ayollari bor oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tahlil qilish va eng zaif toifalarini aniqlash;

Oila va xotin-qizlar tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga ko'maklashish bo'yicha dastur va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

Oila va xotin-qizlar tizimi xodimlarining malakasi va kasbiy mahoratini oshirish bo'yicha tadbirlar (seminarlar, treninglar, konferensiyalar va boshqalar) tashkil etish va o'tkazish;

Oila va xotin-qizlar sohasi muammolari bilan shug'ullanuvchi boshqa tashkilot va muassasalar bilan o'zaro hamkorlik;

Oila va ayollar tizimini takomillashtirishga qaratilgan mintaqaviy va xalqaro loyihalarni muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlash;

Amalga oshirilayotgan loyiha va dasturlarning samaradorligini monitoring qilish va baholash;

Oila va xotin-qizlar sohasidagi muammolar va yutuqlar haqida axborot materiallarini tayyorlash va tarqatish;

Qonunchilikni ishlab chiqish va ayollar huquqlari, jumladan, oilaviy qadriyatlarini huquqiy himoya qilishda ishtirok etish;

Qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalar va ayollarga maslahat hamda psixologik yordam ko'rsatish;

Oilalar va ayollarga moddiy hamda ijtimoiy yordam ko'rsatishga qaratilgan loyiha va dasturlarni qo'llab-quvvatlash, uning tashkil etilishini ta'minlash;

Oila va ayollar o'rtasidagi munosabatlarda zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish;

Oila va xotin-qizlar tizimi masalalari yuzasidan jamoatchilik ongini yuksaltirishga qaratilgan ommaviy aksiyalar va tadbirlarda ishtirok etish;

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining talabiga binoan statistik ma'lumotlar va tahliliy ma'lumotlarni taqdim etish va ilmiy tadqiqotlar olib borish.

Oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari bu vazifalarni bajarar ekan, bu jarayonda ularning hamkorligi ham o'z ahamiyatini ko'rsatadi. Ya'ni oila va xotin-qizlar tizimi xodimlarining hamkorligi oila va ayollar tizimi amaliyoti sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarining o'zaro hamkorligi jarayonidir. Ular oilalar va ayollar bilan yakka tartibda, guruhlar yoki tashkilotlarda ishlashlari mumkin.

Bu ikki toifadagi xodimlar hamkorligi oila va xotin-qizlar tizimi mutaxassislarining samarali faoliyat yuritishining zarur shartidir. Bu bilim, tajriba va ish uslublarini almashish, shuningdek, muammolarni birgalikda hal qilish va umumiy maqsadlarga erishishni o'z ichiga oladi.

Bundan kelib chiqqan holda, oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari hamkorligining asosiy jihatlari belgilash mumkin. Va ular quyidagilardan iborat:

O'zaro tushunish va hurmat. Muvaffaqiyatli hamkorlik turli kasb egalari o'rtasida hurmatli munosabat va har bir jamoa a'zosining ahamiyatini tushunishni talab qiladi.

Bilim va tajriba almashish. Oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari hamkasblari bilan hamkorlikda ish olib borish va takomillashtirish maqsadida o'z bilim va tajribalarini baham ko'rishga tayyor bo'lishi kerak.

**Xulosa.** Yondashuvlarning xilma-xilligi. Oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari muammolarni hal qilishda turlicha yondashuvlarga ega bo'lishi mumkin va bu turli mijozlar bilan ishlashda foydaga xizmat qiladi. Hamkorlik eng yaxshi natijalarga erishish uchun eng yaxshi usul va yondashuvlarni birlashtirish imkonini beradi.

Birgalikda rejalashtirish va vazifalarni bajarish. Hamkorlikning muhim jihati — bu vazifalarni birgalikda rejalashtirish va bajarishdir, shunda xodimlar ishning qaysi qismi va qaysi vaqt oralig'ida kim mas'ul ekanligini aniq bilishadi.

Jamoaviy ish. Oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari umumiy maqsadlarga erishish uchun jamoada ishlay olishi, nizolarni konstruktiv tarzda hal qila olishi kerak.

Fikr-mulohaza. Kelajakda malaka va hamkorlikni yaxshilash uchun ishni muhokama qilish va hamkasblardan fikr-mulohazalarni olish muhimdir.

Oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari uchun belgilangan zaruriy vazifalar va ularning batartib bajarilishi, hamkorligi oila va xotin-qizlar tizimi amaliyoti sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda muhim omil bo'lmoqda. Bu bizga yaxshi natijalarga erishish va mijozlarning hayot sifatini yaxshilash uchun turli bilim va tajribani birlashtirish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Michael McGuire. Collaborative Public Management: Assessing What We Know and How We Know It. Public Administration Review Vol. 66, Special Issue: Collaborative Public Management (Dec., 2006), pp. 33-43 (11 pages). <https://www.jstor.org/stable/40965682>
2. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K. A. (2014). Cooperative learning: Improving university instruction by basing practice on validated theory. *Journal on Excellence in College Teaching*, 25(3-4), 85-118
3. Vuyanovich A. Performance and performativity. URL: <http://ziernie-performa.net/2013/10/lekciya-any-vuyanovich-performans-i-performativnost/>
3. Shumilina, D.V. (2017). Gendernoye ravenstvo v kontekste politicheskogo razvitiya Rossiyskoy Federatsii: problemy, initsiativy, potentsial [Gender Equality in the Context of the Political Development of the Russian Federation: Problems, Initiatives, Potential]. *Polit- book*, no 3, pp. 78–92.
4. Tojibayeva N.K. Kollobrativ kompetensiya va uning oila va xotin-qizlar tizimida faoliyat yurituvchilar uchun ahamiyati. International scientific and practical conference: Improving Uzbekistan's position in international ratings and indexes: theory, practice and strategy. 17.11.2023. 379-382-betlar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10138471>
5. <https://www.dissercat.com>
6. <https://clear-impact.com/news-post/performance-collaboration-an-essential-element-of-a-high-performance-culture/>



Zafar TUYCHIEV,  
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi tarix fani o'qituvchisi  
E-mail: tuychiyevzafar1984@gmail.com

Alfraganus universiteti dotsenti, f.f.d M.Xujayev taqrizi asosida

## ON THE HISTORY OF THE ARISE OF THE IDEA OF SUFISM

Annotation

This article presents opinions on the idea of Sufism, an important socio-philosophical school that arose and took shape in Islamic civilization. Its history and socio-philosophical nature are also discussed. The basic principles and characteristics of Sufism are highlighted.

**Key words:** Sufism, history of Sufism, Islamic civilization, Sufism, moral education, improvement, teaching, enlightenment, methodology.

## К ИСТОРИИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ИДЕИ СУФИЗМА

Аннотация

В данной статье представлены мнения об идее суфизма – важной социально-философской школы, возникшей и сформировавшейся в исламской цивилизации. Также обсуждаются его история и социально-философская природа. Выделены основные принципы и характеристики суфизма.

**Ключевые слова:** Суфизм, история суфизма, цивилизация ислама, суфизм, нравственное воспитание, совершенствование, учение, просвещение, методология.

## SO‘FIYLIK G‘OYASINING VUJUDGA KELISHI TARIXI XUSUSIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada so‘fiylik g‘oyasi, islom sivilizatsiyasida paydo bo‘lgan va shakllangan muhim ijtimoiy-falsafiy maktab haqidagi fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, uning tarixi va ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga munosabat bildirilgan. so‘fiylikning asosiy tamoyillari xos xususiyatlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** So‘fiylik, so‘fiylik tarixi, islom sivilizatsiyasi, tasavvuf, axloqiy tarbiya, komillik, ta‘limot, ma‘rifat, metodologiya.

**Kirish.** So‘fiylik g‘oyasi islom sivilizatsiyasida muhim ijtimoiy-falsafiy maktab sifatida paydo bo‘lgan va shakllangan. Uning tarixi va ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish uchun so‘fiylikning paydo bo‘lishi, uning asosiy tamoyillari va uning jamiyatga ta‘sirini o‘rganish lozim. So‘fiylik yoki tasavvuf, Islom dinining yuksak ma‘naviy va axloqiy qirralarini tajriba yo‘lida izchil o‘rganish va amalga oshirishga qaratilgan harakat hisoblanadi. Bu harakat VIII asrda paydo bo‘lib, Islomning ibtidoiy davridagi qadriyatlarga qayta qaytishni maqsad qilgan. So‘fiylikning asosiy maqsadi Allohga yaqinlashish va ma‘naviy kamolotga erishishdir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** So‘fiylar uchun eng asosiy tamoyil nafsni tarbiyalash, axloqiy kamolotga erishish va Allohning irodasiga bo‘ysunish hisoblanadi. Bu yo‘lda nafsni nazorat qilish, uning havosidan xalos bo‘lish muhimdir. So‘fiylar jamiyatda yuksak axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilish orqali ma‘naviy poklikni shakllantirishda muhim o‘rin tutganlar. Ular insonning ruhiy holatini yaxshilash orqali jamiyatni ma‘naviy kamolotga yo‘naltirishni maqsad qilganlar. So‘fiylikda insoniylik, kamtarlik va moddiy boylikdan voz kechish kabi ijtimoiy tamoyillar katta ahamiyatga ega. Bu orqali ular insonning o‘z nafsidan ustun bo‘lishga, birdamlikka va jamiyatda o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishga ko‘maklashganlar.

So‘fiylar ijtimoiy adolat va tenglikni ham muhim deb bilishgan. Ularning fikricha, ma‘naviy yuksaklikqa erishgan insonlar o‘zaro teng bo‘lib, jamiyatdagi barcha insonlar bir-biriga mehribonlik ko‘rsatishlari kerak. So‘fiylar insonning ruhiy erkinligiga katta e‘tibor berishgan. Ularning ta‘limotida nafsni yengib, moddiy olamning qulligidan xalos bo‘lish muhim vazifa deb qaralgan. So‘fiylikning tarixiy rivojlanishi

va ijtimoiy-falsafiy mohiyati insonlarning ma‘naviy yuksalishi va jamiyatning ma‘naviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan. So‘fiylar dunyoqarashi jamiyatda axloqiy tarbiyani kuchaytirish, ma‘naviyatni rivojlantirish va ijtimoiy adolatni ta‘minlash kabi falsafiy g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

So‘fiylikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi mavzusi doirasida metodologiya masalasi juda muhim. So‘fiylik, ko‘p asrlar davomida shakllangan diniy-mistik harakat sifatida, o‘zining murakkab ma‘naviy va metafizik qarashlari bilan tanilgan. Bu yo‘nalishni o‘rganishda metodologiya masalasi, ayniqsa, o‘zining hassosligi va chuqurligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy ilm-fan va mantiqni so‘fiylik kabi irratsional elementlarga boy ma‘naviy an‘analarga tatbiq qilish ayrim vaqtlarda ma‘lum to‘siqlarga duch keladi. Abu Rayhon Beruniy “Tasavvuf falsafasi ana shu ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik kayfiyati sifatida shakllandi. Bu oqim vakillarining diniy-falsafiy qarashlarida odamlar o‘rtasida tobora chuqurlashib borayotgan tengsizlik va adolatsizlikni qoralash, hammani o‘zining kuchi bilan kun ko‘rishga chaqirish g‘oyalari ilgari surildi. Tasavvuf falsafasida ijtimoiy gumanistik fikrlar ustunlik qilar edi” [1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Metodologiya – ilmning asosiy quroli bo‘lib, har qanday ilmiy izlanishning muvaffaqiyati unga bog‘liqdir. So‘fiylikka nisbatan olib borilayotgan tadqiqotlarda, albatta, turli yo‘nalish va uslublar qo‘llaniladi, ammo ko‘p hollarda g‘arbiy ilmiy an‘analarda materialistik va ratsionalistik yondashuvlar ustunlik qiladi. Bu yondashuvlar ko‘pincha so‘fiylik kabi diniy-mistik tajribaga boy yo‘nalishlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuntirish va ta‘rif berishda yetarli emas. Bu muammoning bir qismi shuki, so‘fiylik va boshqa an‘anaviy diniy yo‘nalishlar har doim

ratsional tushunchalar bilan cheklangan bo'lmagan, balki insonning yurakdan chiqqan tuyg'ulari, irratsional tassavvurlari bilan boy bo'lgan. G'arbda uzoq vaqt davomida yevropotsentrizm nazariyotlari hukm surgan, bu esa so'fiylik kabi sharqiy ma'naviy an'analarni e'tiborsiz qoldirish yoki ularni "primitiv" deb hisoblashga olib kelgan. Shovinistik yondashuvlar, o'z navbatida, yevropa ilmiy madaniyatini eng yuqori madaniyat deb tushunib, boshqa madaniyatlarni "orqada qolgan" yoki "primitiv" deb baholash bilan bog'liq bo'lgan. Bu holat so'fiylik kabi diniy falsafa va ma'naviy tajribalarni to'liq tushunishga to'sqinlik qilgan. Metodologik nuqtai nazardan so'fiylikni o'rganishda integrativ yondashuvlar samarali bo'lishi mumkin. Bu degani, so'fiylikni faqat ratsional yoki ilm-fan asosida o'rganish yetarli emas, balki u bilan bog'liq ma'naviy, irratsional va metafizik jihatlarni ham e'tiborga olish kerak. Bu yondashuv nafaqat so'fiylikka nisbatan adolatli yondashuvni ta'minlaydi, balki diniy va madaniy an'analarni yaxshiroq tushunishga ham yordam beradi. YE. Bertels "Sufizm shunchalik keng va har taraflamaki, unga istalgan konsepsiya, dunyoqarashni kiritish mumkin"[2], deb qayd etadi.

So'fiylik g'oyasining vujudga kelishi va rivojlanishini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilishda, uning paydo bo'lishi va o'sishi arab-musulmon madaniyatining tarixiy rivojlanish jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'riladi. So'fiylikning paydo bo'lishi VIII asrda asketizm, ya'ni diniy tartiblar va ma'naviy tozalanishga urinish asosida rivojlangan. Bu harakat ko'pincha ijtimoiy norozilikning diniy ifodasi sifatida ham qabul qilingan, chunki o'z vaqtida dindorlarning yashash tarzi, boylikka bo'lgan orzu-umidlari, ularni haqiqiy diniy arzularidan uzoqlashtirib qo'ygan edi. Tasavvuf ilmining negizlari Muhammad hayotligida paydo bo'lgan va tasavvufning barcha tariqatlari o'zlarini aynan Muhammad bilan bog'laydilar. Muhammad ta'limoti oddiy tilda ilmi safina – kitobiy bilim va ilmi siyna – dildagi bilim deb ataladi. Birinchisi ulamolarning doktrinal ta'limotida bo'lsa, ikkinchisi so'fiylarning qat'iy ezoterik, mistik ta'limotida mujassamlashgan [3].

Tasavvufning paydo bo'lishi va rivojlanishi, islom tasavvuf deb ham ataladi, islomdagi muhim ruhiy harakat bo'lib, u ilohiylikning ichki, shaxsiy tajribasiga e'tibor qaratadi. Tasavvuf Islomning dastlabki asrlarida Umaviylar xalifaligi (661-750) davridagi materializm va rasmiyatchilikka javob sifatida paydo bo'lgan, bu yerda ba'zi musulmonlar jamoa Muhammad payg'ambarning soddaligi, kamtarligi va taqvodorligidan uzoqlashgan deb hisoblashgan. Ta'limotlar. Tasavvuf VII asr oxiri – VIII asr boshlarida dastlab zohidlik harakati sifatida vujudga kelgan. Ilk so'fiylar dunyo lazzatlaridan voz kechishga, qattiq taqvoga, Allohga chuqur ixlosga e'tibor qaratganlar. Ular ibodat, meditatsiya, ro'za tutish va ruhiy intizom kabi amaliyotlar orqali ichki poklanish va Xudoning bevosita tajribasi muhimligini ta'kidladilar. "So'fiy" atamasining o'zi arabcha "suf" so'zidan kelib chiqqan, ya'ni jun degan ma'noni anglatadi, chunki ilk so'fiylar ko'pincha dunyoviy hashamatdan voz kechish uchun oddiy jun kiyim kiyishgan. I. Mo'minov tasavvuf haqida to'xtalib, "Sufizm – murakkab falsafiy oqimdir. U juda xilma-xil shakllarga, mazmunga va oqimga ega" [4] ekanligini ta'kidlaydi.

Ma'lum bo'lgan ilk so'fiylar qatoriga tavba va xudodan qo'rqishni targ'ib qilgan Hasan al-Basriy (642-728) va ilohiy ishq tushunchasini Xudoga yo'l sifatida kiritgan Robiya al-Adaviyya (713-801) kiradi. Bu ilk tasavvuf olimlari keyinchalik tasavvufni belgilaydigan ruhiy ta'limot va amaliyotlarga asos solgan. IX-X asrlarga kelib so'fiylik zohidlik harakatidan uyushgan va rasmiylashtirilgan ruhiy yo'lga aylana boshladi. Bu davrda so'fiylik falsafasi va metafizik tafakkuri rivojlanib, so'fiylar inson qalbining xudo bilan munosabatlarini chuqurroq o'rgandilar. Bu

taraqqiyotning asosiy namoyandalaridan biri Al-G'azzoliy (1058-1111) bo'lib, uning asarlari so'fiylikni pravoslav islom ilohiyoti bilan uyg'unlashtirgan. Al-G'azzoliyning ta'sirli kitobi "Ihyo Ulum ad-Din" (Din ilmlarining tiklanishi) so'fiylik amaliyotlari haqida batafsil ma'lumot berib, ularni islom huquqshunosligi va ilohiyotining asosiy tamoyillari bilan uyg'unlashtirgan. Uning asarlari so'fiylikni asosiy islomda qonuniylashtirishga yordam berdi va uning keng miqyosda qabul qilinishiga yordam berdi.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy davrda so'fiylik ko'proq konservativ va islohotchi islomiy harakatlar tomonidan qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lsa-da, rivojlanishda davom etmoqda. Shunga qaramay, ko'plab musulmonlar hali ham zikr (Allohni zikr qilish), ma'naviy chekinishlar va so'fiylar ziyoratgohlarida yig'ilishlarga borish kabi so'fiylik amaliyotlari bilan shug'ullanadilar. Ichki tinchlik, sevgi va bag'rikenglik haqidagi so'fiylik ta'limotlari butun dunyo bo'ylab zamonaviy ma'naviy harakatlarda aks-sado topdi. So'fiylikning paydo bo'lishi va rivojlanishi islomdagi chuqur ma'naviy an'anani ifodalaydi, uning asosiy e'tibori botiniy poklanish, Allohga muhabbat va ilohiy ilmga intilishdir. U asrlar davomida oddiy zohidlik harakatidan islom sivilizatsiyasiga chuqur madaniy, intellektual va teologik hissa qo'shgan boy, murakkab ma'naviy tizimga aylandi.

So'fiylik g'oyasi, boshqa diniy-asketik yo'nalishlar singari, insonning ichki ma'naviy tozalanishi, Allohga yaqinlashishi va uning muhabbatiga erishishga intilish kabi murakkab ma'naviy jarayonlarni o'rta qo'ydi. So'fiylar uchun, dinning zohiriy tomonlari (shariat qonunlari va odatlari) qanchalik muhim bo'lmasin, Allohni chindan tanib, uning muhabbatiga erishish ichki ruhiy sa'y-harakatni talab qiladi. So'fiylik tarixi davomida uning asketik va mistik xususiyatlari ko'plab taniqli shaxslar tomonidan rivojlantirildi. Bunda Abu Homid al-G'azzoliy va Ibn Arabiy kabi taniqli so'fiylar muhim o'rin tutadi. Ular so'fiylikni nafaqat rivojlantirdilar, balki uni an'anaviy islom bilan birlashtirib, uning chegaralarini kengaytirdilar.

Tasavvufning aqliy va falsafiy rivojlanishida Ibn Arabiy (1165-1240) kabi boshqa ko'zga ko'ringan so'fiy olimlar ham katta rol o'ynagan. Ibn Arabiy "Vahdatul-vujud" (Vududning borliq birligi) tushunchasini kiritdi, bu tasavvufiy ta'limot bo'lib, u olamni Xudoning mohiyatining namoyon bo'lishi deb qaraydi. Uning g'oyalari keyingi so'fiy tafakkuriga, ayniqsa, butun mavjudotning birligi va Xudoning yagonaligiga nisbatan katta ta'sir ko'rsatdi. 12-asrdan boshlab, so'fiylik amaliyoti va ta'limotini rasmiylashtirgan tariqatlar yoki so'fiy birodarliklarining o'rnatilishi bilan so'fiylik tobora kuchayib bordi. Bu tariqatlar odatda so'fiy ustoz (shayx) tomonidan asos solingan va shogirdlarga o'tgan ma'lum bir ruhiy yo'ldan borgan. Eng mashhur so'fiylik tariqatlaridan biri Abdulqodir G'iloniy asos solgan Qodiriylar; Bahouddin Naqshband asos solgan naqshbandiya; va Janubiy Osiyoda mashhur ChishtiyY. Bu so'fiylik tariqatlari Islom dinining tarqalishida, xususan, Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo va Afrika kabi mintaqalarda hal qiluvchi rol o'ynagan, bu yerlarda so'fiy missionerlari ko'pincha shaxsiy ma'naviyat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka urg'u berish orqali mahalliy aholining islomni qabul qilishlariga yordam bergan.

Tasavvuf islom ma'naviyati, adabiyoti va madaniyati rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Rumi, Hofiz, Attor kabi so'fiy shoirlar tasavvufiy she'rlar orqali o'zlarining ilohiy ishq va Alloh bilan birlashish kechinmalarini yetkazishgan.

Ularning asarlari diniy chegaralardan oshib ketdi va butun dunyo bo'ylab ta'sirchanligicha qolmoqda. Tasavvuf adabiy va madaniy ta'siridan tashqari, islom falsafiy va teologik nutqining shakllanishiga ham hissa qo'shgan. Xudoning tabiati, ruhi va oxirat hayoti kabi mavzulardagi so'fiylik ta'limotlari islom tafakkurini boyitib, islomdagi

yanada rasmiylashtirilgan teologik yondashuvlarga muqobil, tasavvufiy jihatni taqdim etdi. "Tasavvuf, so'fiylik — islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limotdir. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan. Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. U "Muqaddima" asarida tasavvuf "suvf" — "jun", "po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero, qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi axli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar"[5], deydi.

**Xulosa va takliflar.** Arab-musulmon madaniyatida so'fiylikning rivojlanishi uning turli xalqlar va madaniyatlar bilan muloqotiga bog'liq. Bu jarayonda so'fiylik etnik va madaniy komponentlar bilan boyib, turli madaniyatlardan elementlarni o'ziga singdirgan. So'fiylikning asosiy g'oyalari jamiyatda ruhiy va ma'naviy axloqiy tarbiyani kuchaytirish, ijtimoiy adolat va ma'rifatni olg'a surish bo'lgan. Shuningdek, u xalqning ma'naviy merosi bilan bog'langani uchun ham, so'fiylik doimo diniy rivojlanish jarayonida asosiy o'rinni egallab kelgan. Shu jihatlarni inobatga olgan holda bu mavzu doirasida chuqurroq tadqiqot ishlarini olib borish zarurligini ko'rsatmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Усмон О. Баҳоуддин Нақшбанд ва унинг таълимоти ҳақида. – Тошкент.: Университет, 1993. – Б. 4-5.
2. Хайруллаева М. Из истории суфизма: источники и социальная практика. -Т.:1991. –С. 2.
3. Джон Субхан А.Суфизм. Его святыи и святыни. –М.-С.П.Диля, 2005. –С. 11.
4. Мўминов И. Танланган асарлар. 1 жилд.- Т.: 1969. – Б. 34.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasavvuf>.



UDK: 316.628.29

*Naufal TURGUNOV,*

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Psixologik ta'minlash bo'limi katta psixolog-poligrafologi, katta leytenant  
E-mail:turgunov3103@gmail.com*

*R. Dushanov taqrizi asosida*

## PSYCHOLOGICAL FEATURES OF EDUCATIONAL MOTIVATION OF CADETS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation

This article will consider the psychological features of educational motivation. The study of educational motivation allows you to implement an individual approach and increase the effectiveness of the educational process. According to the author, academic failure occurs if you do not approach each person individually by studying the educational motivation of cadets.

**Key words:** Educational motivation, learning, activity, external and internal motives, motivating action, educational process, social, professional success.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ КУРСАНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация

В данной статье будут рассмотрены психологические особенности учебной мотивации. Изучение учебной мотивации позволяет реализовать индивидуальный подход и повысить эффективность учебного процесса. По мнению автора, неуспеваемость в учебе возникает если не подойти к каждому человеку индивидуально изучая учебную мотивацию курсантов.

**Ключевые слова:** Учебная мотивация, обучение, деятельность, внешние и внутренние мотивы, побуждающее действие, учебный процесс, социальный, профессиональный успех.

## OLIV TA'LIM TIZIMI KURSANTLARIDA O'QUV MOTIVATSIYASINI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quv motivatsiyasining psixologik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. O'quv motivatsiyani o'rganish individual yondashuvni amalga oshirish va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Muallifning fikricha, agar kursantlarning o'quv motivatsiyasini o'rganib, har bir shaxsga individual yondashmagan taqdirda o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklar yuzaga keladi.

**Kalit so'zlari:** O'quv motivatsiya, ta'lim, faoliyat, tashqi va ichki motivlar, undovchi harakat, o'quv jarayoni, ijtimoiy, kasbiy muvaffaqiyat.

**Kirish.** Dunyoda ta'lim siyosati davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakat ravnaqi, ertangi kuni, jahon hamjamiyatida tutgan o'rni o'quv tizimidagi motivatsiya bilan chambarchas bog'liq. Huquqni muhofaza qiluvchi organlari tasaruufidagi ta'lim tashkilotlarida ham o'quv motivatsiyasining to'g'ri yuritilishi kursantlarning ta'lim, tarbiya olish, ishga yo'naltirishga qaratilgan tizimli jarayon bo'lib xizmat qiladi.

Jahonda ta'limga o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini va dunyoqarashini shakllantirishga, chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berish uchun Yalpi ichki mahsulotning Kubada 18,7 %, Vanuatuda 11 %, Amerika Qo'shma shtatlarida 5,7 %, Yaponiyada 3,6 % miqdorida pul mablag'lari ajratiladi[1].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi" [2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'quv motivatsiya bo'yicha ko'plab olimlar, shu jumladan, O'zbekistonlik olimlar (M.G. Davletshin, E.F. Foziyev, G'.B. Shoumarov, V.A. Tokareva R.I. Sunnatova, A.A.Fayzullayev, A.K. Saitova, E.Z. Usmonova, M. Rasulova, F.I. Haydarovlar va boshqalar) tomonidan o'rganilgan. Ularda ko'proq o'zbek ta'limiga xos urf-odatlar, udumlar, an'analar nuqtayi nazaridan ta'limning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan. Taniqli olim E.F. Foziyev, o'z tadqiqotlarida mustaqil

tafakkurning rivojlanishi, bilim jarayonining qiziqarli tashkil etilishi, o'quvchilar faoliyatida yangi muvaffaqiyatlarga erishishning ijodiy manbai deb hisoblaydi. E. G'oziyev tadqiqotlarida o'smir o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari, o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'zini-o'zi nazorat qilish, o'zini-o'zi baholash, inson faoliyatini aniqlash, o'quv faoliyatini rejalashtirishni aniqlash, maqsad qo'ya olishni aniqlash, o'zini-o'zi nazorat qilishni aniqlash, bo'sh vaqtni aniqlash kabi tushunchalar haqida mulohazalar yuritiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot maqsadi IIV Akademiyasi kursatlarining o'quv motivatsiyasi rivojlanganlik darajasini aniqlash, ikkinchidan kursantlarning ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv motivatsiyasini qiyosiy tahlilini o'tkazish va uchinchidan IIV Akademiyasi kursatlarning o'quv motivatsiyasini oshirishga yo'naltirilgan tashkiliy tuzilmalarning faoliyatini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tahlil va natijalar.** Motivatsiya muammosi bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar ularning tabiati, fenomenologiyasi va mohiyati bo'yicha turli nuqtai nazarlarning xilma-xilligini aks ettiradi. Biroq, shunga qaramay, barcha tadqiqotchilar motivatsiyani bitta psixologik fenomen belgilashini ma'lum qilishadi.

Ma'lumki, "motivatsiya" atamasini birinchi marotaba A.Shopengauyer o'zining "yetarli sabablining to'rtta prinsipi"



(1900-1910) maqolasida ishlatgan. Keyin bu atama inson va hayvonlarning xatti-harakatlari sabablarini tushuntirish uchun foydalanildi.

Ko'rib chiqilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularda "shaxsning motivatsion sohasi" tushunchasini topish mumkin.

Motivatsiya sohasining kengligi uning omillarining sifat jihatdan xilma-xilligi sifatida tushuniladi. Shaxsning motivlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, uning motivatsion sohasi shunchalik rivojlangan bo'ladi.

R.I.Sunnatova o'z ilmiy tadqiqotlarida boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilari hamda talabalarning o'z-o'zini boshqarish jarayonidagi fikrlash faoliyatlarini o'rganadi. Olima o'z-o'zini boshqarish jarayonlarining fikrlash faoliyatiga ta'sir etish xususiyatlarini quyidagicha izohlagan. Bir tomondan, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish jarayonlarida qator o'zgarishlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, o'quvchilarda o'quv faoliyatiga nisbatan qiziqishning oshib borishi hamda o'z-o'zini boshqarish jarayonida bilim olishga nisbatan yangicha qarashlarning shakllanganligi ham ko'rinadi. Shuningdek, o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish jarayonida o'z-o'zlarini tarbiyalash va o'z qobiliyatlarini takomillashtirishga harakat qilganliklari ham kuzatiladi.

A.A.Fayzullayev o'z tadqiqotlarida motivatsion jarayonni bosqichma-bosqich tahlil qilishni taklif qildi. A.Fayzullayev motivatsion jarayonni beshta bosqichga bo'lib o'rganadi. Bu bosqichlar quyidagilar: 1- qo'zg'alishning anglanishi; 2 – motivning qabul qilinishi; 3 – motivning hayotga tatbiq qilinishi; 4 – motivning mustahkamlanishi; 5 - qo'zg'alishning faollashuvi.

O'quv faoliyati motivatsiyasining rivojlanish omillari umumlashtirish mezon bo'yicha besh guruh ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin.

Birinchi guruhni o'quv motivatsiyasini maqsadli rivojlantirish imkonini beruvchi didaktik (psixologik-didaktik) prinsiplar tashkil etadi:

– "qiyinchilik o'lchovi", qiyinchilikning optimal darajasi prinsipi (L.V.Zankov);

– ta'limda muammolilik prinsipi (V.Okon, A.N.Matyushkin, M.I.Maxmutov, T.V.Kudryavsev, I.Ya.Lerner);

– o'zlashtirilgan o'quv materialini izchil umumlashtirish prinsipi (A.M.Matyushkin);

– o'quv materialida "mavhumlikdan aniqlikka" tomon harakatlanish prinsipi (V.V.Davidov, A.K.Markova);

– shaxsning faollik prinsipi, kasbiy faoliyat mazmunini izchil modellashtirish (A.A.Verbitskiy).

Ikkinchi guruh omillarini o'qish motivatsiyasining rivojlanishiga yo'naltirish asosida ajratish mumkin:

individual yondashuv;

tipologik yondashuv;

topologik yondashuv (V.F. Morgun).

Turli mualliflar tomonidan taqdim etilgan motiv va motivatsiya o'rtasidagi farqni quyidagi uch shaklda ifodalaniishi mumkin:

motiv > undovchi > harakat (X. Xekxaufen),

undovchi (motiv) > harakat (V.I. Kovalev),

undovchi > motiv > harakat (A.A. Fayzullayev).

E.P.Ilin fikricha, undovchini motivdan olib tashlagan holda motivda undov kuchi yo'qolishiga olib kelishi va u haqda gapirish ma'nosi qolmasligini ta'kidlagan. Shuningdek, motivni faqatgina undovchi bilan bog'lashga ham asos mavjud emas.

O'quv motivatsiyasini o'rganish biz tomonidan Rossiya Federatsiyasi ichki ishlar vazirligi ta'lim tashkilotining kursantlari va chet ellik tinglovchilarning ta'lim motivatsiyasidagi farqlarni aniqlash maqsadida amalga oshirildi. Turli toifadagi talabalarning o'quv motivatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini bilish va individual yondashuvni amalga oshirishga hamda o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga imkonini beradi.

Tadqiqot Rossiya Federatsiyasi ichki ishlar vazirligining ta'lim tashkilotida o'tkazildi. Tadqiqotda umumiy 80 nafar ishtirokchilar ishtirok etdi.

Guruhlar o'rtasidagi sezilarli farqlar "kasbiy kompetensiya", "menejment", "xizmat ko'rsatish" o'lchovlari bo'yicha aniqlandi. Shu bilan birga, Rossiyaning ikkinchi kurs kursantlari uchun quyidagi motivlar muhim ahamiyatga ega:

– "kasbiy kompetensiya", ya'ni o'zingizni professional sifatida rivojlantirish, o'z ishining ustasi bo'lish, sohada muvaffaqiyatga erishish istagidir. Ular o'z iste'dodlarini tan olishni qidirmoqdalar;

- "menejment", - shaxsning boshqa odamlarning sa'y-harakatlarini birlashtirishga yo'naltirilganligi, yakuniy natija uchun to'liq javobgarlik, ya'ni ish jarayonlarini boshqarishni, muammolarni hal qilishni va boshqa odamlar bilan muloqot qilishni yaxshi ko'radilar, ularga javobgarlik yoqadi.

"Xizmat" shkalasi bo'yicha aniqlangan farqlar chet-ellik tinglovchilarda yuqori bo'lib, bu atrofda odamlarga, o'z mamlakatiga foydali bo'lish istagi va o'z ishining yaxshi natijasini ko'rish xohishidan dalolat beradi.

## ADABIYOTLAR

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>.
2. <https://yuz.uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi>
3. Shoumarov G.B. Voyaga etmagan jinoyatchilar bilan ishlashning psixologik masalalari. // Ta'lim tizimida psixologik xizmat: muammolar, echimlar. Termiz, 2002. 7-9 b.
4. Psixologik atamalar ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati /Tuzuvchilar: Sog'inov N.A., Nishonova Z.T., Karimov X.K., Umarov B.M., Usmanov E.Sh. – T.: "Fan va texnologiya", 2019. – B.354.Carr J, Inside Cyber Warfare. Mapping the Cyber Underworld, O'Reilly 2nd edition, 2012
5. Столяренко А.М. Психологическая подготовка сотрудников ОВД. -М.: Академия управления МВД России, 1991.
6. Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. / Отв.ред. Шороховой Е.В. - М.: Педагогика, 1973. - 425 с.



UDK: 316.36.

**Maxbuba TUROBOVA,**  
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi*  
E-mail: [sh.turobov@gmail.com](mailto:sh.turobov@gmail.com)

*Qarshi davlat universiteti professori, M.X.Fayziyeva taqrizi asosida*

### OILAVIY MUNOSABATLARGA TAYYORLIKNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Аннотация

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorlikning ijtimoiy-psixologik tahlili keltirilgan. Talabalar oilaviy totuvligini saqlashi uchun O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan me'yoriy huquqiy hujjatlar, nikohlar va ajrimlar hamda ularning sabablari o'rganildi. Oilaviy munosabatlarga tayyorlikning yakuniy, kognitiv xulq-atvor mazmuniy komponenti, irodaviy o'z-o'zini boshqarishni tadqiq etish so'rovnomasi, shaxs yetukligi test-so'rovnomalari va Spirmenning noparametrik mezoni bo'yicha kompleks psixodiagnostik kuzatuv natijalarining korrelyatsion tahlili o'tkazilgan. Oilaviy munosabatlarga tayyorlikning ijtimoiy-psixologik tahlili bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tahlil, oilaviy munosabatlar, nikoh, huquq, oila, psixologiya, oilaviy munosabat, turmush, psixodiagnostik kompleks, talaba.

### СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ К СЕМЕЙНЫМ ОТНОШЕНИЯМ

Аннотация

В статье представлен социально-психологический анализ готовности студентов к семейным отношениям в высших учебных заведениях. Для сохранения семейной гармонии студентами были изучены нормативные правовые акты, принятые в Республике Узбекистан, браки и разводы, а также их причины. Проведен корреляционный анализ результатов комплексного психодиагностического наблюдения по заключительному, когнитивно-поведенческому содержательному компоненту готовности к семейным отношениям, анкеты исследования волевого самоконтроля, тест-анкеты личностной зрелости и непараметрического критерия Спирмена. Даны выводы и предложения по социально-психологическому анализу готовности к семейным отношениям.

**Ключевые слова:** Анализ, брак, право, семья, психология, семейные отношения, брак, психодиагностический комплекс, студент.

### SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF READINESS FOR FAMILY RELATIONS

Annotation

The article presents a socio-psychological analysis of the readiness of students for family relations in higher educational institutions. In order for students to maintain family harmony, normative legal acts, marriages and divorces adopted in the Republic of Uzbekistan and their reasons were studied. Family relativizations of comprehensive psychodiagnostic follow-up results on the final, cognitive behavioral content component of behavior, the volitional Self-Control Research survey, personality maturity test-surveys, and Spirmen's nonparametric criterion. Family relativizations and suggestions have been made on the socio-psychological analysis of Education.

**Key words:** Analysis, marriage, law, family, psychology, family relationships, marriage, psychodiagnostic complex, student.

**Kirish.** Jahon xalqlari hayotida muhim o'rin tutuvchi oilaviy qadriyatlar hamda oiladagi ijtimoiy psixologik muhit, er-xotin munosabatlari, oilaviy nizolarning kelib chiqishi, ajrim muammolarini o'rganish jamiyat taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik tomonidan o'rganilishini taqozo qilmoqda. Oila va nikohning ma'naviy-psixologik asoslari, oilaviy munosabatlarga psixologik tayyorlik shuningdek, oilaviy munosabatlarda xulq-atvorni tartibga solish haqidagi g'oyalar tizimini shakllantirish dolzarb ehtiyojdir.

Shunday ekan, oilaviy munosabatlar, oiladagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik ta'siri hamda oilaviy munosabatlarga psixologik tayyorlikni kompleks o'rganish, ularning hali yaxshi o'rganilmagan jihatlari ilmiy tadqiq qilish jiddiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston yoshlarini oilaviy munosabatlarga tayyorlash, oila va nikoh haqida adekvat tasavvurlarning demografiya sohasida mavjud jiddiy vaziyat sharoitlarida shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi farmoniga [1] muvofiq yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash markazlari tashkil etishni kengaytirish borasidagi ishlar yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Shu nuqtai nazardan, respublikamizda oilaga va birinchi navbatda, oilaviy munosabatlarga tayyorlashning zarurligiga davlat ahamiyati darajasida e'tibor qaratilib, zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori [2] va "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni [3] va ushbu faoliyat tizimiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo'lib, uning "Tadbiri manzil" asarida oilaviy munosabat masalalariga e'tibor qaratilgan. Axloqiy tarbiya masalalarida

alloma oilaning o'rmini alohida ta'kidlagan. Oila va oilaviy munosabatlarni shakllantirishda erkaklar va ayollar hislatlariga alohida to'xtalib o'tgan va oila mustaqilligini ta'minlashda ularning ahamiyatini asoslagan [4].

Tadqiqotchi E.G.'G'oziyevning fikricha, "Shaxs ulg'ayib, voyaga yetib, jamiyatga manfaati tegadigan bo'lgan sharoitda uning oilaviy hayotida ham salmoqli iz qoldiradi. Shu jihatdan jamiyat shaxs uchun tarbiyachi hamdir" [5].

Oilada huquq va huquqiy madaniyatni rivojlantirish borasida qator tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilar H.D.Norqulov va Sh.S.Jumanovlar fikricha, "Oila huquqi nikoh tuzish tartibi va shartlari, nikohning tugatilishi, nikohning haqiqiy emasligi, oilada er va xotin o'rtasida, ota-ona bilan bolalar o'rtasida, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy va mulkiy munosabatlar, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlar, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartiblarini belgilaydigan huquqiy normalar yig'indisidan iborat" [6] -deb, ta'rif berishadi.

Yoshlarda huquqiy ongning rivojlanishi oila mustahkamligining omillaridan biri ekanligi haqidagi g'oyani ilgari surishadi.

Dunyo miqyosida tug'ilishning keskin kamayib ketishi va turmush qurish yoshining kechikishi mamlakatlarning bu boradagi siyosatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Jumladan, Rossiyalik tadqiqotchilar fikricha, "Oila va nikohga bo'lgan qiziqishning ortishi bir qator sabablarga bog'liq. Tuzilgan nikohlarning uchdan bir qismi yaroqsiz bo'lib chiqishi, tug'ilish muammosi munosabati bilan nikohni mustahkamlash va aholining nikoh tuzilmasini takomillashtirish masalasi hal qiluvchi davlat ahamiyatiga molik siyosat bo'lib bormoqda. Oila ichidagi munosabatlar mexanizmlarini o'rganmasdan turib, bunday muammolarni hal qilish mumkin emas" [7]— deb, fikr bildirishgan.

Amerika qo'shma shtatlarida bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirayotgan oilali talabalar soni ortib bormoqda. Tadqiqotchilar D.Meehan va C.Negylar fikricha, "Turmush qurgan talabalar turmush qurmagan talabalarga nisbatan oliy ta'lim muassasalari talabalariga moslashishda o'rtacha qiyinchiliklarga duch kelishgan. Oila a'zolari, do'stlar va turmush o'rtoq tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'lsa ham, ularning ta'lim muassasasiga moslashishni yaxshilash imkoniyati yetarli bo'lmadi" [8]-deb, fikr bildirishadi va bu jarayonlarda ta'lim muassasasi psixologlarining o'rni beqiyosligini ta'kidlashadi.

Xorij olimlaridan oila ba oilada shaxsning shakllanishi haqida T.T.Sorokina [9] va O.A.Karabanova [10], oilaviy I-jadval

Spirmenning noparametrik mezoni bo'yicha kompleks psixodiagnostik kuzatuv natijalarining korrelyatsion tahlili (n=288).

Taqqoslash ko'rsatkichlarining nomlari	Spearman R p<0,05 korrelyatsiya koeffitsienti
Birinchi mazmuniy komponent koeffitsenti (Mkk) va yosh	-0,306
Birinchi mazmuniy komponent koeffitsenti (Mkk) va ta'lim bosqichi	-0,304
Yosh va sevgi (B.S.Kruglovning qadriyat orientatsiyalari shakllanganligini aniqlash metodikasi)	-0,823
Ta'lim bosqichi va sevgi (B.S.Kruglovning qadriyat orientatsiyalari shakllanganligini aniqlash metodikasi)	-0,612
Ta'lim bosqichi va baxtli oilaviy hayot (B.S.Kruglovning qadriyat orientatsiyalari shakllanganligini aniqlash metodikasi)	0,641
Yosh va baxtli oilaviy hayot (B.S.Kruglovning qadriyat orientatsiyalari shakllanganligini aniqlash metodikasi)	0,906
Ikkinchi mazmuniy komponent koeffitsienti (Mkk) va yosh	0,184
Ikkinchi mazmuniy komponent koeffitsienti (Mkk) va ta'lim bosqichi	0,185
Nizo darajasi (O.L.Goncharovning nizo darajasi namoyon bo'lishining ekspress-diagnostik so'rovnoma) va yosh	0,399
Nizo darajasi (O.L.Goncharovning nizo darajasi namoyon bo'lishining ekspress-diagnostik so'rovnoma) va ta'lim bosqichi	0,606
Uchinchi mazmuniy komponent koeffitsienti (Mkk) va yosh	-0,249
Ikkinchi mazmuniy komponent koeffitsienti (Mkk) va ta'lim bosqichi	-0,208
Oilaviy munosabatlarga tayyorlik rivojlanish darajasi (Tk) va yosh	-0,131
Oilaviy munosabatlarga tayyorlik rivojlanish darajasi (Tk) va ta'lim bosqichi	-0,131

Spirmen (Spearman)ning noparametrik mezoni bo'yicha kompleks psixodiagnostik kuzatuv natijalarining korrelyatsion tahlili o'z mohiyatiga ko'ra talabalarining yoshi, ta'lim bosqichining oshishi ularning oilaviy munosabatlarga tayyorligini rivojlantirish darajasiga ijobiy ta'sir qilmasligini isbotladi ( $r = -0,30$ ;  $r = -0,24$ ;  $r = -0,13$   $p < 0,050$ ).

Oilaviy munosabatlarga tayyorlikning shaxslararo-emotsional mazmuniy komponenti va talabalar yoshi, ta'lim bosqichi o'rtasidagi aniqlangan korrelyatsion aloqalarda ( $r = 0,18$ ;  $p < 0,050$ ) talabalarining yoshi va muvofiq ravishda ta'lim bosqichining oshishi bilan rivojlanib boradi shuningdek, ta'lim bosqichining tarkibiy qismi sifatida nizo darajasi ko'rsatkichlari o'rtasidagi aniqlangan ahamiyatli ijobiy korrelyatsion aloqa yotadi (O.L.Goncharovning nizo darajasi namoyon bo'lishining ekspress-diagnostik so'rovnomasi) ( $r = 0,39$ ;  $r = 0,60$ ;  $p < 0,050$ ). Ya'ni nizo darajasi yosh va ta'lim bosqichining oshishi bilan tushib boradi, talaba-yoshlar, odatda, kam ziddiyatli bo'lib boradilar.

Bundan tashqari, talabalarda yoshi va unga muvofiq ravishda ta'lim bosqichining oshishi bilan hayot qadriyatlariga kabi sevgi ham o'z o'rnini yo'qotadi, hayot rejalarida ularning ahamiyati tushib boradi ( $r = -0,82$ ;  $r = -0,61$   $r < 0,050$  da), baxtli oilaviy hayot esa yosh va ta'lim bosqichining oshishi bilan hayotiy qadriyat sifatida ularning uzoq istiqbolini aks

ettiruvchi hayotiy qadriyat sifatida ahamiyati ortadi ( $r = 0,64$ ;  $r = 0,90$   $p < 0,050$ ).

Olingan empirik natijalar o'tkazilgan tadqiqotning yuqori ahamiyatga egaligini yana bir bor tasdiqlaydi va rivojlanishning hozirgi holatini hisobga olgan holda oilaviy munosabatlarga tayyorlikni shakllantirish va rivojlantirishning samarali yo'llarini dolzarblashtiradi.

**Xulosa va takliflar.** Turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash ijtimoiy-psixologik jihatdan murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy xulosalar shuni ko'rsatadiki, talabalarining oilaviy munosabatlarga tayyorligi darajasi ko'plab omillar, jumladan, shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy ko'mak va ta'lim jarayonidagi tizimli yondashuvlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu tadqiqotda talabalarining oilaviy munosabatlarga tayyorligini baholash mezonlari ishlab chiqilib, ularga mos ravishda psixodiagnostik komplekslar yaratildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalarining oilaviy munosabatlarga tayyorligi darajasi ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ko'ra farqlanadi va bu darajani oshirish uchun ko'plab omillarni hisobga olish zarur.

O'rganilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va statistik ma'lumotlar, shuningdek, xorij va mahalliy olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar oilaviy munosabatlarga tayyorlikning rivojlanishiga ko'maklashadigan amaliy chora-tadbirlar va tizimli yondashuvlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
4. Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoni tarjimai. -Tehron: Eron Milliy kutubxonasi, 1902.-111 b.
5. G'oziyev E.G'. "Sotsial psixologiya". -Toshkent: Noshir, 2012. -316 b.
6. Norqulov Husniddin Do'sbekovich, Jumanov Sherzod Salayevich. Oilada g'oyaviy va huquqiy tarbiya masalalari. "Oila huquqining dolzarb masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. - Toshkent: "Mahalla va oila nashriyoti", 2021. - 162 b.
7. Потемкина К.В., Шестеро Ю.В. Психологическая готовность к семейной жизни юношей и девушек студенческого возраста // Научно-методический электронный журнал «Концепт». - 2017. - Т. 12. - С. 38-44. - URL: <http://e-koncept.ru/2017/770220.htm>.
8. Meehan, D., & Negy, C. (2003). Undergraduate Students' Adaptation to College: Does Being Married Make a Difference? *Journal of College Student Development* 44(5), 670-690. <https://doi.org/10.1353/csd.2003.0055>.
9. Сорокина Т.Т. Становление личности в семье. - Минск: Новое знание, 2010. - 152 с.
10. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: Учеб. пособие. М.: Гардарики, 2005. - 320 с.
11. Шилова О.Л. Мотивация вступления в брак и ее влияние на кризис будущей семьи // Вопросы психологии. - 2005. - №2. - С. 34-37.
12. Кардер Д. Семейные секреты, которые мешают жить / Дейв Кардер и др. - М.: Триада, 2016. - 464 с.
13. Рахимзода Х. Влияние социальных институтов воспитания на подготовку старшеклассников к семейной жизни: Дис д-ра пед. наук: 13.00.01: Душанбе, 2002 - 324 с
14. [https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-26\\_01\\_2024-uzb.pdf](https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-26_01_2024-uzb.pdf)
15. Baratova O.D. Noto'liq oilaning ijtimoiy-psixologik muommalari. Buxoro,
16. «Psixologiya» ilmiy jurnali. 34-b



UDK: 130.2:17.022.1

**Matluba TO‘XTAYEVA,**

*Management and Future Technologies “Gumanitar fanlar” kafedrası mudiri, PhD, dotsent v.b*

*E-mail: Matlubatuhtaeva9@gmail.com*

*O‘zMU professori, falsafa fanlari doktori Sh.Madayeva taqzı asosida*

### ZAMONAVIY O‘ZBEKISTONDA DINIY VA MILLIY QADRIYATLAR RIVOJIDA IMOM BUXORIY TA‘LIMOTINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada, hadis ilmi ustozı sanalgan Imom Buxoriyning hayoti va ma‘naviy merosi, u meros qoldirgan shoh asarlari davrlar osha axloqiy va huquqiy hikmatlari ilmiy asosda har tomonlama chuqur o‘rganilayotganligi; uning asl mazmun – mohiyatini teran anglashda, ijtimoiy axloqiy masalalarga targ‘ib etishda, yoshlar tarbiyasini milliy va diniy qadriyatlar asosida shakllantirishda Imom Buxoriy merosining o‘rni va ahamiyati muhimligiga e‘tibor qaratilgan. Imom Buxoriy ma‘naviy merosini o‘rganish bo‘yicha O‘zbekistonda olib borilayotgan ishlar tahliliga ham e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Hadis, ma‘naviy meros, islom, din, muhaddis, Qur‘oni Karim, Sahih al - Buxoriy, odob-axloq, mehr, adolat.

### ЗНАЧЕНИЕ УЧЕНИЯ ИМАМА БУХАРИ В РАЗВИТИИ РЕЛИГИОЗНЫХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье, жизнь и духовное наследие Имама Бухари, считающегося учителем хадисоведения, шедевры, которые он оставил в наследство, доказывают, что его моральная и правовая мудрость с течением времени всесторонне изучается на научной основе; роль и значение наследия Имама Бухари в глубоком понимании его истинного содержания, в продвижении его в социально – нравственных вопросах, в формировании воспитания молодежи на основе национальных и религиозных ценностей. внимание сосредоточено. Уделено внимание и анализу проводимой в Узбекистане работы по изучению духовного наследия Имама Бухари.

**Ключевые слова:** Хадисы, духовное наследие, ислам, религия, мухаддисы, Священный Коран, Сахих аль-Бухари, манеры, доброта, справедливость.

### THE SIGNIFICANCE OF THE TEACHINGS OF IMAM BUKHARI IN DEVELOPMENT OF RELIGIOUS AND NATIONAL VALUES IN MODERN UZBEKISTAN

Annotation

In the article, the life and spiritual legacy of Imam Bukhari, considered a teacher of hadith studies, and the masterpieces he left as a legacy prove that his moral and legal wisdom has been comprehensively studied over time on a scientific basis. The role and significance of Imams Bukhari's legacy are focused on a deep understanding of its true content and promoting it in social and moral issues, as well as in the formation of young people's education based on national and religious values. Attention is also paid to the analysis of work carried out in Uzbekistan to study the spiritual heritage of Imam Bukhari.

Attention is also paid to the analysis of the work carried out in Uzbekistan to study the spiritual heritage of Imam Bukhari..

**Keywords:** Hadith, spiritual heritage, Islam, religion, muhaddith, Holy Quran, Sahih al-Bukhari, manners, kindness, justice.

**Kirish.** Jahonda sodir bo‘layotgan keskin globallashuv jarayoni davlatlar o‘rtasida tinchlikni saqlash, millatlararo diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, jamiyatda yuksak axloqiy qadriyatlarga amal qiluvchi shaxslarni tarbiyalash zaruratini kun tartibiga qo‘ymoqda. Bu esa buyuk allomalarning ma‘naviy merosidan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Zero, insonlar qalbida pokiza iymon va e‘tiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik, adolat, shafqat va muhabbat, o‘zgalar dardi bilan yashash singari ezgu tushuncha va tuyg‘ular barq urishida ma‘naviy merosning o‘rni kattadir. Bugungi ma‘naviy-axloqiy tanazzul davrida ma‘naviy meros, jumladan, hadislarining ijtimoiy-axloqiy ahamiyati yanada ortdi.

Dunyoning bir qator ilmiy markazlari va universitetlarida falsafa tarixi bilan islomshunoslikning birlashuvi Imom Buxoriyning ma‘naviy ta‘limoti hisoblangan hadislarining mohiyati va ularda ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar ilmiy nuqtayi nazardan keng o‘rganilmoqda. Jumladan, hadislarining ijtimoiy-axloqiy tarbiyadagi, jamiyat taraqqiyotidagi, ijtimoiy-ma‘naviy muhitdagi, insonlarning fiqxiy madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni, hadis turlari, roviylar silsilalari, diniy manbalar va sahih hadislardagi tinchlik, barqarorlik, diniy bag‘rikenglik g‘oyalari, islomda

oila va jamiyat munosabatlari, milliy va diniy qadriyatlar sinkretlashuvi, hadislarining qiyosiy tahlili, tarixiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy ahamiyati ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metod.** Imom Buxoriy diniy-falsafiy ta‘limotining ahamiyati, zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi o‘rni katta ahamiyatga ega bo‘lib, unda, asosan, axloqiy masalalarga e‘tibor qaratilganligi, hayotiy yo‘l-yo‘riqlar, pand-nasihatlar berilganligini ko‘rish mumkin. Imom Buxoriy o‘z davrining islomiy ilmlari sohasida eng yetuk bilim sohibi hisoblanib, musulmon dunyosi olimlari tomonidan tan olingan, hozirda ham turli asarlarda zo‘r ehtirom bilan tilga olinadi.

Imom Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asari insoniyat axloq odobiga oid ko‘rsatmalarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bu mumtoz, betakror asar arab tilidan o‘zbek tiliga arabshunos olim, professor N.Ibrohimov va shoir M.Kenjabeqov tomonidan tarjima qilinib nashr etilgan. Keyinchalik Sh.Boboxonov tomonidan «Al-adab al-mufrad» [1] asari chop etilib, keng jamoatchilikka tarqaldi. 2008 yilda «Al-adab al-mufrad»ning birinchi nashriga kiritilmagan qismlari to‘ldirilgan holda, kitobxonlarga asardan foydalanishini yengillashtirish maqsadida bir-biriga yaqin

mavzudagi hadislar birlashtirilib, tarkibidagi odob-axloqqa oid hadislardan saylanma taqdim etildi[2].

Imom Buxoriy siyratlari va tarjimai holi bilan boshlangan «Al-adab al-mufrad» asari Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning «Odoblar xazinasi» asari, 4 juzdan iborat bo'lgan sharhda Imom Buxoriy asarlarining qisqacha tavsifi haqida ma'lumotlar hamda asar asliyatining o'zbek tilidagi tarjimasi bilan berilgan[3].

Axloq so'zi arabcha «xulq» yoki «huluk» so'zining ko'plik shaklidir. «Xulq» karakter, tabiat (yaratish) degan ma'noni anglatadi. Bu bilan solishtirganda, «axloq» xulq-atvorni, inson qalbining tabiatini ifodalovchi tushunchadir. Xulq insonning o'zida mujassam bo'lib, o'z sohibining odati, sifatiga aylanib qolgan bo'ladi.

Ulamolar odob-axloqning o'ziga xos ta'riflarini bergan bo'lsalarda, Imom G'azzoliy bu ta'riflarni umumlashtirib shunday deydi: «Axloq insonning botiniy qalbida joylashadigan qobiliyatdir, amallar aqlga og'irlik qilmagan, shu qobiliyat orqali insondan juda oson chiqadi».

Bu ta'rif orqali biz axloq nima ekanligini tushunishimiz mumkin:

a) Axloq insonning harakatlarini yoritib turuvchi qobiliyatlar yig'indisidir. Axloqiy harakatlar xatti-harakatlarning o'zi emas, balki uning natijasi va namoyon bo'lishidir.

b) Axloq so'zi faqat yaxshi xulq va yaxshi qobiliyat uchun qo'llanilmaydi. Barcha yaxshi va yomon xatti-harakatlar axloqdir. Shuning uchun yaxshi xulq yaxshi axloq, yomon xulq esa yomon axloq, deyiladi. Demak, axloqsiz odam yo'q. Og'zaki adabiyotda go'zal axloqli kishilarni odobli, yomon axloqlilarni esa axloqsiz deb atashadi.

Hadis: «Abu Hurayradan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vassalam: «Albatta, men solih axloqlarni kamolga yetkazish uchun yuborilganman», dedilar» [3]. Muhammad Payg'ambarimizga Alloh taolo tomonida yuklatilgan buyuk va sharafli vazifalardan biri – yaxshi axloqlarni barkamol qilish, oxiriga yetkazish ekan. Har bir mo'min musulmom xulqlari bo'yicha barkamol bo'lishi, har bir kishi hamma havas qiladigan darajada go'zal xulqi ila boshqalardan ajralib turishu lozim.

Badiiy karakter inson tabiati bilan bog'lanishiga ko'ra6 uchga bo'linadi.

1. Boshqalarga yomonlik qilmang, aksincha, imkon qadar yordam bering, ko'mak ko'rsating, mulk bilan, karakter bilan va hokazo. Va yordam bera olmaydigan, aksincha, zarar yetkazadigan kishi yaxshi karakterga tegishli emas. Shu mazmunda Payg'ambar (S.A.V.): «Qo'llaringiz, mollaringiz va namozlaringiz bir-biringizga zarar yetkazsa, barcha musulmonlarga haromdir. Bu yurtda, shu oyda, shu kundanda boshlab. Agar biror kishi birovga noinsoflik, tahqirlash, birovning mulkini ataylab olib, urib, zohiran haqorat qilsa, buni yaxshi xislat deyish mumkin emas».

Imom Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» kitobiga kirgan ba'zi hadislarini keltiramiz. Masalan, farzandlarning ota-onaga yaxshilik qilishi to'g'risida: «Sahl ibn Mu'oz otasidan rivoyat qiladi: «Nabiy sollallohu alayhi vassalam: «Kim ota-onasiga yaxshilik qilsa, unga Tubo bo'lsin, Alloh azza va jalla uning umrini ziyoda qilsin», dedilar»[3]. Demak, bunda kimki ota-onasiga yaxshilik qilsa, albatta, uning umri ziyoda bo'lishi va belgilangan umri barokatli bo'lishi e'tirof etilgan.

Qur'oni karimning Ankabut surasida «Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. (Ya'ni, ota-ona xoh yaxshi, xoh yomon bo'lsin, xoh musulmon, xoh kofir bo'lsin, ularga yaxshilik qilish farzandning burchidir)...»[4], deyilgan. Dunyoda islomchilik ota-onaning hurmatini yuqori qo'ygan ta'limot yo'q. Hadislarda Rasulu akramning tabarruk so'zlari keltiriladi: «Abdulloh ibn Amirdan rivoyat qilinadi: «Bir odam Nabiy sollallohu alayhi vassalamning huzurlariga kelib, hijrat

uchun bay'at qilmoqchi bo'ldi. U ota-onasini yig'lagan holda qoldirib kelgan edi. Ul zot: «Ota-onangning huzurlariga qaytgin, ularni qanday yig'latgan bo'lsang, xuddi shunday qilib kuldiringin», dedilar»[3]. Demak, Muhammad payg'ambar ota-onaning roziligini olish, ularni xursand qilish, vaqti kelganda, hatto, hijratdan ham ustun qo'yishni e'tirof etganlar.

2. Saxiylik odamlar o'ylagandek boylikni taqsimlash emas. Har narsada yordam berish va ilmni odamlar orasida yoyish yaxshi ishdir. Muhammad Payg'ambar: «Nima qilsangiz ham, Allohdan qo'rqing, yomonlik ortidan yaxshilik qiling, shunda insonning shaxsiyati go'zal bo'ladi», dedilar. Odamlar karakterdagi farqlar, kelishmovchilik tufayli bahslashishadi. Agar kimdir yomonlikni ko'rsangiz, kechirishingiz, tushuntirishingiz va sozlashingiz kerak. «(U taqvodor zotlar) yaxshi yomon kunlarda infoq – ehson qiladigan, g'azablarini ichiga yutadigan, odamlarning (xato-kamchiliklarni) afv etadigan kishilardir. Olloh bunday yaxshilik qiluvchilarni sevadi»[4]; «Kechirsin va kechirsin»[4]; «Kimki kechirsa va yarashtirsa, uning ajri Allohnikidir»[4]. Hamma odamlar bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Shuning uchun, agar biror kishi boshqa odamdan kichik bir yaxshilik olsa, buning uchun siz kechirishingiz va yarashishingiz kerak. Haqiqiy ilmni o'rganishingiz kerak. Shundagina ikki kishi o'rtasida shafqatsizlik yo'qoladi, rahm-shafqat, muhabbat, halollik paydo bo'ladi.

3. Yuzning yorqinligi. Islomning tinchlik, salomatlik, birodarlik ekanligi salomlashishda namoyon bo'ladi. Salomlashish kishilar munosabatida muhabbat ko'prigi hisoblanadi. Hadis: «Barodan rivoyat qilinadi: «Nabiy sallolohu alayhi vassalam: «Salomni tarqating salomat bo'lasizlar»[3]. Albatta, inson bir-biriga salom berishi ular yuzining yorqinligidan dalolat beradi. Insonlar bir-birlari bilan uchrashganida tabassum qilishi yaxshi xulqdan dalolat. Shuning uchun Muhammad Payg'ambar: «Agar birodaringga yurung' yuz bilan salom bersang, hech narsa yashirin bo'lmaydi», dedilar.

4. Kamtarlik:

a) Haqiqatni qabul qilish. Ya'ni, haqiqatni aytgan odamni qabul qilish. Chunki ba'zi odamlar haqiqatni qabul qilmaydi o'zidan katta bo'lsagina to'xtasa bo'ladi, undan kichik va pastroq bo'lsa, hech qachon qabul qilmaydi. Haqiqiy idrok har kimning nuqtai nazaridan, u boy, kambag'al, hurmatli, nafratlangan, kuchli, zaif.

b) Qanotlaringizni odamlarga yoying. Yana odamlar bilan muomalada muloyim bo'ling, xoh ular xizmatchi, xoh hurmatli yoki xoh xizmatkor bo'lsin.

5. Rostgo'ylik:

Darhaqiqat, rostgo'ylik Payg'ambarlarga berilgan xususiyatdir. Bu xususiyat barcha Payg'ambarlarga xos. Chunki, Alloh taolo Qur'oni karimda barcha payg'ambarlarni rostgo'y deb ta'riflagan. «Ibrohim»; «Idris»; «Ismoil»[4] Payg'ambarlar insoniyatga o'rnak bo'lish uchun yuborilgan.

Omonat (maxsus ishonch) islomdagi asosiy xususiyatdir. Bu xulq orqali biz insonning barcha sharoitlarini bilishimiz mumkin. Aksariyat odamlar ishonch bilan muloqot qilishadi. Shuning uchun biz omonat uchun ishonchda qat'iy bo'lishimiz kerak. Hadis: «Anasdan rivoyat qilinadi: «Bir kuni Rasululloh sallolohu alayhi vassalamning xizmatlarini qildim... meni chaqirib bir ishga yubordilar. Huzurlariga qaytib kelgunimcha soyada bo'ldilar. Onamning oldiga kechikib bordim. Shunda u: «Seni nima tutib qoldi?», dedi. «Nabiy sollallohu alayhi vassalam bir ish bilan yuborgan edilar», dedim. «Qanday ish ekan?», dedi. «Bu nabiy sallolohu alayhi vassalamning sirlari», dedim. «Rasululloh sallolohu alayhi vassalamning sirlarini mahkam tut dedi»[3]. Bu hadisda Anas ibn Molik raziallohu anhuning odoblarini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, ona o'z bolasi fe'l-atvorini nazoratga olishi, inson sir saqlashi, hatto gap ham omonat bo'lishligi e'tirof etilgan.

G'amxo'rlik. Darhaqiqat, yurak bu xarakterni juda yaxshi ko'radi. Bu xarakter uchun his a'zolarining ham alohida o'rni bor. Ya'ni, tinchlik, quvonch, kenglikni his qilish.

Uyat. Aslida, bu belgi eng muhimdir, chunki u har bir shaxsga, oila va jamiyatga katta ta'sir ko'rsatadi. Aslida uyatchanlik iymonga loyiq xususiyat. Binobarin, hayoning ortishi bilan iymon ham ortadi yoki hayo kamayishi bilan u ham kamayib boradi. Bu uyalish istagi bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni, uyatchan odam yomon ishlar qilishga majburlanmaydi, hatto, bunga qurbi ham yetmaydi, Alloh yoki o'zining oldida yalang'och ko'rinishdan uyaladi.

Rahmat. Bu belgi nafaqat tilga olinadi. Aksincha, bu amalda sodir bo'ladi. Chunki bu xislatni yuqtirib, amalda qo'llasak, Alloh xohlasa, qiyomatda ham xuddi shunday holat bo'lishi mumkin.

Oilaviy munosabatlarni buzmaslik. Aslida bu munosabatlarni buzmaslik farz, kim uni buzsa jannatdan mahrum bo'ladi. «Jubayr ibn Mut'imdan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vassallamning «Qarindoshlik aloqasini uzgan odam jannatga kirmaydi», deganlarini eshitganman»[3]. Payg'ambar (S.A.V.): «O'zaro aloqani buzgan jannatga kirmaydi», dedilar.

Qo'shni bilan munosabatda bo'lish. «Nofe' ibn Abdulhorisdan rivoyat qilinadi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Keng maskan, solih qo'shni va yaxshi markab musulmon kishining saodatidandir», dedilar»[3]. Albatta, maskan insonning umri eng ko'p o'tadigan joy. Bu maskanda solih qo'shni bo'lishi, albatta shart.

Yana bir hadisda «Abu Hurayradan rivoyat qilinadi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallamning duolari orasida «Allohim! Men sendan u dunyoda yomon odamga qo'shni bo'lishdan panoh tilayman. Chunki bu dunyodagi qo'shnini o'zgartirsa bo'ladi», deyilgani ham bor edi»[3]. Darhaqiqat, qo'shning yomon bo'lishi kishining tunu kun halovati yo'qolishi, har kuni urush janjal, ko'ngilsizlikka olib kelishi hayotiy haqiqatdir.

Yetimlarga yaxshilik qilish. «Arab tilida «yetim» otasi vafot etgan voyaga yetmagan bolaga aytiladi»[3]. Shuning uchun ham Alloh taolo ularni yaxshilikka buyurdi. Payg'ambar yetimlar haqida bir qancha hadislarini zikr qilganlar. Hadisda: «Musulmonlarning uylari ichida eng yaxshi uy yetimga yaxshilik qilayotgan uydur. ...Men va yetimning kafili jannatda mana bundaymiz», deb ikki barmoqlari bilan ishora qildilar»[3].

Hadislar yomon xulqni bildiruvchi so'zlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan: isrof qilmaslik, baxillik, pushaymonlik, g'azab, va'daga vafo qilmaslik, nafrat kabilar. «Abu Sa'id Xudriydan rivoyat qilinadi: «Nabiy sollallohu alayhi vassalam: «Ikki xislat mo'min kishida jam bo'lmaydi. Birinchisi – baxillik, ikkinchisi - badxulqlik», dedilar».

Demak, bular yomon illatlar sanaladi. Baxillik yomon xislat ekanligi bois, har bir inson undan uzoqlashib, saxiy bo'lishga, badxulqlikdan chiroyli xulq egasi bo'lishiga intilishi kerak.

Muhammad Payg'ambar hadislarida alohida xulq-atvor tizimi. Hadislarda xulq-atvor to'liq tizim ekanligini aytish o'rinli. Uning o'ziga xos xususiyatlari va tizim qoidalari ustundir. Darvoqe, hadisdagi tizim har qanday tuzimdan ustun bo'lgan, har bir belgi o'z o'rmini topgan.

**Xulosa.** Umuman olganda, Imom Buxoriy butun hayoti davomida ilm toliblariga, ustozlar va muhaddislarga har doim yordam ko'rsatardi. Darhaqiqat, milliy va diniy qadriyatlarimiz g'urur va iftixorimizdir. «Imom Buxoriy to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom qoidalarini o'z ichiga olmay, balki ularda mehr-muhabbat, saxiylik, ota-ona, kattalarga hurmat, yetim yesirlarga muruvvat, vatanga muhabbat, halollikka da'vat kabi insoniy fazilatlar mujassamdir» [5]. Bugungi kunda yosh avlod ma'naviy tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan pand-nasihatlar va o'gitlar qamrab olingan.

Darhaqiqat, milliy va diniy qadriyatlarimiz g'urur va iftixorimizdir. «Imom Buxoriy to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom qoidalarini o'z ichiga olmay, balki ularda mehr-muhabbat, saxiylik, ota-ona, kattalarga hurmat, yetim yesirlarga muruvvat, vatanga muhabbat, halollikka da'vat kabi insoniy fazilatlar mujassamdir» [5]. Bugungi kunda yosh avlod ma'naviy tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan pand-nasihatlar va o'gitlar qamrab olingan.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, o'tmishdagi allomalarimizning mashhur asarlari islom dini, uning yuksak an'analari bilan uyg'unlikda ko'paydi. Qur'on kitobi har bir yurtdoshimiz uchun ochiq bo'lsin, ajdodlarimiz merosi, qadimiy an'ana va urf-odatlarini anglashga yordam bersin, aql-zakovat, go'zal axloq va ezgu insoniy fazilatlarini tarbiyalashga yo'l ko'rsatsin. An'anaviy va diniy bayramlar bizni bir-birimizga mehribon bo'lishga, ezgu ishlarga undaydi, adovatni yo'qotadi.

«Milliy va diniy marosimlarimizni ma'lum bir tizimga keltirmagunimizcha, xalqning isrofgarchilik va ortiqcha sarf-xarajatlariga barham bermagunimizcha, davlat dasturlarini qabul qilish va amalga oshirishda, mablag'larni sarflashda ko'zlangan va sezilarli natijalarga erisha olmaymiz. Bayramlar va marosimlar respublikadagi turli millat va turli din vakillari o'rtasidagi do'stlik va birodarlikni mustahkamlashga yordam berishi kerak.» Xayrli ishlar natijasida jamiyat ahli o'rtasida mehr-oqibat, hurmat va do'stlik kuchayadi.

O'zbekiston musulmonlari barcha qatori mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlarga rioya qiladilar, huquqlaridan foydalanadilar. O'zbek xalqi tarixning turli burilishlariga qaramay, asrlar davomida islom sivilizatsiyasi olamida bo'lgan. Islom dini biz uchun ma'naviyat, axloq va madaniyatning muborak manbasidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Imom Buxoriy Al-adab al-mufrad. //Tarjimolar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid. – Toshkent: Movarounnahr, 2006.
2. Imom Buxoriy Al-adab al-mufrad. (Odob-axloqqa oid hadislar. Saylanma). Tuzuvchilar: Z.Islomov, A.Abdullayev – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2008.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi. 1 - 4 juz. – Toshkent: Hilol – nashr, 2021.
4. Qur'oni karim. Ankabut surasi – 8 oyat. // O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alovuddin Mansur – Toshkent: Cho'lpon, 1991. – B. 285 – 286.
5. <http://uz.wikipedia.org/wiki/Imom>



**Gulruxan ULUG'BEKOVA,**  
Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti, t.f.n.  
E-mail: [ulugbekova@mail.ru](mailto:ulugbekova@mail.ru)

DSc, professor M.Xajiyeva taqrizi asosida

## PRACTICAL APPLICATION OF ADAPTED METHODS IN MEDICAL UNIVERSITIES: EXPERIENCE OF LEADING MEDICAL UNIVERSITIES

Annotation

In the evolving landscape of medical education, the practical application of personalized learning methods has become an important aspect of aligning academic training with the dynamic demands of the healthcare industry. This article examines the experience of the world's leading medical universities in introducing innovative and customized educational methodologies. The article examines various case studies and educational reforms and highlights the effectiveness of these approaches in improving the skills and training of medical students. Results show that integrating hands-on, context-specific teaching methods not only improves learning outcomes, but also equips students with the skills they need to excel in their future medical careers.

**Key words:** Adapted educational techniques, medical education, practical application, innovative methodologies, competency-based education, simulation-based training.

## TIBBIYOT UNIVERSITETLARIDA MOSLASHTIRILGAN METODLARNI AMALIY QO'LLASH: YETAKCHI TIBBIYOT UNIVERSITETLARINING TAJRIBASI

Annotatsiya

Rivojlanayotgan tibbiy ta'lim landshaftida moslashtirilgan o'qitish usullarini amaliy qo'llash akademik tayyorgarlikni sog'liqni saqlash sanoatining dinamik talablari bilan uyg'unlashtirishning muhim jihatiga aylandi. Ushbu maqola jahonning yetakchi tibbiyot universitetlarining innovatsion va moslashtirilgan ta'lim metodologiyalarini joriy etish tajribasini o'rganadi. Maqolada turli amaliy tadqiqotlar va ta'lim sohasidagi islohotlarni o'rganib chiqib, tibbiyot talabalarining malakasi va tayyorgarligini oshirishda ushbu yondashuvlarning samaradorligi ta'kidlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, amaliy, kontekstga xos o'qitish usullarini integratsiyalash nafaqat ta'lim natijalarini yaxshilaydi, balki talabalarni kelajakdagi tibbiy kareralarida ustunlik qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan jihozlaydi.

**Kalit so'zlar:** Moslashtirilgan ta'lim texnikasi, tibbiy ta'lim, amaliy dastur, innovatsion metodologiyalar, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, simulyatsiyaga asoslangan trening.

## ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ АДАПТИРОВАННЫХ МЕТОДОВ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ: ОПЫТ ВЕДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ

Аннотация

В развивающемся пространстве медицинского образования практическое применение методов персонализированного обучения стало важным аспектом приведения академической подготовки в соответствие с динамичными требованиями отрасли здравоохранения. В данной статье рассматривается опыт ведущих медицинских университетов мира по внедрению инновационных и кастомизированных образовательных методик. В статье рассматриваются различные тематические исследования и реформы образования и подчеркивается эффективность этих подходов в повышении квалификации и подготовке студентов-медиков. Результаты показывают, что интеграция практических методов обучения с учетом контекста не только улучшает результаты обучения, но и дает студентам навыки, необходимые для достижения успеха в будущей медицинской карьере.

**Ключевые слова:** Адаптированные образовательные технологии, медицинское образование, практическое применение, инновационные методики, компетентностное обучение, симуляционное обучение.

**Kirish.** Tibbiyot ta'limi sohasi tibbiyot fanlari, texnikasi va pedagogik nazariyalarning yutuqlari asosida doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Ushbu o'zgarishlarni qondirish uchun tibbiyot universitetlari talabalarni zamonaviy sog'liqni saqlashning murakkabliklariga samarali tayyorlay oladigan innovatsion o'qitish usullarini qabul qilishlari va qo'llashlari kerak. Ushbu maqola etakchi tibbiyot universitetlarida moslashtirilgan o'qitish usullarini amaliy qo'llashni o'rganadi va tibbiyot talabalari uchun ta'lim tajribasi va natijalarini yaxshilash uchun ushbu yondashuvlar qanday muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini o'rganadi.

Tibbiyot ta'limida moslashtirilgan o'qitish usullariga bo'lgan ehtiyoj. Didaktik ma'ruzalar va eslab qolishga asoslangan tibbiyotni o'qitishning an'anaviy usullari tobora ko'proq interfaol va amaliy yondashuvlar bilan

almashtirilmogda[1]. Ushbu o'zgarishlar bir necha omillarga bog'liq:

Tibbiy bilimlardagi yutuqlar: Tibbiy bilimlarning tez kengayishi talabalarni yangi ishlanmalardan xabardor qilish uchun yanada samarali va dinamik o'qitish usullarini talab qiladi.

Texnologik integratsiya: Tibbiyot amaliyotiga texnologiya integratsiyasi talabalardan turli raqamli vositalar va platformalardan foydalanishda malakali bo'lishlarini taqozo etadi [2].

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim: O'quvchilarning amaliy ko'nikmalari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaga asoslangan ta'limga e'tibor kuchaymoqda.



Moslashtirilgan o'qitish usullarining maqsadlari. Moslashtirilgan o'qitish usullari tibbiy ta'limda bir nechta asosiy maqsadlarga erishishga qaratilgan:

Ta'lim natijalarini yaxshilash: Ko'proq qiziqarli va amaliy o'rganish tajribasini taqdim etish orqali moslashtirilgan texnikalar talabalarning murakkab tibbiy tushunchalarni tushinishlari va saqlab qolishlariga yordam beradi.

Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish: Bu metodlar amaliy mashg'ulotlarga va real hayotda qo'llanilishiga urg'u beradi, bu esa talabalarning klinik amaliyotga yaxshi tayyorlanishini ta'minlaydi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Moslashtirilgan usullar talabalarni tanqidiy fikrlashga va tibbiy amaliyotda muhim bo'lgan muammolarni, ko'nikmalarni hal qilishga undaydi.

Garvard tibbiyot maktabi. Faol ta'lim va simulyatsiyaga asoslangan trening.

Garvard tibbiyot maktabi talabalarning faolligini oshirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun o'z o'quv dasturiga faol o'rganish va simulyatsiyaga asoslangan treningni kiritdi[3]. Ushbu texnikalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Muammolarga asoslangan ta'lim (PBL): Talabalar hamkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirib, haqiqiy hayotdagi tibbiy holatlarni hal qilish uchun kichik guruhlarda ishlaydi.

Simulyatsiya laboratoriyalari: Yuqori aniqlikdagi manekenlar va virtual haqiqat simulyatsiyalari talabalarga nazorat ostida, xavf-xatarsiz muhitda amaliy tajriba bilan ta'minlash uchun ishlatiladi. Natijalar:

Takomillashtirilgan klinik ko'nikmalar: Talabalar klinik ko'nikmalarni baholashda yuqori darajadagi vakolatlarini namoyish etadilar.

Ishtirok etishning ortishi: Ushbu usullarning interfaol o'quvchilarning qoniqish va o'quv jarayonidagi faolligini oshirishga olib keldi.

Oksford universiteti tibbiyot maktabi. Aralashirilgan ta'lim yondashuvi. Oksford universiteti an'anaviy sinfda o'qitishni onlayn resurslar va interaktiv modullar bilan birlashtirgan aralash ta'lim yondashuvini qo'lladi. Asosiy tarkibiy qismlarga quyidagilar kiradi:

Onlayn ta'lim platformalari: Talabalar keng assortimentdagi onlayn materiallardan, jumladan, videoma'ruzalar, interaktiv amaliy tadqiqotlar va raqamli darsliklardan foydalanishlari mumkin[4].

Flipped Classroom: Bu yondashuv talabalarga muhokama va amaliy qo'llashga qaratilgan shaxsiy mashg'ulotlarga borishdan oldin ma'ruza mazmunini onlayn ko'rib chiqish imkonini beradi. Natijalar:

Moslashuvchan ta'lim: Talabalar o'z tezligida o'rganishlari va kerak bo'lganda materiallarni qayta ko'rib chiqishlari mumkin, bu esa yaxshiroq tushunish va saqlashga olib keladi.

Kengaytirilgan tanqidiy fikrlash: teskari sinf modeli material bilan chuqurroq shug'ullanishni rag'batlantiradi va o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Karolinska instituti. Kasblararo ta'lim (IPE): Karolinska instituti talabalarni sog'liqni saqlash muassasalarida hamkorlikda amaliyotga tayyorlash uchun kasblararo ta'limga urg'u beradi[5]. Asosiy tashabbuslarga quyidagilar kiradi: Jamoaga asoslangan ta'lim: Turli xil sog'liqni saqlash fanlari talabalari birgalikda loyiha va amaliy tadqiqotlar ustida ishlaydi, jamoaviy ish va turli nuqtai nazarlarni tushinishga yordam beradi.

Birgalikda simulyatsiya mashqlari: Talabalar sog'liqni saqlashning haqiqiy stsenariylariga taqlid qiladigan simulyatsiyalarda ishtirok etadilar, bu esa ulardan samarali hamkorlik qilish va mulohaza qilishni talab qiladi. Natijalar:

Yaxshilangan jamoada ishlash ko'nikmalari: Talabalar sog'liqni saqlash amaliyotining birgalikdagi tabiatiga yaxshiroq tayyorlanishadi.

Bemorlarga xizmat ko'rsatishni kuchaytirish: Kasblararo ta'limga e'tibor bemorlarni parvarishlash sifati va xavfsizligini yaxshilashga olib keldi.

Moslashtirilgan o'qitish usullarini joriy etish bo'yicha eng yaxshi tajribalar

O'quv dasturlari maqsadlariga moslashish. Moslashtirilgan o'qitish usullarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tibbiyot universitetlari ushbu usullarning o'quv maqsadlari va ta'lim natijalariga mos kelishini ta'minlashi kerak.[6] Bunga quyidagilar kiradi:

O'quv rejasini xaritalash: o'rganishni yaxshilash uchun moslashtirilgan usullarni mavjud kurslarga qayerda va qanday kiritish mumkinligini aniqlash.

Fakultetni rivojlantirish: professor-o'qituvchilarni o'qitishda ushbu usullardan samarali foydalanish uchun o'qitish va qo'llab-quvvatlash.

Texnologiyadan foydalanish. Tibbiy ta'limni modernizatsiya qilishda texnologiyadan foydalanish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Samarali amalga oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Texnologiyaga sarmoya kiritish: Universitetlar interfaol va raqamli ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun zamonaviy texnologiyalar va infratuzilmaga sarmoya kiritishlari kerak[7].

Talabalar va professor-o'qituvchilar uchun treninglar: Talabalar ham, professor-o'qituvchilar ham yangi texnologiyalar va vositalardan samarali foydalanish uchun treningga muhtoj.

Innovatsiyalar madaniyatini oshirish. O'qitish va o'qitishda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi madaniyatni yaratish juda muhimdir. Bunga quyidagilar orqali erishish mumkin:

Tajribani rag'batlantirish: O'qituvchilarni o'qitishda yangi uslub va yondashuvlarni sinab ko'rishga undash kerak.

Innovatsiyalarni mukofotlash: Ta'lim muassasalari innovatsion o'qitish usullarini muvaffaqiyatli joriy etgan professor-o'qituvchilarni tan olishlari va mukofotlashlari kerak.

Qiyinchiliklar va yechimlar. Qiyinchiliklar:

O'zgarishlarga qarshilik: Fakultet va muassasalar an'anaviy yondashuvlar qulayligi tufayli yangi o'qitish usullarini qabul qilishga qarshilik ko'rsatishi mumkin.

Resurs cheklovlari: Yangi texnikani joriy qilish ko'pincha texnologiya va o'qitishga katta sarmoyani talab qiladi.

Yechimlar:

Pilot dasturlar: Kichik pilot dasturlardan boshlash yangi usullarning samaradorligini ko'rsatishga yordam beradi va kengroq amalga oshirish uchun yordam beradi[8].

Hamkorlik va moliyalashtirish: Hamkorlik va tashqi moliyalashtirishni izlash resurs cheklovlari engillashtirishga yordam beradi va innovatsion usullarni qo'llashni qo'llab-quvvatlaydi.

**Xulosa.** Tibbiyot ta'limida moslashtirilgan o'qitish usullarini amaliy qo'llash talabalarni zamonaviy sog'liqni saqlash muammolariga javob berishga tayyorlash uchun muhimdir. Yetakchi tibbiyot oliy o'quv yurtlari ushbu usullarning o'quv natijalarini oshirish va klinik amaliyot uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda samaradorligini ko'rsatdi[9]. Ushbu usullarni o'quv maqsadlariga muvofiqlashtirish, texnologiyalardan foydalanish va innovatsiyalar madaniyatini oshirish orqali tibbiyot muassasalari o'z talabalarning tibbiy kareralarida muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi jihozlanganligini ta'minlashlari mumkin.

## ADABIYOTLAR

1. Yilmaz N. D., Sahin H., Nazli A. International medical students' adaptation to university life in Turkey //International journal of medical education. – 2020. – Т. 11. – С. 62.
2. Quirk M., Chumley H. The adaptive medical curriculum: a model for continuous improvement //Medical Teacher. – 2018. – Т. 40. – №. 8. – С. 786-790.
3. Templeman K., Robinson A., McKenna L. Learning and adaptation with regard to complementary medicine in a foreign context: Intercultural experiences of medical students from different cultural backgrounds //International Journal of Intercultural Relations. – 2016. – Т. 55. – С. 55-65.
4. Daryazadeh S., Yamani N., Adibi P. A modified tool for "reflective practice" in medical education: Adaptation of the REFLECT rubric in Persian //Journal of Education and Health Promotion. – 2020. – Т. 9. – №. 1. – С. 24.
5. Sundberg K. et al. Power and resistance: leading change in medical education //Studies in Higher Education. – 2017. – Т. 42. – №. 3. – С. 445-462.
6. Баринов Э. Ф. и др. Использование платформ электронного обучения для управления внеаудиторной самостоятельной работой студентов в медицинских университетах //Непрерывное образование: XXI век. – 2015. – №. 3 (11). – С. 114-126.
7. Беляева А. В., Аксененко И. А. Цифровая платформа как педагогическая технология формирования готовности к профессиональной деятельности студентов медицинского вуза //Концепт. – 2022. – №. 1. – С. 28-44.
8. Шмакова Е. В. и др. Ситуационные задачи как способ формирования практических навыков у студентов медицинского ВУЗа //педагогическое взаимодействие: возможности перспективы. – 2022. – С. 328.
9. Akbarali O'g'li, Satvoldiyev Fakhridin. "Prospects for improving the technologies of developing legal thinking for schoolchildren (on the example of the province of Namangan)." Current research journal of pedagogics 4.01 (2023): 94-97.



UDK 373.2

*Sharipboy FAYZULLAYEV,*

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

*E-mail: sharipboyfayzullayev@gmail.com*

*Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professori, p.f.d A. Ibragimov‘lamjon taqrizi asosida*

## MAKTABGACHA TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARINI O‘QITISH JARAYONINI LOYIHALASHTIRISH METODINING AHAMIYATI

Аннотация

Maqolada bo‘lajak mutaxassislarni maktabgacha ta‘lim tashkilot(MTT)larida, bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash kompetensiyasini takomillashtirishda talabalarga “maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi” sohasining ta‘lim tizimidagi muammoli o‘qitish metodini, axborot va pedagogik texnologiyalar, interfaol ta‘lim metodlari bilan bog‘lab ta‘lim mazmunini o‘zlashtirishlari uchun ta‘lim jarayonlarini loyihalashga erishish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-psixologik muhit yaratish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsion ta‘lim texnologiyalari, kompetensiya, texnologiya, konsepsiya, innovatsiya, soha, organayzerlar, loyihalashtirish, maktabgacha ta‘lim, interfaol ta‘lim.

## ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДА ПРОЕКТИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В статье представлен проблемный метод обучения в системе образования по направлению «дошкольное образование» обучающимся в совершенствовании компетентности подготовки детей к школьному обучению в дошкольных образовательных организациях (ДТО), рассмотрено создание социально-психологической среды, связанной с достижением проектирования образовательных процессов освоения содержания образования в сочетании с педагогическими технологиями и интерактивными методами обучения.

**Ключевые слова:** Иинновационные образовательные технологии, компетентность, технология, концепция, инновация, сфера, организаторы, планирование, дошкольное образование, интерактивное образование.

## THE SIGNIFICANCE OF THE METHOD OF DESIGNING THE EDUCATION PROCESS OF PRESCHOOL STUDENTS

The article presents a problem-based teaching method in the education system in the direction of “preschool education” for students in improving the competence of preparing children for school education in preschool educational organizations (DTE), information and considers the creation of a socio-psychological environment associated with the achievement of design educational processes of mastering the content of education in combination with pedagogical technologies and interactive teaching methods.

**Key words:** Innovative educational technologies, competence, technology, concept, innovation, sphere, organizers, planning, preschool education, interactive education.

**Kirish.** Maktabgacha ta‘lim tarbiya ta‘lim tizimining birlamchi va eng muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta‘lim tizimidagi islohotlar va ushbu sohada qo‘yilgan davlat talablarini amalga oshirish maqsadida sohani rivojlantirish uchun maktabgacha ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga ta‘lim berishni kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshirish nihoyatda dolzarb masaladir. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, fizio-psixologik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish bo‘yicha ta‘lim dasturlari joriy etilmagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maktabgacha ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish va istiqboldagi vazifalarni belgilab olishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishlari o‘tkazmoqda. Prezident mamlakat kelajagi va ravnaqida muhim o‘rin tutadigan bu sohaga alohida e‘tibor qaratmoqda. Davlat rahbarining “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida soha oldidagi dolzarb vazifalar va ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi [1].

Yangi O‘zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidan borayotgan bir paytda

ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi – sifatli ta‘lim-tarbiya negizida har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. Maktabgacha ta‘limni o‘qitish texnologiyalari va pedagogik jarayonni loyihalashtirishning innovatsion yo‘nalishlari, aynan, maktabgacha ta‘lim (MT) talabalarini bo‘lg‘usi MTT pedagog-ustozlari bo‘lib yetishib chiqishlarida, tarbiyalanuvchilarni kelajak hayotga barkamol shaxs darajasiga yetkazishda sifatli kasbiy faoliyati uchun asos bo‘ladi. Ushbu innovatsion ta‘lim jarayonini loyihalashtirish, MT yo‘nalishi talabalarini pedagogik texnologiyalar va ta‘lim jarayonini loyihalashtirishga oid bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qiladi va amaliyotga tadbiiq etish shart-sharoitlarini yaratishga metodik yordam brradi. “Maktabgacha ta‘limni o‘qitish texnologiyalari va pedagogik jarayonni loyihalashtirish“ MTTlarda olib boriladigan ta‘limiy-tarbiyaviy-rivojlantiruvchi maqsadlarga yo‘naltirilgan ta‘lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirish va ularni tashkil etish yo‘llarida mustaqil-ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari uchun, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab boradilar.

**Tahlil va munosabat.** Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish,

moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, muassasalarga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish orkali bolalarni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari yuklandi. Bu borada davlat dasturi qabul qilinib, keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari, ta'lim-tarbiya dasturlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, ularda bolalarga o'qish va yozishni turli o'yinlar orqali o'rgatishni nazarda tutish lozimligi ta'kidlandi.

Yuqori malakali tarbiyachi va murabbiy kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, maktabgacha ta'lim sifati – ertangi kunimizni hal qiladigan masala. Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish, – bu Prezident, Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan boshlab, tuman hokimi, eng quyi idora rahbarigacha – barchamizning eng muhim vazifamiz bo'lishi kerak, dedi davlat rahbari.

Bo'lajak pedagog va murabbiylarni o'qitishda soha olimlarining tadqiqot ishlarida ta'lim tizimidagi muammoli o'qitish metodini, axborot va pedagogik texnologiyalar, interfaol ta'lim metodlari bilan bog'lab ta'lim mazmuni o'zlashtirishlari uchun ta'lim jarayonlarini loyihalashga erishish bilan bog'liq bo'lgan psixologik muhit yaratish haqida nazariy fikrlar yuritiladi, ammo amaliyot bilan bog'lik holatdagi innovatsion faoliyatga yunaltirishga deyarli e'tibor berilmayapti. Kompetensiyaviy yondashuvda fanlar orqali ta'limning maqsadi, mazmuni, metod, shakl va vositalari orasidagi uzviylikni ta'minlash maqsadida ta'lim jarayonlarini loyihalash, zamonaviy ta'limda talabalarning ijodiy, aqliy va kommunikativ faoliyatlarini rivojlantirish talab etiladi. Maktabgacha ta'limda yosh bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini inobatga olgan holda bo'lajak pedagog va murabbiylarga ijodiy, biluv, kommunikativ, ijtimoiy-xissiy, jismoniy, o'yin faoliyatlarini shakllantirishda qo'llaniladigan metodlarni o'rgatishda ta'lim jarayonlarini loyihalash bevosita bo'lajak pedagog va murabbiylarda muammoli ta'limni qo'llashga va aksincha muammoli ta'lim metodi ta'limni loyihalashga olib kelishi tasdiqlanishi kabi ta'lim texnologiyasi nazarda tutiladi.

Natijada ta'limning muammoli o'qitish metodikasi bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'limda o'zaro kirishib ketishi – ta'limning innovatsiyalashuviga erishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Davlat ahamiyatiga molik ushbu masalani echimi maktabgacha ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan bo'lajak mutaxassislarni ta'lim tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etishga urgatishga ham bog'liq deb o'ylaymiz. Shuning uchun maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarimizni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida ta'lim berishdagi quyidagi muammoli vaziyatlar bilan tanishib o'tamiz:

Maktabgacha ta'limda o'qitishning yangi metodlarini qo'llanilishi

Maktabgacha yosh ta'limi jarayonlarini loyihalash

Bo'lajak pedagog va murabbiylarning aqliy bilim olishining ahamiyati

Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiya

Bo'lajak tabiyachilarning biluv faoliyati (reproduktiv, produktiv)

Maktabgacha ta'limning innovatsiyalashuvi

Oliy ta'limning 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirilishining navbatdagi bosqichi tajribalari maktabgacha ta'lim yo'nalishida ta'lim-tarbiya jarayonlarining tarkibiy qismlari--tarbiya, ta'lim, shaxsni rivojlantirishning uzviylikiga to'liq erishilmaganligi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta'limda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan qator muammolar mavjud ekanligini ko'rsatmoqda. Bu muammolar, avvalo, ta'lim sifati

muammolarini tadqiqot qilish, ta'lim tizimida an'anaviy o'qitish metodikasiga ko'nikib qolgan professor-o'qituvchilar jamoasini axborot va pedagogik texnologiyalar hamda hamkorlik texnologiyalari bilan maktabgacha ta'limni amalga oshirishda interfaol ta'lim metodlariga, ya'ni, bo'lajak pedagog va murabbiylarni muloqot madaniyatini mukammal o'zlashtirishga o'rgatishdan iborat bo'lsa, talabalarning ta'lim mazmunini o'zlashtirishlari ta'lim jarayonlarini loyihalashga erishishi bilan bog'liq. Hamkorlikda ta'lim olish talabalarning ta'limda o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishlari uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhit yaratadi [2].

Bo'lajak mutaxassislarning maktabgacha ta'lim o'quv materialini idrok etishi (sezgi, idrok, tasavvurga asoslangan jarayon), ya'ni, ta'lim mazmuni bilan tanishish va bilish vazifasi nima ekanligini tushunish; o'quv materialining mazmunini -tushunish va yangi bilimlarning hosil bo'lishi (analiz, sintez, xulosa chiqarishga asoslangan); yangi bilimlarni (mashq, mustaqil ishlar va qo'shimcha izoxlar orqali) mustahkamlash; o'zlashtirilgan bilimlarni o'qituvchi imkoniyatiga qarab amaliyotda qo'llash kabi 4 ta bosqichdan iborat. Ta'lim jarayonlarini loyihalash talabalarning bilish jarayonlarini samarali tashkil etish va ta'limning tarkibiy qismlari bo'lmish ta'limning maqsadi, mazmuni, metod, shakl va vositalari orasida uzviylikni ta'minlaydi. O'quv faoliyati maqsadlari – bilimni egallash, bilimni ko'nikma va malaka darajasiga yetkazishdan iborat bo'lsa, bilish faoliyati o'quv faoliyatiga qaraganda keng va mazmunan boy bo'lib, talabning jamiyatda o'z o'rnini anglashga, boshqalar (tengdoshlari) bilan fikrlashishga intilish, ijobiy insoniy fazilat va kadriyatlariga tayyorlash, o'quv predmetlari orasida birontasini tanlashi va unga qiziqishi kabi yangi maqsadlarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi, bilish jarayoni ta'lim mazmunini egallashdagi-muammolarga, bu muammolarning yechimi va ta'lim metodlariga yoki talabalarning o'zaro hamkorlikda ta'lim olish xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Talabning bilish faoliyati o'rganilayotgan mavzuga doir barcha axborotlarni to'plash, to'plangan axborotlarni qayta ishlash, o'rganilgan axborotlarni qo'llash kabi 3 ta bosqichdan iborat bo'ladi. Yukoridagi bosqichlardan birortasi yetarlicha bajarilmasa, bilish faoliyatida bilim yuzaki xarakterda bo'ladi yoki bilim hosil bo'lmaydi.

**Tadqiq va natija.** Aqliy bilim olishga axborotlarni olish, axborotlar bilan ishlash kiradi. Bu bilish faoliyatining asosini tashkil etib, bunda axborot olish, axborot bilan ishlash, matn bilan ishlash, eng muxim axborotlarni topish, asosiy fikrlarni belgilash, kerakli axborotlarni izlash, axborotni taxlil etish, umumlashtirish, xulosa chiqarish, ma'lumot beruvchi har bir material bilan ishlash kiradi. Aqliy bilim olish aqliy faoliyat metodlari (analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosa chiqara olish) yordamida amalga oshiriladi [5]. Ijodiy metodlar, deb talabalarning bilim va ko'nikmalarini turli holatlarda tadbiq eta olishi, masalani yechishning turli yo'llarini izlash (o'qituvchi ko'rsatmagan, aytmagan) metodlarga aytiladi. Ijodiy metodlar muammoli metodlar sirasiga kiradi. Ijodiy bilim olish, avvalo, g'oyalarning yaratilishi bo'lib, uning uchun talabalar turli sohalarda bilimlarga ega bo'lishlari, muammolarni yechishda bitta emas, bir nechta variantdagi yechimlarni topa olishlari va bu yechimdan kelib chiqadigan natijalarni hamda, uning oqibatlarini oldindan aytib bera olishlari talab etiladi.

Kommunikativ (o'zaro fikr almashuv) qobiliyatiga talabalarning, avvalo, muloqot qila olish, suhbatdosh fikriga e'tibor berish va uni tinglash, o'z nuqtai nazarini, qarashlarini asoslay olish, dalillash, suhbatdoshi bilan bir qarorga kela olish tushuniladi. Zamonaviy ta'limda talabarning ijodiy, aqliy, kommunikativ faoliyatlarini rivojlantirish talab etiladi.

Pedagogik texnologiya, dasturlashtirilgan ta'lim metodiga asoslanadi. "Dasturlashtirilgan ta'lim metodi-har bir

o'quv materiali mavzusi mazmunini tayanch ibora va asosiy tushunchalarga asoslanib, eng sust o'zlashtiruvchi talabani o'rgana olishiga mos holda kichik bo'lak (qadam, qism, epizod)larga bo'lib o'rganishga tayanadi. Har bir kichik bo'lak talaba tomonidan o'zlashtirilishi qanday darajada ekanligi tekshiriladi va baholanadi. So'ngra talabaning mavzu mazmunini yaxlit egallaganligini taksanomiyalariga (o'quv maqsadlariga) asoslangan maxsus tayyorlangan nazorat topshiriqlari orqali (iloji boricha test yordamida) tekshirilishi va baholanishi talab etiladi" [4].

Biluv faoliyati maqsad motiv, vosita, natijadan iborat tarkibiy qismlarga bo'linadi. Dasturlashtirilgan ta'lim metodikasiga asoslangan o'qitishda har bir kichik bo'lak o'zining maqsadi, motivi, vositalari va natijasiga ega bo'ladi. Maqsad (oldindan anglangan, rejalashtirilgan natija) talabadan ongli maqsadga erishishga qaratilgan (maqsadga yo'naltirilgan) faoliyatni talab etadi [3]. Ta'lim jarayonida amalga oshirilgan maqsad (bir bo'lakni o'zlashtirilganligiga) natijaga aylanadi. Qo'lga kiritilgan bu natija keyinga bo'lakni o'zlashtirish maqsadida, yani, yangidan qo'yilgan maksadlarga erishish vositasi vazifasida ishtirok etadi. Demak,

pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim o'zlashtirishning reproduktiv darajasini ta'minlab, har bir bo'lakni o'zlashtirishga bog'liq bo'lgan uziga hos muammoni yechishdan iborat bo'ladi. Dasturlashtirilgan ta'lim metodikasiga asoslanish o'zlashtirishning dastlabki esga olish va xotirada tiklash reproduktiv darajalarini ta'minlaydi. Lekin navbatdagi mahsuldor (produktiv) va ijodiy o'zlashtirish darajalariga erishish muammoli ta'lim metodlariga asoslanishni taqozo etadi. Talaba tayyor bilimlarni (reproduktiv usulda) egallashi o'quv faoliyatining maxsuli bo'lgan ta'lim natijasi sifatida namoyon bo'ladi. O'quv predmetiga oid faktlarni taxlil etish va xulosa chikarish yo'li bilan olingan natija (bilim) biluv faoliyati mahsuli xisoblanadi.

**Xulosa.** Ta'lim mazmunini dasturlashtirilgan ta'lim metodiga moslashtirish (garchi juda ko'p vaqt, imkoniyat, kuch talab etsa-da), talabalarni loyihaviy faoliyat hamkorligida ta'lim olishlariga keng imkoniyat yaratadi, buning oqibatida ta'limda kutilgan natijalarni egallash ta'minlanadi. Shunday qilib, biror mavzuni o'rganish bir-biriga bog'liq bo'lgan muammolar zanjirini yechishni taqozo etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2019-yil 26-dekabr.
2. Ishmuhammedov R. O'quv jarayonida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2018.
3. Fayzullayev Sh. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi (maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun). O'quv qo'llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2020.
4. Fayzullayev Sh.N. Islohotlar samarasi: tajriba, malaka, texnologiya // Maktabgacha ta'lim, Toshkent. 2018, 12-son, 2-5 betlar.
5. Fayzullayev Sh. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha innovatsion faoliyatga yo'naltirish (Uslubiy qo'llanma) Samarqand, Samdu nashri, 2020. -100 bet.



UDK: 1,740

*Mukaddas XAKIMOVA,*  
*O‘zXIA tayanch doktranti*  
*E-mail: Mukaddasxakimova85@gmail.com*

*O‘zxia psixologiya fanlari doktrori M.Akramov taqtizi asosida.*

### PSYCHOLOGICAL DOMINANT CHARACTERISTICS OF NAFS

Annotation

The benefit of alchemy of Sharia and religion is that it is limited within the scope of moderation and each of them is used in its own field. Religion dominates these characteristics and prevents the nafs from going where it wants to go. If the qualities of nafs and anger are balanced through righteous deeds, nafs can control these qualities only with the help of Sharia, and due to this praiseworthy qualities appear. When shame, generosity, bravery, mercy, humility, contentment, patience, gratitude and other praiseworthy qualities appear, the nafs moves from the stage of "commanding" to the stage of "calmness" and gives way to a pure soul, performs the role of a camel.

**Key words:** Nafs, psychology, an-nafs al-ammora, an-nafs al-lawama, an-nafs al-mulhima, an-nafs al-mutmainna, heart, soul, mind, dream interpretation, dominant.

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДОМИНАНТНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ НАФС

Аннотация

Полезь алхимии шариата и религии в том, что она ограничена рамками умеренности и каждая из них используется в своей области. Религия доминирует над этими характеристиками и не позволяет нафсу идти туда, куда он хочет. Если качества нафса и гнева уравновешиваются праведными делами, то нафс может контролировать эти качества только с помощью шариата, и благодаря этому появляются похвальные качества. Например: стыд, великодушные, храбрость, милосердие, смирение, довольство, терпение, благодарность и другие качества, нафс переходит из стадии "командования" в стадию "спокойствия" и уступает место чистой душе как дорога показывающий верблюд.

**Ключевые слова:** Нафс, психология, ан-нафс аль-аммора, ан-нафс аль-лавама, ан-нафс аль-мульхима, ан-нафс аль-мутмаинна, сердце, душа, разум, сновидение, доминанта.

### NAFSNING PSIXOLOGIK DAMINANT XUSUSIYATLARI

Аннотация

Shariat va din alkimyosining foydasi shundaki, mo‘tadillik doirasida cheklangan va ularning har biri o‘z sohasida qo‘llaniladi. Din bu xususiyatlar ustidan hukmronlik qilib, nafsning xohlagan joyiga o‘tishiga to‘sqinlik qiladi. Solih amallar orqali nafs va g‘azab sifatleri mutanosib bo‘lsa, nafs bu sifatleri faqat shariat yordamida boshqara oladi va shu tufayli maqtovgga sazovor sifatlar paydo bo‘ladi. Uyat, saxovat, mardlik, rahm-shafqat, kamtarlik, qanoat, sabr-toqat, shukronalik va boshqa maqtovgga arzigulik sifatlar paydo bo‘lsa, nafs "amr qilish" bosqichidan "xotirjamlik" bosqichiga o‘tadi va ruhi pok kishiga yo‘l ko‘rsatuvchi tuya vazivasini o‘taydi.

**Kalit so‘zlar:** Nafs, psixologiya, an-nafs al-ammora, an-nafs al-lavvoma, an-nafs al-mulhima, an-nafs al-mutma‘inna, qalb, ruh, ong, tush ta‘biri, dominant.

**Kirish.** "Nafs" so‘zi arabcha-forscha atama bo‘lib, ko‘p ma‘noga ega va shuning uchun tarjimasiz qolgan. "Nafs" so‘zi, narsaning mohiyati, ruhi, ruhiyati, aqli, jonli mavjudot, shaxs, individuallik, xohish, shaxsiy ishonch degan ma‘nolarni bildiradi. Umumiy qilib aytganda, "ilm an-nafs" (ruh haqidagi fan) atamasi "psixologiya" deb tarjima qilingan. Tasavvuf matnlarida nafs haqida gap ketganda, odatda, an-nafs al-ammora, ya‘ni insonning qudratidagi yomon "men"ni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, bu so‘z odamning to‘liq aqliy-jismoniy tuzilishini anglatadi, u egosentrik intilishlarga ergashadi va "tana" ehtiroslariga bo‘ysunadi. Shuningdek, ruh tuzilishida ruhiy o‘zgarish yo‘lida erishilgan uchta yuqori daraja mavjud: an-nafs al-lavvoma (ayblovchi ruh yoki vijdon), an-nafs al-mulhima (ilhomlangan ruh) va an-nafs al-mutma‘inna (ko‘ngil tinchi) kabi nafs, qalb, ruh, ong bosqichlarini ifodalaydi. Bu orqali inson qalbi mukammallikka erishish yo‘lida komillikka o‘tadi. Sa‘diyning yozishicha: "Insoniyatning asosiy maqsadi nuqtaga yetish bo‘lishi kerak. U yerda hudodan boshqa hech narsani ko‘rmaydi".

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Nafsning bir qancha sifatleri bo‘lib, ularga qarshi harakat qilish yo‘llarini

izlab topish kerak. Abu Bakr Timistoniy aytadilar: "Nafs xuddi olov kabidir. U deyarli o‘chganida, u boshqa joyda alanganadi. Bir joyda nafs tinchlansa, boshqa joyda alanganadi".

Ali ibn Tolib aytadilar: "Agar nafs haqida gapiradigan bo‘lsak, bu holat cho‘pon va qo‘yning ahvoliga o‘xshaydi, cho‘pon qo‘ylarni bir joyga yig‘ishga qanchalik urinsa, qo‘ylar shunchalik ko‘p yon tomonlarga tarqaladi.

Nafs axloqsizlik va noloyiq amallarning manbaidir. Axloqsizlikning namoyon bo‘lishi va qoralashga arziydigan xatti harakatlarning manbai nafsdir. Nafsning ikki jihati bor: biri tartibni buzish bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi fe‘l-atvorning buzilishi - g‘urur, hasad, ochko‘zlik, jahl, g‘azab va shariat yoki aql nuqtai nazaridan aybdor bo‘lgan boshqa fazilatlar. Nafsning g‘arazliligi uni biror narsa g‘azablantirganda namoyon bo‘ladi va u o‘z fazilatlarini ko‘rsatish yo‘lini topadi. Nafs - Allohning g‘azabini to‘ldirish vositasi hisoblanadi.

Nafs tabiatan g‘azab sifatlariga ega bo‘lib, yomonlikka moyillik egasidir. Alloh taolo nafsni yaratib, uni malomatli xulq va qoralangan amallar manbai qilib qo‘ydi. Nafsni

ziynatlash uchun shaytonni tayinladi, u har xil o'simliklar o'sadigan bog'ga o'xshaydi. Bu hol Alloh taolo nafsni ilmini ato etgan donishmandni idrok nuri ila va tanbeh niqobi ostida imtihon qilmoqchi bo'lganda sodir bo'ladi. Bu nur va ruhiy intilishning pokligi tufayli donishmand gunoh olovini o'chiradi.

Abu Bakr Vositiy aytadilar: "Nafs butdir. Unga qarash butparastlik, tafakkur qilish esa ibodatdir". Nafs ma'lum ma'noda butga o'xshaydi: unga shahvat bilan qaragan butparastlikka berilib ketadi, uni tafakkur qilib, tushunishni o'rgangan kishi esa, aslida ibodatdadir.

Rumiya ko'ra: Butun butlarning onasi sening nafsingdir, chunki oddiy but faqat ilon, lekin bu but ajdahodir. Nafs faqat yolg'onda tinchlik topadi. Kufurning asosi nafsning xohish-istaklarini amalga oshirishdir. Nafs ta'midan bahramand bo'lgan kishi yaxshilik ta'mini totolmaydi. Yashirin butparastlik nafsning eng halokatli amrlaridan biridir. Nafsning tuzilishining o'zi xulq-atvor qoidalarini buzishga asoslangan. Shunday qilib, nafs o'z-o'zidan Allohning amriga zid qurilmaydi. Mo'min uni yomonlikdan saqlashga harakat qilishi kerak. Kimki nafsni tutib turuvchi rishtalarni bo'shatib qo'ysa, uning nomaqbul ishlarida va buzg'unchiliklarida qatnashgan bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nafs har xil yomonliklarda aybdor. Nafs har doim haromni orzu qiladi. Nafs shunday yaratilganki, har bir narsani harom istaydi. Nafs - ehtiroslar quli. Nafslarga sig'inish esa qoralangan sifat va yomonliklardandir. U odamni doimiy ravishda vasvasaga soladi. Nafs - munofiq, da'vogar va butparast.

Nafs o'zini shunday ko'rsatishga harakat qiladiki, bunday xatti-harakat Xudo tomonidan ma'qullanmagan. Ya'ni, mol-mulkning ko'payishi va undan g'ururlanish, shuningdek, takabburlik, manmanlik va odamlarni mensimaslik.

Nafs hamisha odamlar uni maqtashlarini, faqat uning axloq qoidalari talqiniga amal qilishlarini, uni dunyodagi hamma narsadan ko'proq sevishlarini istaydi. Nafs kishini takabburlikka undaydi va o'zini o'ylashga chorlaydi.

Ma'lum bir ustoz ko'p yillar davomida namoz o'qigan, har safar joy olgan. masjid parishionlarining birinchi qatorlarida. Bir kuni ertalab negadir kechikib, orqa qatorda turishga majbur bo'ldi. Shundan so'ng u masjidga kelishni butunlay to'xtatdi. Yo'qligi sababini so'rashganida, u shunday javob berdi: "Ko'p yillar davomida men ixlosim borligiga ishonib, namoz o'qidim. Orqa qatorda turishim kerak bo'lgan kuni, men uyatdan g'oyib bo'ldim va shunchaki menga qaratilgan qarashlardan zavqlanayotganimni angladim. Shu paytdan boshlab men namozga munosib muomala qila boshladim".

Ba'zan nafs insonni shariatga bo'ysunish uchun emas, balki o'z rohati va manfaati uchun namoz o'qishga, ro'za tutishga, hajga borishga undaydi. Odamlar uni hoji deyishlari uchun nafs insonni hajga chorlaydi. Bu esa takabburlikning bir ko'rinishidir. Nafs har qanday raqibdan ko'ra dushmanroqdir. So'fiylar Payg'ambarimizning "Sening nafsing dushmaningdan ko'ra dushmaningdir, chunki u ichingdadir" degan naqlariga asoslanib, so'fiylar nafsni har qanday dushmandan ham xavfliroq deb hisoblaydilar va hushyor bo'lish zarurligini ta'kidlaydilar.

Abu Bakr Vositiy aytadilar: "O'z ichiga nafsning zarracha ishorasi bo'lsa ham, yoki insonni dunyoga bog'laydigan har qanday shakldagi niyatlar nafsning ko'rsatmalaridir. Nafs nutqdan mohirona foydalanib, odamni aldash uchun uni g'ijg'ilyadi, keyin bu odam o'z navbatida boshqalarni ham aldaydi".

Nafs ma'naviyatga ham kufr keltiradi. Nafs reaksiyalari - ruhiy nizolar, tashvish, tushkunlik, asabiy buzilishlar va har xil mantiqsiz xatti-harakatlar.

Nafs tushlarda turli xil ramziy shakllarni oladi, ular ma'lum bir nafsda qaysi salbiy xususiyatlar hukmron

bo'lishiga qarab o'zgaradi. Nafsning ramziy ifodalari bor bo'lib, eng keng tarqalgan ramziy ifodalari ilon, it, bo'ri, kalamush, maymun, eshak yoki jodugar tasvirlaridir.

Agar nafsning asosiy xislati odamlarga nisbatan shafqatsizlik va zo'ravonlik bo'lsa, nafs tushida ilon qiyofasini olishi mumkin. Agar dominant xususiyatlar aldash va firibgarlik bo'lsa, ular tulki yoki jodugarning tasvirlari orqali ifodalanishi mumkin. Agar g'azab va nafrat ustun bo'lsa, it yoki bo'ri paydo bo'lishi mumkin. Agar ochko'zlik va mulkni sotib olish hukmronlik qilsa, ularning ramzi kalamush bo'ladi. Agar shahvat va shahvoniylik ustunlik qilsa, unda siz maymun, ayiq yoki eshakni ko'rishingiz mumkin. Va nihoyat, egosentrizm va narsizizm hukmronlik qilganda, odam o'zini eslatuvchi tasvirni ko'rish mumkin.

Ehtiroslar (hava) nafsning ongli tomonining bir qismini tashkil qiladi va uning katalizatori hisoblanadi. Ehtiroslar nafsni mustahkamlaydi va nafs bilan yonma-yon boradi. Nafslar nafsning zavq va mamnuniyat keltiradigan har bir narsaga bo'lgan xohishlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, ehtiroslar nafsni mensimagan narsadan uzoqlashtiradi, jamiyatda qabul qilingan diniy tamoyillar, ijtimoiy kelishuvlar, odob va urf-odatlarini mensimaydi.

**Tahlil va natijalar.** Nafsni ehtiros ham, aql ham o'ziga tortadi. Agar aql hukmron bo'lsa, natijada taraqqiyot va ma'naviy yuksalish bo'ladi. Agar ehtiroslar ustunlik qilsa, ularning oqibatlarini hayvoniy harakatlar, murtadlik va halokatdir.

Ali ibn Sahl Esfahoniy aytdilar: "Aql va nafslar bir-biriga ziddir. Ma'naviy yuksalish aqlning xizmatkori, ma'naviy mag'lubiyat nafsning xizmatkoridir. Nafs ular orasida joylashib, qochganga xizmat qiladi".

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, nafs ehtirosleri yo'lida olg'a borishga to'siq bo'lib, nafsni takomillashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Nafs, o'z navbatida, yurakning rivojlanishiga to'siqlik qiladi. Bu to'siqlar insonning yuqori bosqichlarga chiqishiga, ruhiy rivojlanishiga to'siqlik qiladi.

Nafsning ehtirosleri bu yerda sanab bo'lmaydigan darajada ko'p. Biroq, ular ikkita asosiy toifaga bo'linadi: tashnalik va zavq, shahvat va egalik qilish istagi.

Nafslar nafsning zavq va mamnuniyat keltiradigan har bir narsaga bo'lgan xohishlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, ehtiroslar nafsni mensimagan narsadan uzoqlashtiradi, jamiyatda qabul qilingan diniy tamoyillar, ijtimoiy kelishuvlar, odob va urf-odatlarini mensimaydi.

Xulq-atvori butunlay ehtirosarga asoslangan va ularga ergashish orqali qanoatga erishadigan odamlar Xudodan uzoqdirlar. Nafslaridan va ularni qondirish istagidan voz kechganlar esa, Xudoga yaqindirlar.

Nafsning ikki xususiyati bor: ehtiros va g'azab. Ehtiroslar asos bo'lgan narsaga qaratilgan istak va niyatlarni ifodalaydi, g'azab esa o'jarlik, takabburlik va hukmronlik qilish istagini bildiradi.

Nafsga erishish uchun ehtiros sifatleri qo'llaniladi, g'azabning sifatleri esa zarardan saqlanish uchun ishlatiladi. Bu ikki sifat o'rtasida mutanosiblikka erishish kerak, chunki ularning birortasining yetishmasligi nafs va tanada kamchilikni keltirib chiqaradi. Birida yoki boshqasida ortiqchalik aql va iymonning yetishmasligiga olib keladi. Nafsni tarbiyalash va poklash bu ikki xislatni muvozanat holatiga keltiradi. Qachonki, g'azabning xususiyati mo'tadillikdan tashqariga chiqsa, yomon moyilliklar paydo bo'ladi: takabburlik, yovuzlik, jahldorlik, qizg'inlik, toqatsizlik, zulmga moyillik, muvozanatsizlik, yolg'on, takabburlik, bema'nilik, o'jarlik va xudbinlik.

Agar inson g'azabdan qutulolmasa, uning borlig'ida yomonlik ildiz otadi. Agar g'azab yetarli bo'lmasa va bu sifat odamda zaiflashsa, o'zini-o'zi xo'rlash, befarqlik, yumshoqlik, buzuqlik va qadrsizlik paydo bo'ladi. Agar ehtiroslar ham, g'azab ham hukmronlik qilsa, hasad paydo bo'ladi, chunki

ehtirosning ustunligi odamning boshqalarda ko'rgan hamma narsaga shahvatni keltirib chiqaradi. Bunday odam o'zini xursand qilishga harakat qiladi. G'azab ustunlik qilganda, odam o'zi mahrum bo'lgan narsalarga ega bo'lgan odamga nisbatan dushmanlikni boshdan kechiradi. Demak, hasad boshqa narsaga havas qilish, shuningdek, boshqa birovning ularga egalik qilishini istamaslik natijasidir. Ana shunday xislatlar nafsni to'liq o'ziga singdirsa, uning butun borlig'i jirkanch ishlarga, dahshatli adolatsizlikka, qotillikka, talon-taroj, bezorilik va fasodga qaratilgan bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Shariat va din alkimyosining foydasi shundaki, mo'tadillik doirasida cheklangan va ularning har biri o'z sohasida qo'llaniladi. Din bu xususiyatlar ustidan hukmronlik qilib, nafsning xohlagan joyiga o'tishiga to'sqinlik qiladi. Solih amallar orqali nafs va g'azab sifatleri mutanosib bo'lsa, nafs bu sifatleri faqat shariat yordamida boshqara oladi va shu tufayli maqtovg'a sazovor sifatlar paydo bo'ladi. Uyat, saxovat, mardlik, rahm-shafqat, kamtarlik, qanoat, sabr-toqat, shukronalik va boshqa maqtovg'a arzigulik sifatlar paydo bo'lsa, nafs "amr qilish" bosqichidan "xotirjamlik" bosqichiga o'tadi va ruhi pok kishiga yo'l ko'rsatuvchi tuya vazivasini o'taydi.

Nafs, yuqoriga ko'tarilishni xohlasa, o'z navbatida, ikki xususiyatga muhtoj bo'ladi: ehtiros va g'azab. Xotirjam nafs ehtiros va g'azabni jilovlasa, g'azabi tubanlikdan, ulug'likka yuz tutadi, so'ngra uning maqsadi pastdagi hissiyot, olamining lazzatlariga emas, Quدرات doirasiga yaqinlik bo'ladi. Ehtiroslar nigohlarini yuqoriga qaratishi bilan ular butunlay Yatarga bo'lgan sevgiga aylanadilar. G'azab o'z e'tiborini yuqoriga qaratganda, u g'amxo'rlik va maqsadga erishish istagi bilan to'ldiriladi. Nafsning diqqatini ilohiy huzurga qaratishiga muhabbat va mehr-muhabbatdan boshqa hech narsa yordam bermaydi va maqsadga erishish uchun g'amxo'rlik va ishtiyoq keltiradi.

Ruh yerning unsurlari bilan birlashib, nafsni hosil qiladi, undan o'z navbatida ikki meva, ehtiros va g'azab paydo bo'ladi. Ehtiros eng katta jaholatdir, g'azab esa eng katta zulmdir. Nafs pastga qarasa, bu ikkisi, eng katta jaholat va zulm uni halokatga olib keladi. Bu darajadagi ruh ham tobe bo'ladi.

Nafsni jaholat va zulmkor faoliyati kamol topmaguncha komil deb bo'lmaydi.

Havo (ehtiros) so'zining ikki ma'nosi bor: birinchisi nafs ehtirosleri, ikkinchisi esa Ilohiy ishq. Bu ilohiy sevgini boshdan kechirgan har bir kishi o'z ehtiroslariga ko'r ekanligini ko'rsatadi. Xudo bilan birlashish orqali inoyatni izlayotgan kishi ehtirosarga qarshi turishi kerak, chunki bundan muhimroq ruhiy amaliyot yo'q.

Nafs ehtirosleri lazzat izlab oladigan ekstremal shakllarga shahvat deyiladi. Lazzatlanishga jalb qilish turli ko'rinishlarga ega bo'ladi va shuning uchun shahvatning turli ko'rinishlari mavjud: shahvoniy shahvat, maqom va hokimiyatga bo'lgan shahvat, boylikka shahvat va boshqalar.

Rumiy nafsni aqlga dushman deb hisoblaydi va aql nafsning aksi deydi.

Nafsning eng yaqqol xislati shahvatdirki, u butun inson tanasiga tarqalib ketgan va barcha hislar uning ta'siriga bo'ysunadi. Insonga o'z tanasining barcha a'zolarini undan himoya qilish vazifasi yuklangan, chunki inson har bir a'zosining harakatlari uchun javobgar bo'ladi. Nafs ko'rish uchun ko'z, eshitish uchun quloq, hid uchun burun, nutq va ta'm uchun til, teginish uchun a'zolar va fikr uchun aqlidir.

Shuning uchun inson o'zining nazoratchisi va boshqaruvchisi bo'lishi va butun umri davomida kechayu kunduz qo'riqlashi kerak. U o'z his-tuyg'ularida paydo bo'ladigan barcha ehtirosni bostirishi va Xudoga iltijo qilishi kerak.

Oshiqning shahvati faqat muhabbatda va Ilohiy go'zallikni ko'rish istagida namoyon bo'ladi. Bu faqat ma'shuqaga xos bo'lib, faqat ilohiy go'zallik tafakkurida ro'y beradi, lekin ulug'lik va ulug'vorlik tafakkuri ishq shahvatini kuydiradi.

Ibn Ato aytadi: "Qalb, ruh va nafsda har xil shahvat bor, lekin ularning hammasi insonda jamlangan. Qalbning xohishi Allohga quloq solish, ruhning xohishi Unga yaqinlik, nafs esa qalaylikdan lazzatlanishdir".

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hadislariga ko'ra, "odamlarni mag'lub etgan kuchli emas, balki nafsini yengishga muvaffaq bo'lgan kishi kuchli bo'ladi".

Nafs ta'siridan xoli bo'lish, uning g'azab, jahl, takabburlik, ochko'zlik, baxillik, hasad kabi moyilliklaridan xalos bo'lish demakdir. Agar inson bunday xislatlarda benuqson bo'lsa, ularning ichida namoyon bo'lishini man qilsa, u nafs ta'siridan xalos bo'ladi va go'yo nafsi umuman yo'qdek tuyulishi mumkin.

"Mujohod" atamasi "harakat qilish" yoki "jang qilish" ma'nosini bildiradi. Tasavvuf terminologiyasida esa nafsning nafsini jilovlab, uning qoralangan xususiyatlarini maqtovg'a aylantirish orqali "nafsga qarshi kurashish" ma'nosini bildiradi. So'fiy ustozlar, ayniqsa, yo'lga endigina qadam qo'yayotganlar uchun "nafs bilan jang"ning muhimligini ta'kidlab, bu jang boshidan berilmasa, yo'lda hech narsaga erishib bo'lmaydi, degan fikrni ilgari surdilar.

Abul-Hasan Xarroz shunday degan: "Bu ish uch tamoyilga asoslanadi: kerak bo'lganda ovqatlaning; faqat uyquni yengib o'ta olmaganingizda uxlang, faqat kerak bo'lganda gapiring".

Ibrohim Adham aytadilar: "Inson olti qoida bilangina solihlar bosqichiga erisha oladi: rohat-farog'atni ko'p narsadan izlamaslik, o'ziga qattiqqo'l bo'lish, o'zini yaxshi ko'rmaslik, o'zini xor qilish, o'zini yetarli deb hisoblamanlik, o'zini kamtar tutish va ehtiyojini his qilish; to'yib qolmaslik, balki och qolish; uxlamaslik, balki hushyor turish, umid qilmaslik, balki o'limni kutish."

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "O'zini bilgan Robbisini ham taniydi", dedilar. Bu esa ruhiy jang orqali amalga oshiriladi. Bilingki, ruhiy jangning mohiyati nafsga yoqimli odatlardan voz kechishdir. Nafsga doimo qarshilik ko'rsatish kerak. Nafs ikki sifat bilan ifodalanadi: tiyilmagan shahvat va Allohga xizmat qilishga isyon. Nafs ehtirosleri oti isyon qilsa, taqvo jilovi zarur. Allohga bo'ysunishdan shafqatsizlarcha bosh tortsa, nafsga muxoliflik qamchisi kerak bo'ladi, g'azab uni egallab olsa, unga mehr ko'rsatish kerak. Zero, ezgulik orqali erishilgandan kattaroq g'alaba yo'q. Mehribonlik, vazminlik bilan yomonlik alangasini o'chiradi. Qachonki nafsga buzuqlik sharobi shirin bo'lsa, nafs unga qoyil qolish va uning barcha nafslariga berilish bilangina qanoatlanadi. Bunday holatni yengish uchun nafs o'z tabiatining barcha tubanligini tan olmaguncha azob va xorlikni boshdan kechirishi lozim. Oddiy ruhiy jang harakat sohasida, so'fiylarning jangi esa tozalangan holatlar maydonida olib boriladi. Natijada ochlik va bedorlik osonlashadi, yomon xulq solihga aylanadi. Ammo bularning barchasiga qiyinchilik bilan erishiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Djavad Nurbaxsh, Psixologiya sufizma. –M: Amrita-rus, 2004. b-10.
2. O'sha asar, b-30.
3. Usmon Turar, Tasavvuf tarixi. –T: Istiqolol, 1999. b-86.
4. Shayx Najmiddin Kubro, Tasavvufiy hayot. –T: Movarounnahr, 2004. B-133.





UDK: 373.5

*Odinaxon XODJAEVA,*  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail: odinaxon@mail.ru*

*Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida*

### MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF METHODS OF CORRECTIONAL AND REHABILITATION WORK WITH PUPILS WITH SPEECH DISORDERS

Annotation

The article discusses the need for improvement of the system of corrective and rehabilitation work with pupils with speech impairments, as well as its main areas. Current trends in the development of methodologies in this field are described, and suggestions for improving methods corrective and rehabilitative work are outlined.

**Key words:** Speech, speech defects, correctional and rehabilitation work, diagnostics, innovative technologies, integrated approach, individualization.

### СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕТОДОВ КОРРЕКЦИОННО – РЕАБИЛИТАЦИОННОЙ РАБОТЫ С ВОСПИТАННИКАМИ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ

Аннотация

В статье показана необходимость совершенствования системы коррекционно-реабилитационной работы с воспитанниками с нарушениями речи, ее основные направления. Описаны современные тенденции развития методологии в этой области. Обозначены направления совершенствования методов коррекционно-реабилитационной работы.

**Ключевые слова:** Речь, дефекты речи, коррекционно-реабилитационная работа, диагностика, инновационные технологии, комплексный подход, индивидуализация.

### NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN TARBİYALANUVCHILAR BILAN KORREKSION- REABILITATSION ISHLASH USULLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Аннотация

Maqolada nutqida nuqsoni bor tarbiyalanuvchilar bilan korreksion- reabilitatsion ishlash tizimini takomillashtirish zarurligi, uning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan. Bu sohadagi metodikani rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari sharhlangan. Korreksion- reabilitatsion ishlash usullarini takomillashtirish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** Nutq, nutqdagi nuqsonlar, korreksiya- reabilitatsiya ishlari, diagnostika, innovatsion texnologiyalar, kompleks yondoshuv, individuallashtirish.

**Kirish.** So‘nggi yillarda nutqida turli xil buzilishlarga duchor bo‘lgan bolalar soni sezilarli darajada oshdi. Bu nafaqat ta‘lim dasturlarini modernizatsiya qilish, balki korreksiya va reabilitatsiya ishlarining yangi usullarini ishlab chiqishni ham talab qiladi. Zamonaviy yondashuvlar innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash, diagnostika usullarini takomillashtirish va har bir tarbiyalanuvchi uchun ta‘lim traektoriyalarini individuallashtirishga qaratilgan. Ushbu maqolada nutqida nuqsoni bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksiya va reabilitatsiya ishlari metodikasini rivojlantirishning hozirgi davrdagi tendensiyalari ko‘rib chiqiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** YUNESKO tomonidan 1994 yilda qabul qilingan «Maxsus ta‘lim zaruriyati» nomli hujjatda: «Maxsus ta‘limni alohida yordamga muhtoj insonlarga tashkil etishdan maqsad – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar va o‘smirlarni mustaqil, hamma qatori yashash sharoitida jamiyatga tiklash», – deb ta‘kidlangan [7].

Rus olimlari Ye.L.Goncharova, O.S.Nikolskaya, O.I.Kukushkinalar fikriga ko‘ra, alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bola maksimal darajada rivojlanishi, ta‘lim va tarbiya olishi uchun zarur sharoitlarga ega bo‘lishi lozim[4]. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarning har bir toifasi uchun har bir yoshga, rivojlanish xususiyatiga va ta‘lim

bosqichiga qarab alohida ta‘limni teng darajada aniq, batafsil va ilmiy asoslangan xolda olib borilishi zarurligini bildiradi.

D.B.Yakubjanova fikriga ko‘ra, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirish masalasi ilmiy jamoatchilik tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. Dakar deklaratsiyasi asosida qabul qilingan “Ta‘lim hamma uchun” reja-dasturiga muvofiq butun jahonda umumiy ta‘lim tizimiga inklyuziv ta‘limni joriy etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda [8]. Korreksion- reabilitatsion ishlarning uzviylikda va uzluksiz amalga oshirish zarurligini ta‘kidlab. G‘apurova D. shunday deydi: “Oila – bolalar bog‘chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta‘minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta‘lim muassasalari va oliy o‘quv yurtlariga bemaol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi” [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nutqida nuqsoni bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksiya va reabilitatsiya ishlarini olib borish usullarini takomillashtirish ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavzusidir. Ushbu tadqiqotlar diagnostika, korreksiya usullari, texnologiyadan foydalanish va fanlararo yondashuv kabi turli jihatlarini qamrab oladi. Quyida ushbu sohadagi tadqiqotlarning ba‘zi yo‘nalishlari va misollari keltirilgan:

1. Nutq buzilishi diagnostikasi bo‘yicha tadqiqotlar. Ko‘pgina tadqiqotlar nutq buzilishlarining tabiati va darajasini

mukammalroq aniqlash imkonini beradigan diagnostika vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan. Bunday ishlarga misol sifatida psixologiya va defektologiya institutlarida olib borilgan tadqiqotlar, turli patologiyalari bo'lgan bolalarda nutq funksiyalarini baholash uchun yangi testlar va usullar yaratish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni keltirish mumkin.

2. Innovatsion texnologiyalarning korreksiya va rehabilitatsiya ishlariga ta'siri. Nutqni tuzatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud. Masalan, logopediya simulyatorlari va mobil ilovalardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday vositalar rehabilitatsiya jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin. Xususan, milliy va xorijiy mualliflarning asarlari bolalarda to'ldirilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR)ga asoslangan dasturlarning bolalarda nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

3. Fanlararo yondashuvning samaradorligi. Nutq buzilishlarini tuzatishga jamoaviy yondashuv bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tuzatish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda turli xil profildagi mutaxassislar (logopedlar, psixologlar, defektologlar va tibbiyot xodimlari) ishtirok etishi yaxshi natijalarga olib keladi. Masalan, inklyuziv ta'lim dasturlari doirasida olib borilayotgan ishlar nutq terapiyasi yordamini psixologik yordam va pedagogik korreksiya bilan birlashtirish samaradorligini tasdiqlaydi.

4. Individuallashtirish va shaxsiylashtirilgan dasturlar. Shaxsiylashtirilgan korreksiya dasturlari bo'yicha tadqiqotlar individual yondashuv nutq buzilishini to'g'rilash natijalarini yaxshilashi mumkinligini o'rganadi. Bunday ish ko'pincha buzilish turiga va bolaning shaxsiy xususiyatlariga qarab turli usullarning samaradorligini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Misol uchun, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning kognitiv va hissiy xususiyatlarini hisobga olgan individual dasturlar rehabilitatsiya muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

5. Art-terapiya va musiqa terapiyasidan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar. An'anaviy usullar bilan bir qatorda art-terapiya va musiqa terapiyasi kabi muqobil yondashuvlarga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohalar bolaning hissiy va motivatsion sohasiga ta'sir qilish imkonini beruvchi nutqni tuzatishning qo'shimcha vositasi sifatida o'rganilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday usullar og'ir nutq nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ayniqsa foydali bo'lishi mumkin, ular uchun standart nutq terapiyasi usullari yetarli darajada samarali bo'lmasligi mumkin.

6. Nutq buzilishlarining neyropsixologik jihatlari bo'yicha tadqiqotlar. Neyropsixologik tadqiqotlar nutq buzilishlarining asosiy miya mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar turli xil til nuqsonlari bo'lgan bolalarda miya faoliyatini o'rganish uchun MRT kabi neyrovizualashtirish usullaridan foydalanadi. Ushbu ma'lumotlar neyrofiziologik jarayonlarni tushunishga asoslangan aniqroq va samarali tuzatish usullarini ishlab chiqish uchun ishlatiladi.

Nutqda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksiya va rehabilitatsiya ishlari bo'yicha ilmiy izlanishlar davom etmoqda va ko'plab sohalarni qamrab oladi. Olimlarning asosiy sa'y-harakatlari diagnostikani takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, individual dasturlarni ishlab chiqish va fanlararo yondashuvdan foydalanishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar nutqni buzilgan bolalarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydigan yanada samarali va keng qamrovli usullarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Tadqiqot davomida adabiyotlar tahlili, taqqoslash, sabab-oqibat bog'lanishlarni aniqlash, guruhlash usullaridan foydalanildi. Tajriba-sinov

ishini tashkil etishda birinchi navbatda tarbiyalanuvchilarning darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng darsda ko'rgazmali organayzerlar, ko'rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, o'yinlar va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion-reabilitatsiya ishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Nutqning turli tomonlarini rivojlanish darajasining diagnostikasi.

2. Og'zaki nutqni rivojlantirishda buzilishlari bo'lgan bolalarni aniqlash va ularga logopediya yordami ko'rsatish.

3. Nutq buzilishlarining xususiyatlarini o'rganish va rivojlanishning murakkab nuqsonlarida ularni tuzatish.

4. Kompensatsion imkoniyatlarni aniqlash, keyingi bosqichlarda o'qitishning muvaffaqiyatini prognoz qilish.

5. Logopediya diagnostikasi va tuzatish usullarini moslashtirish.

6. Tuzatish va rivojlantirish dasturini tuzish.

7. Rehabilitatsiya markazlaridagi bolalar uchun nutq terapiyasi yordami.

Tuzatish va rivojlantirish ishlari individual, kichik guruh va guruh darslarini o'z ichiga oladi.

Korreksiya va rehabilitatsiya ishlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Raqamli texnologiyalardan foydalanish - Zamonaviy texnikaning asosiy jihatlaridan biri raqamli texnologiyalarni, masalan, nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar va ilovalarni joriy etishdir. Ushbu texnologiyalar o'rganishni shaxsiylashtirish, uni har bir bolaning ehtiyojlariga moslashtirish va real vaqt rejimida ularning rivojlanishini kuzatish imkonini beradi. Bunday dasturlarga misol sifatida nutq terapiyasi simulyatorlari kiradi, ular bolalarning motivatsiyasini oshirish uchun o'yin elementlaridan foydalanadilar.

Virtual va kengaytirilgan borliq - Korreksiya va rehabilitatsiya ishlarida virtual (VR) va kengaytirilgan borliqdan (AR) foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Bu texnologiyalar bolalarning til faolligini rag'batlantiradigan immersiv o'quv muhitini yaratib, ularga turli real hayotiy vaziyatlarda muloqot ko'nikmalarini mashq qilish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonini individuallashtirishda quyidagi yondashuv va usullar samarali hisoblanadi:

Kompleks diagnostika - Korreksiya va rehabilitatsiya ishlarini rivojlantirishning zamonaviy usullari individuallashtirish tamoyiliga asoslanadi. Buning uchun har bir tarbiyalanuvchidagi nutq buzilishlarini nafaqat buzilish darajasi va turini, balki uning kognitiv, emotsional va ijtimoiy xususiyatlarini ham hisobga olgan holda to'liq tashxis qo'yish talab etiladi. Kompleks diagnostika psixologik-pedagogik testlar, neyropsixologik tadqiqotlar va oila tarixini tahlil qilish kabi turli xil vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Shaxsiylashtirilgan korreksiya dasturlari - Olingan ma'lumotlarga asoslanib, shaxsiylashtirilgan korreksiya dasturlari tuziladi, ular nafaqat nutq terapiyasi seanslarini, balki art-terapiya, musiqa terapiyasi va boshqa usullarni ham o'z ichiga oladi. Dastur moslashuvchan bo'lishi va bolaning ehtiyojlari va taraqqiyoti o'zgarishiga moslasha olishi muhimdir.

Korreksiya-reabilitatsiya ishlarida fanlararo yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lib, u quyidagilarni nazarda tutadi:

Mutaxassislarning jamoaviy ishi - Fanlararo yondashuvdan foydalanganda korreksiya va rehabilitatsiya ishlarining samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Reabilitatsiya jarayonida nafaqat logopedlar, balki psixologlar, defektologlar, o'qituvchilar va tibbiyot xodimlari ham ishtirok etadilar. Mutaxassislarining jamoaviy ishi bola rivojlanishining barcha jihatlarini hisobga olgan holda kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi.

Oila bilan hamkorlik - Zamonaviy tendentsiyalardan biri oilani korreksiya va reabilitatsiya ishlariga faol jalb qilishdir. Ota-onalar va boshqa oila a'zolari jarayonning to'liq ishtirokchisiga aylanadi, bu esa bola uchun ham ta'lim muassasasida, ham uyda qulay muhit yaratishga imkon beradi. Oilaviy maslahat va treninglar ota-onalarga bolaning nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga samarali yordam beradi.

Mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish - Zamonaviy texnika mutaxassislarining bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab turishni talab qiladi. Muhim jihat –

malaka oshirish kurslari, seminar va konferensiyalarda ishtirok etish, hamkasblar bilan tajriba almashishni o'z ichiga olgan uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etishdir. Mutaxassislar korreksion pedagogika va logopediya sohasidagi so'nggi tadqiqotlar va ilg'or tajribalar bilan tanishishlari muhim.

**Xulosa va takliflar.** Nutq buzilishi bo'lgan o'quvchilar uchun tuzatish va reabilitatsiya ishlarini rivojlantirish usullarining zamonaviy tendentsiyalari innovatsion texnologiyalarni integratsiyalashuviga, o'quv jarayonini individuallashtirishga va fanlararo yondashuvga qaratilgan. Ushbu usullarning yangi ilmiy ma'lumotlar va bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi muhim, bu nutq buzilishlarini tuzatish va reabilitatsiya qilish muammolarini eng samarali hal qilishga imkon beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Иванова, Н.В. Современные подходы к коррекционно-реабилитационной работе с детьми с речевыми нарушениями // Логопедия и психология, 2022.
2. Петрова, М.А. Использование цифровых технологий в логопедической практике // Современные технологии в образовании, 2021.
3. Сидорова, Е.И. Междисциплинарный подход в реабилитации детей с нарушениями речи // Психология и педагогика, 2023
4. Гончарова Е.Л., Никольская О.С., Кукушкина О.И. Дети с особыми образовательными потребностями в системе понятий культурно- исторической психологии // Альманах Института коррекционной педагогики.
5. Гапурова Дилноза Таджибаевна Ривожланишида нуқсонли бўлган болаларнинг таълим олиш имкониятлари <https://interonconf.org/index.php/ger/article/download/8322/7119/6916>
6. Мўминова Лола Рахимовна, Шорахмедова Сурайё Камилловна Ривожланишида нуқсонли бўлган болалар ва ўсмирларга ҳозирги замон логопедик ёрдамни ташкил этиш: муаммолар ва ечимлар Education and innovative research 2022 у. №2,33-39
7. Шомахмудова Р.Ш. ва б. Имконияти чекланган болаларни инклюзив таълимда ўқитиш услублари. Услубий тавсиянома Т.: 2008. 90 б.
8. Якубжанова Д.Б. Бўлажак дефектологларда касбий ижодкорликни ривожлантириш технологияси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: 2017. – 54 б.



*Elyorbek XOLMIRZAYEV,*  
*Viloyat xokimligi kotibiyati mudiri*  
*E-mail: xolmirzayev@mail.ru*

*Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, p.f.d B.Abdullaeva taqrizi asosida*

## DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN TEACHING HISTORY IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS-AS A SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY

Annotation

The article examines the features of the development of creative thinking in future teachers of history in the higher education system. Psychological and pedagogical conditions for the formation of the creative potential of students are described. The feasibility of applying heuristic methods in the process of professional training of future teachers is based and its application in the organization of training has been analyzed.

**Key words:** Creative thinking, future historians, heuristic teaching methods, professional training, creativity, creative thinking, creative thinking, creative ability, creative motivation, creative environment.

## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ-КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

Аннотация

В статье рассмотрены особенности развития творческого мышления у будущих учителей истории в системе высшего образования. Охарактеризованы психолого-педагогические условия формирования творческого потенциала учащихся. Обоснована целесообразность применения эвристических методов в процессе профессиональной подготовки будущих педагогов и проанализировано их применение в организации обучения.

**Ключевые слова:** Творческое мышление, будущие историки, эвристические методы обучения, профессиональная подготовка, креативность, творческое мышление, творческое мышление, творческие способности, творческая мотивация, творческая среда.

## OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TARIX FANINI O'QITISHDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH- IJTIMOYIY -PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

Аннотация

Maqolada oliy ta'lim tizimida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Talabalarning ijodiy salohiyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik shartlari tavsiflanadi. Bo'lg'usi o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida evristik usullarni qo'llashning maqsadga muvofiqligi asoslangan va mashg'ulotlarni tashkil etishda qo'llanilishi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ijodiy tafakkur, bo'lajak tarixchilar, evristik o'qitish usullari, kasbiy tayyorgarlik, kreativlik, ijodiy tafakkur, ijodiy fikrlash, ijodiy qobiliyat, ijodiy motivatsiya, ijodiy muhit.

**Kirish.** Ta'lim masalasi muttasil tarzda zamon talablariga moslashib, fan-texnika yutuqlariga hamohang ravishda takomillashib boradigan jarayon hisoblanadi. XXI asrdagi ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlardan biri- oliy ta'lim muassasalarida talabalarning olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishlariga bo'lgan talab, DTSlari va dasturlarining takomillashirilishi, boshqacha qilib aytganda, ijodiy yondashuvning ta'lim tizimi mazmuniga singdirilishi, uning ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasini shakllantirishdan iborat[6].

Mamlakatimizda tarix fanini xalqaro malaka talablari asosida samarali o'qitish tizimini joriy etish, shu sohada raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning moddiy texnik bazasini shakllantirish, jahonning nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda malakalarini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilgan. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli, ijodiy tafakkurga ega ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish" ustuvor vazifa etib belgilangan. Natijada tarix fanini o'qitishda talablarning ijodiy

tafakkurini rivojlantirishga etarli sharoitlar yaratish imkoniyatlari rivojlanmoqda[4].

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ijtimoiy fanlarni o'qitish, ularni qay tarzda taqsimlash, o'qitish va amaliy integratsiyasini tashkil etishga qaratilgan maxsus konsepsiya ishlab chiqish zarur ehti'jga aylanib bormoqda. Yangi O'zbekistonning asosiy strategiyalaridan biri sifatida "Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida" qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehti'ji ham mavjudligi ta'kidlab o'tildi[4]. Bu yo'nalishda Sh.Mirziyev tomonidan "2022-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi" yaratilishi va amalga oshirilishi [2] tavsifiya etildi. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqi'et strategiyasining "Ma'naviy taraqqi'etni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishida " Tarix fanini o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirish" vazifasi belgilangan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Dunyoda hech bir xalq yoki millat yo'qki, o'zining milliy va betakror tarixi bo'lmasa, shunday ekan har bir millat va xalq o'z tarixini yaratishga va uni avaylab asrashga va kelajak avlodga qanday

bo'lsa shundayligicha qoldirishga harakat qiladi. Bunda ayniqsa oliy ta'limning o'rni katta hisoblanadi. Ta'lim jarayonida esa tarix fanini o'qitish, unda milliy asosga tayanish, xalqimizning ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehmondo'stlik kabi an'analari, andishalilik, iymon-insof, mehr-oqibat, or-nomus kabi fazilatlarini chuqur o'rganish va ularni yoshlar qalbiga singdirish asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan. Insoniyat tarixi uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot bosqichlaridan iborat bo'lib, insoniyat tomonidan qilingan o'zgarishlar natijasida ma'naviy-madaniy yuksalish darajasiga ko'tariladi. Ma'lumki, mamlakatimiz hududi insoniyat qadim zamonlardan buyon yashab kelgan makonlardan biri hisoblanadi. Vatanimiz tarixining har bir varag'i biz uchun qadrlil manbadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan engib o'tishga qodir, deb baralla aytishga to'la asos beradi"[1]. Shunday ekan bugungi kun yosh avlodga milliy tariximizni etkazish va ularda faxr hissini uyg'otish har birimizning Vatan va xalq oldida burchimiz bo'lishi kerak. Bugungi kunda tarix darsiga qo'yiladigan zamonaviy talablarning oshishi, dars turlarining rang-barangligi, tarixiy manbalarga e'tiborning kuchayishi, zamonaviy pedagogik hamda axborot kommunikasiya texnologiyalarining kundalik ehtiyojga aylanishi bugungi ta'limning asl manzarasidir. Qolaversa, ta'lim samaradorligiga bo'lgan e'tiborning zaruratga aylanishi jarayonida tarix fanini chuqur o'rganish, yoshlarni o'tmishimizning boy madaniy va ma'naviy merosi, jahon ilmiy tafakkuri va madaniyatiga qo'shgan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan faxrlanish, milliy iftixor ruhini singdirishga yordam beradi. Buning uchun eng avvalo tarix darsi bilan bog'liq bo'lgan o'quv jarayonida ijodkorlik muhitini vujudga keltirish va talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish lozim. Talaba tarixiy voqea-hodisalar, tarixiy sahna-manzaralarni chuqur anglashi uchun unda ijodkorlik ruhini uyg'otish va ijodiy tafakkurini rivojlantirish yo'llarini izlash kerak. Aks holda mavhum tasavvur bilan yoki yodlattirish usuli orqali o'rgatishga o'xshagan metodlar zamon talabiga mutlaqo javob bermaydi. Yana bir muhim omil, talabalar faoliyatini muayyan tartib asosida tashkil etish, ya'ni oldingi darslarda o'tilgan mavzularni keyingi darslar mazmuni bilan muntazam tarzda iloji boricha uzviyilgini izlab topish zarur.

Albatta, har bir pedagog uchun muhimroq bo'lgan yana bir omil – tarix darslarida tabalar jamoasi orasida o'zaro do'stona muhitni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorlik ruhini uyg'otish va ijodiy tafakkurini rivojlantirish deganda nima nazarda tutiladi? Bunda tarix darsida qo'llaniladigan ijodiy topshiriqlar orasida tarixning ma'lum bir mavzularida ijodiy ishlarni yozish muhim o'rin egallaydi. Ijodiy ish yozdirish orqali bir vaqtning o'zida o'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirish, tarixiy sanalar, voqealar, shaxslar va tarixiy joylarni tasavvur qilib, uni yozma ifoda etish ijodiy hamda tarixiy tafakkur shakllantiriladi. Tarix darslarida talabalar faolligini oshirish maqsadida o'qituvchi albatta yana bir jihat – auditoriyadagi muhitni to'g'ri baholashni inobatga olishi kerak. Aynan shu o'rinda dars mazmunidan kelib chiqib muammoli vaziyatni yuzaga keltirish maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini fuqarolarining qadriyat yo'nalishlarini, o'z faoliyatini xalqaro va mahalliy tajribaga muvofiq qurish qobiliyatini, undagi an'analar va yangiliklarning nisbatlarini hisobga olishni belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dunyoda hech bir xalq yoki millat yo'qki, o'zining milliy va betakror tarixi bo'lmasa,

shunday ekan har bir millat va xalq o'z tarixini yaratishga va uni avaylab asrashga va kelajak avlodga qanday bo'lsa shundayligicha qoldirishga harakat qiladi. Bunda ayniqsa oliy ta'limning o'rni katta hisoblanadi. Ta'lim jarayonida esa tarix fanini o'qitish, unda milliy asosga tayanish, xalqimizning ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehmondo'stlik kabi an'analari, andishalilik, iymon-insof, mehr-oqibat, or-nomus kabi fazilatlarini chuqur o'rganish va ularni yoshlar qalbiga singdirish asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan. Insoniyat tarixi uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot bosqichlaridan iborat bo'lib, insoniyat tomonidan qilingan o'zgarishlar natijasida ma'naviy-madaniy yuksalish darajasiga ko'tariladi. Ma'lumki, mamlakatimiz hududi insoniyat qadim zamonlardan buyon yashab kelgan makonlardan biri hisoblanadi. Vatanimiz tarixining har bir varag'i biz uchun qadrlil manbadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan engib o'tishga qodir, deb baralla aytishga to'la asos beradi" [1]. Shunday ekan bugungi kun yosh avlodga milliy tariximizni etkazish va ularda faxr hissini uyg'otish har birimizning Vatan va xalq oldida burchimiz bo'lishi kerak. Bugungi kunda tarix darsiga qo'yiladigan zamonaviy talablarning oshishi, dars turlarining rang-barangligi, tarixiy manbalarga e'tiborning kuchayishi, zamonaviy pedagogik hamda axborot kommunikasiya texnologiyalarining kundalik ehtiyojga aylanishi bugungi ta'limning asl manzarasidir. Qolaversa, ta'lim samaradorligiga bo'lgan e'tiborning zaruratga aylanishi jarayonida tarix fanini chuqur o'rganish, yoshlarni o'tmishimizning boy madaniy va ma'naviy merosi, jahon ilmiy tafakkuri va madaniyatiga qo'shgan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan faxrlanish, milliy iftixor ruhini singdirishga yordam beradi. Buning uchun eng avvalo tarix darsi bilan bog'liq bo'lgan o'quv jarayonida ijodkorlik muhitini vujudga keltirish va talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish lozim. Talaba tarixiy voqea-hodisalar, tarixiy sahna-manzaralarni chuqur anglashi uchun unda ijodkorlik ruhini uyg'otish va ijodiy tafakkurini rivojlantirish yo'llarini izlash kerak. Aks holda mavhum tasavvur bilan yoki yodlattirish usuli orqali o'rgatishga o'xshagan metodlar zamon talabiga mutlaqo javob bermaydi. Yana bir muhim omil, talabalar faoliyatini muayyan tartib asosida tashkil etish, ya'ni oldingi darslarda o'tilgan mavzularni keyingi darslar mazmuni bilan muntazam tarzda iloji boricha uzviyilgini izlab topish zarur. Albatta, har bir pedagog uchun muhimroq bo'lgan yana bir omil – tarix darslarida tabalar jamoasi orasida o'zaro do'stona muhitni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorlik ruhini uyg'otish va ijodiy tafakkurini rivojlantirish deganda nima nazarda tutiladi? Bunda tarix darsida qo'llaniladigan ijodiy topshiriqlar orasida tarixning ma'lum bir mavzularida ijodiy ishlarni yozish muhim o'rin egallaydi. Ijodiy ish yozdirish orqali bir vaqtning o'zida o'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirish, tarixiy sanalar, voqealar, shaxslar va tarixiy joylarni tasavvur qilib, uni yozma ifoda etish ijodiy hamda tarixiy tafakkur shakllantiriladi. Tarix darslarida talabalar faolligini oshirish maqsadida o'qituvchi albatta yana bir jihat – auditoriyadagi muhitni to'g'ri baholashni inobatga olishi kerak. Aynan shu o'rinda dars mazmunidan kelib chiqib muammoli vaziyatni yuzaga keltirish maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini fuqarolarining qadriyat yo'nalishlarini, o'z faoliyatini xalqaro va mahalliy tajribaga muvofiq qurish qobiliyatini, undagi an'analar va yangiliklarning nisbatlarini hisobga olishni belgilaydi.

**Tadqiqotda qo'llanilgan usullar.** Tadqiqot jarayonida muammoga doir siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish; pedagogik kuzatish; sotsiologik-pedagogik (kuzatish, suhbat, anketa, so'rovnom); pedagogik eksperiment; monitoring; natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Respublikamizda talabarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalalari bo'yicha B.Abdullaeva, G.Boymurodova, R.Ibragimov, M.Jumayev, U.Masharipova, S.Matchanov, Sh.Yo'ldosheva, S.Usmonov, A.Sadikova, M.Toshpulatova, M.Hamdamaovalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ta'lim jarayonini axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil qilish muammolari A.Abduqodirov, G.Asilova, U.Begimkulov, S.Bulatov, M.Mamarajabov, D.Mamatov, X.Muxitdinova, S.Rahmonqulova, N.Taylaqov, S.Tursunov, T.Shoymardonov, H.Qodirov, G.Ergashevalar tomonidan tadqiq qilingan.

Bo'lajak o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning turli jihatlarini xorijiy davlat olimlari B.Andersen, M. Burns, N.Chomsky, M.Henderson, J.Jarmul, F.Cartan, M. Grammont, P.Leon, A.Martinet, T.Muras, S.Mishra, G.Romeo va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Uzlaksiz ta'limda tarix fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha, xususan, bo'lajak tarix o'qituvchilarining o'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayirlash va uslubiy tayergarlik ishlari O.Davlatov, A.Ismoilov, Q.Shonazarov, R.Yarmatov va boshqa olimlar ishlarida keltirib o'tilgan. Respublikamiz maktablarida tarix o'qitish metodikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar va uslubiy qo'llanmalar T.Toshpulatov, N.Remeev, Ya.G'afforov ishlarida keltirilib o'tilgan[5]. Shu bilan birga bir qator etakchi olimlarimiz, A.Asqarov, R.Muqminova, H.Bobobekov, A.Muhammadjonov va boshqalar tomonidan umumiy o'rta ta'limda tarix fanlarini o'qitish va bu jaraenlarni takomillashtirish bilan bog'liq bir qator ishlar alohida ahamiyatga ega[6]. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida P.G.Kulagin, O.I.Baxtina, N.I.Vorjeykina,

N.I.Zaporojes, A.G.Koloskov, A.A.Vagin, E.F.Golovkina kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari va qo'llanmalarida tarix o'quv fanlarida fanlararo, kurslararo, fanlar ichidagi aloqalarning ahamiyati, uni amalga oshirish yo'llari, vositalari, usul va shakllari xususida ilmiy fikrlar baen qilingan [7]. Tadqiqot doirasida, eng avvalo, muammoning asosiy tushunchalari – "ijod", "ijodkorlik", "pedagogik ijodkorlik", "kasbiy ijodkorlik" kabilarning mazmun-mohiyatini aniqlashtirishga e'tibor qaratildi.

Ijod deganda keng ma'noda shaxs yoki jamiyatning tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy olamni insonning maqsad va vazifalariga, uning ehtiyojlari, istaklari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda o'zgartirish borasidagi bunyodkor faolligi tushuniladi. Uzoq vaqtlar davomida ijod –insonga tabiat in'om etgan noyob qobiliyat, u har kimga ham berilmaydi, deb hisoblanib kelingan. Aslida ijod – bu insonning moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish faoliyati bo'lib, unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati va irodasi faol ishtirok etadi hamda unda butun bilimi, tajribasi va iste'dodi namoyon bo'ladi[141]. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida ijod – yaratish, kashf etish; vujudga keltirish ma'nolarini anglatib, badiiy, ilmiy, san'atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati hamda yaratuvchilik faoliyati mahsuli, samarasi ekanligi qayd etib o'tilgan [1].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, Ijodiy tafakkur – kasbiy faoliyatda o'zini o'zi namoyon etishning yuksak shakli bo'lib, unda tarixchining jismoniy va psixologik imkoniyatlari to'liq namoyon bo'ladi. Aniqroq aytganda, natijasi ham sub'ektiv, ham ob'ektiv ijtimoiy ahamiyatga ega moddiy va ma'naviy qadriyatlarini yaratish bilan bog'liq mustaqil, nostandart faoliyatda namoyon bo'ladi. Ijodiy tafakkur bo'lajak tarixchini izlanishga doir faoliyati sifatida uzoq muddatli tayyorgarlikni, ijodiy motivatsion faollik va yo'nalganlikni; yuqori intellektni; original fikrlashni; muammoni hal etishga nisbatan yuqori darajadagi qobiliyatlilik va mustaqillikni; o'zini o'zi tashkillash va o'zini o'zi adekvat baholash malakasining mavjudligini taqozo etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Давыдов В. Теория развивающего обучения // В.Давыдов. - М.: ИНТОР, 1996. - 544 с.
2. Психологические аспекты профессионально-технического образования и трудового воспитания школьников: Сборник научных трудов / Отв. ред. М.Г. Давлетшин. Ташкент: ГППИ, 1986
3. Лернер И.Я. Поисковые задачи в обучении как средство развития творческих способностей // Научное творчество. - М.: Наука, 1969. — 415 с.
4. Матюшкин А. М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. - М.: Педагогика, 1972. — 208 с.
5. Махмутов М. И. Проблемное обучение. — М.: Педагогика, 1975. — 210 с.
6. Safarova R G'. R.H. Jo'raev "Pedagogika Ensiklopediya" "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti.Toshkent - 2015.
7. G'oziev E.G. Psixologiya. Yosh davrlar psixologiyasi. –T.: O'qituvchi, 1994. -223b.
8. Жарова Л.В. Учит самостоятельности : Кн. для учителя : [Пособие для студентов пед. ин-тов и учителей] / Л. В. Жарова. - М. : Просвещение, 1993. - 203,[2] с.; 20 см.; ISBN 5-09-003662-4 : Б. ц.



UDK:1300 (02)

**Go'zal XUSAYINOVA,**  
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: xusayinovaguzal13@gmail.com

Namangan davlat pedagogika instituti t.f.d., dotsenti Sh.Xudoyqulov taqrizi asosida

## DIDACTIC CONDITIONS FOR IMPROVEMENT OF STUDENTS' FOLK CRAFT SKILLS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation

The issues of development of folk craft skills by further improving the content of the lesson with the help of interactive methods and digital didactic tools in technology lessons are highlighted.

**Key words:** Digital tool, didactic conditions, national crafts, technology and tools, methods, types of crafts.

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ НАРОДНОГО ПРОМЫСЛА СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация

Освещены вопросы развития навыков народного промысла путем дальнейшего совершенствования содержания урока с помощью интерактивных методов и цифровых дидактических средств на уроках технологии.

**Ключевые слова:** Цифровой инструмент, дидактические условия, народные промыслы, технология и орудия, методы, виды ремесел.

## RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA O'QUVCHILAR XALQ HUNARMANDCHILIGI KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Аннотация

Texnologiya fani darslarini interfaol metodlar va raqamli didaktik vositalar yordamida darsning mazmun mohiyatini yanada takomillashtirish orqali xalq hunarmandchilik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli vosita, didaktik sharoit, milliy hunarmandchilik, texnologiya va vosita, metodlar, hunarmandchilik turlari.

**Kirish.** Mamlakatimizda ta'lim sohasini yanada rivojlantirish maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya A to'g'risida"gi PF-6079-son qarori qabul qilingan [1].

Qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasining 2.5-bandi 3-qismida ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida bir qator tadbirlar belgilangan:

ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lami raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;

yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish;

o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish;

raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirish maqsadida umumta'lim maktabi o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun sharoit yaratish;

texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish;

oliy ta'lim muassasalarida tegishli sohalarida "Buyumlar interneti", robototexnika, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish bo'yicha laboratoriyalar, shuningdek, xorijiy korxonalarini ushbu sohaga jalb qilishni tashkil qilish;

qog'oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanish bo'yicha davlat yagona talabini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash orqali ta'limda o'quv materiallarini raqamlashtirish;

maktabgacha, o'rta va oliy ta'lim tizimi uchun elektron ta'lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta'lim resurslaridan foydalanishni ta'minlash.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar dunyoning ko'plab mamlakatlarida rivojlanib, ta'lim jarayoni va uning samaradorligini oshirishdagi ahamiyati oshib bormoqda.

Jumladan, Ketrin Treysi Farley o'zining "Raqamli davrda o'qitish samaradorligi: Kompyuterlashtirilgan texnologiyalar, o'yin texnologiyalarini takomillashtirish usullari va interaktiv o'quv jarayonlari" mavzusidagi diktorklik dissertatsiyasida amaliy bajarish orqali ko'nikmalar shakllantirishga ixtisoslashgan fanlarni o'qitish jarayonida nafaqat pedagogik balki raqamli texnologiyalardan foydalanishning samarali yo'llari haqida to'xtalib o'tgan. U – "Mening fikrimcha, texnologiya vositalari va improvizatsiya usullarini o'zaro birlashtirish teng huquqli ta'limni ta'minlash, kichik guruhlarda ishlayotgan a'zolar o'rtasida samaradorlik va birdamlikni oshirishga, o'quvchilar tashabbuskorligiga, ya'ni vakolat, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarishga asoslangan o'qitish uslubini yaratishga olib keladi" [2].

Hozirda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi texnologiya fanini o'qitilishi va o'quvchilarda milliy xalq hunarmandchiligi ko'nikmalarini takomillashtirishda o'qitishning turli didaktik vositalari, interfaol metodlaridan foydalanib kelinmoqda.

O'qitish metodlari o'qituvchining o'quvchilar bilan muayyan maqsadlarga erishish yo'lidagi faoliyatidan tarkib

topgan pedagogik jarayonni muvofiqlashtiruvchi subyekt bo'lib, nimani kimga, qanday va qancha o'rgatish zarurligi haqidagi masalalarni yechib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish, ularning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, o'zaro muloqot qilishlari uchun qo'llaniladigan shakl va metodlarni mos ravishda tanlash ularda ko'nikmalarni yanada takomillashtirishda o'z samarasini beradi.

Shu sababli ta'lim berish tizimini takomillashtirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada texnologiya fani darslarida ham o'quvchilar ma'lum hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari kerak.

Bir qator xorijlik olimlar tomonidan, jumladan, V.P.Bespalko, B.L.Farberman, L.K.Geyxman, M.V.Klarin, T.V.Perevalovalar, Y.G.Repyevlar tomonidan o'qitishning interfaol metodlarini takomillashtirish va o'quvchilarga o'tiladigan darslarning qiziqarli bo'lishi uchun nimalar qilish kerakligi haqida ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilgan.

Mamlakatimiz olimlari, tadqiqotchilari, jumladan, N.Azizxo'jayeva, L.V.Golish, R.Ishmuhamedov, I.Karimov, N.A.Muslimov, N.Saidahmedov, O.Tolipov, J.Tolipova, va boshqalar tomonidan o'qitishning turli shakllari, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish masalalari bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Bulardan N.Azizxo'jayeva, N.Saidahmedov, O.Tolipov va boshqalar tomonidan ta'lim jarayonida ta'lim (o'qitish) texnologiyalaridan foydalanishning umumiy didaktik va ba'zi uslubiy asoslari belgilab berilgan.

Mamlakatimizda Texnologiya fanini o'qitishni rivojlantirish va bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari bo'yicha O.Abduquddusov, SH.S.Abduraimov, O.Avazboyev, K.Davlatov, B.Doniye, P.T.Magzumov, N.A.Muslimov, D.N.Mamato, R.G.Mullaxmetov, B.U.Olimov, O.A.Qo'ysinov, E.Ro'ziyevlar ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kreativlikni rivojlantirish A.A.Abduqodirov, N.N. Azizxo'jayeva, A.R.Aripjanova, U.SH.Begimqulov, R.X.Jo'rayev, N.A.Muslimov, G.N.Ibragimova va boshqa ko'plab vatanimiz olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Ta'lim jarayonini tashkil qilishda o'qitishning interfaol metodlari, o'qitishning turli shakllari hamda o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish masalalariga oid quyidagi bir necha tahlillarni keltirib o'tmoqchimiz.

Respublikamizda ta'lim jarayoniga o'qitishning turli shakllari, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilgan. Natijada bu sohada bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, monografiya va boshqa qo'llanmalar yuzaga keldi. Bularga, jumladan, M.Ochilovning "Yangi pedagogik texnologiyalar", B.L.Farbermanning "Ilg'or pedagogik texnologiyalar", B.Ziyomuhamedov va boshqalarning "Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot", N.Saidahmedovning "Yangi pedagogik texnologiyalar, J.Yo'ldoshev va S.Usmonovning "Pedagogik texnologiya asoslari" kabi qo'llanmalari; O.Tolipov va M.Usmonboyevaning "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot" nomli monografiyasi, O.Tolipov va M.Usmonboyevaning "Pedagogik texnologiyalarning tabiiy asoslari" nomli o'quv qo'llanmasi va boshqa shu kabi adabiyotlarni kiritish mumkin.

Professor O.Q.Tolipovning "Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari" mavzusidagi tadqiqot ishida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishga e'tiborning qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Muallif ma'lum darajada interfaol

o'qitish metodlarini ta'lim jarayoniga tadbiqiga e'tibor qaratgan [3].

A.A.Abduqodirov o'qituvchilar tayyorlash jarayonining ma'ruza, amaliy, laboratoriya va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini jadallashtirishda kompyuterlardan foydalanish muammosini tadqiq etgan. Olimning fikricha, ta'limning an'anaviy va noan'anaviy shakllarini uslubiy jihatdan to'g'ri moslashtirilishi natijasida ma'ruza, amaliy ishlar, laboratoriya mashg'ulotlari hamda hozirgi kunda dolzarb bo'lgan mustaqil ta'lim mashg'ulotlarining mazmunini talabalar tushunishlari va eslab qolishlariga ko'proq imkoniyat yaratuvchi, ijodiy, tanqidiy tafakkurlarini rivojlanishiga yordam beruvchi shaklda bayon etish mumkin [4].

Texnologiya fanini umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilishi va bu yo'nalishda bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari bo'yicha professorlar N.A.Muslimov, SH.S.Sharipov, va O.A.Qo'ysinovlarning "Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash" nomli darsligida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9 sinflari uchun mehnat ta'limining maqsadi va vazifalari, Davlat ta'limi standartlari mazmuni tamoyillarining uzluksiz holati yoritilgan. Umumiy ta'lim maktablarida asos qilib tanlangan "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati" va "Qishloq xo'jaligi asoslari" yo'nalishlari ishlab chiqarish bilan o'yg'unlashtirilgan holatda o'z aksini topgan [5].

O'zbek xalqi o'zining qadimiy xalq hunarmandchiligi bilan dunyoga mashhurdir. Hunarmandchilik buyumlarini yasash san'ati halqimiz ijodining eng qadimiyalaridan hisoblanadi. Bu nodir xalq hunarmandchiligi me'moriy yodgorliklar, ganch, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlikda, shuningdek, misgarlik, zargarlik, kulolchilik, gilamdo'zlik, ipak va ip gazlamachiligi, zardo'zlik, kashtachilik va ko'plab boshqa amaliy san'at turlarida o'z namunalarni caqlab qolgan. Bugungi kunda yuksak va noyob san'at durdonalari darajasiga ko'tarilgan bu bebaho merosimizni ko'rib butun dunyo lol qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 14-sentabr kuni o'tkazilgan birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilish marosimidagi nutqida davlat rahbarimiz: "Chinakam hunar sohibi – u kulol bo'ladimi, kandakor yoki to'quvchi bo'ladimi, naqqosh yoki zargar bo'ladimi – o'z ishini a'lo darajada bajarish uchun juda ko'p ilmlardan, avvalo, kimyo, biologiya, tibbiyot, fizika, geometriya, astronomiya, tarix, falsafa kabi fanlardan xabardor bo'lishi, ularni amalda qo'llay bilishi zarur. Shu borada birgina misol keltirmoqchiman.

Butun dunyoga mashhur bo'lgan milliy kashtachilik san'atimiz, qadimiy so'znanalarimizdagi sirli, mo'jizali, ilohiy naqqoshlar, ranglar jilosi zamirida falakkiyot ilmi, kosmogonik tasavvurlar mujassam ekani har qanday odamni ham hayratga soladi" – deb ta'kidlagan [2].

O'zbekistonda ilk bor o'tkazilayotgan Xalqaro hunarmandchilik festivali uchun aynan Qo'qon shahri tanlangani albatta, bejiz emas. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan bu qadimiy shahar haqli ravishda "oltin vodi" deb nom olgan go'zal Farg'ona vodiysining gavharidir.

Ikki ming yillik shonli tarixga, so'lim tabiatga ega, qancha-qancha buyuk voqealarga guvoh bo'lgan Ho'qandi latif milliy davlatchilik, ilmu hunar, san'at va adabiyot ravnaqining yorqin timsolidir.

Jahon hunarmandlar kengashi tomonidan Qo'qon shahriga "Jahon hunarmandlari shahri" degan yuksak unvon berildi. Ya'ni, Qo'qon shahri dunyo hunarmandchilik xaritasida ham munosib va mustahkam o'rin egalladi.

Qo'qon shahri Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida birinchi bo'lib ushbu ro'yxatga kiritilganini biz mamlakatimizda xalq amaliy san'atini rivojlantirishga



qaratilgan ishlarimizga xalqaro miqyosda berilgan katta baho, deb qabul qilamiz.

Kuni kecha Jahon hunarmandlar kengashining Osiyo – Tinch okeani mintaqasi prezidenti Gada Hijobiy Qaddumiy xonim Qo'qon shahriga ana shu guvoynomani tantanali ravishda topshirdi [2].

Bugun mamlakatimizda xalq hunarmandchilikka yoshlarni jalb qilish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz hududlarining madaniy yuksalishi, xalq hunarmandchiligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq va samarali chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Shuningdek, mamlakatimizda xalq hunarmandchiligini yanada rivojlantirish va o'quvchilarga o'rgatish bilan bog'liq masalalarga oid ko'plab olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, S.Bulatov, I.Karimov, Q.Qosimov, O.Xudoyorova, A.Turdialiyev, R.Sarsenbayeva, D.Zohidova, O.Jamoliddinova va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida o'quvchilarni badiiy ijodkorlik va loyihalashga o'rgatish, umumiy o'rta ta'lim maktablari yoki kasb-hunar to'garaklarida amaliy san'at, badiiy san'at turlari, xalq hunarmandchiligi sohasini o'rgatishning ta'limiy asoslarini tadqiq qilishgan [7].

S.Bulatov, o'z ilmiy tadqiqot ishida o'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlaridan ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, kashtachilik, gilamchilik kabi hunarlarning tarixi, rivojlaiish yo'llari, shu sohalardagi ustalar uslublari, shuningdek, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Xiva, Shahrisabz hunarmandchilik maktablari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berdi [8].

Q.Qosimovning "Naqqoshlik" nomli qo'llanmasida umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi badiiy naqqoshlik to'garagining o'ziga xos xususiyatlari, vazifalari, to'garaklarda o'quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalash hamda to'garak mashg'ulotlarini o'tkazishning mazmuni va metodikasi yoritilgan [9].

R.Sarsenbayevaning "Xalq hunarmandchiligidan o'quvchilar mehnat uyushmasi faoliyatini tashkil etish" nomli metodik qo'llanmasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi qizlar xalq hunarmandchiligining kashtachilik va pazandachilik sohalari bo'yicha o'qitiladigan "O'quvchilar mehnat uyushmasi" faoliyati mazmunini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan [10].

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan ilmiy tahlillarni biz uch guruhga:

1. Ta'lim jarayonini tashkil qilishda o'qitishning interfaol metodlari, o'qitishning turli shakllari hamda o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish masalalari.

2. Texnologiya fanini umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilishi va bu yo'nalishda bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (Lex.uz).
2. Мирзиёев Ш.М. "Хунармандчиликнинг пайдо бўлиши цивилизация сари ташланган муҳим тарихий кадам". – Қўқон, 2019. // 2019-йил 14-сентябрь куни Қўқон шаҳрида биринчи халқаро хунармандчилик фестивалининг тантанали очилиш маросимидаги нутқи (<https://president.uz/uz/lists/view/2863>).
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.
4. Толипов Ў.К. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий кўникма ва малакаларини ривожлантиришнинг педагогик технологиялари. Пед. фан. док. дисс. – Тошкент: Т.Н.Қори-Ниёзий номидаги Ўзб. пед. фан. илм.-тад. инст., 2004. – Б. 8
5. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: "Universitet", 2019. – 232 b.
6. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Q'ysinov O.A. Mehnat ta'limi y'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. – Toshkent: Ўzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. – B. 456.
7. Matkarimov A.M., Xusayinova G.A. "Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash". Darslik. – Toshkent: "Fan va Ziyo", 2023.-337 б.
8. Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий санъати. –Т.: Мехнат, 1991.-384 б.
9. Қосимов Қ. Наққошлик. – Тошкент., "Ўқитувчи", 1990.-160 б.
10. Сарсенбаева Р.М. "Халқ хунармандчилигидан ўқувчилар меҳнат уюшмаси фаолиятини ташкил этиш". // Методик қўлланма. – Тошкент. РТМ, "Зиё-чашмаси", 2000.-32 б

3. Xalq hunarmandchiligini yanada rivojlantirish va o'quvchilarga o'rgatish bilan bog'liq masalalariga ajratgan holda tahlil qilib chiqdik.

Ushbu tahlillar va amalga oshirilgan tadqiqot ishlari natijalaridan ko'rinadiki, Texnologiya fanini rivojlantirish, fan negizida o'qitilayotgan xalq hunarmandchiligi sohasini o'quvchilarga o'rgatish, bu sahalarga oid ish usullari bilan tanishtirish, o'quvchilarni kasb-hunarlariga yo'llash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq, mamlakatimizda ta'lim sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy qilish asosida yangilashni nazarda tutadigan ishlar jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan davrda Texnologiya fanini rivojlantirish, fan negizida o'qitilayotgan xalq hunarmandchiligi sohasiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga o'rgatish bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan.

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilar xalq hunarmandchiligi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik shart-sharoitlarini tadqiq qilishda quyidagi jihatlariga e'tibor berish lozim:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan Texnologiya fani negizida o'quvchilarga o'rgatilayotgan xalq hunarmandchiligi sohasini fanning o'quv reja va dasturlariga kiritish lozim.

2. Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda xalq hunarmandchiligi ko'nikmalarini raqamli texnologiyalar asosida o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliyl va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamlil raqamli transformatsiya sharoitida ularga bilim va ko'nikmalar berish lozim;

3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun xalq hunarmandchiligi sohasiga oid elektron ta'lim resurslarini yanada takomillashtirish kerak bo'ladi.

4. Milliy, mahalliy va hududiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'quvchilar faol ishtirok etadigan, yog'och o'ymakorligi, yog'ochdan xalq hunarmandchiligi mahsulotlarini tayyorlash, metall va tunukadan buyumlar yasash, kandakorlik, misgarlik buyumlarini tayyorlash, zargarlik, pichoqchilik, mayda haykaltaroshlik buyumlarini tayyorlash, zardo'zlik, an'anaviy do'ppichilik, kashtachilik, quroqchilik, to'quvchilik kabi sohasini tanlab olib ularni o'qitishda jarayonida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishni rivojlantirish lozim.

Xalq hunarmandchiligi sohasini raqamli ta'lim vositalaridan foydalanib o'rgatishda mamlakatimizning har bir hududida mavjud hunarmandchilik maktablarining milliy, ma'naviy, madaniy meroslaridan, qadriyatlaridan, tarixiy yutuqlaridan foydalanish, xalq ustalarining an'anaviy ish usullarini o'rganish, didaktik shart-sharoitlarni belgilash barcha izlanishlarning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.



УДК:372.881.161.1

Ян ЦЗИН

E-mail: yj1qm2020@163.com

Старший преподаватель института иностранных языков Синьцзянского университета КНР, Урумчи, Китай  
аспирант Государственного института русского языка им. А.С.Пушкина, Москва, Россия

Teacher of Xinjiang University, Urumqi, China Post-graduate student of Pushkin State Russian Language Institute, Moscow, Russia

## ОСОБЕННОСТИ КИТАЙСКИХ СЛОВАРЕЙ И ИХ ФУНКЦИОНАЛЬНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ В КИТАЕ

Аннотация

В данной статье анализируются и обобщены различные русско-китайские и китайско-русские бумажные и электронные словари в Китае, их преимущества и недостатки, дана оценка и перспектива их применения и функциональности в формировании речевой компетенции русского языка китайских студентов-филологов. Описаны возможности их применения в процессе обучения иностранному языку. Даны методические рекомендации по выбору и использованию электронных словарей студентам и преподавателям.

**Ключевые слова:** Бумажные словари, электронные словари, обучение русскому языку в Китае, речевая компетенция, китайские студенты-филологи.

## FEATURES OF CHINESE DICTIONARIES AND THEIR FUNCTIONALITY IN THE FORMATION OF SPEECH COMPETENCE OF THE RUSSIAN LANGUAGE AMONG PHILOLOGY STUDENTS IN CHINA

Annotation

This article analyzes and summarizes various Russian-Chinese and Chinese-Russian paper and electronic dictionaries in China, their advantages and disadvantages, evaluate their application and functionality in teaching Russian to Chinese philology students. Described their possibilities in the process of teaching a foreign language. Given methodological recommendations for the selection and use of electronic dictionaries to students and teachers.

**Key words:** Paper dictionaries, electronic dictionaries, teaching Russian in China, speech competence, Chinese philology students.

## XITOIY LUG'ATLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNING XITOIYDA FILOLOGIYA TALABALARI O'RTASIDA RUS TILINING NUTQ KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDAGI FUNKTSIYALARI

Аннотация

Ushbu maqolada Xitoydagi turli xil ruscha-xitoycha va xitoycha-ruscha qog'oz va elektron lug'atlar, ularning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi va umumlashtiriladi, xitoy filologiyasi talabalarining rus tilining nutq kompetensiyasini shakllantirishda ularning qo'llanilishi va funktsionalligi bahosi va istiqbollari ko'rsatilgan. Chet tilini o'qitish jarayonida ulardan foydalanish imkoniyatlari tavsiflanadi. Talaba va o'qituvchilarga elektron lug'atlarni tanlash va ulardan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qog'oz lug'atlar, elektron lug'atlar, Xitoyda rus tilini o'qitish, nutq kompetensiyasi, xitoy filologiyasi talabalari.

**Введение.** Словари являются основным инструментом для переводчиков, лингвистов, студентов и преподавателей в изучении иностранных языков. Сейчас существует множество вариантов словарей, от традиционных печатных словарей до современных электронных словарей, которые каждый может сам выбрать для своей работы. Цель нашей работы в том, чтобы разобраться в русско-китайских и китайско-русских электронных и бумажных словарях в Китае и их функциональности в формировании речевой компетенции студентов-филологов в Китае. Работа со словарями, и бумажными и электронными, имеет большое значение не только потому, что совершенствуется владение речевой компетенцией как средством общения, но и способствует развитию самостоятельного мышления у студентов-филологов, формированию определенных умений и навыков, необходимых в дальнейшей профессиональной деятельности.

**Главная часть.** Словарь – собрание слов (обычно в алфавитном порядке), устойчивых выражений с пояснениями, толкованиями или с переводом на другой язык[1]. Роль словарей в изучении иностранного языка

несомненна. В конце 1950-х годов американский лексиколог Clarence Barnhart провел анкетный опрос среди 50 000 студентов в 100 университетах США. Это исследование считается началом исследования использования словарей[2]. Виноградова М. В в своей работе[3] обсуждались принципы создания учебного словаря глаголов речи, определить структуру словарной статьи, а также объем и состав данной группы глаголов, выявились основные грамматические, морфологические, синтаксические и стилистические характеристики данных глаголов. Анощенко Я.В.[4]рассказал о использовании лингвистических словарей общей лексики и словарей терминологическими в обучении иностранному языку в неязыковом вузе. Для работы с печатным изданием словаря необходимо сначала ознакомиться с его структурой и особенностями. Так студентам будет легче ориентироваться в нем. В то время он указал, что электронные словари ничем не уступают печатным справочникам. В большинстве случаев они даже удобнее. В данной работе мы обобщили ведущие бумажные и электронные(включая онлайн-словари) словари в Китае,

провели анкетирование, чтобы уточнить предпочтение студентов к словарям.

Есть в основном три ведущих издательства в Китае, которые печатают русско-китайские и китайско-русские словари. Их называют издательство «Шаньу иньшугуань» (в Пекине, 1897г), издательство «Иностранные языки» (в Пекине, 1979 г) и издательство «Обучение иностранным языкам» (в Шанхае, 1979г).

Они за полтора века выпустили многие известные в Китае бумажные словари, такие как «Большой русско-китайский толковый словарь новой эпохи» (《新时代俄汉详解大词典》, 1998), «Большой русско-китайский словарь новой эпохи» (《新时代大俄汉词典》, 2019), «Словарь-справочник новых слов русского языка с китайским толкованием» (《俄汉新词词典》, Фэн Хуайин и др., 2005), «Русско-китайский словарь пословиц и поговорок (издание пересмотренное и дополненное)» (《俄汉谚语俗语词典》, Е Фанглаи, 2016), «Краткий русско-китайский и китайско-русский словарь» (《精选俄汉俄词典》, Ву Кели и др., 2019).

«Новый русско-китайский словарь» (《现代俄汉双解词典》, Чжан Цзяньхуа, Ван Вэй и др 1992), «Краткий словарь русского языка с толкованием на русском и китайском языках» (《俄汉双解小词典》, Ли Деф 2005), «Китайско-русский словарь глаголов» (《汉俄动词词典》, Чжэн Лу 2010). «Современный русско-китайский словарь новых слов и выражений» (《当代俄汉新词语词典》, Чэн Цзяцзюнь, Сюэ Цзинфэнь 2017).

Стоит отметить, что «Большой китайско-русский словарь» [5] опубликован издательством «Обучение иностранным языкам», составлен кафедрой русского языка Шанхайского университета иностранных языков за 20 лет, является крупнейшим и самым авторитетным китайско-русским двуязычным словарем в мире. Они во многом помогли и помогают студентам и преподавателям в улучшении речевой компетенции в процессе изучения русского языка в Китае.

Но с развитием эпохи в словарях произошли большие изменения. Электронный словарь, это электронная версия толкового или двуязычного словаря или специально созданный словарь, записанный на диске или размещенный в Интернете. Достоинством электронных словарей является удобная система поиска, огромный объем, возможность включения в систему компьютера для поддержки процесса чтения. Известны электронные словари фирм Lingvo, Promt, ABBY [6]. Самый ранний электронный словарь в Китае появился примерно в конце 1980-х - начале 1990-х годов. Благодаря своей многофункциональности, удобству и скорости работы он становится популярным средством обучения среди студентов-филологов, которые изучают русский язык.

Русско-китайские электронные словари в основном разделены на следующие типы:

1. Электронный словарь PDA (Personal Digital Assistant). Электронные словари Wenquxing, Hoyitong, Noah Zhou и Ruskita относятся к этому типу. По внешнему виду они похожи на портативные компьютеры, но намного меньше и легче по весу. Но с развитием студенты больше не используют словарь такого типа, так как его цена выше, чем онлайн-словари, которые нужны только интернет и приложения в мобильнике. 2. Онлайн-словари

и переводчик (大БКРС(dabkrs.com); ЦяньИЧиБа <https://w.qianyix.com/>; «7500KM» (<http://www.7500km.net/>); Youdao <http://fanyi.youdao.com/>; Baidu переводчик <https://fanyi.baidu.com/> Kingsoft <https://www.iciba.com/> и другие). В Интернете есть много русских двуязычных словарей, которые очень помогают студентам-филологам, изучающим русский язык. 3. Словари-приложения в мобильнике. В Китае большинство онлайн-словарей разработали версии мобильных приложений. С развитием Интернета и ИТ-индустрии мобильные телефоны стали еще одним важным терминалом для Интернета в дополнение к компьютерам. 4. Машина для перевода с искусственным интеллектом (например переводчики iFLYTEK и Переводчик Youdao).

Можно утверждать, что важность электронных словарей все более и более проявляется в профессиональном образовании. Но феномен электронного словаря появился относительно недавно. Поэтому в этой области велись немногочисленные исследования. Существуют, однако, несколько статей на эту тему, но они, скорее, обращаются к эволюции конкретных словарей. Есть работы, которые сравнивают электронные и бумажные словари и рассматривают их роль в переводе [7]. Содержание бумажных и электронных словарей в отношении статей, в основном, одинаковое. Однако электронные словари отличаются тем, что они содержат мультимедийные элементы: звуковые части (в частности, озвученное произношение), короткометражные видео и анимационные иллюстрации.

Как бумажные, так и электронные словари имеют преимущества и недостатки. Бумажные словари обладают массой **преимуществ**, такими как авторитетным источником, независимостью от Интернета, они развивают память в процессе запроса и поиска информации и полезны для здоровья глаз и т.п. Но есть и серьезные **недостатки**, которые сказываются на эффективности работы: медленное обновление, низкая скорость поиска, большой объем, трудно найти все нужные слова, особенно новые слова и т.д. С быстрым развитием Интернета и все большим количеством межкультурных обменов люди обнаруживают, что словари с фиксированными словарными статьями больше не могут удовлетворять потребности людей, особенно в отношении новых слов [8].

Появились электронные словари. Они ориентированы на ряд **преимуществ**, которые в сравнении с бумажными вариантами гораздо эффективнее, их достоинства: удобно искать и находить нужные слова, хронология и история поиска пользователя, возможность поиска слов с неточностями написанием, доступна функция прослушивания слов и т.д. Есть у электронных словарей и некоторые **недостатки**: ненадежный, непроверенный источник, наличие доступа к Интернету и подключение к электричеству, вредно для зрения, фиксация внимания и т.п.

Роль словаря как средства обучения начали активно обсуждать в конце 1960-х – начале 1970-х годов. Мы провели анкетирование среди студентов-филологов 1-4 курсов факультете русского языка Синьцзянского университета, чтобы выяснить предпочтение студентов к словарям. Результат показывает, что 98.64% студентов выбирают электронные словари при повышении речевой компетенции как хороший способ.

第3题: 请问在学习过程中, 使用哪一种词典频率较高, 纸质词典, 电脑网络在线词典, 还是手机app电子词典? К какому словарю в процессе изучения языка Вы чаще обращаетесь: бумажному, онлайн-словарю или электронному словарю в виде приложения в телефоне? [单选题]

选项	小计	比例
A. 纸质词典 Бумажному	4	1.36%
B. 电脑网络在线词典 Онлайн-словарю	19	6.44%
C. 手机app词典 Электронному словарю в виде приложения в телефоне	272	92.2%
本题有效填写人次	295	

Основной целью программ по обучению русскому языку в Китае является развитие у студентов трех взаимосвязанных компетенций - языковой, речевой и коммуникативной[9]. Речевая компетенция, как фундаментальная, требует от студентов владения всеми аспектами об изучаемом языке на разных его уровнях и правильно пользоваться в устной и письменной речи. Чтобы повышать речевую компетенцию в сфере высшего образования активно работают электронные словари. Так как при использовании традиционных словарей будет низкая скорость поиска и тратится больше времени на поиск требуемого слова. В электронных словарях может видеть объяснения этих слов на разных веб-страницах одновременно. Все эти сведения помогают студентам быстро извлекать нужную себе информацию, повышать эффективность изучения языка и улучшить речевую компетенцию. Цифровые технологии, включая электронные словари обеспечивают индивидуализацию,

интерактивность в условиях специальной обучающей среды, открывая новые пути формирования речевой компетенции [10].

**Заключение.** Подводя итог нашему исследованию, можно утверждать, что как бумажные, так и электронные словари имеют преимущества и недостатки. Новое поколение читает меньше бумажных книг, а большую часть информации получает из мобильных устройств. Использование электронных словарей в современной цифровой лингводидактике является эффективным учебным средством формирования языковой компетенции студенто-филологов. Как преподаватели, надо поощрять студентов пользоваться разными словарями, сравнить их специфики и выбрать себе подходящее, потом создавать свои словарные списки, умение грамотно пользоваться электронным словарям является неотъемлемой частью в процессе изучения иностранных языков и повышении языковой компетенции.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка / С.И. Ожегов, Н.Ю. Шведова. – М.: ООО «А ТЕМП», 2006. – с. 944
2. Хэ Шань, Чжу Жуйпин. Обзор исследований по словарному использованию для изучения английского языка// Лексикографические исследования. 2019. с53-66
3. Виноградова М.В. О роли учебного словаря в процессе обучения русскому языку иностранных студентов// Вопросы методики преподавания в вузе. 2018. №26, с45-49
4. Анощенков Я.В. Особенности обучения студентов новой лексики в неязыковых вузах с использованием словарей разных типов// Аграрный вестник Верхневолжья. 2015 № 3. С. 80-82
5. Кафедра русского языка Шанхайского университета, Большой китайско-русский словарь, - Изд-во«Обучение иностранным языкам», 2009
7. Азимов.Э.Г, Щукин. А. Н. Современный словарь методических терминов и понятий. М.:Русский язык. 2018, с. 355
8. Чумарина Г.Р. Сравнительная характеристика электронных и бумажных словарей в функциональном аспекте// Вестник Чувашского университета. 2009 № 4. -С.265 –270.
9. Ло Байхуэй, У Сюэфэй, История и тенденции оцифровки лексикографии// Технологическая информация, 2014 № 7. -С.29)
10. Комитет преподавания русского языка. Образовательная программа обучения русскому языку на основном этапе. Пекин: Издательство преподавания и исследования иностранных языков, 2012.
11. Чжан Цзыли. Методические основы использования ресурсов интернета при обучении русскому языку как иностранному (в условиях китайского языкового вуза): диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук: 13.00.02. Москва, 2002. 164 с.



UDK: 373.24

*Fotima CHORIYEVA,*  
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM, Xorijiy tillar fakulteti katta o'qituvchisi*  
*E-mail: f.talibovna92@gmail.com*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM dotsenti F.Atamurodova taqrizi asosida*

## OLIV TA'LIMDA SAMARA BERADIGAN LINGVO-METODIK YONDASHUVLARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif chet tilini o'qitishda lingvo-metodik yondashuvning afzalliklarini rivojlantirish yo'llari xususida atroflicha asoslab bergan. Bundan tashqari maqolada chet tilini o'zlashtirishdagi zaruriy shart sharoitlar xususida ham bayon etgan.

**Kalit so'zlar:** Lingvo-metodik tajribasi, integratsiya, tabaqalashtirish va didaktik tamoyillar, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish oliy ta'lim, zamonaviy raqamli texnologiyalar, ruhiyat.

## МЕТОДЫ РАЗРАБОТКИ ЭФФЕКТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКИ И МЕТОДИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье автор подробно объяснил преимущества лингвометодического подхода к обучению иностранному языку, а также пути его развития. Кроме того, в статье также описаны необходимые условия для овладения иностранным языком.

**Ключевые слова:** Лингвометодический опыт, интеграция, дифференциация и дидактические принципы, формирование квалификации и умений, высшее образование, современные цифровые технологии, психология.

## METHODS FOR DEVELOPING AN EFFECTIVE LINGUISTIC-METHODOLOGICAL APPROACH IN HIGHER EDUCATION

Annotation

In this article, the author explained in detail the advantages of the linguistic methodological approach to teaching a foreign language and the ways of its development. In addition, the article describes the necessary conditions for mastering a foreign language.

**Key words:** Linguistic and methodological experience, integration, differentiation and didactic principles, formation of competencies and skills, higher education, modern digital technologies, psychology.

**Kirish.** Jamiyat rivojlanishining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, iqtisodiyotning globallashuvi, hayotning turli sohalaridagi integratsiya chet tillarini madaniyatlararo, ish bo'yicha va shaxsiy muloqot vositasi sifatida o'rganishni taqozo etadi. O'quv fani sifatida chet tili oliy ta'limda faol o'rganila boshlaydi. Davlat ham, jamiyat ham universitet talabarlari uchun chet tilini o'rganish, o'rganuvchining qobiliyatidan qat'iy nazar, barcha bolalar uchun foydali ekanligini tan oldi, chunki bu quyidagilarga yordam beradi: talabanning ruhiy funksiyalarini (tafakkur, diqqat, xotira, idrok etish va shu kabilar) va uning nutq qobiliyatlarini rivojlantirish; yangi tilda muloqot qilish orqali o'rganuvchining jahon madaniyatiga erta kirishi; birinchi chet tilini yanada sifatli egallash, bu esa uni keyingi bosqichlarda o'rganishni davom ettirish uchun asos yaratadi, bilish zarurati tobora yaqqol namoyon bo'ladigan ikkinchi va uchinchi tillarni o'rganish uchun imkoniyatlar ochadi.

Hozirgi vaqtda chet tilini o'rganishga talab sababli ushbu mutaxassislik o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyoj keskin oshdi.

Ko'pchilik holatlarda nafaqat voyaga yetgan talabalar o'rtasida balki kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining yoshga bog'liq psixologik va fiziologik xususiyatlari, chet

tilini egallash qonuniyatlari hisobga olinmaganligi kuzatiladi. Talabalar bilan ishlashning asosan frontal shakllari qo'llaniladi, avtoritar muloqot uslubi kuzatiladi, integratsiya, tabaqalashtirish va didaktik tamoyillari amalga oshirilmaydi. Bundan tashqari, quyidagilar tez-tez kuzatiladi: barcha mutaxassislik fanlarni chet tilida o'qitishga bo'lgan bepisandlik; qo'shimcha maashg'ulotlarni kiritish; o'quv xonalarining o'quv materiallari va yangi texnologik qurilmalar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi; uy vazifalarining hajmi kattaligi va bog'liq emasligi; talabalarga qo'yiladigan yuqori talablar, bu esa talabalar va ularning o'qituvchilarini tushunmovchilik va stress holatlarga, shuningdek repetitorlar bilan qo'shimcha mashg'ulotlarga olib keladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Haddan tashqari, zo'rma zo'raki mashg'ulotlar o'rganuvchi ruhiyati uchun jiddiy oqibatlar olib keladi. Umumiy olganda unda tilni o'rganishga qiziqish yo'qoladi. Eng salbiy oqibatda qo'yiladigan talablar haddan tashqari og'irlik kilib uning yengilishiga sabab bo'ladi xamda katta hayotda ham uning psixikasi boshqa mag'lubiyatlarga ham tayyor bo'ladi. Chunki, muvaffaqiyatsiz kishi o'zini baxtsiz his qiladi, uning hissiy va ijtimoiy rivojlanishi sekinlashadi. Bularning barchasi jismoniy va ruhiy salomatlikka zarar yetkazadi, chet tilini

o'zlashtirishga va umuman o'qishga bo'lgan qiziqishga ijobiy motivatsiyaning yo'qolishiga olib keladi. Agar yoshlikdan bolalarga ona tilida bo'lmagan jumlaning qurish tamoyillarini shunchaki mexanik eslab qolish emas, balki uni tushunishni tushuntira olinsa, chet tilini o'rganish keyingi bosqichlarda samarali bo'ladi. O'quv jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish va diqqatni jamlash qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi.

Talabalarda xotira, tafakkur va diqqatni rivojlantirish ularning chet tilini o'rganish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Ma'lumki, chet tilini o'rganish qobiliyati maktab o'quvchilarining chet tilini muvaffaqiyatli o'zlashtirishini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. "Tilni o'rganish tushunchasining orqasida:

a) oliy asab faoliyatining xususiyatlari majmui hamda psixologik jarayonlarni belgilovchi boshqa individual xususiyatlar (asab tizimining umumiy turi, temperament, xarakter);

b) xotira, tafakkur, idrok, tasavvur kabi jarayonlarni borishidagi individual tafovut;

v) muloqot bilan bog'liq shaxs xussiyatlari o'rtasidagi farqlar yotadi" [Leontyev, 1985].

Demak, chet tilini egallash jarayonida rivojlantirishi mumkin bo'lgan chet tiliga qobiliyatlarning asosiy komponentlari bo'lib xotira, tafakkur va diqqat hisoblanadi. Talabada mazkur jarayonlar qay darajada rivojlanganligiga qarab malaka va ko'nikmalarning shakllanishi muvaffaqiyati, ularni egallash osonligi va tezligi bog'liq bo'ladi. Chet tilini o'rganishga qobiliyati past o'quvchi – xotirasi, tafakkuri va diqqati kam rivojlangan boladir. Ularni esa rivojlantirish mumkin va shart. O'rgatish san'ati mohiyati muayyan vaziyatda talab qilinadigan yordam turini, shuningdek, uni eng yaxshi tarzda ta'minlash usullarini aniqlashdan iborat. Biroq o'qituvchilarning aksariyati o'quvchilar rivojlanishining faqat joriy darajasini inobatga oladi; past o'zlashtirishda o'quvchilar qobiliyatsiz deb tavsiflanadi va o'qituvchi o'z vazifasi sifatida "ularni ishlashga majburlash" yoki eng yaxshi vaziyatda "fanga qiziqtirish" deb biladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Talabalarning chet tiliga qobiliyatlarini rivojlantirishning tubdan yangi yo'li - ularga o'quv faoliyatining oqilona, samarali usullariga o'rgatish hamda ularning ruhiy funksiyalarini (xotira, tafakkur, diqqat, tinglab idrok etish va shu kabilarni) mashq qildirishdir. Agar barcha o'quvchilarda chet tiliga qobiliyatlarini yetarlicha rivojlanish darajasini ta'minlash vazifasini o'z oldimizga qo'ysak, u holda o'qitishni shaxsga yo'naltirilganlik tamoyiliga amal qilish, o'quv vazifalarini tuzishda va rejalashtirishda ruhiy rivojlanishning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur bo'ladi. Mazkur muhim pedagogik-psixologik tamoyilni inkor etish shunga olib keladiki, qobiliyatliroq va moyilroq o'rganuvchilar o'zining rivojlanishida sekinlashib qolishadi, ularda bilish faolligi, ish sur'ati, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga tayyorligi darajasi pasayadi, "kuchsiz" tayyorlangan o'quvchilar "o'rtacha", ayniqsa "kuchli" o'quvchilarning darajasiga yeta olmaydi.

Yuqoridagi fikrlar o'quvchilarning o'rganishga umumiy ijobiy munosabatida namoyon bo'ladigan ruhiy jarayonlari, ularning bilish jarayonlari va qiziqishlarini rivojlantirish muhimligini yana bir bor ko'rsatadi.

**Tahlil va natijalar.** O'quv faoliyatida ko'nikma va malakalarni shakllantirish – o'quvchilarning o'quv mustaqilligini shakllantirish jarayonidir. U o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bosqichida taqlid harakatlaridan boshlanadi, o'z ruhiy jarayonlarining anglanganligi va ixtiyoriyligi paydo bo'lishi bosqichidan, o'rganilgan harakatlarni takrorlash bosqichidan o'tadi va ijodiy faoliyat bosqichiga yetadi. O'quvchida

mustaqillikning shakllanishi jarayonida uning uch bosqichini ajratib ko'rsatish qabul qilingan: reproduktiv-taqlid, izlanish-bajarish, ijodiy. Mustaqillikning ushbu bosqichlariga muvofiq mustaqil ishning uch turi: taqrarlovchi, o'zgartiruvchi va ijodiy kabi turlari ajratib ko'rsatiladi. Boshlang'ich sinflarda mustaqil harakatlar endigina shakllana boshlaydi, shuning uchun mustaqil ishning asosiy turlari bo'lib takrorlovchi va o'zgartiruvchi bo'ladi. Ular o'quvchilarning reproduktiv-taqlid va izlanish-bajarish o'quv mustaqilligini shakllantirishga hissa qo'shadi, bu esa o'rta va yuqori darajadagi ijodiy turdagi mustaqil ishlarga o'tish uchun asos yaratadi. Shu bilan birga shuni ham hisobga olish kerakki, muayyan sharoitlarda ijodiy mustaqillik kichik sinf o'quvchilarida ham namoyon bo'lishi mumkin [Bezukladnikov, 1993].

Auditoriyadagi talabalarning diqqatini boshqarishda o'qituvchining vazifasi, shuningdek, jamlangan mehnat uchun qulay sharoit yaratishdan ham iborat bo'lib, bu mazkur shaxsiy xususiyatning paydo bo'lishi va saqlanishi uchun shartlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Topshiriqlarni bajarish uchun o'quvchilarga, birinchi navbatda, diqqatning barqarorligi va to'planishi (faoliyat predmetiga diqqatni jamlash) kabi fazilatlar kerak. Bu, ayniqsa, fonologik materiallar bilan ishlashda, shuningdek, juft bo'lib va guruh ishlarida muhim ahamiyatga ega. Ta'limni individuallashtirishda zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun diqqatning rivojlanganlik darajasi yuqori va past bo'lgan o'quvchilar guruhlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Reproduktiv-taqlid mustaqillikni shakllantirish elementar ruhiy funksiyalarni: kuzatish, idrok etish, tushunish, tahlil qilish va taqqoslashni faollashtirishni nazarda tutib, ular obyektning muhim xususiyatlarini tanish, taqqoslash, ajratish va yodlash operatsiyalarini o'z ichiga oladi. Takrorlash turidagi mustaqil ishlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv topshirig'ini qabul qilish, topshiriqni bajarish ketma-ketligini tushunish, tayanch dalillar va harakat usullarini to'plash, topshiriqlarni oqilona bajarish va ularning faoliyati natijalarini to'g'ri baholash qobiliyatiga ega bo'ladi.

Talabalarning mustaqilligini shakllantirish "Mustaqil ta'lim", audio va video materiallar bilan boshqariladigan mustaqil ishlash, loyihaviy ish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, faoliyatni erkin tanlash rejimida ishlash yordam beradi [Bezukladnikov, 1993; 2004].

Xususan, Qarshi davlat universiteti nomutaxassis talabalar uchun faoliyat ko'rsatadigan chet tili o'qituvchilari orasida lingvo-metodik tajribasini rivojlanishining past darajasi qayd etildi. Birinchi bosqich talabalar uchun chet tili o'qituvchisi lingvo-metodik tajribasiga qo'yiladigan talablarni asoslash va aniqlangan lingvo-metodik tajribasiga asoslanib, uzluksiz ta'lim kontekstida kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash jarayoni tashkil etish zarurati tug'ildi.

Ilmiy tadqiqot ishimizning maqsadi chet tilini o'qitish jarayonini tashkil etishda hamda ta'lim muassasalari ma'muriyati va pedagogik jamoasi tomonidan rioya qilinishi shart bo'lgan oliy ta'limda chet tili o'qituvchilarning malakasini oshirish talablarini shakllantirishda hisobga olinishi kerak bo'lgan psixologik-pedagogik qonuniyatlarni umumlashtirishdan iborat.

Talablarni shakllantirishda, birinchi navbatda, oliy ta'limda talabani chet tilini egallashdagi ko'nikmasini shakllantirish maqsadida sifat jihatidan yangi, shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi modelni amalga oshirishga qaratilganligidan va asosiy maqsadlarning bajarilishini ta'minlash uchun ishlab chiqilganidan kelib chiqdik:

o'quvchi shaxsini, uning ijodiy qobiliyatlarini, o'rganishga qiziqishini rivojlantirish, o'rganishga intilish va qobiliyatini shakllantirish;

axloqiy va estetik tuyg'ularni, o'ziga va atrof-olamga hissiy-qadriyatli ijobiy munosabatni tarbiyalash;

turli xil faoliyat turlarini tashkil etishning bilim, ko'nikma va malakalari tizimini egallash;

o'quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash;

talabning individualligini saqlash va qo'llab-quvvatlash.

Oliy ta'lim har bir individning qobiliyatini ochib berishga va uning individualligini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Shu bilan birga, oliy ta'limning ustuvor vazifasi kerakli malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, ularning darajasi butun ta'limning muvaffaqiyatini ko'p jihatdan belgilaydi. Oliy ta'limda ko'nikma va malakalarni rivojlantirish ko'p jihatdan fanlarni o'rganishga yondashuvning birligiga, fanlararo aloqalarni aniqlash va amalga oshirishga bog'liq bo'lib, bu fanlarning integratsiyasiga, fanlarning tarqoqligi va o'quvchilarning haddan tashqari yuklanishining oldini olishga, talabalar rivojlanishi uchun yagona asos yaratishga yordam beradi.

Ta'limda faoliyat ko'rsatadigan chet tili o'qituvchisi, shuningdek, umuman o'quv jarayonini tashkil etish uchun mas'ul shaxslar tomonidan ta'minlanishi kerak bo'lgan fiziologik va psixologik-pedagogik sharoitlarni hisobga olmasdan turib, chet tilini muvaffaqiyatli o'zlashtirib bo'lmaydi.

Talabalarga chet tilini o'rgatishning vazifalaridan biri bo'lib ularning intellektini rivojlantirish hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, boshlang'ich maktab yoshi – xotira, tafakkur va diqqatning jadal rivojlanishi davridir. Ammo, o'smir davrining Birinchi navbatda, nutq va tinglashni egallashda muvaffaqiyatni belgilaydigan oxirga paytlarida individual psixologik xususiyatlarini rivojlantirish kerak.

Gapirish va tinglashni egallash uchun eng muhim bo'lib verbal xotira hisoblanadi, chunki chet tilini o'rganishda yodlash uchun asosiy obyekt bo'lib verbal material hisoblanadi. Biz doimiy ishlatadigan xotira – verbal xotiradir va faqat istisno holatlarida biz tasvirli xotiraga murojaat qilamiz.

Eshitish xotirasi, ko'rish xotirasi, ularning birikmasi mavjud. Psixologiyaga ma'lumotlariga ko'ra, bir turdagi xotiraning kamchiliklari xotiraning boshqa turlari orqali qoplanishi mumkin. Almashtirish imkoniyati inson ruhiyatining eng muhim funksional xususiyatlaridan biri – ba'zi ruhiy xususiyatlarni boshqalari tomonidan juda yuqori darajada qoplash imkoniyati bilan izohlanadi. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi, bir tomondan, qo'shimcha mashqlar yordamida o'quvchilarning eshitish xotirasi hajmini oshirish, boshqa tomondan esa, eshitish xotirasidagi kamchiliklarni xotiraning boshqa turlari bilan qoplash uchun sharoit yaratishdan iborat.

Xotira psixologiyasiga oid adabiyotlarda yodlash usuli sifatida tayanchlarning muhim roli qayd etiladi. Qabul qilinganki, chet tili o'rganuvchilari yodlashda ko'rgazmali tayanchlarning roli oshib borib, ular quyidagi: operativ xotirani bo'shatish, o'quvchilar xotirasida aniq nutq namunalari shakllantirish, chet tilida nutq faoliyatini rag'batlantirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Chet tilidagi nutqni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning fikrlash faoliyatining ko'rsatkichlari sifatida ularning tinglash va o'qish jarayonida ehtimollik bashorat qila olish qobiliyati (analitik-sintetik operatsiyalarning rivojlanish darajasi ko'rsatkichi sifatida) ko'rib chiqiladi, bunga maxsus mashqlar orqali mustaqil ish yordam beradi.

O'quvchilar o'quv ishlarining muvaffaqiyati uchun zaruriy shart bo'lib diqqat hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqatni shakllantirish bolaning umumiy intellektual rivojlanishi bilan bir vaqtda sodir bo'ladi, jumladan bu jadal firlash faoliyatining shartidir; tafakkur, o'z navbatida, diqqatga ham ta'sir qiladi.

O'quv jarayonida diqqat takomillashib, yanada ixtiyoriy, ya'ni uyushgan, tartibga solinadigan, boshqariladigan bo'ladi. Diqqatning o'quv materialini aniq va yorqin idrok etish va uni tushunishni, shuningdek, ma'lumotni tezroq, mustahkamroq eslab qolish va uzoq vaqt davomida xotirada saqlashni ta'minlaydigan hajm, jamlanganlik, barqarorlik, jadallik, qaratilganlik kabi xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan vazifalarni nazarda tutish lozim. Darslarda va uy vazifasini bajarishda maktab o'quvchilarning diqqatini boshqarish nafaqat, shubhasiz, diqqatni saqlash uchun muhim bo'lgan (chunki qiziqishga asoslangan diqqat kuchayib boradi, turli xil assotsiatsiyalarni chaqiradi va o'quvchi ega bo'lgan bilimlari bilan ko'p sonli aloqalarni o'rnatish o'z hissasini qo'shadi) mazmuni bo'yicha qiziqarli bo'lgan materialdan foydalanishdan, balki har bir o'quvchining materialni tushunishi, mashqlarni bajarish usulini bilishini ta'minlashdan ham iboratdir.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida aytib o'tilganidek, nazorat o'quv faoliyatining tarkibiy qismlaridan biridir. O'quvchilar tomonidan faoliyatning nazorat-baholash jihatlarni o'zlashtirishi – ularning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligini rivojlantirishning bo'g'inidir. Agar tizimli nazorat nazarda tutilmasa, mustaqil ish mo'ljallangan natijani bermaydi. O'z-o'zini nazorat qilish – o'quvchi shaxsining uni o'rganish subyektini holatiga qo'yadigan yana bir qirrasidir. O'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati tilni egallash bilan rivojlanadi va tashqi, anglangan shakldan ichki, avtomatik shaklgacha bosqichlardan o'tadi.

Tashqi o'z-o'zini nazorat qilishda xotirada saqlangan etalon bilan obyektiv mavjud bo'lgan ma'lumot manbai o'rtasida taqqoslash sodir bo'ladi. Taqqoslash natijasida, farqlar aniqlanganda, o'z-o'zini tuzatish amalga oshiriladi. Tashqi o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirishda o'zaro nazorat va o'zaro baholashni tashkil etish katta ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Санжаева Р. Д. Психологическая готовность личности к деятельности как метакате-теория // образование. Личность. Общество. -2012, с 156.
2. Бердиева З.С. Сущность урока и требования к уроку иностранного языка // Вопросы педагогики. – 2019, №11-2. – С.45-48
3. "Teaching English to Speakers of Other Languages: An Introduction" by David Nunan, Cambridge University Press.: 2015, 240pp
4. "English for Specific Purposes: An International Approach" edited by Tom Hutchinson and Alan Waters, Cambridge University Press.:2016, 288pp



UO'K: 1.740.

*Oybek SHAKAROV,*  
*Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail: oybek00@gmail.com*

*SamDCHTI professori, f.f.d O.G'aybullayev taqrizi asosida*

## JAMIYATDA KORRUPSION MUNOSABATLAR SABABLARINI KAMAYTIRISHDA AXLOQIY IDEALNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy hayotda paydo bo'ladigan g'ayriaxloqiy korrupsiyon holatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar tahlil qilinib, ularga qarshi tura oladigan aksiologik madaniy munosabatlar keltirib o'tilgan. Korrupsiyaning kelib chiqishi, avj olishi o'z navbatida jamiyatda shakllangan turli qadriyatlar mohiyatiga bog'liq. Turli vositalar orqali jamiyat axloqiy qadriyatlariga ta'sir o'tkazish korrupsiyon munosabatlarni kamaytirishga olib keladi. Maqola aynan mana shunday dolzarb masalalarga bag'ishlanib, jamiyatda korrupsiyon munosabatlar sabablarini kamaytirishda axloqiy idealning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Korrupsiya, axloq, madaniyat, qadriyat, manfaatlar to'qnashuvi, faol fuqarolik pozitsiyasi, adolat, gedonizm.

## ЗНАЧЕНИЕ НРАВСТВЕННОГО ИДЕАЛА В СНИЖЕНИИ ПРИЧИН КОРРУПЦИИ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В данной статье анализируются причины неэтичной коррупции, возникающей в общественной жизни, и представлены аксиологические культурные установки, способные им противодействовать. Зарождение и развитие коррупции, в свою очередь, зависит от сущности различных ценностей, сформировавшихся в обществе. Воздействие на нравственные ценности общества различными способами приводит к снижению коррупционных отношений. Статья посвящена таким актуальным вопросам и рассматривает значение нравственного идеала в снижении причин коррупционных отношений в обществе.

**Ключевые слова:** Коррупция, мораль, культура, ценности, конфликт интересов, активная гражданская позиция, справедливость, гедонизм.

## THE IMPORTANCE OF THE MORAL IDEAL IN REDUCING THE CAUSES OF CORRUPTION IN THE SOCIETY

Annotation

This article analyzes the causes of unethical corruption that appear in social life, and axiological cultural attitudes that can counter them are presented. The origin and development of corruption, in turn, depends on the essence of various values formed in the society. Influencing the moral values of the society through various means leads to reduction of corrupt relations. The article is devoted to such topical issues and considers the importance of the moral ideal in reducing the causes of corrupt relations in society.

**Key words:** Corruption, morality, culture, value, conflict of interests, active citizenship position, justice, hedonism.

**Kirish.** Korrupsiya insoniyat tarixidan mavjud eng qadimiy barcha jamiyatni turli ko'rinishda qamrab olgan g'ayriaxloqiy munosabat ko'rinishidir. O'z farovon kelajagi haqida qayg'urgan har bir davlat va jamiyat tashkilotlari mazkur illatga qarshi muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kurashib kelmoqdalar. Jamiyat manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yadigan, har bir ongli shaxs korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabablarga qarshi tura oladi. Korrupsiya asosan boshqaruv tizimi mavjud va bo'ysunishga asoslangan antidemokratik muhitda urchiy boshlaydi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Korrupsiya (lot. Corruptere - buzmoq) termini, odatda, mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi[1]. Bunda oboparvarlik axloqi ustunlik qilib, mansabdor shaxslarning gedonistik maqsadlari asosida paydo bo'ladi.

Korrupsiya mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy huquqiy hodisadir. Ma'lumki, bu illat har qanday jamiyatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga zarar yetkazadi. Jamiyatning ma'naviy axloqini yemiradi, qonun ustuvorligini kuchsizlantiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. Shu bilan birga, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va insoniyat

xavsizligiga qarshi qaratilgan boshqa tahdidlarning o'sishiga yordam beradi. Uning domiga ilingan amaldor shaxsiy manfaatini davlat manfaatidan ustun qo'yishi natijasida, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo'lga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazadi, chet ellik sheriklarda ham ishonchsizlik uyg'otadi va ularni hamkorlikdan qaytaradi.

Korrupsiyaning turi va ko'lamining kengligi sabab murakkab munosabatlarni jamlaydi. Korrupsiya ikki yoki ko'p tomonlama munosabat jamlanmasidir. Bunda asosan yuqori va quyi mansabga yoki ijtimoiy mavqega ega insonlar qatnashadilar. Korrupsiya tizim ekanligi sababli, uning sifati va hajmi faqat korrupsiyon o'zaro ta'sirlarda ishtirok etadigan shaxslar soniga qarab belgilanmaydi. Korrupsiyani alohida munosabatlar sifatida ko'rib chiqish tizim ichidagi korrupsiyani amalga oshiruvchi shaxslar faoliyatini tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi. Shaxsni ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritilgan ijtimoiy guruh vakili sifatida tushunish korrupsiyani to'liq ko'rib chiqishga imkon beradi.

**Tahlil va natijalar.** Korrupsiyaning g'ayriaxloqiy mohiyati shundaki, u jamiyatdagi aksiologik munosabatlarni, normal hayot tartibini izdan chiqaradi. "Korrupsiya", hokimiyat va xalq o'rtasidagi ishonchning "yemirilishi"ga olib keladi. Umumiy holatda olib qaralganda, davlat va jamiyat



faoliyatidagi korrupsiya barqaror taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruv tizimida byurokratiyani kuchaytiradi. Korrupsiya hokimiyatdan va u bilan bog'liq imkoniyatlardan butun jamiyat manfaatlariga emas, balki shaxslarning manfaatlariga yoki ma'lum bir guruh odamlarning manfaatlariga xizmat qilishni o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, korrupsiya davlat hokimiyatidan shaxsiy manfaatlar uchun noqonuniy foydalanishdan iboratdir. Korrupsiya iskanjasida qolgan ijtimoiy muhitda g'ayriqonuniy xatti-harakatlar axloqiy me'yorlar degradatsiyasiga olib keladi. Lavozim sohiblari egallab turgan mavqei tufayli ma'lum imtiyozlar, ustunliklar yoki boshqa imtiyozlarga ega bo'ladi.

Atrofdagilarga nisbatan muomala madaniyatidagi aynishlar ham aynan korrupsiya oqibatida kuchayib boradi [2]. Sababiki, korrupsiya avj olgan jamiyatda "quyidagilar" "yuqoridagilar"ga turli shaxsiy manfaat yuzasidan yaqinlashishga harakat qiladilar. "Maqotvlar", "qarsaklar" va "sovg'alar"ga o'rganib qolgan rahbarlar atrofidagi hammadan shu munosabatni kutadi. Bu esa o'z navbatida tarixan shakllangan mental aksiologik munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, jamiyat etosferasidagi degradatsiyalarga olib keladi.

Ma'lumki, qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Ular gohida ideal sifatida kishilarni omilkor faoliyatga undasalar, gohida ma'naviy mezon, axloqiy talab sifatida odamlarning xatti-harakati va turmush tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydilar, faoliyatlarini boshqarib yoki yo'lga solib turadilar. Bunda qadriyatlarining regulativ funksiyasi va ma'naviy mezon sifatidagi ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Muayyan qadriyatlarni barqaror qilish butun xalq, millat, davlat yoki qavmlarni bir muddat yoki uzoq vaqtga qadar aniq maqsadlar yo'lida birlashtiradi, ular faoliyatining yo'nalishini belgilaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda shaxslar ongida shakllangan axloqiy qadriyatlari muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, halollik va to'g'rilik, adolat va tenglik kabi tamoyillar shaxslarni o'zaro munosabatlarda turli haqsizliklardan himoya qiladi. Zero rivojlangan korrupsiyasiz jamiyatni ma'naiy yetuk va korrupsiyaga qarshi qarashga ega fuqarolar yordamidagina barpo etish mumkin. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat huquqiy majburiyat, balki ma'naviy burch ham hisoblanmog'i lozim[3]. Shunday ekan, korrupsiya uchun huquqiy javobgarlikning "qattiqligi", quruq targ'ibot ishlari yetarlcha samara bermaydi. Jamiyatda korrupsion holatlarni kamaytirish uchun butun xalq mas'uliyatni his etib, harakat qilmog'i lozim. Xalqning qalbi va tafakkuridan korrupsiya singari g'ayriaxloqiy illatni yo'qotish lozim. Bu borada axloqiy qadriyatlar muhim hisoblanadi.

Qadriyatlarni bir nechta turlarga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Ular ichida inson tafakkur, dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadigan, korrupsion munosabatlarga sabab bo'ladigan yoki unga qarshi tura oladiganlari axloqiy ideallarni shakllantiradigan qadriyatlardir. Aslida "ideal – bu inson ongidagi narsa-hodisa, voqea yoki g'oyalarning mukammalligini, namuna, o'rnak, mezon darajasidagi obraz, faoliyat darajasida maqsad, harkatning dominant belgisi, milliy, umuminsoniy, diniy, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarda konstruktiv-motivatsion xususiyat, shaxsning qobiliyat, ehtiyoj, faoliyat turi, yoshiga nisbatan shakllanadigan mukammallik namunasi, mutlaq haqiqat darajasi, go'zallik, olijanoblik va pokdomonlik timsolidir"[4].

Faylasuv olimlarning ideal haqida bergan ta'riflariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hammasida mukammallik belgisi, etalon sifatida qaraladi. Darhaqiqat, inson o'z ma'naviy borlig'ida shakllangan axloqiy idealga qarab harakat qiladi, unga o'xshashga, harakatlarini takrorlashga urinadi. E'tibor aratadigan bo'lsak, aksariyat holatlarda yigitlarning o'zini tutishi va harakatlari, akasi, otasi yoki boshqa qarindoshlari bilan o'xshash bo'ladi. Buni qarindoshlik sabab, biologik yaqinlik deb ko'rsatish mumkin. Lekin shu bilan birga bola

ulg'ayayotgan davrda yaqinlari harakatlarini o'z idealiga singdiradi, unga o'xshashga harakat qiladi. Qadriyatlarining eng oliy shakllari ideal-qadriyatlar sifatida qaraladi. Jamiyat tarixining hamma davrda odamlar ana shu ideal-qadriyatlarga intilib, ularga erishishni orzu qilib yashaydilar.

"Inson ideal sari intiladi, o'z hayotini unga qiyoslaydi, unga taqlid qiladi. U inson hayotidagi eng oliy axloqiy talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka yetkazadi. Albatta, hayotda bunga to'la erishib bo'lmaydi, lekin inson ana shu komillikni o'ziga na'muna bilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy-hayotiy komillikni qo'lga kiritadi"[5]. Ushbu ta'rifda ham inson idealining mukammalligiga urg'u berilmoqda. Ya'ni, inson yoshligida atrofidagi voqea-hodisalar natijasida ideali shakllanadi va shunga taqlid qilib u hayot faoliyatini yo'lga qo'yadi. Ammo moddiylikdan yiroq shakllanayotgan axloqiy ideallarning hammasi ham ijobiylik kasb etadimi? Axir yoshlar ongu-tafakkurida shakllanayotgan ideallarni majburan o'zgartirishning imkoni yo'qku!

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, inson "axloqiy" ideali faqat ijobiy emas ba'zan g'ayriaxloqiy harakatlarga ham sabab bo'lishi mumkin. Yo'qsa jamiyatda g'ayrihuquqiy va amoralistik harakatlar yo'qolib borardi. Ijobiy axloqiy ideal sifatlarida korrupsiyaga boshlash, mavjud me'yorlarni buzish kabi illatlar uchramaydi! Lekin bugungi mediamakondagi gedonistik lavhalar va xalqimizdagi mavjud dabdabozliklar yoshlar "axloqiy" idealiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

"Puli ko'p insonlar baxtli yashaydi!", "So'nggi rusumdagi mashina egasiga hamma havas qiladi, hurmat qiladi!", "To'yiga ko'p pul sarflagan insonning dovru'g'u yeti mahallaga duv-duv gap bo'ladi!" qabilidagi moddiyatparast dunyoqarash yoshlar idealiga singib boradi. Qonunchilikdagi taqiqlar va og'ir jazo muqarrarligini anglab turgan lavozim egasi ijtimoiy fikr va obro'parvarlik axloqini ustun qo'yadi. G'ayriqonuniy yo'llar bilan bo'lsada korrupsiyaga qo'l urib boyishni maqsad qilib qo'yadi. Chunki uning idealida shakllangan boy bo'lish istagi qonunchilikdan ustun keladi.

Bugungi kunda mediamakondagi ba'zi "Qahramonlar"ga imitatsiya orqali ergashayotgan yoshlar idealini o'zgartirish uchun, g'oyaga qarshi g'oya usulida, ilmiy-amaliy targ'ibot ishlari:

-ma'naviy va axloqiy poklikning umumiy belgisi – yaxshilik;

nafosat belgisi – go'zallik;

bilimlarimiz va fan yutuqlarining amaliyotga mosligi – haqiqat, inson huquqlarining oliy ifodalari – erkinlik va tenglik;

siyosatning to'g'riligi – adolat, odamlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlar – do'stlik;

eng hokisor va beg'araz tuyg'ular asosidagi

qalblarning bog'langanligi – muhabbat;

orzu-umidlarga erishganlik – baxt-saodat;

o'z yurtini sevmoklik va ardoqlash – vatanparvarlik va hokazolarni yo'lga qo'yish lozim. Shaxs ma'naviy borlig'ida korrupsiyaga nisbatan murosasizlik shakllanmas ekan, ijtimoiy muhitda ushbu illatning yo'qolishi qiyin kechadi. Ushbu ideal-qadriyatlarga nisbatan teskari bo'lgan yomonlik, xunuklik, yolg'on, erksizlik, tengsizlik, adolatsizlik, dushmanslik, nafrat, xiyonat va boshqalar jamiyatda korrupsiyaning urchishiga olib keladi[6].

**Xulosa.** Shu ma'noda, xulosa qilib aytish joizki, fuqarolarning korrupsiyaga qarshi ongi ularning faol fuqarolik pozitsiyaning ajralmas qismi hamdir. Ko'pgina manbalarda fuqaroviylik bir davlatga mansublikni anglash, davlatga sodiqlik hamda vatanparvarlik hissi sifatida talqin etiladi. Bunda davlatni, Konstitutsiyani, davlat ramzlarini hurmat qilish, davlat tuzumini va qonun ustuvorligini himoya qilishga tayyorlik nazarda tutiladi. Fuqaroviylikni insonga huquqiy,

ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan layoqatli ekanligini his etishni ta'minlovchi, jamiyatdagi jinoyatchilik holatlariga qarshi tura olish qobiliyatlarini jamlovchi tushuncha sifatida ham talqin etish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. How do you define corruption? // Transparency International. URL: <http://www.transparency.org/what-is-corruption/#define> (дата обращения: 20.07.2017).
2. Исомиддинов Ю.Ю. Коррупциянинг давлат ва жамият бошқаруви барқарорлигига таъсирини камайтириш механизмлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. –Самарқанд: СамДЧТИ, 2021. -21 б.
3. Бекмуродов М.Б. ва б. Коррупцияга қарши кураш. Дарслик. – Тошкент: “Akademiya”, 2022. Б-17-19.
4. Самадов А.Р. Шаҳс эстетик идеалининг шаклланиши ва ривожланиши муаммолари. Фалс. фан. док. (DSc)... дисс. автореферати –Самарқанд: СамДУ, 2020. -15 б.
5. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти. 2000. Б-257.
6. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). –Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти. 2004. Б-53.



UDK:372.8

*Nilufar SHAKAROVA,*  
*Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail:shakarovanilufar97@gmail.com*

*DSc, professor T.Islomov taqrizi asosida*

### MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI BOSHLANG‘ICH TA‘LIMGA TAYYORLASHNING AHAMIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlashning o‘ziga xosliklari, boshlang‘icha ta‘limga oid bilimlarni egallashda bola duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda ta‘lim-tarbiya jarayonini qanday amalga oshirish kerakligi, nimalarga e‘tibor qaratish lozimligi, tayyorlov guruhi bolalarini maktabda boshlang‘ich sinfda o‘qishga tayyorlashda olimlarning tadqiqotlaridagi fikr-mulohazalari, tayyorlov guruhi va 1-sinf darliklari orasidagi o‘zaro o‘xshashliklar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabga tayyorlov, umumiy va shaxsiy tayyorlik, boshlang‘ich ta‘lim, o‘qituvchi, ijtimoiy moslashuv, o‘quvchi bo‘lish istagi, kognitiv qoviliyat, idrok qilish, kommunikativlik.

### ЗНАЧЕНИЕ И СПЕЦИФИКА ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ К ШКОЛЕ ГРУППЫ К НАЧАЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности подготовки детей к школе, как реализовать учебно-воспитательный процесс в преодолении трудностей, с которыми может столкнуться ребенок при приобретении знаний о начальном образовании, на что следует обратить внимание, отзывы ученых в исследованиях при подготовке детей подготовительной группы к обучению в начальной школе, взаимодействие между учебниками подготовительной группы и 1 класса. приведены сходства.

**Ключевые слова:** Готовность к школе, общая и личностная готовность, начальное образование, учитель, социальная адаптация, желание быть учеником, познавательные способности, восприятие, коммуникативность.

### THE IMPORTANCE AND SPECIFICS OF PREPARING CHILDREN OF THE PREPARATORY SCHOOL GROUP FOR PRIMARY EDUCATION

Annotation

This article discusses the features of preparing children for school, how to implement the educational process in overcoming the difficulties that a child may face when acquiring knowledge about primary education, what should be paid attention to, the feedback of scientists in research when preparing children of the preparatory group for primary school, the interaction between textbooks of the preparatory group and 1st grade. The similarities are given.

**Key words:** School readiness, general and personal readiness, primary education, teacher, social adaptation, desire to be a student, cognitive abilities, perception, communication.

**Kirish.** Biz bilamizki, bugungi kunda Respublikamizda uzluksiz ta‘lim tizimida maktabgacha ta‘lim bo‘g‘iniga alohida e‘tibor qaratilmoqda, chunki aynan maktabgacha yoshda bolaning intellektual salohiyati shakllanadi, kognitiv qiziqishlari va o‘quv faoliyati rivojlanadi hamda bu davr shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini rivojlanishi va turli bilimlarni egallashning eng qulay payti hisoblanadi. Maktabgacha yoshning 6-7 yoshdagi tayyorlov guruhiga to‘g‘ri keladigan davri bolalarning ta‘lim-tarbiya va dastlabki o‘quv faoliyatini o‘zlashtirishda alohida ahamiyatga ega.

Bola 6-7 yoshgacha bo‘lgan davri mobaynida jamiyatga moslashuvi sodir bo‘ladi, o‘z “meni”ni anglaydi, tengdoshlar va kattalar bilan o‘zaro muloqotga kirishadi, muomala madaniyatini bir qadar egallaydi. 6-7 yoshga kelib bolalar ta‘lim-tarbiyasida o‘quv faoliyatiga yanada ko‘proq urg‘u berila boshlaydi. Aynan tayyorlov yosh guruhi davri bolaning o‘zini-o‘zi anglashi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, boladagi erkinlik, mas‘uliyat va ijodkorlik qobiliyatini ochib beradigan, shuningdek, boshlang‘ich ta‘limga tegishli talablarni tezda o‘zlashtirishga va bilim olish jarayonida faol ishtirok etishga imkon beradigan qulay ijtimoiy-psixologik muhitni boshqa yosh davriga nisbatan ko‘proq talab qiladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalariga boshlang‘ich ta‘limni boshlashdan oldin bolaning jismoniy, aqliy, intellektual rivojlanish darajasi holatini nazorat qilish, ularni o‘qitish va tarbiyalashning aniq, uyushgan, maqsadli rejasi ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim. Maktabda o‘qishga yoki boshlang‘ich ta‘limga tayyorlik – bu bolada uyg‘un ravishda birlashtirilgan yetarli ko‘nikma va bilimlar majmuasini anglatadi. Dunyoda o‘zining ta‘lim tizimi bilan ajralib turadigan yapon ta‘lim nazariyasiga ko‘ra, bolaga 5 yoshgacha o‘zi xohlagan barcha narsaga ruxsat beriladi, shundan so‘ng boshlang‘ich sinfga tayyorgarlik darslari boshlanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining boshlang‘ich ta‘limga tayyorligi va o‘quv tarbiyaviy faoliyatlarida nimalarga e‘tibor qaratish lozimligi xususida ko‘pgina olimlar o‘zlarining tadqiqotlarida turli fikr-mulohazalarini ilgari surishgan. Rus olimi K.D.Ushinskiy birinchilardan bo‘lib bolalarning boshlang‘ich talimga tayyorligi masalasi haqida fikr yuritib, Ta‘liming har qanday nosqichini amalga oshirishda bolaning rivojlanish darajasi asosiy omil ekanligini ta‘kidlaydi. U bolalarni o‘rganishga tayyorlashning asosiy yo‘nalishlarini aniqlaydi, Bular:

- rasm chizish, bitta mavuga e‘tibor qaratish qobiliyatini rivojlantirish;

- bolaning unga aytilayotganlarni diqqat bilan tinglash;  
 - fikrini to'liq jumlar orqali ifoda etishga o'rgatish;  
 - bolalarni yozuvga o'rgatishdan oldin ularning qo'llarini mashq qildirish;  
 - obyektlarni to'g'ri hisoblashga o'rgatish bo'lib, ular keyingi o'quv bosqichi uchun muhim faoliyat ekanligini o'z izlanishlarida keltirib o'tadi. Bundan tashqari K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktanga tayyorlikni faqatgina savodxonlikka tayyorgarlik deb tushunmaslik kerakligini ta'kidlaydi [3].

D.B.Elkonin boshlang'ich sinfga tayyorlik muammosini ko'rib chiqib, birinchi navbatda o'quv faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish kerakligini ilgari suradi [4].

A.N.Leontev umuman olganda psixikaning rivojlanish darajasiga va bolaning o'z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishini muhim deb hisoblagan [5].

G.G.Kravtsov va E.E.Kravtsov o'zlarining tadqiqotlarida maktabga tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida kommunikativlikni ko'rsatib, bolaning muloqot qoidalariga e'tibor qaratishi, kattalar va tengdoshlar bilan mazmunli aloqa o'rnatish va birgalikdagi faoliyatda o'zaro muloqot elementlaridan foydalanish ko'nikmalarini egallashi lozimligini ta'kidlab o'tishgan [6].

A.V.Zaporojes o'z navbatida boladagi harakatlarni ixtiyoriy ravishda tartibga solish, kognitiv, analitik va sintetik faoliyatni rivojlantirishga tayyorlikni aytib o'tadi [7]. Shu bilan birga tayyorlov yosh guruhlarida ta'lim-tarbiya jarayonini ko'proq o'yinli tarzda tashkil qilish ma'quldir, chunki V.A.Suxomlinskiyning so'zlariga ko'ra, kashfiyotchilik, o'yin va ijodkorlik bolaning hayot tarzini yanada boyitadi. Bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlashni ko'proq o'yinli tarzda olib borish asta-sekin boladi "men xohlayman" so'zi o'rni "men bajaraman, men bajarishim kerak" so'zi egallab boshlaydi. Maktabga tayyorlik faqat o'qish va yozish malakalari bilan cheklanmaydi. Ko'proq darajada bu shakllangan psixik va tizimli o'qishga munosbat, shuningdek yangi sharoitga moslashish qobiliyatidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bolalarni maktabga borishdan oldin egallashi kerak bo'ladigan ko'nikmalar umumiy rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonni o'z ichiga oladi.

fikrini aniq bayon qila olish;  
 o'zi haqida ma'lumot berish qobiliyati (familiyasi, ismi, yoshi, manzili, ota-onasining ismi, kasbi, telefon raqami);

obyektlar orasidagi farq va ularni aniqlash;  
 gigiyena vositalaridan foydalanish va o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini (kiyinish, yechinish, tishlarni tozalash, mustaqil ovqatlanish va hokazo) egallash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashning eng muhim vazifalaridan biri bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlashdir. Ma'lumki, bolalarni 1-sinfda o'qishga tayyorlash bolalar maktabga kelishida ancha oldin boshlanadi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, alohida markazlarda va maktablar qoshidagi boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhlarida bolalarga deyarli tanish bo'lgan faoliyat turlari asosida amalga oshiriladi, bular quyidagilar.

o'yin turlari orqali;  
 rasm chizish;  
 yozish;  
 qurish-yasah;  
 nutqiy mashg'ulotlar orqali.  
 Bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlashda quyidagi yo'nalishlarni alohida ajratib ko'rsatish zarur  
 Bolaning boshlang'ich ta'limga psixologik tayyorligi;  
 bolaning ruhan maktabga tayyorligi bo'lib, u kamida 10-15 daqiqa davomida har qanday faoliyatga e'tibor qaratishi;

diqqatli bo'lishi va o'qituvchining topshirig'iga muvofiq harakat qilishga tayyor bo'lishi kerak;

yaxshi xotira;  
 mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, u tengdoshlari bilan xotirjam muloqot qilishi va muayyan vaziyatda o'zini tuta bilishi, mustaqil va birmuncha mas'uliyatli bo'lishi kerak.

Bolaning boshlang'ich ta'limga jismoniy tayyorligi. Bu bolaning muvaffaqiyatli ta'lim olishi va o'rganishiga imkon beradigan qoniqarli salomatlik holatini anglatadi. Bunga motorikalarning rivojlanganligi, partada to'g'ri o'tirish, organizmning muvozanatni ushlab tura olish va boshqalar kiradi.

Bolaning boshlang'ich ta'limga intellektual (aqliy) tayyorligi. Aqliy jihatdan tayyorlik bolaning 1-sinfga kirish paytida zaruriy bilimlar bazasiga ega bo'lishi, tevarak-atrof haqidagi hodisalar haqida kognitiv bilimlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Shuningdek, u maktabga hissiy-irodaviy tayyorgarlikni, ya'ni o'rganishning ahamiyatini tushunishni, qiziquvchanlik va rivojlangan nutq, fikrlash va xotira muhim ahamiyatga ega.

**Tahlil va natijalar.** Bola qanday faoliyat turi bilan shug'ullanmasin, tevarak-atrofdagi olamdan o'zi uchun yangi bilimlarni hosil qiladi, yangi narsalarni o'rganadi ( naqsh chizish, kubiklardan uy qurish, plastilindan hayvon haykalchalarini yasash va boshqa faoliyat turlarida). Keyinchalik ushbu faoliyat turlari o'quv faoliyati ko'rinishini egallaydi va olingan bilimlar bola faoliyatining ongli maqsadiga aylanadi, o'zining harakatlarini anglay boshlaydi, tushunadi va bajaradi. Mashg'ulotlarni o'tkazishda bolada stolda to'g'ri o'tirish, qalam yoki ruchkani to'g'ri ushlab, o'qituvchining savollariga to'g'ri javob berish, diqqat bilan tinglash va savollarga javob berish qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

1-sinf va maktabga tayyorlov guruhining o'quv faoliyati o'zaro mos keladi bular quyidagilar:

so'zlarni ovozi tahlil qilish;  
 tovushlarni bilishi, to'g'ri talaffuz qila olish;  
 so'z boyligini yangi so'zlar bilan to'ldirib borish;  
 10 soni ichida to'g'ri va teskari hisobni erkin bajarish;  
 asosiy geometrik shakllarni bilish;  
 fazoviy tasavvurga ega bo'lish;  
 vaqt haqida tasavvurga ega bo'lish.

Olib borilgan kuzatishlar asosida maktabga tayyorlov guruhi va boshlang'ich sinf o'quv dasturlaridagi bir-biriga nisbatan yaqin mazmundagi ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyat turlari mavjudligini ko'rinishim mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, maktabga tayyorlov guruhi bolalarining boshlang'ich ta'limga qadam qo'yishi shaxs shakllanishida, uning ta'limning keyingi pog'onasida o'quv-tarbiyaviy faoliyat mazmunini muvaffaqiyatli o'zlashtirishida muhim ahamiyatga. Bugungi kunda bolaning maktabga elementar boshlang'ich bilimlar bilan kelishi zamon talabiga aylanmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan ta'lim-tarbiya dasturlari maktab darsliklarini puxta egallash uchun asos vazifasini o'taydi va maktabgacha talim tashkilotlarida, maktablar qoshida va alohida bilim beruvchi markazlarda bolalarni maktabga har tomonlama tayyorlash, mantiqiy tafakkur doirasini kengaytirish, nutqiy hamda intellektual salohiyatini zaruriy bilimlar bilan boyitish, savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha olib boriladigan ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni va takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shunday ekan, tarbiyachi-pedagog va o'qituvchilar kelajak avlodni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida voyaga yetishishlari uchun zamonaviy ta'lim metod hamda texnologiyalaridan foydalanib bolalarni maktabda boshlang'ich sinfda o'qishga tayyorlashda o'zlarining pedagogik mahorati

va kasbiy salohiyatini zamon talabiga mos ravishda muvofiq.  
rivojlantirib, yangi bilimlar bilan boyitib borishlari maqsadga

#### ADABIYOTLAR

1. Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim j., 2007. 6-son.
2. M.Rasulova, D.Abdullayeva, S.Oxunjonova, «Bolalarni maktabga psixologik
3. tayyorgarligi» T., 2004 yil.
4. Терещенко М.Н., Подготовка детей к обучению в школе: вчера и сегодня -Актуальные вопросы современной науки, 2008. 226-б.
5. Гуткина Н.И., Психологическая готовность к школе. – М. Академический Проект, 2000. 184-б.
6. Семаго Н.Я., Семаго М.М., Теория и практика углубленной психологической диагностики. От раннего до подросткового возраста Монография. – М. АРКТИ, 2016. – 56 б.
7. Кравцов Г.Г., Кравцова Е.Е., Психология и педагогика обучения дошкольников: Учебное пособие. – М. 2013. –264 б.
8. Митичева Т.И., Шадрин Я.А., Особенности подготовки детей дошкольного возраста к обучению в школе. Молодой ученый. – 2017, 700-б.
9. Xalilova N.I., Norqo'ziev D.B. Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi metodik qo'llanma.T. 2009 y.



UDK: 681.142.37:371.3

**Feruz SHERMANOVA,**  
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: feruzashermanova@yandex.ru

TDPU professori M.Mamarajabov taqrizi asosida

## MEDIA LITERACY OF STUDENTS BASED ON THE DEVELOPMENT TRENDS OF MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IMPROVEMENT

Annotation

The article discusses the essence of media and information literacy, as well as trends in the development of media literacy of students of higher education institutions in the digital environment. Researches and achievements of scientists of Uzbekistan and foreign countries in this field are analyzed. Specific features of international cooperation on the development of media and information literacy are highlighted.

**Key words:** Media education, media literacy, information literacy, international cooperation, culture of receiving information, university network, expert.

## РАЗВИТИЕ МЕДИАГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ УЛУЧШЕНИЕ

Аннотация

В статье рассматривается содержание медиаграмотности и информационной грамотности, а также тенденции развития медиаграмотности студентов высших учебных заведений в цифровой среде. Были проанализированы исследования и достижения узбекских и зарубежных ученых в данной области. Освещаются особенности международного сотрудничества по развитию медиа и информационной грамотности.

**Ключевые слова:** Медиаобразование, медиаграмотность, информационная грамотность, международное сотрудничество, культура получения информации, Университетская сеть, эксперт.

## TALABALAR MEDIASAVODXONLIGINI ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada Media va axborot savodxonligining mazmun mohiyati, shuningdek, raqamli muhitda oliy ta'lim muassasalari talabalari mediasavodxonligining rivojlanish tendentsiyalari haqida so'z boradi. O'zbekiston hamda xorijiy davlat olimlarining mazkur soxaga oid izlanishlari, yutuqlari tahlil qilingan. Media va axborot savodxonligini rivojlantirish bo'yicha xalqaro hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Media-ta'lim, mediasavodxonlik, axborot savodxonligi, xalqaro hamkorlik, axborot olish madaniyati, universitet tarmog'i, mutaxassis.

**Kirish.** Bugungi kunda jamiyat, ilm-fan taraqqiyoti, insoniyat kundalik maishiy va kasbiy faoliyat sohaslariga ilg'or texnologiyalar, ayniqsa OAV ta'sir doirasining kuchayishi har qanday mutaxassisga axborot oqimi bilan ishlashning samarali usul va texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq qilishni taqozo etmoqda. Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari milliy va xalqaro ta'lim muhitida tahsil oluvchilarda mediamakonda axborotlarni o'zlashtirishga nisbatan faoliyatli, tanqidiy va kreativ yondashuvni rivojlantirish, mediasavodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirishga ahamiyat qaratilmoqda. Ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonligi ta'lim va medianing integratsiyasi asosida rivojlantirish faoliyatini yo'lga qo'yish, mediabilimlarni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali bo'lajak mutaxassislarning mediakompetentligini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ta'lim amaliyotida bu sohada izlanishlar o'tgan asrning 60-70 yillaridayoq boshlandi va pedagogika fanida o'ziga xos yo'nalish - mediata'lim paydo bo'ldi. Yangi yo'nalish o'quvchilar va talabalarga media axborot dunyosiga moslashishga, ommaviy axborot vositalari tilini o'zlashtirishga, mediamatnlarni tahlil qila olishga yordam berishi ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda axborotlarning mazmunini ham, ularning OAV orqali tarqatish usullari va yo'llarini ham nazorat qilish qiyin. Ayniqsa, internetning ommalashishi bu jarayonni yanada murakkablashtirdi. Axborotning tovar sifatidagi ta'siri yoshlarning mustaqil ravishda tafakkur qilishida ko'rina boshladi.

Media ko'nikmalariga ega bo'lgan yoshlar Internetdan foydalanishning me'yorlari, qoidalari va uni boshqaruvchi qonunlarga rioya etishi lozim. Agarda foydalanuvchi mediamadaniyatidagi xususiylik me'yorlari bilan tanish bo'lmasa, u o'zi anglamagan holda xususiy axborotni jamoatchilikka oshkor qilishi mumkin. Internet-ta'lim turli kasbiy sohalarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy o'sishga ko'maklashadi. Raqamlashtirish va axborotni saqlash jarayonining oddiyligi, shuningdek, turli qurilmalar vositasida ma'lumotga ega bo'lish Internetda insonlar uchun qulay bo'lgan axborot resurslarini ko'paytirish imkonini berdi. Bolalar va yoshlar turli ilovalardan yaxshi foydalana olgani sababli, Internetdan o'zining manfaati yo'lida foydalanadi shu bilan birgalikda bir vaqtning o'zida undan himoyasizdir. Internetdan foydalanishning real dunyoda bo'lgani kabi ma'lum xavfi ham mavjud. Ulardan himoyalashning eng yaxshi usuli yoshlarga Internetdan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan shunday xavflarni boshqarishni o'rgatishdir.

Bu ma'noda O'zbekistonda yoshlar va bolalarda mafkuraviy immunitetni hosil qilish, media va axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirish borasida o'quv-tarbiya tizimi yuzaga kelmoqda. Mamlakatning barcha ta'lim muassasalarida tashkil etilgan axborot-resurs markazlari, shuningdek, o'quv jarayoniga kiritilgan muayyan, (Mediasavodxonlik va axborot madaniyati, «Axborot-psixologik xavfsizlik», «Axborot xavfsizligi asoslari») fanlar foydalanuvchilarga muloqotning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va axborotni mediakontent tarmog'ida tarqatish imkonini beradi[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** “Media” tushunchasi inglizcha atama bo'lib, u bugungi kunga kelib O'zbekiston hududida til iste'molida faol qo'llanilmoqda.

XX asr o'rtalaridan boshlab texnologiya omillarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda hal qiluvchi o'rin tutib borishi media muammosining tadqiqotchilar, ayniqsa, G'arb olimlari tomonidan faol o'rganilishiga xizmat qildi. Medianing individ va jamiyatga ta'siri, shaxsning kommunikasiya jarayonlaridagi o'rni bilan bog'liq masalalar G.Lassuel, U.Shramm, G.Gerber, G. Innis, M.Maklyuen singari anglo-sakson dunyosi olimlarining asarlarida keng yoritildi. Aynan anglo-sakson maktabida “media” fenomeni bo'yicha keng, har tomonlama tadqiqotlar olib borildi. XX asrning 60-yillarida Toronto universiteti negizida yangi ilmiy yo'nalish ochilib, u yangi texnologiyalarning inson ongi va faoliyati ta'siriga bag'ishlandi. Professor G.Innis rahbarligidagi birinchi guruh kommunikasiya texnologiyalarini o'rgangan bo'lsa, professor M.Maklyuen ommaviy kommunikasiyalar, mediata'lim fenomenlarini tadqiq qildi. Keyinchalik ushbu ilmiy yo'nalish “Toronto kommunikasiyalar nazariyasi maktabi” nomini oldi.[2].

Xalqaro ilm-fan olamida “mediasavodxonlik” (media literacy) atamasi ham mustahkam o'rin egallagan. Valter Benyamin[3], Lorens Engel (Germaniya) [4], Nikolas Negroponte[5], Noam Xomskiy (AQSH) [6], Александр Федоров (Rossiya) [7], Styuart Xoll (Buyuk Britaniya) [88] singari olimlar o'z asarlarida mazkur tushuncha haqida fikr yuritganlar.


Mediasavodxonlikni Xurshid Do'stmuhammad “axborot madaniyati” yoki “info etika” deb ataydi.[9] Qanday

atashimizdan qat'iy nazar, globallashuv sharoitida axborotdan saqlanish ko'nikmasining paydo bo'lgani rost. “Nobel mukofoti sovrindori, iqtisodchi Gerbert Saymonning fikricha, hozirgi paytda axborot o'z iste'molchilarini(resipientlarini) qirib tashlamoqda, yeb bitirmoqda”.[10] Mana shunday sharoitda mediata'limning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda aholining faolligini oshirish bo'yicha izlanish olib borish dolzarb vazifadir. Mediata'limdan ko'zlangan maqsad mediasavodxonlikni shakllantirishdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Agarda savodxonlik “muayyan soha bo'yicha yetarli bilimga egalik” [11] ni anglatsa, u holda “mediasavodxonlik” tushunchasini shaxsning shaxsiy yoki kasbiy qiziqish, ehtiyoj hamda majburiyatlaridan kelib chiqqan holda media orqali tarqatilayotgan axborotlar bilan tanishish, ularni tanlash, saralash, tahlil qilish va baholash bo'yicha yetarli bilimga egalik”ni yoritishga xizmat qiladi, deb izohlash mumkin.

Rossiya FRda YuNESKO va mazkur tashkilotning Ta'limda axborot texnologiyalari Instituti tomonidan 2012 yilda “Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik asoslari” ishlab chiqilgan. Shuningdek, “Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari” nomli o'quv-metodik qo'llanma nashr etilgan. Qo'llanma o'ziga xos metodik tuzilmaga ega bo'lib, unda mavzular bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarni turli yoshdagi shaxslar, jumladan, o'quvchilar o'rtasida “nazariy g'oyalalar ↔ amaliy ko'nikma-malakalar” birligi asosida taqdim etiladi.

Mediadan foydalanish yoshlar, ayniqsa talabalarining bo'sh vaqtini o'tkazishning muhim qismi hisoblanadi. Shu bois mediata'limning yoshlar bilan ishlash jarayoniga integratsiyalashuvi tabiiy holdir. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar mediapedagog sifatida ularning mediaolami va mediamadaniyatini yaxshi biladi. Yoshlar mediamadaniyati kattalarnikidan sezilarli tarzda farqlanishi mumkin. Shu sababdan yoshlar va kattalar o'rtasidagi tushunmovchilikni bartaraf etish hamda yuqori sifatli mediata'limni ta'minlash maqsadida medialar mohiyati hamda yoshlar mediamadaniyati xususida aniq tasavvurlarga ega bo'lish dardkor.



**Tahlil va natijalar.** Axborotlashuv sharoitida axborot havfsizligini ta'minlashdagi muhim omil – inson omilidir. Chunki bugun “axborot” tushunchasi inson tafakkuriga turli ko'rinishda ta'sir etib, uning hayoti va taqdirini muayyan bir tomonga – salbiy yoki ijobiy tarafdagi burib oladigan kuchli vositaga aylandi. Bu esa, o'z navbatida, har bir shaxsdan kuchli sezgirlikni talab etmoqda. Sababi yoshlar katta avlodga nisbatan mediadan ko'proq foydalanmoqda. Ammo bunday sharoitda yoshlar ongini axborotdan cheklash kerakli natijani ta'minlamaydi. Bu holat demokratik qadriyatlariga zid.

Shuning uchun ham yoshlarda axborot olish madaniyatini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, axborot makonining globallashuvi sharoitida mediata'limning o'rni nihoyatda muhim bo'lib, ijtimoiy – siyosiy ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va olimlarimizning mediadan ta'lim jarayonida foydalanish borasidagi fikrlariga qaramay, o'quvchilarda mediata'limni rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Dastlabki olingan tajriba-sinov natijalarda olingan xulosalar shuni ko'rsatadiki:

mehnat bozorining zamonaviy axborot texnologiyalari va internet tizimidan professional yo'naltirilgan foydalanish qobiliyatiga ega mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir paytda universitet bitiruvchilarining jahon axborot makonida o'z kasbiy salohiyatini namoyon etishga yetarli darajada tayyor emasligi;

talabalarining bugungi kunda media makonda ko'ngilochar, saviyasiz kontentlarni kuzatishda faolligi, internetga qaramlik, mafkuraviy tahdid, kiberlyudomaniya kabi tushunchalarni deyarli anglamasligi va tabiiy ravishda mediasavodxonlik sifatlariga ega emasligi;

talabalarining media makon qurish istagi va tanqidiy idrok etish, ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilish, media matnlar, media resurslarni yaratishga tayyor emasligi;

Jamiyatning axborotlashuvi sharoitida inson xavfsizligining ko'plab an'anaviy muammolari jiddiy

o'zgarishlarga uchradi. Axborot xavfi ko'lamining kengayishi, yangilanishi hamda yangi xavf manbalari, xavf omillari, qiziqish va qadriyatlarining himoyalaniishi kabi hodisalar ro'y bermoqda. Yangi xavf manbalari sifatida kompyuter, Internetning turli xil axborot resurslari, kompyuter o'yinlari va boshqalarni qayd etib o'tish mumkin. Axborotdan foydalanishda yuzaga keladigan xavf omillari esa quyidagilardan iborat: kompyuter ishidagi turli ishdan chiqishlar, sifatsiz dasturiy mahsulotlar, yuqori elektr quvvati, elektromagnit maydonlar, pornografik xarakterdagi axborotlar, xayoliy sport mazmunidagi dasturiy o'yinlar, axborot tarmog'idagi xakerlar harakati va firibgarliklar hamda b[12].

Talabalarini axborot muhiti da harakat qila olishlari, o'zlari uchun maqbul (falokatga olib bormaydigan) yo'lni topa olishga o'rgatish u jarayonga tizimli, majmuaviy yondashuvni taqozo etadi. Bizning nazarimizda unga erisha olishning eng samarali yo'li – mediata'lim tizimini yanada shakllantirish hamda amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlash hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mamatova Ya., Sulaymanova S. "O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida" O'quv qo'llanma.–T.: «Extremum-press», 2015. 48 b.
2. Shermanova F. "Theoretical and methodological aspects of the development of children's intellectual and creative abilities on the basis of media education" "AKADEMICIA: An International Multidisciplinary Reseach Journal" IMPAKT FAKTORI:7.492. 2021y.Aprel 4-son 115b
3. wikipedia.org/wiki/Walter\_Benjamin
4. Kittler Friedrich. Literature. Media. Information Systems. – Amsterdam: "OPA", 1997. – p. 7.
5. [https://en.wikipedia.org/wiki/Nicholas\\_Negroponte](https://en.wikipedia.org/wiki/Nicholas_Negroponte)
6. [https://en.wikipedia.org/wiki/Noam\\_Chomsky](https://en.wikipedia.org/wiki/Noam_Chomsky)
7. Фёдоров А.В. Медиаобразование: вчера и сегодня. – М.: Изд-во МОО ВПП ЮНЕСКО "Информатсия для всех", 2009.
8. en.wikipedia.org/wiki/Stuart\_Hall
9. Дўстмухаммад Х. Ахборот мўъжиза, жозиба, фалсафа, Т.: "Янги аср авлоди" 2013, 317-бет, Б44.
10. Павликова М.М. Парадоксы информационного общество Вестник МГУ серия 10 журналистика №1 2008 35 бет.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев тахрири остида. Тахрири хайъати: Э.Бегматов ва б. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 416-б.
12. Сирлибоева Б. Ахборот хавфсизлиги ва ўқувчиларда ахборот хавфсизлиги кўникмасини шакллантириш. – Самарканд: СамДУ нашриёти, 2011. – 33-47-б.





*Iskandar SHERNAZAROV,*  
*Nizomiy nomidagi TDPU professor v.b., p.f.d*  
*E-mail: shernazarov\_iskandar855@mail.ru*

*NavDPI p.f.d., (DSc), prof v.b., M.Sh. Ahadov taqrizi asosida*

## TALABALARNING KREATIV FIKRLASHINI BAHOLASH ORQALI XXI ASR KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Аннотация

Maqolada XXI asr ko‘nikmalarining hayotimizda tutgan o‘rni, o‘rganuvchilari va o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablar, ularga yuklatiladigan vazifalari yoritilgan. XXI asr insonlari kreativ fikrlashi, umrbod ta‘lim o‘rganuvchilari safida bo‘lishi, hamkorlikdagi faol faoliyatni yo‘lga qo‘yishi, zamon bilan hamnafas holda ma‘lumotlar bazasini shakllantira olishi va ularni tahlil eta oladigan darajadagi fikrlashchilardan bo‘lishi talab qilinadi. XXI asrda insonlar shunchaki yashashi emas, ular fikrlarini baholay oladigan darajada kreativ qobiliyatlarni shakllantirgan yetakchilar, ijodkorlar bo‘lishi talab etiladi. Maqoladan ko‘zlangan maqsad ham maqolaning asosiy vazifasi ham shunga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** XXI asr, ko‘nikma, fikrlash, kreativ fikrlash, baholash, kompetensiya, kontekst, AKT savodxonlik, rivojlanish.

## ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ XXI ВЕКА ЧЕРЕЗ ОЦЕНКУ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В статье освещается роль навыков XXI века в нашей жизни, требования, предъявляемые к их ученикам и учителям, задачи, которые на них возлагаются. Люди XXI века обязаны мыслить креативно, быть в рядах обучающихся на протяжении всей жизни, налаживать активную совместную деятельность, уметь формировать базу данных в ногу со временем и быть мыслителями на уровне, способном их анализировать. В XXI веке люди должны не просто жить, они должны быть лидерами, креативщиками, у которых сформировались творческие способности до такой степени, что они могут судить о своем мнении. На это и нацелена цель статьи, и основная задача статьи.

**Ключевые слова:** XXI век, навыки, мышление, креативное мышление, оценка, компетентность, контекст, ИКТ-грамотность, развитие.

## FORMATION OF SKILLS OF THE XXI CENTURY THROUGH THE ASSESSMENT OF CREATIVE THINKING OF STUDENTS

Annotation

The article highlights the role of 21st century skills in our lives, the requirements for their students and teachers, and the tasks assigned to them. People of the XXI century are obliged to think creatively, to be in the ranks of students throughout their lives, to establish active joint activities, to be able to form a database in step with the times and to be thinkers at a level capable of analyzing them. In the 21st century, people should not just live, they should be leaders, creatives who have developed creative abilities to such an extent that they can judge their opinions. This is the purpose of the article and the main task of the article.

**Key words:** XXI st century, skills, thinking, creative thinking, assessment, competence, context, ICT literacy, development.

**Kirish.** XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyoni qamrab oladigan asr. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko‘lamida ham, shuningdek, umuman-butun sayyoramiz ko‘lamida ham sobitqadamlilik va barqarorlikni qudratli omili deb hisoblamog zarur. I

XXI asr yangi taraqqiyotlar asri sifatida alohida e‘tirof etiladi. Vaqt o‘tgan sari insonlarning bilimi, dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati ham shakllanib boradi. Shu bois ham har bir asrda ma‘lumotlar bazasi shakllantirib turilishi zamon talabidir. XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish ham ta‘lim tizimini isloh etishga qaratilgan asosiy bosqichdir. Xususan, XX asrda e‘tibor asosiy mavzu va baholashga qaratilgan bo‘lsa, XXI asrda asosiy mavzu va baholash bilan cheklanib qolinmay, balki endilikda hayotiy ko‘nikmalar, qobiliyatlar, AKT (axborot-kommunikatsion texnologiyalar) savodxonlik, XXI asr kompetensiyalarini o‘rganish va fikrlash ko‘nikmalari bilan boyitilib borilmoqda [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahonda ta‘lim oluvchilarning funksional savodxonlik tarkibidagi kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasiga oid olib

borilgan tadqiqot ishlarida bir qator natijalarga erishilgan. Jumladan, ta‘lim oluvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish orqali shaxsiy-kreativ salohiyatni oshirishning edukologik jihatlari aniqlashtirilgan (Malayziyaning Utara universiteti); ta‘lim oluvchilarni savodxonliklari va kreativ fikrlash doiralarni rivojlantirish tuzilmasi ishlab chiqilgan (Rossiya ta‘lim akademiyasi ta‘limni rivojlantirish strategiyasi institutining Ta‘lim sifatini baholash markazi). Shu bilan birga funksional savodxonlikni shakllantirish, tabiiy hodisalarni ilmiy talqin qila olish metodikasi takomillashtirilgan (Pedagogik tadqiqotlar kengashi (Avstraliya)), Milliy pedagogika instituti (Niderlandiya), Pedagogik test xizmati (AQSh), ta‘lim sohasidagi tadqiqotlar milliy instituti (Yaponiya) va Vestat (AQSh); kredit-modul tizimi asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining savodxonliklarini baholash uchun moslashtirilgan texnologiya, tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish, ta‘lim oluvchining shaxsiy ijobiy xususiyatlarini baholash metodikasi takomillashtirilgan.

Mamlakatimizda ta‘lim jarayonida ta‘lim sifatini o‘lchash, baholash, tahsil oluvchilarning sifatli ta‘lim olishlarini Xalqaro baholash tadqiqotlari asosida ta‘minlash masalalari mamlakatimiz olimlaridan D.M. Maxmudova, M.T.

Ergasheva, I.E. Shernazarov, G.A. Razakov, Z.B. Sangirovalar ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida olimlari G.S.Kovaleva, L.O.Roslova, G.A.Sidorova, A.Y.Pentin, PISA xalqaro tadqiqoti kontekstida kreativ fikrlashni baholash va rivojlantirish; B.Ye.Mixaylovich, Ye.M.Bugakova, L.S.Baytimerova, V.M.Grebennikova, K.B.Belikov "ta'lim oluvchilarning kreativ faoliyati tushunchasi", uni shakllantirish va rivojlantirish yo'llari, kreativ va ijodiy qobiliyatini shakllantirishning asosiy mazmuni; T.P.Payudis, E.V.Sivak, D.M.Mirzanurova, T.S.Skilevaya, A.Y.Pentin, G.Y.Semyonova, A.Y.Pentin, Ye.A.Nikishova, K.P.Vergeles, N.A.Zagranichnaya, N.V.Shtilmanlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy kontekstni yaratish - XXI asr bugungi kun yoshlari asri sifatida alohida e'tirof etiladi. Bugungi kun yoshlarini kim tarbiyalaydi? Albatta bugungi kun yoshlarini XXI asr o'qituvchilari tarbiyalaydi. Shunday ekan XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish yo'lida asosiy e'tibor o'qituvchilarga qaratiladi. XXI asr o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak degan savolga javob topish maqolaning asosiy maqsadi. Undan oldin ba'zi tushunchalarni izohlab o'tsak.

Ko'nikma-insonning ilgari tajribalar asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Fikrlash-inson ongi ostida uning real hayotga bo'lgan o'y-kechinmalari, qiziqishlari hamda xisssiyotlarini birlashtiruvchi psixologik qobiliyat. Kreativ fikrlash-individning yangi g'oyalarni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiya kiruvchi ijodiy qobiliyat, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikka asoslangan. Kompetensiya- u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan sotsiologiyaviy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi, kompetentlik esa shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya meyorlarini jamiyat talablaridan

XXI asr ko'nikmalarining o'zi nima?



Talabalarning asosiy fanlar bo'yicha tushunchalarini minimal mahoratdan tashqari kengaytirish va ularni kreativ fikrlash qobiliyatlarini oshirish kerak.

XXI asr kompetensiyalari tarkibi: global xabardorlik, moliyaviy, iqtisodiy va biznes xabardorligi, fuqarolik savodxonligi, salomatlik va salomatlikdan xabardorlik. AKT savodxonligi: Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari va XXI asrda o'qitish hamda o'qitishni qo'llab-quvvatlash uchun texnologiyadan foydalanish qobiliyati, ta'lim texnologiyalari standartlariga javob beradigan texnologiyalardan foydalanish qobiliyati [4]. O'ylash va fikrlash qobiliyatlari: tanqidiy fikrlash, tizimli fikrlash, muammoni hal qilish, yaratish va innovatsiyalar.

Hayotiy ko'nikmalar: shaxslararo va o'z-o'zini yo'naltirish qobiliyatlari, shaxslararo va hamkorlik qobiliyatlari, o'z yo'nalishi, hisobdorlik va moslashuvchanlik, ijtimoiy javobgarlik, axloqiy xatti-harakatlar. "Biz o'sishimiz uchun biz odamlarga hali mavjud bo'lmagan ishlarni bajarishga o'rgatishimiz kerak, demak biz ularni ixtiro

kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir. Kontekst-(lot. Contextus- bog'lanish, qo'shilish)-og'zaki va yozma nutqning tug'al qismi. Rivojlanish-tabiati va jamiyatdagi qonuniyatli o'zgarish; bir sifat holatidan boshqasiga, eskidan yangiga o'tish. XXI asr o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar:

XXI asr o'qituvchisi kommunikator sifatida istalgan joyda, istalgan vaqtda muloqot va hamkorlikni ta'minlaydigan vositalar va texnologiyalarni yaxshi bilishi kerak. Ular nafaqat muloqot qilishni, balki muloqotni osonlashtirish, rag'batlantirish, nazorat qilish, mo'tadil qilish va boshqarishni ham bilishadi [2].

XXI asr o'qituvchisi vizyoner sifatida boy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Masalan: rivojlanayotgan vositalar va veb-texnologiyalarning potentsialini ko'rish, tushunib olish va boshqarish, boshqalarning g'oyalarga qarash va ulardan o'z sinflarida qanday foydalanishlarini tasavvur qilish, fanlarni va o'quv dasturlarini ko'rib chiqish va boshqa sohalarida o'rganishni mustahkamlaydigan va qadrlaydigan aloqalarni o'rnatish va boshqa sohalarini o'zlarining o'qitishlarini va talabalarning bilimlarini mustahkamlash uchun vosita sifatida ko'ra olishi.

XXI asr o'qituvchisi, yetakchi sifatida: jarayonlar va modellashtirish ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlash orqali namuna olib borish, loyihaning muvaffaqiyati uchun muhim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash.

XXI asr o'qituvchisi, tavakkal qiluvchi sifatida, kerak: maqsadlarni aniqlash va o'rganishni osonlashtirish uchun u nimani xohlashi va texnologiya nimaga erishishi mumkinligi haqida tasavvurga ega bo'lish, tavakkal qilish va ba'zan talabalarning bilimlariga taslim bo'lish va ushbu raqamli mahalliy aholining kuchli tomonlaridan foydalanish. Shuningdek, XXI asr o'qituvchilari o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantira olishi ham ularning asosiy vazifalaridan biridir [3].

qilishimiz va odamlarni bir vaqtning o'zida ularni bajarishga o'rgatishimiz kerak. Bu qiyin va shuning uchun bizga ijodiy ijodkor bo'lishga intilgan kadrlarni tayyorlashimiz lozim" [4].

"XXI asrda mutaxassislik-bu ma'lumot yoki faktlar zaxirasiga ega bo'lish emas, balki ma'lum bir mavzu bo'yicha ma'lumotni qanday topish va baholashni bilishdir" [5]. Bu fazilatlarining barchasi-hamdardlik, intizom, muammolarni hal qilish qobiliyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati-bu ko'nikmalar dunyo sizni qanday ko'rishini o'zgartirmaydi. Ular o'zimizni qanday ko'rishimizni o'zgartiradilar. Ular har birimizga yangi ufqlar va yangi imkoniyatlarni ishonch bilan izlashga imkon beradi, biz to'siqlar va qiyinchiliklarga va kutilmagan muvaffaqiyatsizliklarga duch kelishga tayyor ekanligimizni ko'rsatadi. Bu esa ta'limning kuchidir [4].

Bugungi texnologiyaga ega, axborotga boy, chuqur bog'langan dunyoni o'rganish nafaqat istalgan joyda, istalgan vaqtda bo'lishi mumkinligini, balki bo'lishi kerakligini ham anglatadi. [5].

XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish borasida turli adabiyotlarni o'rganar ekanmiz ularda bugungi kun muammolari yetarlicha bayon etib o'tilgan. Endilikda asosiy vazifa tadqiqotni yanada davom ettirish va undan ko'zlangan maqsadga ersishishda yangi kompetensiyalarni ishlab chiqishga qaratilishi hisoblanadi. XXI asr-bu bor ma'lumot bilan cheklanib qolish emas, yangi va yana yangi bilim, ko'nikma, malakalarni ishlab chiqish yo'llarini shakllantirish demakdir.

Bizning asosiy maqsadimiz XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish yo'llarini o'rganishdan iborat bo'lib, asosiy e'tibor o'quvchi va o'qituvchiga qaratiladi. Shu bilangina cheklanib qolmasdan, ko'nikmalarni shakllantirishda zarur kompetensiyalarni o'rgatish va XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy vazifalarimizdan biridir. Talabalarning kreativ fikrlashini shakllantirish uchun ularga xalqaro baholash tadqiqotiga oid topshiriqlarni ishlash va ularni baholash metodlarini o'rgatish maqsadida topshiriqlardan namunalari keltirib o'tamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** PISA topshirig'i Yulduzlar yorug'ligi

Said osmondagi yulduzlarni kuzatishni yaxshi ko'radi. U katta shaharda istiqomat qilganligi sababli tunda yulduzlarni o'zi istaganidek tomosha qilolmaydi. Said shaharda ko'ra olmagan juda ko'p yulduzlarni o'tgan yili qishloqqa borganida ko'rdi.

1-savol. Nima sababdan qishloq joylarda katta shaharlardagiga qaraganda ko'proq yulduzlarni ko'rish mumkin?

- A) Shaharda oy yorqinroq nur sochgani uchun ko'pgina yulduzlarning yorug'ligi to'sib qo'yadi  
 B) Qishloq havosida yorug'likni qaytaradigan chang zarralari shahar havosiga nisbatan ko'proq bo'ladi  
 C) Shaharning yorug' chiroqlari sababli ko'p yulduzlarni ko'rib bo'lmaydi  
 D) Transport vositalari va xonadonlardan chiqayotgan issiqlik hisobiga shahar havosi issiqroq bo'ladi [6].

Baholash mezon:

1	3 ta to'g'ri javob: Xonada nechta deraza bor? Xona derazalari ufqning qaysi tomoniga qaragan? O'simlik uchun xonadagi qaysi joy tanlanadi?
0	To'g'ri javob yo'q

Kamola sotib olingan xona o'simliklarini vodoprovod jo'mragidan suv olib sug'ormoqchi bo'ldi, lekin onasi uni to'xtatdi va yaxshisi o'simliklarni bu suv bilan sal keyinroq sug'orish kerakligini aytdi.

2-savol: Nima uchun o'simliklarni jo'mrakdan olingan suv bilan sug'orib bo'lmaydi? Bitta to'g'ri javobni belgilang [9].

Baholash mezon:

1	To'g'ri javob: C) Suvdagi zararli moddalar bug'lanib ketishi uchun tindirish kerak
0	Boshqa javoblar yoki javob yo'q

PISA topshiriqlari	Ilmiy bilish turlari	Kompetensiya	Kontekst	Kognitiv daraja	Qo'llanish sohasi
Yulduzlar yorug'ligi	Yer, fazo	Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish	Shaxsiy	Quy	Astronomiya
Xona o'simligi	Tirik sistemalar	Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish	Shaxsiy	O'rta	Biologiya

**Natijalar.** Ushbu topshiriqlar asosida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini baholash imkoniyatiga ega bo'lamiz. XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini baholash asosiy vazifa sifatida olingani bois ham uni shakllantirish juda katta ahamiyatga ega.

Baholash usullari ham o'quvchilarning tushunish darajasini va muammolarni hal qilish qobiliyatini aniq aks ettirishi kerak. Bu, an'anaviy testlardan tashqari, o'quvchilarning loyihalari, tadqiqotlari va taqdimotlari orqali ularning yutuqlarini ko'rsatib berishi mumkin [9].

Baholash mezon. Mazkur topshiriqni bajarish uchun oquvchilar keltirilgan javob variantlarini diqqat bilan o'qib, tahlil qilishlari kerak:

A) javob varianti haqida gap ketganda, aytish kerakki, oy shahar va qishloqlarga birdek «nur sochadi»;

B) javob varianti: shaharda, aksincha, sanoat ishlab chiqarish korxonalari, transport vositalari ko'p bo'lganligi sababli havoda chang zarralari ko'proq bo'ladi;

C) javob varianti: kechasi ko'pgina chiroqlar yongani tufayli shahar ko'chalari yorug' bo'ladi, shu sababli yulduzlarni ko'rib bo'lmaydi;

D) javob varianti: shahar- larda transport vositalari va xonadonlardan ko'p miqdorda ajralib chiqayotgan issiqlik yulduzlarni ko'rishga to'siq bo'la olmaydi.

Agar o'quvchilar "C) Shaharning yorug' chiroqlari sababli ko'p yulduzlarni ko'rib bo'lmaydi" degan javobni belgilashsa, javob to'liq qabul qilinadi (1 ball).

Javob yo'q yoki boshqa javoblar qabul qilinmaydi (0 ball).

Mazkur savol oquvchilarning hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasini baholashga qaratilgan [7].

PISA topshirig'i

Xona o'simliklari

Kamola o'z xonasini xona o'simliklari bilan bezashga qaror qildi. U o'simliklar sotib olish uchun ota-onasi bilan birga gul do'koniga bordi. Do'kon sotuvchisi Kamolaning ota-onasiga bir necha savol berib, ularga o'simliklarni tanlash bo'yicha maslahat berdi [8].

1-savol: Sotuvchi tomonidan berilgan savollarning qaysilari xona o'simliklarning yashash sharoitlariga tegishli? Barcha to'g'ri javoblarni belgilang.

A) Xonada nechta deraza bor?

B) Xona derazalari ufqning qaysi tomoniga qaragan?

C) Xonaning poli gilam bilan qoplanganmi?

D) O'simlik uchun xonadagi qaysi joy tanlanadi?

E) Xona devorlari plastikdanmi yoki yog'ochdan?

Suvning qattiqligini kamaytirish uchun qaynatish kerak

Suvni sovutish uchun ayvonga olib chiqish kerak  
 Suvdagi zararli moddalar bug'lanib ketishi uchun tindirish kerak

Suvni biroz isitish kerak

**Xulosa va taklif.** XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishdan asosiy maqsad bugungi kun yoshlarini har tomonlama mukammal qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bunda XXI asr ko'nikmalarini o'qitish va o'rganishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

Ideal o'quv muhiti, o'qituvchilar va talabalar barcha o'quvchilar, asosiy e'tibor ko'proq savollarga, kamroq javoblarga qaratilgan, tushunish bilishdan ko'ra muhimroqdir, innovatsiya va kashfiyot ta'limning bir qismidir, biz dunyo bilan bog'lanamiz va o'rganamiz.

XXI asrda o'qitish va o'rgatish quyidagi keng ko'nikmalarga asoslangan bovlishi kerak: haqiqiy va tegishli muammolarni hal qilish uchun birgalikda sorov, ijodkorlik va innovatsiya, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, aloqalar.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish lozimki, biz bugun faqat o'rganuvchi emasmiz, biz bugungi asrning

faol izlanuvchilari, bir qismimiz. XXI asr bu bizning asrimiz. Shunday ekan, XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish va fikrlashni baholash bizning qo'limizda. Biz bugungi XXI asr egalari sifatida oldimizga qo'yilgan asosiy vazifa va maqsadlarni amalga oshirishda o'zimiz uchun munosib yo'lni belgilab olishimiz darkor.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Davlat ilmiy nashriyoti, -2006
2. Maxmudov A.X. "Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy kilishning didaktik asoslari" // Uzluksiz talim. - 2012.
3. Tashkenbayeva U.N. "O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnoma" Toshkent 2020-yil
4. Kutubxonalar, muzeylar va XXI asr ko'nikmalaridan, IMLS (2009), 7-bet
5. Tomas Fridman va Maykl Mandelbaum, ilgari biz bo'lgan, 137-bet (2011)
6. [www.imls.gov/21stcenturyskills](http://www.imls.gov/21stcenturyskills)
7. <http://puzzlemaker.school.discovery.com>
8. [http://life-slc.org/docs/Banks\\_etal-LIFE-Diversity-Report.pdf](http://life-slc.org/docs/Banks_etal-LIFE-Diversity-Report.pdf)
9. <http://www.whitehouse.gov/the-press-office/2011/05/16/remarks-president-booker-t-washington-high-school-commencement>



UDK: 316.422(575.1)

*Alisher SHUKUROV,*

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti ilmiy xodimi*

*O'zRFA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, t.f.n Sh.Qo'ldoshev taqrizi asosida*

## DEVELOPMENT OF CULTURAL STUDIES: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Annotation

In this article, on the basis of the reforms carried out in the development of our national culture, one of the main directions of art and culture, the problems that arise in the training of cultural studies specialists in finding their place in society, the teaching of cultural studies, the fact that few hours are allocated to it, the cultural studies The role and its tasks are discussed in detail, and the problems and solutions are justified.

**Key words:** Cultural studies, cultural functions, communication, education, cultural history, cultural scientist, communication, development, phenomenon, environment, information, activity, social-spiritual, our identity.

## РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРОЛОГИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация

В данной статье на основе реформ, проводимых в развитии нашей национальной культуры, одного из основных направлений искусства и культуры, рассматриваются проблемы, возникающие в подготовке специалистов-культурологов по поиску своего места в обществе. преподавание культурологии, то, что на это отведено несколько часов, роль культурологии и ее задачи подробно обсуждаются, а проблемы и пути решения обосновываются.

**Ключевые слова:** Культурология, функции культуры, коммуникация, образование, история культуры, культуролог, коммуникация, развитие, явление, среда, информация, деятельность, социально-духовная, наша идентичность.

## MADANIYATSHUNOSLIK FANI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy madaniyatimizni rivojlantirishda olib borilayotgan islohatlar asosida san'at va madaniyatning asosiy yo'nalishlaridan biri madaniyatshunoslik mutaxassisligi bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning jamiyatda o'z o'rinlarini topishlarida yuzaga kelayotgan muammolar, madaniyatshunoslik fanining o'qitilishi, unga kam soatlar ajratilganligi, madaniyatshunosning o'rni va uning vazifalari to'g'risida batafsil mulohazalar yuritilib ko'tarilgan muammo va yechimlar asoslab ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Madaniyatshunoslik, madaniyat funksiyalari, ijtimoiylashuv, tarbiyalovchilik, madaniyat tarixi, madaniyatshunos, kommunikatsiya, taraqqiyot, fenomen, atrof-muhit, axborot, faoliyat, ijtimoiy-ma'naviy, o'zligimiz.

**Kirish.** Bugun, yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida milliy madaniyatning nazariy metodologiyasi jihatlarini tadqiq etish zarurati sezilmoqda. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasida madaniyat va san'at kabi muhim fenomen hodisaning jamiyat rivojlanishining boshqa jabxalari bilan uyg'unlikda ilmiy jihatdan ishlab chiqish vazifasi qo'yilmoqda.

Insoniyat taraqqiyotida muhim omillardan biri bu uning dunyo qarashi, ma'naviy salohiyati, odob-ahloqi bilan belgilansa, shularni mujassamlashtirib shakllantiradigan vosita bu madaniyatdir. Milliy madaniyatimizni rivojlantirish, turli yot g'oyalardan asrab, sof holda uning mazmun mohiyatini yoshlarga yetkazish orqali ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Milliy o'zlikni anglash orqali jamiyatning ijtimoiylashuvi va milliy an'ana va qadriyatlariga sodiq bo'lgan yoshlarni tarbiyalash ota-bobolarimizdan meros bo'lib bizgacha yetib kelgan milliy tarbiya qonun-qoidalarini yoshlarga singdirish bilan belgilanadi.

Yoshlar tarbiyasida jamoatchilikning roli susayib borayotgani barchamizni tashvishga solishi lozim, ilgari "bir bolaga yetti mahalla – ota-ona", degan maqolga amal qilib yashardik. O'g'il qizlarimizning axloq-odobi, o'qishi uchun nafaqat ularning ota-onalari, avvalo mahalla ahli, kayvoni keksalar, ziyolilar o'zini mas'ul va javobgar deb bilardi. Shuning uchun ham mahallalarimizda urush-janjal, bezorilik, ichkilikbozlik qilib bekorchi yuradigan yoshlar, oilaviy

ajrimlar kam bo'lardi. Keksa avlod vakillari yoshlarni mehnatga o'z uyini, ko'chalar, guzar va maydonlarni ozoda tutishga o'rgatardi.

Ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat bo'ladi[1].

Bu ulkan vazifalarni amalga oshirishda madaniyatshunoslik fanining o'rni beqiyos bo'lib ushbu fanning maqsadi va vazifalarini yoshlarga o'rgatish, ularning qalbida vatanparvarlik hissini uyg'otish ahamiyatga molikdir. Biroq bugungi kunda yoshlarga ushbu fanni o'qitish borasida yechimini kutayotgan bir qancha masalalar mavjud.

Maqolada kiritilgan muammolar bir necha yillar davomida o'z yechimini topmay, madaniyatshunoslik mutaxassisligi bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning yuragidagi og'riqli nuqtalar hisoblanib, o'z sohasida faoliyat olib borishda qiynalayotgan yoxud undan voz kechishga majbur bo'lgan mutaxassislar dardi hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy sohalariga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqazo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir"[1], degan fikr mulohazalar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi"

asarida keltirilgan bo'lib, unda yurtimizning barcha sohalarini jumladan, milliy madaniyatni rivojlantirish borasida ham batafsil fikr mlohazalar bildirilgan.

Shu ma'noda, bugun madaniyatning alohida ilm-fan sohasi sifatidagi o'rnini belgilash masalasi ham olimlar oldida muhim muammolardan biri bo'lib turibdi. Boshqacha aytganda, bugungi o'zgarayotgan zamonda madaniyat va san'atning inson va jamiyat oldidagi muhim vazifalarini hamda ularning yechimlarini aniqlash muammolardan biriga aylanmoqda[2].

Madaniyatning axborot funksiyasi insoniyat tarixida juda katta vazifani bajaradi. U insoniyat tomonidan ming yillar davomida to'plangan ijtimoiy tajribani, tarixiy merosni ajdodlardan avlodlarga yetkazilishini ta'minlab beradigan muhim omil va vosita hisoblanadi. Faqat madaniyatgina odamlar tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarni saqlashi, o'zlashtirishi, kelajak avlodga yetkazishi, tarqatishi mumkin degan mulohazalar "O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi va targ'iboti" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 6-betida Abdusalil Mavruulovning "Madaniyat va jamiyat taraqqiyotidagi ayrim fikrlar" maqolasidan olingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotchi tajriba-sinov ishlarida o'rganish, tahlil qilish, anketa savol-javob, suhbat, kuzatish, statistika kabi metodlardan foydalandi.

**Tahlil va natijalar.** Bugun Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilayotgan jiddiy islohatlardan ko'zlangan maqsad ushbu sohada tayyorlanayotgan kadrlarning milliy madaniyatimiz tushunchasi, umuman madaniyat tushunchasining mohiyatini chuqur anglashlari, uning nazariy hamda amaliy jihatlarini, funksiyalarini, tarmoqlarini o'zlashtirib yurtimiz ravnaqiga hamda o'sib kelayotgan barkamol avlodga ibrat bo'lish va tadqiq etishlari nazarda tutilgan. Har bir davlat o'z milliy madaniyatini saqlab qolish va targ'ib etishga doimiy tarzda intilishi boisi shundaki: madaniyat inson faoliyatini tartibga soluvchi, uni ezgu maqsadlar sari yo'naltiruvchi, uning hayot yo'lidagi maqsad va vazifalariga ma'no va mazmun beruvchi fenomen xodisadir. Ushbu betakror ijtimoiy-ma'naviy xodisa inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi va har birimizning hayot yo'limizda o'zligimizni namoyon etishimizga yordam beradi. Uning vazifalari haqida tushuncha berib ilmiy tahlil qilamiz.

1. Tevarak-atrofga moslashuvchanlik funksiyasi. Ushbu funksiya madaniyatning barcha funksiyalari orasida eng qadimiysi hisoblanadi. U bir paytning o'zida ham insonga, ham hayvonat olamiga tegishli, deyish mumkin. Ayni paytda ta'kidlash lozimki, inson hayvonat dunyosiga qaraganda ancha avval tabiatning turli qiyinchiliklari, tabiiy ofatlardan saqlanish yo'liga o'tgan.

2. Madaniyatning bilish yoki gnoseologik funksiyasi. Bilish ma'naviy-ruhiy hodisa, insonning olamni anglash qobiliyati, saralangan, tartibga solingan, muayyan usul yordamida olingan, ma'lum mezonlarga muvofiq tartibga solingan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, odamlar va butun jamiyat tomonidan aynan bilim sifatida tan olingan axborot.

3. Madaniyatning axborot funksiyasi. Ushbu funksiya axborotlarni o'zlashtirish, yig'ish va tarqatishdan iborat vazifalarni bajaradi. Axborotni yig'ish va saqlash vositasi tabiiy xotira yoki xabarlarni narsalarga yozish (qo'lyozmalar, kartinalar, plastinkalar, kitoblar, kinotasmalar, ohanrabo yoki raqamli yozuvlar va boshqa shakllarda) sifatida ro'y beradi. Har qanday holatda ham axborotlarni tashkil qilish, uning qadri va mazmuni bo'yicha tartibga solishning ma'lum usuli va belgilar tizimi zarur.

4. Madaniyatning kommunikativ funksiyasi. Kommunikativ so'zi lotinchada muloqatga kirishish, aloqa bog'lash kabi mazmunga ega. Mazkur funksiya vaqt va makon doirasida insonlar o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirishga

xizmat qiladi. Madaniyat aslida insonlar o'rtasidagi muloqotning muhim shakli hamdir.

5. Madaniyatning aksiologik (qadriyatlar) funksiyasi. Qadriyatlar insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qimmatlarning yig'indisidan iborat, deb talqin qilinadi. Baholash qadriyat nuqtai nazaridan voqelikni tahlil qilish faoliyatining tabiiy va zarur shartidir. Madaniyat nimada namoyon bo'lishidan qat'iy nazar muayyan qadriyat o'lchoviga ega bo'ladi.

6. Madaniyatning ijtimoiylashuv funksiyasi. Ushbu funksiya jamiyat hayoti uchun uning haqiqiy a'zosi sifatida zarur hisoblangan ma'lum miqdordagi shartlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Bu funksiya idrok, tafakkur, nutq, so'zlarning qo'llanilishi, ohangi, imo-ishora, tipik hodisalarga munosabat tarzi, shuningdek, talab va qadriyat yo'nalishlari tizimini shakllantirish kabi andozaviy usullarning mustahkamlanishi bilan bog'liq.

7. Madaniyatning tarbiyalovchilik funksiyasi. Madaniyat funksiyalari tizimida uning tarbiyalovchilik funksiyasi alohida o'rin egallaydi. Darhaqiqat, bugungi O'zbekiston jamiyatida sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun ma'naviyatni yanada yuksaltirish, yoshlarni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda[6].

Bu borada Respublikamizning birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan 2008-yil 28-aprel PQ-845-son buyrug'i asosida O'zbekiston davlat san'at institutining Nukus filiali hamda 2012-yil 4-iyun PQ-1771-sonli qarori asosida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutlari tashkil etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 16-avgust PQ-3218-sonli qarori asosida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etilishi va 2018-yil 28-noyabrda PQ-4038-sonli O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlanganligi fikrimizga dalil bo'la oladi. Bugungi kunda yuqorida chiqarilgan qarorlarga binoan tashkil etilgan madaniyat va san'at oliy o'quv yurtlarida madaniyat muassasalarini boshqarish, teatr va kino aktyorlarini tayyorlash, kutubxonalar uchun mutahassislar tayyorlash bilan birgalikda san'atshunos va madaniyatshunoslik mutahassisligi bo'yicha kadrlarni ham tayyorlanmoqda. Jumladan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining magistratura va doktarantura bo'limlarida madaniyatshunoslik mutahassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga madaniyat nazariyasi va tarixi kafedrasida professor o'qituvchilari tomonidan saboq berib kelinmoqda.

Yuqorida e'tirof etib o'tilgan madaniyat va san'atni rivojlantirish borasidagi olib borilgan samaraliy ishlarga qaramasdan bu borada ba'zi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb masalalari bo'lib kelmoqda.

San'at va madaniyat oliy o'quv yurtlarini madaniyatshunoslik bo'yicha tamomlayotgan kadrlar jamiyatda o'z o'rnini topib yurtimiz ravnaqi hamda o'z oila azolari uchun mutahassisligiga oid faoliyat bilan shug'ullanib manfaatdorlikka ega bo'la olmayotganligi, sodda qilib aytganda o'z sohasi bo'yicha ishga joylasha olmayotganligi ko'z yumib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Ular o'z sohalari bo'yicha ishlash maqsadida madaniyat yo'nalishidagi barcha muassalarga murajaat qilgan holda o'zlariga mos ish topa olmaganliklari uchun ba'zi kadrlar o'z faoliyatini boshqa sohalarda davom ettirishga, imkoniyatlari borlari esa ikkinchi mutahassislik bo'yicha boshqa oliy o'quv yurtlarida o'qishga majbur bo'lmoqdalar.

Buning boisi Respublikamizdagi sanoqliy davlat oliy o'quv yurtlaridagina madaniyatshunoslik fani qo'shimcha fan

sifatida o'quv dasturiga kiritilib hamda juda kam soat ajratilgan.

So'zimizga izoh sifatida O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarini ro'yxatini jadval sifatida keltirib o'tamiz:

1.	Oliy ta'lim muassasalari va filiallari	8 ta
2.	Qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari	2 ta
3.	Professional ta'lim(iqtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari va maktab internatlar, kollej va texnikomlar)	38 ta
4.	Bolalar musiqa va san'at maktablari	323 ta

Jadvalda ko'rsatilgan muassasalarning birortasida madaniyatshunoslik fani asosiy fan sifatida o'qitilmaydi.

Aytish joizki san'at va madaniyatning tayanch nuqtasi bo'lmish O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining bakalavr bosqichida tahsil olayotgan talabalar uchun madaniyatshunoslik fani deyarli o'qitilmaydi. Uning o'rniga madaniyat tarixi fani o'qitilsada bu fanga ham yetarli soat ajratilmagan. Holbuki madaniyatshunoslik fani madaniyat vazirligi tizimidagi barcha oliy va o'rta mahsus ta'lim muassalarida o'qitilishi zarur. Biz bu holatni tahlil qilish jarayonida aytib o'tishimiz lozimki madaniyat tarixi fani madaniyatshunoslik tizimidagi fan hisoblansada biroq aynan madaniyatshunoslik fanining mazmun mohiyatini aniqlab bera olmaydi. Shu o'rinda madaniyatshunoslik fani hamda uning vazifalari haqida to'xtalib o'tsak.

Madaniyatshunos so'zi "madaniyat" va "shunos" (bilimdon, olim) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, madaniyatshunos – bu madaniyatni o'rganuvchi, tahlil qiluvchi va uning turli jihatlarini tadqiq qiluvchi mutaxassisni anglatadi. Madaniyatshunoslar jamiyatning madaniy hayoti, qadriyatlarini, an'analari, san'ati, falsafasi, dini va boshqa madaniy elementlarini ilmiy jihatdan o'rganadilar va tahlil qiladilar.

Madaniyatshunoslik fani doirasida madaniyatshunoslar turli xalqlar va davrlar madaniyatini solishtirib, ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladilar. Bu soha ijtimoiy fanlar, san'atshunoslik, falsafa, antropologiya va tarix bilan yaqin bog'liq.

Madaniyatshunoslik quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Madaniy jarayonlarni tahlil qilish: Madaniyatning rivojlanish qonuniyatlarini, uning jamiyatdagi rolini va ta'sirini tahlil qiladi.

- Madaniyatlararo muloqotni o'rganish: Turli madaniyatlar o'rtasidagi munosabatlar va ularning bir-biriga ta'sirini o'rganadi.

- Madaniy merosni saqlash va o'rganish: O'tgan davrlardagi madaniy yodgorliklar, san'at asarlari va boshqa madaniy merosni saqlash, tadqiq qilish va ularni keyingi avlodlarga yetkazish yo'llarini qidiradi.

Madaniyatshunoslik fanining maqsadi madaniyatni keng qamrovli va tizimli o'rganish orqali jamiyat va insoniyatning madaniy rivojlanishiga hissa qo'shishdir.

Shu o'rinda biz yuqoridagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha o'z fikr mulohazalarimizni bildirishni maqsadga muvofiq deb topdik. Fanning maqsad va vazifalari hamda jamiyatdagi rolini tahlil qiladigan bo'lsak har bir madaniyat va san'at muassasida madaniyatshunoslik fanining asosiy fan sifatida o'qitilishini taqazo etadi. Madaniyatshunos o'z vazifasini bajarishi uchun jamiyatning madaniy qatlamini ya'ni milliy madaniyatni saqlab qolishga o'z hissasini qo'shishi uchun yetuk kadr sifatida shakllanishi uning ta'limning eng quyi nuqtasidan yuqorisigacha madaniyatshunoslik fanini o'qib o'rganishni talab etiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston". – Toshkent. – 2022. – 272-bet, 3-bet.
2. A.Mavrolov, M.Mavrolova. Madaniyat nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Donishmand ziyosi", 54-b, 2023.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent. "O'zbekiston", 2022.
4. Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent. "Fan", 1963.
5. E.Gulmetov, T.Qobiljonova, Sh.Ernazarov, A.Mavrolov. Madaniyatshunoslik. – Toshkent. 2000.
6. "O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi va targ'iboti" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. TOSHKENT – 2024. 6-15-betlar

Vaholanki Respublikamizdagi barcha iqtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablarida madaniyatshunoslik fani o'qitilmaydi. San'at va madaniyat institutlari tomonidan tayyorlab chiqarilayotgan madaniyatshunos mutaxassis kadrlarga talabni ko'paytirish orqali ish o'rinlarini shakllantirish borasida quyidagi tavsiya va takliflarimizni beramiz:

respublikamizda faoliyat olib borayotgan barcha madaniyat va san'at muassasalarining eng quyi pog'onasi hisoblanish musiqa va san'at maktablarida san'at tarixi fani soatlarini ko'paytirish hamda ushbu fandan o'quvchilarga saboq berish uchun madaniyatshunoslarni taklif qilish

barcha madaniyat va san'atga iqtisoslashtirilgan maktablarga madaniyatshunoslik fanini birinchi fan sifatida kamida bir yil o'qitish va shu sohodagi barcha oliy o'quv yurtlarida jumladan O'zbekiston davlat konservatoriyasi, O'zbekiston davlat Xoriagrafiya akademiyasi, Kamolliddin Behzod nomidagi rassomchilik va dizayn institutlarida ham madaniyatshunoslik fanini asosiy fan sifatida o'qitilishi maqsadga muvofiqdir

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda bugungi globallashtirish jarayonida madaniyatning funksialari ham o'zgarib bormoqda. Madaniyat etikasi ya'ni madaniy ahloqshunoslik insonlarning o'z milliy madaniyatiga sodiqligini asrab qolish uchun ularning xulqini tarbiyasini vatanparvarlik milliy g'urur ezgu g'oyalarni qalbiga sindirgan holda tarbiyalash madaniyatning bugungi kundagi muhim vazifalaridandir. Yurtimiz madaniyat va san'atini yanada rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlarning davomiyligini ta'minlashga erishish uchun madaniyat va san'at sohasidagi barcha hodimlarni jamiyatda ibrat sifatida ko'rsatishning asosiy omili bu madaniyatshunoslik fanini chuqur o'zlashtirilish va o'qitilishi bilan belgilanadi. Zero o'z milliy madaniyatini saqlab qolgan va uning bardavomligini ta'minlagan davlat hech qachon inqirozga yuz tutmaydi.

Yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirish natijasida Respublikamiz miqyosida milliy madaniyatimizni rivojlantirish borasida quyidagi yutuqlarga erishiladi:

Madaniyat va san'at borasida tayyorlanayotgan kadrlarning madaniyat nazariyasi va amaliyoti bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishiga erishiladi

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi kadrlar kelajakda o'z shogirtlarini o'z sohasining chuqur bilimdoni bo'lishlariga erishiladi

Bugungi kunda ba'zi oliy o'quv yurtlaridan tashqari umuman madaniyat va san'at sohasidagi iqtisoslashtirilgan maktablarda madaniyatshunoslik fani bo'lmagani bois tayyorlanayotgan kadrlar madaniyatning asl mohiyatini anglamagan holda ta'lim olmoqdalar, agar bu fanning asosiy fan sifatida o'qitilishi yo'lga qo'yilsa o'quvchilarning qiziqishi ortadi

Ular o'z sohalari bo'yicha faoliyat olib borishlari uchun eng muhim jihatlardan biri ish o'rinlari yaratiladi.



**Nargiza YUSUPOVA,**  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*  
**Iskandar SHERNAZAROV,**  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti professori v.b., p.f.d*  
*E-mail: shernazarov\_iskandar855@mail.ru*

*NavDPI professori v.b., p.f.d M.Ahadov taqrizi asosida*

## KIMYO FANIDAN TALABALARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI BAHOLASHNING KONSEPSIYASI VA PEDAGOGIK MODEL

Annotatsiya

Maqolada funksional savodxonlikning muhim tarkibiy qismlari, ta'lim sifati, PISA dasturida baholash, xalqaro miqyosda o'quvchilar funksional savodxonlikni baholash, funktsional savodxonlik va malakalarni baholash, kimyo ta'limi kursida o'quvchilarning funksional savodxonligini baholash, mavjud o'qitish usullarining samaradorligini baholash, kimyo fanini o'qitish jarayonida talabalarning funktsional savodxonligi baholashning konsepsiyasi, baholash usullari hamda metodologik komponentdagi yondashuvlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Funksional savodxonlik, PISA dasturida baholash.

## КОНЦЕПЦИЯ И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ОЦЕНКИ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПО ХИМИИ

Аннотация

В статье освещаются важные компоненты функциональной грамотности, качество образования, оценка в программе PISA, оценка функциональной грамотности учащихся на международном уровне, оценка функциональной грамотности и компетентности учащихся, оценка функциональной грамотности учащихся в курсе химического образования, оценка эффективности существующих методов обучения, концепция оценки функциональной грамотности учащихся в процессе преподавания химии, методы оценки, а также подходы в методологическом компоненте.

**Ключевые слова:** Функциональная грамотность, оценка в программе PISA.

## THE CONCEPT AND PEDAGOGICAL MODEL OF ASSESSING STUDENTS' FUNCTIONAL LITERACY IN CHEMISTRY

Annotation

The article highlights the important components of functional literacy, the quality of education, assessment in the PISA program, assessment of functional literacy of students at the international level, assessment of functional literacy and competence of students, assessment of functional literacy of students in the course of chemical education, assessment of the effectiveness of existing teaching methods, the concept of assessing functional literacy of students in the process of teaching chemistry, assessment methods, and There are also approaches in the methodological component.

**Key words:** Functional literacy, assessment in the PISA program.

**Kirish.** Jahonda sodir bo'layotgan global ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar intellektual salohiyatli, iqtidorli, kreativ fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash amaliyotiga, xalqaro baholash tadqiqotlariga o'quvchi va o'qituvchilarni tayyorgarligini oshirishda tabiiy-ilmiy savodxonlikka alohida e'tibor qaratilgan. Bunda o'qituvchilar o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha turli zamonaviy yondashuvlarni jamlash, binobarin talabalarning tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ fikrlashlarini amaliyotga yo'naltirilgan, ta'lim tizimida talabalar uchun funksional savodxonlikni shakllantirishga imkon beruvchi integrativ faoliyat amalga oshiriladi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro baholash dasturlarida bugungi kunda ta'lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, ta'lim tizimida o'zgarishlar kiritish zarurligi ta'kidlangan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari va talabalarning iqtidorini aniqlash, ijodiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish qator tadqiqotlar va ilmiy ishlarda yoritilgan; o'quvchi va talabalarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish M.Vaxobov, M.A.Yuldashev, U.

Inoyatovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan bo'lsa, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va shu asosda ijodkorligini oshirish, bilim darajasini diagnostika qilish masalalari N.Azizxodjaeva, U.Inoyatov, B.Xodjaev, U.Sodiqovlarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Ta'lim sifati baholash muammosining dolzarbligi mahalliy va xorijiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida olib borilgan tadqiqotlar bilan yaqqol namoyon bo'ladi. Shunday qilib, so'nggi yillarda ta'lim sifati tushunchasining mohiyatini ochib berish kabi masalalarga katta e'tibor berilmoqda. Rossiya davlatida bu soha bo'yicha bir qancha olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Masalan: ta'lim sifati tushunchasining mohiyatini ochib berishda V.P. Bepalko, G.A.Bordovskiy, B.G. Gershunskiy, V.P. Panasyuk, M.M. Potashnik, N.A.Selezneva va boshqalar, pedagogik kvalimetriya bo'yicha V.P. Bepalko, A.I.Su-Betto va boshqalar, talabalarning bilim va ko'nikmalarining sifati (E.A.Krasnovskiy, T.L.Kogan va Y.Lerner, M.N.Skatkin va boshqalar), talabalar ta'limiga darajadagi yondashuv (O.E. Lebedev, L.M. Perminova, A.P. Tryapitsina va boshqalar), ta'lim sifati monitoring qilish va diagnostika qilish (B.P. Bitinas, V.V. Guzeev, I.Yu. Gutnik, V.A. Kalney, V.N. Maksimova, A.N. Mayorov, S.E. Shishov, A.P. Tryapitsina va



boshqalar), talabalar yutuqlarini baholash (V.M. Blinov, V.Pisarev, V.M.Polonskiy, A.N. Mayorov va boshqalar), kompetensiyaga asoslangan yondashuv (I.Y. Aleksashina, O.V. Akulova, V.A. Kalney, S.P. Pisareva, S.B.Shishov va boshqalar). Ko'pgina ishlar xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bajarilgan (K. Ingenkamp, I. Kosta, R. Wohlseller, D. Nixon, G. Cawelti, M. Holt va boshqalar).

**Tadqiqot metodologiyasi.** “Funksional savodxonlik” atamasi 1957 yilda Vilyam Grey tomonidan YUNESKOning “O'qish va yozishni o'rgatish” tadqiqotida paydo bo'lgan. Biroq, funksional savodxonlikni rivojlantirish masalasi dunyoning tobora o'sib borayotgan axborot murakkabligi bilan bog'liq holda faqat 1980-yillarda dolzarbliikka ega bo'ldi. Bugungi kunda funksional jihatdan savodli bo'lish hayotiy zarurat bo'lib, mamlakatning farovonligi, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Zamonaviy inson – faoliyatning barcha sohalarida muvaffaqiyatli ishlashiga va tez o'zgarib turadigan axborot muhiti bilan integratsiyalashuviga imkon beradigan shunday darajaga ega bo'lishi kerak. Buning uchun funksional savodxonlikning muhim tarkibiy qismlari bo'lishi kerak:

doimiy ravishda o'rganish va rivojlantirish, faol ijodiy fikrlash, belgilangan vazifalarni hal qilishning nostandart usullarini topish, o'zingizning professional yo'lingizni va hayotiy ko'rsatmalarigizni tanlash imkoniyatiga ega bo'lish.


Hozirgi vaqtda O'zbekistonda o'quvchilarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu maktab o'quvchilarining funksional savodxonlik darajasi

mamlakatdagi inson kapitalining raqobatbardoshligi uchun yetarli emasligi bilan bog'liq [1].

Bugun funksional savodxonlik, kasbiy kompetentlik tushunchasi ta'lim sifati tushunchasi bilan birgalikda qaraladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyo bo'ylab «Sifat inqilobi» yuzaga keldi. Dunyoning yetakchi ishlab chiqarish korxonalari asosiy e'tiborni son va miqdorga emas, balki mahsulot sifatiga qarata boshlashdi. Sifat raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'la boshladi [2].

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, kimyo fanlarini o'rgatish bo'yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi. Bundan ta'lim bo'yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari natijalari ham dalolat bermoqda. Shu o'rinda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ning 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA - o'quvchilar yutuqlarini va hayotiy ko'nikmalarini shakllanganligini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlarini qarashimiz mumkin [3].

PISA dasturida “baholash” o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini, ya'ni maktab dasturi doirasida olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish darajasini aniqlashga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida o'quvchidan funksional savodxonlikni talab etadi. Funksional savodxonlikda o'quvchilar nimani o'rganishlari kerak?



1-rasm. PISA dasturida baholash mezonlari


Baholash - bu nimanidir sifati yoki darajasini aniqlashtirish. Baholash deb, haqiqiy natijalarning rejalashtirilgan natijalar bilan o'zaro bog'liqlik jarayonni sifatida ham tahlil qilishimiz mumkin. Ushbu jarayon ma'lum bir maqsadni ko'zlab o'tkaziladi [4].

Ta'limda baho ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba), ta'lim beruvchi (pedagog xodim, ta'lim muassasi), ta'lim tizimiga beriladi va ta'lim muassasi yoki ta'lim sifatini nazorat qiluvchi davlat yoki nodavlat tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi [3]. Baholash – bu baholanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, kompetensiyalar majmuyi va o'lchanishi lozim bo'lgan xususiyat haqida xulosa chiqarish bo'lib, bu xulosa bilvosita, cheklangan sondagi maxsus yaratilgan

topshiriqlar yordamida chiqariladi. Baholash jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlar yig'indisi test deyiladi [4]. Xalqaro miqyosda o'quvchilar funksional savodxonlikni baholashga qaratilgan PISA tadqiqot dasturida asosiy yo'nalishlar sifatida o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar savodxonligi va kreativ fikrlash kiritilgan.

Shuni ayta olamiz-ki, PISA tadqiqotlaridagi tabiiy fanlar savodxonlik topshiriqlari darajalariga qo'yilgan talablar Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan (savol va topshiriqlar tizimi - bilish faoliyati darajalariga asoslangan) o'quv maqsadlari taksonomiyasiga mos kelishini kuzatish mumkin [8].

## B.BLUM taksonomiyasi



2-rasm. B.Blumning o'quv maqsadlari taksonomiyasi

Blum taksonomiyasiga ko'ra, tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Bu yerda, bilish, tushunish, qo'llash tafakkurning quyi darajasi bo'lib, fundamental bilimlarni tashkil etadi, tahlil, umumlashtirish, baholash tafakkurning yuqori darajasi bo'lib, funksional savodxonlikni tashkil etadi.

Funksional savodxonlik fanlar integratsiyasini talab etadi va o'quvchilarga maktab dasturini ongli tarzda o'zlashtirish, hodisa va jarayonlar o'rtasida qo'llash, munosabatlarni anglash imkonini beradi. Bunda matematika, fizika, kimyo, biologiya, ekologiya fanlaridan faktlarni, nazariyalarni, qonuniyatlarni mazmunli anglash, aniqlashtirish va chuqurlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Bu esa bevosita ta'lim sifatiga juda katta ta'sir etadi [4].

Funksional savodxonlik va malakalar talabalarning kimyoviy bilimlarini hayotiy vaziyatlarda va muammolarni hal qilishda qo'llashlari uchun zarurdir. Kimyo nafaqat faktlar va nazariyalarni yodlash, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va kimyoviy tamoyillarni turli kontekstlarda qo'llash qobiliyatidir.

Funksional savodxonlik va malakalarni baholash o'quvchilarning tushunchalari va bilimlarini yangi vaziyatlarga o'tkazish qobiliyati haqida qimmatli tushunchalar berishi mumkin. Bu ma'lumot o'qituvchilarga talabalar qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lishi mumkin bo'lgan yoki o'qitish strategiyalarini o'zgartirish zarur bo'lgan sohalarni aniqlashda yordam beradi.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda kuchli muammolarni yechish, tanqidiy fikrlash va tahliliy ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxslarga talab ortib bormoqda. Kimyo ta'limi bu ko'nikmalarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi va funksional savodxonlik va malakalarni baholash o'quvchilarning kelajakdagi o'quv va kasbiy faoliyatiga yaxshi tayyorlanishini ta'minlashga yordam beradi [5].

Kimyo ta'limida funksional savodxonlik va malakani baholashning integratsiyasi XXI-asrda muloqot, hamkorlik, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u beradigan hozirgi ta'lim tendentsiyalariga mos keladi.

Funksional savodxonlik va malakalarni baholash nazariy bilimlar va amaliy qo'llash o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradi, bu turli sohalarida, jumladan sog'liqni saqlash, atrof-muhit fanlari va boshqa ko'plab sohalarida martaba izlayotgan talabalar uchun zarurdir.

Funksional savodxonlik va malakalarni baholash, shuningdek, talabalarining amaliy ehtiyojlari va zamonaviy ishchi kuchi talablariga ko'proq mos keladigan yaxshiroq o'qitish metodikasi va o'quv materiallarini ishlab chiqishga yordam beradi [11].

Tahlil va natijalar bo'limi

Kimyo fanini o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligi baholashning konsepsiyasi quyidagicha:

Kimyo fanidan funksional savodxonlik va malakalarni aniqlab baholash:

Kimyo faniga oid didaktik manbalar va loyiha ishlarini dizaynni baholash:

Namuna olish va ma'lumotlarni to'plash, taqqoslash tartiblarini baholash:

Sinovlarini o'tkazish va kimyo laboratoriya asboblarni takomillashtirishni baholash:

Asosiy tadqiqotni amalga oshirish ko'nikma va malakalarini baholash:

Ma'lumotlarni tahlil qilish va sharhlashni baholash:

Hisobot va olingan natijalarni amaliyotga joriy etilishini baholash:

Doimiy baholash va takomillashtirishni baholash:

Baholash usullari qo'yidagicha ifodalash mumkin [15]: yozma baholash, laboratoriya ishini bajarish, kontseptsiya xaritasi, muammolarni yechish vazifalari, metakognitiv mulohazalar.

Kimyo fanidan o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash turli baholash usullarini o'z ichiga olgan ko'p qirrali metodologiyani talab qiladi. Yozma baholash, laboratoriya tajribalari, muammoni hal qilish mashqlari, guruh loyihalari, og'zaki baholash, ish faoliyatini baholash va o'z-o'zini baholashni birlashtirgan kompleks yondashuv tavsiya etiladi. Yozma baholash o'quvchilarning kimyo nazariyalari va tamoyillari bo'yicha bilimlarini tushunish imkonini beradi, laboratoriya tajribalarida esa nazariy tushunchalarni amaliy qo'llash baholanadi [6].

Muammoni hal qilish mashqlari ularning tanqidiy fikrlash va tahliliy qobiliyatlarini baholaydi, guruh loyihalari esa ularning hamkorlik qilish va samarali muloqot qilish qobiliyatini baholaydi. Og'zaki baholash o'quvchilarga o'z tushunchalarini ifodalash va o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish imkonini beradi, ishlashga asoslangan baholash esa ularning kimyo bilimlarini real senariylarda qo'llash qobiliyatini tekshiradi.

**Xulosa.** Bizning fikrimizcha, talabaning shaxsiy natijalari ustuvor bo'lishi kerak. Agar shunday bo'lsa, unda funksional savodli shaxsni muvaffaqiyatli tarbiyalash uchun ta'limga yangicha baholash metodlarini joriy qilish kerak. Masalan: talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini baholashda erkin ijodiy ish va hamkorlik ishlash qobiliyatlarini ham hisobga olish kerak tadqiqotimiz davomida aniqlandi.

Shuning uchun o'quv va oliy ta'lim jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, talabaga amaliy harakatlar ko'nikmalarini, ya'ni asosiy kompetensiyalarni: tahlil qilish, taqqoslash, asosiy narsani ajratib ko'rsatish, o'z-o'zini etarli darajada ta'minlash qobiliyatini shakllantirish kerak.

Talabalarga hurmat qilish, mustaqil bo'lish, hamkorlik qilish, tashabbus ko'rsatish, muammolarni sezish va ularni hal qilish yo'llarini izlashni o'rgatish kerak.

Inson o'z hayotini bag'ishlaydigan faoliyat sohasidan, shaxs tanlagan o'ziga xos roldan qat'i nazar, agar u mavjud ijtimoiy muhit sharoitida, kundalik hayot sharoitida to'liq

moslashishga qodir bo'lsa, odam yashash uchun qulay bo'ladi. Bu funksional ta'kidlashning ma'nosi - savodxonlik bulib inson hayotning turli sohalarida standart muammolarni hal qilishga tayyorligini anglatadi. Ya'ni: zamonaviy jamiyat sharoitida (eng yaqin ijtimoiy muhit sharoitida) moslashish qobiliyati, ma'lum bir bilim sohasiga qiziqishni shakllantirish, asosiy fan bilimlari va ko'nikmalarining ma'lum bir tizimining ishlab chiqish zarurati anqlandi.

Baholash talabalarning dasturda belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajasini, mehnatsevarlik darajasi va intizom holatini shartli belgilarda, shuningdek, o'qituvchining baholash mulohazalarida aniqlash va ifodalashdir. Baholash o'quv muammolarini

tashxislashning asosiy ko'rsatkichi va fikr-mulohazalarni bildirish vositasi ekanligi tadqiqot davomida aniqlandi.

O'qituvchining yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkich va mezonlarga egalik darajasi uning o'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda kasbiy kompetentlik darajasini baholash imkonini beradi. Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi, avvalam bor o'qituvchining jamiyatda dahldorlik hisi shakllanganligi hamda kommunikativlik, axborot bilan ishlash, o'zini doimiy ravishda rivojlantirish kompetensiyalariga egaligi bilan belgilanganligi mavzuga iod ilmiy risolalarni tahlili davomida aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta'lim. - 2012. - № 4. 8-12 betlar.
2. Mahmudov A.X. Ta'lim tizimida kompetentlik asosida yondashuvning didaktik jihatlari// "O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda innovatsiya texnologiyalarining ahamiyati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Toshkent. - 2012. 44-47 betlar
3. Shernazarov, I., Sapayeva, G., & Smanova, Z. (2023). Using the concepts of analytical chemistry based on the integration of information communication and pedagogical technologies in formation of natural scientific literacy of students. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3), 50-64.
4. Berdikulov, R., Iskanderov, A., Shernazarov, I., Ismailov, S., & Usmanova, Z. (2023). Development of logical picture thinking in teaching chemistry in an innovative educational environment. *Spast Abstracts*, 2(02).
5. Ergashovich, S. I. (2023). Development of Functional Literacy Through Creative Thinking Tasks. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 18, 20-25.
6. Shernazarov, I., Karakhanova, L., Tilyabov, M., Elmuratova, D., & Saidkhanova, N. (2023). Methodology of using international assessment programs in developing the scientific literacy of future teachers. *Spast Abstracts*, 2(02).